



UDK: 37.03

*Fazilat ABDIYEVA,*  
*Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi*  
*E-mail: fazilatabdiyeva771@gmail.com*

*P.f.f.d dotsent M.T.Hamdamova taqrizi asosida*

## FAN VA TABIAT BILAN TANISHTIRISH ORQALI MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARNI INTELLEKTUAL IMKONIYATLARINI RIVOJLANTIRISH MEZONI

Аннотация

Yoshlarga nafas tarbiyasini berishdan maqsad shaxsning didini, go'zallikni his etib doimo unga intilib yashash xislatini tarkib toptirishdir. Chindan ham tabiatni uning go'zal manzaralarini tog'-rog'larni sevmagan undan rohatlanmagan kishi bo'lmas kerak. Gullarning, mevalarning hidi, shakli va rangi, qushlarning sayrashi, ariqlardan suvlarning shildirab oqishi, oyoq ostidagi qorning g'ijirlashi - bularning barchasi balalarda tabiatdagi narsa va hodisalarni his qilishga imkon beradi va ularda estetik hissiyotni tarbiyalash va o'stirish uchun boy material bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki, yosh bolalar chiroyli, yorqin, rang, predmetlarni yaxshi ko'radilar. Go'zallik havas, qiziqish har bir bola ongida mavjud. Biz bola ongidagi fikridagi ana shu qiziqishni rivojlantirishimiz zarur. Bunda asosiy vosita rolini tabiat o'ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiat vositasida nafas tarbiyasini istagan faslda amalga oshirish mumkin.

**Kalit so'zlar:** Tabiat, manzara, bola, hodisa, estetika, tarbiya, predmet, tafakkur, intellekt.

## КРИТЕРИЙ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА ЧЕРЕЗ ПРИОБЩЕНИЕ К НАУКЕ И ПРИРОДЕ

Аннотация

Цель воспитания утонченности молодежи состоит в том, чтобы сформировать вкус человека, чувство красоты и стремление к ней. Наверное, не тот, кто по-настоящему не любит природу с ее живописными пейзажами и горными хребтами. Запах, форма и окраска цветов, плодов, щебетание птиц, шуршание вод из ручьев, скрип снега под ногами - все это позволяет малышам почувствовать предметы и явления природы и служит богатым материалом для воспитания и развития у них эстетического чувства. Известно, что маленькие дети любят красивые, яркие, цветные, предметы. Красота присутствует в сознании каждого ребенка. Нам больно развивать это любопытство в мышлении ребенка. Главную роль в этом играет природа. Воспитание утонченности дошкольников средствами природы можно проводить в любое время года.

**Ключевые слова:** Природа, пейзаж, ребенок, явление, эстетика, воспитание, предмет, мышление, интеллект.

## CRITERIA FOR THE DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL CAPABILITIES OF PRESCHOOL CHILDREN BY INTRODUCING THEM TO SCIENCE AND NATURE

Annotation

The purpose of educating young people with elegance is to create a sense of taste and beauty of the individual and the property of living in constant pursuit of him. There must be no one who really does not enjoy nature from her, who does not love her beautiful landscapes with mountains. The smell, shape and color of flowers, fruits, the singing of birds, the rustling of waters from ditches, the rustling of snow under the feet - all this allows you to feel things and phenomena in nature in the Balas and serves as a rich material for nurturing and growing an aesthetic sensation in them. As you know, young children love beautiful, bright, color, subjects. Beauty is present in the mind of every child who is obsessed, interested. It is hurt that we develop this interest in the mind of the child. Nature plays the main motor role in this. It is possible to carry out the education of children of preschool age by nature in the desired season of elegance.

**Key words:** Nature, landscape, child, phenomenon, aesthetics, upbringing, subject, thinking, intellect.

**Kirish.** Maktabgacha yoshdagi bolalarga mehnat tarbiyasini berish ularni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash mehnatga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, kattalar yaratgan mehnat mahsulini e'zozlash, uning qadriga yetish ruhida tarbiyalashni bolalik davridan boshlashi lozim. Bolalarning mehnat tarbiyasi burchagida gulzorda, o'simliklar va hayvonlarni parvarishlash jarayonida amalga oshiriladi. Mehnat tarbiyasi har bir guruhning yosh xususiyatini hisobga olgan holda amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalda bo'lgan tayanch dasturda belgilangan ekologik ta'limga oid mavzular va amaliy mashg'ulotlarni to'laqonli tashkil etish maqsadida "Ekolog bolajon" dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, "Ilk qadam" davlat dasturida ham maktabgacha ta'lim tashkilotlarida

bolalar uchun fan va tabiat (ekologiya) markazlarida o'rta, katta va maktabgacha tayyorlov guruhlar uchun jonsiz tabiat (o'simliklar dunyosi), jonli tabiat (hayvonot dunyosi) hamda sayrda bo'lib o'tadigan jonsiz va jonli tabiat tushunchalarini uyg'otishga yo'naltirilgan holda mashg'ulotlar olib borilmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'rta asrlarda tabiat haqidagi tushunchalar Evropa mamlakatlarida deyarli rivojlanmadi- G'arbiy. Yevropada fan tushkunlikka tushgan bir davrda O'rta Osiyo olimlari uni rivojlantirdilar. O'rta yerlarda O'rta Osiyo olimlari hali ekologiya fani umuman yo'q bo'lgan davrda tabiat, undagi muvozanat, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlarni aytganlar. Buyuk alloma, ensiklopedik olim bobokalonimiz Muhammad al-Xorazmiy (783-847) bir risolasida shunday yozadi: "Bilginki, dunyoning

ko'zlari yoshlansa. uning boshiga g'am kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig tutmang". Demak tabiat va uning mahsuli inson uchun ekan, undan oqilona va odilona foydalanish kerak. Yerga, suvga, hayvonlarga bo'lgan munosabatlarimizni yaxshilashimiz bilangina ona tabiatimizni asrab qolishimiz mumkin. Hayvonlar na'rasiga to'la urmonlarni, parranda-yu darrandalar makoni to'qayzorlarni zilo ko'llarni va o'tloqlarni qayta tiklashning imkoni bor.

O'rta asrlarda Urta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muxammad Muso al - Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino va boshqalar tabiat fanining rivojlanishiga ulkan hissa qushganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simliklar va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar. Mana shunday zabardast buyuk allomalimizdan Muhammad Muso al-Xorazmiy, o'zining "Kitob surat al - arz" asarini Abu Nasr Farobiy (870-810) "al - hajmi va al - mikdor", "Kitob almabodi al - insonia" aerlarini Abu Rayhon Beruniy "Saydana", "Minerologiya" aerlarini Abu Ali ibn Sino, u "Kitob al - shifo", "Tadbir ul - manzil" kabi asarlari'ish yozganlar.

Bolalar bog'chasida jonli tabiat burchagining bo'lishi bolalarni tabiat bilan ko'rgazmali va amaliy tanishtirishning zarur sharoitlardan biridir. Bolalarning ekskursiya yoki uy sharoitidagi kuzatishlari qisqa muddatlidir. Tabiat burchagida esa, bolalar yil bo'yi hayvon va o'simliklar oldiga kelishlari va o'simliklarni tarbiyachining topshirig'i asosida uzoq muddat kuzatishlar mumkin. Bu esa bolalar uchun laboratoriya vazifasini o'taydi. Tabiat burchagining ta'limiy ahamiyati shundaki, bolalar o'simliklarning nomlari, qismlari, rivojlanish jarayonlarini kuzatadilar. Ularning issiqlikka, yorug'likka, suvga bo'lgan talab jarayonlarini o'rganadilar. O'simlikni parvarish qilish uchun sarflanadigan mehnat turi bilan tanishadilar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Kichik guruhda mehnat tarbiyasini berishda bolalar tarbiyachi bilan birga xonadagi o'simliklarga.suv qo'yadilar, akvariumdagi baliqlarga ovqat beradilar, qushlarga don tashlaydilar, bog'cha hovlisidagi poliz ekinlarini yig'ib-terib olishda ishtirok etadilar. O'rta guruhda mehnat tarbiyasi bir oz murakkablashadi, bog'cha maydonchasidagi o'simliklarni o'zlari parvarish qiladilar. Tabiat burchagidagi hayvonlarni o'zlari ovqatlantiradilar, parvarishlaydilar. Katta tayyorlov guruhlarda amalga oshiriladigan mehnat tarbiyasi ham bir muncha o'ziga xosligi, murakkabligi bilan ajralib turadi. Bolalarning o'simliklarga bo'lgan munosabati, mehnat qilishlari jonli tabiatga, Vatanga bo'lgan muhabbatni yanada oshiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish ularga jonsiz va tirik tabiatning obyektlari, hodisalari haqida ma'lum miqdordagi bilimlarni berishni o'z ichiga oladi, ularni o'zlashtirish jarayonida bolalarning bilim qobiliyatlarini shakllanadi va tabiatga to'g'ri munosabatda bo'ladi. Har bir yosh guruhida bolalarni tabiat bilan tanishtirish uchun ma'lum dasturiy vazifalar amalga oshiriladi. Ular bola tomonidan tabiiy tarix bilimlarini bosqichma-bosqich o'zlashtirishni ta'minlaydi. Hayotning 2 va 3 yoshidagi bolalar o'simliklar, hayvonlar, jonsiz tabiat hodisalari bilan tanishadilar, ularni kosmosda ajratib olishga, o'simliklarning ba'zi belgilarini (barglarning, gullarning rangi), harakatlari va ovozlari ajratish va to'g'ri nomlashga o'rgatiladi. hayvonlarning birlamchi vizual aloqalari va umumlashmalariga olib keladi (baliq suvda suzadi). Shu bilan birga, bolalar analizatorlarni (ko'rish, eshitish va boshqalar) takomillashtiradilar, kuzatilgan obyektlarga e'tibor va qiziqishni rivojlantiradilar, shakllanadilar, do'stona munosabat ularga. Hayotning 4 yoshidagi bolalarda ular hayotda doimo duch keladigan tabiat obyektlari va hodisalari haqida g'oyalarni shakllantiradilar, ularni shunday aloqalarni

o'rnatishga olib boradilarki, bolalar sinfda, maktabda obyekt-sezgi faoliyati jarayonida o'rganishlari mumkin. o'yin va ularni aniq tasavvurlar shaklida aks ettiradi. Bolalarni kuzatish, o'simliklar, hayvonlarning individual belgilarini ajratib ko'rsatish, hissiy me'yorlar (rang, shakl, o'lcham) yordamida aniqlash, obyektlarni solishtirish va ularni guruhlash uchun o'rgatiladi. tashqi belgilar. Bilimlarni o'zlashtirish jarayonida ular kognitiv faoliyatning yuqori shakllarini shakllantiradilar: uch yoshdan boshlab vizual-majoziy bilish darajasidan to'rt yoshgacha bo'lgan bolalar sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatishga yaqinlasha oladilar. Besh yoshga kelib, bolalar rivojlanadi eng yuqori shakli vizual-majoziy fikrlash. Ular umumlashtirilgan bilimlarni o'zlashtira oladilar, bu esa tabiatda uchraydigan qonuniyatlarni aks ettiruvchi o'z g'oyalarning paydo bo'lishiga yordam beradi. Bolalar o'simliklar va hayvonlarning tuzilishining xarakterli xususiyatlarini aniqlashga va ularning yashash sharoitlariga bog'liqligini aniqlashga o'rgatiladi.

Ekologik ta'lim-tarbiya tizimi asoslariga tabiat yaxlitligi hamda atrof muhitning inson tomonidan o'zgartirilishi haqidagi tasavvurlar qo'yilgan. Bunda tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni oliy o'quv yurtlarida hozirgi zamon ommaviy axborot vositalaridagi uzluksiz jarayon sifatida qaraladi. U umumiy vazifalar bilan uyg'unlashadi hamda mutaxassislik tayyorgarligi bilan bog'liq holda tabaqalashtiriladi. Uning umumiy nazariy ko'rsatmalari o'quv rejasining turli qismlarida aks etgan bo'lib, ma'ruza matnlari, elektron darsliklar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mazmunida o'z ifodasini topadi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning jarayoni har tomonlama rivojlangan shaxs ma'naviy qiyofasini kamol topish jarayonining muhim va tarkibiy qismidir. U Bolalarda milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida tabiatga ongli munosabat, tabiat xazinalarini saqlash va ko'paytirishga oid mas'uliyat tuyg'usi, ekologik muammolarni amaliy hal qilishdagi ko'nikmalarning rivojlantirilishini o'zida qamrab oladi.

Sayyoramizda jumladan, respublika hududida vujudga kelgan ekologik vaziyat ta'lim-tarbiya tizimi oldiga quyidagilarni hal etishni muhim vazifa etib qo'yadi, ular:

-Bolalarning tabiatga ongli munosabatlari, tabiat komponentlarini yaxlitlikda va o'zaro aloqadiligini his etish;

-Tabiatning bolalar ekologik madaniyatini belgilab beradigan vosita sifatida namoyon bo'lishi;

-Atrof muhitga munosabatni ma'naviy madaniyatning ajralmas qismi ekanligini anglash;

-Tabiat talabani ekologik madaniyatini shakllantirishi uchun asosiy omil ekanligini tushunish;

-Atrof muhitga nisbatan bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirish;

-Bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonida atrof muhitni muhofaza qilishni ekologik qadriyat sifatida anglab yetishlariga ilmiy-amaliy jihatdan sharoit yaratish;

-Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirishning maqsad va vazifalarini aniq belgilab olish, uning amaliyotga yo'naltirilganligini tushunish;

-Ekologik muammoga umummilliy, umuminsoniy, ijtimoiy muammo sifatida yondashish kabilar.

**Tahlil va natijalar.** Shular asosida talabani ekologik madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimini didaktik jihatdan ta'minlanishiga erishamiz. Buning uchun ekologiyaga oid o'quv materiallarini tanlash, tabiatni muhofaza qilishga oid faoliyat turlari va ular mohiyatini bolalar ongiga singdirish, insonning tabiat hodisalarini anglashi, mazkur hodisalarning hayotiyiligi, mukammalligini tushunish lozimligining ustuvorligini anglashi zarur.

Bizning fikrimizcha bolalarga o'rgatiladigan ekologik bilim mazmuni o'z ichiga quyidagilarni qamrab olishi lozim:

-Bolalar ongida olamning ilmiy manzarasini shakllantirish;

-Tabiat va jamiyat o'rtasidagi ma'lum bo'lgan ekologik bilimlar ahamiyatini ilmiy-amaliy jihatdan yoritib berish;

-Bolalar tomonidan ekologik qonuniyatlarning o'zlashtirilishiga erishish;

-Tabiatda sodir bo'ladigan turli xildagi fojialarni anglash, ularning mohiyatini bilib olish, ekologiyaga oid ta'lim vazifalarini ifodalash, kuzatish va tajribalarni rejalashtirish hamda amalga oshirish, ekologiyaga oid nazariy-amaliy g'oyalarni oydinlashtira olish, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalana olish malakalarini hosil qilish;

-Tabiatga qadriyat sifatida qarash tuyg'usini uyg'otish va madaniyatini shakllantirish, tabiatni muhofaza qilish va uning boyliklaridan unumli foydalanishni takomillashtirish;

-Respublika hududidagi biologik xilma-xillikni bilishga imkon beradigan nazariya va g'oyalarni o'rganishni tashkil etish;

-Ekologiya sohasidagi muayyan bilimlar hajmini, tasavvur va tushunchalar doirasini ilmiy-amaliy jihatdan ishlab chiqish;

-Atrof muhitni muhofaza qilish, uning zahiralardan unumli foydalanishga o'rgatish;

-Bolalarni atrof muhit bilan muloqot davrida ekologik amaliyotni kengaytirish, ularda atrof muhitga nisbatan faol ta'sir etuvchi ekologik munosabatni tarkib toptirish.

Ekologik ta'lim mazmuni: psixologik, pedagogik, shaxs faoliyatiga yo'naltirilgan omillarga tayanadi:

-Tabiatga nisbatan ekologik ongli munosabatda bo'lish zaruriyatini anglab yetish;

-O'z faoliyatlarining ekologik oqibatlarini oldindan his eta olish;

tabiat bag'rida yashash, rivojlanish va milliy boylik ekanligini his qila bilish; -atrof muhit bilan muloqotlarning turini tanlashga oid xulosalar chiqarishda tabiiy-ilmiy, texnik va gumanitar bilimlarga tayanish;

-Tabiat bilan muloqotda bo'lganda milliy tarixiy taraqqiyotga, umuminsoniy qadriyatlarga tayanish zarur.

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, bolalar ekologik madaniyatini shakllantirish uchun ular ekologiyaga oid quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim:

-Ekologik muammolarning paydo bo'lish sababini ilmiy-amaliy jihatdan aniqlay olish;

-Tasodifan hosil bo'ladigan antropogen omillar holatini hamda uning salbiy oqibatlarini anglash va undan himoyalanih;

-Tabiat zahiralardan foydalanishga oid amaliy, aniq ma'lumotlarni olish, tahlil qilish va undan xulosa chiqarish;

-Ekologiyaga oid oddiy Bitiruv malakaviy ish ishlarini o'tkaza olish, olingan natijalarni tahlil etib, xulosa chiqarish;

-Ekologiyaga oid tajribalar olib borish;

-Mahalliy, hududiy, umumbashariy ekologik muammolarni ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish, tahlil etish va bartaraf qilishda faollik ko'rsata olishlardir.

Maktabgacha tarbiyachilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishda alohida o'ringa o'qitish vositasi bo'lgan bolalarning didaktik o'yinlari kiradi va bolalarga bilim olish va ularni mustahkamlashda yordam beradi, shuningdek, bilim faoliyati metodlarini o'rganish uchun yordam beradi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ta'lim faoliyatiga qiziqishi ortib borayotgan didaktik o'yin tufayli, tasniflashni, taqqoslashni va umumlashtirishni o'rganadi. Kichik bolalarni aqliy rivojlanishi nafaqat bilimlarni egallash va mustahkamlash, balki maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash faoliyatini faollashtirishga ham yordam berishi kerak.

#### ADABIYOTLAR

1. Тўхтаев А., Хамидов А. Экология. Т.. "Ўқитувчи", 1994-йил.
2. Самарукова П.Г. Мактабгача тарбия ёшдаги болаларни табиат билан таништириш. Т., "Ўқитувчи", 1984-йил.
3. Виноградова Н.Ф. Умственное воспитание детей в процессе ознакомления с природой. М. "Просвещение". 1982 г.
4. Ёзиева У., Абдиева Ф. Мактабгача таълим ташкилоти самарадорлигини оширишда ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш муаммолари Общество и инновации 2 (11/С), 111-114.
5. Абдиева Ф. Мактабгача Таълим Ташкилоти Директорларининг Бошқарув Маданиятини Такомиллаштириш Сиенсе анд инноватион 1 (Б8), 2154-2156.
6. Абдиева ФФ кизи Мактабгача Таълим Ташкилоти Рахбарининг Бошқарув Маданиятини Инноватион Ёндашувлар Асосида Ривожлантириш Механизмлари интернационал конференс 1 (2), 397-400.
7. Акрамова Д. (2022). Олий та'лим муассалари talabalarida pedagogik-psixologik moslashuvchanlikni mazmun mohiyati. Science and innovation, 1(Б8), 2150-2153.
8. Ergashevna A.D. (2023). Talabalarda pedagogik-psixologik moslashuvchanlik mexanizmlarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish bugungi muammo sifatida. Pedagog's journali, 26(1), 13-17.



УДК: 574: 17 (575.1)

**Зарина АБДУАЗИМОВА,**

Доктор философских наук (PhD) и. о. доцент Национального Университета Узбекистана

E-mail: zar.1986@mail.ru.

По отзыву Л.Р. Усмоновой, доцента СамГМУ

### ДИЛЕММА: ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО И АНТРОПОЦЕНТРИЗМ

Аннотация

В статье рассмотрены вопросы, затрагивающие такие характеристики социально-правового состояния, как «экологии» и «антропоцентризма». Автором определяются факторы их влияния на общее социальное устройство государства в качестве приоритетных направлений современного развития. Кроме того, автор делает акцент на том, что указанные понятия устойчиво используются законодателем для определения некоторых целей государственной и социальной политики, так как служат выражением взглядов отдельных социальных групп и отражают некоторые аспекты формирования общества.

**Ключевые слова:** Общество, государство, право, экология, антропоцентризм, регулирование, законодательство, социальная политика, духовные ценности, традиционность, безопасность, национальное единство.

### DILEMA: ECOLOGICAL AND ANTHROPOCENTRISM

Annotation

The article deals with issues affecting such characteristics of the socio-legal state as "ecology" and "anthropocentrism". The author defines the factors of their influence on the general social structure of the state as priority areas of modern development. In addition, the author emphasizes that these concepts are consistently used by the legislator to determine certain goals of state and social policy, as they serve as an expression of the views of certain social groups and reflect some aspects of the formation of society.

**Key words:** Society, state, law, ecology, anthropocentrism, regulation, legislation, social policy, spiritual values, tradition, security, national unity.

### DILEMA: EKOLOGIK VA ANTROPOTEENTRIZM

Annotatsiya

Maqolada ijtimoiy-huquqiy davlatning "ekologiya" va "antropotsentrizm" kabi xususiyatlariga ta'sir qiluvchi masalalar ko'rib chiqiladi. Muallif ularning davlatning umumiy ijtimoiy tuzilishiga ta'sir etuvchi omillarini zamonaviy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilaydi. Bundan tashqari, muallif bu tushunchalar qonun chiqaruvchi tomonidan davlat va ijtimoiy siyosatning muayyan maqsadlarini belgilashda izchil foydalanilishini, chunki ular muayyan ijtimoiy guruhlar qarashlarining ifodasi bo'lib xizmat qilishini va jamiyat shakllanishining ayrim jihatlarini aks ettirishini ta'kidlaydi.

**Kalit so'zlar:** Jamiyat, davlat, huquq, ekologiya, antropotsentrizm, tartibga solish, qonunchilik, ijtimoiy siyosat, ma'naviy qadriyatlar, an'ana, xavfsizlik, milliy birlik.

**Введение.** Природная среда, точнее окружающая среда, служит условием и средством жизни человека, территорией, на которой он проживает, пространственным пределом осуществляемой государственной власти, местом размещения промышленных объектов, объектов сельского хозяйства и т.д. Исторически получили развитие две формы взаимодействия общества и природы. Первая форма – потребление природы человеком, использование природы для удовлетворения человеком своих материальных и духовных благ-потребностей. Эта форма может называться экономической формой взаимодействия. Второй формой взаимодействия стала охрана окружающей среды с целью сохранения человека как биологического и социального организма и его естественной среды обитания. Эта форма получила название экологической формы взаимодействия. Отсюда можно сделать вывод, что человеческая деятельность оказывает существенное влияние на окружающую среду, подвергая ее изменениям, которые затем влияют на самого человека. В связи с развитием человеческого

общества, государственности, именно государственности, государство возложило на себя обязанность регулирования потребления природных ресурсов и их охраны.

Для экологического мировоззрения «основные слагаемые нашего мира» – это общество и природа, человек или социальная система и среда обитания. По форме экологическое мировоззрение выражает практически-духовное отношение, и при этом практика понимается в предметном значении – как изменение тех или иных вещей, и в нравственном смысле. Это как совершение поступков[1]. На протяжении всей своей истории человечество активно занималось экспериментами по улучшению и изменению живого вещества, то есть, совокупности всего живого включая и самого человека. Однако его разум был в полной мере использован не для восхождения к более высокому уровню взаимодействия с живой природой, когда приоритетными становятся интересы живого в целом сохранения природных богатств и выживания самого человечества. Преодоление человеком собственной

природности отрыв от естественного состояния и стремление к искусственным структурам нашли отражение в синдроме разрушительности. Преимущественно, в процессе возникая, такие вопросы как дилемма экологического право и антропоцентризма.

**Литературный обзор.** Антропоцентристской установке чуждо масштабное социальное проектирование и жесткие социальные технологии, подчиняющие интересы личности логике проекта и превращающие человека в «винтик» государственной машины. Антропоцентризм содержит в себе требование соразмерности социальных преобразований человеку и очерчивает пределы вмешательства власти в человеческую повседневность. Что касается марксизма, то он унаследовал просветительский взгляд на человека как на продукт обстоятельств и воспитания и определял сущность человека как комплекс социальных отношений. И хотя деятельности подход, реализованный в понятии общественной практики, и претендует на снятие дилеммы антропоцентризма и социоцентризма, марксизм в целом явно тяготеет к последнему. Отход К. Маркса от антропоцентризма, заявленного в «Экономическо-философских рукописях 1844 г.» и «Манифесте Коммунистической партии» («свободное развитие каждого есть условие свободного развития всех»), отчетливо виден в его концепции формационного развития общества как естественноисторического процесса, в рамках которого человек представляет собой «личный элемент производительных сил». Русские марксисты, напр., Г.В.Плеханов, явно тяготели к социоцентризму в решении вопроса о роли личности в истории. В классической социологии основная позиция антропоцентризма отчетливо выражена Г. Спенсером, полагавшим, что «каждое социальное явление должно иметь своим источником известные индивидуумов», а потому «тип общества определяется природой составляющих его единиц». Развернутую социологическую интерпретацию антропоцентризм обрел в «понимающей социологии» Вебера. Веберовский постулат субъективной интерпретации гласит: ничто не может быть понято лучше, чем индивидуальное осмысленное действие. Понять социальное явление — значит свести его к субъективным смыслам действующих индивидов — конечному пункту теоретического анализа любых социальных процессов. В социологии антропоцентризм противопоставлен структурному функционализму, сторонники которого акцентировали внимание на детерминирующем воздействии социальных структур. Наследующая же веберовские традиции феноменологическая социология выступала против ратификации социальных структур и трактовала их как набор социально одобренных образцов человеческого поведения. Не отрицая структурирующего воздействия социальных институтов на человеческую деятельность, она исследовала систему высоко сложных типизаций, аккумулирующих опыт индивидуального «усвоения» подобных образцов в исполнении социальных ролей (интериоризация). Социологический постмодернизм ликвидировал противопоставление человека и продуктов его творческой активности, радикализовав структуралистские идеи «смерти субъекта» (М.Фуко), растворения автора в тексте (Р.Барт). Современной социологии свойственны попытки снятия дилеммы антропо и социоцентризма с помощью понятия габитуса как инкорпорированной социальности (П. Бурдьё). Но в отличие от традиционных обществ, габитус современного человека, вовлеченного во множество изменчивых личных и анонимных социальных связей, не может считаться социальным инвариантом, а концепция

габитуса — окончательным снятием дилеммы антропоцентризма и социоцентризма [2].

**Методология исследования.** Метод экологического права как метод правового регулирования общественных отношений в данной области носит в мере второстепенный характер, поскольку формы и сам характер правового воздействия определяются сущностью регулируемых отношений. Это, конечно, не отрицает классификационного значения метода правового регулирования. Однако по сравнению с предметом правового регулирования он носит второстепенный, вспомогательный характер. Вопрос о методе правового регулирования и его роли в формировании и характеристике той или иной отрасли права является в настоящее время дискуссионным. Нередко в это понятие вкладывается различное содержание. Но преобладающим, по-видимому, можно считать мнение, что праву присущи три основных метода правового регулирования: запрет, предписание и дозволение. Отсутствие у многих отраслей права, в том числе и экологического, своего метода вовсе не исключает существования определенных особенностей правового регулирования, присущих той или иной отрасли права[3]. Такие особенности состоят, как правило, в специфическом сочетании различных методов, характерном именно для данной отрасли права. Индивидуализация способов правового воздействия на регулируемые отношения по отдельным отраслям права делает его непохожим на другие отрасли права. Для экологического права характерно преобладание административно-правового метода воздействия на регулируемые отношения, характерными чертами которого являются не отношения юридического равенства сторон, свойственные гражданско-правовому методу, а отношения власти и подчинения. Властными полномочиями обладают природоохранительные органы, стоящие на страже интересов общества и гражданина. Дилемма экологическое право и антропоцентризма заключается в том, что положения этих двух направлений раскрывают особенности правового и идентичного воспроизведения. Давайте определим значимость антропоцентризма. В социальном познании антропоцентризм противопоставлен социоцентризму, или социологизму. В концепциях антропоцентристского направления подчеркивается самостоятельность индивида как субъекта свободного выбора и ответственного поступка. В политике принцип антропоцентризма реализован в либерализме, признающем приоритет интересов личности перед интересами любых сообществ и неотчуждаемость ее естественных прав. Методологически антропоцентризм противопоставит натуралистическому детерминизму и историзму, означая приоритет целеполагающей человеческой деятельности перед социальными структурами и «законами исторической необходимости».

Исторически антропоцентризм появился задолго до своего рационального осознания и теоретико-публичного выражения в соответствующих трактатах. Фактические примеры организации социума на основе принципов антропоцентризма впервые обнаруживаются с возникновением государства и политики, как формы управления развитием общества с помощью организованного насилия. Первоначальные проявления антропоцентризма были эпизодическими вкраплениями на фоне традиционно-общинного уклада жизни и выражали зарождающиеся интенции индивидуализма и своеволия немногих избранных. С накоплением общественного богатства и повышением производительности общественного труда появляется возможность и необходимость разрыва с традицией и

самостоятельной индивидуальной организацией собственной жизни для всех членов общества.

**Анализ и результаты.** Содержание экологических правоотношений — это субъективные права и обязанности, т.е. права и обязанности, принадлежащие субъектам в каждом конкретном экологическом правоотношении. Эти права и обязанности зависят от категорий субъектов указанных правоотношений, целей, видов и характера природопользования или природоохранных работ и мероприятий. Антропоцентризм, утверждая, самоценность человека провозглашает, его центром мироздания хозяином природы считает человека причиной существования природы и мира в целом мерой всех вещей и ценностей. Таким образом, антропоцентризм противопоставляет человека природе как цель средству. Такой процесс выявления противоречий привел общественные объединения в соединении сфере охраны окружающей природной среды. Роль общественных экологических объединений в правовой охране окружающей природной среды определяется как собственной активностью, так и совокупностью правомочий, которыми они наделены. Общественные экологические объединения как субъекты правовой охраны окружающей среды должны обладать объемом полномочий, достаточным для того, чтобы эффективно противостоять нарушению или невыполнению экологического законодательства со стороны природопользователей и государственных органов. Эффективность реализации задач и функций общественных экологических объединений зависит от полноты предоставляемых им полномочий, а также от закрепления в законодательстве гарантий их реализации. Большинство прав, которыми обладают общественные экологические объединения, декларативны и не содержат таких гарантий. При размещении объектов, хозяйственная и иная деятельность которых может причинить вред окружающей среде, решение об их размещении принимается с учетом мнения населения или результатов референдума. Должностные лица, препятствующие

гражданам, общественным объединениям в осуществлении деятельности в области охраны окружающей среды, реализации их прав, привлекаются к ответственности в установленном порядке. Теперь задаётся вопрос, что наиболее важнее для общества, экологическое право или антропоцентризм которые в реализации установок будет, ли подчинятся определениям. Результаты показывают, что в обществе необходима, определить значимость деятельности человека по отношению к окружающей среде как субъект эффективности реализации экологического правового или экологическо - этического аспекта.

**Заключения.** Подводя итог экологическое право, экологическое правоотношение обычно возникает, изменяется и прекращается на основании не одного, а совокупности юридических фактов, образующих фактические составы. При этом для каждого вида природных объектов и комплексов характерны свои фактические составы и антропоцентризм, который утверждает объективности и ценности самобытности человека. Традиционно-общинный уклад взаимодействий этих двух стихий являются дилеммой. Так как, сами по себе противоречивы друг другу. Среди экологических прав граждан важное значение, имеет право охрана здоровья от неблагоприятного воздействия окружающей среды и других фактов. Законодательство, является как особый элемент взаимосвязей, людей и, несомненно, оно относится к числу важнейших субъективных прав граждан. Таким образом, можно определить что, особенно важно осмысляет ценности природы и прав людей как диалектику взаимоотношений между этими процессами. Можно сделать вывод: природный объект как составная часть окружающей среды, охраняемый действующим законодательством, обладает признаками естественного происхождения, состоит в экологической цепи природных систем, способствует выполнению экологических, экономических, культурных и оздоровительных функций и обеспечивает качество среды обитания человека.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Фалько В.И., зав. каф. Философии МГУЛ, проф., канд. филос. Наук. Лесной вестник 5/2013 с.58.
2. Смирнова Н.М.. <https://iphlib.ru/greenstone3/library>.
3. Саркисов О.Р., Любарский Е.Л. Экологическое право. Учебное пособие для студентов учреждений высшего профессионального образования. 2014 г.
4. Воеводин А.П. Нравственная нищета антропоцентризма. Ученые записки Таврического национального университета им. Вернадского В.И. Серия «Философия. Культурология. Политология. Социология». Том 24 (65), 2013. № 3, с. 80–87.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/idei-gumanistov-epohi-voztrozhdeniya-ostalis-v-proshlom>.
6. Соколова Р.И. Человеческий фактор - неучтенный элемент российского государства. Философские науки — 5/2009.
7. Бахтигулова Л.Б. Ценностная ориентация в системе «Общество – природа» как условие становления экологической компетентности студента технического вуза.
8. Бахтигулова Л.Б., Петухова И.В. // Вестник МГУЛ – Лесной вестник. 2006. № 7 (49).– С. 139–141.
9. Мишаткина Т.В. Этика / Мишаткина Т.В. Минск: Новое знание, 2008.– 192 с. 4.



UDK:91(515.1)

*Dilnoza ABDULLAYEVA,*  
TDPU dotsenti v/b., p.f.f.d. (PhD)  
E-mail: [dilnozaabdullayeva699@gmail.com](mailto:dilnozaabdullayeva699@gmail.com)

*P.f.f.d (PhD) D.O‘.Qarshiyeva taqrizi ostida*

### GEOECOLOGICAL CULTURE PARADIGM: SCIENTIFIC INTERPRETATION, A NEW VECTOR OF DEVELOPMENT

Annotation

The article is devoted to the scientific interpretation of the paradigm of geoecological culture, which is now included in the sphere of scientific research, and the illumination of a new vector of its development. It examines the transformational directions of ecological culture in geoecological culture in connection with integrative processes. According to the author, geoecological culture is a social phenomenon that arises at the demand of time and is in harmony with the content of human efforts aimed at preventing, eliminating environmental threats and reducing the level of general environmental risks. The research examines the available scientific literature and sources from a critical and analytical point of view, summarizes important scientific conclusions about the formation of geoecological culture.

**Key words:** Ecological education, ecological culture, geoecological culture, ecological problem, sustainable development.

### ПАРАДИГМА ГЕОЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ: НАУЧНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ, НОВЫЙ ВЕКТОР РАЗВИТИЯ

Аннотация

Статья посвящена научной интерпретации парадигмы геоэкологической культуры, входящей сегодня в сферу научных исследований, и освещению нового вектора ее развития. В ней рассматриваются трансформационные направления экологической культуры в геоэкологическую культуру в связи с интегративными процессами. По мнению автора, геоэкологическая культура – это социальное явление, возникающее по требованию времени и гармонирующее с содержанием усилий человечества, направленных на предупреждение, устранение экологических угроз и снижение уровня общих экологических рисков. В ходе исследования с критико-аналитической точки зрения рассматривается имеющаяся научная литература и источники, обобщаются важные научные выводы о формировании геоэкологической культуры.

**Ключевые слова:** Экологическое образование, экологическая культура, геоэкологическая культура, экологическая проблема, устойчивое развитие.

### GEOEKOLOGIK MADANIYAT PARADIGMASI: ILMIY TALQIN, RIVOJLANISHNING YANGI VEKTORI

Annotatsiya

Maqola bugungi ilmiy tadqiqotlar maydoniga kirib kelayotgan geoeologik madaniyat paradigmasining ilmiy talqini va uning yangi rivojlanish vektorini yoritishga bag‘ishlangan. Unda ekologik madaniyatning integrativ jarayonlar bois geoeologik madaniyatga transformatsion yo‘nalishlari ko‘rib chiqilgan. Muallifning fikriga ko‘ra, geoeologik madaniyat zamon taqozosi yuzasidan paydo bo‘lib, insoniyatning ekologik tahdidlarni oldini olish, bartaraf etish va umumiy ekologik xavflar darajasini kamaytirishga yo‘naltirilgan sa‘y-harakatlarining mazmuniga hamohang ijtimoiy hodisadir. Tadqiqot jarayonida mavjud ilmiy adabiyotlar va manbalar tanqidiy-tahliliy nuqtai nazardan ko‘rib chiqilib, geoeologik madaniyatni shakllantirish bo‘yicha muhim ilmiy xulosalar umumlashtirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ekologik ta‘lim, ekologik madaniyat, geoeologik madaniyat, ekologik muammo, barqaror rivojlanish.

**Kirish.** Jamiyatning hayotiy ma‘nolari va qadriyatlarining texnokratik va ekologik o‘zgarishini belgilaydigan madaniyatning "ekologizatsiyasi" tendensiyalari ta‘limda o‘z aksini topishi ijtimoiy-tarixiy zarurat bo‘lib, ekologik madaniyat ilmiy muammo sifatida ijtimoiy-gumanitar ahamiyat kasb etib, vujudga keldi. Natijda, aynan, jamiyatda shakllanadigan va madaniyat turiga to‘liq mos keladigan, bugungi sivilizatsiyaning savollariga javob berishi kerak bo‘lgan, ekologik madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim tadrijiy ravishda barqaror rivojlanishga o‘tishni ta‘minlaydigan eng muhim vositalardan biriga aylanmoqda. Ekologik madaniyatning ijtimoiy zarurati oshgan sari, u fanning ko‘p tarmoqlariga singdirilmoqda. Geoeologik madaniyatning paydo bo‘lishi, uning ilmiy izlanishlar mavzusiga aylanishi ham insoniyatning ekologik muammolarni oldini olish, ularni bartaraf etish va xavfini

kamaytirish yo‘lidagi sa‘y-harakatlari natijasidir. Darhaqiqat, har qanday talqinda ekologiya faqat ma‘lum bir geografik muhitda yashash sharoitlari nuqtai nazaridan muhokama qilinishi mumkin. Jamiyat va tabiiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish zamonaviy geografiya fani tadqiqotlarining asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Geografik va ekologik ta‘limning maqsad va vazifalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir.

Ekologik madaniyatning ta‘lim makoniga umuminsoniy madaniyatning yangi sifati mazmunida kirib kelishi, aslida, ekologik ta‘lim bilan bog‘liq bo‘lib, u inson tomonidan ekologik madaniyatni meros qilib olish va kengaytirish jarayonining muhim qismiga aylandi. Ushbu jarayon o‘zining tarixiy bosqichlari hamda ularning har biri ekologik madaniyatni shakllantirishning o‘ziga xos sifat xususiyatlariga ega. Shuning uchun, ekologik ta‘limning

rivojlanish tendensiyalarini o'rganish asosida, geografiya fanining ekologik muammolar tarkibidagi unsurlar bilan nechog'liq bog'liqligiga oydinlik kiritib, maktab ta'limida geoeologik paradigmaning shakllanishi, uning ilmiy doiralardagi talqini hamda rivojlanish yo'nalishlarini yoritish uchun zamin yaratiladi.

Ma'lumki, ekologik ta'lim pedagogik nazariya va amaliyotning yangi sohasi sifatida o'tgan asrning ikkinchi yarmida ilmiy doiralarda paydo bo'ldi. Dastlab u tabiatni muhofaza qilish ma'rifatining xususiyatiga ega bo'lib, avvalo, tabiatni muhofaza qilish hamda fan va jamiyatdagi tabiiy boyliklarni ko'paytirish muammolarini ilmiy tushunish bilan bog'liq fan tarmoqi sifatida shakllandi. O'sha davrdagi meyoriy hujjatlarda yoshlarni tabiiy boyliklarga hurmat va tabiiy resurslardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalariga o'rgatish maqsadida tabiatni muhofaza qilish asoslarini o'qitishni maktab dasturlari va tabiatshunoslik, geografiya, kimyo darsliklarining tegishli bo'limlariga kiritish maqsadga muvofiq deb ta'kidlangan.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida esa, ushbu masala yanada dolzarb bo'lib, geografik-ekologik ta'limning asosiy maqsadi ekologik savodli shaxsni shakllantirish bo'lishi haqida ijtimoiy zarurat talqin etilmoqda. Ushbu maqsadga erishish uchun maktab ta'limini ekologizatsiya va gumanizatsiya vazifalarini takomillashtirish talab qilinadi. Bu nafaqat ta'limning ekologik, gumanitar va ijtimoiy ahamiyatga ega tarkib bilan to'yinganligi, balki inson, jamiyat va tabiatning o'zaro bog'liqligi va o'zaro bog'liqligini chuqur anglashni o'z ichiga olgan ekologik va geografik madaniyatni shakllantirish va mustahkamlashdir degani.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Ilmiy va pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktab ekologik va geografik ta'limining turli jihatlari o'rganilgan. Biroq, o'quvchilarning ekologik va geografik madaniyatini shakllantirish bo'yicha maxsus tadqiqotlar tarqoq olib borilgan. Ularda faqat ma'lum jihatlarga e'tibor qaratilgan va muammoning ilmiy talqini yetarli darajada rivojlantirilmagan. Shuning uchun, ayni paytda pedagogik nazariya va boshqa sohalarida bu muammoni to'liq yechimini topgan deb hisoblash mumkin emas.

Xorijiy davlatlarda, ekologik madaniyat, geografik madaniyat, geoeologik madaniyat kabi mavzular atrofida ilmiy gipotezalar yaratilib, ularni shakllantirish masalalariga doir pedagogik yondashuv asosidagi ilmiy tadqiqotlar talaygina [1]. O'zbekistonda ham aynan shu mavzularga bag'ishlangan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar natijalari turli adabiyot va manbalarda o'z aksini topganligiga guvoh bo'lish mumkin [4]. Biroq, geoeologik madaniyat yurtimiz pedagogika fani ilmiy doiralarda maxsus monografik va tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilmagan. Binobarin, geoeologik madaniyatni shakllantirishning ilmiy paradigmasi, metodika yo'nalishida, yangi izlanish va tadqiqot maydoniga kirib kelishi, zamon talablari asosida yoritishga ehtiyoji bo'lgan masala sifatida e'tibor topmoqda.

Ushbu maqola, mavjud ilmiy va ilmiy metodik adabiyotlar tahlili asosida geoeologik paradigmaning ilmiy talqini va uning rivojlanishidagi yangi vektorni yoritishga bag'ishlangan bo'lib, yurtimiz ilmiy doiralarda geoeologiya tushunchasining nechog'liq zarurligi va ahamiyati haqida mulohazalar umumlashtiriladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tahlillarga ko'ra, ekologik ta'lim sohasidagi pedagogik va psixologik tadqiqotlar maktab o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish muammosiga pedagogik qarashlarning rivojlanishini ta'minlashga imkon berib, geoeologik madaniyat paradigmasining genezisini yoritishga zamin yaratdi.

Xorijiy nashrlarda ekologik madaniyatning faoliyat jihatlari ko'proq o'rganilgan. O'tgan asrning 70-80-yillarida o'quvchilarning ekologik ta'limi sohasidagi o'quv-tarbiyaviy

ishlarning xorijiy tajribasini umumlashtirib, jumladan, V.Stepp, J.Svan, T.Tenner kabi olimlar, "ekologik madaniyat" tushunchasi maktab o'quvchilari tomonidan nafaqat atrof-muhit (ya'ni, tabiat va jamiyat – D.A.) bo'yicha ko'p qirrali bilimlarni o'zlashtirish, tabiat bilan doimiy aloqada bo'lish zarurati, balki tabiatni muhofaza qilish harakatida bevosita ishtirok etish bilan ham bog'liqligini ta'kidlaganlar. Aynan, shu mazmundagi faoliyat paradigmasi keyingi tadqiqotlarida to'liq isbotini topdi.

Y.Dzyatkovskaya va A.Zaxlebniy tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, "ekologik ta'lim didaktikasidagi madaniy yondashuv umumiy ta'lim tizimida ekologik madaniyat va ekomadaniyenezning asosiy elementlarini doimiy ravishda davom etayotgan, tugallanmagan jarayon sifatida aks ettirishga imkon beradi" [6].

Maktab o'quvchilarining tabiatga munosabatini shakllantirishning nazariy asoslari A.Zaxlebniy, I.Zverev, L.Pechko, A.Sidelkovskiy, I.Smolyaninov, I.Suravegina [7] va boshqalarning tadqiqotlarida ishlab chiqilgan. Ekologik madaniyatning rivojlanishi o'quvchilarning tabiatga munosabati madaniyatini shakllantirish kontekstida "atrof-muhit holati uchun insonning yuqori mas'uliyatiga tayangan yangi ekologik madaniyati" talqin etildi. Bu olimlarning tadqiqotlarida ekologik ta'limning asosiy tamoyillariga aylangan maktab o'quvchilarining tabiatga mas'uliyatli munosabatini shakllantirish prinsiplari bilim, tajriba, amaliyot, bashorat, global, mintaqaviy va mahalliy munosabatlar yaxlitligi, fanlararo tamoyil, maktab o'quvchilari va atrof-muhit o'rtasidagi aloqaning maqsadga muvofiqligi prinsipi asosiy omillar deb ta'kidlangan. Tabiatga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri sifatida ekologik ta'lim mazmunini tanlash muammosi keltirilgan. Unda shu jumladan ilmiy, axloqiy, faoliyat jihatlari va ularni ta'limning barcha bosqichlarida va fanlararo aloqada o'quv fanlarining barcha sikllarida singdirish zarurati e'tirof etilgan. I.Zverev haqli ravishda ta'kidlaganidek, "atrof-muhitga mas'uliyatli munosabat shaxsning o'zi, uning ijtimoiy munosabatlar madaniyati tabiatga, jamiyatga, uning qadriyatlariga, boshqa odamlarga va o'ziga ijtimoiy mavjudot sifatida yuqori darajadagi umumiy ijtimoiy va ma'naviy madaniyatga erishish bilan uzviy bog'liqdir" [8].

I.Suraveginaning doktorlik dissertatsiyasida ekologik munosabatlarni shakllantirish darajasi (motivatsion, muammoli-tarixiy, nazariy, amaliy), maktab o'quvchilarining tabiatga bo'lgan munosabatining ilmiy-nazariy, axloqiy, estetik, amaliy jihatlari shakllantirish metod va usullariga asoslanishi qayd etilgan.

L.Pechko tadqiqotlarida shaxsning tabiatga axloqiy va estetik munosabatini shakllantirish va uning shaxsga ta'siri muammolariga yetakchi o'rin berilgan. U obyektiv tabiiy hodisalarning go'zalligi va ekspressivligini rivojlantirish, ularning har birini qadr-qimmatini, o'ziga xosligini anglash orqali estetik idrok, baholash, hukm, didni shakllantirishga asoslangan ekologik ta'limga yangi yondashuv taklif qilgan.

Estetik va ekologik tarbiya bilan bog'liq holda tabiat haqidagi fanlarni o'qitishning uslubiy muammolari I.Smolyaninovning diqqat markazidan o'rin olgan.

Maktab o'quvchilarining tabiatga bo'lgan munosabatining psixologik jihatlari A.Sidelkovskiyning tadqiqotlarida yoritilgan. Olimning tabiatga nisbatan individual va jamoaviy munosabatlarning psixologik tuzilishini o'rganishga qaratilgan asarlari qiziqishga sazovor [9]. Ayniqsa, uning munosabatlar va shaxsiyat xususiyatlarining uzviy bog'liqligi to'g'risidagi xulosalari muhim ahamiyatga ega, chunki shaxsiyat xususiyatlari tashqi tomondan faqat munosabatlar orqali namoyon bo'lishi mumkin, munosabatlardan ajratilgan holda xususiyatlar ko'rinmaydi va shakllanmaydi. Shuningdek, maktab o'quvchilarining tabiatga bo'lgan munosabatlarining

psixologik tuzilishini (kognitiv, axloqiy, estetik, faoliyat) o'rganish metodologiyasini ishlab chiqish ham shu olimning qalamiga mansubdir.

A.Zaxlebnining doktorlik tadqiqotida ekologik ta'lim mazmunini aniqlashning asosiy qoidalari aniqlangan, uning tuzilishi ishlab chiqilgan, jumladan, kognitiv, qadriyat, meyoriy, faoliyat komponentlari, modulli ta'limda ekologik tarkibni amalga oshirish asoslari yoritilgan.

M.Yakunchevning ilmiy ishida "Mintaqaning noyob va universal o'ziga xosligining organik kombinatsiyasi" mazmunida maktab ekologik ta'limini mintaqalashtirish muammolari ko'rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot mintaqalashtirishni maktab o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirishning eng muhim omili sifatida belgilaydi. Ishda o'rta maktab o'quvchilarining ekologik ta'limini mintaqalashtirishning bir qator konseptual asoslari ta'kidlangan, ular orasida quyidagilarni alohida ta'kidlash lozim:

O'rganilayotgan mintaqaning ekologik o'ziga xosligini aks ettiruvchi, bio-antropo-ijtimoiy-tarixiy va etnoekologik xususiyatlar kontekstida ifodalangan ta'lim vositalarining uslubiy jihatdan aniqlangan mazmuni;

Mahalliy, mintaqaviy va global ekologik obyektlar xususiyatlarini o'rganishga integral yondashuv;

O'quvchilarning ta'lim faoliyatida semantik yo'naltirilgan shakllar, kognitiv va hissiy rag'batlantirish usullarining ustunligi.

**Manbalar va metodlar.** Tadqiqot jarayonida ilmiy manbalardan tashqari respublikamiz ta'lim tizimining maktab ekologik ta'limi bilan bog'liq huquqiy-meyoriy, o'quv dastur va adabiyotlar tahlil, muqoisa, ehtimollik-statistik va umumlashtirish usullari orqali o'rganildi.

**Tahlil va natijalar.** Geoekologik madaniyatni shakllantirish jarayoni ilmiy muammo sifatida yurtimizda keng foydalanish darajasida emasligi sabab, qo'lga kiritilgan natijalarimiz, asosan, loyihaviy xarakterga ega bo'lib, yaqin kelajakda maktab dasturlariga taqdim etilajak ilmiy tavsiyalardan iborat ekanligini ta'kidlash lozim. Biroq, aytish mumkinki, geoekologik madaniyatning tamal toshi sanalgan ekologik madaniyat tushunchasining keng ilmiy talqini, ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari masalasiga bag'ishlangan ilmiy ishlar, bizga, geoekologik madaniyatni geografiya fani orqali shakllantirish metodikasini ishlab chiqishga zamin yaratadi. Eng muhimi, bugungi kunda geoekologik madaniyat ilmiy paradigmasining yaxlit manzarasini yoritish natijasida, maktab geoekologik ta'limining zamonaviy dastur va resurslarini vujudga keltirish hamda yoshlarning yurt tabiatiga to'g'ri munosabatini shakllantirib, dunyo hamjamiyati bilan birga barqaror rivojlanish jarayoniga salmoqli hissa qo'shishga ko'maklashishdir.

Turli tadqiqotlarini tahlil qilish natijasida ekologik madaniyatning umumiy madaniy ta'lim hodisasi sifatida ta'sir doirasining kengayishi kuzatiladi. Chunki ekologik madaniyat obyektiv ravishda ta'lim tizimining barcha tarkibiy qismlarini ekologizatsiya qilish uchun asos bo'ladi. Qolaversa, ekologik madaniyat kontekstida ekologik ta'limning maqsad va vazifalari qayta ko'rib chiqiladi, mazmuni o'zgartiriladi, yangi usullar, uni amalga oshirish texnologiyalari ishlab chiqilmoqda, diagnostika apparati o'zgarimoqda. Shuni ham ta'kidlash kerakki, maktab ekologik ta'limini rivojlantirishning umumiy masalalarini nazariy talqini bir qator o'quv-uslubiy majmualarda ham o'z aksini topgan.

Bizningcha, bosqichma-bosqich amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida ta'lim tizimining madaniy funksiyasi ham maqsadli, mazmunli, protsessual tarkibiy qismlarda o'z aksini topadi.

**Xulosa va takliflar.** Ta'kidlash kerakki, hozirgi kunga qadar ekologik kompetensiya maktab o'quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish bosqichi sifatida qaraladi va uning mohiyati, tuzilishi, mazmuni, shakllanish texnologiyalari shunga muvofiq aniqlanadi. Barqaror rivojlanish uchun ta'lim sharoitida kompetension paradigma hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishini inobatga olib, geoekologik madaniyatni shakllantirish jarayonida bu omil ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyat va mamlakat ta'lim tizimidagi innovatsion o'zgarishlarni hisobga olgan holda mahalliy ekologik ta'limning o'rnatilgan an'alarini umumlashtirish va rivojlantirish zarurati umumiy ekologik ta'lim konsepsiyasi asosida geoekologik paradigmaning yangi vektorini ham yaratishni taqozo etadi. Uning asosi zamonaviy jamiyatda yashash ongli uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish yoshlarining kelajakda, tez o'zgaruvchan ekologik va ijtimoiy-tabiiy sharoitlarda yashashga tayyorligini ta'minlash masalasi bosh mezon bo'lishi muhim ijtimoiy buyurtma hisoblanadi.

Bu borada, quyidagi strategik yo'nalishlar muhim bo'lishi lozim:

- O'quvchilarni ijtimoiylashuv jarayoni orqali geoekologik madaniyat dunyosiga olib kirish va ularning barqaror rivojlanish jamiyatining ijtimoiy munosabatlarini yaratishda o'z o'rmini anglashini ta'minlash;

- O'quvchining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, bilim, kommunikativ, amaliy faoliyat usullarini o'zlashtirish, hamkorlik qilish qobiliyati, fuqarolik jamiyati va davlat hayotida ishtirok etish uchun zarur bo'lgan yangi vaziyatlarda hayotda harakat qilish orqali tez o'zgaruvchan sharoitlarda, noaniq kelajakda harakat qilish va yashashga tayyorlikni shakllantirish va eng muhimi o'z yashash hududining ijtimoiy rivojlanishini rejalashtirishda ishtirok etish, mumkin bo'lgan narsalarni oldindan bilish ularning harakatlarining ekologik xavflari; ehtiyotkorlik bilan harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish;

- Geoekologik madaniyatni shakllantirish orqali, ekologik xavfsizlik, sog'liqni saqlash, atrof-muhit, hayot sifatini ta'minlash uchun olingan bilim va ko'nikmalarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash bo'yicha shaxsiy tajriba to'plashni o'rgatish.

Yangicha yondashuv ta'lim maqsadlarining yangi ierarxiyasini belgilab beradi, unda shaxsning qadriyatlari va vakolatlari ustuvor bo'lib, kelajakda ijtimoiy-ekologik muammolarni hal qilishga tayyorligini, barqaror rivojlanish g'oyalari asosida loyiha faoliyatini ta'minlashga ko'maklashadi. Shunga ko'ra, geoekologik madaniy yo'naltirilgan tarkibni ilmiy va nazariy asoslari shakllantiriladi, o'quv jarayonini tashkil etish usullari va shakllari sifat jihatidan yangi jihatlariga ega bo'ladi, rejalashtirilgan natijalar, shu jumladan shaxsiy, meta-mavzu, mavzu yangi doirada ko'rib chiqiladi.

Madaniy yo'naltirilgan yangi paradigma geoekologik madaniyat rivojlanishning yangi vektorini oladi, bu nazariy va uslubiy tushunishni, uni maktab ta'limida, shu jumladan geografik jihatdan amalga oshirishni talab qiladi.

## ADABIYOTLAR

1. Винокурова Н. Ф. Теория и методика изучения глобальных экологических проблем на основе геоэкологического подхода в школьной географии: Дисс. ... докт. пед. наук / - М., 2000; Глазачев С.Н. Теоретические основы формирования экологической культуры учителя: Дисс. в виде науч. докл. на соиск. учён. степ, д-ра пед. наук. / - М., 1998;

2. Захлебный А.Н. Содержание экологического образования в средней общеобразовательной школе: теоретическое обоснование и пути реализации: Автореф. дисс. докт. пед. наук. / -М., 1986; Зверев И.Д. Приоритеты экологического образования // Экологическое образование: проблемы и перспективы: Межвузовский сборник научных трудов. - Н. Новгород, 1998.
3. Камерилова Г.С. Теоретические основы урбоэкологии как вариативной школьной дисциплины школьного географического образования: Автореф. дисс... докт. пед. наук / - СПб, 2001; Николина В.В. Теоретические основы формирования эмоционально- ценностного отношения учащихся к природе в процессе обучения географии: Автореф. дисс... докт. пед. наук / - СПб.: РГПУ им. А.И. Герцена, 1999.
4. Абдуллаев З. Экологические отношения и экологическое сознание. – Ташкент: Фан, 1990; Хашимова Э.С., Расулева Г.Х. Экология: ғоя, назария, методология. – Ташкент: Фан, 2005; Шадиметов Ю. Введение в социозекологию. – Ташкент: Ўқитувчи, 1993;
5. Мамашакиров С.М. Роль социально-политических факторов в формировании экологической активности и ответственности. Автореферат на соискание учёной степени д. филос. н. – Ташкент, 1997; Мамашакиров С. Вахимами ёки хакикат. Тошкент Молия ва иктисод 2012.
6. Дзятковская Е.Н. Захлебный А.Н. Культурологический подход к общему экологическому образованию // Педагогика. - 2009. - № 9 – 39-бет.
7. Захлебный А.Н. Содержание экологического образования в средней общеобразовательной школе: теоретическое обоснование и пути реализации: Автореф. дисс. докт. пед. наук. /-М., 1986. -32 с;
8. Зверев И.Д. Приоритеты экологического образования // Экологическое образование: проблемы и перспективы: Межвузовский сборник научных трудов. - Н. Новгород, 1998. – 11-бет.
9. Сидельковский А.П. Психологические основы отношения школьников к природе: Учебное пособие / А.П. Сидельковский. - М.: Изд-во Мин.просвещения РСФСР, Московский пед. институт им. В.И. Ленина, 1987. – 88-бет.



UDK:378.087.5

*Jur'atbek ABDURAIMOV,*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi*

*E-mail: juratbekabduraimov@gmail.com*

*TATU kompyuter injiniring fakulteti Axborot texnologiyalari kafedrasini professori, t.f.d., prof. M.S.Yakubov taqrizi asosida*

## O'QITUVCHILARNING ELEKTRON TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Bu maqola elektron ta'lim resurslaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarni ko'rsatadi, ular o'qituvchilarning o'zlashtirishni kuchaytirish, yangiliklarni o'rganish, interaktivlik, qo'llanishni kengaytirish va o'quvchilarga qo'llanish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Maqola shuningdek, elektron ta'lim resurslaridan o'qituvchilarning narxi, oson yuklab olish imkoniyati va o'rganishni kuchaytirish imkoniyatlariga ham e'tibor qaratadi.

**Kalit so'zlar:** Elektron ta'lim resurslari, o'qituvchilar, interaktivlik, yuklab olish va o'rganishni kuchaytirish.

## SPECIFIC CHARACTERISTICS OF USE OF ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES BY TEACHERS

Annotation

This article highlights the unique features of using e-learning resources, which include opportunities for teacher retention, innovation learning, interactivity, accessibility, and student engagement. The article also focuses on the affordability, easy downloadability, and learning enhancement potential of eLearning resources for teachers.

**Key words:** E-learning resources, teachers, interactivity, download and learning enhancement.

## ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ УЧИТЕЛЯМИ

Аннотация

В этой статье освещаются уникальные особенности использования ресурсов электронного обучения, которые включают в себя возможности удержания преподавателей, инновационное обучение, интерактивность, доступность и вовлечение учащихся. В статье также рассматривается доступность, простота загрузки и потенциал для улучшения обучения ресурсов электронного обучения для учителей.

**Ключевые слова:** Ресурсы электронного обучения, преподаватели, интерактивность, загрузка и улучшение обучения.

**Kirish:** O'qituvchilar bugungi kunda ta'lim jarayonida elektron ta'lim resurslaridan o'rni ham katta ahamiyat kasb etgan. Bu resurslar o'qituvchilarning o'zlashtirishni kuchaytirish, yangiliklarni o'rganish, interaktivlik, qo'llanishni kengaytirish va o'quvchilarga qo'llanish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Bu maqolada elektron ta'lim resurslaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari va ularning o'qituvchilarga ta'lim jarayonida qanday yordam berishi ko'rsatiladi. Maqola shuningdek, elektron ta'lim resurslaridan foydalanishning narxi, oson yuklab olish imkoniyati va o'rganishni kuchaytirish imkoniyatlariga ham e'tibor qaratadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada o'qituvchilarning elektron ta'lim resurslaridan foydalanishiga oid tadqiqot metodologiyasi ham ko'rsatiladi. Bu tadqiqot metodologiyasi boshqa tadqiqotlarga nisbatan bir oziga xosdir va elektron ta'lim resurslarining samaradorligi, o'qitishning natijalarini aniqlash, o'quvchilar bilim darajalarini aniqlash uchun juda muhimdir. Tadqiqot metodologiyasi davomida, elektron ta'lim resurslaridan foydalanishning qulayligi, ularning ta'lim jarayonini mustahkamlashda o'z o'rni, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirishda o'z ahamiyatiga ega. Tadqiqot metodologiyasi yordamida, o'qituvchilar elektron ta'lim resurslarini yaxshi tushunish va ulardan foydalanishni o'rganishlari, shuningdek, ta'lim jarayonida ularning o'z o'rni va ahamiyatini tushunishlari mumkin.

Xalqaro taraqqiyotni talab qiladigan hozirgi dunyoda, ta'lim tizimi kengayib borayotgan o'zgarishlarga tayanadi. Elektron ta'lim resurslari jamiyatning ta'lim sifatini yuksaltirish uchun juda katta ahamiyatga ega. Bu elektron ta'lim resurslari

o'qituvchilar uchun ham katta imkoniyatlar yaratmoqda. Bu maqolada o'qituvchilarning elektron ta'lim resurslaridan foydalanishining o'ziga xos xususiyatlari haqida gaplashishimiz mumkin.

Birinchi xususiyat, elektron ta'lim resurslarining muhim qismlarini o'rganishga imkon berishlari. Elektron ta'lim resurslarida mavjud tahlil va tushuntirishlar, videodarsliklar, multimedia materiallar va ko'plab boshqa ma'lumotlar o'quvchilar uchun o'rganish jarayonini osonlashtiradi. Bu esa o'qituvchilar uchun ham shunday imkoniyat yaratadi, ular o'zlarining ta'lim materiallarini tayyorlashga osonlik bilan qo'shib, o'zlarining o'qitish metodikalarini rivojlantirishga imkon beradi.

Ikkinchi xususiyat, elektron ta'lim resurslari o'qituvchilarning o'qish jarayonini kuchaytiradi. Bu resurslar mobil qurilmalar va kompyuterlar orqali iste'mol qilinishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarga erishishga imkon beradi. Bu esa o'qituvchilarni ta'lim materiallariga istalgan vaqtda, istalgan joyda erishishga imkon beradi. Bu xususiyat o'qituvchilar uchun o'zlarining darslarini tayyorlash va sinovdan o'tishning yanada ko'proq vaqt va jihatlarini saqlashga imkon beradi.

Uchinchi xususiyat, elektron ta'lim resurslari o'qituvchilarni yangi texnologiyalar va o'qish usullari bilan ta'minlashga yordam beradi. Elektron ta'lim resurslarida eng so'nggi texnologiyalar va o'qish usullari mavjud bo'lib, bu esa o'qituvchilarning o'zlarini yangiliklarga va kengaytirilayotgan ta'limning bir qismi sifatida o'rgatishga imkon beradi.

Elektron ta'lim resurslari va platformalari o'qituvchilar uchun yirik imkoniyatlar yaratishga yordam beradi. Ushbu resurslardan foydalanish o'qituvchilar uchun ta'lim

materiallarini o'rganish, ta'lim jarayonini boshqarish va o'quvchilarning ta'limini samarali hollarda tashkil etishga yordam beradi. Shunday qilib, elektron ta'lim resurslaridan foydalanish o'qituvchilar uchun ko'proq samarali va yaxshi tayyorgarlikni ta'minlash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, ta'lim resurslaridan foydalanish, o'quvchilar bilimlarini yanada yaxshilashiga va ta'lim jarayonini o'rganishda yanada osonlashtirishiga yordam beradi. Bu, o'qituvchilar uchun o'quvchilarning iste'mol qilishini qulaylashtiradi va ularga ko'proq motivatsiya qiladi. Elektron ta'lim resurslari va platformalari o'qituvchilar uchun bir necha qulay imkoniyatlarni ta'minlaydi, masalan:

Interaktiv ta'lim resurslari yaratish yordamida ta'lim materiallarini ko'proq qiziqarli va sifatli qilish Video darslar, animatsiyalar, virtual laboratoriyalar va boshqa interaktiv usullardan foydalanish orqali ta'lim jarayonini samarali va qiziqarli qilish

Ta'lim materiallarini avtomatlashtirishni o'rganish yordamida ta'lim jarayonini samarali boshqarish O'quvchilarning ta'lim jarayonini avtomatik ravishda baho olishga imkon beradigan tizimlar yaratish orqali ta'lim jarayonini nazorat qilishni qulaylashtirish Virtual ta'lim dasturlarini o'rganish va ulardan foydalanish yordamida ta'lim jarayonini innovatsion usullarda boshqarish

Bular hammasi o'qituvchilar uchun ta'lim resurslaridan ko'proq foydalanish imkonini beradi va ularni ta'lim jarayonini innovatsion usullarda boshqarishga yordam beradi.

Elektron ta'lim resurslaridan foydalanishning yana ko'proq ma'lumotlariga e'tibor berish lozim. Bu resurslar orqali ta'lim jarayonining yanada sifatli va samarador hollarda olib borilishi mumkin. Ular o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytiradi, o'qitishni mustahkamlashga, o'quvchilar bilim darajalarini oshirishga, va shuningdek, o'quvchilarning kreativligini va yangi bilimlar va ko'nikmalar olishlariga imkon beradi. Elektron ta'lim resurslari o'z ichiga o'qituvchilar va o'quvchilarning birgalikda ishlash imkoniyatlarini kengaytirish uchun alohida interaktiv elementlarni ham o'z ichiga oladi. Misol uchun, elektron ta'lim resurslarida testlar, video darsliklar, o'quv materiallari, interaktiv dasturlar, virtual laboratoriyalar va boshqa ko'p elementlar mavjud. Bu elementlar o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida ta'lim jarayonini yanada samarador va qiziqarli hollarda olib borishi mumkin. Shuningdek, elektron ta'lim resurslaridan foydalanishning boshqa bir yaxshi tomoni ham bu resurslar orqali o'quvchilarning o'zining o'zini mustahkamlashidir. Ular o'zlarining o'ziga xos o'qish usullarini va tarzlarini tanlashda, o'zlariga qulay keladigan va yaxshi bo'lgan o'qitish materiallarini topishda o'z rivojlanishlariga va o'zlashtirishlari uchun imkoniyat beradi. Bu esa, o'quvchilarning ta'lim jarayonida qiziqishlarini va motivatsiyalarini oshiradi va ularni yaxshi bilim olgan mutaxassislar deb yetakchi rolga o'quvchilar ekanligiga e'tibor qaratadi.

**Tahlil va natijalar:** "O'qituvchilarning elektron ta'lim resurslari va platformalaridan foydalanish tayyorgarligini ta'minlash metodikasi" mavzusida yozilgan ilmiy maqolaning natijalari quyidagicha bo'lishi mumkin:

O'qituvchilar elektron ta'lim resurslaridan foydalanishni o'rganishda va ulardan foydalanishda yuqori darajada malakali bo'lishi kerak.

Elektron ta'lim resurslaridan foydalanish tayyorgarligi, ta'lim jarayonining samaradorligi va effektivligini oshiradi.

Tayyorgarlikni ta'minlashda elektron ta'lim resurslari va platformalaridan foydalanish metodikasi, o'qituvchilar uchun qulay, tez va samarador bo'lishi kerak.

Elektron ta'lim resurslari va platformalaridan foydalanish, o'qituvchilarning ko'nikmalarini kengaytiradi va

ularga yangi pedagogik metodlarni o'rganish imkoniyatini beradi.

Elektron ta'lim resurslari va platformalaridan foydalanish, o'qituvchilarning ta'limning sifatini oshiradi va ulardan foydalanish, ta'lim jarayonini eng yaxshi usullarda boshqarishga yordam beradi.

Elektron ta'lim resurslaridan foydalanish, o'qituvchilar uchun bir necha ta'lim maqsadlari uchun xilma-xil usullarni tanlash imkoniyatini beradi va ularga ta'lim jarayonida har qanday muammo yuzaga kelganda yordam beradi.

Shuningdek, ilmiy ishning natijalari, pedagogik va ta'lim sohasida ilgari hissa yoki yuqori malakaga ega o'qituvchilar va o'qitish metodikalarida yangi qat'iylik va innovatsion yaratishga imkon beradi.

Elektron ta'lim resurslaridan foydalanish tayyorgarligini ta'minlash uchun quyidagi yo'llar muhimdir:

1. O'qituvchilar uchun ta'lim platformalari va resurslari haqida ko'proq ma'lumot berish. Bu, o'qituvchilar uchun o'rganish yoki o'qishni qo'llash orqali amaliyotga dastur tuzishni osonlashtiradi.

2. O'qituvchilar, ta'lim platformalari va resurslari tayyorlashda qo'llanadigan dasturlarga boy hamkorlik qilishlari kerak. Bu, o'qituvchilarning qulay va samarali yordamni topishiga imkon beradi.

3. O'qituvchilar, yangi elektron ta'lim resurslaridan o'qitish metodikasini o'rganish, o'quv dasturlarini tayyorlash va ta'lim materiallarini tayyorlashni o'rganishlari kerak. Bu, ularga ta'lim jarayonini innovatsion usullarda boshqarish imkonini beradi.

4. O'qituvchilar, ta'lim materiallarini tayyorlash va ularni yangilashda talab qilingan tajribani olishlari kerak. Bu, o'qituvchilarning ta'lim materiallarini boshqarishni va ulardan ko'proq foydalanishni osonlashtiradi.

5. O'qituvchilar, ta'lim platformalari va resurslaridan foydalanishni baholash va ta'lim jarayonini tahlil qilishni o'rganishlari kerak. Bu, ularga ta'lim jarayonini o'zgartirish, ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarga ko'proq foyda olish imkonini beradi.

Bu yo'llar o'qituvchilar uchun qulaylik va samarali ta'lim platformalari va resurslaridan foydalanish imkonini beradi va o'qitish metodikalari va ta'lim jarayonini innovatsion usullarda boshqarishga imkon beradi.

Elektron ta'lim resurslaridan foydalanishning qo'shimcha yollarini quyidagi ko'rsatkichlar orqali kengaytirish mumkin:

1. Interaktiv ta'lim resurslari yaratish. Bu, o'qituvchilar uchun o'quvchilarning ta'lim jarayonida qatnashishini yaxshilashga yordam beradi va ta'lim materiallarini ko'proq qiziqarli va sifatli qilishga imkon beradi.

2. O'qituvchilar o'zlarining ta'lim resurslarini tayyorlashda video darslar, animatsiyalar, virtual laboratoriyalar va boshqa interaktiv usullardan foydalanishlari kerak. Bu, ta'lim jarayonini samarali va qiziqarli qiladi.

3. Ta'lim materiallarini boshqarish uchun avtomatlashtirishni o'rganish. Bu, o'qituvchilar uchun ta'lim materiallarini tayyorlash va ulardan foydalanishni qulaylashtiradi va ta'lim jarayonini samarali boshqarishga imkon beradi.

4. O'quvchilarning ta'lim jarayonini avtomatik ravishda baho olishga imkon beradigan tizimlar yaratish. Bu, o'qituvchilar uchun o'quvchilarning ta'lim jarayonini nazorat qilishni qulaylashtiradi va ta'lim jarayonini samarali boshqarishga imkon beradi.

5. Virtual ta'lim dasturlarini o'rganish va ulardan foydalanish. Bu, o'qituvchilar uchun ta'lim jarayonini innovatsion usullarda boshqarishni osonlashtiradi va o'quvchilarga ko'proq foyda olish imkonini beradi.

Bu kengaytirilgan yollar o'qituvchilar uchun ta'lim resurslaridan ko'proq foydalanish imkonini beradi va ta'lim jarayonini innovatsion usullarda boshqarishga imkon beradi.

**Xulosa.** Elektron ta'lim resurslaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari haqida maqolamizda, ular orqali o'qitish jarayonining yanada sifatli va samarador hollarda olib borilishi mumkinligi, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytirishi, o'quvchilarning bilim darajalarini oshirishi, kreativligini va yangi bilim va ko'nikmalarga

erishishini ta'minlashi, o'quvchilar o'zlariga xos o'qish usullarini va tarzlarini tanlashi va o'zlashtirishlari uchun imkoniyat berishini ko'rsatdik.

Bu maqola elektron ta'lim resurslari haqida ko'proq tushuncha berishga va ularni o'qitishda va o'rganishda qo'llanishini kengaytirishga yordam berishi maqsadida yozilgan. Elektron ta'lim resurslaridan o'z foydalanish usullari va ularning o'ziga xos xususiyatlari o'qituvchilar va o'quvchilar uchun yaxshi tanlovdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Majidova N. Elektron ta'lim resurslari tushunchasi va ularni o'qitishda qo'llanish. // Elektron ta'lim resurslari. - Toshkent: "O'qituvchi" NTM muassasasi nashriyoti, 2009. - B.3-10.
2. Boychenko M. Elektron ta'lim resurslaridan o'qitish uchun pedagogik qo'llanmalar / Boychenko M.; tarjima Aripov Q. - T.: NBU, 2011. - 180-bet.
3. Aripov Q. Elektron ta'lim resurslari va ularni o'qitish usullari. // O'qituvchi. - 2013. - №2. - B. 16-20.
4. Pahlavonov D. Elektron ta'lim resurslaridan o'qitish usullari. // Elektron ta'lim resurslari. - Toshkent: "O'qituvchi" NTM muassasasi nashriyoti, 2009. - B. 47-53.
5. Nurmatova D. Elektron ta'lim resurslaridan o'qitishda qo'llaniladigan metodlar. // Pedagogika va psixologiya so'nggi ilmiy-texnik texnologiyalari. - Toshkent, 2012. - № 4. - B. 26-28.



UDK: 371.315.5

**Boburjon ADILOV,**  
Jizzax Politehnika instituti o‘qituvchisi  
Email: bobur.adilov@inbox.ru

Jizzax Politehnika instituti “Servis” fakulteti dekani, pedagogika fanlari doktori, professor J.A.Hamidov taqrizi ostida

### BO‘LAJAK MUHANDISLAR LOYIHAVIY-KONSTRUKTORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA UMUMKASBIY FANLARNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Аннотация

Bo‘lajak muhandislarda loyihaviy-konstruktorlik kompetentlikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik jihatlarini tahlili asosida umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini didaktik imkoniyatlari, o‘qitish metodlari o‘rganilib, integratsiyalashgan bilim va ko‘nikmalar asosida loyihaviy-konstruktorlik kompetentlikni rivojlantirish tuzilmalari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Loyihaviy-konstruktorlik, kompetentlik, didaktik, metod.

### ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОБЩЕПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ В РАЗВИТИИ ПРОЕКТНО-КОНСТРУКТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ

Аннотация

На основе анализа психолого-педагогических аспектов развития проектно-строительной компетентности у будущих инженеров изучаются дидактические возможности общеобразовательных и профильных предметов, методы обучения, структуры развития проектно-строительной компетенции. представлена компетенция, основанная на интегрированных знаниях и умениях.

**Ключевые слова:** Проектно-конструктивная, компетенция, дидактика, метод.

### DIDACTIC POSSIBILITIES OF GENERAL PROFESSIONAL SUBJECTS IN THE DEVELOPMENT OF DESIGN AND CONSTRUCTION COMPETENCE OF FUTURE ENGINEERS

Annotation

Based on the analysis of the psychological and pedagogical aspects of the development of design and construction competence in future engineers, the didactic possibilities of general education and specialized subjects, teaching methods, structures for the development of design and construction competence are studied. a competence based on integrated knowledge and skills is presented.

**Key words:** Design-construction, competence, didactics, method.

**Kirish.** Oliy ta‘lim muassasalarida kasbiy kompetentlikka ega mutaxassislar tayyorlash sifati ko‘p jihatdan umumkasbiy fanlarni samarali o‘qitish bilan belgilanadi. Ixtisoslik fanlarini o‘rganishda ko‘proq amaliy ta‘limga e‘tibor kuchaytirilib, ishlab chiqarishning aniq sohalari bo‘yicha, ularda aniq mutaxassislik xususiyatlarini aks ettiruvchi bevosita chuqur, puxta bilimlar beruvchi, tegishli ko‘nikma va malakalar hosil qiluvchi jarayonlarni qamrab oladi.

Umumkasbiy fanlarni o‘qitish uslublarini tanlash va o‘quv maqsadlarini belgilash ham birmuncha murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda pedagogdan yuqori darajadagi kasbiy mahorat talab etiladi. Loyihaviy-konstruktorlik kompetentlikni rivojlantirish jarayoni umumkasbiy fanlar bo‘yicha kompleks tarzda egallangan bilimlar asosida amalga oshiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Loyihaviy-konstruktorlik kompetentlikni yoki uni tashkil etuvchi komponentlarini bitta fan doirasida rivojlantirishning imkoni yo‘q. Ushbu kompetentlikning rivojlantirishda fanlararo uzviylik va uzluksizlik ta‘minlanishi, fanlararo aloqaning mavjudligi, bilimlar integratsiyasi hosil bo‘lishi lozim. Shu bois, bu jarayonda o‘quv rejaga kiritilgan har bir fanning o‘ziga xos ulushi bor [2].

Umumkasbiy fanlarni o‘qitishda psixologik-pedagogik qonuniyatlarni hisobga olinishi bevosita bo‘lajak muhandisning kasbiy faoliyatini yuzaga kelishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bo‘lajak

muhandislarning kasbiy faoliyati – bu ishlab chiqarish jarayonga o‘zining faol munosabatlarini bildirib, qo‘yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan yondashib, kasbiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beruvchi faoliyatdir. Shuning uchun ham kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda, albatta, har tomonlama takomillashgan chuqur kasbiy bilim zarurdir. Bo‘lajak muhandislarga kasbiy fanlardan beriladigan bilimlarning o‘ziga xos sintezini aniqlash va bu sintezda qatnashayotgan bilimlarning tabiati, ularning o‘zaro aloqadorligi, tuzilishi va boshqa fanlar bilan aloqadorligi haqida ma‘lumotlarning ta‘lim jarayonida berib borilishi maqsadga muvofiqdir [4].

Bo‘lajak muhandislar tomonidan o‘zlashtirilayotgan barcha umumkasbiy fanlar o‘zida asosan ma‘lumot beruvchi, o‘rgatuvchilik funksiyasi bilan chegaralanib qolmasdan, talabalarni mustaqil kreativ fikrini rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi funksiyalarni rivojlantirishga xizmat qilishi zarur [1]. Bu borada o‘qituvchi oldida quyidagi vazifalarni maqsadga muvofiq ravishda hal qilib olish turadi:

-O‘quv rejasidagi har bir fanlar bloklarida ta‘lim mazmuni (fan dasturi, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, metodik ko‘rsatmalar)ni aniqlab olish;

-Ta‘lim tarbiyaning shakllari, metodlari va ularga innovatsiyalarni qo‘llash imkoniyatlari mavjudligini baholay olish;

-Ta‘lim jarayoniga axborot kommunikasiya texnologiya imkoniyatlaridan samarali foydalana olish;

-O'quv jarayoniga motiv komponentini ro'yobga chiqarish maqsadida fanning mazmuniga o'quv loyihalarini kiritish;

-Kasbiy pedagogik kompetentligini rivojlanib borishini aniqlashga yo'naltirilgan kompyuter dasturlarini ishlab chiqish;

-talabning o'zlashtirish darajasi va monitoringini olib borish hamda bilim, ko'nikma, malakalari va shaxsiy sifatlarini xolisona baholash uchun mezonlar ishlab chiqish.

Bu jarayonda zamonaviy bo'lajak muhandislarning bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda samarali qo'llay olishi, kasbiy kompetentlikning shakllanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bo'lajak muhandislik yo'nalishi talabalarida loyihaviy-konstruktorlik kompetentlik kasbiy kompetentlikning asosiy tarkibiy qismi bo'lib:

1.Konstruktorlik bilim, ko'nikma va malakalar. Ular tayyor o'quv ma'lumotini (matnlar, sxemalar, jadvallar va boshqalar); ko'rgazmali didaktik qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tayanch konspektlar va boshqalarni yaratish; ta'lim metodlari va usullari, o'quv mashg'uloti uchun maxsus ta'lim vositalarini tanlash bilan tavsiflanadi.

2.Grafik bilim, ko'nikma va malakalar. Ular ko'rgazmali ta'lim vositalarini yuqori estetik darajada yaratilishi, talablarga mos holda chizmalarni chizilishi va kompyuter dasturlarini ishlata olishi bilan tavsiflanadi.

Bo'lajak muhandislar loyihaviy-konstruktorlik kompetentligi quyidagilarni o'z ichiga oladi: -bilim, ko'nikma va malakalar bino detallari chizmasini ishlab chiqish; -qayta ishlash metodlari va materiallarini hisobga olish; -buyum tayyorlashda loyihaviy-konstruktorlik hujjatlarni ishlab chiqishni.

Tahlil va natijalar. Fanga tegishli mavzularning o'qitish ketma-ketligi va davomiyligi faol metod tanlashga ta'sir ko'rsatadi. Faol metodlarning ba'zilari talabalarni faollashtirishga qancha ko'p vaqt talab qilsa, topshiriqlar yoki amaliy faoliyatlari bajarilishiga ham shuncha vaqt talab qiladi. O'quv mashg'ulotda vaqt shunchalik chegaralangan bo'lishi mumkinki, qo'llashda ko'p vaqt talab qiladigan faol metoddan foydalanishi imkonini bermaydi [3,5].

Ba'zi faol metodlarni qo'llashda alohida sharoit talab qilinmaydi, ammo maxsus o'quv-moddiy sharoitlar talab qiladigan faol metodlardan foydalanmoqchi bo'lsak, u holda didaktik ta'minotni amalga oshirishimiz lozim.

Bo'lajak muhandislarni loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda mustaqil faoliyatni amalga oshirish jarayonining yetakchi va samarali metodi sifatida biz loyiha metodini ko'rib chiqdik, u quyidagi pedagogik vazifalarni hal qiladi:

- talabalar yuqori motivatsiyasini qo'llab-quvvatlaydi;
- ta'lim jarayonida loyihaviy-konstruktorlik kompetentlikni rivojlantiradi;
- talabalar faolligi va mustaqilligini rag'batlantiradi, mustaqil ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi;
- talabalar refleksiv malakalari va baholash faoliyatini rivojlantiradi, o'z-o'ziga adekvat baho berishni shakllantiradi;
- har bir talabning individual yutuqlarini miqdor va sifat jihatdan belgilaydi.

“Loyiha” metodi – bu ta'lim oluvchilarning yakka tartibda yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir.

Loyiha metodini amalga oshirish bosqichlari 1-rasm.

Loyiha metodini amalga oshirish bosqichlari		
Bosqich	Mazmuni	Shakl
1-bosqich, tayyorgarlik	O'qituvchilar loyihada qanday muommolar bor, o'zlari uchun qiziqarli bo'lgan muomolarni tanlashlarini taklif qiladi yoki topshiriqlarni o'zi tayyorlaydi	Mustaqil ish
O'qituvchi talabalarga loyihalash mazmuni, loyihalash ob'ekti, usullari, bosqichlari haqida ma'lumot beradi		Bayon qilish
2-bosqich	O'qituvchi talabalarni kichik guruhlariga bo'ladi	Ixtiyoriy
Har bir kichik guruhga o'zlarini qiziqtirgan muommoni tanlash va uni yechish bo'yicha loyiha tayyorlashni topshiradi		
3-bosqich	O'qituvchilar loyihada qanday tayyorlashni tushintiradi. Talabalar faqat loyiha tayyorlaydilar, uni amalga oshirish talab qilinmaydi (chunki bir dars davomida amalga oshirib bo'lmaydi)	Mustaqil ish
Asosiy qism	Talabalar loyiha tuzishga kirishadilar	Mustaqil, kichik guruh
Loyiha taqdimoti		
Yakuniy qism	O'qituvchi talabalarni baholaydi, xato va kamchiliklarni ko'rsatadi, darsni umumlashiradi va yakunlaydi	

Mozaika metodi-interfaol metod bo'lib, guruhli ishlash orqali amalga oshiriladi. Birinchi bo'lib bu metodni ta'limga Amerikalik psixolog Elliotom Aronsonom olib kirgan va bu talabalarining o'zlashtirishida ijobiy natijalarni ko'rsatgan. Bu metodni “Chizma geometriya va muhandislik grafikasi” fanida qo'llash orqali talabalarda konstruktiv yechim topish, ya'ni model xususiyatiga mos detallarni aniqlash va joylashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu to'g'ri qaror qabul qila olish, buyum vazifasidan kelib chiqib, uni loyihalash va modellashtirish kabi zarur bo'lgan kasbiy xususiyatlarni o'zlashtirishga imkon beradi.

Bo'lajak muhandislarni loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish jarayonining samaradorligi va sifati nafaqat qo'llanilgan metodlarga, balki jarayonni tanlash va tashkil etish shakllariga bog'liq.

Bo'lajak muhandislarni loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish uning barcha tarkibiy qismlarining o'zaro ta'siri va yaxlitligini ta'minlovchi integrativ rolni bajaruvchi tashkiliy shakllar orqali amalga oshiriladi.

Bo'lajak muhandislarni loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish jarayonining samaradorligi va sifati nafaqat qo'llanilgan metodlarga, balki jarayonni tanlash va tashkil etish shakllariga bog'liq.

**Xulosa.** Bo'lajak muhandislarni loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish uning barcha tarkibiy qismlarining o'zaro ta'siri va yaxlitligini ta'minlovchi integrativ rolni bajaruvchi tashkiliy shakllar orqali amalga oshiriladi.

Loyihaviy-konstruktorlik kompetentlikni rivojlantirish jarayoni pedagogik texnologiyalar, faol metodlar, turli ta'lim vositalari va tahlil tizimi majmuasini qo'llagan holda ta'limning barcha shakllarida bir nechta fanlardan olingan bilimlarni integratsiyalash orqali amalga oshiriladi.

Turli yo'nalishlarga taaluqli bilimlar asoslarini integratsiyalash ularning fan, ta'lim, texnika, texnologiya, ishlab chiqarish hamda iqtisodiyot sohalarida ro'y berayotgan o'zgarishlarning ijtimoiy jihatdan asoslanishiga zamin yaratadi.

Bo'lajak muhandislik yo'nalishi talabalarini loyiha-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda fikrlash jarayonini faollashtiruvchi evristik ta'lim metodlari imkoniyatlaridan foydalanish yo'llari asoslandi.

#### ADABIYOTLAR

1. Khamidov J., Akhadova K. "The role of mathematics in the formation of design competence of future architects and building engineers" *Science and innovation*, vol. 2, no. A1, 2023, pp. 97-102. doi:10.5281/zenodo.7541432.
2. Hamidov J.A. "Technology of creation and application of modern didactic means of teaching in the training of future teachers of vocational education." *Ped. fan. doct. diss. avtoref Toshkent (2017)*.
3. Bakhrudinovich A.B. Theoretical bases of formation of design-design competence of future engineers in the process of higher education // *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*. – 2022. – T. 3. – №. 5. – С. 1791-1795.
4. Adilov B. Organizational and pedagogical foundations of the formation of project-design competence of students of the engineering direction // *Science and innovation*. – 2022. – T. 1. – №. B4. – С. 318-322.
5. Adilov B. (2021). Техника олий таълим муассасалари талабаларининг касбий компетенцияларини шакллантиришда ахборот технологиялардан фойдаланиш методи. *Kasb-hunar ta'limi*, №2, 50–53 б. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7620165>.
6. Адиллов Б.Б. (2021). Техника олий таълим муассасаларида математика фанини ўқитишда ахборот коммуникацияларидан фойдаланиш методи. *Намду илмий ахборотномаси*, №1(ISSN:2181-1458), 432–43 б. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7620268>.
7. Адиллов Б.Б. (2021). Техника олий таълим муассасаларида ахборот технологиялар ёрдамида талабалар касбий компетенцияларни шакллантиришнинг назарий асослари. *Намду илмий ахборотномаси*, №2, 397–402 б. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7620207>.



UDK:32.019.5(075)

**Mohigul AZIMOVA,**  
Andijon davlat chet tillar instituti o'qituvchisi  
E-mail: azimova.mohigul@mail.ru  
**Lola JURAYEVA,**  
Andijon davlat chet tillar instituti o'qituvchisi  
E-mail: flowertulip77@list.ru

Filologiya fanlar bo'yicha falsafa nomzodi D.Shokirova taqrizi asosida

### CHET TILLARIDA GAPIRISHGA O'RGATISHDA AUDIO VA VIDEO MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada "Chet tillarini o'rgatishda ya'ni ularning gapirish ko'nikmasini rivojlantirishda audio va video materiallaridan foydalanib, o'quvchilarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish samarali usullari tahlil qilingan. Har qanday til o'rganuvchiga o'zining ona tilisi bo'lmagan xorijiy tilni o'rganishda bir qancha qiyinchiliklarga duch keladi. Mazkur maqolada ana shunday qiyinchiliklarni bartaraf etishda audio va video materiallarning katta yordam berishi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Gapirish, audio, video, kompetensiya, til, muloqot, material.

### ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АУДИО- И ВИДЕОМАТЕРИАЛОВ В ОБУЧЕНИИ ИНОЯЗЫЧНОЙ РАЗГОВОРНОСТИ

Аннотация

В данной статье анализируются эффективные методы формирования у студентов межкультурной коммуникативной компетенции с использованием аудио- и видеоматериалов при обучении иностранным языкам, то есть при развитии у них навыков говорения. Любой изучающий язык сталкивается с рядом трудностей при изучении иностранного языка, который не является его родным языком. Выделены методы использования правильных и эффективных материалов для преодоления таких трудностей.

**Ключевые слова:** Говорение, аудио, видео, компетенция, язык, общение, материал.

### THE IMPORTANCE OF USING AUDIO AND VIDEO MATERIALS FOR SPEAKING SKILLS IN LEARNING FOREIGN LANGUAGE

Annotation

In this article, effective methods of forming students' intercultural communication competence using audio and video materials in teaching foreign languages, that is, in developing their speaking skills, are analyzed. Any language learner faces a number of difficulties in learning a foreign language that is not his mother tongue. Methods of using the correct and effective materials to overcome such difficulties are highlighted.

**Key words:** Speaking, audio, video, competence, language, communication, material

**Kirish.** Til – bu ijtimoiy hodisa u kishilik jamiyatining eng muhim aloqa vositasi bo'lib jamiyatga xizmat qiladi. Shuning uchun ham tilning kishilik jamiyatidagi o'rni juda katta ahamiyatga ega. Kishilar til orqali bir-birlari bilan munosabatda bo'ladilar bir-birlariga fikr istaklarini yetkazadilar. Demak til tafakkur bilan chambarchas bog'liq bo'lib tilsiz fikrni ifodalash sira mumkin bo'lmaganidek tafakkursiz til ifodasini shakllantira olmaydi. Til eng muhim muloqot vositasi bo'lib, uningsiz insoniyat jamiyatining mavjudligi va rivojlanishi mumkin emas.

Hozirgi kunda har bir inson uchun xorijiy tillarni bilish juda muhimdir. Dunyo tobora globallashib borayotgani va ikki tili bilish, shunchaki qizqish emas, balki zamon talabi bo'lib bormoqda. Zamonaviy dunyoda ona tilini bilishning o'zi yetarli emas, shuning uchun bugungi kunda yurtimizda maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab, chet tillarini o'rganishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Chet tili o'rgatishda o'qituvchidan alohida metodika, o'qitish mahoratini talab qiladi, lekin uni til muhitidan tashqarida o'zlashtirish katta qiyinchilik tug'diradi. Chet tilini bilish talabalarning gumanitar ta'lim darajasini oshiradi, shaxsning shakllanishiga va uning doimiy o'zgaruvchan ko'p

madaniyatli, ko'p tilli dunyo sharoitlariga ijtimoiy moslashishga yordam beradi. Boshqa bir millatning tarixi, madaniyati, urf-odatlarini o'rganish imkonini beradi. Zamonaviy ta'limga qo'yiladigan talablar va barkamol shaxsni tarbiyalashning ijtimoiy buyurtmasini bajarish zaruratidan kelib chiqqan holda, har bir o'qituvchi o'qitishning zamonaviy usullarini izlash, uni qiziqarli va standartlarga moslashtirishda ko'plab muammolarni hal qilishga majbur bo'ladi. Chet tilini o'rganishning ana shu qiyinchiliklaridan biri muloqot qilish va ta'lim muassasalaridan tashqarida nutq qobiliyatlarini qo'llash qobiliyatining juda cheklanganligidir. Shuning uchun o'qituvchining muhim vazifasi chet tili darsida turli xil ish usullaridan foydalangan holda real va xayoliy muloqot holatlarini yaratishdir. Maktab o'quvchilarini ona tilida so'zlashuvchi xalqlarning madaniy qadriyatlarini bilan tanishtirish ham bir xil darajada muhimdir[2].

Hozirgi kunda o'qituvchiga keng ko'lamli texnik o'quv qo'llanmalaridan foydalanish imkoniyati mavjud bo'lib, ular orasida eng qulay va keng tarqalgani o'quv materialini tinglash va video qo'llab-quvvatlashdan foydalanishga imkon beruvchi videotexnologiya hisoblanadi. Ta'kidlash mumkinki,

o'quv jarayoniga videorolik kiritilishi an'anaviy darsning xarakterini o'zgartiradi, uni yanada jonli va qiziqarli qiladi. Shuningdek, darsda videofilmlardan foydalanish o'quvchilarning umumiy dunyoqarashini kengaytirishga, ularning til fondini va mintaqaviy bilimlarini boyitishga yordam beradi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, video nafaqat boshqa ma'lumot manbai qolaversa, videofilmdan foydalanish o'quvchilarning aqliy faoliyatining turli tomonlarini, birinchi navbatda, diqqat va xotirani rivojlantirishga ham yordam beradi. Sinfda tomosha qilishda birgalikda kognitiv faoliyat muhitini yaratadi. Bunday sharoitda hatto e'tiborsiz o'quvchi ham diqqatli bo'lib qoladi, chunki film mazmunini tushunish uchun talabalar biroz harakat qilishlari kerak bo'ladi. Shunday qilib, ixtiyorsiz diqqat ixtiyoriga aylanadi va diqqatning intensivligi yodlash jarayoniga ta'sir qiladi. Axborotni qabul qilish uchun turli kanallardan foydalanish (eshitish va vizual kanallar, vosita idroki) mintaqaviy va lingvistik materialni bosib chiqarish kuchiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, o'quv videolarining o'quvchilarga ta'sirining psixologik xususiyatlari (har bir talaba va guruh auditoriyasining e'tiborini nazorat qilish qobiliyati, uzoq muddatli xotira hajmiga ta'sir qilish va yodlash kuchini oshirish, o'quvchilarga hissiy ta'sir ko'rsatish va oshirish o'quv motivatsiyasi) o'quv jarayonini faollashtirishga hissa qo'shadi va maktab o'quvchilarining kommunikativ (lingvistik va ijtimoiy-madaniy) kompetentsiyasini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi.

Videofilm talabalarga nisbatan kuchli hissiy ta'sir ko'rsatadi, ular ko'rgan narsaga shaxsiy munosabatni shakllantirishga ta'sir qiladi. Videofilming yana bir afzalligi - voqe'lik tasvirining bevositaligi, boshlovchining tomoshabinlar bilan muloqot qilishning o'ziga xos uslubi (agar bu teleko'rsatuv yoki teleko'rsatuv bo'lsa), yaqindan foydalanish, ma'lumotni ko'zga tashlanmasdan taqdim etish, rang-baranglik va musiqiy fonning mavjudligidir. Ekranida sodir bo'layotgan voqealar bilan aloqada, tabiiy sharoitlarga eng yaqin sharoitlar yaratiladi.

Audio-vizual texnologiyalari chet tilidagi nutqni tinglashga imkon beradi, bu shuningdek so'zlarni so'zlarga ajratish va so'zlarning talaffuzi va imlosini taqqoslash imkonini beradi. Shuningdek, talabaning aytilgan so'zini yoki iborasini keyingi nazorat va tuzatish uchun yozib olish mumkin. Multimedia texnologiyalari yordamida tovush kartalari foydalanuvchilarga o'z nutqlarini yozib olish va keyin uni so'zlashuvchilarning talaffuzlari bilan solishtirish imkonini beradi[1].

Chet tillarni o'qitish metodlari yo'lida samarali izlanishlar olib borgan olim Ter-Minasova zamonaviy til o'rganuvchilar hozirda tilga ilmiy nazariy hodisa sifatida emas, balki hayotiy ehtiyoj sifatida qarayotganliklarini ta'kidlaydi. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, chet tilini o'rganishga bo'lgan yondashuv va qarashlar oqimi hayotiy misollarga boy, real voqe'likka asoslangan ta'lim metodini qo'llab-quvvatlamogda. Ko'pgina olimlar bu borada chet tilini o'qitishning ko'plab vositalaridan — radioeshittirishlar, Feysbuk (Facebook) ijtimoiy tarmog'i asosida chet tilini takomillashtirishga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlashmogda. Ammo radio, ijtimoiy tarmoqlar, autentik matnlar yoxud turli ICT dasturlar o'quvchida lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik kompetentsiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan bir yoqlama vosita sifatida xizmat qiladi.

Leontievaning so'zlariga ko'ra, videodan foydalangan holda leksik mashqlar leksik birliklarni adekvat audiovizual kontekstda idrok etishga qaratilgan bo'lib, bu quyidagi usullardan foydalanish bilan osonlashadi:

a) Pauzadan so'ng video epizod qahramonlari tomonidan aytiladigan so'zlarni, iboralarni, ularning keyingi harakatlari, qilmishlari, shuningdek, tinglovchilar tavsiflashi

kerak bo'lgan xarakterning tashqi ko'rinishini bashorat qilish (bashorat qilish), ekranda ko'rmasdan ovoz ketma-ketligi;

b) Dorskada nomlari yozilgan ayrim obyektlar, hodisalar, harakatlar, ranglar belgilarini, shu jumladan "chalgituvchi" narsalarni tanib olish, topish (identifikatsiya qilish);

v) Dorskada yoki kartochkada yozilgan sifatlarni video epizodning u yoki bu belgilariga moslashtirish (moslashtirish); videoklipdagi kalit so'zlar bilan sinonimlar ro'yxati;

Grammatikani o'rgatishda video grammatikaning va nutqning bir-biriga bog'liqligini, grammatik tuzilmalardan ona tilida so'zlashuvchilar tomonidan qanday ishlatilishini ko'rsatishga imkon beradi.

Video og'zaki va yozma ifoda uchun yaxshi rag'bat bo'lishi mumkin. Videomateriallarning janr va tematik xususiyatlarini hisobga olgan holda talabalarga quyidagi turdagi vazifalar taklif qilinishi mumkin:

Video epizoddagi qahramonlardan birining xayoliy biografiasini yozish;

Do'stingizga xat shaklida video epizodni taqdim etish; Yangiliklarni ko'rish va jadvalni to'ldirish asosida sport sharhini tuzish;

Videofilm uchun qisqacha reklama, badiiy filmga taqriz yozish;

Video epizod syujetini bashorat qilish maqsadida o'qituvchi tomonidan taklif qilingan 10 ta ibora/so'z asosida qisqacha hikoya yozish;

Zamonaviy dunyoda chet tillarini o'rgatish kommunikativ yo'nalishga ega, shuning uchun video nutq va chet tillaridagi muloqotni o'rgatish uchun noyob vositadir.

Video materiallar maktab o'quvchilariga vizual ma'lumotlar yordamida taqdim etilgan turli xil sotsialingvistik omillarni hisobga olgan holda va kommunikantlarning nutq bayonotlarining tabiatini, xususan: ularning ijtimoiy mavqeini, munosabatlarning tabiatini, fazoviy va vaqtinchalik sharoitlarini hisobga olgan holda chet tilidagi muloqotni o'rgatish imkonini beradi. Aloqa va boshqalar quyidagi mashqlar:

Ovozsiz videoklipni ko'rish va suhbatdoshlar qayerda, ular o'rtasidagi munosabatlar qanday, maqomdagi farqlar haqidagi savollarga javob berish;

Talabalar tomonidan video fragmentni ovozsiz ko'rish va kartada taklif qilingan ikkita dialogning qaysi biri (rasmiy yoki norasmiy) unga mos kelishini aniqlash;

O'quvchilarning ijodiy tayyorlanmagan dialogik yoki monolog nutqi ko'nikmalarini rivojlantirishda video ham katta rol o'ynaydi. Buning rag'batlantiruvchisi, birinchi navbatda, quloq orqali nutqni idrok etish va tushunishni rivojlantirishga qaratilgan video materiallarni faol ko'rish uchun vazifalardir. Dialogik nutqni o'rgatishda mashqlar quyidagilarga qaratilgan:

- Video epizodda taqdim etilgan dialogni har bir tinglovchi tomonidan olingan individual nusxalar asosida tiklash;

- Personajlardan birining etishmayotgan satrlarini tiklash;

- Tinglovchilar tomonidan ko'rishdan oldin olingan 8-10 nusxaning har birining ma'lum bir belgi bilan bog'liqligi;

Monologik nutqni o'rgatish uchun mo'ljallangan mashqlarga quyidagilar kiradi:

- Video epizodning ma'lum bir lahzasida nima sodir bo'lganligi haqida hikoyani tuzish, bu "kadrlar muzlatish" bilan to'xtatiladi; keyin nima bo'lishi haqida taxminlar;

- Personajlardan birining nomidan syujetning qayta hikoya qilinishini tayyorlash

- Video fragment syujetining etishmayotgan qismini qayta tiklash (epizodning boshlanishi, oxiri yoki o'rtadagi klimatik hodisa);

Shu o'rinda chet tilini autentik video materiallar asosida o'qitishni yuqoridagi talablarning bajarilishi va kommunikativlikka asoslangan til ta'limining asosiy vositasi sifatida o'rganuvchini real hayotiy vaziyatlarga tayyorlash vazifalarining yengil yechimi deb qarashimiz lozim. Bundan tashqari autentik videomateriallar til o'rgatishda real hayotiy vaziyatning alternativ ko'rinishi sifatida yordam beradi. "Autentik audio-video materiallarning ommalashuvi til o'rganuvchilarga interaktiv til muhitini yarata olishidadir", — deb ta'kidlaydi rus olimi G. A. Vorobyov . Shu o'rinda kommunikativlikka asoslangan bu tizimli metod, ya'ni autentik video yoki kinomateriallarga asoslangan o'qitish metodikasi ustida rus olimlaridan A. Ye. Chikunova ,Yu. I. Verisokinlar , ko'p izlanishlar olib borganlar. Xorij olimlaridan S. Stempliski va B. Tomalinlarning

videomateriallarini chet tillarni o'qitishda maqsadli qo'llash usullari haqida qator adabiyotlar yaratishgan. I. Baltovanning fikricha, ovoz orqali taqdim etilgan ma'lumotlardan ko'ra ovoqli videotasvirlar yordamida taqdim etilgan ma'lumotlar til o'rganuvchilarning voqelikni yaxlit anglashlariga yordam beradi. Tadqiqot natijasida til o'rganuvchilar orasida yaxshiroq anglangan[6].

Chet tillarni o'qitishda audio-vizual materiallardan va texnologiyalardan foydalangan holda o'qitishning ilg'or usullarini joriy etish orqali yosh avlodga chet tillarini o'rgatish, ushbu tillarni mukammal biladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini yaratishda katta yordam beradi. Shuningdek, ularning jahon sivilizatsiyasidagi yutuqlari va jahon axborot resurslaridan kengroq foydalanishi uchun ham imkoniyatlar yaratadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Tashpulatova Nargiza Samaritdinovna. "Chet tilini o'rganish jarayonida aktdan foydalanish". Oriental Renaissance: Innovative, p VOLUME 2 | ISSUE 5/2.
2. Jamol Jalolov. "Chet tili o'qitish metodikasi" 2009. 75-b.
3. Захарова И.Г. Информационные технологии в образовании: учебное пособие для высших учебных заведений, заведений. М.: Академия, 2018. - С. 338.
4. Temirov Shahrizod. "Axborot texnologiyalari va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati". Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages. International scientific-practical conference. Issue 20.P.327. 2022.
5. Войтко С.А. Об использовании информационно-коммуникационных технологий на уроке английского языка / Интернет-журнал «Фестиваль педагогических идей» - Открытый урок, 2018.
6. Alimova Sevara Farxadovna. "Chet tilini o'qitishda autentik video-materiallardan foydalanishning nazariy asoslari". Uzbekistan-China development of cultural, historical, scientific and economic relations. Volume 2.33p.2022



UDK: 323:316.422 (575.1)

**Jaxongir AKRAMOV,**  
O‘zMU katta o‘qituvchisi, s.f.f.d. (PhD),  
E-mail: jahongir\_uzb@list.ru  
**Shoislom AKMALOV,**  
O‘zXIA dotsenti, s.f.n.  
E-mail: shaislamakmalov@gmail.com

O‘zJOKU dekani, s.f.f.d. (PhD) O.Yuldashev taqrizi asosida

### INNOVATSIYA SIYOSIY TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

Аннотация

Maqolada “innovatsiya” tushunchasi siyosiy fanlar nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Mualliflar turli xarakterdagi ilmiy-siyosiy materiallar asosida siyosiy innovatsiyalar mohiyatini belgilab bergan muhim tendensiyalar va omillarni tavsiflaydi.

**Kalit so‘zlar:** Innovatsiya, modernizatsiya, siyosiy innovatsiyalar, innovatsion rivojlanish.

### ИННОВАЦИЯ КАК ОБЪЕКТ ПОЛИТИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация

В статье анализируется понятие «инновация» с точки зрения политических наук. На основе различных научно-политических материалов авторы характеризуют ключевые тенденции и факторы, определяющие сущность политических инноваций.

**Ключевые слова:** Инновация, модернизация, политические инновации, инновационное развитие.

### INNOVATION AS AN OBJECT OF POLITICAL RESEARCH

Annotation

The article is analyzed the concept “innovation” in the sphere of politics sciences. Based upon various scientific and political sources, the authors elucidates the key trends and factors that determined the essence of political innovations.

**Key words:** Innovation, modernization, political innovations, innovative development.

**Kirish.** Mamlakatimizda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli isloh etish jarayonlari barcha sohalarini qamrab olgan bo‘lib, bu borada davlat boshqaruvi yo‘nalishi ham alohida o‘rin tutadi. Mamlakatimizda kechayotgan barcha sohalarini tub islohotlar orqali rivojlantirish jarayoni siyosiy-falsafiy fanlar tarmog‘ida modernizatsiya jarayoni sifatida baholanadi. O‘zbekistonda joriy modernizatsiya jarayonining bosh tashkiliy-huquqiy mezoni bo‘lgan Harakatlar strategiyasining birinchi ustuvor yo‘nalishi sifatida “Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish” etib belgilanishi respublika rahbariyatining siyosiy modernizatsiyaga, ya‘ni davlat boshqaruvi tizimini zamon talablariga moslashtirish jarayoniga katta e‘tibor berayotganidan darak beradi.

Modernizatsion va innovatsion rivojlanish muvaffaqiyatli rivojlanayotgan zamonaviy jamiyatlarning ajralmas qismidir. Bugungi dunyoda globallashuv sharoitida shakllangan raqobatning yuksak darajasi innovatsiyalarni joriy etish yo‘li bilan erishilishi mumkin bo‘lgan samaradorlik darajasini muntazam oshirib borish zaruratini oldindan belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 22-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasida jumladan, quyidagilarni ta‘kidlab o‘tgan edi:

“Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.

Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak,

uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak” [1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O‘zbekistonda davlat boshqaruvi modernizatsiyalash jarayonini innovatsiyalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Xo‘sh, innovatsiyaning o‘zi nima? Innovatsiya, “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da ko‘rsatilishicha, quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovatsiya (inglizcha innovationas – kiritilgan yangilik, ixtiro) — 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta‘minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy-texnika yutuklari va ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo‘llanilishi” [7].

Ushbu ensiklopedik ma‘lumotda innovatsiya tushunchasiga umumiy ta‘rif-tavsif berishda birtomonlamalikka yo‘l qo‘yilgan. Bu yerda asosan tabiiy fanlar, texnika, texnologiya, umuman mehnat faoliyatlarini tashkil etishda yuz berishi mumkin bo‘lgan yangilik va yangilanishlarga sababchi bo‘ladigan yangi intellektual bilim, g‘oya, nazariya va ta‘limotlar nazarda tutilgan. Ammo bular jumlasiga ijtimoiy-gumanitar fanlar, shuningdek, siyosiy fanlarga oid yangiliklar ham kirishi e‘tiborga olinmagan. Innovatsiya tushunchasi va uning mazmuni ham ... umumiy va xususiy tushuncha, mazmun va yo‘nalishlarga ega [6]. “Umumiy innovatsiya” deganda umuman keng ma‘nodagi, butun jamiyat va insoniyat taraqqiyoti, barcha mehnat faoliyatlari takomil topishiga xizmat qilgan innovatsiyalar nazarda tutilmog‘i kerak. Xususiy innovatsiyalar esa xalq xo‘jaligi yoki fanning, ma‘lum bir sohasi yoki yo‘nalishlari bilangina bog‘liq bo‘lgan innovatsiyalardan iboratdir.

“Innovatsiya” atamasi lotincha “novatio” soʻzidan olingan boʻlib, “yangilash” (yoki “oʻzgarish”)ni anglatadi hamda “in” old qoʻshimchasi lotinchadan “yoʻnalishda” deb tarjima qilinadi, agar soʻzma-soʻz tarjima qilinadigan boʻlsa, “Innovatio” – “oʻzgarishlar tomon yoʻnalish”dir. Innovatsiya tushunchasi XX asrning boshlarida “innovatsion kombinatsiyalar” tahlili, iqtisodiy tizimlar rivojidadagi oʻzgarishlar natijasida avstriyalik va amerikalik iqtisodchi Y.Shumpeterning ilmiy ishlari orqali yuzaga keldi. Iqtisodiy innovatsiya tushunchasi Yozef Shumpater tomonidan “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” (1911) asarida ishlab chiqilgan edi.

Innovatsiya deyilganda, jamiyat uchun maqbul boʻlib chiqqan hamda joriy etilishi ham salbiy, ham ijobiy (ijtimoiy-siyosiy) oqibatlariga olib kelishi mumkin boʻlgan sezilarli va dolzarb yangilik tushunilgan.

Innovatsiya – bu har qanday yangilik yoki yangilikni joriy etish emas, balki amaldagi tizim samaradorligini sezilarli darajada yuksaltiradigan yangilikdir [2].

Aksariyat tadqiqotchilar innovatsiyalarning asosiy xossalari (mezonlari) sifatida ularning qoʻllanish sohasidan qatʼiy nazar quyidagilarni: 1) yangilik; 2) amalda qoʻllanilishi; 3) muayyan maqsadlar va vazifalarni qondirish salohiyati (yaʼni kishilar yoki ijtimoiy institutlar talablariga javob berish salohiyati) ajratib koʻrsatishlarini taʼkidlab oʻtish lozim [3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Innovatsiya va modernizatsiya tushunchalarining nisbatini koʻrib chiqsak. Shu oʻrinda alohida qayd etib joizki, modernizatsiya va innovatsiya boshqa-boshqa, lekin bir-biriga bogʻliq tushunchalardir. Modernizatsiya (fransuzcha moderisatio, moderne – yangi, zamonaviy) – jamiyatni zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish maqsadida xilma-xil oʻzgarishlarni amalga oshirishdan iborat ijtimoiy-tarixiy jarayonni ifodalovchi tushunchadir [5]. Innovatsiya deyilganida insonning va umuman butun jamiyatning ehtiyojlarini qondirish uchun ilgari sinab koʻrilmagan qandaydir yangilikni yaratish, tashkil etish, kengaytirish va joriy etish tushuniladi. Lekin modernizatsiya va innovatsiya bir-birini taqozo etadi. Chunki jamiyatni zamon talablariga mos takomillashtirish jarayonida barcha sohalarda samaradorlikni oshira oladigan yangiliklarga kuchli ehtiyoj tugʻiladi. Innovatsiyalarni hayotga tatbiq etish esa oʻz-oʻzidan modernizatsiya jarayonida koʻproq samaradorligini namoyon eta oladi.

Modernizatsiyalash va innovatsion jarayonlar oʻzaro chambarchas bogʻliqdir. Modernizatsiyalash aniq qoʻllaniladigan innovatsiyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish, ularni amalda qoʻllash usullari va vositalarini yaratish, ularni harakatga joriy etish, sarf etiladigan vositalar va saʼy-harakatlarni imkon qadar kamaytirishga yoʻnaltirilgandir. Modernizatsiyada siyosiy boshqaruvni yangilash – negiz masala hisoblanadi [8].

Innovatsiyalarning bir qancha turlari mavjud, jumladan:

- Texnologik innovatsiyalar – mavjud mahsulot, buyum, texnikani yangisini qoʻlga kiritish yoki samarali ishlab chiqish, yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonlardir. Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish sohasidagi innovatsiyalar texnologik innovatsiyalarga kirmaydi.

- Ijtimoiy (jarayonli) innovatsiyalar – jamiyat hayotini (pedagogika, boshqaruv tizimi, xayriya, xizmat koʻrsatish, jarayonni tashkil etishni) qayta tashkil etishda inson hayoti sohalarini yangilash jarayonidir.

- Mahsulot innovatsiyalari – yangi va foydali xossalarga ega boʻlgan mahsulotlarni yaratish.

- Tashkiliy innovatsiyalar – menejment tizimini takomillashtirishdir.

- Marketing innovatsiyalari – mahsulotlar bezagi yoki oʻramida sezilarli oʻzgarishlarni qamrab oluvchi yangi yoki anchagina yaxshilangan marketing usullarini joriy etish, savdo va mahsulotlar (xizmatlar) taqdimotida yangi usullardan foydalanish, ularni sotish bozorida taqdim etish va ilgari surish, yangicha narx strategiyalarini shakllantirishdir.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot mavzuumizdan kelib chiqqan holda biz boshqaruv tizimi borasidagi innovatsiyalarning ijtimoiy (jarayonli) innovatsiyalar turiga mansubligini koʻrishimiz mumkin. Oʻz oʻrnida, boshqaruv tizimidagi jarayonlar va yangiliklar siyosatshunoslik fani vakolati doirasida boʻlgani uchun davlat boshqaruv tizimi borasidagi innovatsiyalar, yaʼni siyosiy innovatsiyalar ushbu fan doirasida tadqiq etiladi.

Agar innovatsiyalarning iqtisodiy mohiyati uni tijorat yoʻli bilan joriy etishga qadar yetkazishdan iborat boʻlsa, uning siyosiy mohiyati muayyan boshqaruv amaliyotidan (davlat hokimiyati idoralari tizimidagi texnologiyalar, tuzilma, xizmatlar) hamda buni davlat boshqaruvi idoralari faoliyatida tizimli tarqalishidan iborat ekanligi taʼkidlanadi.

Jamiyat hayotining barcha sohalari va tomonlarini qamrab oluvchi davlat faoliyatining mustaqil yoʻnalishi sifatidagi innovatsion siyosatdan farqli oʻlaroq, siyosiy innovatsiyalar davlat siyosatining oʻta turli-tuman tarmoqlarida, yaʼni: ijtimoiy, iqtisodiy, sanoat, taʼlim, mahalliy, madaniy, transport va boshqa tarmoqlarida namoyon boʻlishi mumkin. Yaʼni, innovatsion siyosat – bu tarmoqqa doir, vertikal birlashishga yoʻnaltirilgan faoliyat boʻlsa, siyosiy innovatsiyalar – bu davlat siyosatining oʻta turli yoʻnalishlariga singish xossasiga ega boʻlgan gorizontallardagi tuzilmali hodisadir. Shunday qilib, siyosiy innovatsiyalar deyilganda, biz, davlatning davlat siyosatining turli yoʻnalishlarida yangiliklarni kiritish yoʻli bilan siyosiy tizimning samaradorligi va oshkorligini yuksaltirishga yoʻnaltirilgan maqsadli faoliyatini tushunamiz. Siyosiy tizimni demokratlashtirish, saylov qonunchiligini erkinlashtirish, mahalliy siyosatda vakolatlarini quyi darajaga taqdim etish, iqtisodiy siyosatda tadbirkorlikka boʻlgan soliq yukini kamaytirish, transport siyosatida transport sohasini mablagʻlashtirishni optimallashtirish va hokozolar siyosiy innovatsiyalarga misol boʻlishi mumkin.

Innovatsiyalarning bir qator tasnifiy alomatlarini ajratib koʻrsatish mumkin.

Oʻzgartirish obyekti boʻyicha innovatsiyalar, oʻzgartirish obyektiga bogʻliq holda: xizmat koʻrsatish innovatsiyalari (misol uchun, siyosiy texnologiyalar va axborot tahliliy faoliyatga autsorsingni joriy etish, siyosiy kompaniya konsepsiyasini ishlab chiqish, saylovchilarning imzolarini yigʻish va h.k.); jarayonli innovatsiyalar (masalan, saylov kompaniyasini oʻtkazish jarayonidagi oʻzgarish, reklama mahsulotini ishlab chiqarish, televizion roliklar tayyorlash); maʼmuriy innovatsiyalar (kadrlar zaxirasini tayyorlash, ularni oʻqitish va h.k.); tizimli innovatsiyalar (masalan, yangi siyosiy partiyalar, jamoatchilik tashkilotlarini tuzish yoki oʻzaro harakatning yangi usullarini joriy etish); konseptual innovatsiyalar (subyektlarning dunyoqarashi, mafkurasini oʻzgartirish, yangi partiya dasturlarini, konsepsiyalarini ishlab chiqish, yangi migratsion qonunchilikni shakllantirish va h.k.); radikal oʻzgarishlar (yangi harbiy, siyosiy boʻgʻinlar, koalitsiyalarning shakllanishi).

Yangilik kiritish tashabbuskoriga bogʻliq innovatsiyalar: “yuqoridan-pastga” innovatsiyalar (odatda, hukumat tuzilmalari, hukmron siyosiy partiya, siyosiy yetakchilar va h.k.lar tomonidan kiritiladi) hamda “pastdan-yuqoriga” bular davlat xizmatchilari, budjet sohasidagi xodimlar, deputatlar, saylovchilar, fuqarolik jamiyati vakillari, oʻrta boʻgʻin siyosatchilari (faollari) tomonidan boʻladigan tashabbus bilan kiritiladi.

Yangilik darajasiga ko'ra innovatsiyalar: bosqichli innovatsiyalar (incremental innovations) – mavjud jarayonlar va institutlarni birozgina yaxshilashni nazarda tutadi; radikal innovatsiyalar (radical innovations) – mavjud jarayonlar va institutlarni tubdan o'zgartirish yoki yangilarini joriy etish; tizimli innovatsiyalar (system innovations) – yangi tizimni yaratish yoki mavjudlarini: siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, energetik, mahalliy (siyosiy oqibatlar) tizimlarini fundamental o'zgartirish va h.k.lar.

Paydo bo'lish sabablariga bog'liq innovatsiyalar: extiyojlardan yuzaga keladigan innovatsiyalar – muayyan vazifani hal qilish uchun yaratiladi; samaradorlikni yuksaltirishga mo'ljallangan innovatsiyalar – amalga oshirilayotgan jarayonning, mavjud mahsulot, xizmatlar yoki tartibotning samaradorligini yuksaltirish uchun ishlab chiqiladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan innovatsiya turlari bevosita siyosiy innovatsiyalarning ham turlarni tashkil etishini inobatga olish lozimdir.

Shu o'rinda siyosiy innovatsiyalar va siyosatdagi innovatsiyalarni farqlab ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'lib ko'rinmoqda. Bularning birinchisi siyosiy tizimda va uning tizimchalaridagi sezilarli o'zgarishlar: institutsional, meyoriy huquqiy, mafkuraviy, axborot kommunikatsion o'zgarishlardan iborat; ikkinchisi, siyosatdagi innovatsiyalar: siyosiy vaziyatga siyosiy mojarolarning rivojlanishi, saylov kampaniyasini amalga oshirish, siyosiy jarayon va boshqalarga jonli ijodiy javob sifatida doimo aniq bo'lishi mumkin.

Davlatning innovatsiyaga qodirligi ijtimoiy hayotning barcha sohalarida: huquq va ma'muriy tizim, davlat xizmati, sog'liqni saqlash va ta'lim, ijtimoiy siyosat sohalarida yangiliklar va o'zgarishlarni joriy etish siyosatini

shakllantirishdan iborat bo'lishi lozim. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi asosiy siyosiy tendensiyalardan biri innovatsiyaga qodirlik va yalpi modernizatsiyalashdir. Davlat aks holda rivojlanishda muqarrar orqada qolish kutayotganligini anglaydi [4]. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda modernizatsiyalash va innovatsiya faoliyatini ancha faol moliyalashtirish amalga oshirilmoqda, bu rivojlanishning mazkur yo'nalishi ahamiyatini asoslamogda.

**Xulosa va takliflar.** Innovatsion rivojlanish modernizatsiyalashning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib ko'rinmoqda. Innovatsiyalar umumqamrovli tusga kirayotganligi so'nggi o'n yilliklarga xosdir. Agar ilgari innovatsiyalardan cheklangan tarzda, asosan faoliyatning texnik sohasida foydalanilgan bo'lsa, vaqti kelib bular ijtimoiy hayotning barcha sohalariga tarqaldi. Buning ustiga, innovatsion faollik faqatgina tijorat tuzilmalari va ilmiy muassasalarga emas, umuman davlatga ham xos bo'lib qoldi.

Shunday qilib, siyosatda innovatsiyalar siyosiy tizimni rivojlantirish va amal qilish samaradorligini oshirish uchun munosabatlar, institutlar, amaliyotlarning yangi ko'rinishlarini shakllantirish uchun zaruriy yondoshuvdir. Shu asnoda innovatsiyalar odatda globalashuv sharoitlarida ijtimoiy-siyosiy voqelikni tubdan o'zgartiruvchi, davlat va jamiyatni maqsadga yo'naltirilgan holda rivojlantirishga imkon yaratuvchi, mamlakatning salmog'i va nufuzini kuchaytiruvchi intellektual yangilikdir. Zamonaviy davlatlar va jamiyatlarining rivojlanishi yo'nalishi maqbul iqtisodiy iqlimni, jamiyatni samarali rivojlantirishni amalga oshirish uchun huquqiy meyorlarni yaratishga yo'naltirilgan innovatsiyalarni shakllantirish va amalga oshirishga asoslanishi lozim. Mamlakatni ko'lamli o'zgartirish natijasi ham, xalqaro maydondagi O'zbekistonning nufuzi ham yuqoridagilarning sur'atiga bog'liq.

#### ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018.
2. Друкер П. Бизнес и инновации. – М.: Вильямс, 2007.
3. Кононов В.М. Инновационная политика в системе национальных приоритетов современной России. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора политических наук. Москва, 2003.
4. Луговая Е.С. Инновации как основа модернизации современного общества. // Вестник Волгоградского государственного университета. Сер. 7. Филос. – 2012. – №2(17).
5. Фалсафа энциклопедик луғат. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010.
6. Холбоев С. Миллий мустақиллик ва таракқиётнинг ўзбек модели (методология, инновация, тарихий таҳлил). – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2015.
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2002.
8. Қўчқоров В. Модернизациялашнинг замонавий мезон ва тамойиллари. // Жамият сиёсий тизимини модернизациялаш ва демократлашувнинг замонавий тенденциялари (Илмий-амалий конференция материаллари). – Тошкент: “Akademiya”, 2014.



*Dildora AKRAMOVA,*  
*Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi*  
*E-mail: dildoraakramova29@gmail.com*

*P.f.n. dotsent F.U.Jumanova taqrizi asosida*

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBİYALANUVCHILARIDA MOSLASHUVCHANLIK  
МЕХАНИЗМЛАРИНИ RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Аннотация

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari ya'ni bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashtirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Buning uchun birinchi navbatda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moslashuvchanlik mexanizmlarini aniqlab olish va amaliyotga qo'llash talab etiladi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni adaptiv jarayonlarini takomillashtirishning usullari va vositalari, metodikasi asoslari, uning asosiy mazmuni, bu jarayonda bolalarda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish usullari, moslashuvchanlikning pedagogik va psixologik holatlari haqida fikr bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Moslashuvchanlik, adaptatsiya, ehtiyoj, talab, dars mashg'ulotlari, mustaqil fikr-mulohaza, talabalar, psixologik moslashuv, yosh pedagog, ijtimoiy adaptatsiya, psixologik adaptatsiya, pedagogik adaptatsiya.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ РАЗВИТИЯ АДАПТИВНЫХ  
МЕХАНИЗМОВ У ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧИТЕЛЕЙ**

Аннотация

Адаптация воспитателей дошкольной организации образования, то есть детей к организации дошкольного образования, является одной из актуальных задач сегодняшнего дня. Для этого, в первую очередь, необходимо выявить и реализовать на практике механизмы гибкости в организациях дошкольного образования. В данной статье дается мнение о методах и средствах совершенствования адаптационных процессов дошкольников, основах методики, ее основном содержании, проблемах, возникающих у детей в этом процессе и путях их устранения, педагогических и психологических условиях гибкости.

**Ключевые слова:** Гибкость, адаптация, потребность, спрос, уроки, самостоятельная обратная связь, студенты, психологическая адаптация, молодой педагог, социальная адаптация, психологическая адаптация, педагогическая адаптация.

**PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF FLEXIBILITY  
MECHANISMS IN CHILDREN OF PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION**

Annotation

Adaptation of educators of preschool education organization, that is, children to preschool education organization, is one of the urgent tasks of today. For this, first of all, it is necessary to identify and put into practice the mechanisms of flexibility in preschool education organizations. This article provides an opinion on methods and means of improving the adaptive processes of preschool children, the basis of the methodology, its main content, the problems that arise in children in this process and ways to eliminate them, pedagogical and psychological conditions of flexibility.

**Key words:** Flexibility, adaptation, need, demand, lessons, independent feedback, students, psychological adaptation, young pedagogue, social adaptation, psychological adaptation, pedagogical adaptation.

**Kirish.** Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari ya'ni bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga moslashtirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Buning uchun birinchi navbatda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moslashuvchanlik mexanizmlarini aniqlab olish va amaliyotga qo'llash talab etiladi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni adaptiv jarayonlarini takomillashtirishning usullari va vositalari, metodikasi asoslari, uning asosiy mazmuni, bu jarayonda bolalarda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish usullari, moslashuvchanlikning pedagogik va psixologik holatlari haqida fikr bildirilgan. Avvalo maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida moslashuvchanlik mexanizmlarining pedagogik va psixologik hususiyatlarini o'rganishda birinchi bo'lib moslashuvchanlik ya'ni adaptatsiya so'zining ma'nosiga to'xtalib o'tish lozim.

Adaptatsiya (lot. adaptatio — moslashuv) — 1) organizmning turli yashash sharoitlariga moslashishi; 2) sezgi

a'zolarining o'ziga ta'sir etadigan qo'zg'atuvchilarga moslashishi natijasida ularda sezgirlik darajasining o'zgarishi (mas, ko'zning yorug'lik yoki qorong'ilikka moslashuvi). Qo'zg'atuvchining ta'sir kuchi o'zgarishi bilan sezgirlik ham o'zgaradi. Qo'zgatuvchilar sust ta'sir etganda sezgirlik oshadi, kuchli ta'sir etganda esa kamayadi. Adaptatsiya hodisasi hamma tashqi sezgilar (ko'rish, eshitish, hid, ta'm, badan sezgisi) ga xosdir.

Taktill, harorat, hid va ko'rish sezgilarida Adaptatsiya kuchli, eshitish va og'riq sezgilarida kuchsizdir. Ichki sezgilar (mas, tashnalik, ochlik) ga nisbatan Adaptatsiya hosil bo'lmaydi. Adaptatsiya organizmning normal hayot faoliyatini saqlab turishini, atrof muhitning turli omillari: temperatura va iqlimning o'zgarishiga (iqlimga moslashish), balandlikka (balandlik kasalligi), ko'pgina infeksion agentlarga (qarang Immunitet) moslanishini ta'minlaydi. Adaptatsiya reaksiyasi moddalar almashinuvi intensivligining uzluksiz o'zgarib turishiga asoslangan. Odam organizmning

moslashuv reaksiyasini tez ya'ni spesifik va sekin ya'ni nospesifik, tug'ma reaksiyalarga bo'lish mumkin. Masalan, og'ritadigan omil ta'siriga javoban oyoq-qo'lni tortib olish, jismoniy ish qilganda nafas olishning kuchayishi, qon oqimi hamda yurak faoliyatining tezlashishi va qonning qayta taqsimlanishi, qorong'ida ko'z yorug'lik sezish layoqatining zo'rayishi — bularning hammasi tug'ma tezkot adaptatsiya reaksiyalaridir. Har bir kishining turli yashash sharoitlariga moslashish imkoniyati uning irsiyati, yoshi, sog'lig'i va boshqalarga bog'liq. Moslashuvchanlik nima:

Moslashuvchanlik bo'ladi obyekt yoki shaxsning tavakkal qilmasdan egilish qobiliyati. Xuddi shunday, moslashuvchanlik ham turli xil o'zgarishlarga moslashish uchun shaxsga ega bo'lgan holatlar sizning hayotingizda sodir bo'lishi mumkin yoki qoidalarni har xil sharoitda yoki o'zgarishda shartlash.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Adaptatsiya barcha tirik organizmning o'zgarayotgan sharoitlardagi hayot faoliyatini ta'minlaydigan umumiy universal xususiyat bo'lib, organizmning funksional va tuzilma elementlarining atrof-muhitga adekvat moslashish jarayonidan iboratdir. Jismoniy yuklamalar – bu odamga ta'sir qiluvchi eng qadimiy va tabiiy omildir. Jismoniy yuklamalarga adaptatsiyani rivojlantirishning so'zsiz shartlaridan biri – organizm fiziologik zahiralardan foydalanish va uning mobilizatsiyasi hisoblanadi. Adaptatsiya jarayonida hech qanday yangi funksional hodisa va mexanizmlar kuzatilmaydi, shunchaki mavjud mexanizmlar mukammalroq, jadalroq va tejamliroq ishlay boshlaydi. Adaptatsiya va organizmning jismoniy yuklamalarga moslashish jarayonlarini ko'plab tadqiqotchilar A.B. Gushenka, Ya.A. Leshenko, A.B.Boeva, D.V.Medvedov, A.E.Belanov, M.N.Ismailov, V.V.Vasilev, A.A.Usmanxodjayeva, R.M.Jo'rayev, D.V.Kracichkov, E.P.Gorbaneva, R.R.Abdullayeva, G.L.Arakelyan, N.P.Mirametova va boshqalar o'rganishgan. Olimlar A. Uxtomskiy, I. Vvedenskiy, P. Anoxin, P. Lesfgat va boshqalar bola tanasining yosh xususiyatlarini o'rganishdi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning salomatlik muammolari va jismoniy chiniqishi bilan bog'liq adabiyotlarda keltirilishicha, so'nggi yillarda 2-7 yoshdagi organizmlarning kasallanish darajasi nisbatan yuqori darajada bo'lib, dastlabki 3 o'rinni quyidagi kasalliklar egallaydi: nafas olish organlari (50,2%) tashqi ta'sirlar tufayli shikastlanishlar, zaharlanishlar (10,6%) va teri kasalliklari (6,1%), so'ng ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari (5,1%), mushak-skelet tizimi kasalliklari (4,3%), tanosil a'zolari kasalliklari (4,25%), ko'z va sezgi a'zolari kasalliklari (4,0%), asab tizimi kasalliklari (2,7%) .

Yuqoridagi jarayonlarning sodir bo'lmasligi yoki oldini olishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning moslashuvchanlik mexanizmlarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi

**Tadqiqot metodologiyasi.** Moslashuvchanlik atamasi lotin tilidan kelib chiqqan "moslashuvchanlik". Moslashuvchanlik so'zning tarkibiga qarab turli xil ta'riflarni taqdim etadi. Mexanik moslashuvchanlik ular deformatsiyalanadigan qattiq jismda erishilgan kuchlanish va slaydlar, xuddi shu tarzda, bo'lishi mumkin ba'zi materiallarning konvertatsiya qilish va asl shakliga qaytish qobiliyati.

Mehnat egiluvchanligi bu ish beruvchi yoki kompaniyaning majburiyatlarini kamaytirish uchun mehnat huquqlarini tartibga solish uchun mas'ul bo'lgan ish modeli. Mehnat egiluvchanligi ish beruvchini ishchilar uchun himoya qonunchiligiga kamroq moslashtirilishini, ish joyining ko'payishiga erishishni istaydi, chunki u kamroq to'siqlar bilan o't ochishi, ish beruvchining xohishi bilan uzaytirilishi mumkin bo'lgan qisqa shartnomalar, ish beruvchi uchun boshqa imtiyozlar qatorida. Ishchilarga nisbatan mehnatning

moslashuvchanligi mehnat sharoitida qonuniy noaniqlikni keltirib chiqaradi, xodimning sotib olish qobiliyatini pasaytiradi va ishchilar uyushmalari yoki kasaba uyushmalari tomonidan mehnat huquqlarini samarali amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Moslashuvchanlik so'zi sinonim sifatida ishlatilishi mumkin: egiluvchanlik, egiluvchanlik, qarshilik, toniklik, yumshoqlik va boshqalar. Shuningdek, egiluvchanlik so'zining ba'zi antonimlari: qattiqlik, qat'iylik, murosasizlik.

Qiymat sifatida egiluvchanlik Insonning moslashuvchan xarakteri - bu shaxsiyat bilan bog'liq, chunki u sizga yangi g'oyalarni qabul qilish va yangi sharoitlarga yoki vaziyatlarga moslashishga imkon beradi. Xarakterga ega bo'lgan shaxs shaxsiy munosabatlar uchun ham, ish joyida ham ijobiy fazilatdir, chunki u boshqa fazilatlar qatori bag'rikenglik, tushunuvchanlik, itoatkorlik bilan ajralib turadi.

Kognitiv moslashuvchanlik shaxsning olgan bilimlarini yangi sharoitda yoki vaziyatda qo'llash qobiliyati. Kognitiv moslashuvchanlik axborotni qabul qilish, g'oyalarni ifodalash va ularni yangi vaziyatlarga moslashtirish usulida namoyon bo'ladi. O'zgarishga qarshilik ko'rsatish ma'nosiga ham qarang.

Fizikada moslashuvchanlik bu qo'shma yoki bo'g'inlar guruhining qo'polliksiz va hech qanday shikast etkazmasdan mumkin bo'lgan maksimal kengayish bilan harakatlarni amalga oshirish qobiliyatidir.

Moslashuvchanlikni qo'shma harakatchanlik va mushaklarning elastikligi shartlari bilan aralashtirmaslik kerak. Bu tananing bir qismini marshrut ichida iloji boricha uzoqroq harakat qilish qobiliyatidir, buning o'rniga, mushaklarning elastikligi bu mushakning shikastlanishsiz cho'zilib, keyin shaklini tiklash uchun dastlabki holatiga qisqarish qobiliyatidir.

Yuqorida aytib o'tilganlarga qaraganda, moslashuvchanlik natijada mushaklarning elastikligi va bo'g'inlarning harakatchanligi. Xuddi shunday, egiluvchanlikka genetika, yosh, mushaklarning charchashi va boshqalar kabi turli omillar ta'sir qiladi. Mushak isishi va uning har xil harakatlarga moslashishi uchun yetarlicha moslashuvchan bo'lishi uchun mashqlar oldidan va keyin cho'zish kerak, xuddi shu singari, doimiy amaliyotga qaramay, vaqt o'tishi bilan egiluvchanlik yo'qoladi.

Yuqorida sanab o'tilgan moslashuvchanlikning barcha turlari maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida shakllantirilgan taqdiridagina ularda mashg'ulotlarga nisbatan qiziquvchanlik oshib boradi.

**Tahlil va natijalar.** Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim tizimi islohoti munosabati bilan yosh mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj ancha oshdi Ammo mutaxassislik bo'yicha tajribaning kamligi, ba'zida esa umuman yo'qligi, ham kasbiy, ham kommunikativ bilim, ko'nikma va malakalarning etishmasligi odatda moslashish jarayonini murakkablashtiradi. Bu esa o'z navbatida aynan ushbu sohada ko'plab nomutaxassis kadrlarning faoliyat olib borishiga sabab bo'ladi. Bolaning maktabgacha bo'lgan davrida juda muhim psixologik rivojlanish bosqichlari mavjud bo'lib, bu mutaxassisdan pedagogik-psixologik kompetentlikni talab etadi. O'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarida adaptatsiya jarayonidagi bir qancha o'ziga xos muammolar shaxs tomonidan ijobiy xal qilina olmagach, sohani tark etish holatlari mavjudir. Buning natijasida bo'sh ish joylariga nomutaxassis kadrlar olinadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari yosh mutaxassislarni kasbiy moslashuv jarayoni deyarli o'rganilmagan. Buning sababi – pedagogik- psixologik yondashuvni ta'minlovchi mavjud tizimning mukammal emasligidir. Ana shu nomutanosiblikning yechimini topish mazkur maqolaning muammosini tashkil etadi va uning dolzarbligini belgilaydi. Yosh mutaxassislar mehnat bozorining eng zaif qatlamlaridan biri bo'lib, moslashuv muammosi ularni eng jiddiy

muammolaridan biridir. Moslashuv jarayoni barcha mutaxassislar uchun birdek tez va og'riqsiz bo'lmaydi, ya'ni yosh mutaxassislar ta'lim muassasini tugatgandan so'ng, birinchi marta mehnat jamoasiga kirganda, birdaniga uning faoliyatiga kirishib keta olmaydi. Hozirgacha ko'pgina davlat korxonalari va tijorat tashkilotlarida hatto oddiy moslashuv dasturlari ham mavjud emas.

Mutaxassislikka ega bo'lgan yoshlarning mehnat bozoriga "kirishi" muammosi, asosan, ijtimoiy-psixologik omillar bilan bog'liq, bunda bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanish va mehnat jarayoni haqidagi fikrlari ish joyidagi real vaziyat va talab bilan mos emasligini ko'rsatadi. Yosh mutaxassislar mehnat bozoriga kirishga psixologik tayyor emasligi ish beruvchilar tomonidan universitet bitiruvchilarini tushinishda salbiy stereotiplarning shakllanishiga olib keladi. Albatta bitta maqola doirasida ushbu muammo yechimini faqat bitta jihatini ko'rib chiqish mumkin. «Ustoz-shogird» tizimi doirasida taklif etilayotgan treninglar tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalar asosida tashkil etilishi, yosh mutaxassislarni adaptatsiya jarayonini muvaffaqiyatli xal etishi mumkin. Tanqidiy fikrlash– bu yosh mutaxassisga adaptatsiya jarayonida taklif qilingan nuqtai nazar yoki xulq-atvor modeli to'g'risida qat'iy qaror chiqarishga imkon beradigan maxsus faoliyat turi.

"Tanqidiy fikrlash" - bu ma'lum bir pedagogik yondashuvning belgisi bo'lib, matnga, tanqidiy munosabat asosidagi pedagogik texnika sifatida o'rganila boshlangan. "Tanqidiy fikrlash" - yangicha qarash, bu texnologiya bilishning yangi usulini rivojlantirishni ta'minlaydi. "Tanqidiy fikrlash" texnologiyasi asosida tashkil etilgan treninglar yosh mutaxassislarni o'zlarini savol berishga undaydi va javob izlashni faollashtiradi. Shunday qilib, "Tanqidiy fikrlash" bu shaxsga taklif qilingan nuqtai nazar yoki xulq-atvor modeli to'g'risida qat'iy qaror chiqarishga imkon beradigan maxsus faoliyat turi. "Tanqidiy fikrlash"ning maqsadi mutaxassislariga adaptatsiya davridan keyingi mehnat faoliyatida zarur bo'ladigan tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat (asosli qarorlar qabul qilish, ma'lumot bilan ishlash, asosiy va ikkinchi darajali narsalarni ajratib ko'rsatish, hodisalarning turli tomonlarini tahlil qilish qobiliyati). "Tanqidiy fikrlash" texnologiyasi mutaxassisning intellektual va hissiy faoliyatini faollashtirib, shaxsiyatini mehnat jarayoniga jalb qilish imkonini beradi.

Natijada yosh mutaxassislar tanqidiy fikrlash qobiliyatini tavsiflovchi yangi sifatga ega bo'ladilar. Pedagogik olimlar tanqidiy fikrlashning quyidagi belgilarini ajratib ko'rsatishadi:

- Inson bilan sodir bo'ladigan barcha narsadan ijobiy tajriba shakllanishi natijasida fikrlash samaradorligi oshadi;
- Muammoli va baholovchi fikrlash;
- Umumlashgan fikrlash;
- Mustaqil va mas'uliyatli fikrlash;
- Asosli fikrlash, chunki ishonchli dalillar puxta o'ylangan qarorlar qabul qilishga imkon beradi;
- Ko'p qirrali fikrlash, chunki u hodisani turli tomonlardan ko'rib chiqish qobiliyatida namoyon bo'ladi;
- Individual fikrlash, chunki u axborot bilan ishlashning shaxsiy madaniyatini shakllantiradi;
- Ijtimoiy fikrlash, chunki ish juftliklar, guruhlarda amalga oshiriladi;

O'zaro ta'sirning asosiy usuli - munozara. Insonga tanqidiy fikrlash kerak, bu unga odamlar orasida yashashga, ijtimoiylashishga yordam berib, yosh mutaxassisni adaptatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytdigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim muassasalari yosh mutaxassislarining adaptatsiya jarayoni «Ustoz shogird» tizimi tarkibidagi seminar treninglarda «Tanqidiy fikrlash» texnologiyasidan foydalanish orqali quyidagilar ijobiy natijalarga erishish mumkin:

- Yosh mutaxassis boshqa pedagogning tajribasini yaxshi qabul qiladi;
- Jamoaviy ish birlikni vujudga keltiradi;
- Yosh mutaxassislar bir-birini tinglashni o'rganadilar;
- Umumiy ish uchun mas'uliyat kuchayadi;
- Kichik yoshdagi bolalar bilan ishlash ko'nikmalarini va malakalarini rivojlantiradi;
- Mustaqil qarorlar qabul qilish uchun sharoit yaratadi;
- Ota-onalardan qo'rqish yo'qoladi;
- Bilimlarning turli sohalarida tobora ortib borayotgan va doimiy yangilanib turadigan axborot oqimi bilan ishlash qobiliyati shakllanadi;
- O'z nuqtai nazarini muhokama qilish va boshqalarning nuqtai nazarini hisobga olishni o'rgatadi;
- Mustaqil o'z ustida ishlash qobiliyati (akademik harakatchanlik) shakllanadi;
- O'z-o'zini, faoliyatini hurmat qilishni oshiradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Belkina L.V. Yosh bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalari sharoitlariga moslashish. - Voronej: O'qituvchi, 2006-yil, - 236-b.
2. Babenkova E.A. Davolaydigan o'yinlar. 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun - M.: Sfera. 2010-yil – 80-b.
3. Akramova D. (2022). Bo'lajak pedagog-psixologlarning maktabgacha ta'lim tizimidagi faoliyati. Science and innovation, 1(B8), 322-326.
4. Akramova D. (2022). Oliy ta'lim muassasalari talabalarida pedagogik-psixologik moslashuvchanlikni mazmun mohiyati. Science and innovation, 1(B8), 2150-2153.
5. Ergashevna A.D. (2023). Talabalarda pedagogik-psixologik moslashuvchanlik mexanizmlarini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish bugungi muammo sifatida. Pedagog journali, 26(1), 13-17.
6. Абдиева Ф. Мактабгача Таълим Ташкилоти Директорларининг Бошқарув Маданиятини Такомиллаштириш Сиенсе анд инноватион 1 (B8), 2154-2156.
7. Абдиева Ф. Мактабгача Таълим Ташкилоти Раҳбарининг Бошқарув Маданиятини Инновацион Ёндашувлар Асосида Ривожлантириш Механизмлари интернационал конференс 1 (2), 397-400.



UDK:372.874.1

**Tolib ASTANOV,**  
Qarshi davlat universiteti katta o‘qituvchisi  
E-mail:astanov.tolib@mail.ru

Qarshi davlat universiteti professori I.B. Kamolov taqrizi asosida

### TEACHING METHODOLOGY OF THE SUBJECT “POINTS AND THEIR ARRANGEMENT ON A DRAWING”

Annotation

The science of "descriptive geometry" plays an important role in improving students' spatial imagination. To improve the spatial perception of students, it is very important to study the projections of points on octants and their representation on the diagram. This requires a lot of experience, knowledge and skill from the teacher. The article talks about the teaching methods that are necessary to achieve this goal.

**Key words:** Point formation, projection plane, projection axes, point projections, image of a point on a plot, drawing reading rule.

### МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ТЕМУ «ТОЧКИ И ИХ РАСПОЛОЖЕНИЕ НА ЧЕРТЕЖЕ»

Аннотация

Наука «начертательная геометрия» играет важную роль в совершенстве вании пространственного воображения студентов. Для улучшения пространственного восприятия студентов очень важно изучить проекции точек на октанты и их изображение на эюре. Это требует от педагога большого опыта, знаний и мастерства. В статье говорится о методах обучения, которые необходимо для достижения этой цели.

**Ключевые слова:** Образование точки, плоскость проекций, оси проекций, проекции точки, изображение точки на эюре, правило чтения чертежа.

### “NUQTALAR VA ULARNING CHIZMADA BERILISHI” MAVZUSINI O‘QITISH METODIKASI

Annotatsiya

“Chizma geometriya” fani talabalar fazoviy tasavvurini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Talabalarni fazoviy tasavvurini oshirishda esa nuqtalarning oktantlardagi proyeksiyalari va ularni epyurda tasvirlanishini mukammal o‘rganishi juda zarurdir. Bu esa pedagogdan katta tajriba, bilim va mahorat talab etadi. Maqolada shu maqsadda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan o‘qitish metodlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Nuqtaning hosil bo‘lishi, proyeksiyalar tekisligi, proyeksiya o‘qlari, nuqtaning proyeksiyalari, nuqtaning epyurda tasvirlanishi, chizmani o‘qish qoidasi.

**Kirish.** Ma‘lumki, nuqta ikki to‘g‘ri chiziqni, to‘g‘ri chiziq bilan tekislikni, to‘g‘ri chiziq bilan sirtlarni va uchta tekislik yoki uchta sirtlarni o‘zaro kesishuvidan hosil bo‘ladi.


Chizma geometriya fani matematikaning bir bo‘lagi bo‘lganligi uchun proyeksiyalar tekisliklari sifatida Dekart koordinatalar XOY, XOZ va YOZ tekisliklari tegishlicha H, V va W kabi belgilanib olinadi. Bunda koordinatalar boshi o‘ng tomonda olinadi. Shunga ko‘ra fazoda berilgan nuqtaning bir yo‘la uchta proyeksiyasini yasash mumkin bo‘ladi.

Bundan quyidagi qoida kelib chiqadi: Fazoda berilgan har qanday nuqta uchun, undan chiqqan proyeksiyalovchi nurlarni H, V va W tekisliklar bilan kesishuvidan o‘zaro bog‘langan gorizontol, frontal va profil proyeksiyalari hosil bo‘ladi, 1-rasm. Bunga nuqtaning (geometrik figura va predmetlarning) chizmasini tuzish qoidasi deb ataladi. Nuqtaning bunday proyeksiyalari va o‘zi, ikki juft proyeksiyalari bilan bir vaqtning o‘zida uchta tekislikda yotadi. Shuning uchun bunday proyeksiyalar uch karra tiklanish xususiyatiga ega bo‘ladi va bunday tizim o‘ta mukammal hisoblanadi.

Tushuncha:

Uchta proyeksiyalar tekisligi o‘zaro perpendikulyar vaziyatda bo‘lib, H, V va W tekisliklardan iborat bo‘lgan uch yoqli burchak hosil qiladi va ularning elementlari quyidagicha nomlanadi va aniqlanadi.

Dekart koordinatalar tekisliklari koordinata o‘qlari deb ataluvchi o‘zaro perpendikulyar bo‘lgan OX, OY, OZ o‘qlari bo‘yicha kesishadi va ularni chizma geometriyada proyeksiyalar o‘qlari deb ataladi.



1- rasm

2- rasm

3- rasm

H- gorizontol proyeksiyalar tekisligi, u XOY koordinatalar tekisligini ifodalaydi.

V- frontal proyeksiyalar tekisligi, u XOZ koordinatalar tekisligini ifodalaydi.

W- profil proyeksiyalar tekisligi, u YOZ koordinatalar tekisligini ifodalaydi.

OX, OY va OZ o'qlarni kesishish nuqtasi O koordinatalar boshi deb ataladi.

1- rasmda A nuqta uchta proyeksiyalar tekisliklariga proyeksiyalash ko'rsatilgan va bu jarayondagi yasash elementlari quyidagicha nomlanadi:

A- fazoda joylashgan biror geometrik figuraning yoki buyumning ixtiyoriy bir nuqtasi;

A A', AA'', AA''' – proyeksiyalovchi nurlar yoki to'g'ri chiziqlar;

R1, R2, R3 – proyeksiyalovchi tekisliklar;

A' – A nuqtaning gorizontal proyeksiyasi yoki yuqoridan ko'rinishi;

A''- A nuqtaning frontal proyeksiyasi yoki oldidan ko'rinishi;

A'''- A nuqtaning profil proyeksiyasi yoki chap tomondan ko'rinishi;

ZA – applikata – A nuqtaning H dan uzoqligi;

YA – ordinata – A nuqtaning V dan uzoqligi;

XA - absissa- A nuqtaning W dan uzoqligi.

Agar 1- rasmdan fazoda berilgan A nuqtani va uni proyeksiyalovchi nurlarini tashlab yuborib, H, W tekisliklarini tegishli OX va OY o'qlari atrofida 90° burib, V tekislikning davomiga jipslashtirilsa, hosil bo'lgan o'zaro proyeksion bog'langan uchta tasvirga nuqtaning proyeksiyalari yoki Monj epyuri yoki nuqtaning tekis chizmasi deyiladi, (3- rasm).

Chizmada V tekislik o'z o'rnida qolganligi uchun, nuqtaning frontal proyeksiyasi uning asosiy proyeksiyasi deb ataladi.

Endi nuqtaning proyeksiyalari yordamida A nuqtaning fikran fazodagi vaziyatini aniqlashni, ya'ni uni chizmasini o'qishni ko'rib chiqamiz.

Faraz qilaylik, fazoda berilgan A nuqtani va uning proyeksiyalovchi nurlari tashlab yuborilsa, uning uchta o'zaro bog'langan proyeksiyalari qoladi, 2- rasm.

Bunda nuqtaning fazodagi vaziyatini aniqlash uchun A' dan H ga, A'' dan V ga va A''' dan W ga fikran perpendikulyar chiziq chiqariladi va ular o'zaro kesishib A nuqtaning fazodagi birgina o'rni hosil qilinadi.

1 va 2 rasmlarni har tomonlama tahlil qilib, fazodagi nuqta o'zining frontal proyeksiyasining ro'parasida yotishligini aniqlash mumkin. Chizmada V tekislik o'z o'rnida qolganligi uchun bu xossa nuqtaning chizmasida ham saqlanib qoladi. Shunday qilib, chizmasi berilgan nuqtaning fazodagi vaziyatini aniqlash, ya'ni uning chizmasini osongina o'qish mumkin. Shunga ko'ra nuqtaning chizmasini o'qish qoidasini quyidagicha keltirish mumkin:

Qoida:

chizmasi berilgan har qanday nuqta, fazoda o'zining frontal proyeksiyasining ro'parasida - A'' dan chiqarilgan perpendikulyarda, undan YA masofada joylashgan bo'ladi. YA'ni A nuqta, agar YA > 0 bo'lsa, A'' dan oldda, agar


YA = 0 bo'lsa, A'' bilan ustma-ust, ya'ni V tekislikda, agar YA < 0 bo'lsa, A'' dan, ya'ni V dan orqada, boshqa oktantda joylashgan bo'ladi. Bu qoidaga chizmani o'qish qoidasi deb ataladi.

1 va 2- rasmlardagidek tasvirlarda nuqtaning yaqqol tasvirini o'qish, ya'ni uni fazoda tasavvur qilish juda oson va qulay. Lekin nuqta o'rnida fazoda biror figura, predmet, detal yoki mexanizm olinsa, ularni avval fazoda, so'ngra proyeksiyalarining tasvirini bajarish murakkab bo'lib, ko'p vaqt talab qiladi. Shuning uchun ularni va proyeksiyalovchi nurlarini tashlab yuborib, proyeksiyalari qoldiriladi. So'ngra H va W proyeksiyalar tekisliklari V tekislikning davomida joylashtiriladi. Natijada figura, predmet, detal yoki mexanizmlarning tekis chizmasi, nuqta uchun Monj epyuri yoki tekis chizmasi hosil bo'ladi.

1, 2 3- rasmlardan fazoda XA, YA va ZA koordinatalari bilan berilgan A nuqtaning proyeksiyalari, quyidagi koordinatalarga ega bo'ladi: A'(XA; YA), A''(XA; ZA), A'''(YA; ZA)


bu A'(XA;YA), A''(XA;ZA), A'''(YA;ZA) ifodani nuqtaning o'zaro perpendikulyar bo'lgan uchta proyeksiyalar tekisligidagi to'g'ri burchakli tasvirlarini-proyeksiyalarini yasash algoritmi deb ataymiz. Buni berilgan detalni xususiy A nuqtasining tasvirida ham ko'rish mumkin, 4- rasm.

1 va 2- rasmlardagi W tekislik va A nuqtaning profil proyeksiyasi tashlab yuborilsa, uning o'zi bitta P1 tekislikda yotuvchi gorizontal va frontal proyeksiyalaridan tashkil topgan chizmasi hosil bo'ladi. Bunday chizma, chizmaning tiklanish shartini qanoatlantiradi, ya'ni nuqtaning ikki tasviri-gorizontal va frontal proyeksiyalari uning fazodagi o'rnini aniqlay oladi, 5,



6- rasmlar.

5-рasm.



6-рasm

Agar H va V tekisliklar davom ettirilsa, fazo to'rt bo'lakka-choraklarga bo'linadi:

I chorak fazoda H ning yuqori va V ning old bo'lagi;


II chorak fazoda H ning yuqori va V ning orqa bo'lagi;

III chorak fazoda H ning pastki va V ning orqa bo'lagi;

IV chorak fazoda H ning pastki va V ning old bo'lagi.

A nuqtaning proyeksiyalari tekis chizma(Monj epyuri)da choraklarda quyidagi ko'rinishda tasvirlanadi.

A ∈ I- chorakda



Choraklarda joylashgan nuqtalarning proyeksiyalari OX o'qqa nisbatan quyidagicha joylashadi:

Agar nuqtaning koordinatalaridan birortasi yoki bir nechta nolga teng bo'lsa, A/Onuqtaning proyeksiyalari proyeksiya tekisliklarining yoki o'qlarning birida yotadi(A nuqta uchun):

$$XA = YA = ZA = 0 / A \in O; A' \equiv A'' \equiv A''' \equiv A''' \equiv 0;$$

$$ZA = YA = 0 \Rightarrow A \equiv A' \equiv A'' \in OX \text{ va } A''' \equiv 0;$$

$$XA = YA = 0 \Rightarrow A \equiv A''' \equiv A''' \in OZ \text{ va } A' \equiv 0;$$

$$XA = 0 \Rightarrow A \equiv A''' \in W: A' \in OY \text{ va } A'' \in OZ;$$


$$ZA = 0 \Rightarrow A \equiv A' \in H: A'' \in OX \text{ va } A''' \in OY;$$

$$YA = 0 \Rightarrow A \equiv A'' \in V: A' \in OX \text{ va } A''' \in OZ;$$

$$ZA = XA = 0 \Rightarrow A \equiv A' \equiv A''' \in OY \text{ va } A'' \equiv 0;$$


Agar nuqtaning ixtiyoriy ikkita tasviri berilgan bo'lsa, uning uchinchi tasvirini aniqlash algoritmi quyidagicha bo'ladi:

-agar nuqtaning gorizontal va frontal proyeksiyalari berilgan bo'lsa, uning profil proyeksiyasi ordinata va



7-рasm


апplikatalari ёрдамида аниқланади(7- рasm): A'''(YA,ZA).



8-рasm

agar nuqtaning frontal va profil proyeksiyalari berilgan bo'lsa, uning gorizontal proyeksiyasi absissa va ordinatalari yordamida aniqlanadi(8- rasm): A'(XA,YA).

- agar nuqtaning gorizontal va profil proyeksiyalari berilgan bo'lsa, uning frontal proyeksiyasi absissa va applikatalari



$A''(XA, ZA)$  yordamida aniqlanadi(9-rasm).

9- rasm

Agar H va V tekisliklarni W tekisligidan o'ng tomonga davom ettirsak, fazoning har bir choragi ikkita o'ng va chap qismlarga bo'linadi. Ular oktantlar deb ataladi, ularning to'rttasi I, II, III va IV chap tomon V, VI, VII va VIII o'ng tomon oktantlari deyiladi.

Har bir oktantdagi X, Y va Z koordinatalarning ishoralari quyidagicha bo'ladi:

-Chap tomon oktantlari uchun barcha absissalar qiymati musbat, o'ng tomon uchun esa, absissalari manfiy ishoraga ega bo'ladi.


-Oldingi oktantlar uchun ordinata musbat, orqa oktantlar uchun esa, manfiy ishoraga ega;

Yuqori oktantlar uchun applikata musbat, pastki oktantlar uchun esa manfiy ishoraga ega bo'ladi.

Har qanday o'ng oktantda joylashgan nuqta ham chap tomon oktantlari kabi proyeksiyalash asosida H, V va W tekisliklariga tasvirlanadi.

Fazoda ikki nuqta V tekislikka nisbatan oldinroq yoki uzoqroq, H ga nisbatan balandroq yoki pastroq W ga nisbatan o'ngroq yoki chaproq joylashgan bo'ladi. Amalda ko'proq ularning bir nomli proyeksiyalari ustma-ust tushib ham qoladi va ular orasidagi masofa proyeksiyalari qo'shib qolmagan proyeksiyalar tekisligiga o'zgarmasdan tasvirlanadi.

Bir nomli proyeksiyalari ustma-ust tushib qolgan nuqtalarga raqib yoki raqobatlashuvchi nuqtalar deb ataladi. Ulardan proyeksiyalari ustma-ust tushib qolgan geometrik figuralarning ko'rinar va ko'rinmas qismlarini aniqlashda foydalaniladi (10-



rasm).

10- rasm

Bunda proyeksiyalar tekisligidan uzoqroq joylashgan nuqta ko'rinar bo'ladi va birinchi bo'lib yoziladi.


#### ADABIYOTLAR

1. Бубенников А.В. Начертательная геометрия. - М. : Высшая школа, 1985.-288 с.
2. Гордон В.Ю. и др. Начертательная геометрия. Под ред. Крылова Н.Н. М., Высшая школа, 2000. 224-ст. усл. Печ. л. 18,45.
3. Ismatullaev R. Chizma geometriya. Toshkent, 2003, -111-b.
4. Михайленко В.Е., Пономарев А.М. Инженерная графика. Учебник. Киев. Выща школа, 1990. -303 с.
5. Murodov Sh. Hakimov L., Odilov P., Shomuradov A.U., Jumayev M. Chizma geometriya kursi. - Toshkent.: O'qituvchi, 1988. -363 s.
6. Фролов С.А. Начертательная геометрия. -М.: Машиностроение, 1983.- 240-б.
7. Хорунгов R. Chizma geometriya kursi. -Toshkent: O'qituvchi, 1995.- 230-b.
8. Чекмарев А.А. Начертательная геометрия и черчение. М., Высшая школа, Учебник. 1999. 470-ст. усл. печ. л. 29,5.



kibernetik nuqtai-nazardan qaraganda, tizimning o'zining termodinamik muvozanati holatidan chetga chiqish darajasi deb belgilanadi. Agar gap ijtimoiy tizimlar ustida ketayotgan bo'lsa, ular tartiblanganlik darajalarini yuksaltirish maqsadida o'zlarining mavjudligini saqlash hamda rivojini ta'minlash uchun tashqi muhitdan modda, energiya, informatsiya olib, 1-chizma.

Tizim va uning strukturasi



Tizimning modifikatsiyalashtirilgan modeli (D. Iston bo'yicha)

Strukturaviylik - materiyaning eng umumiy, universal xarakteristikasi, uning belgisidir. Tizimsiz materiya bo'lmaydi. Agar tizimsiz narsalar to'g'risida gapirilsa, o'zaro ta'sirsiz, demakki, harakatsiz predmetlar va hodisalar haqida gapirgan bo'lamiz. Lekin hamma struktura ham bir butun tizimning strukturasi bo'lavermaydi. Butun tizim strukturasi umuman moddiy voqelik strukturasi tushunchasidan tordir. Bir butun tizimning strukturasi shakl tushunchasiga juda yaqin, lekin aynan o'zi emas. U shaklning bir jihatini, ya'ni mazmunning ichki tashkillanishi bildiradi, xolos.

Struktura tushunchasida ham mutloqlik, ham nisbiylik mavjud. Struktura materiyaning eng umumiy xossasi. Bu ma'noda u absolyut, vaqtda abadiy va fazoda cheksiz. Endi konkret bir butunning strukturasi kelsak, u nisbiy, vaqtda o'tkinchi, fazoda cheklangan, shuning uchun bu struktura har bir holda chekli sondagi qismlarigina tashkillaydi.

Har bir butun tizimga o'z strukturasi mos keladi. Butun murakkablashib borgan sari, uning komponentlari soni ortib boradi, differensiallashib borgan sari uning strukturasi ham murakkablashib boradi. Shu ma'noda, yuqori tur jonivorlar strukturasi quyi tur jonivorlarnikidan haddan tashqari murakkab [2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Struktura tushunchasi barqaror tartiblanganlikni bildiradi, dedik. To'la strukturada uchta darajani ko'rsatish mumkin: tizim komponentlarining xossalari orasidagi bog'lanish, tizim komponentlari xossalari bilan tizim xossalari orasidagi bog'lanish, tizimning tizimli integral xossalari o'zaro bir-biri bog'lanishi.

Tizim tuzilmasi uning mohiyatini belgilab, shu sohada hodisalarga tegishli qonunlar majmuida o'z aksini topadi.

Agar ijtimoiy tizimning tuzilmasi haqida gap ketayotgan bo'lsa, u faqat kishilarning bir-biriga munosabati tarzida nomoyon bo'lmaydi. Jamiyatning turli sohalariga - iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy, huquqiy va boshqa sohalaridagi munosabatlar ham tuzilmasi elementlari hisoblanadi.

ishlatib turadi. Tizimni ko'p tadqiqotchilar shunday tushunadi. Tizim tufayli elementlar to'plami bog'langan bir butungacha aylanadi, bu yerda endi har bir element oxir nihoyatda boshqa barcha elementlar bilan bog'lanadi, butunning xossasini bu bog'lanishlarsiz tushunib bo'lmaydi.

Odamlarning narsalarga, g'oyalarga, g'oyalarning g'oyalarga ijobiy munosabati ham struktura elementlaridir. Bu ma'noda mamlakatimiz fuqoralarining milliy mafkurasini tashkil etuvchi g'oyalarga ijobiy munosabati, diniy ekstremizm, fundamentalizm g'oyalari salbiy munosabatlari jamiyatimizning tizim sifatidagi tartiblanganligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Va nihoyat, struktura kishilarning iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy, huquqiy jarayonlarga munosabatidir. Shu ma'noda fuqoralarimizning bozor iqtisodi munosabatlari, o'tish davrida iqtisodni erkinlashtirish, mulkni xususiyashtirish, ijtimoiy hayotni liberallashtirish, demokratlashtirish jarayonlariga munosabatlari ham jamiyatimiz strukturasi tartiblanganlik darajasini oshirishda katta rol o'ynashi tabiiydir.

**Tizim funksiyasi.** Tizim funksiyasi ( lat. functio — ijro etish, amalga oshirmoq, takomillashtirmoq) tizimning tashqi muhit bilan o'zaro uyg'un aloqa holatida harakat vositalarini va munosabatlari xarakterini ifoda qiladi. Boshqacha qilib aytganda funksiya — bu ma'lum muhitda tizimning hulq-atvori. Funksiya bir tomondan tizim strukturasi qurilishini belgilasa, ikkinchi tarafdan tashqi muhit bilan muvofiqidir. Ikkinchisi aksariyat hollarda unitiladi. Obyekt tizim yaxlitligida tashqi muhitni tashkil etuvchi moddiy, energetik va informatsion resurslar ta'sirini hazm qilish imkoniyati, ayni paytda unga muvofiqi bilan baholanadi. Undan chiqdi, tizim funksiyasi tizimning tashqi obyektlar bilan o'zaro aloqadorlik sifatida namoyon bo'ladi[3].

“Funksiya” tushunchasi bir necha ma'nolarda qo'llaniladi. Bu tushuncha faoliyat ko'rsatishga qobillikni yoki faoliyatning o'zini, o'rni, xossasi, ahamiyati, mavqeyini, vazifasini, maqsadini, bir kattaladni ikkinchisiga bog'liqligini bildiradigan ma'nolarda ishlatiladi. Funksiya atamasini o'zbek tilida aynan bir nom bilan atash ham qiyinroq. Masalan, rus tilida “funktionsirovaniye Sistema” deyilsa, o'zbek tilida “tizimning funksiyalanishi” deyish g'alatroq tuyuladi.

Shuning uchun funksiya so'zining turlanishi va tuslanishida yuqorida sanalgan tushunchalarni ishlataverish va uni ayb sanamaslik kerak. Lekin qaysi so'z qo'llansa ham biz "Funksiya" deb tizim va uning komponentlarining hayotiy faoliyat qobiliyatini, faolligini namoyon qilish xususiyatini tushunish kerak. Tizimni tizim sifatida bir butun saqlanishi, rivojlanishi ana shu faollik qobiliyatiga bog'liqdir.

Funksiya (ya'ni hayotiy faollik qobiliyati) bir butun tizimga ham, uning komponentlariga ham taalluqlidir. Tizimning funksiyasi uni tashkil qilgan komponentlarning faolliklarining integrallashuvidan yuzaga keladi. Tizimning funksiyalarida uning o'ziga xos bo'lgan qonuniyatlar bilan ifodalavchi tarbiyoti (xulqi) nomoyon bo'ladi. Mustahkam tizimlar tabiatlariga ko'ra faqat tashqi muhit ta'sirida faoliyat ko'rsatuvchi, ya'ni reaktiv bo'lmay, balki avvalo va asosan, muhitga ta'sir qiluvchi, muhitni o'z manfaatlariga buysundiruvchi aktiv (faol) xarakterda bo'ladi. Biologik, ijtimoiy, texnikaviy tizimlarning maqsadga yo'naltirilgan tabiati mavjuddir. Tizimning funksiyalari degani tizimning ana shunday maqsadga yunaltirilgan faoliyati, faolligi demakdir.

Ayniqsa biologik tizimlarning falsafiy tahliliga katta hissa qo'shgan olim V. I. Kremlyanskiy shunday yozadi: "Funksiya deb biologik, ijtimoiy va texnikaviy tizimlarning va ularning qismlarining avvalo faol, yunaltirilgan, aynan maqsadga muvofiq yunaltirilgan faoliyatiga aytiladi" [4].

**Tahlil va natijalar.** Tizimlarni o'rganish, tadqiq qilish, ko'pincha, ularning funksiyalarini o'rganishdan boshlanadi. Tizimlar o'zlaridan tashqariga qanday faollik ko'rsatadilar, degan masala boshlang'ich tahlil masalasi bo'ladi. Ana shunday yondashuv asosida tizimni o'rganishda bizni tizimning ichida nimalar ro'y bermoqda degan narsa qiziqirmaydi yoki buni bilishga ilmiy va texnikaviy vositalar yetmaydi, biz tizimning ichiga kira olmaymiz, tizimning ichki inson uchun go'yo qorong'u ("qora quti"dek) bo'ladi. Bunday hollarda inson tizimning "kirishi"dan nima kiritilgani va uning "chiqishi"dan qanday natijaga erishilganini qayd qiladi[5].

Shu ma'noda tizimning funksiyalari uning «kirishi»ga kirib borayotgan tashqi ta'sirlarga reaksiyasini (e'tiborini) bildiradi, ana shu reaksiya tizimning «chiqishi»da namoyon bo'ladi. Bundan, albatta, tizimning funksiyalari uning «chiqishi»dagi natija bilangina qamrab olinadi, cheklanadi, degan ma'no kelib chiqmaydi. Tizimning funksiyalari birgina bu natijadan xilma-xil va turli – tuman, boyroq, keng qamrovliroqdir.

Funksiyalarning boyligi, turli-tumanligi nuqtai-nazaridan tizimlar bir funksiyali va ko'p funksiyali tizimlarga bo'linadi. Bir funksiyali tizimlar biologiyada va ijtimoiyotda juda kam uchraydi.

Ko'p funksional (funksiyali) tizimlarda har qanday tizim biror funksiyani bajaradi, masalan, o'zidan yuqori tartibli tizimga xizmat qiladi, o'zidan kichik tizimning yashash, ozuqa olish sohasi bo'lishi mumkin, ba'zi toifa tizimlar uchun nazorat qilish, o'zidan mukammal tizim uchun asos material bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tizimning funksiyasi maqsad tushunchasiga yaqin, bu ikki tushuncha bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Maqsad-biror bir tizim tuzilganda erishish ko'zda tutilgan nihoyaviy natija, mahsulotdir. Maqsad-ijtimoiy tizimning bo'lg'usi holati, u intiladigan holatdir. Agar vertikal jihatdan bir-biriga bo'ysunuvchi ikki ijtimoiy tizimni o'rgansak, (masalan, fakultet va universitet), quyi tizimning (fakultetning) maqsadi yuqori tartibli tizim (universitet) qiyofasidan qaralganda, go'yo uning yuqori tizimga nisbatan funksiyasi bo'lib namoyon bo'ladi. Fakultet universitet, deb atalishi kengroq tizim uchun muayyan funksiyani bajarib, o'ziga xos o'rin tutadi. Bu ma'noda shunday xulosa qilish mumkin: ijtimoiy tizim biror qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida o'zaro ta'sirlashuvchi funksional komponentlar majmuyidir.

Tizimning funksiyasi uning boshqa tizimli yoki tizimli bo'lmagan obyektlar bilan o'zaro ta'sirlashuvda o'zining ichki holatining va tashqi muhit holatining o'zgarishiga bergan nisbatan beqaror reaksiyasini, ichkaridan va tashqaridan bo'ladigan kuzatuvchi ta'sirlarga o'ziga xos reaksiyasini namoyon qiladi. Tizim bilan uni o'rab turgan muhit orasidagi qarama-qarshilikni hal qilish vositasidir.

Muayyan tizimda uning ayrim komponentlari orasida-funksional bog'lanish bo'ladi; komponent bilan bir butun tizim orasida, butun tizim bilan o'zidan kengroq bo'lgan tizim orasida-funksional bog'lanishlar bo'ladi (unda u komponent rolini o'ynaydi).

Tizimning har bir qismi, komponenti tizimning saqlanishiga, mukammallashishi va rivojlanishiga, tizimli natijaga erishishga qaratilganda bir o'ziga xos funksiyani bajaradi. Bu ma'noda funksiyani qismning bir butunga nisbatan shunday munosabatini, bu qismning mavjudligi yoki biror jihatdan namoyon bo'lishini ta'minlovchi munosabat deb ta'riflash mumkin.

Butun tizimda komponentlarning munosabati bir-biri bilan birlashib, bir-biri bilan ketma-ket, oldinma-ketin namoyon bo'lishi mumkin. Bu degani funksiyalari vaqt va fazoda muvofiqlashgan bo'ladi.

Tizimda maqsadga muvofiq munosabat namoyon qilmaydigan (funksional bog'lanmagan) komponent bo'lmaydi, aks holda bunday komponent rudement (nojins) qism sifatida tizimdan chetga chiqib qoladi (inson organizmidagi ko'richak bir vaqtda borib olib tashlanganidek). Bu o'rinda tabiiy va biologik, ijtimoiy tizimlarda funksional munosabatlarni bajarmay qo'ygan komponentlar misollarini topishni talabalarga tavsiya etamiz.

Shuni ta'kidlash kerakki, quruq, sof, ya'ni substansional tashuvchisi (egasi) bo'lmagan funksional munosabatlar (bog'lanishlar) bo'lmaydi, funksional bog'lanishlarning o'zgarishi tizimning o'zgarishiga olib keladi.

Funksiyalarning koordinatsiyasi va subordinatsiyasi degan tushunchalar mavjud. Tizim koordinatsiyasi komponentlari funksiyalarining gorizont bo'ylab muvofiqlashuvidir. Subordinatsiya-bir komponentlar funksiyalarining boshqa komponentlar funksiyalariga va barcha komponentlar funksiyalarining bir butun tizim funksiyasiga vertikal bo'ysunishini bildiradi. Funksiyalarning subordinatsiyasi tizimda uning funksiyasini amalga oshishi uchun har bir komponentning o'ziga xos alohida o'rni mavjud ekanini va shu bilan birga, muayyan bir tizim o'z komponentlari funksiyalarini integrallab, o'zidan yanada hajmliroq, murakkabroq tizimda ayrim funksional vazifani bajarishini bildiradi. (Jamiyatning har bir sohasi, har bir sohasining har bir tarmog'i, mehnat jarayonida mehnat, mehnat predmeti, mehnat vositalari orasidagi subordinatsiya misoli).

**Xulosa va takliflar.** Tizimning muayyan bir vaqt oralig'ida mavjudligi, faoliyat ko'rsatishi, yashashi funksiyaviylik faoliyat qonuniyatlari bilan tasnif etiladi. Bu qonuniyatlar anchagina o'zgarimas, barqaror tabiatli bo'lgani uchun tizim "tuzilgan" moddiy va ma'naviy boyligining saqlanishi va qayta tiklanib turishiga imkon beradi. Bu, masalan, ijtimoiy tizimda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ijtimoiy tizimni tashkil qilgan individning, insonning, uning jismoniy va ma'naviy (ruhiy) qobiliyatlarining serqirra boyligini saqlash, tiklab turish deylik. Bunda tizimning faollik imkoniyati ichki parchalovchi yoki tashqi nomaqbul ta'sirlardan qo'riqlab, uning sifat xususiyatini asraydi.

Tizimning yashab, faolligini saqlab turishi, tizimning rivojlanishi hamda boshqa sifat bosqichiga o'tib, mukammallashishiga sharoit va imkoniyatlar yaratib beradi. Bizning mamlakatimizning bozor iqtisodi munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy tizim faolligining mavjudligi (Tizimli

funksiyaviyligi) uning rivojlanib, buyuk davlatga aylanishi, tsivilizatsion taraqqiy qilayotgan katta tizim tarkibida o'zining munosib o'rnini egallashga imkon beradi. Bu ma'noda tizimning (ijtimoiy) yashash, faolligini saqlash, mavjudlik

qonunlari taraqqiyot qonunlari bilan ayniylashadi va ular bir (yagona) tizimga tegishli bo'lib qoladi. Ya'ni funksiyalashuv tizim taraqqiyotining manbayi va asosi bo'lib xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Сурмин Ю. П. Теория систем и системный анализ: Учеб.пособие. — К.: МАУП, 2003.
2. Чернышов В.Н., Чернышов А.В. Теория систем и системный анализ: методические указания/. Тамбов: Изд-во ГОУ.ВПО ТГТУ, 2010.
3. Тарасенко Ф.П. Прикладной системный анализ (наука и искусство решения проблем): Учебник. - Томск; Издательство Томского университета, 2004.
4. Кремлянский В. И. Синтез знания и проблемы управления. М., 1978.
5. Сагатовский В.Н. «Опыт построения категориального аппарата системного подхода» Философские науки. 1976.



*Sanobar ASHUROVA,*  
*Pedagogik innovatsiyalar instituti professori., p.f.n*  
*E-mail: ashurova.nr7@gmail.com*

*Pedagogik innovatsiyalar instituti dotsenti, p.f.d B.B.Ergashev taqrizi ostida*

### PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA MODULLI-KOMPETENTLI YONDASHUV VA UNI AMALGA OSHIRISH TEKNOLOGIYASINING ASOSIY KOMPONENTLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada professional ta'limda modulli-kompetentli yondashuvni amalga oshirishning dolzarbligi va ahamiyati, uni amalga oshirish texnologiyasining tarkibiy qismlari va ularning mazmuni yoritib berilgan. Shuningdek, modulli-kompetentli yondashuv tushunchasi mazmuni ham ko'rib chiqilgan. Kompetensiyalarga asoslangan modulli dasturlarning moslashuvchanligi, afzalligi, kompetensiyalarga asoslangan modulli dasturlarni hamda funksional xaritaning ishlab chiqish tartibi bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Professional ta'lim, kompetentli yondashuv, ta'lim natijalari, pedagogik loyihalash, modulli-kompetentli yondashuv, modulli ta'lim, ta'lim mazmuni, modulli dastur, funksional xarita.

### ОСНОВНЫЕ КОМПОНЕНТЫ МОДУЛЬНО-КОМПЕТЕНТНОГО ПОДХОДА И ТЕХНОЛОГИИ ЕГО РЕАЛИЗАЦИИ В СИСТЕМЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье освещаются актуальность и важность реализации модульно-компетентного подхода в профессиональном образовании, составляющие технологии его реализации и их содержание. Также рассмотрено содержание понятия модульно-компетентного подхода. Описаны гибкость и преимущество модульных программ на основе компетенций, порядок разработки модульных программ на основе компетенций и функциональная карта.

**Ключевые слова:** Профессиональное образование, компетентный подход, образовательные результаты, педагогическое проектирование, модульно-компетентный подход, модульное обучение, содержание обучения, модульная программа, функциональная карта.

### MAIN COMPONENTS OF THE MODULAR-KOMPETENT APPROACH AND ITS IMPLEMENTATION TECHNOLOGY IN THE PROFESSIONAL EDUCATION SYSTEM

Annotation

This article highlights the relevance and importance of implementing a modular-competent approach in professional education, the components of its implementation technology and their content. The content of the concept of modular-competent approach is also considered. The flexibility and advantage of competency-based modular programs, the procedure for developing competency-based modular programs and a functional map are described.

**Key words:** Professional education, competent approach, educational results, pedagogical design, modular-competent approach, modular education, educational content, modular program, functional map.

**Kirish.** Jamiyat va undagi turli ijtimoiy guruhlarining zamonaviy pedagogik tizimlarga ijtimoiy buyurtmasi, olimlar tomonidan shaxsning kompetensiyalari sifatida belgilangan kasbiy ta'lim natijalarini ta'minlashga qo'yiladigan talablarda ifodalanadi. Bu ijtimoiy talab kasbiy ta'limni kompetentlik asosida modernizatsiyalash negizida yotadi. Kompetentli yondashuv kasbiy pedagogik ta'limni mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirishga urinish sifatida ishlaydi. Mehnat mazmuni yangi kompetensiyalar va ta'lim sifatiga yangi talablar bilan boyib boradi.

Professional ta'limda modulli-kompetentli yondashuv konsepsiyasi dastlab 2003-yilda Britaniya Kengashi boshchiligidagi Yevropa Ittifoqi institutlari konsorsiumi tomonidan Delfi II loyihasini amalga oshirish jarayonida e'tirof etilgan. Loyiha qiymati 5 million yevro bo'lib, ushbu loyiha Yevropa Ittifoqi hamkorlik dasturi doirasida moliyalashtirilgan. Loyiha ustida 60 dan ortiq yevropalik ekspert va ta'lim sohasidagi mutaxassislar ishlagan [6].

**Modulli - kompetentli yondashuv** - bu ta'lim jarayonini tashkil etish modeli bo'lib, unda o'quvchining kasbiy kompetensiyalari yig'indisi ta'lim maqsadi bo'lib xizmat qiladi hamda kasbiy ta'lim mazmuni va tuzilishini modulli qurishdan unga erishish vositasi sifatida foydalaniladi.

Ushbu yondashuv ta'limning nazariy va amaliy qismlarini optimal tarzda birlashtirish, ularni integratsiyalash imkonini beradi. Bu nazariy bilimlarning kompetensiyalarni o'zlashtirish jarayonida tutgan o'rni va rolini qayta ko'rib chiqishni, ularni tartibga solish va tizimlashtirishni ta'minlaydi, bu esa natijada o'quvchilar motivatsiyasining oshishiga olib keladi. Modulli - kompetentli yondashuvni ta'limga texnologik yondashuv bilan bog'lash mumkin, uning maqsadi berilgan sharoitlardan (ijtimoiy buyurtma, ta'lim yo'riqnomalari, maqsadlari va ta'lim mazmuni) boshlab ta'lim jarayonini loyihalashdan iborat. O'ziga xoslik shundan iboratki, ta'lim jarayoni belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlashi kerak [3].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Adabiyotlarda professional ta'lim muassasasidagi ta'lim mazmuni odatda o'quv, mehnat, ilmiy faoliyat va umuman hayot faoliyatining yakuniy natijasiga bo'lgan talablarni bildiruvchi toifa sifatida qo'llaniladi, bu esa o'qishni tugatgan vaqtga to'g'ri keladi hamda bilim, malaka, shaxsiy fazilatlar tizimida aks etadi [3].

D.V.Chernilevskiyning fikriga ko'ra, professional ta'lim muassasasidagi ta'lim mazmuni, kasbiy yo'naltirilgan bilimlardan tashqari, sog'lom fikrni - dunyoviy, amaliy donolikni; harakatlarning oqibatlarini oldindan ko'ra bilish,

xatti-harakatlar sohasida muhimlarini tasodifiy yoki ahamiyatsizdan ajratish qobiliyati; eng katta haqiqiy foyda keltiradigan yechimlarni tanlashni ta'minlashi kerak [7].

V.P.Bespalkoning ta'kidlashicha, ta'lim mazmuni ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilgan kasbiy faoliyatning yo'naltiruvchi asosini (xususiyatlar, qoidalar, tamoyillar, algoritmlar, metodlar, xususiyatlar) tashkil etuvchi zarur ma'lumotlarni aks ettiradi [2].

Ta'lim mazmunini o'zlashtirish - ta'lim muassasasi bo'lajak mutaxassisga nisbatan amalga oshirishi kerak bo'lgan maqsaddir. Bu maqsadni amalga oshirish ta'lim mazmunidir.

Ta'limning mazmunli tomoni uni o'quvchilarga yetkazish va o'zlashtirish texnologiyasidan, ya'ni ta'lim metodlaridan (usullaridan) ajralmasdir.

Biz o'z tadqiqotimizda "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini farqlaymiz va ma'lum faoliyat natijalari (ta'lim natijalari) haqida gap ketganda "kompetensiyalar" so'zidan foydalanamiz. Kompetentlik sub'ektning (individual, guruh, tashkilot) xususiyatlarini bildiradi. Kasbiy kompetensiyalarga quyidagilar kiradi: kasbiy faoliyatning ma'lum bir sohasi bilan bog'liq bo'lgan maxsus kompetensiyalar, u shaxsning ma'lum bir kasbiy vazifalar sinfini samarali hal qilishga tayyorligini ifodalaydi; asosiy kompetensiyalar insonning boshqa odamlar bilan muloqot qilish, muammolarni hal qilish, hamkorlik qilish, axborot bilan ishlash va boshqalar bilan bog'liq bo'lgan turli kasbiy sohalar uchun umumiy vazifalarni hal qiladi.

Shunday qilib, har bir kompetensiya ma'lum ko'nikmalar to'plami bilan tavsiflanadi, ularning o'zlashtirilishi ushbu faoliyat turini o'zlashtirishga imkon beradi. Ko'nikmalarni tor, texnologik ma'noda emas, balki "shaxsning hissiy, intellektual, kuchli irodali, ijodiy, hissiy fazilatlarini o'z ichiga olgan murakkab tarkibiy shakllanishlar" sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir [6].

Modulli - kompetentli yondashuvni amalga oshirish texnologiyasining mazmunli tarkibiy qismi xodimning malakasini tashkil etuvchi bir qator kasbiy (ish) vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus va asosiy kompetensiyalar to'plamida aks ettiriladi.

Ushbu yondashuvni amalga oshirish yangi ta'lim dasturini ishlab chiqishni talab qiladi. Har qanday o'quv fanining mazmunini loyihalashda, ta'lim oluvchilar tomonidan o'rganilayotgan fanlarning har biri ularning umumiy kasbiy ta'limiga fundamental hissa qo'shishiga ishonch hosil qilish juda muhim, shunda fanni o'qitish emas, balki mutaxassislik ta'limi kerak, degan tamoyilga amal qilinadi [7].

Modulli-kompetentli yondashuv doirasida malaka birligi ta'lim mazmunining ta'lim jarayonida bir yoki bir nechta modullari shakllanadigan kasbiy kompetensiya (maxsus yoki asosiy) hisoblanadi. Kompetensiyalarga asoslangan ta'lim modulli dasturlar shaklida samarali amalga oshiriladi [6].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yuqoridagilar bilan bog'liq holda, modulli-kompetentli yondashuvni amalga oshirish texnologiyasining asosi zamonaviy mehnat bozorining tez-tez o'zgarib turadigan talablariga tez va moslashuvchan tarzda javob berishga imkon beruvchi o'quv dasturlarining modulli yaratilishi bo'lib, zarur malaka birliklarini "yaratish" orqali amalga oshiriladi.

Kompetensiyalarga asoslangan modulli dasturlarning moslashuvchanligi:

- Texnologik o'zgarishlar va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar tufayli mutaxassisga qo'yiladigan talablar o'zgaranda, raqobatbardosh darajada mutaxassislar tayyorlash sifatini ta'minlagan holda aniq modullarni tezkor yangilash yoki almashtirish imkonini beradi;
- Zarur modullarni birlashtirib, har bir ta'lim oluvchi uchun uning bilim va ko'nikma darajasi, oldingi tajribasidan kelib chiqib, ta'limni individuallashtirish imkoniyatini beradi;

- Bir nechta o'quv dasturlarida bir xil modullarni qo'llash imkonini beradi.

Kompetensiyalarga asoslangan modulli dasturlarning afzalligi quyidagilardan iborat:

- faoliyat sohasi talablari o'zgarganligi sababli modullarga tezda kerakli o'zgarishlar kiritilishi mumkin;

- modullarning turli kombinatsiyalari asosida ta'lim oluvchilarning ehtiyojlari va ularning boshlang'ich darajasiga qarab turli xil o'quv kurslarini shakllantirish mumkin (ya'ni, ilgari tugallangan mashg'ulot yoki ish jarayonida olingan ko'nikma, bilim va tajriba).


Modulli-kompetentli yondashuvni amalga oshirish texnologiyasining **tashkiliy tarkibiy qismi modulli o'quv dasturi** bo'yicha ishlarni tashkil etish bilan bog'liq va loyihaning barcha bosqichlari, darajalari va fazalarida samarali faoliyat to'liq mini sikli sifatida zamonaviy tushunchada loyiha mantig'iga mos keladi. Shuning uchun modulli-kompetentli yondashuvga asoslangan ta'lim jarayoni uch bosqichni o'z ichiga olishi kerak: loyihalash bosqichi (maqsadni shakllantirish), texnologik bosqich (maqsadni amalga oshirish), reflektiv bosqich (nazorat, baholash va refleksiya). Aynan shuning uchun modulli o'quv dasturlarini loyihalashda dasturning tarkibiy qismlarini joylashtirish ketma-ketligiga va ishlab chiqish materiallarini loyihalashning boshqa formatiga katta ahamiyat beriladi [3].

Kompetensiyalarga asoslangan modulli dasturlarni ishlab chiqish funksional tahlilga asoslangan funksional xaritani ishlab chiqishdan boshlanadi - bu vazifalar va natijalar orqali ish faoliyatini tavsiflashdir.

Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, u ta'lim muassasalari bitiruvchilari boradigan hududiy bozorlarda texnologiya va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlarni tezda hisobga olish imkonini beradi.

Funksional xaritani ishlab chiqish tartibi ish beruvchilarning ma'lum bir kasbiy soha (kasb) doirasida ishlash standartlariga bo'lgan talablarini belgilashdan boshlanadi. Kasbiy standartlar mavjud bo'lganda, bu ularni takomillashtirish uchun amalga oshiriladi, chunki sanoat kasbiy standartlar yangilanganidan ko'ra tezroq rivojlanadi.

Vazifalarni, ya'ni har xil malaka darajasidagi ma'lum bir kasb egasi tomonidan bajariladigan haqiqiy harakatlar, ushbu kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalar, aniqlagandan so'ng *funksional xarita* tuziladi. Belgilangan vazifalar o'quv dasturini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, chunki ular, aslida, ta'lim natijalari bo'lgan bo'lajak mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalari to'plamini ifodalaydi (1-rasm).



**1-rasm. Funksional xaritaning tuzilishi.**

Rasmdan ko'rinib turibdiki, funksional xarita quyidagilardan iborat:

- Kasbning asosiy maqsadining tavsiflari;
- Ushbu kasbni tashkil etuvchi asosiy vazifalarning tavsiflari;

- Asosiy vazifalardan kelib chiqadigan asosiy funksiyalar doirasidagi aniq muhim harakatlarni belgilaydigan funksional modullar.

Shunday qilib, funksional xaritaning tuzilishidan ko'rinib turibdiki, tahlil tartibi asosiy maqsadni izchil takomillashtirishga, uni muayyan obyektning asosiy tavsifini


o'z ichiga olgan funksional modullar darajasiga bo'linishga qaratilgan.

Asosiy maqsad qisqacha kasbni, ushbu kasbda nimaga erishish kerakligi haqida qisqacha tavsiflaydi.

Asosiy vazifalar mutaxassislikning asosiy maqsadiga erishishga imkon beradi va asosiy maqsadga erishiladigan aniq harakatlar tavsifidir. Har bir vazifa amalga oshiriladigan

harakatlar uchun talablarning ajralmas guruhini o'z ichiga oladi.

Funksional modul o'zlashtirilishi kerak bo'lgan ko'nikma, bilim, munosabat va tajribaning (ya'ni, kompetensiyalarning) yaxlit to'plamini tavsiflaydi, ta'lim oluvchi modulni o'zlashtirishni tugatgandan so'ng javob berishi kerak bo'lgan talablar shaklida shakllantiriladi (2-rasm).



2-rasm. Funksional xaritani tuzish algoritmi.

Tuzilgan funksional xarita modulli o'quv dasturini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi. Modulli kompetentli yondashuv pedagogik jarayon ishtirokchilarining sub'ekt-sub'ekt o'zaro ta'sirini ta'minlaydi. Ushbu yondashuvni amalga oshirishda, ularda faoliyatni o'qituvchidan ta'lim oluvchiga qayta taqsimlash nazarda tutilgan ustunlik bilan ta'limning barcha xilma-xil usullaridan foydalanish mumkin.

Ish faoliyatini baholashni shakllantirish masalalari professional ta'lim tizimini modernizatsiyalashning asosiy vazifalaridan biridir. Kasbiy ta'lim va tarbiya tabiatining hozirgi o'zgarishi baholashning an'anaviy tartiblari va metodlarini qayta ko'rib chiqish zarurligiga olib keladi.

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot davomida quyidagi asosiy tamoyillar va yo'nalishlar aniqlandi:

- Baholash va ta'lim o'rtasidagi bog'liqlik;
- Kompetensiyalarga e'tibor berish;

- Rasmiy ta'lim va ta'lim doirasidan tashqarida olingan kompetensiyalarni tan olish tartib-qoidalariga bo'lgan ehtiyoj;

- Ta'lim sifatini qiyosiy tahlil qilish imkonini beruvchi turli tipdagi ta'lim muassasalari va tuzilmalari uchun yagona (oxirigacha) baholash tartiblari va usullarini ishlab chiqish.

Ko'rinib turibdiki, kasbiy kompetensiya ta'lim natijasi sifatida faqat faoliyatda kuzatilishi mumkin, ya'ni uning shakllanish darajasi faqat shaxs tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat asosidagina xulosa qilinishi mumkin. Shuning uchun ta'lim oluvchining kompetensiyalari haqida ishonchli xulosalar chiqarishga imkon beradigan turli xil faoliyat turlarini to'g'ri belgilash muhimdir. Integratsiyalashgan ta'lim natijasini eng yaxshi baholay oladigan baholash usullaridan foydalanish kerak. Olingan baholashlar jami ta'lim oluvchi kompetensiyalarining shakllanish darajasi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ашурова С.Ю. Профессиональная компетентность как объект оценки //Ж. Молодой ученый. – 2012. № 4. – С. 414-417.
2. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения / Беспалько В.П. - М.: Изд-во ИРПО, 1996. - 336 с.
3. Модульно-компетентностный подход в российской системе довузовского профессионального образования: Теория и практика: Коллективная монография / Под ред. Посталюк Н.Ю.. – Самара, 2006. – 187 с.
4. Muslimov N.A. "Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. - T.: Fan, 2004 - 126 b.
5. Назаров В.Л. Профессиональное образование и социальное парт-нерство в работе с молодежью: монография, – М.: 2022.
6. Олейникова О.Н., Разработка модульных программ, основанных на компетенциях / Олейникова О.Н., Муравьева А.А., Коновалова Ю.В., Сартакова Е.В.: Учебное пособие. - М.: Альфа-М, 2005. - 160 с.
7. Чернилевский, Д.В. Дидактические условия для подготовки преподавателей профессиональных дисциплин / Чернилевский Д.В., Князев В.В., Гайдаренко Л.В. // Средне-профессиональное образование. — 2003. - № 2 С. 35.



*Shaxzoda ASHUROVA,*  
*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Xorijiy tillar kafedrasini assistenti*  
*E-mail: shakhzoda456@gmail.com*

*QarDU professori, p.f.d. R.Shodiyev taqrizi asosida*

### PSYCHOLOGICAL ASPECTS THAT A FOREIGN LANGUAGE TEACHER SHOULD PAY ATTENTION TO DURING THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation

A foreign language teacher's conscious perception of the importance of his professional activity requires him to successfully perform a number of professional functions. Among these functions are the functions of a pedagogue, such as teaching, education, organization and research.

**Key words:** Conscious, perception, activity, importance, pedagogue, requires, research.

### ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ НА КОТОРЫЕ СЛЕДУЕТ ОБРАТИТЬ ВНИМАНИЕ УЧИТЕЛЮ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация

Осознанное восприятие учителем иностранного языка важности своей профессиональной деятельности требует от него успешного выполнения ряда профессиональных функций. К этим функциям относятся обучающая, воспитательная, организаторская и исследовательская функции педагога

**Ключевые слова:** Деятельности, восприятие, важности, обучающая, исследовательская, осознанное, требует.

### XORIJIY TIL O'QITUVCHISINING TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ETIBOR QARATILIGI LOZIM BO'LGAN PSIXOLOGIK ASPEKTLAR

Annotatsiya

Xorijiy til o'qituvchisining o'z kasbiy faoliyatining ahamiyatini ongli ravishda idrok etishi uning bir qator kasbiy funksiyalarni muvaffaqiyatli bajarishini taqozo etadi. Bu funksiyalar qatoriga pedagogning o'rgatuvchilik, tarbiyachilik, tashkilotchilik va tadqiqotchilik kabi funksiyalari kiradi.

**Kalit so'zlar:** Ongli, idrok, faoliyat, ahamiyati, taqozo etadi, o'rgatuvchilik, tadqiqotchilik.

**Kirish.** Nutqiy kompetensiya bilim, ko'nikma va malaka kabilari qatorida xorijiy til o'qituvchisining dars mashg'ulotidagi muammolarni o'rganilayotgan tilda maqbul tarzda ifodalash vakolatini o'z ichiga oladi. Nutqiy kompetensiya, ayni vaqtda, xorijiy til o'qituvchisining kasbiy faoliyat davomida orttirgan botiniy tajribasini aks ettiruvchi hamda "ochib yuboruvchi" mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Insonning konseptual va hissiy tajribalari aksar hollarda timsollar va belgili kommunikatsiyalar orqali uzatiladi.

Maktab o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish masalalarida xorijiy til o'qituvchisining botiniy sezgi (intuitsiya)ga oid tajribalari alohida muammo sifatida o'rganiladi. Ichki sezgiga oid jarayonlar pedagogik fanlar doirasida yetarlicha o'rganilmagan. Faqat ichki sezgi yo'rig'ida kechadigan his etish, idrok etish kabi shakllariga bag'ishlangan tadqiqotlar ma'lum. Ichki sezgi (intuitsiya) – "bilishning shaxs ichki olamiga asoslangan shaklidir" [1]. Lotinchadan o'girilganda bu so'z "nigoh", "ko'rinish" kabi ma'nolarni beradi. Ta'lim oluvchilar bilan munosabatlarda o'quv-tarbiyaviy masalalarni intuitiv darajada (ichki sezgiga tayangan holda) hal etishga hamma o'qituvchilar ham qodir, deb aytay olmaymiz. Bu hol inson akseologiyasi va psixologiyasi tayanadigan bir qator asosiy faktorlar bilan bog'liqdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Birinchidan, ichki sezgi (intuitsiya) inson mavjudligining yetakchi usullaridan biri sifatida pedagogning yuksak darajadagi tahlil etish qobiliyati negizida shakllanadi. Tahlil etish qobiliyati ongning imkoniyatlaridan biri o'laroq, xorijiy til o'qituvchisining nutqiy faoliyatidagi tajribasiga asoslanadi. Ichki sezgi

tafakkurning mahsuli sifatida, har bir insonga xos bo'lib, umrning har qanday davrida namoyon bo'lishi mumkin. Biroq, insonning umumiy nutqiy kommunikativ qobiliyati pastroq bo'lsa, ongning barqaror intuitiv rejimga o'tishi qiyinlashadi. Mohiyatan, ondan tashqarida bo'lgani holda, ichki sezgi individ ongli ravishda o'rgangan, o'zlashtirgan voqeliklarga munosabat shaklida "uyg'onadi".

Ikkinchidan, muammolarning ichki sezgiga tayanib (intuitiv tarzda) hal etilishi pedagogning o'quv-tarbiya ishlariga oid u yoki bu muammoni "ko'ra olish", idrok etish borasidagi mas'uliyati bilan bog'liqdir (darvoqe, intuitsiyaning "nigoh" ma'noni berishi shu o'rinda mantiqqa to'g'ri keladi). Biroq bu mas'uliyat hamma pedagoglarga ham xos emas, negaki, aksar xorijiy til o'qituvchilari "muammo" tushunchasining o'ziniyoq "yoqimsiz" yoki "muqarrarlik" kabi sifatlar bilan belgilaydilar va buning natijasida muammoni idrok etish u yoqda tursin, undan to'g'ri ma'noda biror usuldan foydalanib "qochishga" yoki "chetlab o'tish"ga harakat qiladilar.

Xorijiy til o'qituvchilarining ko'pchigi tahliliy fikrlaydilar, ular orasida reaktiv (vaziyatdan kelib chiqib) fikrlaydiganlar ozchilikni tashkil qiladi. Biroq fikrlashni ichki sezgi asosida olib boradigan o'qituvchilar sanoqlidir. Shuning uchun xorijiy til o'qituvchisining kasbiy kommunikatsiyalari hamda yuksak darajadagi nutqiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda nutqiy faoliyatga oid tajribaning dolzarbli maksimal tarzda ortib bormoqda. Xorijiy til o'qituvchisining ichki sezgi (intuitsiya)si ham aniq ta'rifga ega bo'lishi mumkin: buning uchun "idrok etish" va "his qilish" tushunchalarining mufassal ta'rifini taqdim etish

zarur bo'ladi. Biroq ichki sezgi bilan ko'rish, his qilish, trans va shu kabi inson botiniy olami bilan bog'liq jarayonlar nutqiy kompetensiya tarkibigi kiruvchi tushunchalar hisoblanmaydi va binobarin, dissertatsiya tadqiqotlari doirasida o'rganilmaydi.

Xorijiy til o'qituvchisi yuksak nutqiy kompetensiyasi shakllanish va rivojlanishining uchlik sikli pedagogning kasbiy mavjudligi, kasbiy faoliyati va mehnat samaradorligi bilan bog'liq muammolarni o'rganib chiqishni taqozo etadi. Kasbiy mavjudlik deganda pedagogning mutaxassis sifatidagi maqomi nazarda tutiladi. Kasbiy faoliyat – maqsadga muvofiq bo'lgan amaliy faoliyat, mehnat samaradorligi kasbiy faoliyatning natijalari sifatida tushuntiriladi. Kasbiy kompetensiya shakllanishi va rivojlanishining har bir sikli reprezentatsiyasi (xuddi, masalan, “konseptualashtirish”, “vosita”, “maqsad”, “harakat”, “mahsulot”, “samaradorlik” va boshqa tushunchalar singari) qisqacha ta'rif va tavsifga ega bo'lishi lozim. Aks holda, kasbiy tajribani kengaytirish va uzatish imkoni cheklanadi, negaki, kasbiy sohada kommunikativ sheriklar o'rtasidagi muloqot faqat belgili ramzlar usulidagina amalga oshirilishi mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Xorijiy til o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasida nutqiy kompetensiyaning o'rni va ahamiyati kasbiy tajribani bir kommunikativ sherikdan – ikkinchisiga, o'qituvchidan o'quvchiga uzatilishi hamda pedagogning o'z-o'zini rivojlantirish tajribasi kabi masalalarning dolzarbligi bilan belgilanadi. Pedagog tajribasining boyligi, xilma-xilligi, samaradorligi – umuman, barcha jihatlarini nutq tuzilmasida “siyiq” holda joylashish xususiyatiga ega va bu jarayon nisbatan tez sodir bo'ladi. Xorijiy til o'qituvchisining nutqiy kompetensiyasi qanchalik tez va “siyiq” tarzda namoyon bo'lsa, pedagogning siymosi va shaxs sifatidagi fazilatlarini shunchalar yorqinroq ochila boradi, binobarin, kasbiy tajribaning kommunikativ sheriklarga (ya'ni xorijiy til bo'yicha ta'lim oluvchilarga va til o'rganuvchilarga) o'tishi shunchalik sifatli tarzda kechadi. Olamning manzarasi tayyor yorliqlar va nomlanishlar bilan ko'z oldimizda gavdalanmaydi. Biz ta'lim jarayonida bu manzaralarni fanlar, vaziyatlar, hodisalar, jarayonlar va hokozolar orqali ta'lim oluvchilarga hamda kommunikativ sheriklarga yetkazamiz.

Olam manzarasini chizay ekan, xorijiy til o'qituvchisi muayyan doirada ma'lum darajadagi aqliy-fikrlash harakatlarini amalga oshiradi. Bunday harakatlarga o'chirish-o'tkazib yuborish, deformatsiya-buzilish va umumlashtirish kabi harakatlar kiradi [3].

Odatda, o'z tajribamizda mavjud jihatlardan birini yoki uning ma'lum qismini tanlov asosida “o'chirib yuboramiz” yoki “o'tkazib yuboramiz. Ayrim muhim yoki ahamiyatsiz voqealarni kuchaytirib yoki susytirib biz o'z tajribamizni deformatsiyalaymiz yoki buzib yuboramiz. Voqea-hodisalarning ayrim o'ziga xosliklariga yoki ulardagi istisnolarga e'tibor bermasdan ularni toifalar va turlarga birlashtiramiz, ya'ni umumlashtiramiz. Ushbu aqliy harakatlar sodir etilishi tashqi va ichki nutq ko'magida kechadi: biz ularni ichki yoki tashqi nutq orqali ifodalaymiz.

Xorijiy til o'qituvchisining nutqiy tizimi yo'nalishlarini tadqiq etish nafaqat pedagogik munosabatlar madaniyati nuqtai nazaridan, balki pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish nuqtai nazaridan ham xorijiy tilni o'qitish nazariyasi va metodikasi uchun ma'lum ma'noda yangilikdir.

“O'chirish”, “o'tkazib yuborish”, “deformatsiya”, “buzish” va “umumlashtirish” kabi aqliy-fikrlash harakatlarining shakllanishi xorijiy til o'qituvchisida pedagogik munosabatlarda o'ziga xos “filt” vazifasini o'taydi. Maktab ta'limi amaliyotidagi salbiy hodisalarni “o'chirib tashlash” (yoki “o'tkazib yuborish”) to'g'ri yo'l ekanligiga, buning o'rniga butun diqqat-e'tiborni boshqa muhimroq hodisalarga qaratish zarurligiga bo'lgan ishonch natijasida

shakllangan qobiliyat xorijiy til o'qituvchisi uchun o'zidagi salbiylikni bartaraf etish, botinini ijobiy hissiyotlar bilan to'ldirishdek na keltiradi: aqliy-fikrlash harakatlarining o'ziga xos “filt”lik xususiyati shundan iborat. Bunday “filt”ning mavjud bo'lishi boshlovchi-o'qituvchilarda o'z atrofida ijobiy, ijodiy tadqiqotga yo'naltirilgan muhit yaratishda muhim ahamiyat kasb etadit. Mohiyatan, ijod – ichki deformatsiyadan xalos bo'lish uchun salbiylik va ijobiylikni ajratuvchi filtrning mahsuli va buning samarasi o'laroq, pedagogik amaliyotda sabab-oqibatli bog'liqliklarni izlash qobiliyatining rivojlanishi uchun zamin yaratishdir.

Mavjud voqea-hodisalar va axborotlarni umumlashtirishdan iborat aqliy-fikrlash harakatidagi filtr o'qituvchining o'z xatti-harakatlarini asoslab berishi, nutqiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishida ishonch va qat'iyat namoyon bo'lishini rag'batlantiradi.

Xorijiy til o'qituvchisining yuksak nutqiy kompetensiyasining shakllanishi va rivojlanishining asl qimmat shundan iboratki, yuksak nutqiy kompetensiya unga kommunikativ aloqalarda keng erkinlik, o'z tajribasini ravon, tushunarli, zo'riqshlarsiz bayon etish, ta'lim oluvchilarni erkin tarzda boshqarish imkoniyatlarini beradi. Konseptual-nutqiy boshqaruv tizimining shakllanganligi o'qituvchida ichki potensialini namoyon qilish, ochilmagan salohiyatlarini yuzaga chiqarish uchun muhit va sharoit yaratadi. Buning natijasida xorijiy til o'qituvchisi o'z aqliy-fikrlash harakatlarini boshqaradi, voqea-hodisalarni tahlil qiladi va umumlashtiradi, kelgusidagi ishlarini rejalashtiradi, bo'lajak katta xavfni yuzaga bashorat qiladi, tadqiqotlar olib boradi, umumiy tarzda esa mutaxassis va shaxs sifatida rivojlanib boradi.

Pedagogik amaliyotdagi eng katta xavflardan biri shundan iboratki, ba'zan so'zning “taqchilligi” o'qituvchining olam manzarasi haqidagi tasavvurlarini chegaralab, qashshoqlashtirib qo'yadi. Pedagogik muhitdagi chinakam katta xavfni yuzaga keltiruvchi eng asosiy omillar quyidagilardan iborat:

-O'qituvchida nutqiy tizimning yetarlicha rivojlanmaganligi: natijada kommunikativ aloqalar kutilgan samara bermaydi;

-Kasbiy maqomning pastligi: natijada dars jarayoni o'zaro ishonch va hurmat negizida qurilmaydi;

-Samarali amaliy faoliyatning kamligi: kommunikativ muloqotlarda o'z funksiyalarini to'laqonli bajara olmaydi;

-Boshqaruv tajribasining yo'qligi: natijada yakuniy mahsulot – ta'lim oluvchilarning samarali o'zlashtirishlariga erishilmaydi.

Pedagogik amaliyotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan eng katta xavfning asosiy omillarini tahlil etadigan bo'lsak, ularning umumiy ildizi mavjudligiga guvoh bo'lamiz. Bu ildiz o'qituvchining nutqiy kompetensiyasidir.

Xorijiy til o'qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarining faoliyati bilan tanishishi asnosida ularning tushunchalarga munosabatlari bilan qiziqqanimizda, o'z nutqiy savodxonligiga (nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga emas) e'tibor qilmaydigan o'qituvchilar kasbiy xususiyatlar nisbatlarining umumiy paradigmatlariga salbiy munosabatda bo'lishlari yoki umuman e'tibor qilmasliklari kuzatildi. Masalan, “konseptualashtirish”, “fikriy xulosalar”, “qonun” kabi tushunchalar ayrim xorijiy til o'qituvchilarining tarbiyalash va ta'lim berishdagi me'yoriyligi hamda adekvatligiga, pedagogik ishlash usullar adekvatligiga deyarli aloqador emasligi ko'rinib qoldi.

“Harakat”, “ratsionallashtirish” yoki “ijro etish” singari tushunchalar “charchash” so'ziga sinonim sifatida, munosabatli tarzda qabul qilindi. Taklif etilgan tushunchalarning talqini “mas'uliyat”, “ta'lim berish istagi”, “rivojlantirish” kabi tushunchalar bilan yonma-yonlikni

mutlaqo istisno etdi. Va nihoyat “ega bo‘lish”, “moddiylashtirish”, “mahsulot”, “o‘zlashtirish”, “yakun refleksiya” kabi tushunchalar zarur, ammo xorijiy til o‘qituvchisiga bog‘liq bo‘lmagan tushunchalar sifatida talqin etildi. Bayon etilgan talqinlarni asoslash uchun keltirilgan argument ko‘pincha shundayki, ta‘lim muhiti go‘yo o‘quvchilarga bog‘liq: istasa – o‘qiydi, aks holda “mahsulotni” xorijiy til bo‘yicha bilim, ko‘nikma va mahorat shaklida “moddiylashtirish” ilojsizdir.

**Xulosa va takliflar.** Bunday asoslarni keltirish bilan xorijiy til o‘qituvchilari o‘zlarida moslashuvchan nutqiy kommunikatsiyaning nihoyatda pastligi namoyon etdilar. Aynan xorijiy til o‘qituvchining nutqiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish orqaligina yuqoridagi kabi qarashlar va pedagogik amaliyotda uchrab turadigan salbiy holatlarga barham berish mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Гуревич П.С. Современный гуманитарный словарь-справочник; ООО "Фирма" Изд-во АСТ"; 1999. - 528 с.
2. Дилтс Р.Б. Фокусы языка. Изменение убеждений с помощью НЛП.- Спб.: Питер, 2000. - 320 с.
3. О'Коннор Дж., Мак-Дермотт Я. Принципы НЛП. Пер. с англ. Бродского А.Б. - К.: "София", 2000. - 224 с.



UDK: 796.015

**Paraxat BAZARBAYEV,**  
*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti mustaqil izlanuvchisi*  
*E-mail: paraxat1987@bk.ru*

*O'zDJTSU p.f.b.f.d.(PhD), dotsent Sh.To'laganov va p.f.b.f.d.(PhD) Z.Yusupovlar taqrizlari asosida*

#### ANTHROPOMETRIC VARIABILITY OF ARM PAW STRENGTH IN 14-16-YEAR-OLD HANDBALL PLAYERS

Annotation

Today, assessment of handball strength of handball players and substantiation of its relationship with anthropometric changes is one of the main research works. To achieve this goal, anthropometric variables such as height, weight, body mass index, arm length, wrist length, and total arm length should be taken into account. In particular, the use of wrestling exercises can be evaluated as one of the important factors in ensuring the development of right and left hand paw strength in 14-16-year-old handball children.

**Key words:** Handball, handball players, arm strength, anthropometric changes, strength, arm strength.

#### АНТРОПОМЕТРИЧЕСКАЯ ИЗМЕНЧИВОСТЬ СИЛЫ РУКИ-ЛАПЫ У ГАНДБОЛИСТОВ 14-16 ЛЕТ

Аннотация

На сегодняшний день оценка гандбольной силы гандболистов и обоснование ее связи с антропометрическими изменениями является одной из основных исследовательских работ. Для достижения этой цели необходимо учитывать антропометрические переменные, такие как рост, вес, индекс массы тела, длину руки, длину запястья и общую длину руки. В частности, использование борцовских упражнений можно оценить как один из важных факторов, обеспечивающих развитие силы правой и левой лапы у детей-гандболистов 14-16 лет.

**Ключевые слова:** Гандбол, гандболисты, сила рук, антропометрические изменения, сила.

#### 14-16 YOSHLI GANDBOLCHILARDA QO'L PANJA KUCHINING ANTROPOMETRIK O'ZGARUVCHANLIGI

Annotatsiya

Bugungi kunda gandbolchilarning qo'l panja kuchini baholash va uning antropometrik o'zgarishlar bilan bog'liqligini asoslash asosiy tadqiqot ishlaridan hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun bo'y, vazn, tana massasi indeksi, qo'l uzunligi, bilak uzunligi, umumiy qo'l uzunligi kabi antropometrik o'zgarishlarni hisobga olish kerak. Xususan, 14-16 yoshli gandbolchilarda o'ng va chap qo'l panja kuchining rivojlanishini ta'minlashda kurash mashqlarini qo'llash ham muhim omillardan biri sifatida baholash mumkin.

**Kalit so'zlar:** Gandbol, gandbolchilar, qo'l panja kuchi, antropometrik o'zgarishlar, kuch, qo'l panja kuchi.

**Kirish.** Qo'l to'pi keng tarqalgan sport turlaridan biri bo'lib, u o'quvchi yoshlarni jismoniy rivojlantirish, ularning salomatligini mustahkamlashning eng ommabop, binobarin, eng qulay vositalaridan biridir [1]. Muvaffaqiyatga erishish uchun yuqori darajadagi tayyorgarlik talab etiladi. Ushbu o'yinning harakat shakllari vaqti-vaqti bilan xarakterlanadi va ular turli hujum va mudofaa vaziyatlariga javoban doimiy ravishda o'zgarib turadi. Antropometrik va morfologik xususiyatlar boshqa sport turlarida kuzatilganidek, gandboldagi g'alaba samaradorligiga ta'sir qiladi. Bunda gandbolda o'yinchilar yaxshi rivojlangan ayerob va anayerob qobiliyatlarga ega bo'lishi bilan birga qo'l panja kuchlarining rivojlanganligi ham muhim. Qo'lining panja kuchi ko'pincha odamning umumiy jismoniy kuchi, qo'l va bilak mushaklari ko'rsatkichlari hamda jismoniy ko'rsatkichlari sifatida ishlatiladi. Qo'lining panja kuchi fiziologik o'zgaruvchi bo'lib, unga yosh, jins va tana hajmi kabi bir qator omillar ta'sir qiladi. Gandbolchilarda qo'l panja kuchi antropometrik o'zgarishlar bilan bog'liqligiga oid izlanishlar adabiyotlarda kam kuzatiladi.

**Asosiy qism.** Qo'lining panja kuchi - bu sportchilar tomonidan qo'llaniladigan umumiy atama bo'lib, ular qo'llari bilan hosil qila oladigan mushak kuchini nazarda tutadi [2]. Qo'lining panja kuchi barcha barmoq bo'g'imlari, bosh barmoqlar va bilaklarning maksimal ixtiyoriy kuch bilan kuch bilan egilishi natijasidir. Barmoq uzunligi qanchalik uzun bo'lsa, gandbol o'yinida zarba yoki otishning aniqligi

shunchalik yaxshi bo'ladi. Barcha zarbalar va otishlar bilak va barmoqlar bilan yakunlanadi. Barmoqlari uzunroq va qo'l yuzasi ko'proq parametrlarga ega bo'lgan sportchilarda qo'lining panja kuchi yaxshi rivojlangan bo'ladi. Qo'lining panja kuchida ham o'ng ham chap qo'lda amalga oshiriladi.

Gandbolda qo'lining panja kuchi muhim ahamiyatga ega, chunki turli harakatlar to'pni ushlab, ushlab turish, otish va uloqtirishda bilak va sonlarning bukuvchi mushaklarining uzluksiz ishlatilishiga tayanadi [3]. Shuning uchun qo'lining panja kuchi kuchini baholash prepubertal, o'smir va katta yoshli gandbolchilarda yaqqol namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, har qanday yuqori o'yinda qo'l va qo'lining ekstensor, shuningdek, bukuvchi mushaklari muvaffaqiyatga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Hozirgacha qilingan ilmiy tadqiqot ishlarida va adabiyotlarda yosh gandbolchilarning izometrik qo'l panja kuchi va turli xil qo'l antropometriyasining bog'lanishiga oid ma'lumotlar deyarli yo'q. Bu esa tadqiqotimizning dolzarbligini belgilab beradi.

**Tadqiqotning tashkil qilinishi.** Gandbol jismoniy, texnik, aqliy va taktik qobiliyatlarni o'z ichiga olgan keng jamroviy qobiliyatni talab qiladi. Bu jarayonda sportchilarning jismoniy qobiliyatlari o'yinchilarning o'z mahoratiga va jamoaning taktikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, chunki gandbol yugurish va uloqtirish kabi takroriy maksimal kuchlarni talab qiladi [4].

Biz 14-16 yoshli gandbolchilarda qo'l panja kuchining antropometrik o'zgaruvchanligini tahlil qilish uchun Nukus

shahar 1-sonli Sport maktabi 37 nafar gandbolchilarida amalga oshirildi. Barcha antropometrik o'lchovlar, ya'ni, bo'yi (sm), vazn (kg), qo'l kengligi (sm), qo'l uzunligi (sm) va qo'l oralig'i (sm) bilan o'lchandi. Bo'y nafas olish paytida stadiometer yordamida sm.da qayd etilgan va vazn kg.da o'lchangan. Qo'l panjasi uzunligi o'rta barmoqning uchigacha suriluvchi kaliper bilan o'lchandi. Qo'lning kengligi yassi o'lchagich yordamida metakarpal radial va metakarpal tirgak o'rtasidagi to'g'ri masofa o'lchandi. Qo'lning kengayishi uchun qo'l kafti pastga tekis yuzaga qo'yiladi. Barmoqlar imkon qadar bir biridan uzoqlashtirildi. Yassi o'lchagich yordamida bosh barmoqning tashqi tomoni bilan kichik barmoqning tashqi tomoni orasidagi mumkin bo'lgan chiziqli masofa o'lchandi. O'ng va chap qo'llarning panja kuchi Jamar Grip Dynamometer (Samsons, Billingbrook, Canada) yordamida o'lchandi. Barcha ishtirokchilarga 5 daqiqa mustaqil qizib olish uchun vaqt berildi. Keyin ularga qo'lning mushaklaridan foydalanib, dinamometrni iloji boricha mahkam siqib qo'yish buyurildi. Biror sportchining yuqori yoki pastki qo'li yoki qo'lining hech bir qismi biron bir narsaga yoki tananing boshqa qismiga tegmasligi ta'minlandi. Ta'sir qilingan kuch dinamometrning terisidan kilogrammda o'lchandi va ma'lumotlar sinovlar orasida bir daqiqalik dam olish bilan uchta muvaffaqiyatli urinishdan so'ng eng yaxshisi uchun qayd etildi. Barcha testlarning ishonchligi yuqori darajada qoniqarli deb topildi va baholashdan oldin barcha antropometrik jihozlar va tutqich dinamometri bilan qayd qilib borildi.

Barcha o'lchangan o'zgarishlar uchun tavsiflovchi statistika (o'rtacha  $\pm$  standart og'ish) aniqlandi. Korrelyatsiya koeffitsiyenti testi uchun Pirson korrelyatsiya koeffitsiyentlari qo'llanildi. Ko'rsatkichlarning statistik

ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatish uchun 5% ehtimollik darajasi ishlatilgan.

**Tadqiqot muhokamasi.** Ushbu tadqiqotda biz chap qo'l o'lchamlari (kenglik va oraliq) qo'l uzunligidan tashqari o'ng qo'ldan kattaroq ekanligini aniqladik, ammo bu muhim emas. Shu bilan birga, biz o'ng va chap qo'l panja kuchining o'rtacha ko'rsatkichini taqqoslaganimizda, u chap qo'lda sezilarli darajada yuqori edi. Bizning tadqiqotimizda o'ng va chap qo'l panja kuchining yuqori qiymatlari qo'l uzunligidagi sezilarli farq bilan bog'liqligi aniqlandi. Ushbu tadqiqotda barcha antropometrik o'zgarishlar izometrik tutqich kuchi bilan sezilarli darajada bog'liq bo'ldi. O'ng va chap qo'l panja kuchi vazn, bo'y bilan bog'langan ekan. O'yin paytida sportchilar o'rtasida ko'proq shovqin paydo bo'ladi. Sportchi to'pni boshqa sportchining qo'lidan qabul qilib olishi va ulotirish uchun etarli kuchga ega bo'lishi kerak. Bu esa ko'proq kuch talab qiladi, chunki gandbochli raqib tomonidan qo'llaniladigan kuchni ham hisobga olishi kerak. Gandbolda barmoqlar ulotirilgan to'pning kuchi bilan oson burilib ketadigan qismlarni ifodalaydi. Ammo shu bilan birga, barmoqlarni boshqarish turli xil zarbalarning aniqligi uchun ayniqsa muhimdir. Shunday qilib, gandbolda barmoq uzunligi va qo'lning perimetrlarini o'lchash ham zarurdir. Qo'lning panja kuchi uchun dominant qo'l doim mavjud bo'ladi.

**Xulosa.** Shunday qilib, qo'l antropometrik o'lchovlari qo'l kengligi va qo'l oralig'i va panja kuchi ishtirokchilarning dominant bo'lmagan qo'llarida yuqori ko'rsatkichlarga ega ekan. Ammo ikkala qo'lda ushlab turish kuchi yosh, bo'y, vazn, qo'l uzunligi, qo'l kengligi bilan sezilarli darajada bog'liq bo'ldi. Shuningdek, barcha antropometrik o'lchovlar va panja kuchi ikkala qo'lda ham yuqori darajada bog'liqligi va dominant bo'lmagan qo'lda biroq kattaroq korrelyatsiya koeffitsiyenti mavjudligi aniqlandi.

#### ADABIYOTLAR

1. Павлов Ш., Абдурахмонов Ф., Акромов Ж. Гандбол. Дарслик. Т.:2005, -154-б.
2. Дылкина Т., Романова Е. Обучение игре в Гандбол. Учебное пособие. Б:2019, -149-б.
3. Игнатъева В. Я., Петрачева И.В. Многолетняя подготовка гандболистов в ДЮСШ, – М.: Советский спорт, 2003.
4. Методика подготовки гандболистов на основе их анатомо-физиологических и индивидуальных особенностей: [учеб. пособие] / Попович А.П., Мехович Г.И., Коломийчук Т.А., Кунышева С.Д., Гончарова Е.А.. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016. – 136 с.



*Dilshod BARATOV,*  
"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universitetining  
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti sirtqi bo'lim boshlig'i  
E-mail: [sirojiddin@umail.uz](mailto:sirojiddin@umail.uz)

*QarMII dotsenti PhD. Ismoilov D.M. taqrizi asosida*

## DEVELOPMENT OF ENGINEERING CREATIVITY AND PROJECT ACTIVITY IN EDUCATIONAL AND PRACTICAL ACTIVITIES

Annotation

The implementation of the goals of the educational process outlined in this article promotes the involvement of students in innovative activities using modern pedagogical tools as a basis for training, teaching at heuristic and creative levels of educational and cognitive activity using interactive technologies; promotes the participation of students in research work based on the latest high-tech technologies.

**Key words:** Software tools, electronic resource, animation, software package, software product, professional activity, technology, project, construction.

## РАЗВИТИЕ ИНЖЕНЕРНОГО ТВОРЧЕСТВА И ПРОЕКТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЧЕБНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

Реализация целей образовательного процесса, изложенных в данной статье, способствует вовлечению учащихся в инновационную деятельность с использованием современных педагогических средств в качестве основы подготовки, обучению на эвристическом и творческом уровнях учебно-познавательной деятельности с использованием интерактивных технологий; способствует участию учащихся в научно-исследовательской работе, основанной на новейших наукоемких технологиях.

**Ключевые слова:** Программных средств, электронный ресурс, анимация, программный пакет, программный продукт, профессиональная деятельность, технология, проектирования, конструкторский.

## O'QUV VA AMALIY MASHG'ULOTLARDA MUHANDISLIK IJODIYOTI VA LOYIHA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Аннотация

Ushbu maqolada ta'lim jarayonining maqsadlarini amalga oshirish talabalarni zamonaviy pedagogik vositalar yordamida innovatsion faoliyatga tayyorgarlikning asosi sifatida jalb qilishga, interfaol texnologiyalardan foydalangan holda o'quv va kognitiv faoliyatning evristik va ijodiy darajalarida o'rganishga yordam beradi; talabalarning ilm-fanni talab qiluvchi eng yangi texnologiyalar asosidagi ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etishiga ko'maklashadi.

**Kalit so'zlar:** Innovatsion, elektron resurs, animatsiya, texnologiyalar, dasturiy mahsulot, kasbiy faoliyat, transfer, loyihalash, konstruktorlik.

**Kirish.** "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-sonli "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi[1].

Ta'limning faol shakllaridan foydalanishga yo'naltirilgan o'quv va amaliy mashg'ulotlar muhandislik ijodiyoti va loyiha faoliyatini rivojlantirish bo'yicha maxsus kurslar shaklida ta'lim mazmunining innovatsion elementlarini amalga oshirish imkonini beradi.

Interfaol ta'lim texnologiyalari nafaqat seminar mashg'ulotlarida, balki ma'ruzalarda ham qo'llaniladi, ularning kursi bizda maxsus ishlab chiqilgan va o'quv jarayonida faol foydalanilmoqda. Talabalarning kognitiv faoliyatini faollashtiradigan shakllardan biri bu amaliy, kasbiy

bilim va ko'nikmalarni olishga, kelajakdagi kasbiy faoliyatda mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarni modellashtirishga qaratilgan o'yin metodlaridan foydalanildi[2].

Ushbu fanning bo'limlari quyidagi modullar orqali OTM o'qituvchisining umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishni nazarda tutadi:

- innovatsion ta'limni qurishning asosiy xususiyatlari va tamoyillari;

- kompetentli yondashuv asosida innovatsion ta'lim dasturlarini ishlab chiqish;

- innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish;

- OTMning innovatsion tuzilmasini ta'lim faoliyatiga kiritish;

- talaba va o'qituvchining ta'lim faoliyati samaradorligini va muhandisning innovatsion tayyorgarligini baholash mezonlari;

- bilimlarni nazorat qilish usullari va talabalar kompetensiyalarini shakllantirish[3].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Turli darajadagi pedagogik tizimlarni loyihalashning nazariy va amaliy muammolari A.A.Bodaleva, L.I.Novikova, R.I.Penkova, V.V.Polukarova, Y.P.Sokolnikov,

N.L.Selivanova, V.D.Semenov va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Zamonaviy nazariya va amaliyotda talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari o'quv rejaları doirasidan tashqarida ularning mustaqil faoliyatini o'z ichiga oladi. Maqsad va amalga oshirish xususiyatlariga ko'ra, o'quv jarayonini to'ldiradigan ilmiy-tadqiqot ishlarining turlari orasida quyidagilar ajralib turadi:

- a) talabalarning individual ilmiy-tadqiqot ishlari va ularning ilmiy to'garaklar va guruhlar ishlarida ishtirok etishi;
- b) ommaviy ilmiy-texnik tadbirlar;
- v) raqobatbardosh ilmiy-texnik tadbirlar.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida individual va jamoaviy ishtirokini tashkil etish va o'quv jarayonini to'ldiradigan ommaviy va raqobatbardosh tadbirlarini o'tkazish eng iqtidorli, ilmiy moyil talabalarni izlashga yordam beradigan mexanizm sifatida qurilgan[4].

Seminarlarda aqliy xaritalar va tuzilmaviy-mantiqiy diagrammalardan foydalanish talabalarning innovatsion tafakkurini faollashtiradi, kasbiy amaliyotga tayyorgarlik jarayoniga ijodkorlikni olib keladi, tizimli tanqidiy fikrlash va mustaqillikni shakllantiradi.

Innovatsiyalar muammolarini tushunish, shuningdek, yaxlit dunyoqarashni shakllantirish uchun bir necha yo'nalishdagi o'qituvchilar ishtirokida vebinarlar, konferensiya videoma'ruzalari qo'llaniladi: psixologiya, sotsiologiya, dastgohlar va asbob-uskunalarining ishlashi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'qitishning faol metodlaridan foydalanishning muhim jihati ularning ta'lim motivatsiyasi, tizimli fikrlash, hayot va ish vaziyatlarini tahlil qilish, shaxsiy hayotiy xususiyatlarni aks ettirish va shakllantirishga yo'naltirilganligidir. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish talabalarning bilimlarini mustaqil ravishda kengaytirish va chuqurlashtirish, axborotni faol izlash, yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga tez moslashish imkonini beradi.

Ilmiy asoslar bo'yicha kuchli nazariy bilimlar mustahkamlangan: talabalarning loyiha faoliyatida va ularning ilmiy tadqiqotlarini amalga oshirishda.

Talabani shaxsiy o'zini-o'zi rivojlantirishga qaratilgan o'qitish usullaridan biri sifatida fundamental fanlar va yuqori texnologiyalar asosida modernizatsiya qilingan mahsulot yoki yangi bilimlarni yaratish imkonini beruvchi kurs va diplom loyihasi qo'llaniladi. Loyiha faoliyatining mazmuni muammoli vaziyatning mavjudligini va ushbu vazifani amalga oshirishga ijodiy yondashishni, muammoni ko'rishni va uni hal qilish yo'lini izlashni nazarda tutadi.

Mutaxassislik kafedralar diplom loyihalash mavzularini kafedraning ilmiy tadqiqotlari, kichik korxonalar bilan talabnomalar va buyurtmalar bilan bog'lagan holda belgilaydi va butun o'qish davrida ilmiy tadqiqot ishlariga hamrohlik qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Texnika OTMda talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarining innovatsion yo'nalishi quyidagilar bilan ta'minlanadi:

- Fan va texnika taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarida kurs va diplom loyihalash mavzularining dolzarbligi;

- Yangi mahsulot yoki loyihani yaratishda tadqiqot va texnologiyaning uslubiy yo'nalishini kuchaytirish;

- Laboratoriyalar, OTMning boshqa infratuzilma bo'limlarida ilmiy-texnikaviy ishlanmalarni aprobatssiya qilish;

- Tadqiqot loyihalari mavzulari va turli darajadagi tanlovlar va innovatsion dasturlarda qatnashish uchun arizalar;

- Loyiha ustida ish olib borishda uzluksizlik va istiqbolni ta'minlash: kurs loyihasi - ilmiy-amaliy konferensiyalarda ishtirok etish - diplom loyihasi.

Davlat standartining o'zgaruvchan qismidagi fanlarni tanlash asosida, talaba tanlovi bo'yicha kurslar, maxsus kurslar, ilmiy tadqiqot mavzularini aniqlash, talabani individual rivojlanish trayektoriyasi tuziladi[5].

Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi faolligi ko'p jihatdan ularning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishga, uning faol ishtirokchilarini rag'batlantirish shakllari va usullariga bog'liq.

V.V.Balashov o'quv jarayonini to'ldiradigan talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini va ta'lim jarayoniga parallel bo'lgan o'quv jarayonini ajratib ko'rsatadi. O'quv jarayonini to'ldiruvchi ilmiy-tadqiqot faoliyati o'quv rejaları doirasidan tashqarida mustaqil ilmiy faoliyatni o'z ichiga olgan ilmiy ish va talabani ilmiy tadqiqotda ishtirokini o'z ichiga oladi. Talabalar o'qishlari bilan parallel ravishda ishtirok etishlari mumkin bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlarining umumiyiligi OTMlarning ilmiy-tadqiqot ishlarining tematik rejalariga muvofiq kafedralarda, talabalar tomonidan ixtiyoriy ravishda to'lovsiz va OTMlarning ilmiy bo'limlarida olib boriladigan ilmiy ishlardir [6].

Talabalar va yosh olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlarni muvofiqlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ular orasida talabalar uchun grantlar tizimidan faol foydalanish; mamlakatimizning yetakchi oliy ta'lim muassasalari hamda ilmiy muassasa va tashkilotlarida o'qish uchun sharoit yaratish orqali turli hududlardan kelgan yoshlarning akademik mobiligini kuchaytirish; yoshlarga mamlakatning turli ilmiy tashkilotlarida ishlash to'g'risida ongli qaror qabul qilish imkonini beruvchi yagona axborot tizimini yaratish va boshqalar[7].

Talabalarni mustaqil ravishda axborot izlashga jalb qilish muhimdir. Shu bilan birga, bo'lajak muhandislar oldiga muhandislik ijodiyoti, zamonaviy texnika va texnologiyalar bo'yicha elektron lug'atlar va darsliklar yaratish, mamlakatimiz va xorijiy olimlar, shuningdek, OTM olimlarining so'nggi ilmiy kashfiyotlarining elektron ma'lumotlar bazasini yaratish kabi vazifalar taklif etiladi.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirishning asosiy chora-tadbirlari talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini faollashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanuvchi talabalarni moddiy rag'batlantirishda amalga oshiriladi; talabalarni tadqiqot faoliyati haqida xabardor qilish; OTMning moddiy-texnik bazasini yaxshilash; o'quv jarayonida, ishga joylashishda imtiyozlar berish; talabalar ishining amaliy ahamiyatini oshirish; talabalarning ilmiy konferensiyalari, seminarlari, ishbilarmonlik o'yinlari, davra subhatlari, munozaralar tashkil etish; tadqiqot natijalarini ilmiy jurnallarida nashr etish imkoniyatini ta'minlash; talabalar va professor-o'qituvchilar bilan doimiy aloqalarni o'rnatish; ilmiy faoliyat uchun eng qobiliyatli talabalarni tanlash; talabalarni ma'naviy rag'batlantirish[8].

O'quv, ilmiy va ishlab chiqarish majmualarining tashkil etilishi ham ilmiy tadqiqotlarni maqsadli moliyalashtirish, ilmiy asbob-uskunalar va moddiy-texnika bazasidan samarali foydalanish, universitet professor-o'qituvchilarini ilmiy-tadqiqot ishlariga kengroq jalb etish imkonini bermoqda.

Mutaxassislik kafedralarning ilmiy va o'quv faoliyati ilmiy tashkilotlar, OTM va ishlab chiqarish tuzilmalari salohiyatini samarali integratsiyalashuviga, fanni ko'p talab qiladigan ishlab chiqarishlar faoliyatining hal qiluvchi omillaridan biri sifatida innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan; yuqori texnologiyali raqobatbardosh mahsulotlarni yaratish bo'yicha hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun yagona moddiy-texnika va axborot bazasini rivojlantirish; qo'shma ishlanmalarni joriy etishda olingan fundamental va amaliy tadqiqotlar natijalarini yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlar uchun mutaxassislar

tayyorlash bo'yicha o'quv jarayoniga o'tkazish; fan va ta'lim tizimini yangi sifat darajasiga ko'tarishga olib keladigan yangi istiqbolli mutaxassislik yo'nalishlarini aniqlash; ta'lim faoliyatining yangi uslub va shakllarini joriy etish, ta'lim dasturlarini, yangi avlod darsliklarini tayyorlash va optimallashtirish; talabalarini ilmiy va innovatsion ishlarga jalb etish, shu jumladan, bitiruvchilarni o'qitish, amaliyot o'tashlari va kelgusida bandligini ta'minlash, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash imkoniyatlarini ta'minlash[9].

Texnik vazifalar ma'lum bir texnik muammoni hal qilishni o'z ichiga oladi, maxsus ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi (texnik obyektlarni qayta ko'rib chiqish va ko'p qirrali tahlil qilish, dinamik fazoviy tasvirlar bilan ishlash, maxsus fanlar, asosiy fanlar bilimlarini qo'llash, mustaqillik, faollik va ijodkorlikning namoyon bo'lishi). Ushbu vazifalar intellektual qobiliyatlar, konstruktiv va texnik yechimlarni shakllantirish, majoziy, konseptual va vizual samarali texnik fikrlashni rivojlantirish bilan bog'liq[10].

Texnologik vazifalar texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va takomillashtirish bilan bog'liq. Masalalarni yechish jarayonida o'qituvchi maxsus adabiyotlar bilan ishlash, texnologik operatsiyalarni loyihalashni algoritmlash, optimal texnik qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu vazifalar turli vaziyatlarni nazariy yondashuvlarni amaliyot bilan bog'lash, o'rganilayotgan materialni eslab qolish va yaxshiroq tushunish va u bilan ongli ravishda harakat qilish imkonini beradi.

Innovatsion vazifalar - bilim va ko'nikmalarni yangi vaziyatga o'tkazish, tanish vaziyatda yangi muammoni ko'rish, obyektning yangi funksiyasi, uning tuzilishi; yangi faoliyatning ma'lum usullarining kombinatsiyasi; ushbu muammoning mumkin bo'lgan yechimlarini ko'rish, qarama-qarshi faktlar; hal qilishning ma'lum bo'lganlardan farq qiladigan tamoyiliy jihatdan yangi usulini qurish (original yechim).

O'qituvchilarning kasbiy mahorat darajasini ularning kasbiy muammolarni hal qilishdagi muvaffaqiyati asosida aniqlash mumkin. Muammoni hal qilishda o'qituvchi biron bir kompetenssiyaning mavjudligi yoki yo'qligini aniqlaydi. Har bir yangi vazifaning yechimi uning bilim va tajribasini boyitadi. Shunday qilib, vazifalar diagnostika vositasi sifatida ham, yangi bilimlarni shakllantirish vositasi sifatida ham qo'llanilishi mumkin[11].

Kasbiy yo'naltirilgan o'quv jarayoni universitet uchun innovatsion ilmiy kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishga ham yordam beradi; kafedralarning laboratoriya va ilmiy markazlar hamda OTMning boshqa infratuzilma elementlari bilan o'zaro hamkorligi; OTMda "Muhandislik pedagogikasi va psixologiyasi" kafedrasida "Ta'limdagi

innovatsiyalar", "Oliy ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi", "Muhandislik psixologiyasi" yo'nalishlari bo'yicha qo'shimcha kasbiy-pedagogik ta'lim dasturlarini amalga oshirish.

Ta'lim dasturini shakllantirish bosqichida yangi avlod ta'lim dasturlarini axborot-metodik ta'minlash kompetentli yondashuv asosida mantiqida ishlab chiqilgan va tegishli kompetensiyalar tarkibini shakllantirish uchun zarur va etarli bo'lgan kredit birliklarini tanlash orqali amalga oshiriladi. Tanlangan material aniqlashtiriladi va muammoli ma'ruzalarga, loyiha topshiriqlariga, o'quv dasturlari uchun baholash materiallariga, bitiruv ishiga qo'yiladigan talablarga va boshqalarga aylantiriladi. Asosiy yakuniy maqsadni aniqlashtirish shakli - ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarning innovatsion faoliyat sohasidagi kompetensiyalarini shakllantirish - bu o'qitish mazmuniga turli xil sohalarni birlashtiradigan yetakchi va fundamental g'oyalar, tamoyillar, asosiy toifalar va tushunchalarni joylashtirishdir.

Shunday qilib, OTMning innovatsion tarkibiy bo'linmalarining o'quv faoliyati kadrlar tayyorlash bo'yicha bir qator an'anaviy ta'lim dasturlarini amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy jamiyatning ortib borayotgan talablarini qondirishga qaratilgan kasbiy o'sishning individual trayektoriyasini yaratish imkonini beradi.

Integratsiyalashgan tizimning moslashuvchanligi ilmiy-ta'lim klasterining komponentlari ijtimoiy va individual amaliyotning dinamik o'zgaruvchan ehtiyojlariga tezkor javob berish imkoniyatini beradigan aloqa va munosabatlarga ega ekanligida namoyon bo'ladi. Nazorat harakatlari natijasida ilmiy tadqiqot jarayoni bilan chambarchas bog'langan holda mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha ta'lim dasturlarini amalga oshirish yo'nalishi, darajasi, mazmuni, shakllari va muddatlari tanlanadi[12].

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida aytilganlar texnik universitetning innovatsion o'quv muhitini tashkil etish iqtisodiyotning innovatsion yo'nalishlarini shakllantirish va rivojlantirishga, fan va texnika yutuqlari natijalarini tashqi muhitga ham o'tkazishga yordam beradi, degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Bu bo'lajak muhandislarining innovatsion faoliyatga tayyorligini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi; innovatsion faol korxonalar va tashkilotlarni kadrlar bilan ta'minlash masalasini hal qiladi; OTM va hududning ilmiy va ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Taqdim etilgan maqsad va vazifalar va ularni texnika OTMning ta'lim tizimida amaliyotga tatbiq etish natijalari belgilangan mezonlar (motivatsion-shaxsiy, operatsion-faoliyatli va refleksiv) asosida ishlab chiqilgan texnologiya samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – T., 2017. B.39.
2. Покасов В.Ф. Управление качеством образования современной школы (методические материалы) // автор-состав. – Ставрополь. 2012. – 145 с.
3. Гомулина Н.Н. Применение новых информационных и телекоммуникационных технологий в школьном физическом и астрономическом образовании: Дисс. канд. пед. наук: 13.00.02. – М.: МПГУ, 2003.-332 с. РГБ ОД, 61:03-13/1698-6.
4. Хамидов В.С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom.uz», - Тошкент. 2010, №1, -54-57-6.
5. Шоштаева Е.Б. Интегральная технология обучения как основа повышения качества образовательного процесса: автореф. дис. канд. пед. наук. // Шоштаева Е.Б. – Карачаевск: 2003. – С. 23.
6. Хамидов В.С. Таълим тизимида кескин бурилишга сабаб бўлган 4 дастур ҳақида. «Infocom.uz», - Тошкент. 2010.
7. Turaev S.J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics, Scientific Bulletin of Namangan State University: 2019.
8. Смолкин А.М. Методы активного обучения: [Метод. пособие для преподавателей и организаторов проф. и экон. обучения кадров] / Смолкин А.М. – М.: Высш. шк.,1991. – с. 175.

- 
9. Психология и педагогика /Под ред. Абульхамовой К.А., Васиной Н.В., Лаптева Л.Г., Слостенина В.А. – М.: «Совершенство», 1998.
  10. Махмадиев Б.С. MathCAD тизимида ишлаш асослари. Ўқув кўлланма. – Қарши. 2012. – 144-б.
  11. Тураев С.Ж., Хўжаев Л.Х., Пардаев Б.А. Matlab/Simulink муҳитида динамик системаларни моделлаштириш ва Borland Delphi7 дастурлаш тилида графигини ўрганиш.
  12. Аладьев В.З., Харитонов В.Н. Программирование: Maple или Mathematica. – Таллинн , 2011. -415 с.



**Bunyodbek BAHROMBEKOV,**  
*O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi  
Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i  
E-mail: b.bahrombekov1986@gmail.com*

*Yuridik fanlari doktori professor V.Topildievning taqrizi asosida*

## JINOIY SUD ISHLARINI YURITISHDA DAVLAT AYBLOVINI QUVVATLASHNING HUQUQIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI

Аннотация

Maqolada jinoyat protsessida davlat ayblovini quvvatlashning huquqiy va axloqiy muammolari ko‘rib chiqilgan. Sudda qatnashayotgan prokurorning asosiy vazifalaridan biri - qonunda belgilangan vakolatlar orqali sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli bo‘lishiga erishishdan iborat. Sudda davlat ayblovini quvvatlash jarayonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarda axloqiy xatti-harakatlarni tanlash haqidagi fikr ham maqolada o‘z aksini topgan.

**Kalit so‘zlar:** Davlat ayblovini, sud, prokuror, odil sudlov, sudlanuvchi va himoyachi, jinoyat ishi, tergov.

## ПРАВОВЫЕ И ПРАВСТВЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО ОБВИНЕНИЯ В УГОЛОВНОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ

Аннотация

В статье исследуются правовые и этические проблемы государственного обвинения в уголовном процессе. Одним из основных задач участвующего в суде прокурора является достижение вынесения законных, обоснованных и справедливых судебных решений. В статье также отражено мнение о выборе этического поведения в сфере правоотношений, возникающих в процессе осуществления государственного обвинения в суде.

**Ключевые слова:** Государственное обвинение, суд, прокурор, правосудие, подсудимый и защита, уголовное дело, следствие.

## LEGAL AND MORAL PROBLEMS OF PUBLIC PROSECUTION IN CRIMINAL PROCEEDINGS

Annotation

The article examines the legal and ethical problems of public prosecution in criminal proceedings. Prosecutors were entrusted with the task of providing close assistance to the courts as a guarantee of strengthening the rule of law in the administration of justice by ensuring active competent participation in the court. The article also reflects the opinion on the choice of ethical behavior in the field of legal relations arising in the process of exercising the prosecutor's office in court.

**Key words:** Public prosecution, court, prosecutor, justice, defendant and defense, criminal case, investigation.

**Kirish.** Jinoyat ishlarini yuritishning O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida belgilangan tartibi qonuniylikni mustahkamlashga, jinoyatlarning oldini olishga, shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarini kafolatli himoyalashga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasining Asosiy Qomusi - Konstitutsiyamizning 13-moddasida qayd etilganidek, O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy printsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Prokurorlar zimmasiga sudda faol, malakali ishtirokni ta’minlash orqali odil sudlovni amalga oshirishda qonuniylikni mustahkamlash kafolati sifatida sudlarga yaqindan yordam berish vazifasi yuklatildi. Prokuror o‘zining sud jarayonidagi ishtiroki bilan dalillarning har tomonlama va to‘liq tekshirilishi, ishning haqiqiy holatlari aniqlanishi, qonuniy va adolatli sud hukmi qabul qilinishiga erishishda sudga ko‘maklashuvchi shaxs sifatida maydonga chiqishi lozim.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida bu haqda ajdodlarimiz azaldan amal qilib kelgan “Zulm qilma, insofli bo‘l, xalq uchun adolat qo‘rg‘onini bunyod et”, degan hayotiy tamoyilni ta’kidlar ekan, jumladan, “Biz sud-huquq tizimini isloh etishda shunday talablardan kelib chiqdik. Xususan, “sudxanining ongida - adolat, tilida - haqiqat, dilida - poklik bo‘lishi kerak”,

degan g‘oyani ilgari surdik va uni amalda qaror toptirishga intilmoqdamiz”, [1]deydi. Bu tamoyil davlatimiz rahbarining 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida ham o‘z aksini topib, odil sudlov masalasiga alohida to‘xtalib o‘tildi va sud tizimida amalga oshiriladigan qator o‘zgarishlar yuzasidan muhim vazifalar belgilab berildi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jinoyat protsessida prokuror faoliyatining ba’zi jihatlari mamlakatimiz olimlari: B.X.Po‘latov, Z.S.Ibragimov, Z.F.Inog‘omjonova, M.A.Rajabova, M.X.Rustamboev, D.S.Dovudova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. Xorijiy mamlakatlarda sud bosqichida prokuror faoliyatini tashkil etish masalalari: V.G.Ulyanov, V.F.Kryukov, V.I.Baskov, I.V.Borisenko, B.A.Tugutov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Shuningdek, maqolada O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, Bosh prokuror sohasiy buyruqlari va boshqa normativ hujjatlardan foydalanilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning metodologik asosi ilmiy dialektik usul va undan kelib chiqadigan xususiy ilmiy usullar: tizimni tahlil qilish va rasmiy mantiqiy usullardan tashkil topgan. Maqola yozilishida qiyosiy-huquqiy va boshqa ilmiy tadqiqot usullaridan ham foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Sudda ishlarni yuritishda tortishuv Jinoyat protsessual kodeksida belgilangan

printsipalaridan biri bo'lib, aksariyat hollarda uni jinoyat ishining sud muhokamasi bosqichida ko'rish mumkin bo'ladi. Jinoyat protsessi barcha ishtirokchilari o'z faoliyatlarini jinoyat protsessi tamoyillariga asoslangan holda amalga oshiradilar. Binobarin, davlat ayblovini quvvatlash taraflarning o'zaro tortishuvi printsipini amalga oshirish zarurati bilan bog'liqdir. Mazkur tamoyil ishda davlat ayblovini quvvatlovchi prokurorga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning fikricha : yaqin o'n yillikda sud tizimini yanada takomillashtirish va mustahkamlash, adolatli sudlovdan foydalanish imkoniyatini oshirishga qaratilgan vazifalar belgilangan bo'lib, ulardan biri prokurorlarning maqomi, ularning mustaqilligini ta'minlash masalalari, tanlash va xizmat pog'onalaridan o'stirishning xolis mezonlari qonunda aniq belgilangan bo'lishiga erishish, xokimiyatlar bo'linishining konstitutsiyaviy tamoyilidan kelib chiqib, bu boradagi uslub va mezonlarini takomillashtirish. – belgilab qo'yilgan [2].

Davlat ayblovchisining huquqiy maqomi hamda uning vazifalari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, "Prokuratura to'g'risida"gi Qonun, Bosh prokurorning sohaviy buyruqlari hamda boshqa normativ huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Prokurorning jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda ishlar ko'rilishidagi asosiy vazifalari – qonunda belgilangan vakolatlar orqali sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli bo'lishiga erishishdan hamda qonuniylikni mustahkamlash, qonun ustuvorligini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini samarali himoya qilishni ta'minlashdan iboratdir.

Davlat ayblovini quvvatlashning axloqiy asoslari mazkur faoliyatning barcha bosqichlari (jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituv, sud muhokamasi, sud tergov, taraflarning muzokarasi) ga ta'sir qiladi.

Aynan burch va vijdon davlat ayblovchisi faoliyatining axloqiy asoslarida hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ushbu mezonlar prokuror tomonidan dalillarni baholashda asos bo'lib xizmat qilish kerak.

Prokuror sud majlisi boshlangunga qadar puxta tayyorgarlik ko'rib, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovning har tomonlama, to'liq va xolisana olib borilganligini o'rganishi lozim.

V.Ulyanovning fikricha - "Barcha tizimlarda davlat ayblovchilari: jinoyat ishini qo'zg'atish yoki jinoyi ta'qibni davom ettirish masalasini ko'rib chiqadi; sudlarda davlat ayblovini quvvatlaydi; sud qarorlariga nisbatan protest keltiradilar va yuqori bosqich sudlarida protestlarni quvvatlaydilar"[3].

Davlat ayblovchisi faoliyati jarayonida unga bosim o'tkazish, uning o'z ishonchi va vijdoniga qarshi sudga gapirishga undash yoki majburlash axloqsizlikdir. Natijada sudga qatnashayotgan prokurorda o'z ishiga nisbatan mas'uliyatsizlik yuzaga kelib, sudda faol bo'lish, o'zining kasbiy darajasini oshirish va mantiqiy fikrlash faoliyati sezilarli kamayadi. Aynan axloqiy tamoyillar asosida prokuror sud, jabrlanuvchi, sudlanuvchi va himoyachi bilan protsessual munosabatlarni o'rnatadi.

Jinoyat-protsessual qonunchiligida prokurorning o'zini-o'zi rad qilish normasi mavjudligi prokuror faoliyatining axloqiy asoslaridan biri bo'lib, prokurorning jinoyi protsess ishtirokchilarini sudda so'roq qilish jarayonida ham axloqiy tamoyillarga mos bo'lishi kerak.

Sud tergovining o'ziga xos xususiyatlarini belgilovchi va davlat ayblovini yuritish usulini tanlashga ta'sir qiluvchi omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

Jinoyat ishlarining oshkora ko'rilishi; yangi dalillarni taqdim etish jarayonida "kutilmaganlik" omili; qarshi taraflarning xato va noto'g'ri hisob-kitoblaridan foydalanish; tez

yo'qoladigan dalillarni to'plashda yuzaga keladigan qiyinchiliklar; tadqiqot jarayonining o'rganilayotgan sharoitlardan uzoqligi; mavjud dalillarning o'zgarishi yoki yo'qolishi natijasida yangi ochilgan, ko'pincha kutilmagan holatlarning vujudga kelishi; dalillarni tekshirish tartibini belgilash, har bir dalilga nisbatan alohida taktika va usullardan foydalangan holda dalillar tizimini o'rganish; dalillarni vizual va tushunarli shaklda, shu jumladan sud jarayoniga qarab ular bilan sodir bo'lgan o'zgarishlarni tekshirish; protsess ishtirokchilarining xulq-atvori va keyingi harakatlarini bashorat qilish, ularga faol ta'sir ko'rsatish.

Davlat ayblovini quvvatlashning dasturiy-maqсадli usulining ta'rifi berilgan bo'lib, unga ko'ra bu usul jinoyat protsessi ishtirokchi (shu jumladan prokuror) larining namunaviy kriminalistik dasturlaridan foydalangan holda mavjud bo'lgan ma'lumotlarni tekshirish va yangi zarur ma'lumotlarni olish faoliyatini tashkil etish usuli hisoblanadi.

Dasturiy-maqсадli usulning ketma-ketligi quyidagicha: jinoyat ishining o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda namunaviy dasturlardan birini tanlash; ish hujjatlarini o'rganish; ish bo'yicha aniqlangan holatlar yuzasidan to'plangan ma'lumotlarni majmuini shakllantirish hamda dalillarni tekshirish; yetishmayotgan ma'lumotlarni aniqlash va uni sud jarayonida olish tartibini belgilash; yetishmayotgan ma'lumotlarni to'ldirish imkoniyatini baholash; ish holatlari va dalillarni tekshirish bo'yicha harakatlarni rejalashtirish; sudga dalillarni taqdim etish ketma-ketligini aniqlash; dalillarning o'zgarishiga qarab ayblovni o'zgartirish.

Prokurorni sudgacha tayyorgarligini rejalashtirish va tashkil etish murakkab, uzluksiz va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, ushbu jarayon davlat ayblovchisining jinoyat ishi hujjatlarini o'rganish vaqtidan boshlanib, sud tomonidan jinoyat ishi ko'rib chiqilishi tamomlanishi bilan tugaydi.

V.F.Kryukovning fikricha - "Prokurorning davlat ayblovini quvvatlash sifati asosan uning sud majlisiga puxta tayyorgarligi bilan bog'liq. Faqat jiddiy tayyorgarlik ko'rgan va jinoyat ishi hujjatlaridan xabardor bo'lgan prokurorgina ishni ko'rish jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolar majmuini qiyinchiliksiz yengish mumkin bo'ladi"[4].

Davlat ayblovini quvvatlashni rejalashtirish ko'p bosqichli va murakkab jarayon bo'lib, prokuror uning oldida turgan vazifalar soni va xususiyatidan kelib chiqib rejalar tuzadi. Ushbu jarayon jinoyat ishi hujjatlarini doimiy ravishda sinchkovlik bilan o'rganish, jinoyat ishi xususiyati va sud muhokamasi vaqtida yuzaga keladigan vaziyatga qarab aniq protsessual harakatlarini bajarish, sud tergov jarayonida yuzaga keladigan yangi versiyalarni asoslash va tekshirishda yordam beradi hamda sud tomonidan jinoyat ishlarining sifatli ko'rilishiga zamin bo'ladi.

Jinoyat ishini sudga ko'rilishidan oldingi tayyorgarlikni rejalashtirish va tashkil etish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) Tashkiliy masala – davlat ayblovini quvvatlash ishlarni tashkil etishda mas'ul shaxsni aniqlash; birinchi bosqich sudida ishtirok etuvchi prokurorni belgilash; ayblovni davlat ayblovchilari guruhi tomonidan quvvatlanish zaruratini ko'rib chiqish; lozim bo'lganida ushbu guruh tarkibini shakllantirish;

2) Jinoyat ishini ko'rib chiqilishida ishtirok etish uchun tayinlangan prokurorning e'tiborini talab qiladigan masalalar – jinoyat ishining sudlovga tegishliligi qoidalariga rioya qilingani, surishtiruv va dastlabki tergov o'tkazish chog'ida Jinoyat-protsessual Kodeksning talablariga rioya qilingani, ayblanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasini o'zgartirish yoki tanlash zarurati, jinoyat oqibatida yetkazilgan mulkiy zararning o'rni qoplanishini ta'minlash choralari ko'rilgani.

Prokuror sud jarayonida, xususan dastlabki tergov bosqichida olingan dalillar hamda sud muhokamasida taqdim etilgan yangi dalillarni baholash va tekshirishda, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlarni so'roq qilishda va boshqa tergov harkatlarida faol bo'lishi kerak.

Prokuror davlat ayblovini yanada samaraliroq quvvatlash uchun o'zining rejasiga ega bo'lishi va sud majlislari natijalariga qarab, ularga tegishli o'zgartirishar kiritishi lozim.

JPKning 440-moddasida, dalillarni tekshirish sudlanuvchilarni so'roq qilish bilan boshlangan bo'lsa, ulardan keyin sud jabrlanuvchilarni so'roq qilishi, sudlanuvchilar ko'rsatuv berishdan bosh tortgan yoki boshqa dalillarning tekshirilishidan oldin ko'rsatuv berishga rozi bo'lmagan taqdirda jabrlanuvchilarni, guvohlarni so'roq qilish, dalillarni ko'zdan kechirish, guvohlantirish, yozma dalillarni o'qib eshittirish, ekspertiza o'tkazish va boshqa sud harkatlarini bajarish navbati to'g'risidagi masalani sud ishning muayyan holatlarini va taraflarning takliflarini inobatga olgan holda hal qilishi ko'rsatilgan[5].

Shu o'rinda, jinoyatni sodir etishda bir necha sudlanuvchi ayblanayotgan bo'lsa, birinchi bo'lib jinoyatga tayyorgarlik ko'rilishiga yoki jinoyat sodir etilishiga rahbarlik qilgan shaxs, ya'ni tashkilotchi bo'lgan sudlanuvchini so'roq qilish, shundan so'ng boshqa sudlanuvchilar ko'rsatmalarini eshitish, ular aybiga iqrar bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sudlanuvchilarning bir qismi o'z ayblarini inkor qilganda, so'roqni aybiga iqrar bo'lgan sudlanuvchilardan boshlash va keyin aybiga iqrar bo'lmaganlarini so'roq qilish tavsiya etiladi. Agar jinoyat tashkilotchisi sodir etilgan jinoyatga daxldorligini rad etsa, uni oxirida so'roq qilish yaxshiroqdir. Sudlanuvchilardan birinchisi o'z aybini tan olganga eng ko'p jinoyat sodir etishda ishtirok etgan shaxsni so'roq qilish to'g'ri bo'ladi.

Prokuror tomonidan davlat ayblovini to'g'ri rejalashtirilishi protsess ishtirokchilariga turli xil nazorat, istisno, tasdiqlovchi hamda taxminiy savollarning berilishini ta'minlaydi.

Davlat ayblovchisi fikri JPKning 450-moddasida belgilangan tartibda sudga yozma taqdim etilishi lozim.

Yozma fikrda: sudlanuvchi aybli deb topilayotgan qilmish haqiqatan sodir etilganligi; bu qilmish jinoyat deb hisoblanishi va u Jinoyat kodeksining tegishli moddasida nazarda tutilganligi; qilmishning sudlanuvchi tomonidan sodir etilganligi; qilmishni to'g'ri tavsiflanganligi; sudlanuvchining jinoyat sodir etilishida aybliligi va aybning shakli; sudlanuvchi javobgarligini yengillash tiradigan va og'irlashtiradigan holatlar mavjudligi; sudlanuvchi sodir etgan jinoyati uchun jazolanishi zarurligi, jazo turi va me'yori; sudlanuvchi ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlash haqida fikrga kelinganda, jazoni o'tash lozim bo'lgan muassasa turi; qo'llanilishi lozim bo'lgan qo'shimcha jazo chorasi; mulkiy va ma'naviy ziyonni undirish yuzasidan fuqaroviy da'voni qanoatlantirish; ish bo'yicha xatlangan va band solingan mol-mulk, pul mablag'lari, ashyoviy dalillar, hujjatlar va boshqa narsalar taqdiri bilan bog'liq masalalar asoslantirilgan holda aniq bayon etilishi shart.

Davlat ayblovchisi fikri ishning haqiqiy holatlarini aniqlashga va adolatli sud hukmi chiqarilishiga yordam berishi kerak[6]. Puxta tayyorgarlik hamda bosqichma – bosqich rejalashtirish prokuror fikrini ishonchli chiqishiga yordam beradi.

D.Dovudovanning ilmiy tadqiqot ishida sudlanuvchiga nisbatan ayblovni og'irrog'i bilan yoki haqiqiy ahvolga ko'ra, dastlabki ayblovdan jiddiy farq qiladigan ayblov bilan almashtirish yoki boshqa shaxsni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish uchun aniqlangan asoslar bo'yicha prokuror tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan protsessual harkatlar tizimi ishlab chiqilib, ularni jinoyat-

protsessual qonunchilikda aks ettirish zarurligi asoslab berilgan [7].

Sohadagi prokuror faolitetini baholashning asosiy mezonlari quyidagilardir: faoliyatni tizimli tahlil asosida tashkil etilganligi va sohada o'rnatilgan idoraviy nazoratning samaradorligi; sud amaliyoti belgilangan muddatlarda umumlashtirilganligi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rilganligi, shu jumladan, qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritilganligi; bir xil toifadagi ishlar bo'yicha yagona sud amaliyotiga erishilganligi; sud qarorlarini apellyasiya muddatida o'rganish samaradorligi; prokuror fikrining asosligi; sud qarorlariga nisbatan keltirilgan protestlarning asosligi; sohadagi prokuror faoliyatini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilganligi.

Shu o'rinda, fikrimizcha, prokuror faoliyatini baholash jarayonida quyidagi holatlarga ham e'tibor qaratish lozim bo'ladi:

Birinchi, ayblovni quvvatlash jarayonida yo'l qo'yiladigan tizimli protsessual xatolar va ularning yuzaga kelish sabablarini aniqlash va tahlil qilish;

Ikkinchi, har bir davlat ayblovchisi ish yuklamasini, shu jumladan u qatnashgan ishlar soni, hajmi va murakkabligini aniqlash va boshqa xodimlar bilan maqbul muvozanatlashtirish;

Uchinchi, davlat ayblovchilarning malaka darajasini aniqlash, ularning malakasini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

To'rtinchi, o'ta murakkab, dolzarb yoki jamoat rezonansidagi jinoyat ishlarida qatnashgan tajribali prokurorlar korpusini shakllantirish.

Bundan tashqari, davlat ayblovni quvvatlash sifati va samaradorligini ob'ektiv baholash uchun statistik, sifatli tahlil hamda sotsiologik usullardan foydalaniladi.

Amaliyotda, aksariyat hollarida soha faoliyatini baholashning statistik usuli qo'llaniladi. Biroq, statistik (miqdoriy) usul bunday faoliyatning sifat mezonini aniqlashga imkon bermaydi.

Nazorat ishlari, jinoyat ishlari, apellyasiya, kassatsiya protestlari va shikoyatlari, hukmlar, sud majlisi bayonnomalari faoliyatning sifat va samaradorlik darajasini baholashga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shuningdek, davlat ayblovni quvvatlash sifati va samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish uchun sudda prokurorning fikrini tinglash, sudyalalar, advokatlar, sud majlislari qatnashgan protsess ishtirokchilari bilan suhbatlashish, shuningdek keltirilgan va qanoatlantirilgan protestlar to'g'risidagi ma'lumotlarni muntazam taqqoslab borish, davlat ayblovchisining ishni haqiqiy holatlarini ochishga qo'shgan hissasini hisobga olish tavsiya etiladi.

Mazkur maqola birinchi bosqich sudida davlat ayblovni quvvatlashning taktik, psixologik va uslubiy muammolarini ishlab chiqish va takomillashtirish bo'yicha keyingi ishlarning istiqbollarini aniqlashga imkon beradi.

**Xulosa va takliflar.** Maqolada davlat ayblovni quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari va amaliyotda kerak bo'ladigan usullarni foydalanish imkoniyatlari, shuningdek soha faoliyatini baholash mezonlari yoritilgan.

Prokuror sud majlisi boshlangunga qadar puxta tayyorgarlik ko'rib, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovning har tomonlama, to'liq va xolisona olib borilganligini o'rganishi lozim.

Prokuror faoliyatini baholashda amaldagi tartiblar bilan chegaralanmasdan, davlat ayblovni quvvatlash jarayonida yuzaga keladigan tizimli kamchiliklarni aniqlash, davlat ayblovchisining ish yuklamasini tahlil qilib borish, ularning malakasini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish, tajribali prokurorlar korpusini shakllantirishga e'tibor qaratish lozim.

**ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi.T. – “O'zbekiston” 2021-yil. B.49.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi.T. – “O'zbekiston” 2021-yil. B.108.
3. Ульянов В. Г. Государственное обвинение в российском уголовном судопроизводстве. М., 2002. С. 343.
4. Крюков В.Ф. Уголовное преследование в судебном производстве: уголовно-процессуальные и надзорные аспекты деятельности прокурора. - Курск. - 2010. – С.98.
5. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi. 440-moddasi.
6. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi. 450-moddasi.
7. Dovudova D.S. “Birinci instantsiya sudlarida jinoyat ishlarini yuritishda prokuror vakolatlarini takomillashtirish masalalari” Avtoreferat. B.8.



UDK:373.211.24

**Yulduz BEKMURODOVA,**  
*Termiz davlat Pedagogika instituti magistranti*

*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) M. A. Norbosheva taqrizi asosida*

### DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS OF PRE-SCHOOL EDUCATION ORGANIZATION ON THE BASE OF FOREIGN EXPERIENCES

Annotation

In the article, on the basis of foreign experience, the problems of developing the professional competence of educators of preschool education organizations, improving the professional competences of educators, the experience of working on the formation of professional competence of young educators through implementation, a model of methodological support is presented, theoretical knowledge and methodological instructions are given.

**Key words:** Education, competence, educator, individual, competence, creativity, professional competence, methodology, qualification, pedagogy.

### РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕДАГОГОВ ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ НА ОСНОВЕ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА

Аннотация

В статье на основе зарубежного опыта рассмотрены проблемы развития профессиональной компетентности воспитателей организаций дошкольного образования, повышения профессиональных компетенций воспитателей, опыт работы по формированию профессиональной компетентности молодых воспитателей путем реализации представлена модель методического обеспечения, даны теоретические знания и методические указания.

**Ключевые слова:** Образование, компетентность, воспитатель, личность, компетентность, творчество, профессиональная компетентность, методология, квалификация, педагог.

### XORIJ TAJRIBALARI ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJALANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada xorij tajribalari asosida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlanirish, tarbiyachilarning kasbiy vakolatlarini takomillashtirish muammolari ko'rib chiqilgan, metodik yordam modelini amalga oshirish orqali yosh tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha ishlash tajribasi keltirilgan bo'lib nazariy bilimlar va uslubiy ko'rsatmalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, kompetentlik, tarbiyachi, individual, kompetensiya, kreativlik, kasbiy kompetentlik, metodika, malaka, pedagog.

**Kirish.** Hozirda ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan asosiy vazifa jamiyatga raqobatbardosh mutaxassisni yetishtirib berishdan iborat. Ta'lim sifatining takomillashib borishi natijasida bugungi kun yoshlarining ma'naviy qiyofasi va maqsadlari ham o'zgacha ko'rinish kasb etmoqda. Har bir yosh kadrlar o'z faoliyatini o'ziga xos yo'nalishda tashkil etish yo'llarini aniqlashga intilib bormoqda. Shu o'rinda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari hamda ushbu faoliyatga kirib kelayotgan bo'lajak tarbiyachilar ham o'zida kasbiy layoqatni oshirish uchun tinimsiz izlanishda davom etmoqdalar. Jumladan: Prezidentning 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori hamda, 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrdagi 929-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risidagi nizomi maktabgacha ta'limga bolalarni sifatli tayyorlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moddiy texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish va shu orqali maktabgacha ta'limga bola qamrovini oshirish va sohaga ilg'or xorij tajribalarini tatbiq qilish imkononi beradi.

Pedagogik kompetensiyalar-bilimlar, malaka va ko'nikmalar hamda o'zlashtirilgan qadriyatlar asosida mustaqil harakatlanishga bo'lgan motivatsiyaning uyg'unlashgan majmuini o'zida aks ettiradi. Kompetentli kadr kasbiy vazifalarni samarali va sifatli bajarishi mumkin. Zamonaviy kompetensiya nafaqat malaka, bilim va ko'nikmalarni, balki qadriyatlar va axloqiy fazilatlarini ham o'z ichiga oladi. Har bir tarbiyachi shaxsi, temperamenti va tarbiyachi uslubi boshqalarinikidan farqlanadi. Biroq bolaga, uning ta'limiga va rivojlanishiga yondashuv barcha tarbiyachilarda bir xil bo'lishi lozim. Shuning uchun ham kasbiy standart barcha tarbiyachilar uchun bir xil talabni qo'ydi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, zamonaviy bolalar bog'chasini yangi axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. AKTga egalik qilish ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga, tarbiyachilarning kasbiy malakasini oshirishga yordam beradi [1].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Ta'lim jarayonlarida kompetentlik asosida faoliyat olib borish nazariyalari g'arb olimlari J. Moreno, S.G. Vershlovskiy, Yu.N. Kulyutkin, A. V. Xutorskiy, J. Raven, L. Stross, V.A. Slastenin V.Yu. Krichevskiy, kabilar tomonidan ilgari surilgan.

O'zbek olimlaridan U. Inoyatov, E. G'oziev, N.N. Azizxodjaeva, M. Ochilov, N. Sayidahmedov,

N.A.Muslimovlar kompetentlikning ilmiy-nazariy asoslarini yoritib berdilar. Mazkur olimlar kompetentlikning tuzilishi, turlari va shakllanish bosqichlarini ko'rsatib berganlar. "Kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarining umumiylik va farqli jihatlarini yoritilib, kompetensiyaning umumiy va maxsus ko'rinishlari farqlangan.

Pedagog kasbiy kompetentligini A.K.Markova quyidagi to'rt jihatini ajratib ko'rsatadi:

Maxsus yoki kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish).

Ijtimoiy kompetentlik (qo'shimcha faoliyatni hamkorlikda tashkil etish).

Shaxsiy kompetentlik (o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini namoyon etish).

Individual kompetentlik (o'z-o'zini boshqarish, kasbiy rivojlanish va yangiliklar yaratish).

Pedagog kasbiy kompetentligining to'rt jhati (B.Nazarova):

Maxsus kompetentlik (kasbiy faoliyatini yuqori darajada tashkil etish).

Ijtimoiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni hamkorlikda tashkil etish, ijtimoiy mas'ullik).

Autokompetentlik (o'zini ijtimoiy-kasbiy rivojlantira olish).

Ekstremal kasbiy kompetentlik (kutilmagan vaziyatlarda ishlay olish)

Mazkur ilmiy nazariyalar shu kunga qadar olimlar tomonidan ilgari surilgan bo'lib, bugungi kunda ham izlanishlar davom etmoqda. Xususan, tarbiyachining kasbiy kompetentligi, uni shakllantiruvchi jihatlar, rivojlantirish usullari borasida amaliy va ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni ang'lay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish etda olishdir [3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** "Kasbiy kompetentsiya" tushunchasining mohiyatini tahlil qilish, uni o'qituvchining (o'qituvchining) kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish va maktabgacha ta'lim tizimida shaxsni rivojlantirish bilan bog'liq maqsadlarga erishish qobiliyatini aks ettiradigan bilim, tajriba va kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlar integratsiyasi sifatida taqdim etishga imkon beradi. Va bu kasbiy faoliyat sub'ekti ma'lum darajadagi professionallikka erishgan taqdirda mumkin.

Maktabgacha tarbiya muassasalari oldida turgan asosiy vazifalarni hal qilish, maktabgacha ta'limning muqobil dasturlarining yangi maqsadlari va mazmuni bolaga nisbatan manipulyativ yondashuvni, u bilan o'zaro munosabatlarning tarbiyaviy va intizomiy modelini inkor etib, kattalar va bolalar o'rtasidagi yangi munosabatlarni kutmoqda. Biroq, kelajakdagi o'qituvchilarni o'qitish jarayonida hozirgi paytda ko'plab ta'lim muassasalarida o'qituvchilar faqat maxsus bilimlarga ega bo'lishadi; ular ko'nikma va ko'nikmalarni egallaydilar.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish – bu kasbiy, shuningdek, umumiy insoniy munosabatlarning kombinatsiyasidir, buning natijasida nafaqat o'quv jarayonini

samarali boshqarish, balki vazifalarni bajarish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli hal qilish mumkin bo'ladi. Bu, shubhasiz, kasbiy pedagogik kompetensiyani takomillashtirish va pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishga ta'sir qiladi. Ta'limni rivojlantirishning ushbu bosqichida kompetensiyaga asoslangan yondashuv maktabgacha tarbiyachilar faoliyatida yetakchi yo'nalish hisoblanadi. Ushbu maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilar kasbiy kompetensiyasi – bu maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarning malaka vazifalarini aniq bajarish uchun zarur bo'lgan tajriba, bilim ko'nikmalari, texnika va usullarni o'zlashtirish [4].

**Tahlil va natijalar.** Tarbiyachilarning malakasini rivojlantirishning turli shakllari va usullari mavjud bo'lib ularni bosqichma-boqich amalga oshirish mumkin. Tarbiyachilar bilan ishlashda malakani rivojlantirishga qaratilgan ko'plab shakl va usullardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Seminar - ijodiy darslar ijodiy fikrlashni rivojlantirish va innovatsion loyihalarni yaratishga qaratilgan.

O'yinlarni modellashtirish. Ishbilarmonlik va rol o'ynash o'yinlari haqiqiy jarayonni modellashtirishni o'z ichiga oladi, bu davrda sun'iy ravishda yaratilgan pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish asosida maqbul kasbiy qarorlar qabul qilinadi.

Kollektiv muammolarni hal qilish, guruh muhokamasi yoki aqliy hujum; kasbiy mahoratni oshirish uchun kichik guruhlarda treninglar; o'z-o'zini tarbiyalash ishlarining usullari, maktabgacha ta'lim muassasasining innovatsion faoliyati natijalariga bag'ishlangan ilmiy va amaliy konferensiyalar.

Pedagogik halqa - tarbiyachilarni psixologiya va pedagogika sohasidagi so'nggi tadqiqotlarni, uslubiy adabiyotlarni o'rganishga yo'naltiradi, pedagogik muammolarni hal qilishning turli xil yondashuvlarini aniqlashga yordam beradi, mantiqiy fikrlash va o'z pozitsiyalarini dalil qilish ko'nikmalarini yaxshilaydi, bayonlarning ixchamligi, aniqligi, to'g'riligini o'rgatadi. Ushbu shakl ishtirokchilarning javoblari, nutqlari va harakatlarini baholash mezonlarini taqdim etadi:

Ishbilarmonlik o'yini nafaqat maktabgacha ta'lim muassasasi uchun dolzarb bo'lgan muammo bo'yicha nazariy seminar natijalariga asoslangan test darsi sifatida, balki yangi muammo echimlarini ishlab chiqishda ham qo'llanilishi mumkin. Masalan: "Maktabgacha yoshdagi bola bo'lish osonmi?"

G'oyalar banki - bu bosqichda an'anaviy usullar yordamida hal qilib bo'lmaydigan muammolarni kollektiv ravishda hal qilishning oqilona usuli. Masalan: "O'yin ekologiyasi", "Pedagogik g'oyalar yarmarkasi", "Eng yaxshi rivojlantiruvchi o'yin".

Master-klass. Uning asosiy maqsadi pedagogik tajriba, ish tizimi, mualliflik topilmalari va tarbiyachiga eng yaxshi natijalarga erishishda yordam bergan barcha narsalar bilan tanishishdir [9].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rnida aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllanishi va rivojlanishida ularning nazariy va amaliy tajribalarga asoslangan bilimlarni chuqur egallab borishlari bilan bog'liq. Tarbiyachilarning kasbiy kompetentlik shkalasi bo'yicha o'zini rivojlantirib borishi asosida ularda kasbiy kompetensiyani tarkib topib borishiga erishiladi. Kasbiy kompetensiyalar pedagogik jarayonga kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish uchun asos bo'lib, maktabgacha tarbiyachiga bilim, ko'nikma va malakalarni innovatsion faoliyatni amalga oshirishda va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan amaliyotda foydalanishda yordam beradi.

Xususan, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi bolani yangi narsalar, hodisalar dunyosiga jalb etish, uni

qiziqarli ishlarga jalb qilish, faoliyat mavzusiga aylantirish juda qiyin. Bu ko'p jihatdan an'anaviy ravishda kelajakdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligi, avvalambor, o'quv faoliyatini rejalashtirish,

dasturlarni amalga oshirish, texnologiyalarni o'zlashtirish, bolalar faoliyatini mo'ljallangan jarayon bo'yicha tashkil etishga qaratilganligi bilan bog'liq.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
3. Abdullaeva Sh.X. Pedagog professional kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari: Psixol.f.d. (DSc) dis-ya avtoreferati: 19.00.05. – T.: O'zMU, 2019. – 61-b.
4. Asqarova O'.M. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / Asqarova O'.M., Xayitboyev M., Nishonov V.S.; O'zR oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. – T.: "Talqin", 2018. – 288-b.
5. Xoliqova R.R. "maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy kompetentligi" Science and innovation. 2022. 3. 406-410-b.
6. Husanov B., G'ulomov V. Muomala madaniyati / Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2009. 59-b.
7. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2003. 89-b.
8. O'rinova F.U. "Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy pedagogik kompetensiyani takomillashtirish xususiyatlari" Science and innovation. 2022.2. 88-91 b.
9. Mavlonova R.A, To'raeva O.T., Xoliqberdiev U.M. Pedagogika. — T., O'qituvchi». 2001-y.
10. Qodirova F.R. "Maktabgacha pedagogika" darslik. Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019 - 688-b.



UDK:159.9

*Sabrina BERDIYEVA,*  
*Termiz davlat Pedagogika instituti magistranti*  
*Mahbuba QULBOBOYEVA,*  
*Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘qituvchisi*

*Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) M. A. Norbosheva taqrizi asosida*

## CURRENT PROBLEM IN THE DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL ABILITIES OF PRESCHOOL CHILDREN

Annotation

As the president of the Republic of Uzbekistan Shavkat Miromonovich Mirziyoyev noted, “preschool education is the basis of our future”. Today, the development of the intellectual potential of preschool children is one of the most important issues. This article covers topical issues of developing and improving the intellectual potential of preschool children.

**Keywords:** Intellectual potential, ability, talent, play, role-playing games, abstract knowledge, genetics and heredity.

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ ДОШКОЛЬНИКОВ

Аннотация

Как сказал Президент Республики Узбекистан Шавкат Миромонович Мирзиёев, «Дошкольное образование – это основа нашего завтрашнего дня». На сегодняшний день развитие интеллектуального потенциала дошкольников является одной из актуальных проблем. В данной статье освещены актуальные вопросы развития и совершенствования интеллектуального потенциала дошкольников.

**Ключевые слова:** Интеллектуальный потенциал, способность, талант, игра, сюжетная роль. игры, абстрактные знания, генетика и наследственность

## MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARNING INTELLEKTUAL QOBILYATLARI RIVOJIDAGI DOLZARB MASALALAR

Annotatsiya

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek “Maktabgacha ta’lim - ertangi kunimizga zamin” dir. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirish vatomillashtirish dolzarb masalalari yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Intellektual salohiyat, qobiliyat, iste’dod, o‘yin, syujetli-rolli o‘yinlar, abstrakt bilimlar, genetika va irsiyat.

**Kirish.** Bilim va faoliyat uslubining murakkablashishi ta’lim jarayonida bolalar rivojlanishining asosiy va belgilovchi tomonini tashkil etadi. Masalan, Shvetsariyalik psixolog J. Piaja o‘zi olib borgan tadqiqotlar asosida ta’kidlashicha, 7-8 yoshdan kichik bolalar raqam bilan bog‘liq faoliyatga qodir emas. Shuningdek, bolaning psixik rivojlanishida ta’lim mazmunining o‘zgarishi va uning ta’siri haqida L.A.Venger, P.YA.Galperin, D.B.Elkonin, V.V.Davidov va boshqalar asarlarida keng tadqiq etilgan. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tarbiyasining asosiy vazifalarismoniy, aqliy, axloqiy, mehnat tarbiyasi, estetik tarbiya berib borishdan iboratdir. Psixologlar fikricha bu yoshda bolada bilish jarayonlari rivojlanib borganligi sababli unga o‘rgatilgan har bir yangilikni tez ilg‘ab oladi, ongiga singdirib boradi. Bolalikda aqliy rivojlanish asosini bolada shakllanayotgan idrok etish va fikrlash harakatlarining yangi turlari tashkil etadi. Bu yoshda avtodidaktik, o‘zi o‘rgatuvchi o‘yinchoqlar (matryoshkalar, qutichalar, kubchalar, mozaika va boshqalar) bola ongini tez rivojlantiradi. Intellektual-psixologik o‘yinlar bolani har tomonlama komil shaxs bo‘lib shakllanishidagi asosiy vositalardan biridir. Maktabgacha ta’lim davridagi bolani har tomonlama komil inson bo‘lib shakllanishida didaktik o‘yinlar asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Intellektual-psixologik o‘yinlarning barchasini quyidagi uch turga ajratish mumkin:

1. Buyumli o‘yinlar (o‘yinchoqlar, tabiiy materiallar)
2. Stol ustida o‘ynaladigan o‘yinlar
3. So‘z o‘yinlari

Ta’lim jarayonida zamonaviy interfaol usullardan foydalanish bolalar intellektiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2017-yil 30-sentabrda PF5198 - sonli “Maktabgacha ta’lim faoliyatini tashkil etish va boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni qabul qilinib, unda maktabgacha ta’lim muassasalarining davlat va nodavlat tarmoqlarini yanada kengaytirish, davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish sharoitlarini yaratish, davlat va xususiy sektor sherikligi shartlarida maktabgacha ta’lim muassasalarining yangi shakllarini joriy etish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini samarali tashkil etishni ta’minlash asosiy maqsad qilib belgilangan. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning intellektual salohiyatining rivojlanishida ulardagi tug‘ma qobiliyat va iste’dod muhim ahamiyatga ega. Tug‘ma qobiliyatga ega bo‘lgan bolalarimiz kattalarning har bir ta’limiy, tarbiyaviy va kasbiy ta’limotlarini tez ilg‘ab oladilar va tez o‘zlashtirib, hayotga tatbiq etadilar. Ammo, barcha yoshlarimizga ham birdek tug‘ma talant, qobiliyat va iste’dod nasib etavermaydi. Shunday ekan, qobiliyatni shakllantirib borish, yoshlarning iste’dodini oshirib borishdek muhim vazifa birinchi navbatda pedagoglarimiz va keng jamoatchilik zimmasiga ya’ni oila, o‘quv muassasalari, korxonalar, tashkilot, ustaxonalar boshqaruvchilari zimmasiga tushadi. Olim aqlni 3 bosqichga bo‘lar ekan, birinchi bosqichda yodlay oladigan,

lekin hali harflarni ham, yozishni ham bil-maydigan bolalarni nazarda tutgan.

Ikkinchi bosqichda tayoqchalarni chiza boshlagan, qalamdan foydalanishni o'rganayotgan bolalarning aqli tasavvur qilinadi.

Uchinchi bosqichda inson aql shakllarini va ularga muvofiq hissiy obrazlarni egallagan bo'ladi. Ibn Sino aql deganda insoning tug'ma iste'dodini, bilish ja-rayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi. Aqlni ikki xil kategoriyaga bo'ladi:

1. Nazariy aql - borliqdagi umumiy narsalarni idrok etishdir.

2. Amaliy aql - buyumlarni tanlashda turtki sifatida. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolani faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma'lum maqsad bilan ta'sir etishidir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni sistemalashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otishni, aqliy malaka ko'nikmalarini tarkib toptirishni, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bolalarni 6-7 yoshdan boshlab maktabda o'qishga o'tishi munosabati bilan ularning maktab ta'limiga tayyorlash uchun aqliy rivojlanish yetarli darajada bo'lishini ta'minlash tarbiyachilarning javobgarligini yanada oshiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim tez sur'atlar bilan boyib boradi, nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi. Xullas, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlash ularning kelajakdagi butun faoliyati uchun katta ahamiyatga ega. Bola ijtimoiy muhit ta'sirida aqliy tomondan rivojlanib boradi. Atrofdagi kishilar bilan muomala qilish jarayonida u tilni va u bilan tarkib topgan tushunchalar sistemasini o'zlashtiradi. Natijada maktabgacha ta'lim yoshdagi bola tilini shunchalik egallab oladiki, unda muomala vositasi sifatida erkin foydalanadigan bo'lib qoladi. Aqliy rivojlanish fikrning tengligida voqealarni har xil bog'lanishlarida, munosabatlarda ko'ra bilish, umumiy lashti rish qobiliyatida namoyon bo'ladi tushunchalar va tushunchalar tizimi muntazam shakllanib boradi. Bolaning anglash va fikrlash rivojlanishi darajasi qancha yuqori bo'lsa, u o'zlashtirgan, foydalanayotgan tushunchalar shuncha murakkab bo'ladi. Shu tarzda, umumiy holda bola psixik rivojlanishi jarayonini uch asosiy yo'nalishga bo'lish mumkin:

1) Ta'lim jarayonida bilim va faoliyat usullarining rivojlanishi,

2) O'zlashtirilgan usullar qo'llash psixologik mexanizmlarining rivojlanishi,

3) Shaxsning umumiy xususiyatlari rivojlanishi.

Ushbu mavzu yuzasidan davra suhbatlari o'tkazildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari psixologlari bilan tajribalar almashildi. Bolada intellekt ona qornidan rivojlanishni boshlaydi. Bolalarda Asosiy intellektual rivojlanish bosqichi maktabgacha va maktab yoshiga to'g'ri keladi. Genetika va irsiyat intellektual salohiyatga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Kimdir tabiatan tez hisoblaydi, kimdir tug'ilganidan boshlab matematikani yaxshi ko'radi, kimdir gapirishdan oldin kuylaydi. Bolalarda aloqa va bilim qobiliyatlarini rivojlantiradigan faoliyatning muntazamligini ta'minlash orqali intellektni rivojlantirish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi dastlab muomalada bo'lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida keyin esa o'quv mehnat, samarali faoliyatlar

jarayonida [rasm chizish, loy) amalga oshirib boriladi. Hozirgi zamon pedagogika fani bilimlar sistemasini o'zlashtirib olish, ularni jamg'arish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda yangi bilimlar hosil qilish uchun zarur bo'lgan bilish faoliyati usullarini egallab olish aqliy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini ular aqlining sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat. Bolalar bog'chasi oldida bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish vazifasi turibdi. Qobiliyatlar tegishli faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi va rivojlanadi. Insonning aqliy qobiliyati aqlining ziyraklik - fahm-farosatlilik, tanqidiy ko'z bilan qarash, sermulo hazalik kabi sifatleri bilan ajralib turishi mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Temperament va xarakter xususiyatlarini o'rganish maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchisining intellektini rivojlantiruvchi omil hisoblanadi. Ota-ona bilan munosabat va oiladagi emotsional muhitni me'yoriy darajaga keltirish bola intellektini rivojlantirishga poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bolani maktab ta'limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning ahamiyati kattadir. Bolani bilimlarini egallab olishlari ularni aqliy faolligini rivojlantirish aqliy malaka va ko'nikmalarini egallab olishlari ularni maktabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishida manba bo'lib xizmat qiladi. Odamning aqliy faoliyati - bu umumiy ham maxsus aqliy harakatlar xilma-xil sistemalarining katta miqdoridir. Ko'pgina vazifalarni hal etishda qo'llaniladigan keng ko'lamdagi aqliy harakatlarni shakllantirish ayniqsa, muhimdir. Bunday harakatlarga tahlil, qiyoslash, umumlashtirish kiradi. Ham umumiy, ham maxsus aqliy harakatlarni egallash aqliy faollik va mustaqillikning rivojlanishini ta'minlaydi. Aqliy faoliyatning moslashuvchanligi va jo'shqinligini, hodisalarni xilma-xil aloqalar va munosabatlarda ko'ra bilishni shakllantirishga yordam beradi. «Aqliy mehnat madaniyati» tushunchasiga aqliy faoliyatning umumiy tartibligi, rejalliligi, vazifani qabul qilish va o'rta qo'yish, uni hal etish usullarini tanlash, ish lab chiqilgan harakat rejasini izchil amalga oshirish natijalarini baholash mahorati kiradi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rinda shuni aytishimiz mumkinki qizlar va o'g'il bolalar yetuk va komil shaxs bo'lib voyaga yetishi uchun yana bir muhim omil hayot tarziga aylanishi zarur. U ham bo'lsa zamonaviy axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanishdir. Bunda ota-ona, oila muhiti muhim o'rin egallaydi. O'rgimchak to'ridek dunyoni egallab olgan elektron olam bolalarning ongu shuurini butunlay egallab olmas idan oldinroq ularda hayotda har bir narsaning me'yorini bilish ko'nikmasini hosil qilishimiz va bunga o'zimiz ham amal qilishimiz juda zarur. Zero bola aytganni emas, ko'rganini qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish orqali yuksak intellekt sohiblarini tarbiyalashimiz bizning asosiy maqsadlarimizdan hisoblanadi. Bolaning fikrini ham tez-tez inobatga olib turilsa, uning o'z-o'ziga bo'lgan ishonch hissi ortadi. Rivojlanish jarayonida faqat bilim va faoliyat usullarining o'zgarishi va murakkablashishi sodir bo'lib qolmaydi. Bolaning psixik rivojlanishi uning butun shaxsidagi o'zgarishlarni, ya'ni shaxs umumiy xususiyatlarining rivojlanishini o'z ichiga oladi. Rivojlanish jarayonida bolalar psixik faoliyatining turli jihatleri o'zgaradi, usullar yig'ilishi va o'zgarishi sodir bo'ladi. Bola ko'p miqdordagi turli harakatlarni bajara oladi, bilim va tasavvurlari o'zgaradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ta'lim to'g'risidagi qonun T.: 23 sentabr 2020-yil.
2. O'zbekiston respublikasining qonuni Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-oktabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma'qullangan (1).
3. Aksarina N.M, Go'dak bolalar tarbiyasi, T.:1983.(50).

4. Qodirov R.G., yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.:2005,(6 -9).
5. To'xtasinova G.R, O'rmonova T.I., Bolalar bog'chasida intellektual psixologik o'yinlar T.:2005(4-5).
6. Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari majmuasi, T.: 2010.
7. Atayev M., Islomda bolalar huquqlari, T.: 2017.
8. Гармонично поколение-условие стабильного развития Республики Узбекистан. Узбекский научно-исследовательский институт педагогических наук имени Кари-Ниязи Т.Н. Сборник научно-методических статей. Ташкент 2019. 3 том. С (325-327).
9. Xushvaqtova U., Malikalar kitobi yoxud Temuriy malikalar qanday tarbiyalanadi? T.: 2019.(50-52)Развитие интеллекта у детей дошкольного возраста 5-октября 2019.
10. Usarov J. (2019). Using Teaching Methods for Development Student .
11. Competencies. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 11. Usarov J.E. (2017). Formation Competence at Pupils as the Factor of Increase of Education's Efficiency. Theoretical & Applied Science, 53(9), 79-82.
12. Абдусаматова Ш.С., & Исмаев И.И. (2020). Межличностные отношения к проблеме влияния человеческого темперамента. Высшая школа научно-практический журнал, 1, 36-39.
13. Абдусаматова Ш.С. (2020). Талаба ёшларнинг интеллектуал ижодий салоҳиятини ривожлантириш. "Замонавий педагогиканинг долзарб муаммолари" илмий мақолалар тўплами, 1, 203-205.
14. Абдусаматова Ш.С. (2020). Интерактивное обучение как специальная форма организации познавательной деятельности. "Замонавий педагогиканинг долзарб муаммолари" илмий мақолалар тўплами, 2, 191-194.
15. Kaldibayeva D.O. (2020). Talabalarning mantiqiy tafakkurini shakllantirishning pedagogik omillari.



UDK: 796.011.2:5:012.33

*Yashnarjon JO'RAYEV,*  
*Toshkent davlat transport universiteti, katta o'qituvchisi*  
*E-mail: online.jorayev@mail.ru*

*T.f.n. , professor A.Nazarov taqrizi asosida*

### AVTOMOBIL HAYDOVCHILARINI O'QITISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Аннотация

Muallif maqolada yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda avtomobil haydovchilarni tayyorlash hamda ularning o'qitish tizimida innovatsion usullarini ishlab chiqish, ishlab chiqilgan usullarni baholashga ahamiyat qaratgan. "Yo'l harakati qoidalari" fani misolida dars jarayonlarida olib borilgan pedagogik tadqiqotlar maqolada keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Avtomobil haydovchisi, ta'lim usullari (Bulutli tizim), pedagogik texnologiya, ta'lim jarayoni, ko'rgazmali yondashuv, o'qitish usullari.

### ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ ВОДИТЕЛЕЙ АВТОМОБИЛЕЙ

Аннотация

В статье автор акцентировал внимание на разработке инновационных методов обучения водителей автомобилей безопасности дорожного движения, оценке разработанных методов. педагогические исследования в процессах урока на примере дисциплины "правила дорожного движения" представлены в статье.

**Ключевые слова:** Водитель автомобиля, методы обучения (облачная система), педагогическая технология, образовательный процесс, наглядный подход, методы обучения.

### WAYS TO IMPROVE THE METHODS OF TEACHING CAR DRIVERS

Annotation

In the article, the author focused on the development of innovative methods of teaching drivers of road safety cars, evaluation of the developed methods. pedagogical research in the processes of the lesson on the example of the discipline "rules of the road" is presented in the article.

**Key words:** Car driver, teaching methods (cloud system), pedagogical technology, educational process, visual approach, teaching methods.

**Kirish.** Respublikamizda, so'ngi yillarda avtomobil haydovchilarining yo'llarda xavfsiz harakatlanishlari davlat siyosati darajasida qaralib, 2022-yil 26-yanvar kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida prezident yo'l harakati qoidalari buzilishi va avariya holatlari keskin oshayotganiga e'tibor qaratdi. "Muammoni bartaraf qilish uchun o'qitish tizimini tubdan takomillashtirish kerakligini ta'kidlab o'tdilar", [1] Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish, yo'l harakati xavfsizligi ta'minlash faoliyati uchun kadrlar tayyorlash mexanizmini takomillashtirish kerakligini anglatadi. Avtomobil haydovchilari va avtotransport vositalarining yo'llarda ortishi, o'z-o'zidan harakat xavfsizligini ta'minlashga bo'lgan talabni yani dolzarbligini anglatadi. Avtomobil haydovchilarni sifat jihatdan tayyorlashda mazkur maqola dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-190 sonli, 2022-yil 14-iyuldagi PQ-316-qarori bilan tasdiqlangan "2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Xavfsiz va ravon yo'l" umum milliy dasturi hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 26-apreldagi "Ta'lim muassasalarida yo'l harakati qoidalari targ'ibotini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 212-son qarori, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga asos bo'ladi.

**Adabiyotlarning tahlili.** Xorij olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlarini o'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, avtomobil haydovchilarini tayyorlash bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, A.N.Nikolayev, S.V.


Savchenko, I.I. Lyubimov, Y.V. Bondarenko, V.I. Rassoxa, R.F.Kalimullin A.G.Asmolov, Y.V.Berejnova, I.A.Kolesnikova, V. V.Kraevskiy va boshqalarning ishlari talabalar va avtomobil haydovchilarini tayyorlashga qaratilgan. Q.X. Azizov, S.N. Azemsha, K.M.Nazarov, S.M. Kodirov, J.R. Kulmuxamedov, O'.X. Muxamedov, N.F. Muhitdinov, A.A. Nazarov va boshqa mutaxassislar avtomobil yo'llarida harakat xavfsizligi va yo'l transport hodisasi tahlili bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan[2].

Mamlakatimizda bo'lajak avtomobil haydovchilarini tayyorlash borasida o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarni bo'yicha olimlaridan H.F.Oltinboyevich, M.M.Aripov, A.G'.Hayitov, F.R.Muradova, M.D.Pardayeva, F.M.Zakirova, U.Y.Yuldashev va boshqalar "Bo'lajak o'quvchilarning professional tayorgarligini pedagogik tashxislash va monitoring qilish tizimini takomillashtirish",masofaviy ta'lim tizimi asosida ta'lim jarayonini tashkil qilish muammolari bo'yicha ilmiy amaliy ishlar olib borishgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada Ta'lim muassasalari hamda avtomaktablarda avtomobil haydovchilarini o'rganish bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, anketa so'rovnomasi, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba tahlili usullaridan foydalanilgan. Avtomobil haydovchilarini tayyorlash usullari o'rganilgan.

**Tahlil va natijalar.** Yo'l-transport hodisasi — transport vositasining yo'ldagi qatnovi jarayonida sodir bo'lib, fuqarolarning o'limi yoki ularning sog'lig'iga zarar yetishiga, transport vositalari, inshootlar, yuklar shikastlanishiga yoki boshqa tarzda moddiy zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan

hoidisaga aytiladi. Quydagi jadvalda (1-rasm) 5 yil ichida ko'rib o'tamiz: Respublika bo'yicha sodir bo'lgan yo'l-transport hodisalarini




1-rasm. 2017-2021-yillarda Respublika bo'yicha yo'llarda sodir etilgan yo'l-transport hodisalarini.

Yuqoridan ko'rinib turibdiki Avtomobil haydovchilari ishinining psixofiziologik xususiyatlari, uning ruhiy jarayonlari va transport vositasini boshqarishning pedagogik usullarini o'rgatish, avtomobil haydovchilarning ishonchligini, bilim darajasini o'shira bo'yicha pedagogik tadqiqotlar olib borish kerakligini anglatadi.

Avtomobil haydovchilarining ishi inson faoliyatining murakkab turi sifatida tasniflanadi. Buning sababi shundaki,

avtomobil haydovchilari transport vositasini yani xavf manbasini nazorat qiladi va o'z hayoti va boshqa harakat qatnashchilari hayoti uchun javobgardir[3]. Avtomobil haydovchilarining transport vositalarini boshqarish tajribasi bo'yicha olingan statistik ma'lumotlar (2-rasm) shuni ko'rsatadiki 5 yilgacha tajribaga ega bo'lganlar 35 foizi yo'l transport hodisalarini keltirib chiqargan ekanlar.




2-rasm. Yo'l transport hodisasini sodir etgan haydovchilarning tajribasi bo'yicha ma'lumot.

Har bir avtomobil haydovchilari yo'l harakati xavfsizligini ta'minlay olmaydi, bu har bir insonning malakasi, yo'l harakati qoidalarini bilish darsjasi va individual xususiyatlariga ham bog'liq. Avtomobilni boshqarish tajribasi va haydovchining yoshi xavfsiz haydashga ta'sir qiladi. Aniqlanishicha, haydovchining tajribasi ortishi bilan baxtsiz hodisalar soni kamayib boradi, biroq bu jarayon bir tekis kechmaydi. Tajriba-sinov ishlari asosida tadqiqot natijalari talabalarda yo'l harakati qoidalarini to'liq tasavvur qilish imkonini berdi. Toshkent davlat transport universitetining "Transport tizimlari boshqaruvi" fakulteti, 5620400- yo'l harakatini tashkil etish ta'lim yo'nalishining III bosqich talabalaridan 110 nafari, 5312200-Intellectual muhandislik tizimlari (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) III bosqich talabalaridan 54 nafari, 61040300-Yo'l harakatini tashkil etish ta'lim yo'nalishining II bosqich talabalaridan 75 nafari va sirtqi

ta'lim yo'nalishi III bosqich talabalaridan 100 nafari va 200 talaba nazorat guruhlarida qatnashdilar. Talabalar ishtirokida jami: 339 talaba tajribada, 200 talaba nazoratda ishtirok etdi.

"AVTO AKBAR DAIMLER" avtomaktabining "B" toifasi bo'yicha o'qiyotgan o'quvchilardan 70 nafari, kuzatuvchi sifatida esa 10 nafari o'quvchilar ishtirok etishdi.

"AVTO TRANS KASB" avtomaktabining "B" toifasi bo'yicha o'qiyotgan o'quvchilardan 280 nafari, kuzatuvchi sifatida esa 30 nafari o'quvchilar ishtirok etishdi. Avtomaktab o'quvchilari ishtirokida jami: 350 talaba tajribada, 40 talaba nazoratda ishtirok etdi. Umumiy talabalar va avtomaktab o'quvchilarini qo'shganda jami ilmiy tadqiqotda 699 nafari (3-rasm)da Toshkent davlat transport universiteti hamda avtomaktab o'quvchilari olgan natijalari keltirilgan), kuzatuvchi sifatida 240 nafari o'quvchilar ishtirok etdilar.




3-rasm. O'qitish usullarining joriy hamda taklif etilayotgan usullarining taqqoslanishi.

Bulutli tizimga asosangan yangi metod ishlab chiqildi: Metodning dars jarayonida qo'lashda talaba va avtomaktab o'quvchilariga mavjud mavzu bo'yicha maruza o'tiladi va darsning o'rtasida o'zlashtirgan bilimlari tekshiriladi.

Berilgan mavzu bo'yicha savolarga talabar ketma-ketlikda javob beradilar va 15 daqiqa ichida o'qituvchiga (mobil qurilma, kompyuter, plashetlardan foydalaniladi) jo'natadilar.

Talabalarning bilmagan savolari bo'yicha bulutli tizim orqali natijalar google diskdan olinadi. Bulutli tizim natijalar tayyor holda (4-rasm.) chiqarib beradi.

O'qituvchining guruh bilan yoki yakka tartibda talaba bilan ishlash imkoniyati mavjud.



4-rasm. Guruh bo'yicha olingan ma'lumotlarini ummumlashgan holda ko'rinishi.



5-rasm. Talaba yoki avtomaktab o'quvchisi bo'yicha olingan ma'lumotlarini ko'rinishi.

Bu metod orqali foydalanganda olingan natija aniq va maqsadli harakatlanish imkoniyati mavjud bo'ladi. Avtomobil haydovchisida esa tayyorgarlik va tajriba, ma'lum bir sohada mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun lozim bo'lgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma, malakalar majmuasini egallagan, jismoniy, aqliy qobiliyatga ega bo'lgan kadr tayyorlash imkoniyati yaratiladi.

Ushbu mobil ilovaning afzalligi quydagilardan iborat:

- Internet kerak emasligi, bu esa ortiqcha harajatlar yo'qligi (talabalarga bepul tarqatilshi mo'jalangan) va chekka qishloq joylarida xam o'qish imkoniyatini beradi.

- Mobil ilova kitob ko'rinishida emas balki taqdimot sifatida dasturlangan bu esa talabaga o'qish jarayonida qulaylik yaratadi.


- Taqdimot so'ngida video maruza joylashtirilganligi talabalarning bilim olish jarayonida qulaylik yaratadi.

- Mobil ilova uyali telefonda bo'lganligi uchun barcha joyda olib yurishning imkoniyati mavjudligi.

- Ortiqcha harajatsiz ko'paytirish imkoniyati mavjud [4].

Foydalanuvchilarga dasturni ishga tushirish va undan foydalanish tushunarli bo'lishi uchun bajariladigan amallar quydagicha amalga oshiriladi.

"Yo'l harakati qoidalari va harakat xavfsizligi asoslari" fanidan mobil ilova ishga tushadi (6-rasm). Talaba har bir bob bo'yicha fan mavzusini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi.



6-rasm. Ilovaning ustki qismi ko'rinishi

Talaba mobil ilovani varaqlab keyingi sahifaga o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi va har bir yo'l harakati qoidalarining bandiga alohida rasmi (7-rasm) sharhlar keltirilgan.



7-rasm. Mobil sahifalarning ko'rinishi.

Sahifaning so'ngi qismida talabalarga tushunarli bo'lishi uchun video ma'ruza dasturga joylashtirilgan. Ko'rish uchun internet talab etilmaydi. Bu esa o'rganuvchiga qulaylik

yaratadi. Darslik va video maruzani o'rganunicha ko'rish imkoniga ega bo'ladi.

**Xulosa va takliflar.** O'tkazilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili pedagogik kuzatuv, pedagogik tahlillardan quyidagi muhim xulosalarni chiqarishga asos bo'ladi:

1. Adabiyotlar tahlili, soha mutaxassislari amaliy tajribalarini o'rganish va olimlarning o'z ilmiy ishlarida keltirilgan fikr-mulohazalariga ko'ra, avtomobil haydovchilarini sifatli o'qitish yo'l transport hodisalarini kamaytirishga, avtomobil haydovchilarining boshqa yo'l harakati qatnashchilariga nisbatan madaniyat bilan harakatlanishlariga sabab bo'ladi;

2. Bo'lajak avtomobil haydovchilari va talabalar jamiyatda o'zining munosib o'rnini topishi uchun nazariy bilimlarni chuqur bilish bilan birga, ularni yo'larda samarali qo'llash qobiliyatiga muhtoj. U kundalik hayotda va faoliyatda sodir bo'layotgan barcha o'zgarishlardan xabardor bo'lishi kerak. Buning uchun yuzaga keladigan muammolarni o'z vaqtida aniqlash va mustaqil qaror qabul qilish uchun ko'nikma va malakalarni rivojlantirish talab etiladi. Bo'lajak avtomobil haydovchilari o'qituvchilari dars jarayonida ma'lumotlarni tahlil qila olishi hamda tahlil natijasi asosida ilmiy yondashishlari zarur;

3. Avtomobil haydovchilarning o'qitishning innovatsion uslubining ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish, dars jarayonini o'zida bilimni nazorat qilish guruhning biladigan bilimi bilan emas balki bilmaydigan bilimi o'rgatishdan iborat. (Bulutli tizimga asoslangan holda). Avtomobil haydovchilarini dars jarayonlarini o'qitish usulli takomillashtirish zarurdir;

4. Tadqiqot ishimiz oliy o'quv yurtlarida hamda haydovchilar tayyorlash muassasalarida "yo'l harakati

qoidalarini" fanini o'qitishda avtomobil haydovchilarini shakllantirish ochib beriladigan. Haydovchilarning bilimi hamda yo'llarda o'zaro munosabatlariga asoslanadi. Inson odatda o'ziga va boshqalarga nisbatan faol shaxsdir. Ikkinchidan, shaxs ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan. Uchinchidan, boshqalar bilan birgalikdagi faoliyat jarayonida to'plangan tajriba alohida ahamiyatga ega bo'ladi;

5. Mobil dasturlarning tahlili darslarning yaxshi o'tish holatiga yordam beradi, shuningdek, "yo'l harakati qoidalarini" fani o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra talabalar o'rtasida kreativlikni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Buning uchun fanining standart dasturlari va mazmunini qayta ko'rib chiqish zarur.

6. Avtomobil haydovchilarini tayyorlash mexanizmini takomillashtirish. Toshkent davlat transport universitetining yo'l harakati qoidalarini fani o'qitiladigan guruhlar o'rtasida amalga oshirilib, (Talabalarning aksariyat qismi o'qishni bitirgach avtomaktablarda faoliyat olib boradilar) avtomobil haydovchilarini tayyorlovchi kadrlar tayyorlash mexanizmini fan, ta'lim, amaliyot ketma-ketligida joriy etish zarur;

7. O'qitishning masofadan turib va mustaqil ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ilmiy amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarur;

8. Mavjud avtomobil haydovchilarni tayyorlash modelini takomillashtirish. Yo'llarda avtomobil haydovchilari tufayli yo'l transport hodisalarini vujudga kelishi sabablari kamaytirish hamda pedagogik tajribalar yordamida ilmiy izlanishlar olib borish zarur.

#### ADABIYOTLAR

1. 2022-yil 26-yanvar kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishi, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning so'zlagan nutqlari. <https://kun.uz/04624554>.
2. Николаев А.Н. Подготовка по вождению кандидатов в водители. М.: Аник, 2018. С-73.
3. Любимов И.И., Бондаренко Е.В., Рассоха В.И., Калимуллин Р.Ф.. Методические основы подготовки водителей: учебное пособие М 54. Оренбург: ГОУ ОГУ, 2008. С. -215.
4. Jo'rayev Y.R. Ta'lim muassasalarida avtomobil haydovchilarini tayyorlashda mobil ilova va bulutli tizimning o'rni <https://explore.openaire.eu/search/publication?pid=10.5281%252Fzenodo.7672336>.



UDK:796.03.32.

**Baxtiyar ILYASOV,**

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti mustaqil izlanuvchisi*

*E-mail: bakhtiyarsuzish@gmail.com*

*P.f.b.f.d.(PhD), dotsent X.Matnazarov taqrizi asosida*

### 13-14 YOSHLI SUZUVCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI TASHKIL QILISH MUAMMOLARI

Annotatsiya

Muallif maqolada 13-14 yoshli suzuvchilarning jismoniy tayyorgarligini tashkil qilish muammolarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilib, jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishning uslublarini joriy qilib bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan.

**Kalit so'zlar:** Suzish, suzish uslubi, mashg'ulot, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifatlar, texnika, maxsus mashg'ulotlar.

### ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ПЛОВЦОВ 13-14 ЛЕТ

Аннотация

В статье автор проанализировал проблемы организации физической подготовленности пловцов 13-14 лет с научно-теоретической точки зрения, разработал предложения и рекомендации по внедрению методов развития физической подготовленности.

**Ключевые слова:** Плавание, стиль плавания, тренировка, физическая подготовка, физические качества, техника, специальная подготовка.

### PROBLEMS OF ORGANIZING THE PHYSICAL FITNESS OF 13-14-YEAR-OLD SWIMMERS

Annotation

In the article, the author analyzed the problems of organizing the physical fitness of 13-14-year-old swimmers from a scientific-theoretical point of view, and developed proposals and recommendations for the introduction of methods of physical fitness development.

**Key words:** Swimming, swimming style, training, physical training, physical qualities, technique, special training.

**Kirish.** Jahon sportida suzuvchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda tibbiy-farmakologik vositalar, har-xir preparatlar hamda turli trenajyorlardan foydalanilmoqda. Bu esa suzuvchilarning salomatligida turli salbiy oqibatlarni yuzaga keltirmoqda. Natijada suzuvchilar tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan har tomonlama tajribadan o'tkazilgan nafaqat yuqori malakai sportchilar uchun, balki yosh suzuvchilar tayyorgarligida qo'llash mumkin bo'lgan ilmiy asoslangan mashg'ulotlarni tashkil qilish bo'yicha metodologiyalarga ehtiyoj vujudga kelmoqda.

Respublikamizda ham jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddat mo'ljallangan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirish ishlari ketma-ketlik bilan tashkil qilinmoqda. Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga umumiy maqsadlarni amalga oshirishda foydalanilmoqda. Chunki, sport nafaqat salomatlik balki sog'lom fikrlashga ijobiy ta'sir qiluvchilar vositalardan biri sifatida qaralmoqda. Shuning uchun ham davlatimiz yangi sport turlarini tashkil qilish, ularni qo'lav-quvvatlashga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilib, ko'proq yoshlarni sport bilan qamrab olishga harakat qilmoqda. Mazkur maqsad yo'lida sport turlaridan biri suzish sportini rivojlantirishga ham e'tibor qaratilib, joylarda suzish sport havzalarini barpo etish bilan birga yoshlar orasidan malakali sportchilarni tayyorlash ishlariga ham alohida yondashilmoqda. Bunday ishlarni amalga oshirishda suzish sport turlarining salomatlikni tiklashdagi ahamiyati, boshqa sport turlariga zaxira sportchilarni tayyorlashdagi ahamiyati muhim hisoblanadi. Buning ortidan erkin usulda suzuvchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish, mashg'ulotlarni natijadorlikni oshirishga qaratilgan uslublarini joriy qilish, mamlakatimiz hududlarida suzish bilan shug'ullanuvchi yoshlarning jismoniy tayyorgarligini nazarot qilib borish talabini qo'ymoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Suzish bo'yicha maxsus adabiyotlarni tahlili erkin usulda suzishga ixtisoslashgan 10-12 yoshli suzuvchilarning jismoniy tayyorgarligini yangi uslublarda rivojlantirish bo'yicha ma'lumotlar yetarli emasligini ko'rsatdi. Xususan, erkin usulda suzishga ixtisoslashgan 13-14 yoshli suzuvchilarning jismoniy tayyorgarligi to'g'risida yetarlicha tadqiqotlar tashkil qilinmagan.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi yirik olimlaridan N.V.Platonov, V.Yu.Verxoshanskiylar sportchilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish, rejalashtirish, saralash ishlarini tashkil qilish bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borishgan.

X.Y.Matnazarov "Yosh suzuvchilarni dastlabki ixtisoslik bosqichida saralash uslubiyatini takomillashtirish" nomli dissertatsiya ishida yosh suzuvchilarni dastlabki ixtisoslik bosqichiga saralash samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tasnifi bo'yicha takliflar ishlab chiqqan.

B.A.Ishimov "13-14 yoshli brass usulida suzuvchilarning kuch tayyorgarligini rivojlantirish samaradorligi" nomli dissertatsiya ishida 13-14 yoshli brass usulida suzuvchilarning quruqlikda va suvda deppinish kuchini oshirishga qaratilgan meyorlashtirilgan maxsus mashqlar majmuasini tayyorgarlik jarayonida ko'llash evaziga shug'ullanuvchilarning burilish texnikasini bajarish samaradorligini oshirishga erishgan.

I.M.Mambetnazarov "Akademik eshkak eshishda jamoaviy qayiq'larga ekipajlarni shakllantirish uslubiyatini takomillashtirish" nomli dissertatsiya ishida ekipajlarni shakllantirish uchun eshish vaqtida eshkakka beriladigan kuchlanishlarda ekipaj a'zolarining harakatlari sinxronligini va eshishda bir xil ritmini ta'minlashga qaratilgan mashqlar majmuasidan samarali foydalanish uslubiyatini ishlab chiqqan.

Yuqoridagi aytilgan fikrlarni umumlashtirib, erkin usulda suzishga ixtisoslashgan 13-14 yoshli suzuvchilarning maxsus tayyorgarligi rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarni tashkil qilish suzuvchilar jismoniy mashg'ulotlarni tashkil qilishda yangi uslub va vositalardan foydalanish tayyorgarligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi, deb hisoblash mumkin. Chunki, zamonaviy talablarga javob beradigan, ilmiy asoslangan metodologiyani yaratish 13-14 yoshli suzuvchilarning maxsus tayyorgarligi rivojlantirishga katta yordam beradi.

Erkin usulda suzishga ixtisoslashgan 13-14 yoshli suzuvchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha respublikamiz va chet el olimlariniolib borgan ilmiy izlanishlarida zamonaviy innovatsion yondashuvlar asosida sportchilarning jismoniy holati, ruhiyati va fiziologiyasi asosida mashg'ulotlarni tashkil qilishga qaratilmagan hamda mavjud ilmiy izlanish natijalari dissertatsiya va avtoreferatlar to'liq bayon etilmaganligini ko'rish mumkin.

**Tadqiqotning maqsadi.** Erkin usulda suzishga ixtisoslashgan 13-14 yoshli suzuvchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish muammolarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish.

**Tadqiqotning vazifasi.** Noqulay iqlim sharoitida erkin usulda suzishga ixtisoslashgan 13-14 yoshli suzuvchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-innovatsion metodikaning samaradorligini aniqlash.

Bizga ma'lumki suzuvchilarni tayyorgarligini rivojlantirishning oqilona metodologiyasini qo'llash uchun asosiy tana tizimlarining yoshga bog'liq rivojlanish qonuniyatlarini bilish kerak. Yosh sportchilar tanasining tuzilishi va funksional holatida sodir bo'ladigan o'zgarishlar nafaqat tizimli jismoniy mashqlar ta'siri, balki yoshga bog'liq xususiyatlar bilan ham bog'liq.

Bu yosh tana o'sishining sezilarli tezlashishi bilan tavsiflanadi. Bu yillarda jismoniy rivojlanishning barcha ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshadi: qizlarda bo'yning yillik o'sishi 6 sm gacha, o'g'il bolalarda 7-8 sm, qizlarda 5 kg

gacha va o'g'il bolalarda 7 kg gacha bo'lishi mazkur holatlarni nazorat qilib borish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Qizlarda balog'atga etish jarayoni o'g'il bolalarga qaraganda 1-2 yil oldin boshlanadi (o'rtacha 11-12 yoshda boshlanadi va 17-18 yoshda tugaydi) (o'rtacha 13-14 yoshda boshlanadi va 18-20 yoshda tugaydi). yosh). Shu munosabat bilan, qizlarda jadal o'sish davri o'g'il bolalarga qaraganda erta boshlanadi.

Shuning uchun 13-14 yoshda qizlar o'g'il bolalardan tana uzunligi bo'yicha o'rtacha 1-2 sm, vazni bo'yicha - 1,5-2 kg ga oshadi. 14 yoshdan keyin qizlarning o'sishi sekinlasha boshlaydi va o'g'il bolalar yana har tomonlama ulardan oldinda bo'ladi. Bu davrda qizlar sut bezlari va bachadonning tez o'sishini boshdan kechiradilar, ular 13 yoshga kelib, katta ayollardagi kabi deyarli bir xil hajmga yetadi. Bu yoshda tana qismlarining notekis o'sishi belgilari ayniqsa aniq namoyon bo'ladi: tananing uzunligi o'sishi kenglikdan ustun turadi, oyoq-qo'llar tanadan tezroq o'sadi, buning natijasida nisbatlarda sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. Qizlarda morfologik ko'rsatkich, ya'ni tik turgan balandlikning o'tirish balandligiga nisbati o'g'il bolalarnikiga qaraganda ancha past bo'ladi.

Bu davrda mushak tizimi mustahkamlanadi, ammo mushak to'qimalarining o'sishi suyak skeletining rivojlanishidan orqada qoladi.

O'smirlar ko'pincha mushaklar kuchini rivojlantirishga qaram bo'lishadi va rivojlanmagan suyaklari, ayniqsa umurtqa pog'onasi og'irlikni ko'tarish bilan intensiv shug'ullanadi. Bunday ortiqcha sevimli mashg'ulotlar mushaklarning rivojlanishi uchun erta. Ular suyaklarning o'sishiga va butun tananing shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va nafaqat funksional, balki morfologik o'zgarishlarni (umurtqa pog'onasining egriligi, orqa, oyoqlarning shakli va boshqalar) keltirib chiqarishi mumkin.

13-14 yoshda o'pkaning og'irligi ortadi. Yoshi bilan bir vaqtda o'pkaning hajmi ham ortadi. Bir daqiqada nafas olish harakatlarining soni kamayadi va nafas olish akti hajmi va nafas olishning nisbiy hajmi ortadi (1-jadval).

Jadval 1.

Sog'lom bolalarda nafas olish chastotasi, chuqurligi va o'pkaning hayotiy sig'imi (N.A.Shalkov bo'yicha o'rtacha ma'lumotlar)

Yoshi	Nafas olish soni (min.)	Nafas olish chuqurligi (ml)	O'pkaning tiriklik sig'imi (ml)	
			O'g'il bolalar	Qiz bolalar
7	23	163	1400	1200
8	22	170	1600	1300
9	21	230	1700	1450
10	20	230	1800	1650
11	19	254	2100	1800
12	18	260	2200	2000
13	18	280	2200	2100
14	17	300	2700	2400
15	17	375	3200	2700
16	16	400	4200	2800
17	16	420	4000	3000

Bolalarda 1 kg vazn uchun daqiqali nafas olish hajmi kattalarnikiga qaraganda ko'proq (Brok bo'yicha, 11 yoshli bolalarda - 140 sm<sup>3</sup>, 14 yoshlilarda - 128 sm<sup>3</sup> va kattalarda - 96 sm<sup>3</sup>).

O'pkaning hayotiy sig'imi o'sish bilan parallel ravishda ortadi: har 5 sm o'sish uchun u o'rtacha 400 sm<sup>3</sup> ga oshadi.

O'smirlar davrida markaziy asab tizimining rivojlanishi tugaydi. Asab jarayonlari katta harakatchanlik

bilan ajralib turadi va qo'zg'alish hali ham inhibitsiyondan biroz ustunlik qilishda davom etmoqda. Ikkinchi signal tizimining rivojlanishi yuqori darajaga etadi.

Mashq qilish sportchini tayyorlashning asosiy shaklidir, chunki u uning barcha turlarini u yoki bu darajada qamrab oladi. Eng mukammal tayyorgarlik jismoniy tayyorgarlikni, shuningdek, sportchining texnik, taktik va irodaviy tayyorgarligining amaliy bo'limlarini ochib beradi.

Mashg'ulotlardan maqsad jismoniy barkamollikka va sport mahorati cho'qqilariga erishishdir.

Maqsadga erishish yo'lida bir qator aniq vazifalarni hal qilish kerak:

1. Suzuvchilar salomatligini mustahkamlash;
2. Sport texnikasi va taktikasiga o'rgatish;
3. Jismoniy rivojlanish va tayyorgarlikni yaxshilash;
4. Axloqiy va irodaviy fazilatlarini tarbiyalash;
5. Umumiy va maxsus bilimlar darajasini oshirish.

Sport mashg'ulotlarining vazifalari sportchining yoshi, malakasi va tayyorgarligiga qarab hal qilinadi.

Vazifalarga muvofiq suzuvchilarni tayyorlashning quyidagi turlari ajratiladi: jismoniy, psixologik, texnik, taktik va nazariy.

Xalqaro toifadagi suzuvchini tayyorlash uchun 6-7 yillik tizimli tayyorgarlik zarur. O'qitishning muvaffaqiyati talabalarni to'g'ri tanlash va ko'p yillik o'quv dasturini oqilona rejalashtirish qobiliyatiga bog'liq.

Suzuvchining uzoq muddatli tayyorgarlik rejasini uch bosqichga bo'lish mumkin: dastlabki tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik va sportni yaxshilash.

Dastlabki tayyorgarlik bosqichi o'rtacha 2 yil davom etadi. Ushbu bosqichning asosiy vazifasi suzuvchining sport usullari texnikasini o'rganish hisoblanadi.

Maxsus tayyorgarlikning ikkinchi bosqichi odatda hovuzda mashq qilishning uchinchi yilidan boshlanadi.

Bu bosqichning asosiy vazifalari jismoniy sifatlarni rivojlantirish, sport suzuvchining usullari texnikasini takomillashtirish va keyingi ixtisoslikni aniqlashdir.

• Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik - yurish, yugurish, sport o'yinlari, chang'i sporti bilan shug'ullanish, ochiq havoda kommutator, og'irlik mashqlari, izometrik mashqlar va boshqalar.

• Umumiy suzuvchining mashg'ulotlari – suzuvchining texnikasini, start va burilishlarni takomillashtirish, o'rta va uzoq masofalarni elementlarda va to'liq muvofiqlashtirishda yengib o'tish, har xil yo'llar bilan musobaqa va kurslarda qatnashish mashqlari.

Barcha ta'lim usullari turli xil kombinatsiyalarda qo'llaniladi.

Uchinchi bosqich ma'lum masofaga tanlangan suzuvchining usuli bo'yicha ixtisoslashuvni nazarda tutadi.

Barcha mashg'ulotlar usullari avvalgidan ko'ra qattiqroq rejimda qo'llaniladi. Yagona uslubning ulushi oshadi, ko'pincha nazorat va raqobatbardosh o'qitish usullaridan foydalanish ta'minlanadi.

Odatda sport natijalari deyarli doimiy ravishda sport ustasi darajasiga ko'tariladi. Keyingi o'sish murakkab

rivojlanish dinamikasi bilan tavsiflanadi. Yuqori toifali sportchilarda o'sish dinamikasi, agar chiziq sifatida taqdim etilsa, zigzag shakliga ega bo'ladi.

Uzoq muddatli tayyorgarlik rejasini Olimpiya o'yinlari davriyligini hisobga olgan holda tuziladi va 4 yilga mo'ljallangan bo'ladi. Rejada mashg'ulotlarni o'tkazish vositalari va usullari, hajm va intensivlik nisbati, mashg'ulotlar davomiyligi, musobaqalar soni va boshqalar ko'rsatiladi.

Ko'p yillik rejaning maqsad va vazifalari real va sportchining imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak. Oldindan rejalashtirishda shuni esda tutish kerakki, yuqori toifali sportchining asosiy vazifasi o'tgan Olimpiya yilida maksimal natijalarga erishishdir. Ushbu muammoni hal qilish birinchi, ba'zan esa ikkinchi olimpiadadan keyingi yilda jiddiy tayyorgarlikni talab qiladi.

Ko'p yillik uzoq muddatli kadrlar tayyorlash rejasini asosida yillik rejalarni tuziladi. Yillik rejada kadrlar tayyorlash davriyligi nazarda tutilgan. Bir davrli, ikki davrli va ko'p davrli rejalashtirish mavjud bo'lib, vazifalardan kelib chiqqan holda tashkil qilinadi. Bir davrli rejalashtirish bilan yillik sikl uch davrga bo'linadi: tayyorgarlik (5-7 oy), raqobat (4-6) va o'tish (taxminan bir oy). Ikki davrli rejalashtirish yiliga ikki marta yuqori jismoniy tayyorgarlikka erishishni o'z ichiga oladi.

Shuni esda tutish kerakki, biologik ta'sirning jiddiyligi nuqtai nazaridan hech qanday mashg'ulot yuki suzuvchining musobaqalardagi ishtirokini almashtira olmaydi.

Umuman yuqoridagi fiziologik va texnik-taktik qonuniyatlar asosida 13-14 yoshli suzuvchilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish ishlarini tashkil qilishda quyidagi muammoli holatlarni bartaraf etish lozim bo'ladi:

Birinchidan, 13-14 yoshli suzuvchilarning fiziologik holatini o'ragnish hamda ularning holatidan kelib chiqqan holda mashg'ulotlarni rejalashtirish, ularning jismoniy tayyorgarligini ma'lum bir darajaga keltirish orqali jamoaviy tayyorgarlik ishlarini tashkil qilish;

Ikkinchidan, suzuvchilarning psixologik holatini nazorat qilish maqsadida ularning ota-onalari bilan aloqani tiklash hamda doimiy muloqotda bo'lish, ruhiyatini nazorat qilishga harakat qilish;

Uchinchidan, suzuvchilarning jismoniy tayyorgarligini rejalashtirishda musobaqalar davriyligi, tiklanish jarayonlarining kechishi, suzuvchilarning holatini hisobga olish hamda amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlarning muqobil variantlarini ham hisobga olish samarali hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Platonov V.N. Plavanie//Uchebnik dlya studentov vuzov fizicheskogo vospitaniya i sporta / Kiev: Olimpiyskaya literatura, 2000.
2. Verxoshanskiy V.Y. Osnovy spetsialnoy silovoy podgotovki v sporte, 3-ye izd.-M. Sovetskiy sport, 2013.
3. Salamov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Jismoniy tarbiya institutlari va pedagogika oliy o'quv yurtlarining jismoniy tarbiya fakultetlari uchun darslik. Toshkent: ITA Press, 2015. – 296-b.
4. Matnazarov X.Y. Yosh suzuvchilarni dastlabki ixtisoslik bosqichida saralash uslubiyatini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (RhD) diss.. avtoref.- Chirchiq, O'zDJTSU, 2021.-59-b.
5. Ishimov B.A. 13-14 Yoshli brass usulida suzuvchilarning kuch tayyorgarligini rivojlantirish samaradorligi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (RhD) diss.avtoref.- ChirchiqO'zDJTSU, 2022.-62-b.
6. Sodiqov A.G. Yosh suzuvchilarning tayyorgarlik bosqichlaridagi mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish. O'quv qollanma T.:«Fan va texnologiya» 2015.–. 200-b.



*Shuhrat ISMOILOV,*  
*O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti*

*O'zMU dotsenti U.Butayev taqrizi asosida*

### NOGIRONLIK TUSHUNCHASINING IJTIMOYIY TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqola nogironlik tushunchasining ijtimoiy tahliliga bag'ishlangan bo'lib, maqolada nogironlik tushunchasining mazmuni, fanlararo yondashuvlar ochib berilgan. Muallif maqolada nogironlikka doir xalqaro va milliy qonunchilik hujjatlarda aks etishi xususiyatlarini ham tahlil etgan.

**Kalit so'zlar:** Nogiron, nogironlik, ijtimoiy himoya, ijtimoiy tizim, integratsiya, imkoniyati cheklangan, demografik holat, nuqsonli, manfaat, hayotiy faoliyat

### СОЦИАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПЦИИ ИНВАЛИДНОСТИ

Аннотация

Данная статья посвящена социальному анализу понятия инвалидности, раскрывается содержание понятия инвалидность, междисциплинарные подходы. В статье автор также проанализировал особенности международного и национального законодательства об инвалидности, отраженные в документах.

**Ключевые слова:** Инвалидность, инвалидность, социальная защита, социальная система, интеграция, инвалид, демографический статус, инвалидность, интерес, жизнедеятельность.

### SOCIAL ANALYSIS CONCEPT OF DISABILITY

Annotation

This article is devoted to the social analysis of the concept of disability, reveals the content of the concept of disability, interdisciplinary approaches. In the article, the author also analyzed the features of international and national legislation on disability, reflected in the documents.

**Key words:** Disability, disability, social protection, social system, integration, disabled person, demographic status, disability, interest, life activity.

**Kirish.** So'nggi yillarda, O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan qabul qilingan ko'plab farmon va qarorlar yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning negizini nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatga integratsiya qilish, ularga ham barcha jamiyat a'zolari singari shart-sharoitlar yaratib berish tashkil etadi. Bunga misol tariqasida, 2020-yilda qabul qilingan nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qonun, shuningdek BMTning «Nogironlarning huquqlari» konvensiyasini ratifikatsiya qilinganligini keltirib o'tish mumkin. Ta'kidlash joizki, nogironlik muammosi qator ijtimoiy fanlarning tadqiqot markazida turadi.

Demografik vaziyat, kasallanish va nogironlik aholi va umuman millat sog'lig'ining asosiy ko'rsatkichlari deya ta'riflanadi. Aynan, mana shu ko'rsatkichlar davlat va hukumatlar nazoratida – O'zbekistonda ham, xorijda ham. O'zbekistonning zamonaviy ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri, bu – nogironligi bo'lgan odamlarni ijtimoiy himoya qilish.

Nogironlik – jismoniy, psixologik, hissiy, ijtimoiy, madaniy, qonunchilik va boshqa to'siqlardan kelib chiqadigan imkoniyatlarning cheklanishi, deya ta'riflanadi, bu nogironligi bo'lgan odamning jamiyatga qo'shilishi va oila yoxud jamiyat hayotida ishtirok etishiga imkon bermaydi. Zero, ular jamiyatning boshqa a'zolari bilan bir xil asoslarga ega bo'lishlari lozim. Jamiyat mustaqil hayot kechirishi uchun o'z standartlarini nogironlarning alohida ehtiyojlariga moslashtirishi shart.

Bugungi kunda butun dunyoda nogironligi bo'lgan shaxslarni huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga

katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki yer yuzi aholisining 15 foizini nogironlar tashkil qiladi. O'z navbatida, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish jarayonida bevosita gender tenglikni ta'minlash ham muhim sanaladi.

Nogironligi bo'lgan insonlar tushunchasi va ularni ijtimoiy integratsiyaga bo'lgan huquqlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) bir qator hujjatlarida aks ettirilgan: Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (BMT Bosh Assambleyasining 217A (III) 10.12.1948-yildagi qarori bilan tasdiqlangan); Bola huquqlari Deklaratsiyasi (BMT Bosh Assambleyasining 1386-sonli qarori bilan tasdiqlangan (XIV) 20.11.1959-y.); Ta'lim sohasida kamsitishga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiya (BMTning ta'lim, fan va Madaniyat masalalari bo'yicha Bosh konferensiyasi 11-sessiyasining 11.14.1960-yildagi qarori bilan tasdiqlangan); Ijtimoiy taraqqiyot va taraqqiyot Deklaratsiyasi (ta'lim sohasida kamsitishga qarshi kurash to'g'risidagi BMT Bosh Assambleyasining 2542 (XXIV) qarori 11.12.1969-y.); Aqli zaif shaxslar huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya (BMT bosh Assambleyasining 2856 (XXVI) 20.12.1971-yildagi qarori bilan tasdiqlangan); Nogironlar huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya (BMT bosh Assambleyasining 3447 (XXX) qarori bilan tasdiqlangan 9.12.1975-y.); Texnik va kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi Konvensiya (BMT Bosh Assambleyasining 10.11.1989-sonli qarori bilan tasdiqlangan); Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya (BMT Bosh Assambleyasining 20.11.1989-sonli qarori bilan tasdiqlangan); Nogironlar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlashning standart qoidalarini (BMT bosh Assambleyasining 20.11.1989-sonli qarori bilan tasdiqlangan). BMT Bosh Assambleyasining 48/96 qarori 12.20.1993), BMTning nogironlar huquqlari

to'g'risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2006-yil 13-dekabrda qabul qilingan, 2008-yil 3-mayda kuchga kirgan), Rossiya tomonidan 2008-yil 24-sentabrda imzolangan.

Hozirgi kunda nogironlikka turli xil ta'riflar mavjud. Nogironlik yoki invalidlik atamasi (lot – invalidus – so'zmaso'z tarjima qilinganda «kuchsiz, zaif» degan ma'noni anglatadi) insonning hayotiy faoliyati jismoniy, aqliy, sensorli yoki ruhiy og'ishlar natijasida cheklanganligini anglatadi.

G'arbiy Yevro'pada bu so'z bir xil mamunga ega bo'lgan. XIX-asrning ikkinchi yarmidan buyon, bu atama urush qurboni bo'lgan fuqarolarga nisbatan ham qo'llaniladi. Qurol-yaroqlarning rivojlanishi va urushlar miqyosining kengayishi fuqarolarga harbiy mojarolarning barcha xavf-xatarlariga ta'sir ko'rsatadi. Nihoyat, Ikkinchi jahon urushidan so'ng, umuman olganda, umumiy va muayyan toifadagi odamlarning huquqlarini shakllantirish va himoya qilish bo'yicha umumiy harakatga muvofiq, «jismoniy, aqliy va intellektual nogironligi bo'lgan barcha shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan nogironlik» tushunchasi qayta ko'rib chiqilmoqda.

Bugungi kunda turli xil hisob-kitoblarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarning o'rtacha o'nga yaqin aholisi sog'lik bilan bog'liq tegishli cheklavlarga ega. Nogironligi bo'lgan shaxs sifatida muayyan turdagi cheklash yoki nuqson tayinlanishi milliy qonunchilikka bog'liq. Natijada, muayyan rivojlanish darajasiga yetgan mamlakatlarda ma'lum funksiyalarning mavjudligi va yo'qotilishi juda o'xshash bo'lsa-da, nogironligi bo'lgan odamlarning soni va har bir mamlakatning aholisi orasida ularning ulushi sezilarli darajada farq qilishi mumkin.

Nogiron, bu – kasallik, jarohatlar yoki nuqsonlarni keltirib chiqaradigan, cheklangan hayotiy faoliyatni olib boradigan va uning ijtimoiy muhofazasini ta'minlashga olib keladigan tanadagi funksiyalari uzluksiz ravishda buzilgan shaxs.

Hayotiy faoliyatni cheklash, o'ziga o'zi xizmat qilish, mustaqil harakat qilish, yo'naltirish, muloqot qilish, xatti-harakatini nazorat qilish, ish faoliyati bilan shug'ullanish va shu bilan shug'ullanish qobiliyati yoki qobiliyatiga ega shaxs tomonidan to'liq yoki qisman yo'qotilganda ifodalanadi.

Shunday qilib, xalqaro miqyosda qabul qilingan me'zonlarga muvofiq, nogironlik quyidagi sohalarda buzilishlar yoki tartibsizliklar bilan belgilanadi. Ko'zi ojiz, qulog'i eshitmaydigan, aqliy nuqsoni bor odamlar, harakatlari to'liq yoki qisman shol bo'lib, ularni muvofiqlashtira olmaslik insonning an'anaviy jismoniy holatidan aniq og'ishlarga qarab nogiron deb topiladi.

Oddiy odamlardan farq qiladigan, ammo sog'lom odamlar kabi hayotning turli jabhalarida ishlashga to'sqinlik qiladigan kasalliklardan aziyat chekadigan shaxslar ham nogiron, deb tan olingan. Masalan, koroner yurak kasalligiga chalingan odam qattiq jismoniy mehnat qila olmaydi, lekin aqliy faoliyat uning kuchi ostida bo'lishi mumkin. Shizofreniya bilan og'rikan bemorlar jismoniy ishlarni to'liq bajarishlari mumkin, aksariyat hollarda ular aqliy zo'riqish bilan bog'liq ishlarni bajarishlari mumkin, ammo kuchlanish davrida ular o'z xatti-harakatlarini va boshqa odamlar bilan aloqalarini nazorat qila olmaydilar.

Shu bilan birga, nogironlarning aksariyati alohida holatga muhtoj emaslar, ular mustaqil hayotga (yoki ba'zi yordamga) ehtiyoj sezishadi, ularning aksariyati odatdagi yoki moslashtirilgan ish joylarida ishlaydilar, oilalari bo'lib, ularni mustaqil qo'llab-quvvatlaydilar.

Zamonaviy jamiyatda yuzaga kelgan va odamlarning ongida aks etgan ijtimoiy o'zgarishlar, «nogiron» va «nogironlik» atamalarini kengaytirishga qaratilgan.

BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasida quyidagicha ta'rif berilgan: «Nogironlik – bu

rivojlanayotgan tushuncha bo'lib, nogironlik boshqalar bilan birga jamiyat hayotida ularning to'liq va samarali ishtirokiga to'sqinlik, sog'liqni saqlashning buzilishi, tegishli va o'rta to'rsiqlar o'rtasida sodir bo'lgan o'zaro natijadir».

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti – JSST (nogironlik, nogironlar va nogironlikning xalqaro tasnifini) ishlab chiqdi, unda tanadagi tuzilishning aqliy, fiziologik va (yoki) anatomik pastligini anglatuvchi buzilish, nogironlikni aniqlashning boshlang'ich nuqtasi sifatida qabul qilinadi. Zarar global (universal) yoki qisman bo'lishi mumkin; shikastlanish boshqa daraja va chuqurlikka ega bo'lishi ham mumkin, doimiy yoki davolanish mumkin, tug'ma yoki sotib olingan, barqaror yoki progressiv bo'lishi mumkin (bu shaxsning holati yomonlashgan).

JSST Nizomiga ko'ra sog'liq insonning bosh huquqlaridan biri bo'lib, u nafaqat kasallik va jismoniy nuqsonlardan holilik, balki jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy muvaffaqiyat, farovonlik holatidir. Ularning ta'rifi bo'yicha nogironlik ikkita asosiy tushunchaga ega: buzilish: aqliy, fiziologik yoki tana tuzilishi yoki funksiyalarining har qanday yo'qolishi yoki normal ishlashi, masalan, falaj yoki ko'zi ojizlik. Nogironlik: faoliyatni inson uchun odatiy hisoblangan tarzda yoki doirada amalga oshirish qobiliyatining har qanday cheklanishi yoki yo'qligi (buzilish bilan bog'liq).

JSST tashkiloti jahon hamjamiyati uchun standart sifatida, nogironlik kontsepsiyasining quyidagi belgilarini qabul qildi:

- psixologik, fiziologik yoki anatomik struktura yoki funksiyaning yo'qolishi yoki buzilishi;
- cheklangan yoki yetishmasligi (yuqorida ko'rsatilgan nuqsonlar tufayli) o'rtacha funksiyani normal deb hisoblagan vazifalarni bajarish qobiliyati;
- yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklardan kelib chiqadigan qiyinchilik, u kishining muayyan rolni bajarishiga (yosh, jins va madaniy muhitning ta'siri hisobga olingan holda) to'liq yoki qisman to'sqinlik qiladi.

JSST tomonidan tushuntirish zarur bo'lgan narsa shu edi, «buzilish» va «nogironlik» ilgari ko'pincha «nogiron, aqli zaif» va boshqalar kabi tushunchalar bilan ifodalangan, bu, o'z navbatida jamoatchilikda nogiron kishining salbiy qiyofasini aks ettirgan.

Zarar (nogironlik) va nogironlik tufayli kelib chiqadigan nogironlik inson uchun kam bo'lsa-da, qulay ijtimoiy sharoitlarni belgilaydi, chunki ma'lum jamiyat uchun standart bo'lgan funksiyalarni bajarish qobiliyati, unda rolni aniqlash butunlay to'siqsiz yoki sezilarli darajada cheklangan. Yoshi, jinsi va madaniy an'analari bilan bog'liq bo'lgan o'z hayotiy maqsadlarini amalga oshirish ham to'sqinlik qiladi.

Ruhiy nuqson darajasi ijtimoiy rollarni bajarishda qiyinchiliklarga duchor qilishi mumkin; rivojlanayotgan cheklavlarda (barcha kerakli rollar qoniqarli darajada amalga oshirilmaydi); yetarli rol o'ynash harakatiga mos sharoitni yo'qligida.

JSST tomonidan taqdim etilgan nogironlik bo'yicha tizimli tushunish, kasbiy cheklavlar va ishlash qobiliyatiga (nogironligi) qaratilgan tor talqindan ajralib chiqadi. Nogironlikning mavjudligi va nogironlik darajasi nogiron kishining ijtimoiy muhit bilan munosabatlarini tartibga solishda tartibsizliklar belgisi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, ijtimoiy amaliyotni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, aloqa va ijtimoiy xatti-harakatlarda tartibsizliklar, nomukammallik va ijtimoiy marginalizatsiya buzilgan sog'liq bilan bog'liq emas. Bunday shaxslar (deviant harakatlar) ham ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj, biroq maxsus ixtisoslashuvni tashkil qilish uchun ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklarga duch kelgan, sosyopati yoki ruhiy kasalliklarga chalingan kishilar va psixomatik nogiron kishilarga ajratish kerak.

Nogironlik – salomatlik o'zgarishlarining o'zaro ta'siri natijasidir (misol uchun, miya yarim falaj, depressiya yoki

o'pka kasalligi kabi) va atrof-muhit omillari ta'siri deb hisoblanadi (misol uchun, kirish mumkin bo'lmagan transport, cheklangan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yoki havoning ifloslanishi kabi).

Demografik ensiklopedik lug'atda nogironlik iqtisodiy yondashuv nuqtayi nazaridan talqin etiladi. Ushbu ta'rif nogironlikni uzoq muddatli yoki doimiy, to'liq yoki qisman nogironlik deb tushuniladi, uning sababi doimiy yoki hal qilinmaydigan murakkab funksional buzilishlar, kasalliklar, shikastlanishlar yoki rivojlanish nuqsonlari, deb hisoblanadi. Iqtisodiy yondashuvda nogironlik modeli sog'liqning buzilishi tufayli ishlash noqobiliyati deb belgilanadi va bu doimiy yoki uzoq muddatli nogironlik va pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy xizmatlar va nafaqalarni to'lash orqali ishlash huquqi buzilganligini anglatadi[1].

Sotsiologik nuqtayi nazardan nogironlik ijtimoiy hodisa sifatida «g'ayritabiiy» norma yoki «normal» og'ish sifatida qaralgan va E.Dyurkgeym, G.Spenser, T.Parsons, M.Veber, R.Merton, P.Berger, I.Gofman, T.Lukman, P.Burd'e kabi sotsiologlar tomonidan ijtimoiy norma muammosi sifatida o'rganilgan.

E. Dyurkgeymga ko'ra kasallik odamni o'ziga xos mavjudotga aylantirmaydi, balki uni faqat jamiyatga boshqacha tarzda moslashishga majbur qiladi[2]. Nogironlar iqtisodiy jihatdan zaif toifa sifatida qabul qilinib, iqtisodiy faol ijtimoiy guruhlarga moddiy zarar yetkazadi. Yondashuv ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni istisno qilmaydi, ammo uning hajmi ahamiyatsiz. Ushbu yondashuvning namunasini G. Spenserda topish mumkin, unda agar ijtimoiy guruh o'zini ta'minlay olmasa, u yo'qolishi kerakligini ta'kidlagan. T. Parsons kasallikni genezisi bo'yicha faqat ijtimoiy hodisa deb hisoblar edi[3].

I. Gofmanning qayd etishicha, jamiyat normal insonga «ma'lum sifatlar»ni beradi va agar inson talablarga javob bermasa, u tamg'alanadi. Tadqiqotchi stigmaning uch turini keltiradi:

«Birinchidan, tana deformatsiyasi mavjud – har xil jismoniy anormalliklar».

Ikkinchidan, shaxsiy tabiiy kamchiliklarning mavjudligi – zaif iroda, nazoratsiz yoki g'ayritabiiy ehtirolar, yaramas yoki turg'un e'tiqodlar kabi, insofsizlik; ular, masalan, ruhiy buzuqlik, qamoq, doimiy ish bilan ta'minlanmaslik, o'z joniga qasd qilish, giyohvandlik, spirtli ichimliklarga ruju qo'yish, gomoseksuallik.

Va nihoyat, irq, millat va dinning umumiy stigmasi mavjudligi va u meros qilib olinishi va barcha oila a'zolarini qamrab olishi mumkinligi[4].

Nogironlikning yuqorida ko'rsatilgan rasmiy ta'riflari mavjud bo'lishiga qaramay, ilm-fan vakillari bu talqinlar nogironlikning asl mohiyatini batafsil izohlay olmaydi, deb

hisoblashadi. Shu bois, fan olamida ushbu hodisa atrofida turli bahs-munozaralar hamon davom etmoqda.

Ushbu atamaga ta'rif bergan Y.R.Yarskaya-Smirnova va Y.K.Naberushkinalarning fikriga ko'ra «Nogironlik – nogiron insonlar organizmidagi turli kasalliklarning og'ir kechuvchi oqibati bois me'yoriy rivojlanishida buzilishlar, tashqi ko'rinishda nuqsonlarga egaligi oqibatida shakllangan alohida ehtiyojlariga tashqi muhitning moslashtirilganligidir»[5].

Nogironlik deganda, ijtimoiy tengsizlikni bir shakli sifatida sog'liq sharoitlari va boshqalar natijasida kasallik, anormallik yoki rivojlanishda nuqsonli deb hisoblanadi, shuningdek, aksariyat sotsiologlar (V.V.Baxarev, L.E.Danilyuk) jamiyatda tabiiy hisoblangan faoliyatni, xususan – mulohaza yuritish, tinglash, ko'rish, gaplashish, yurish-turish qobiliyatining sezilarli darajada pasayishi yoki yo'qligini nazarda tutadi[6].

Bugungi kunda turli xil hisob-kitoblarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarning bir necha o'nga yaqin aholisi sog'liqqa tegishli cheklolarga ega. Nogironligi bo'lgan shaxs sifatida muayyan turdagi cheklash yoki nuqson tayinlanishi milliy qonunchilikka bog'liqdir; natijada, muayyan rivojlanish darajasiga yetgan mamlakatlarda ma'lum funksiyalarning mavjudligi va yo'qotilishi juda o'xshash bo'lsa-da, nogironligi bo'lgan odamlarning soni va har bir mamlakatning aholisi orasida ularning ulushi sezilarli darajada farq qilishi mumkin.

Xulosa o'rinda aytish kerakki, demak, nogiron insonlar bu, – sog'lig'ida tug'ma yoki ortirma buzilishlari tufayli ijtimoiy yetishmovchilikka ega shaxslar bo'lib, ularning ehtiyojlari qondirilishi va mustaqil faoliyat yuritishiga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy va boshqa imkoniyatlari cheklangan. Ammo, jamiyatda hamon bu kabi insonlarning me'yoriy rivojlanishiga to'siq bo'luvchi aqidalar, stereotiplar talaygina.

O'zbekistonda nogironlik tibbiy va xayriya modellari aralashmasi asosida aniqlanadi: «nogiron-jismoniy tufayli, nogironlik sabab, ruhiy, ruhiy yoki (hissiy) buzilishlar, qonunda belgilangan tartibda nogiron deb tan olinadi va ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj hisoblanadi. Hayotiy faoliyatni cheklash – to'liq yoki shaxsning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishi, harakat, yo'nalish, aloqa, ularning xatti-harakatlarini nazorat qilish, shuningdek o'qitish va ish bilan shug'ullanish qobiliyatini qisman yo'qotishi»[7].

O'zbekiston Respublikasining Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi Qonunda esa nogironligi bo'lgan shaxs – ijtimoiy yordam va himoyaga, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng, to'liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga muhtoj, barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxs[8] kiradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Новикова С.И. Определение понятий, связанных с инвалидностью, на современном этапе развития законодательства Республики Беларусь // Журн. Белорус. гос. ун-та. Право. 2017. № 3. С. 23–31. законодательства Республики Беларусь. <https://elib.bsu.by/bitstream/123456789/192516/1/23-31.pdf>.
2. Дюркгейм Э. Социология. Её предмет, метод и назначение/Пер.с фр. Москва: Канон, 1995.
3. Reut M.N. Kompleksnyj podhod k opredeleniju invalidnosti / Reut M.N. // Vlast'. [An integrated approach to the definition of disability // Power]. 2008. №7. P. 94-96. [in Russian].
4. Гофман Ирвинг. Стигма: Заметки об управлении испорченной идентичностью. Часть 1. Стигма и социальная идентичность. Часть 2. Контроль над информацией и социальная идентичность (главы 3–6). Перевод М.С.Добряковой. <http://textarchive.ru/c-2946810.html>.
5. Ярская-Смирнова Е.Р., Наберушкина Э.К. Социальная работа с инвалидами. Саратов, 2003. С. 7.
6. Данилюк Л.Е., Бахарев В.В. Ограниченные возможности здоровья: логико-методологический анализ // Общество: экономика, политика и право. 2010. № 6. С. 8-11.
7. Анализ ситуации детей и взрослых с инвалидностью в Узбекистане. [https://www.unicef.org/uzbekistan/media/3616/file/Brief\\_PWD\\_SitAn\\_RUS.pdf](https://www.unicef.org/uzbekistan/media/3616/file/Brief_PWD_SitAn_RUS.pdf).
8. Ўзбекистон Республикасининг Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари тўғрисидаги Қонуни. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 15.10.2020-йилдаги ЎРҚ-641-сон. Қонунчилик палатаси томонидан 2020-йил 22-июлда қабул қилинган. Сенат томонидан 2020-йил 11-сентябрда маъқулланган.



*Madina KAMILOVA,*  
*Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasida tadqiqotchisi*

*Psixologiya fanlari doktori (DSc) B.Jo'rayev taqrizi ostida*

## OILADA HUQUQIY TUSHUNCHALAR SHAKLLANISHIGA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR TA'SIRI

Annotatsiya

Maqolada oilada yuridik tushunchalar shakllanishiga individual psixologik xususiyatlar ta'siri muammosi o'rganilgan. Unda muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada muallif tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so'z borgan. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur muammoni o'rganish bugungi kunda ham juda dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Shaxs, oila, yuridik tushuncha, huquqiy madaniyat, temperament, erglik, plastiklik, temp, emotsionallik.

## ВЛИЯНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПРАВОВЫХ ПОНЯТИЙ В СЕМЬЕ

Аннотация

В статье рассматривается проблема влияния индивидуально-психологических особенностей на формирование правовых представлений в семье. В ней рассказывается о теоретических и практических аспектах проблемы, авторских научных изысканиях в этой связи. Исследования, проведенные автором, показывают, что изучение данной проблемы остается весьма актуальным и на сегодняшний день.

**Ключевые слова:** Личность, семья, правовая концепция, правовая культура, темперамент, смелость, пластичность, темп, эмоциональность.

## THE INFLUENCE OF INDIVIDUAL PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS ON THE FORMATION OF LEGAL CONCEPTS IN THE FAMILY

Annotation

The article deals with the problem of the influence of individual psychological characteristics on the formation of legal ideas in the family. It tells about the theoretical and practical aspects of the problem, the author's scientific research in this regard. The studies conducted by the author show that the study of this problem remains very relevant today.

**Key words:** Personality, family, legal concept, legal culture, temperament, courage, plasticity, pace, emotionality.

**Kirish.** Tarixga nazar solsak, hamma davrlarda ham oila biz uchun eng muqaddas maskan va qadriyat sanalib kelgan. Binobarin, tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, ruhiy-axloqiy, iqtisodiy-yuridik munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlik hisoblanmish oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror taraqqiy etishini ajdodlarimiz juda yaxshi anglashgan. Shu o'rinda buyuk allomalarimizdan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy va boshqalarning asarlarida ilgari surilgan oilaviy masalalar, xususan, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, bola tarbiyasida ota-ona, bobo-buvining o'rni, barkamol va vatanparvar shaxsni shakllantirishda oila ijtimoiy institutining roliga oid qarashlar muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari oila muammolari Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqa ma'rifatparvar ajdodlarimiz asarlarida ham mufassal o'rganilgan bo'lib, ular hech ikkilanmasdan odob-axloq go'zal, jismonan va ma'nan yetuk avlodni tarbiyalashning yagona yo'li — barqaror oila qurish ekanini, oilani mustahkamlamasdan davlat va jamiyat taraqqiyotiga erishib bo'lmashligini ta'kidlashgan.

Ayniqsa, mustaqillik yillarida O'zbekistonda oila deb nomlanuvchi ijtimoiy institutni yanada mustahkamlashga, yosh avlodni har tomonlama barkamol, jismonan va ruhan sog'lom qilib tarbiyalashga katta e'tibor berib kelinmoqda. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda oilada yuridik madaniyatni shakllantirish, oilaning huquqiy maqomini oshirish, unda yashovchi har bir a'zoning huquqiy va siyosiy

savodxonligini oshirish, jamiyat hayotida ularning faol ishtirokini ta'minlash, shu o'rinda xotin-qizlarga keng imkoniyatlar yaratib berishga alohida e'tibor berilayotganligi muhim ahamiyatga ega. Bunda oilada huquqiy madaniyatni shakllantirishda huquqiy tarbiyani hayotga, nafaqat huquq bilan tanishtirish va unga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirish muhim rol o'ynaydi, shu bilan bir qatorda insonda huquqiy ko'rsatmalarga so'zsiz itoat etish kerakligiga ishonchni tarbiyalash, ular ongiga oila to'g'risidagi qonun-qoidalarga doimo hurmat bilan qarash ko'nikmalarni hosil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada ayrim muammolar ham mavjud bo'lib, ba'zi holatlarda insonlar o'z haq-huquqlarini to'g'ri bilmasliklari va tushunmasliklari oqibatida nohush vaziyatlar kelib chiqadi. Ayniqsa, mamlakatimizda ayollar orasida huquqiy bilimlarni oshirish masalasida qilinadigan ishlarning yetarli emasligi, ularda yuridik savodxonlikning yo'qligi tufayli ham ba'zi o'rinlarda zo'ravonlikka uchrash, firibgarlik yoki o'g'irlik jinoyatlari sodir qilish, bir so'z bilan aytganda noto'g'ri yo'llarga kirib ketish holatlari uchramoqda. Bu ayollarning o'z haq-huquqni bilmasliklari, iqtisodiy, huquqiy bilimlarining pastligi, oilada huquqiy madaniyatni shakllanmaganligi natijasidir. Ayollarning huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyatning anglab yetmasliklari oqibatida oilada farzand tarbiyasida ham salbiy oqibatlarining kelib chiqishiga va bu esa jinoyat olamiga yosh avlodning kirib borishiga turtki bo'lishi ham mumkin bo'ladi.

Oilalarning nikoh munosabatlarining huquqiy masalalari mamlakatimiz psixologlari tomonidan samarali o'rganildi.

Ayniqsa, o'zbek oilalarining ijtimoiy-psixologik muammolariga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot izlanishlari o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab chuqur o'rganila boshlandi. Shu o'rinda M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, A.M.Jabborov. B.Jo'rayev. Z.T.Nishanova, X.K.Karimov, M.X.Fayziyeva va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan ishlarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin. Ularning ilmiy izlanishlarida oila huquqi mazmuni, nikohdan o'tish shartlari, ota-ona va farzandlarning mulkiy, shaxsiy huquq va burchlari, farzandlikka olish shartnomalari haqida tushunchaga ega bo'lish, vasiylik va homiylik haqidagi bilimlarga ega bo'lish va shu kabi muammolar o'rganilgan.

Bizning ilmiy tadqiqot ishimiz yuqoridagilardan biroz farqli ravishda oilada yuridik tushunchalarni shakllantirishning

psixologik omillari va xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Shu maqsadda tajriba-sinov ishlarida Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahri va G'uzor tumani oilalarida yashovchi 100 nafar sinaluvchilar jalb etildi. Biz tajriba-sinov ishlarida ishtirokchilarda yuridik tushunchani shakllanganligi bilan temperament xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish maqsadida V.M.Rusalov so'rovnomasidan foydalandik.

Subyektlarda yuridik tushunchalarning shakllanganlik holatini baholashning barcha bandlari hamda temperament xususiyatlari o'rtasidagi korrelyatsion munosabatlar aks etgan natijalar quyida keltirilgan (1-jadval).

### 1-jadval:

Shaxsning temperamenti xususiyatlarining tushunchalarni shakllantirishga ta'sirini ifodalovchi korrelyatsion koeffitsiyentlar (Umumiy holat).

Tushunchalar shakllanganligi / Temperament xususiyatlari	Tushunchalardan xabardorlik	Tushunchalarni ta'riflash	Tushunchalarni taqqoslash	Tushunchalarni umumlashtirish	Tushunchalarni qo'llanish sohasini bilish
Erglik	0,669**	0,747**	0,739**	0,588**	0,695**
Plastiklik	0,629**	0,658**	0,684**	0,633**	0,703**
Temp	0,594**	0,690**	0,684**	0,484	0,714**
Emotsionallik	-0,613**	-0,616**	-0,644**	-0,559**	-0,656**

Izoh: \*\*  $r \leq 0,01$ .

Tajriba ishtirokchilarida tushunchani shakllanganligi bilan temperament xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi korrelyatsion qiymatlarning umumiy holatida barcha ko'rsatkichlar o'rtasida

Ijoiy bog'lanishlar kuzatildi. Bu holat esa sinaluvchilarda yuridik tushunchalarning shakllanishida umumiy energetik temperament xususiyatlari ta'lim uchun muvofiq kelayotganligini ifodalaydi. Ularning "erglik", "plastiklik", "temp" bilan bog'liq temperament xususiyatlari "tushunchalardan xabardorlik", "tushunchalarni ta'riflash", "tushunchalarni taqqoslash", "tushunchalarni umumlashtirish" va "tushunchalarni qo'llash sohasini bilish" bilan to'liq ijobiy bog'lanish hosil qildi. Ammo birgina temperament xususiyati bilan tushunchalarni shakllanganlik holatlari o'rtasida salbiy korrelyatsiya munosabati kuzatildi. Ular temperamentining

"emotsionallik" xususiyati bilan "tushunchalardan xabardorlik" ( $r = -0,613$ ,  $r \leq 0,01$ ); "tushunchalarni ta'riflash" ( $r = -0,616$ ,  $r \leq 0,01$ ); "tushunchalarni taqqoslash" ( $r = -0,644$ ,  $r \leq 0,01$ ); "tushunchalarni umumlashtirish" ( $r = -0,559$ ,  $r \leq 0,01$ ); va "tushunchalarni qo'llash sohasini bilish" ( $r = 0,656$ ,  $r \leq 0,01$ ) o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar salbiy ko'rinish oldi. Metodika meyorlariga ko'ra, sinaluvchilardagi emotsionallikni yuqori darajada namoyon bo'lishi tushunchalarni o'zlashtirish jarayonida to'sqinlik qilishidan dalolat bermoqda.

Endi natijalarning sinaluvchilar temperament xususiyatlari tushunchalar shakllanishiga ta'sirini asab tizimi xususiyatlariga muvofiq tahlil qilamiz. Kuchli asab tizimli sinaluvchilar temperament xususiyatlari tushunchalarning shakllanishiga ta'siri navbatdagi 2-jadvalda keltirilgan.

### 2-jadval:

Shaxs temperamenti xususiyatlarining tushunchalarni shakllantirishga ta'sirini ifodalovchi korrelyatsion koeffitsiyentlar (kuchli asab tizimli sinaluvlar).

Tushunchalar shakllanganligi / Temperament xususiyatlari	Tushunchalardan xabardorlik	Tushunchalarni ta'riflash	Tushunchalarni taqqoslash	Tushunchalarni umumlashtirish	Tushunchalarni qo'llanish sohasini bilish
Erglik	0,392*	0,396*	0,379*	0,004	0,397*
Plastiklik	0,394*	0,381*	0,034	0,391*	-0,286
Temp	0,390*	0,026	0,418**	0,399*	0,074
Emotsionallik	0,518**	-0,171	0,061	0,103	0,041

Izoh: \*  $r \leq 0,05$ , \*\*  $r \leq 0,01$ .

Jadval natijalariga ko'ra, kuchli asab tizimli shaxslarning temperament xususiyatlari tushunchalar shakllanishida ularning o'quv faoliyatida ijobiy ta'sir ko'rsatadigan ijobiy korrelyatsiya koeffitsiyentlarga ega ekan: "erglik" xususiyati "tushunchalardan xabardorlik" ( $r = 0,392$ ,  $r \leq 0,05$ ), "tushunchalarni ta'riflash" ( $r = 0,396$ ,  $r \leq 0,05$ ), "tushunchalarni taqqoslash" ( $r = 0,379$ ,  $r \leq 0,05$ ) va "tushunchalarni qo'llash sohasini bilish" ( $r = 0,397$ ,  $r \leq 0,05$ ); "plastiklik" "tushunchalardan xabardorlik" ( $r = 0,394$ ,  $r \leq 0,05$ ), "tushunchalarni ta'riflash" ( $r = 0,381$ ,  $r \leq 0,05$ ), "tushunchalarni umumlashtirish" ( $r = 0,391$ ,  $r \leq 0,01$ ) va "tushunchalarni qo'llash sohasini bilish" ( $r = 0,656$ ,  $r \leq 0,01$ ); "temp" "tushunchalardan xabardorlik" ( $r = 0,390$ ,  $r \leq 0,05$ ),

"tushunchalarni taqqoslash" ( $r = 0,418$ ,  $r \leq 0,01$ ); "tushunchalarni umumlashtirish" ( $r = 0,399$ ,  $r \leq 0,01$ ); "emotsionallik" tushunchalardan xabardorlik" ( $r = 0,518$ ,  $r \leq 0,01$ ) holatlar bo'yicha kuzatildi.

Natijalardan shuni izohlash mumkinki, shaxs asab tizimining kuchliligi bilan temperament xususiyatlari yuqori ko'rsatkichlar tushunchalar shakllanishida ijobiy ta'sir ko'rsata olar ekan. Shaxsda erglik xususiyatini yuqori qiymatlari tushunchalar shakllanishida yengillik tug'dirishi, amalga oshirilayotgan faoliyatdan qoniqishi, aqliy zo'riqishni talab etuvchi faoliyatga intiluvchanlik va aqliy jonlanishi ancha yengil kechishi bilan bog'liqdir. Ammo tekshiriluvchilarimizdagi erglik tushunchalarning

umumlashtirishlari uchun yetarlicha ta'sir ko'rsata olmaganligidan dalolat bermoqda.

Plastiklik xususiyatining ham tushunchalar shakllanishiga ta'sirida shaxsning bir faoliyatdan ikkinchisiga oson ko'cha olishlari, predmetlar bilan ishlash vaqtida tafakkurning bir shaklidan boshqasiga tez o'tishi natijasi tufaylidir. Bu esa ularning tushunchalardan xabardorlik, ularni mazmunan ta'riflash va hattoki tushunchalarning xossalriga ko'ra umumlashtirishida kuzatildi.

### 3-jadval:

**Shaxs temperamenti xususiyatlarining tushunchalarni shakllantirishga ta'sirini ifodalovchi korrelyatsion koeffitsiyentlar (o'rtacha kuchli asab tizimli sinaluvlar).**

Tushunchalar shakllanganligi / Temperament xususiyatlari	Tushunchalardan xabardorlik	Tushunchalarni ta'riflash	Tushunchalarni taqqoslash	Tushunchalarni umumlashtirish	Tushunchalarni qo'llanish sohasini bilish
Erglik	0,340**	0,250*	0,274*	-0,135	-0,050
Plastiklik	0,334**	0,264*	0,083	0,076	0,118
Temp	0,380**	0,194	0,259*	0,063	0,122
Emotsionallik	0,117	-0,317*	-0,154	-0,196	-0,046

**Izoh:** \*  $r \leq 0,05$ , \*\*  $r \leq 0,01$ .

Emotsionallik xususiyatidagi yuqori ko'rsatkichlar asab tizimi kuchli shaxslar faoliyatida ham salbiy natijalarni ko'proq kuzatilishiga olib kelar ekan. Buni ularning emotsionallik holati bilan birgina ijobiy korrelyatsion bog'lanish aks etgan holatdan kelib chiqib xulosalanmoqdamiz.

O'rtacha kuchli asab tizimiga mansub sinaluvchilarning temperament xususiyatlarini yuridik tushunchalar shakllanishiga ta'sirini quyidagi korrelyatsion bog'lanishga egaligi: "erglik" xususiyati "tushunchalardan xabardorlik" ( $r=0,340$ ,  $r \leq 0,01$ ), "tushunchalarni ta'riflash" ( $r=0,250$ ,  $r \leq 0,05$ ), "tushunchalarni taqqoslash" ( $r=0,274$ ,  $r \leq 0,05$ ); "plastiklik" "tushunchalardan xabardorlik" ( $r=0,334$ ,  $r \leq 0,01$ ), "tushunchalarni ta'riflash" ( $r=0,264$ ,  $r \leq 0,05$ ); "temp" "tushunchalardan xabardorlik" ( $r=0,380$ ,  $r \leq 0,01$ ), "tushunchalarni taqqoslash" ( $r=0,259$ ,  $r \leq 0,01$ ); "emotsionallik" "tushunchalarni ta'riflash" ( $r=-0,5317$ ,  $r \leq 0,05$ ) bilan bog'liqligi kuzatildi.

O'rtacha kuchli asab tizimli sinaluvchilarning temperament xususiyatlari ularda tushunchalarning shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatishida yuqori natijalarning mavjudligidadir. O'rtacha kuchli asab tizimli tajriba

### 4-jadval:

**Sinaluvlar temperamenti xususiyatlarining tushunchalarni shakllantirishga ta'sirini ifodalovchi korrelyatsion koeffitsiyentlar (o'rtacha kuchsiz asab tizimli sinaluvlar).**

Tushunchalar shakllanganligi / Temperament xususiyatlari	Tushunchalardan xabardorlik	Tushunchalarni ta'riflash	Tushunchalarni taqqoslash	Tushunchalarni umumlashtirish	Tushunchalarni qo'llanish sohasini bilish
Erglik	0,545*	-0,104	0,029	0,141	0,177
Plastiklik	0,479*	0,127	-0,193	0,348	0,312
Temp	0,505*	0,210	0,207	-0,100	0,033
Emotsionallik	0,014	0,356	-0,446*	-0,686**	-0,413

**Izoh:** \*  $r \leq 0,05$ , \*\*  $r \leq 0,01$ .

Bu toifa sinaluvlar umumiy tekshiriluvchilarning kam sonli qismini tashkil etganligi sababli, ularning korrelyatsion ko'rsatkichlarida ahamiyatli qiymatlarini ifodalovchi holatlar anchagina tarqoq ko'rinishga ega: "erglik" xususiyati "tushunchalardan xabardorlik" ( $r=0,545$ ,  $r \leq 0,05$ ); "plastiklik"

### 5-jadval:

Sinaluvlar temperamenti xususiyatlarining tushunchalarni shakllantirishga ta'sirini ifodalovchi korrelyatsion koeffitsiyentlar (kuchsiz asab tizimli sinaluvlar).

Temperamentning temp xususiyatidagi ijobiy korrelyatsion bog'lanishlar xulq-atvorning yuqori jadalligi, predmetli faoliyatda bajariladigan operatsiyalarni yuqori tezlik bilan bajarishga, aniq vazifalarni bajarishda yuqori psixik tezlikka egaligi xizmat qilgan deyish mumkin. Bu esa tushunchalardan xabardorlik, ularni taqqoslash va tushunchalarni umumlashtirish bilan bog'liq hollardagi korrelyatsion munosabatlarda aks etdi.

subyektlarida erglik xususiyatini yuqori qiymatlari tushunchalarning shakllanishida yengillik tug'dirishi, amalga oshirilayotgan faoliyatdan qoniqishi, aqliy zo'riqishni talab etuvchi faoliyatga intiluvchanlik va aqliy jonlanishi ancha yengil kechishini o'zida ifodalagan. Bu esa ular tushunchalarning esga tushirishi, tushunchalarning ta'riflashi va tushunchalarni taqqoslash faoliyatida samarali natija beradi. Ularning plastiklik xususiyati tushunchalarning shakllanishiga ta'sirida sinaluvchilarning bir faoliyatdan ikkinchisiga oson ko'cha olishlari, predmetlar bilan ishlash vaqtida tafakkurning bir shaklidan boshqasiga tez o'tishi natijasi tufaylidir. Natijada ular tushunchalarni tezkor sanab bera olganliklari va ularning xossalarni ta'riflashlarida kuzatilmogda.

Emotsionallik xususiyatidagi yuqori ko'rsatkichlar asab tizimi o'rtacha kuchli sinaluvlar faoliyatida ham salbiy korrelyatsion bog'lanish hosil qildi. Bu esa ko'proq ularning tushunchalarni ta'riflashda yanglishishlarga yo'l qo'yishida kuzatildi.

Temperament xususiyatining asab tizimi o'rtacha kuchsiz sinaluvlarda tushunchalar shakllantirishiga ta'sirini ifodalovchi navbatdagi empirik qiymatlarda o'z aksini topadi. Natijalar navbatdagi 4-jadvalda keltirilgan.

"tushunchalardan xabardorlik" ( $r=0,479$ ,  $r \leq 0,05$ ); "temp" "tushunchalardan xabardorlik" ( $r=0,505$ ,  $r \leq 0,05$ ); "emotsionallik" "tushunchalarni taqqoslash" ( $r=-0,446$ ,  $r \leq 0,05$ ) "tushunchalarni umumlashtirish" ( $r=-0,686$ ,  $r \leq 0,01$ ) bog'lanishga egadir.

Tushunchalar shakllanganligi / Temperament xususiyatlari	Tushunchalardan xabardorlik	Tushunchalarni ta'riflash	Tushunchalarni taqqoslash	Tushunchalarni umumlashtirish	Tushunchalarni o'qitish sohasini bilish
Erglik	0,729*	0,000	0,535	-0,020	-0,106
Plastiklik	0,333	0,000	0,059	0,146	-0,083
Temp	0,384	-0,286	0,582	-0,238	0,095
Emotsionallik	-0,629*	-0,725*	0,319	0,020	0,532

Izoh:\*  $r \leq 0,05$ .

Empirik ma'lumotlarning navbatdagi tahlili kuchsiz asab tizimiga mansub tajriba qatnashchilarining temperament xususiyatini ularda tushunchalar shakllanishidagi roliga yo'naltirilgan. Kuchsiz asab tizimli sinalluvlar ham tekshiriluvchilarning kamsonli vakillari hisoblanadi. Shu bois ularning faoliyati bilan bog'liq korrelyatsion ko'rsatkichlarida ahamiyatli natijalarni kuzatish qiyin kechadi: "erglik" xususiyati "tushunchalardan xabardorlik" ( $r=0,729$ ,  $r \leq 0,05$ ); "emotsionallik" "tushunchalardan xabardorlik" ( $r=-0,629$ ,  $r \leq 0,05$ ), "tushunchalarni ta'riflash" ( $r=-0,725$ ,  $r \leq 0,05$ ) bilangina korrelyatsion aloqalarni hosil qiladi. Kuchsiz asab tizimidagi sinalluvlarining temperament xususiyatlari asab tizimining ta'siriga muvofiq ta'lim jarayonida tushunchalarning shakllanishida ijobiy ta'sir ko'rsata olmaydi. Sinalluvchilarda yuridik tushunchalarining shakllanishida temperament xususiyatlarini ahamiyati bilan bog'liq empirik tahlillar quyidagi xulosalar chiqarishimizga sabab bo'ldi. Kuchsiz asab tizimli shaxslarning temperament xususiyatlari ularni faolsizlik, zo'riqish talab qiluvchi aqliy mehnatlardan qochish, tonusning pastligi, monoton ishga moyillik, har xil xulq-atvorni amalga oshirishdan cho'chish, faoliyatning konservativ xarakterga egaligi, harakatlaridagi sustlik, faoliyat murakkablashganda emotsionallikning jadallashuvi

tufaylidir. Ular faqat o'zlari bilgan tushunchalarning kam miqdorini sanab berish bilan cheklanganlar. Emotsionallik esa juda yuqori ko'rsatkichga egadir. Ularda yuridik tushunchalarni shakllantirish ta'lim jarayonida qiyinchilik tug'dirishi, shubhasiz. Sinalluvlarda temperament xususiyatlarining ijobiy sifatlari ko'proq aks etishi tushunchalar shakllanishiga muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsatadi. Aksincha temperament xususiyatlarining salbiy ko'rinishi esa tushunchalar shakllanishiga to'siq bo'lishi mumkin.

**Xulosa.** Asab tizimi toifalariga ko'ra sinalluvchilarni yuridik tushunchalarini o'zlashtirish ko'rsatkichlarida kuchli asab tizimi, o'rtacha asab tizimli, o'rtacha kuchsiz asab tizimli, kuchsiz asab tizimli sinalluvchilarda tajriba-sinov va nazorat guruhi sinalluvchilari o'rtasida o'zlashtirish ko'rsatkichlari samaradorligini ifodalovchi qiymatlar olindi. Bu holat o'zlashtirish jarayonida sinalluvchilarning asab tizimi toifalari bo'yicha tushunchalarni shakllanishida keskin tafovut borligi anglatmaydi. Shaxsda yuridik tushunchalarning shakllanishida asab tizimi xususiyatlarini belgilovchi omillar sifatida qarash mumkin. Bu esa sinalluvchini tushunchalar shakllanish jarayonida kuchli, o'rta va kuchsiz asab tizimiga ega sinalluvchilar bilan ishlashning individual yondashuvini tanlashiga ko'maklashadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Васильев В. Юридическая психология.- СПб. Питер Ком,1998.-319 с.
2. Жўраев В. Хукукий саводхонлик – шахс баркамоллигининг муҳим компоненти // Илмий ахборотнома Самду-№2, Самарқанд .– 2014.- Б. 135-138.
3. Маматов Х.Т. Хукукий маданият ва Ўзбекистонда. Фуқаролик жамиятининг шаклланиш муаммолари: Юридик. ф. д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореф. – Тошкент, 2011.- 42-б.
4. Певцова Е.А. Формирование правового сознания школьной молодежи: состояние, проблемы и перспективы // Государство и право. -2005.- №4.- С. 28-36.



UDK:378.026(575.1)

*Nodira KOMILOVA,*  
*ToshDTU Olmaliq filiali katta o'qituvchisi*  
*E-mail: k.nodira2393@gmail.com*

*TDTU Olmaliq filiali t.f.n N.A. Mamadaliyeva taqrizi ostida*

**TALABALARNI ZAMONAVIY DIDAKTIK VOSITALAR ASOSIDA KASBIY TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**  
Annotatsiya

Zamonaviy o'quv didaktik vositalari asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni ularning kelgusida ishlash sharoitini e'tiborga olgan holda modellashtiriladi. Buning uchun dastlab kasbiy faoliyatga tayyorlash tushunchasiga aniqlik kiritamiz. Kasbiy faoliyatga tayyorlash – kasbiy masalalarni yechishga qobiliyatli, kompetentli mutaxassisni tayyorlash maqsadida tashkil etiladigan o'quv jarayonidir.

**Kalit so'zlar:** Didaktik vositalar, kasbiy faoliyat, kompetent, o'quv jarayoni, o'qitish metodlari, integrativlik, uzluksizlik, variativlik.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ДИДАКТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ**

Аннотация

На основе современных учебных дидактических средств моделируется процесс подготовки учащихся к профессиональной деятельности с учетом условий их дальнейшей работы. Для этого сначала уточним понятие подготовки к профессиональной деятельности. Подготовка к профессиональной деятельности-образовательный процесс, организуемый с целью подготовки компетентного специалиста, способного решать профессиональные задачи.

**Ключевые слова:** Дидактические средства, профессиональная деятельность, компетентность, учебный процесс, методы обучения, интегративность, преемственность, вариативность.

**PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF PROFESSIONAL TRAINING OF STUDENTS ON THE BASIS OF MODERN DIDACTIC MEANS**

Annotation

On the basis of modern educational didactic tools, the process of preparing students for professional activities is modeled taking into account the conditions of their further work. To do this, we will initially clarify the concept of preparation for professional activities. Preparation for professional activities is an educational process organized with the aim of training a competent, competent specialist in solving professional issues.

**Key words:** Didactic tools, professional activity, competency, educational process, teaching methods, integrativity, continuity, variability.

**Kirish.** Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning asosiy komponentlari o'qitishning maqsad va vazifalari, o'quv materialining mazmuni, o'qitishni tashkil etish metodlari, vositalari, shakllari, o'quv jarayonining yakuniy natijalaridan iborat bo'lgan metodik tizim sifatida qarash mumkin. Ana shundan kelib chiqqan holda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modelini loyihalash jarayoni quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: modelning zaruriyatini asoslash - modelni yaratish - modelning aniqlashtirish - olingan model asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish.

Kasbiy faoliyatga tayyorlash muvaffaqiyatini ta'minlovchi manbalar quyidagilardir:

- Talabalar tayyorgarligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar, kasbiy fanlar mazmuni;
- Qo'llaniladigan o'qitish metodlari;
- O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish;
- O'quv jarayonini ta'minlab beruvchi o'quv-moddiy texnik baza.

Kasbiy fanlarni o'rganishda kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini tashkil etishdagi omillar hisobga olinadi. Aytish o'rinli, kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoniga ta'sir etuvchi omillar quyidagilar hisoblanadi: kasbiy faoliyatga tayyorlashning texnik tashkil etuvchilari, texnologik jarayonlar, ilmiy-texnik qarashlarni kengaytirishga imkon

beruvchi vositalar, talabalarning shaxsiy xususiyatlari. Talabalarni kasbiy tayyorlash asoslarini omillar, manbalar, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, tamoyillar va yondashuvlar tashkil etadi (1-rasm).


Kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodologik asosini quyidagi yondashuvlar tashkil etadi: shaxsiy, kompetentli, faoliyatli, kontekstli va boshqalar.

Shaxs nuqtai nazaridan yondashuv o'quv jarayonini loyihalash va tashkil etishda talabalar faolligiga tayanishni nazarda tutadi. U talabalar shaxsining o'ziga xosligini e'tirof etishni va ta'lim jarayonida shaxsning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Tadqiqotimiz muammosiga oid ilmiy izlanishlar tahlillari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning zamonaviy didaktik vositalari asosida umumkasbiy fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish muammolari bo'yicha respublikamiz pedagog olimlaridan A.R.Xodjaboev, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, O.A.Qo'ysinov, D.O.Ximmataliev, J.A.Hamidov, H.SH.Qodirov, M.Urazova, J.O.Xakimov, A.Nazarov, A.Jo'raev va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borganlar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Shaxsiy-ijodiy komponent, bir tomondan, talabalarni kasbiy shakllantirish va o'z-o'zini namoyon etish yo'li bilan texnik va texnologik madaniyatni

egallashning kreativ mexanizmlarini ochib beradi, boshqa shakllanganligi darajasini tavsiflaydi. tomongan esa texnik fikrlash va dunyoqarash asoslarining



1-rasm. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash asoslari

Faoliyatli yondashuv talaba shaxsining o'ziga xos xususiyati faoliyat jarayonida shakllanishi va namoyon bo'lishidan kelib chiqadi. O'qitish jarayoni uning barcha asosiy komponentlari, ya'ni ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar, faoliyat elementlari, operatsiyalar, muvofiqlashtirish usullari, erishilgan natijalarni nazorat va tahlil qilishning birligi va o'zaro bog'liqligida quriladi. Bu asosiy komponentlar shaxsiy sifatlar asosida talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi. Faoliyatli komponent oliy ta'lim muassasalarida kasbiy fanlarni o'qitish hamda talabalarni tarbiyalash masalalarini hal etish usullarini o'z ichiga oladi. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida kompetentli yondashuvni qo'llash ta'lim jarayonining amaliy yo'nalganligini ta'minlash (kasbiy kompetentlikni shakllantirish), shu bilan birga, amaliyotda ko'p uchraydigan muammoli-vaziyatli masalalarni aniqlash, ularni yechish algoritmini tuzish va undan foydalanish, loyihalash faoliyatini tashkil etishga yo'naltiradi.

Kontekstli yondashuv umumkasbiy fanlarini o'rganishda kasbiy faoliyat kontekstida ta'limning mos metod, shakl va vositalarni qo'llab, o'qitish, jarayonini qurish imkonini beradi. Kontekstli o'qitishda: 1) talabalar faoliyatli nuqtai nazardan yondashadi; 2) faol idrok qiladi; 3) bilimlar modellashtirilgan kasbiy vaziyatlarni hal etish kontekstida o'zlashtiriladi; 4) ishning individual va jamoaviy shakllaridan foydalaniladi; 5) kasbiy komponentlilik belgilari juda yaqqol ifodalangan o'quv axborotidan foydalanish tajribasini egallaydi; 6) o'quv, ilmiy va kasbiy faoliyat integratsiyasi muammosi pedagogik hal etiladi.

Kontekstli o'qitishda umumkasbiy fanlarni o'rgatish talabani kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasining nazariy va amaliy asoslarini chuqur bilishni talab etadi. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modelini ishlab chiqish kasbiy fanlarni o'qitishning ma'lum tamoyillarga asoslanadi. Tamoyil deganda, asosiy qoidalar, ta'lim jarayonining maqsad va qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda, ta'lim jarayoni, mazmuni, tashkiliy shakllari va metodlarini belgilab beruvchi didaktik tizimni tushunamiz. Bizning nazarimizda, kasbiy fanlarni o'qitishda talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modelini ishlab chiqishning o'ziga xos xususiyatlari va mantig'iga quyidagi tamoyillar mos keladi:

-Metodologik, o'quv materialini tanlash va tuzilmashtirish;

- Ta'lim jarayoni mazmunini belgilash va tashkil etish uchun asos bo'ladigan amaliy yo'nalganlik;

-Integrativlik, uzluksizlik, variativlilik, o'quv materialini tanlash va tuzilmashtirish.

Bundan tashqari, asoslangan metodologik tamoyillar (tabiatga moslik, ta'lim jarayonini tashkil etish, tizimlilik va yaxlitlik tamoyillari) talabaning butun o'quv jarayonini tashkil etishida hal qiluvchi hisoblanadi.

Amaliy yo'nalganlik tamoyili ko'pgina falsafiy, pedagogik, psixologik qoidalarga tayanadi: ta'lim samaradorligi va sifati amaliyotda tekshiriladi, tasdiqlanadi; amaliyot - bu haqiqat mezoni, bilish faoliyati manbai va o'qitish natijalarini qo'llash sohasi; to'g'ri yo'lga qo'yilgan o'qitish va tarbiyalash hayotning o'zidan, amaliyotdan kelib chiqadi, u bilan chambarchas bog'liq bo'ladi, talabani faol

o'zgaruvchi faoliyatga tayyorlaydi, o'qitishni hayot, nazariya va amaliyot bilan bog'lash ta'lim mazmuniga, qo'llaniladigan metod va o'qitish shakllariga bog'liq. Bu tamoyil talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega, chunki uning faoliyatidagi vaqtning 75 % ni ta'lim oluvchilar bilan bajariladigan amaliy ish egallaydi.

Integrativlik tamoyili ilmiy tadqiqotlar va o'quv predmetlarining fanlararo aloqadorligini, kasbiy fanlarni mazmuniy va tuzilmaviy-funksional birligini nazarda tutadi.

Uzluksizlik va uzviylik tamoyili kasbiy tayyorgarlik bosqichlarining zamon va makondagi bog'liqligini, uning butun ta'lim jarayonidagi uzluksizligini ifodalaydi. Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida uzluksizlik tamoyili yangi bilim va ko'nikmalarni bosqichma-bosqich egallash, kasbiy kompetentlikni shakllantirishni hamda shaxsiy ahamiyatga ega sifatlarni rivojlantirishni ko'zda tutadi. Uzluksizlikning ichki mexanizmi uzviylik bo'lib, tayanch bilim va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda ilgarlab ketish imkoniyatlarini nazarda tutadi.

Variativlik tamoyiliga ko'ra, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida mazmuniy axborotni chuqurlashtirish, kengaytirish, to'ldirishga ruxsat etiladi. O'quv jarayonini tashkil etishda talabalarining nazariy tayyorgarlik darajasi, qiziqish va moyilliklariga bog'liq ravishda ularga individual topshiriqlarni bajarish imkoniyati beriladi.

Tabiatga moslik tamoyili talabalarga tabiatning bir qismi sifatida munosabatda bo'lishni nazarda tutadi. Tabiatga moslik tamoyili asosida o'qitishda talabalarining jismoniy salomatligi holati e'tiborga olinadi, anglashga, muloqotga, ijodga dominantlik (ustunlik) ehtiyojlari qondirilishi uchun sharoit yaratib berishni taqozo etadi.

Yuqorida keltirilgan tamoyillardan tashqari, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash asosiga ta'lim mazmunini tanlash va tuzilmalashtirish (ilmiylik, tizimlilik va ketma-ketlik, uzviylik, ko'rgazmalilik) hamda ta'lim jarayonini tashkil etish tamoyillari (turli bilish faoliyatlarini optimal birlashtirish; o'qitishning har xil shakl, vosita va metodlarini qo'llash; shaxsning individual sifatlarini hisobga olib o'qitishni optimallashtirish) qo'yilgan.

Ilmiylik tamoyili asosida quyidagi qoidalar yotadi: olamni bilish mumkin va amaliyotda tekshirilgan inson

bilimlari olam rivojining obyektiv tasvirini beradi. Fan inson hayotida tobora ko'proq muhim o'rin tutmoqda, shuning uchun ta'lim ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga, talabalarni obyektiv olam haqidagi bilimlar tizimi bilan qurollantirishga e'tibor qaratiladi.

Ta'limning tushunarlik tamoyili ta'lim jarayonini tashkil etish va amalga oshirish talabalarining tayyorgarligi darajasiga mos bo'lishi lozimligini nazarda tutadi. Ta'limning tushunarligi o'quv jarayonini tashkil etishga, qo'llaniladigan o'qitish metodlari va ta'lim jarayonining kechish sharoitiga bog'liq. Tushunarlik tamoyili quyidagicha shakllantirilgan: osondan qiyinga, ma'lumdan noma'lumga, oddiydan murakkabga.


Ko'rgazmalilik tamoyili induktiv qabul qilingan tamoyillardan biri. Uning asosida aniq belgilab qo'yilgan qonuniyatlar yotadi: insonning sezgi a'zolari tashqi ta'sirga nisbatan har xil sezgirlikka ega va ko'pchilik insonlarning ko'rish a'zolarida eng katta sezgirlik ustunlik qiladi. Ko'rish a'zosi orqali miyaga uzatilgan axborot kodlashni talab qilmaydi, u inson xotirasida oson, tez va barqaror muhrlanadi.

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda quyidagi pedagogik shart-sharoitlar ta'minlab berilishi kerak:

- umumtexnik bilimlar asosini egallash;
- o'qishni davom ettirishga tayyorlash;
- pedagogik faoliyatga jalb etish (masalan, loyihalash faoliyati, loyihalash faoliyati elementlariga ega laboratoriya ishlarini bajarish va boshqalar);
- tashabbus va ijodkorlikni rivojlantirish;
- zamonaviy ta'lim texnologiyalari, shakl va vositalari asosida ta'lim jarayonini tashkil etish;
- talabalarni kasbiy kompetentlikni shakllantirishga imkon beradigan va faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradigan faoliyatlarga jalb etish.

**Tahlil va natijalar.** Kasbiy faoliyatga tayyorlashni nazariy darajada ko'rib chiqish talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini modellashtirishga imkon berdi.

Kasbiy faoliyatga tayyorlash natijasida talabasi kasbiy vazifalarni bajarishga tayyor bo'lishi kerak. Buning uchun talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shartlarini e'tiborga olish kerak (2-rasm).



2-rasm. Kasbiy tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari

Kasbiy fanlarni o'rganishning muhim didaktik vositalari qatoriga plakatlar, individual kartochka-topshiriqlar, laboratoriya va hisob-grafik ishlarini bajarishga, umumlashgan namunaviy masalalarni yechishga doir metodik ko'rsatmalar kiradi. Bularning barchasi talabalarining ijodiy qobiliyati, texnik fikrlashi va ishchanligining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

**Xulosa va takliflar.** Kasbiy faoliyatga tayyorlashda talabalar dastlab kasbiy fanlarni o'rganadilar. Quyi kurslarda esa u hali metodik fanlar bilan tanish emas va kasbiy faoliyati haqida ham yuzaki tasavvurga ega bo'ladi. Yuqori kurslarda talabalar kasbiy faoliyat elementlarini bevosita egallashga o'qitish nazariyasi va metodikasi mashg'ulotlarida, kasbiy fanlar va maxsus fanlarni o'rganishda, pedagogik amaliyotda, kurs ishi va bitiruv malakaviy ishlarini bajarishda jalb etiladi.

Zamonaviy o'quv-moddiy bazani yaratish talabani kasbiy faoliyatga tayyorlashning muhim pedagogik sharti hisoblanadi. Laboratoriya jihozlari asbob-uskunalar, mexanizm modellari, o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini qo'llash talabalar bilimlarini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, eksperiment va axborot sohasida amaliy

ko'nikmalarning shakllanishiga imkon beradi. Tashkiliy-pedagogik sharoit deganda, kasbiy faoliyatga tayyorlash maqsadida maxsus tashkil etilgan muhitda talabalarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishga imkon beruvchi talablar tizimi tushuniladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Xutorskoy A.V. Klyuchevye kompetensii kak komponent lichnostno- orientirovannoy paradigmy obrazovaniya / Narodnoe obrazovanie. - 2003. - № 2. - S. 58-64.
2. Hamdamov R., Begimqulov U., Tayloqov N. Ta'limda axborot texnologiyalari. –T.:,-2010, 120-b.
3. Hamidov J.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi. ped. fan. dokt. Diss. Toshkent. 2017. – 337-b.
4. Hamidov J.A., Usanov M.M., Adilov B.B. Oliy ta'limda bulutli texnologiyalar // Zamonaviy o'qituvchining kasbiy faoliyatiga innovatsion yondashuvlar xalqaro onlayn ilmiy–amaliy konferensiyalar to'plami . Namangan 05. 10. 2020. 110-115-betlar.



UDK: 122-029.1(092)(045)

*Nodirbek QORABOYEV,*  
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: nodirbekqoraboyev2606@gmail.com

*Termiz davlat universiteti professori, f.f.d Sh.Samatov taqrizi asosida*

#### AKADEMIK SAID SHERMUHAMEDOV HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISH MASALASIGA DOIR

Annotatsiya

Maqolada akademik Said Shermuhamedov hayoti va faoliyati, ijtimoiy-falsafiy merosini o‘rganishning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Mavzu bo‘yicha mavjud ishlarga obzor berilib, uning o‘rganilganlik darajasi aniqlab olingan. Muammoni ilmiy tadqiq etishning maqsad va vazifalari ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** Mavzuni o‘rganish holati, S.Shermuhamedov hayoti va faoliyatining yo‘nalishlari va davrlari, muammoni o‘rganishning maqsadi va vazifalari.

#### ON THE ISSUE OF STUDYING THE LIFE AND WORK OF AN ACADEMICIAN SAIDA SHERMUKHAMEDOVA

Annotation

The article substantiates the relevance and importance of studying the life and work, the socio-philosophical heritage of Academician Said Shermukhamedov. By reviewing existing works, the degree of study of the topic was determined. The purpose and objectives of the study of the problem are shown.

**Key words:** The state of knowledge of the topic, directions and stages of the life and work of S. Shermukhamedov, the purpose and objectives of studying the problem.

#### К ВОПРОСУ ОБ ИЗУЧЕНИИ ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСТВА АКАДЕМИКА САИДА ШЕРМУХАМЕДОВА

Аннотация

В статье обоснованы актуальность и важность изучения жизни и деятельности, общественно-философского наследия академика Саида Шермухамедова. Путём обзора существующих работ определена степень изученности темы. Показаны цель и задачи исследования проблемы

**Ключевые слова:** Состояние изученности темы, направления и этапы жизни и деятельности С.Шермухамедова, цель и задачи изучения проблемы.

**Kirish.** Said Shermuhamedov (1930-2016) falsafa fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Beruniy nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofotining sovrindori, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, mamlakatimizda uzoq yillar davomida samarali mehnat qilib kelgan yirik davlat va jamoat arbobi, respublikada madaniyat falsafasi fundamental ilmiy maktabining asoschisi, ko‘plab fan nomzodlari va doktorlarining ustozidir.

Akademik Said Shermuhamedovdek ajoyib inson, olim, pedagog-murabbiy, jamoat va davlat arbobi bosib o‘tgan katta hayot va ijod yo‘lini tadqiq etishning dolzarbligi va zarurati hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy hayotining barcha sohalarini isloh qilish va yangilash, jamiyat taraqqiyoti strategiyasi vazifalarini amalga oshirish bilan belgilanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** S.Shermuhamedov hayoti va faoliyati, u tomonidan e‘lon qilingan ilmiy ishlar va tayyorlangan ilmiy-pedagogik kadrlar bayoniga bag‘ishlangan bibliografik ko‘rsatkichlar [1] hamda turli to‘plamlar, jurnallar va entsiklopediyalarda olim haqidagi umumlashtiruvchi maqolalar [5] chop etilgan.

Olimning 75 va 80 yillik yubileylari munosabati bilan 2005-va 2015-yillarda respublikamiz gazeta va jurnallarida qator ilmiy-ommabop maqolalar e‘lon qilingan [6], “Qalb izhorlari” [7] nomli ikki kitoblik to‘plamlar nashr etilgan edi. To‘plamlar S.Shermuhamedovning zamondoshlari, do‘stlari, qarindosh-urug‘lari va shogirdlarining xotiralaridan iborat bo‘lib, mavzuni o‘rganishda qiziqarli ma‘lumotlar, fakt va dalillar beradi.

Ammo hanuzgacha akademik Said Shermuhamedov hayoti va faoliyati, ilmiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus, yirik ilmiy-tadqiqot ishlari yaratilmagan.

Ushbu mavzu bo‘yicha hozircha diqqatga sazovor ish bo‘lib faqat falsafa fanlari doktori, prof. Shomat Samatovning “Ilmu ma‘rifat bog‘boni” nomli ilmiy-ommabop risolasi [6] hisoblanadi.

Risola muqaddima va xulosadan tashqari uch bobdan iborat. Birinchi bob (“Intilganga tole yor”)da akademik Said Shermuhamedovning ilmiy-pedagogik va jamoatchilik faoliyati to‘g‘risidagi qisqacha ocherk hamda olim hayoti va faoliyatiga doir asosiy sanalar o‘zbek, rus va ingliz tillarida berilgan.

“Buyuk inson – alloma – arbob” deb nomlangan ikkinchi bobda Said Shermuhamedovning komil inson sifatidagi xislatlari, uning O‘zbekistonda madaniyat falsafasi maktabining asoschisi, adabiyot va san‘at jonkuyari, maorif darg‘asi, ustozlarga ehtiromi, do‘stlarga sadoqati, shogirdlariga g‘amxo‘rligi, fazilatli rahbar ekanligi bayon etilgan.

Kitobning uchinchi bobi akademik Said Shermuhamedovning mustaqillik yillaridagi ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik ishlari ro‘yxatini o‘z ichiga oladi. Unda olim yaratgan monografiyalari, risolalari, darsliklari, o‘quv qo‘llanmalari, dasturlari, ma‘lumot ishlari, ilmiy to‘plamlardagi, jurnallardagi ilmiy maqolalari, gazeta maqolalari ko‘rsatilgan. Olimning xalqaro kongresslar, konferentsiya va simpoziumlardagi ishtiroki va ilmiy ma‘ruzalariga alohida o‘rin berilgan. Said Shermuhamedovning muharrirlik faoliyati, uning turli

mualliflar kitoblariga yozgan taqrizlari ro'yxati keltirilgan. Said Shermuhamedov kitoblariga berilgan taqrizlar va uning rahbarligidagi grantlar alohida qismlarni tashkil etadi. Bobning katta qismini Said Shermuhamedov tayyorlagan fan doktorlari va fan nomzodlari, uning doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalariga rasmiy opponentligi, olim rahbarligida ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar to'g'risidagi ma'lumotlar tashkil etgan. Bob oxirida S.Shermuhamedov hayoti va faoliyati haqidagi nashrlar ro'yxati berilgan.

Shunday qilib, prof. Sh.Samatovning risolasi hozircha akademik Said Shermuhamedov hayoti va faoliyati, ijtimoiy va ilmiy merosi to'g'risida umumiy ma'lumotlar beradigan yagona ishonchli manba bo'lib hisoblanadi. Tadqiqotchi tomonidan e'lon qilingan ilmiy maqolalarda [9] esa akademik S.Shermuhamedovning O'zbekistonda madaniyat falsafasi maktabining asoschisi ekanligi to'g'risida fikr yuritilgan.

**Tadqiqot metodlari.** Ishda tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, obyektivlik metodlaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Akademik Said Shermuhamedov hayoti va faoliyati, jumladan, uning ilmiy-falsafiy merosi masalalari haqida hozirgacha mavzuni maxsus, atroflicha o'rganishga bag'ishlangan monografik, ilmiy-tadqiqot ishlari, xususan, dissertatsiyalar yaratilmaganligini nazarda tutib, ushbu muammoni monografik ravishda o'rganishni tavsiya etamiz. Bunday tadqiqotning maqsadi akademik Said Shermuhamedovning ijtimoiy-falsafiy merosini maxsus, atroflicha yoritib berishdan iborat bo'lishi kerak, deb hisoblaymiz. Fikrimizcha, bu boradagi ilmiy-tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

1. Akademik Said Shermuhamedov hayoti va faoliyatining yo'nalishlari, davrlari va bosqichlarini tadqiq etish asosida uning yirik davlat va jamoat arbobi, faylasuf-olim sifatida shakllanishi va qaror topish yo'lini yoritib berish. Bunda S.Shermuhamedov faoliyatini quyidagi ikki yo'nalishga bo'lib o'rganish to'g'ri bo'ladi: 1) rahbarlik va jamoatchilik faoliyati, 2) ilmiy-pedagogik faoliyati.

Said Shermuhamedov hayoti va ijodi XX asr boshlari va XXI asrning birinchi yarmidagi murakkab ijtimoiy-siyosiy davrga to'g'ri keladi. O'sha paytda mavjud bo'lgan ijtimoiy muhit va tarixiy vaziyat tahlilidan kelib chiqib, uning hayoti va faoliyatini ikki davrga bo'lib o'rganishni tavsiya etamiz: 1. Davlat va jamoat arbobi hamda olim hayoti va ijtimoiy faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi davri (1940 – 1970). 2. Yetuk olim va jamoat arbobi sifatidagi faoliyati davri (1970 – 2016). Bu davrlar o'z navbatida bir necha konkret bosqichlardan iboratki, ularni alohida-alohida olib o'rganish lozim.

2. Akademik Said Shermuhamedov ijtimoiy-falsafiy merosining tarkibiy qismi sifatida uning fenomeniga xos ajoyib, ibratli fazilatlarini tadqiq etish, ularning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini ko'rsatish zarur. Bu fazilatlarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: 1) shaxsiy-individual fazilatlar, 2) jamoatchilik va rahbarlik fazilatlarini, 3) ustozlarga ehtirom, do'stlar va qarindoshlarga sadoqatlilik xislatlari, 4) shogirdlariga g'amxo'rlik xislatlari.

3. Said Shermuhamedovning faylasuf-olim sifatidagi ilmiy-falsafiy merosini tahlil etish muhim masala bo'lib hisoblanadi. Bunda eng avvalo uning yirik faylasuf-olim sifatida shakllanish yo'lini yoritib berish, olim falsafiy

merosining asosiy mavzulari va tarmoqlarini tahlil etish zarurdir.

4. Said Shermuhamedov ilmiy-falsafiy merosida uning mustaqillik mafkurasi masalalarini ishlab chiqishi va targ'ib qilishi sohasidagi ishlari alohida o'rin tutadi. Bu masalalar tahlili tadqiqotchilar diqqat e'tiborida bo'lmog'i lozim.

5. Faylasuf-olim ilmiy merosining tarkibiy qismi sifatida uning inson muammosi masalalariga oid falsafiy qarashlari tahlilini berish kerak bo'ladi.

6. Said Shermuhamedov O'zbekistonda madaniyat falsafasi ilmiy maktabining asoschisidir. Bu masalani yoritib berish uchun olimning madaniyat va madaniyatshunoslikka oid ilmiy-nazariy ishlari tahlilini berish, uning bu sohadagi amaliy xizmatlarini bayon etish talab qilinadi.

7. Said Shermuhamedovning madaniyat falsafasi tarkibida uning adabiyot va san'at masalalarini tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy ishlari salmoqli o'rin tutadi. Bu ishlarni ilmiy tahlil qilish tadqiqotchilar oldida turgan muhim vazifadir.

8. Akademik Said Shermuhamedov tilning falsafiy masalalariga, ayniqsa, rus tilining ahamiyatiga oid qator ilmiy ishlar yaratgan ediki, ularning tahlilini berish olimning madaniyat falsafasi sohasidagi ilmiy merosini yanada chuqurroq yoritib berishga imkon beradi.

Xullas, biz fikr yuritayotgan monografik ilmiy-tadqiqot ishining obyekti bo'lib akademik Said Shermuhamedov hayoti va faoliyati, ijtimoiy-falsafiy merosi hisoblanadi. Ilmiy-tadqiqot ishining predmetini Said Shermuhamedov hayoti va faoliyatining, ilmiy-falsafiy merosining yo'nalishlari, taraqqiyot davrlari, bosqichlari, konkret sohalarini, ularga xos xususiyatlar va qonuniyatlar tashkil etadi.

**Xulosa va takliflar.** Birinchidan, yetuk faylasuf-olim va jamoat arbobi akademik Said Shermuhamedov hayoti, ijtimoiy va ilmiy faoliyatini, ilmiy-falsafiy merosini ilmiy tadqiq etish O'zbekistonda madaniyat, fan va maorif shakllanishi va taraqqiyoti tarixini o'rganishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi, bu borada hozircha mavjud bo'lgan bo'shliqni to'ldiradi, fanimizning bundan keyingi rivojiga imkon yaratadi.

Ikkinchidan, akademik Said Shermuhamedov tomonidan o'z vaqtida madaniyat, fan va maorif sohalarida amalga oshirilgan samarali va ibratli ishlar, ilgari surilgan g'oyalar bugungi kunda ham jamiyatimizning ijtimoiy-ma'naviy yangilanishi va takomillashuvi uchun xizmat qilishi mumkin, ular respublikada madaniyat, fan va maorif taraqqiyotiga samarali ilmiy rahbarlik qilish uchun zarur bo'lgan materiallar, faktlar beradi.

Uchinchidan, akademik Said Shermuhamedovning mohir pedagog, olim va rahbar sifatidagi samarali mehnatlari, erishgan yutuqlari, uning faoliyatida mavjud bo'lgan ibratli tajribalar va xislatlardan o'rinli va ijodiy foydalanish hozirgi kunda oliy o'quv yurtlari va boshqa ta'lim muassasalari rahbar xodimlari, pedagog-o'qituvchilari, murabbiylariga o'quv-tarbiyaviy ishlarni yanada samarali tashkil etish va boshqarishda yordam berishi mumkin.

To'rtinchidan, akademik Said Shermuhamedov fenomeniga xos bo'lgan yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarini o'rganish yosh avlod, ayniqsa, oliy o'quv yurtlari, maxsus ta'lim muassasalari talabalari va o'quvchilari uchun ulkan tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Саид Шермухамедов. Библиографический очерк (составитель Саматов Ш.Б.). – Ташкент, 1987. 66 с.
2. Саид Шермухамедов. Библиографический очерк (составители Саматов Ш.и др.). – Ташкент, 1997. 48 с.
3. Саид Шермухамедов. Библиографический очерк (тузувчилар Саматов Ш.ва бошқ.). – Тошкент: Фан, 2000. 22-б.
4. Саид Шермухамедов. Библиографический очерк (тузувчилар Саматов Ш.ва бошқ.) – Тошкент: Фан, 2005. 44-б.
5. Саид Шермухамедов. Библиографические очерки о деятелях общественных наук Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1976, с. 290; Библиографические очерки (о деятелях общественных наук Узбекистана). Составитель Луinin Б.В. –

- Ташкент: Фан, 1977, сс. 301-305; Шермухамедов Саид //Ўзбек энциклопедияси. – Тошкент, 1979, 13-т., 30-б.; Шермухамедов Саид //Писатели Узбекистана. – Ташкент, 1984, с. 436.; Ташкентский государственный университет. – Ташкент: Узбекистан, 1990, сс. 274-275, 277; К 60-летию Шермухамедова С.//Общественные науки в Узбекистане, 1990, № 5, с. 58; Шермухамедов С.хақида //ТошДУ – илм ва маърифат маскани. Тошкент: Университет. 1995, 223-б.; Маҳкамов У. Шермухамедов Саид //Ўзбек педагогикаси антологияси, II жилд. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. 202-209-б.; Шермухамедов Саид Шермухамедович //Ўзбекистон файласуфлари. Библиографик маълумот. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001, 149-150-б.; Шермухамедов Саид //Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 10-т. – Тошкент, 2005, 45-б.; Муътабар зиё маскани. – Тошкент: Ғ.Ғуллом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2008, 95-б.; Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. Икки томлик. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти. Маънавият, 2019, II т., 836-837-б.
6. Саматов Шомат. Илму маърифат боғбони. – Тошкент: Extremum press, 2010. 136-б.
  7. Қалб изҳорлари. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2005. 120-б.
  8. Қалб изҳорлари. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2010. 139-б.
  9. Саматов Ш. Ўзбекистонда маданият фалсафаси мактабининг асосчиси //Жайхун: ТерДУ хабарлари, 2010, № 1, 6-13-б.
  10. Саматов Ш. Академик Шермухамедов Саид – Ўзбекистонда маданият фалсафаси мактабининг асосчиси //Сурхондарё: илм ва тафаккур. – Термиз, 2020, № 4, 84-92-б.



UDK:368.06(575.1)

*Xursanoy MAMADJON QIZI,*  
*O'zbekiston Milliy universiteti magistranti*  
*E-mail: khursanoy92@mail.ru*

*Falsafa fanlari nomzodi, professor L.A. Muhammadjonova taqrizi asosida*

### QO'RQUV – IJTIMOY-AXLOQIY FENOMEN SIFATIDA

Аннотация

Qo'rquvning paydo bo'lish sabablari, insonlarda namoyon bo'lishi psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinishi mumkin, lekin uning negizida axloqiy jihatiga kamroq e'tibor qaratiladi. Qo'rquvning ko'rinishlarida ijobiy va salbiy jihatlari, vaqti kelganda uning insonni undovchi, chorlovchi asosiy turtki vazifani o'taydi.

**Kalit so'zlar:** Qo'rquv, qo'rqish, sezgi, xavotir, tashvish, quvonch, hayrat, g'azab, idrok tuneli, axloqiy normalar, sezgi-kognitiv jarayonlar, tanlash erkinligi, e'tiqod, burch.

### СТРАХ – СОЦИАЛЬНО-МОРАЛЬНОЕ ЯВЛЕНИЕ

Аннотация

Причины возникновения страха, его проявления у людей можно анализировать с психологической точки зрения, но меньше внимания уделяется его нравственному аспекту. Основную тяговую функцию выполняет вызывающий.

**Ключевые слова:** Страх, опасение, тревога, беспокойство, радость, удивление, гнев, когнитивный туннель, моральные нормы, сенсорно-когнитивные процессы, свобода выбора, убеждение, долг.

### FEAR IS A SOCIAL – MORAL PHENOMENON

Annotation

The causes of fear, its manifestation in people can be analyzed from a psychological point of view, but less attention is paid to its moral aspect. the caller performs the main thrust function.

**Key words:** Fear, apprehension, anxiety, worry, joy, amazement, anger, cognitive tunnel, moral norms, sensory-cognitive processes, freedom of choice, belief, duty.

**Kirish.** Qo'rquv tushunchasining vujudga kelishi tarixiy manbalar bilan uzviy bog'liqdir, ibtidoiy davr odamlari qabilalar bo'lib yashagan davrlarda ham doim qo'rquv tushunchasi va hissi begona bo'lmagan. O'sha davrlarda ham odamlarning qo'rquvdan xalos bo'lish uchun, omon qolish uchun o'tkazgan turli xil marosim ko'rinishlarini uchramiz. Qadimgi davr Sharq va G'arb falsafasida qo'rquv muammosi azaldan o'rganib kelingan. Jumladan, Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da ham insonning qilgan aybiga ko'ra jazo chorlari qo'llanilgani bizga ma'lum. Aynan o'sha jazo qo'llanishi insonlarni qaysidir ma'noda ko'rinmas chegaraga mavjudligi va uni buzib o'tib bo'lmastligi haqidagi tushuncha aniqroq qilib aytganda qo'rquv insonlarni boshqargan. Buning ortidan esa inson axloqiy qonun-qoidalarga rioya qilishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bugungi kunda esa Islom dinida musulmonlarning sodir etgan jinoyatiga, axloqsizligiga shariat bo'yicha ko'riladigan munosib jazolar: "Qur'oni karim", "Hadisi sharif", "Ijmo'", "Qiyos" hukmlariga binoan ko'rilgan. Bugungi kunda insonlarning diniy bilimlari ortib boraverar ekan o'z-o'zidan insonlarda ichki qo'rquv yuzaga ko'tarilaveradi. Buning sababi faqat insonning o'zigina aslida u qanday inson ekaligini o'zi biladi va unda nisbatan u yoki bu hayotda qanday jazo qo'llanishi haqida tushunchalar, bilimlar paydo bo'laverar ekan u daxshatga, vahimaga, qo'rquvga bota boradi. Tanganing ikki tarafi bo'lgani kabi buning ham ikki tarafi bor, ya'ni ijobiy va salbiy tomonlari. Psixologik tomondan inson qo'rquv iskanjasida qolishi, turli xil fikrlar qurshovida bo'lishi, o'ziga va yaqinlariga nisbatan ishonchsizlik, oxir oqibat eng og'ir va oxirgi nuqta o'z joniga qasd qilish darajasigacha borishi mumkin. Ikkinchi tarafi esa inson o'zini

o'nglay olishi, o'z xatti-harakatlarini nazorat qilishi, to'g'ri yo'l va tog'ri fikrga kelishi mumkin. Buning zamirida esa albatta axloqiy qonun-qoidalarga rioya etishi, axloqiy kamolotga erishishi yuzaga keladi. Aynan qo'rquv insonni boshqara oladigan asosiy turtki vazifasini bajaradi, chunki u insonning tuyg'ularini boshqara olish xususiyatiga egadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Inson mavjud ekan, qo'rquv xalqning madaniyati, e'tiqodi va rivojlanish darajasidan qat'iy nazar mavjud bo'ladi. O'zgaruvchan yoki yagona narsa qo'rquv obyektlari bo'lib, biz qo'rquvni yengdik yoki undan xalos bo'ldik deb o'ylashimiz bilanoq, qo'rquvning boshqa turi, shuningdek, uni yengishga qaratilgan boshqa vositalar paydo bo'ladi. Ko'plab olimlarning fikriga ko'ra, har bir insonning bir nechta tarkibiy qismlardan iborat o'ziga xos "qo'rquvlar to'plami" mavjud bo'lib, ularning aksariyati erta bolalikdan paydo bo'ladi. Ko'p odamlar qo'rquvdan uyaladilar va qo'rquv bilan qanday kurashishni o'rganish o'rmiga, uni yo'q qilish uchun spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar, dori-darmonlar kabi yo'llarni va vositalarni izlaydilar. Qo'rquvni shunchaki yo'q qilish, mensimaslik, odamlarda o'z hissiyotlari olamida muqarrar ravishda aldanib qolish, o'z qo'rquvini qanday boshqarishni o'rganmoqchi bo'lganlarni boshi berk ko'chaga olib keladi. Aynan axloqiy jihatdan to'ldirilgan shaxs tarbiyasidagi bo'shliq mana shunday holatlarda oqsoqlanib qolishiga olib keladi. Albatta, shu o'rinda axloqiy tarbiya tushunchasiga ham alohida to'xtalib o'tish joiz. Falsafa fanlari nomzodi, professor L.A. Muhamedjanova axloqiy tarbiyaga quyidagicha ta'rif berib o'tgan. "Axloqiy tarbiya insonning shaxs sifatida kamol topishini ta'minlovchi, shaxs sifatlarini boyitish, uni illatlardan xalos etishga xizmat qiluvchi uzluksiz jarayondir.

Ma'lumki, insonning fazilatlarini nafaqat insonning, balki jamiyatning ham ma'naviy boyligidir. Jamiyatda ezgu insonlar sonining ko'payishi uning ma'naviy va moddiy rivojlanishiga ta'sir qiladi, barcha ijtimoiy sohalarining rivojlanishini tezlashtiradi".

Ushbu muammoni o'rganish bilan ko'plab olimlar shug'ullangan. Bular Z. Freyd, A. Freyd, V. Frankl, E. Erikson, A. Zaxarov, Y. Shcherbatx va boshqalar. A. Freyd va Z. Freydlarning fikricha, qo'rquv har qanday xavfni kutishning affektiv holatidir. Muayyan obyektidan qo'rqish qo'rquv deb ataladi, patologik holatlarda – fobiya deyiladi. Z. Freyd o'zining "Taqiq, simptom va qo'rquv" asarida qo'rquvni, birinchi navbatda, his qilish mumkin bo'lgan narsa deb ta'riflaydi. Bu tuyg'u norozilik xususiyatiga ega. Qo'rquv ko'pincha qondirilmagan istak va ehtiyojlarning natijasidir, deya ta'rif berib o'tadi.

Jon B. Watson odamlardagi shartli qo'rquvlar hayratlanarli darajada barqaror, qo'shni vaziyatlarga o'tish oson va ko'pincha uzoq muddatli terapiyani talab qilishini aniqladi. Buning sababi shundaki, shartli qo'rquvlar o'xshash vaziyatlarga osongina tarqaladi, ammo terapiya davomida erishilgan qo'rquvni yo'q qilish shunga o'xshash holatlarga taalluqli emas deb hisoblaydi.

"Ko'pchilik o'z qo'rquvini yashirishga harakat qiladi, chunki ijtimoiy sharoitlar o'z qo'rquvini ko'rsatadigan odamlarni ayniqsa, erkaklarni qoralaydi. Shuning uchun, ko'p odamlar o'z obro'siga putur etkazmaslik uchun qo'rquvlari haqida hech kimga aytmaslikni afzal ko'rishadi".

T. Gobbsning fikricha, Qo'rquv - bu insonning tabiiy holati bo'lib, uni faqat jamiyatda yengib o'tish mumkin, deb hisoblaydi. Sivilizatsiya tarixida shunday davrlar bo'lganki, fuqarolar barqaror davlat yaratishga intilayotgan siyosiy kuch majburlash, qo'rquvni "quvib" o'z maqsadiga erishdigan. Ba'zan bu yondashuv oqlandi, inson ijtimoiy mavjudot, u "dunyo tartibi" ning markazida va atrof-muhitdagi barcha o'zgarishlar unda aks etadigan tilsimdir.

Qadim zamonlardan beri sivilizatsiya juda xilma-xil rivojlangan inson munosabatlarini tartibga solish normalari, lekin axloqiy, huquqiy va diniy (ma'naviy-axloqiy hayotning o'zagi) qonun qoidalar doimiy nazorat qilib turgan. Asosiy me'yorlar orqali odamlar o'zlarini jamiyatda belgilaydilar, o'zlarini muayyan tarixiy va hayotiy sharoitlarda yo'naltiradilar. Shaxsning jamiyatda shaxsiy fazilatlarini namoyon etishi uchun, qonun, din va axloq insonni tanlov oldiga qo'yadi. Unga ko'ra esa – vijdon yoki qo'rquv hissi bilan yashash va shu bilan birga ulardan birini yoqlash imkoniyatini beradi. Vijdon- axloqning asosiy kategoriyasi, shaxsning xulq-atvorini tartibga soluvchi va xatti-harakatlarni axloqning oliy ko'rsatmalariga muvofiqlashtiradigan ko'rsatkichdir. Ma'lumki, vijdon tufayli inson o'z xatti-harakatlarini, fikrlarini, istaklarini tanqidiy baholay oladi, har qanday vaziyatda xolisona munosabatda bo'lish, ko'tarilish va pasayishlarga munosib bardosh berishda asosiy stimul vazifasini bajaradi.

Shuningdek Qadimgi davr faylasuflaridan Aristotel, Demokrit, I. Kant, G. Gobbs, G. Gegel, M. Xaydegerning ahloqiy qarashlarilari, Daniyalik faylasuf Syuren Kerkegor, Psixoanalitik olimlar A. Freyd va Z. Freyd, E. Fromm, Jon Watson, O. V. Xuxlaeva, F. N. Ilyasov, Yu. V. Shcherbatyux, A. S. Gagarin, A. Rubtsova, Z. N. Morozkina, E. P. Ilyin, E. Kurganov, o'zbek faylasuf va olimlari N. Berdiyayev, M. G. Davletshin, A. Sher, L. A. Muhammadjonova, B. Husanovlarning qo'rquv fenomenining axloqiy jihatlari va muammolarini alohida o'rgangan faylasuflar fikr mulohazalari ahamiyatga egadir.

XXI asr kelishi bilan shiddatli sur'atlar va dahshatli stress, ham psixologik, ham hissiy tushkunliklar, asosli va asossiz qo'rquvlarni ham o'zi bilan birga olib kirdi. Ayniqsa, megapolislarda yashovchi odamlar uchun bu juda katta va

shiddatli jarayonga aylandi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, har 100 kishidan 10 tasi qo'rquv va xavotir hujumidan aziyat chekmoqda. Insonlardagi qo'rquv asosli yoki asossiz bo'lishidan qat'iy nazar insonlarning hayot tarziga, ijtimoiy, axloqiy munosabatlariga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmayabdi.

Yirik shaharlar aholisi o'rtasida qo'rquv va xavotir kuchayib borayotgani munosabati bilan ekzistensializmning asoschisi bo'lgan 19-asr daniyalik faylasufi Soren Kyerkegorning "Qo'rquv va titroq" deb nomlangan asarlarini tahlil qilishni o'rinli deb bilamiz.

S. Kyerkegor o'z asarlarida qo'rquvning falsafiy muammolarini qayd etadi. Dekart, Leybnits, Kant va, albatta Gegel bilan polemikani rivojlantiradi. Ko'pincha S. Kyerkegor qadimgi faylasuflarning merosiga ishora qiladi: Suqrot, Platon, Aristotelning asarlariga ularning fikrlarini tahlil qilishga va o'rganishga harakat qiladi. S. Kyerkegorning ijodiy faoliyati Gegel falsafiy merosini faol yoyish va shu bilan birga tanqidiy idrok etish davrida yuzaga keldi. Daniyalik mutafakkir bundan mustasno emas edi: uning o'z ta'limotida asosan Shleyermaxer, Sen-Simon, lekin asosan Gegel ta'limotlarida nasroniylikni yangilashning turli xil variantlari bilan bog'liq bahs-munozaralar natijasida yuzaga keladi.

Ilohiy prinsipning transsendentligi va tushunarsizligi tamoyillarini himoya qilgan S. Kyerkegor aynan shu yillarda nasroniy ta'limotining asl manbalariga murojaat qilish zarurligi haqidagi fikrga keladi.

S. Kyerkegor (1844) o'zining "Qo'rquv tushunchasi" falsafiy risolasida Gegel falsafiy tizimini inkor etadi. Risola shaklida taqdim etilgan "Qo'rquv tushunchasi" insonning gunoh qilish ehtimolining psixologik shartlarini o'rganishga bag'ishlangan. Kyerkegor o'z izlanishlari natijasida muammoni shakllantiradi ya'ni, "Qaysi fan gunohni o'rganishga qodir?", degan savolni o'rtaga tashlaydi.

Umuman olganda, asr Daniya faylasufi Soren Kierkegorning "Qo'rquv tushunchasi" risolasi hanuzgacha dolzarbdir, chunki unda mutafakkir qo'rquvning mazmunini, uning tarkibiy qismlarini ochib beradi, qo'rquvni gunohning zaruriy sharti sifatida tushunadi, ehtiyoj qo'rquvi tushunchasiga to'xtalar ekan, S. Kyerkegor insonning erkin tanlash huquqiga ega ekanligiga ishora qiladi: gunoh qilish yoki qilmaslik kabi insonning tanlovi kabi. O'z – o'zidan ko'rinadiki, mana shu gunoh qilish yoki qilmaslik tanlovi oldidagi insonning qo'rquvi aynan axloqiy tarbiyasiga borib taqadi.

Differensial hissiyotlar nazariyasiga ko'ra, qo'rquv - bu qat'iy belgilangan somatik va psixologik tarkibiy qismlarga ega bo'lgan tug'ma, genetik jihatdan berilgan asosiy inson tuyg'usi: o'ziga xos fiziologik alomatlar va o'ziga xos subyektiv hisslardir. Ha, qo'rquv nazorat, chegaralar va hatto axloqiy ko'rsatmalar beradi. Ammo hayotimizning o'zi ko'pincha shunday bo'ladiki, butunlay boshqacha haqiqatni xohlaydigan shaxsga umuman to'g'ri kelmaydigan narsa sodir bo'ladi. Shuni yodda tutish kerakki, qo'rquv butunlay boshqacha shakl va yuzlarni olishi mumkin, ba'zida bir-biriga to'g'ri kelmaydi.

U turli nuqtai nazarlarda mavjud: ijobiy, uyg'un, chuqur ijodiy va salbiy, qorong'u, shaxsiyat va sivilizatsiyani buzuvchi.

Demak, qo'rquv sivilizatsiyaning boshida turadi va chuqur dinamik omil bo'lib, boshqa tomondan, insoniyatning barqaror dunyosini buzadigan sivilizatsiya uchun eng katta xavf hisoblanadi.

Riki Emanuel "Qo'rquv" asarida psixolog Melanie Kleinning tadqiqotlariga tayanib, juda to'g'ri yozganidek, "qo'rquv shaxsning rivojlanishini rag'batlantiradigan asosiy motivatsiya sifatida ko'rilgan, garchi haddan tashqari qo'rquv,

---

agar u nazoratdan chiqib ketsa, u ham qo'rquvga olib kelishi mumkin".

#### ADABIYOTLAR

1. Мухамеджанова Л.А. Роль нравственного воспитания в развитии личности. ВЕСТНИК Евразийского национального университета имени Гумилева Л.Н. 124С.
2. Freyd A. "Men" psixologiyasi va mudofaa mexanizmlari - M.: "Ta'lim" 1993-y.
3. Freyd Z. "Ta'lim, simptom va qo'rquv" (2001).
4. Jon Watson D.B. Psixologiya xulq-atvor haqidagi fan sifatida. // Klassik asarlarda psixologiyaning asosiy yo'nalishlari. Bixeviorizm. 1998. Moskva: "AST-LTD nashriyoti".
5. Shcherbatyx Y.V. Qo'rquvdan xalos bo'ling. - 2011. M.: Eksmo.
6. Hobbs T. Levia fan. M., 2001. S. 478.
7. Emanuel R. Qo'rquv. M., 2002. S. 23.
8. Kierkegaard S. Qo'rquv va titroq. M.: Respublika, 1993. 127-b.



UDK:32.019.51

*Hulya MAMMADLI,*

*Doctoral student at the Institute of Philosophy and  
Sociology of the Azerbaijan National Academy of Sciences  
E-mail: hulya.mammadli@yahoo.com*

*Reviewed by H.Mammadov, Doctor of Political Science, Professor of BSU (Baku State University)*

### MODERNIZATION IN THE CONTEXT OF GLOBAL CHALLENGES AND NATIONAL INTERESTS

Annotation

The article studies modern approaches to the theory of modernization and its reconciliation with the realities of the current world. A critical analysis of postmodernization and postmodern state, which is presented as an alternative to modernization, is given, and it is claimed that it is no more sustainable and efficient in the face of global challenges. A brief look at the modernization models of Azerbaijan, Turkey, Kazakhstan and China is given, and it is stated that the modernization process serves the purpose of reaching the level of development of advanced countries without jeopardizing national interests and values.

**Key words:** Modernization, postmodernization, development, globalization, national interests.

### МОДЕРНИЗАЦИЯ В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНЫХ ВЫЗОВОВ И НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНТЕРЕСОВ

Аннотация

В статье исследуются современные подходы к теории модернизации и ее согласование с реалиями современного мира. Дается критический анализ постмодернизации и постмодернистского государства, которое представляется как альтернатива модернизации, и утверждается, что оно не является более устойчивым и эффективным перед лицом глобальных вызовов. Дается краткий обзор моделей модернизации Азербайджана, Турции, Казахстана и Китая и констатируется, что процесс модернизации служит цели достижения уровня развития передовых стран без ущерба для национальных интересов и ценностей.

**Ключевые слова:** Модернизация, постмодернизация, развитие, глобализация, национальные интересы.

### GLOBAL MUAMMOLAR VA MILLIY MANFAATLAR MAZMUNIDA MODERNIZATSIYA

Annotatsiya

Maqolada modernizatsiya nazariyasiga zamonaviy yondashuvlar va uning zamonaviy dunyo haqiqatlari bilan uyg'unligi ko'rib chiqiladi. Modernizatsiyaga muqobil sifatida taqdim etilgan postmodernizatsiya va postmodern davlatning tanqidiy tahlili berilgan va u global muammolar oldida barqaror va samarali emasligi ta'kidlangan. Ozarbayjon, Turkiya, Qozog'iston va Xitoyning modernizatsiya modellari haqida qisqacha ma'lumot berilib, modernizatsiya jarayoni milliy manfaat va qadriyatlariga ziyon yetkazmagan holda ilg'or mamlakatlarning rivojlanish darajasiga erishish maqsadlariga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** Modernizatsiya, postmodernizatsiya, taraqqiyot, globallashuv, milliy manfaatlar.

**Introduction.** In the 20<sup>th</sup> century modernization was considered as a path of European style development that eventually all countries and societies would embrace. Since the second half of the last century it has become more and more obvious that even though economic and technologic achievements of developed Western countries are attractive for most of the world, some of the core principles and values of liberal democracy are not suitable for everyone. Moreover, modernization in latest decades is more about finding alternative ways to quickly reach the development level of liberal western countries, besides, not excluding the opportunities that allow benefiting from experience and knowledge of the West. Unlike classical modernization, contemporary modernization mindset has a more critical approach to liberal democracies and sometimes views them as rivals rather than role models. From the perspective of international relations, "modernization is the international competition between different civilizations which are affected by national interests and the international environment" [1].

**Literature review.** Some scholars including R.Inghehart and B.Wayne [2] criticize modernization for being pro-Western and Eurocentric. Contemporary modernization theorists as well as P.Blokker [3], A.Martinelli [4] and C.He [5] admit classical modernization theory's deficiencies and

present valuable works to update it and make it relevant to present-day social, economic and political realities.

Despite of criticism towards the classical modernization theory by S.Chew, P.Lauderdale [6] and others it has gained new aspects and retained popularity in some non-Western countries, especially developing ones. Academic circles of China play a leading role in contemporary studies of modernization by constantly holding large-scale international forums on the topic.

**Research methodology.** The article provides different models of modernization which are studied through the method of comparative analysis. By relying on examples of certain countries (Azerbaijan, China, Kazakhstan, Turkiye), we argue that modernization in the 21<sup>st</sup> century has a very different spirit and goal than the classical modernization aspirations. In order to support the viability of modernization as a present-day theory and path of development (thesis), we present the criticism of a contradicting theory by analyzing postmodernisation (antithesis) in the context of current global challenges and national interests. Generalized considerations and conclusions were obtained from the analysis of individual models and relevant studies as well.

**Analysis and results.** While analyzing relevance of modernization theory for many non-Western communities, we will draw attention to the challenges that postmodernism faces

today. Postmodernist governance and liberal values have been challenged by processes of a global scale. Globalization provokes a number of challenges, including inequality, cross-border criminality, pandemics, disinformation, extremism and geopolitical confrontation in front of present modernization concepts and countries.

R.Inglehart, who is one of the founders of postmodernization theory, indicates decline in importance of strong leadership, decreasing state participation in economic process, increase in self-expression and political participation, preferring personal desires over traditional family set-up and arising of a new and non-conventional family model, losing of absoluteness of religious doctrines, decline in affiliation of individuals with the Church, religious organizations and religious communities, replacement of xenophobia and fundamentalism with curiosity towards different values and considering them exotic, among postmodern values [7]. As C.He states, postmodernization theory has more practical value for advanced countries for having completed classical modernization and need new theories to guide them [1].

We can determine two main crises of postmodernization and postmodern governance as follows:

1) Postmodernist governance faces difficulties caused by global problems and challenges of the 21<sup>st</sup> century;

2) Stalemate of postmodernist governance at the backdrop of existing problems provokes crisis of postmodern values.

We can have a look at the above-stated problems by the example of processes inside the European Union. R.Cooper considers the international relations system based on modern national states to be strongly prone to conflicts. Therefore, he presents the European Union as an alternative to traditional modern national states, calling the EU a "postmodern system" or a "postmodern imperialism". He denotes reciprocal interference into domestic policies of the states, joint intelligence, collective defense, borders losing their significance, increase of transparency and interdependence as characteristics of postmodern imperialism [8].

Despite of its strong sides, the EU fails to demonstrate that it is more effective in combating non-traditional sources of threats, in particular when it comes to terrorism, extremism and pandemics. In parallel to these problems, rise of euroscepticism in public opinion led to holding referenda on whether to remain or not in the European Union in some member states. Brexit happened in 2020. Besides, we witness right-wing parties winning more votes at elections and enhancing their visibility and role in political arena. These demonstrate serious ideological, political and structural crisis of the European Union, which is deemed to be the foremost postmodern state case [9]. Strengthening right-wing and Islamophobic views and enhancing their visibility and role in political arena clearly undermine tolerance and leads to violation of human rights, which both are cherished in postmodern liberalism.

As many countries in the world, EU members were also challenged by the COVID-19 pandemic. Some member states, such as Italy, experienced the worst outbreak of the pandemic and serious healthcare crisis. Regarding the issues, such as access to vaccines and post-pandemic recovery, we see that overall wealthier countries, regardless of their political systems, produce better results.

All stated above demonstrate that postmodern policy and postmodernist governance are not ready to tackle global problems more effectively than more traditional policies. Today, when the importance of security factor is growing, sovereignty and strong internal security of a national state, the key product of modernity, are of more functional nature.

Modern-day challenges and external influences that many states have to face, as well as specific reaction of those states to such exposure have resulted in modifications in modernization paradigm. For instance, in 1920's, Türkiye abandoned traditionalism inherited from the Ottoman Empire and embarked on a course of modernization under the leadership of M.K.Ataturk. At the very beginning, a portion of Turkish intellectuals believed modernization was just a bare "westernization" and took the path of rejecting Turkish national and moral identity [10]. But eventually, independent mindset emerged in this regard and they managed to get rid of perception of cultural "backwardness" of Türkiye as compared to the developed Western states.

As for the current situation, besides ensuring compliance of its political system to modern democracy principles, the Justice and Development Party (AK Party), supported by significant part of Turkish population, prefers conservative approach derived from religious values on social issues. When the AK Party came to power in the early 2000s, it presented itself as a conservative democrat. While this meant the application of the principles of liberal democracy in the political sphere and cooperation with the West, it favored religious-conservative views on social issues. In recent years, the AK Party is considered to be in a nationalist conservative position, establishing stronger ties with countries that are close to Türkiye by ethnic and religious identities [11]. Indeed, Türkiye's strengthened relations with Azerbaijan and the Turkic states of Central Asia, its active participation in the activities of the Organization of Turkic States, and the fact that it does not hesitate to openly disagree with the West - the United States and a number of European states - on matters of national interest, confirm the change in the AK Party's policies.

Kazakhstan, like other former Soviet nations, went through the path of modernization during the USSR, and after gaining independence, it faced the need to develop on the basis of its national statehood and reach advanced countries. Former President N.Nazarbayev highlighted protection of national culture and traditions as the crucial prerequisite for successful modernization. But he strongly opposed impulsive and total conservatism [12]. According to A.Chebortayov, there is a good basis for continuing the process of political modernization within the framework of the official course pursued by the current President [13]. In Kazakhstan, personality, leadership factor and national values play crucial role as well, but in contrast to Türkiye, much more dedicated to the principle of secularism.

China pursues its own specific modernization line, and also promotes it globally. Although one-party socialist system is retained in political sphere, the country undergoes a rapid economic and social transformation. Since the end of 1970's China has conducted open economy policy. "China-specific socialism building" concept became the country's ideological beacon. Chinese modernization is deemed as cutting-edge industry, agriculture, science, culture, services, high living standards and adequate defense-based national state building [14]. Patriarchalism, respect for older people and other principles stemming from Confucianism philosophy as a part of Chinese culture still remain one of the components of realities of modernizing China.

China makes attempts to assess the modernization theory in the context of contemporary global processes and to attract scholars from all over the world to this process. China Center for Modernization Research founded within the Chinese Academy of Sciences in 2002 and several other Chinese universities and research centers have co-organized several International Modernization Forums since 2013. China does not hesitate to present its model of modernization and development which is called "socialism with Chinese

characteristics" as an alternative and even competitor against Western liberal democracy.

Upon regaining independence in 1991, Azerbaijan also faced necessity to catch up the development rate of the most progressive nations. The relevant statements of Ilham Aliyev, the country's President clearly indicate that Azerbaijan's path of development incorporates convergence model of traditions and modernity [15].

According to S.Hasanova, modernization course taken in Azerbaijan in recent years, as well as government-backed economic liberalization, support for civil society development, the rule of law and democratic statehood building indicate that democratization is real yet it has a specific nature [16].

Public administration and political reforms are in the center of the political modernization in recent years in Azerbaijan (Table).

**Table: Main directions of political modernization in Azerbaijan in last decade**

<b>POLITICAL MODERNIZATION IN AZERBAIJAN</b>	
<b>Public administration reforms</b>	<b>Political reforms</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Establishment of more flexible public service agencies and bodies that diminish bureaucracy:               <ul style="list-style-type: none"> <li>- Institution of a Special Representative of the President of Azerbaijan</li> <li>- State Agency for Public Service and Social Innovations (ASAN Service) under the President of Azerbaijan</li> <li>- Agency for Sustainable and Operative Social Provision (DOST Agency) under the Ministry of Labor and Social Protection of Population of Azerbaijan</li> </ul> </li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Developing political culture and improving political atmosphere by expanding dialogue:               <ul style="list-style-type: none"> <li>- within the political system</li> <li>- between the government and political parties</li> <li>- among political parties</li> </ul> </li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Fighting corruption and bribery within the system and personnel reforms in the government</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Increasing competitiveness and transparency in elections</li> </ul>

Azerbaijanism, an ideology developed by former President Heydar Aliyev and supported by the ruling New Azerbaijan Party [17] is viewed as a mixture of traditionalism and modernity, which includes some or many aspects of nationalism, patriotism, etatism, economic liberalism, multiculturalism, pluralism and respect to human rights and freedoms. Such blend of conservative and liberal values is aimed at protecting national sovereignty and national identity from influences of globalization and westernization in the process of political, economic and social transformation and modernization.

**Conclusion/Recommendations.** Despite of domination of the West in construing theoretical foundations of modernization as well as other areas of life, modernization

process didn't result in establishment of ultraliberal Western values many other developing societies and replacement of national mindset with Western one. There exists an established opinion in the academic and political circles that each country and society can determine its own path of development and its own concept of "modernity". Modern approaches to this theory allow its application in accordance with political and socio-cultural characteristics and national interests of each country. Considering the fact that the most part of the developing world is not ready to accept all of the Western liberal values and way of life, it is important to continue and deepen studies on ideological and moral aspects of modernization and their importance for preserving national identity and protecting national interests.

#### REFERENCES

1. He C. Modernization Science: The Principles and Methods of National Advancement. Springer-Verlag Berlin Heidelberg, 2012 – 648 p.
2. Inglehart R., Wayne B. Modernization, cultural change and the persistence of traditional values // American Sociological Review, 2000, Vol. 65 – pp.19-51.
3. Blokker P. Post-Communist Modernization, Transition Studies, and Diversity in Europe // European Journal of Social Theory, 2005, 8(4) – pp.503-525.
4. Martinelli A. Global Modernization: Rethinking the Project of Modernity. – SAGE Publications Ltd; 2005, 1<sup>st</sup> edition – pp. 55-82
5. He C. Modernization Science and Modernization Policy. // Global Modernization Review, 2015 – pp.41-55.
6. Chew S., Lauderdale P., eds. Theory and methodology of world development: The writings of Andre Gunder Frank. – London, Palgrave Macmillan, 2010 – 285 p.
7. Inglehart R. Modernization and postmodernization: cultural, economic and political change in 43 societies. – New Jersey, Princeton University Press, 1997 – 455 p.
8. Cooper R. The Post-Modern State. // Re-Ordering the World. Ed-ed by Leonard M. – The Foreign Policy Centre, London, 2002 – pp.11-21.
9. Ksenofobiya ve sagh radikalizminin yukselishi: Avropa Ittifaqi sinag garshisinda [Xenophobia and the rise of right-wing radicalism: the European Union faces a challenge]. <http://newtimes.az/az/politics/4075/> (retrieved 11.02.2023).
10. Bilgin V. 21. yuzyilda turk modernleşmesinde paradigma deęişimi [Paradigm change in Turkish modernization in the 21st century] // G.U. İ.İ.B.F. 2002, Özel sayisi / Special issue – pp.65-81.
11. Ozer B. Adalet ve Kalkinma Partisi'nin muhafazakarlik anlayishi uzerine bir degherlendirme [An evaluation of the Justice and Development Party's conception of conservatism]. Medeniyet Araştırmaları Dergisi [Journal of Civilization Studies], 2019, Vol. 4, Issue 1 – pp.43-59.
12. Course towards the future: modernization of Kazakhstan's identity [http://www.akorda.kz/en/events/akorda\\_news/press\\_conferences/course-towards-the-future-modernization-of-kazakhstans-identity](http://www.akorda.kz/en/events/akorda_news/press_conferences/course-towards-the-future-modernization-of-kazakhstans-identity) (retrieved 16.02.2023).

13. Chebotaryov A. Istoriya nezavisimogo Kazakhstana: politicheskaya modernizatsiya [History of independent Kazakhstan: political modernization] / Almati: "Zhibek zholy», 2022 — 316 p.
14. Dauyen B., Aldabek A. The Role of the Dominant Party of the Republic of Kazakhstan and China's Ruling Party in a Country's Modernization: Similarities and Differences // International Journal of Social, Behavioral, Educational, Economic, Business and Industrial Engineering, 2012, Vol: 6, No:11 – pp.3158-3162.
15. Aliyev Ilham attended the Third Congress of World Azerbaijanis <https://president.az/en/articles/view/2709> (retrieved 26.01.2023).
16. Hasanova S. Problema pereotsenki npravstvennikh tsennostey v epokhu globalizatsii i modernizatsii [The problem of reassessment of moral values in the era of globalization and modernization] // "Elmi eserler", Baku, 2011, No1 (16) – pp.59-65.
17. Yeni Azerbaijan Partiyasi. Senedler toplusu [New Azerbaijan Party. Collection of documents]. Baku, 2022, 135 p.



УДК:316.422.4:101.8:17.022.1

*Лалихон МУХАМЕДЖАНОВА,*  
Профессор Национальный университет Узбекистана, к.ф.н.  
E-mail:Lalixon@list.ru

На основании отзыва PhD, и.о. доцента НУУз А.И.Туляева

## ФИЛОСОФСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ КОНЦЕПЦИЙ МОДЕРНИЗАЦИИ ОБЩЕСТВА И НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация

В статье анализируется философская классификация концепций модернизации общества и нравственных ценностей. Раскрыта роль нравственных ценностей в воспитании молодежи. Также, в статье рассмотрены национальные нравственные ценности, которые занимают большое место в общественной жизни. Изучены средства нравственного воспитания. В целом, в статье обсуждается важность нравственности в обеспечении гармонии традиционных и современных ценностей, и раскрыта классификация концепций модернизации общества и нравственных ценностей. Итак, в статье обсуждается важность нравственности в обеспечении гармонии традиционных и современных ценностей, и раскрыта классификация концепций модернизации общества и нравственных ценностей.

**Ключевые слова:** Нравственные ценности, человек и общество, нравственная культура, нормы нравственности человека, личные ценности, природная – социальная среда свобода, равенство, братство.

## PHILOSOPHICAL CLASSIFICATION OF THE CONCEPTS OF MODERNIZATION OF SOCIETY AND MORAL VALUES

Annotation

The article discusses the philosophical classification of the concepts of modernization of society and moral values and reveals the role of moral and values in the education of young people. From the first days of gaining independence and freedom, Uzbekistan set itself the goal of creating conditions for a happy and prosperous life for our people. Man lives in a world of countless values throughout his life. Values, which are the most important aspects of existence, the natural and social environment surrounding humanity, animate and inanimate nature, have a universal character. Values, which are the most important aspects of existence, the natural and social environment surrounding humanity, animate and inanimate nature, have a universal character. Such values are eternal, absolute and sacred values that never lose their significance for society. В статье перечислены национальные нравственные ценности, занимающие большое место в нашей общественной жизни.

**Key words:** Moral values, man and society, moral culture, norms of human morality, personal values, natural - social environment freedom, equality, brotherhood.

## JAMIYATNI MODYERNIZATSIYALASH VA AXLOQIY QADRIYATLAR TUSHUNCHALARINING FALSAFIY TASNIFI

Annotatsiya

Maqolada jamiyat va axloqiy qadriyatlarni modernizatsiya qilish tushunchalarining falsafiy tasnifi tahlil qilinadi. Yoshlar tarbiyasida axloqiy qadriyatlarning o'rnini ochib berilgan. Shuningdek, maqolada ijtimoiy hayotda katta o'rin egallagan milliy axloqiy qadriyatlar haqida so'z boradi. Umuman olganda, maqolada an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlashda axloqning ahamiyati haqida so'z yuritilib, jamiyatni modernizatsiya qilish tushunchalari va axloqiy qadriyatlar tasnifi ochib berilgan. Shunday qilib, maqolada an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlashda axloqning ahamiyati haqida so'z yuritilib, jamiyatni modernizatsiya qilish tushunchalari va axloqiy qadriyatlar tasnifi ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Axloqiy qadriyatlar, inson va jamiyat, axloqiy madaniyat, inson axloq normalari, shaxsiy qadriyatlar, tabiiy – ijtimoiy muhit – erkinlik, tenglik, birodarlik.

**Введение.** В процессе развития и совершенствования общества на основе демократических преобразований в Узбекистане реализуются комплексные меры по решению проблем, связанных с модернизацией. В процессе модернизации общества, построения в Узбекистане правового демократического государства нравственные ценности в формировании гражданского общества:

Во-первых, узбекский народ поощряет и гарантирует мирную жизнь всем гражданам, независимо от национальности, религии, языка, расы, демонстрируя свои национальные моральные ценности - терпение, общность, взаимопомощь, великодушие, стремление к миру, благодарность.

Во-вторых, такие моральные качества, как узбекская предприимчивость, инициативность, любовь к Родине, экономичность, безотходность, экономия всего и использование этого для укрепления экономики общества и гарантирования выживания народа в условиях полноценной и богатой экономической жизни, основанной на рыночной экономике.

В-третьих, тысячи советов, направленных на формирование нравственной зрелости человека нравственно-духовным наследием, оставленным предками, служат принятию решений о нравственно-духовной жизни нового смысла как нравственных ценностей, являющихся предвестником духовности нации.

В-четвертых, нравственные ценности считаются самым действенным инструментом духовного развития человека. Благодаря ему у каждого ребенка появилось глубокое понимание верного служения Родине.

В-пятых, моральные ценности узбекского народа служат «зеркалом» на международной арене. Благодаря этому все нации и народы мира признают наш народ миролюбивым, гостеприимным, вежливым, трудолюбивым, образованным и великодушным. Именно поэтому международное сообщество считает независимое государство Узбекистан своим надежным партнером.

В-шестых, у каждого человека, народа, нации есть критерии, измеряющие уровень нравственной жизни. Одному из этих критериев соответствуют нравственные ценности. Корни моральных ценностей очень древние, опирающиеся на светскую и религиозную почву, воплощающие в себе лучшее производное от связи цивилизаций, только людям, национальностям и элитам, которые могут проявить активность в реальной жизни, посчастливится жить мирно, полноценно и богато и воспитать идеальных людей.

Все вышеперечисленное является нашими национальными нравственными ценностями и занимает большое место в нашей общественной жизни. Человек живет в мире бесчисленных ценностей на протяжении всей своей жизни. Ценности, представляющие собой важнейшие стороны существования, природную и социальную среду, окружающую человечество, живую и неживую природу, имеют универсальный характер. Такие ценности являются вечными, абсолютными и священными ценностями, которые никогда не теряют своего значения для общества.

Модернизация предполагает системное обновление всего социума. Именно поэтому существует большое множество различных определений модернизации, раскрывающих различные ее аспекты. Модерн как историческая эпоха характеризуется особым типом научного, рационального и философского мышления. Эпоха модерна формировала мировоззрение, характерными чертами которого были вера в науку, возможность человека познать мир как некое единое целое, убежденность в существовании объективных законов природы и общества, и возможности их использования для преобразования мира. В.В. Лапкин говорит что «модернизация все чаще сталкивается с разного рода культурными препятствиями, которые разрушают универсальность исходного европейского модерна» [1].

По мнению философа О.Б. Бальчиндоржиева «Происходит разрушение окружающей среды, наносится ущерб нравственному здоровью отдельного человека и общества в целом, появляются элементы дезинтеграции и отчуждения между людьми. В этой ситуации многие ученые пытаются искать новые ориентиры развития» [2].

**Методы исследования.** Раскрытие рассматриваемой темы основано на междисциплинарном подходе. Методами данного исследования являются анализ, обобщение, интерпретация, также проблема рассматривается с аксиологической точки зрения.

**Обсуждение.** Следует подчеркнуть, что процесс модернизации в каждой стране требует проведения глубоких реформ в приоритетных сферах жизни общества. В результате в обществе происходят трансформационные процессы отката от традиционализма, ликвидации старых пережитков и эволюционные позитивные изменения. Широкое распространение образования, повышение профессионального мастерства (профессионализма), формирование интеллектуальных специальных

профессиональных институтов, развитие средств массовой коммуникации, новых индивидуальных привычек, адаптирующихся к расширяющемуся социальному пространству, расширение круга интересов, повышение доверия к науке и технике и произойдет изменение отношения к человеческому достоинству. В духовной сфере происходит культурное расслоение, секуляризация общественного сознания, рост грамотности, превращение науки и техники в ценности.

Однако во второй половине XX века «миграция» процессов демократизации в страны Востока, неготовность широкой общественности к свободе и прозрачности создали для этих обществ новые проблемы.

Особенно в условиях глобализации, когда западные ценности и свободы вышли за национальные границы, это увеличило различные риски внутри страны. На наш взгляд, демократия сама по себе не способна коренным образом изменить сущность общества, то есть людей, через новые элиты, новые убеждения и новый светский строй, то есть не может противостоять давлению национальных идеологий.

Неожиданные кризисы в жизни общества влияют на политический процесс и национальное развитие в стране. Отмечено, что новые проблемы и социальные кризисы возникают особенно в условиях демократических реформ, начатых без учета уровня политической подготовки, национального самосознания и культуры граждан страны. В этих процессах также могут наблюдаться случаи обесценивания ценностей.

Определения понятия ценности с точки зрения социальной философии указывают на существование различных подходов в большинстве научной литературы, и иногда встречаются случаи их полного отрицания.

Формирование ценности человеческого бытия – это сложный процесс, который охватывает как морально-эстетическую, правовую сферы общества, так и сферу общественного сознания. Главный фундамент человеческого «я», бытия, обогащается ценностью, восполняется. В своей практической деятельности люди удовлетворяют естественные запросы и потребности, необходимые для жизни, используя свойства предметов и явлений. Например, жажда человека утоляется водой, голод хлебом, а кислород удовлетворяет потребности организма в нем за счет дыхания. Вот почему мы ценим эти «благословения».

Доброта – это качество в сочетании с великодушием, человеческая добродетель, духовная характеристика нашего народа, национальная ценность. Человечность – одно из высших духовных качеств, и воспитание, выражающее характеристику, связанную с бескорыстной помощью, служением ближнему, выполнением человеческого долга, также является нравственным качеством, что означает, что человечность – это проявление принципов доброты, сострадания, гуманности в межличностных отношениях.

Человечность – одна из древнейших духовных ценностей, она ярко проявилась в таких чувствах, как взаимная доброта, бескорыстная помощь, милосердие, щедрость.

Сострадание — это понятие, выражающее чувство сострадания, доброты и заботы о других. Суть доброты в том, чтобы уважать людей, знать им цену и проявлять к ним доброту. Доброта проявляется в таких человеческих качествах, как проявление доброты к другим и оказание практической помощи. Сострадание и доброта в человеке – признак его духовной красоты, обладателя тонкой натуры, а также сострадание обогащается положительными качествами. Сострадательный человек доброта свидетельствуют о его душевной красоте,

обладателе тонкой натуры, а доброта обогащается положительными качествами. Миллий ва умуминсоний кадриятларнинг уйғунлиги юксак аҳамиятга эга. Гармония национальных и общечеловеческих ценностей имеет большое значение. Философ и ученый Киямиддин Назаров так определяет общечеловеческие ценности – общечеловеческие ценности представляют собой чрезвычайно широкое и разнообразное образование, которое представляет собой систему общезначимых ценностей, считающихся единым ценностным критерием для всех людей, наций и государств в мире[3].

Оно не состоит из воспитания универсального смысла-осмысленности, такой как свобода, раскрепощенность, мир, счастье. И нельзя сказать, что его уместно понимать только как культурное достояние. В то же время определенные национальные, этнические и иные частные системы ценностей не могут заменить общечеловеческие ценности. Анализ общечеловеческой системы ценностей и ее форм проявления – это, по сути, изучение общей системы, взаимоотношений между ее основными частями, компоненты которых диалектически связаны друг с другом. Общечеловеческие ценности образуют систему, общую для всех людей, живущих в определенный период развития общества, и проявляются в непрерывной связи с другими принципами, в необходимой связи. Проявления общечеловеческих ценностей имеют относительный характер, но эта относительность не всегда заметна. Это проявляется (объективно) в процессе исторического развития, в результате спроса, потребностей общества и людей (субъективным образом). Из форм общечеловеческих ценностей то одна, то другая выдвигаются в центр общей системы, на передний план жизни, например, когда на земле господствуют враги – свобода, независимость; когда независимости страны угрожает опасность – патриотизм; в эпоху национального самоопределения – осознание и национальное пробуждение – желание изучать историческое и культурное наследие. Таким образом, в развитии социальных процессов актуальность одной формы общечеловеческих ценностей несколько размывает необходимость других, одни из них кажутся более близкими к идеальному состоянию, другие далекими от него.

Есть ряд причин, по которым общечеловеческие ценности сегодня стали общим стандартом для всех:

а) Тот факт, что наша планета является самым обычным и, в то же время, уникальным местом в бесконечной вселенной, все больше ощущается всеми людьми в мире, независимо от их расы, национальности, вероисповедания и других естественно-исторических и социальных характеристики;

б) Стала ощущаться социальная пестрота, политическая и идеологическая мира, различные потребности, интересы, цели, устремления, поведение, потребность в самых общих духовных критериях, соответствующих требованиям развития деятельности;

в) В результате столкновения с такими угрозами, как оружие массового поражения, ядерная война, экологический кризис и духовный упадок, будущее человечества, судьба общего генофонда населения планеты находится в опасности, сохранение чрезвычайно важное значение приобретают цивилизации, к которым принадлежит нынешнее поколение человечества;

г) Независимо от того, в каких социальных системах и государствах живут люди, везде главной целью является человек, его жизнь, интересы, права и свободы, универсальные технологии и научные достижения мирового значения в обеспечении осмысленной, полноценной и благополучной жизни для

людей и общность возможностей их применения во всех действиях объясняется растущим осознанием необходимости глобального сотрудничества для реализации этих возможностей. По этой причине в годы независимости в нашей стране большое внимание уделялось принципу приоритета общечеловеческих ценностей. Неслучайно эти ценности стали главными критериями реформ и кардинальных изменений, осуществляемых в нашем обществе[4].

Обесценивания ценностей – это понятие, означающее процесс, при котором определенная ценность или система ценностей теряет или понижает свою ценность, утрату человеком престижа, статуса, смысла быть забытым.

Общая обесценивания ценностей, происходящая в развитии общества, есть процесс постепенный, а не внезапно, в одночасье или внезапно. В истории человечества известно, что государства и империи, система ценностей которых была обесценена, пришли в упадок и исчезли. Это может быть вызвано чрезмерным преувеличением, абсолютизацией или характеристикой определенной ценности или нескольких форм ценности, превращением их неправильного отношения в последовательный метод политики. В этом случае ценности теряют свою сущность, как общий критерий жизни и деятельности людей, как идеал, к которому они стремятся, или как критерий, объединяющий и мобилизующий их к определенным целям. Сложные исторические события XX века по-разному повлияли на систему ценностей всех бывших советских и бывших социалистических стран, но сыграли особо важную роль в своеобразной культурной жизни народов Средней Азии. Серьезной трансформации подверглась вся система ценностей этих народов (религиозные ценности, национальные потребности, специфические явления духовной культуры, родные языки, менталитет народов и т. Д.). В условиях происходящих сегодня процессов национального возрождения возникла необходимость философски осмыслить понятие и сущность системы ценностей народов Центральной Азии и их трансформацию в XX и начале XXI веков. Эти преобразования можно рассматривать в «общенациональном» контексте. С одной стороны, необходимо помнить, что вся заветная система любого общества – наука, философия, искусство, литература – не ограничивается только национальными традициями, поскольку человек уникален не только как биологическое существо, но и как социальное существо. Это особенно актуально в нынешний динамичный период, когда развились современные системы информатизации, компьютеризации, быстрой связи. Жизненные интересы и основные проблемы всех стран и континентов совпадают в важнейших отношениях. Общечеловеческие проблемы требуют формирования системы общечеловеческих ценностей. С другой стороны, необходимо воспитывать молодежь в духе уважения к национальным традициям, обычаям, обычаям, национальному языку и искусству с учетом диалектики национального (как единого), регионального (как личности), универсальные (общие, валовые) ценности. Можно полагать, что если человек знает и принимает национальную культуру, историю и духовные ценности своего народа, то он будет также принимать культуру и философию других народов мира и иметь о них собственное независимое мнение.

Несмотря на то, что многие традиции, обычаи и другие элементы системы ценностей народов сохранялись на протяжении всего XX века, многие компоненты этой системы претерпели трансформацию. В то время как ряд традиций полностью исчезли, другие изменили свое

внутреннее ценностное содержание. В семейные, бытовые, праздничные традиции вошли многие новые элементы, появились принципиально новые виды художественной культуры.

Одной из важных задач нравственного воспитания в условиях модернизации является воспитание национальной гордости. Национальная гордость – понятие, выражающее чувство гордости за материальные или духовные достижения, успехи нации. Он показывает один из аспектов духовной зрелости человека.

Национальная гордость – это отношение бесконечного уважения и благоговения ко всему материальному и духовному богатству, историческому наследию, обычаям, традициям, нравам, образу жизни, высокому нраву, всем историческим достижениям и урокам своего народа, которое создавалось веками.

Люди, не заботящиеся о будущем своего народа, не знающие, не ценящие свою историю, национальные ценности, язык и интересы, забывающие свою национальную принадлежность, не имеющие национальной гордости, гордости за нацию. Мы не можем назвать таких людей духовно совершенными людьми. Восстановление и возвращение национальной гордости – одна из приоритетных задач в нашей духовной жизни.

Человеку свойственно ассоциировать себя с определенной социальной группой, классом, нацией, государством, регионом, эпохой или династией. В связи с обновлением общества в периоды коренных поворотов исторического развития народов, наций, восстановление и культивирование национальной гордости остается непосредственно связанным со строительством национальной государственности. Это фактор доведения до сознания и сердца молодежи национальных духовных и культурных ценностей, подпитывания ее духовным богатством, созданным предками, возрождения и возвращения национальной гордости. Это осуществляется через изучение, понимание, высокую оценку истории нации.

Воспитание – понятие, служащее для передачи межпоколенческого общественно-исторического и

жизненного опыта, и означающее процесс формирования и совершенствования физически здоровой, интеллектуально зрелой личности под влиянием семьи, образовательных учреждений, общественных, политических и иных организаций, средств массовой информации и другие. Воспитание воплощает в себе совокупность индивидуальных и социальных, сознательных и бессознательных воздействий на человека, направлено на личность, определенную общность, народ или нацию, имеет важное значение в построении и развитии государства и общества.

Различные общественные организации, наука, техника, литература, искусство, средства массовой информации, радио и телевидение, пропагандистская работа также оказывают сильное влияние на социальное воспитание. Медицинское обследование подрастающего поколения, физическая подготовка также включены в воспитание. Как известно, основных видов воспитания два: семейное и социальное, семейное воспитание – это воспитание детей в семье родителями, бабушками и дедушками, в целом старшими родственниками. Согласно исконно узбекской культуре, наряду с родителями дедушки и бабушки имеют сильное воспитательное влияние, так как при жизни бабушки и дедушки были духовными лидерами семьи. Чем упорядоченнее, воспитаннее семья, чем искреннее отношения между ее членами, тем эффективнее будет семейное воспитание.

**Заключение.** В заключение стоит отметить, что сегодня воспитание совершенного человека является одной из приоритетных задач государственной политики. Совершенный человек – это тот, кто обладает основой мирских и религиозных знаний, имеет полезную профессию, самостоятелен, свободомыслен, воплощает в себе высокие морально-эстетические качества, здоров, верен общечеловеческим и национальным ценностям, честно трудится на развитие народа и нации, вождь Родины, человек, не жалеющий своей жизни во имя свободы и процветания.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Лапкин В.В. Размышления о соразмерности глобальности и модерна // Мегатренды мирового развития. М., 2001.
2. Бальчиндоржиева Баировна Оюна Философские аспекты проблемы модернизации//Вестник БГУ. 2013. №14. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/filosofskie-aspekty-problemy-modernizatsii> (дата обращения: 30.03.2023).
3. Назаров К. Аксиология – философия ценностей. -Т.: Т.: ЎФМЖ, 2004.С.132.
4. Назаров К. Аксиология – философия ценностей. -Т.: Т.: ЎФМЖ, 2004.С.231.



UDK:37.03

**Malohat MUXITDINOVA,**  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi  
E-mail: m.muxitdinova@cspi.uz

TDPU professori A. Lutfullayev taqrizi asosida

### PEDAGOGIK AMALIYOT - BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRUVCHI ASOSIY OMIL SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada kasbiy tayyorgarlikning kompetensiyaviy modelini amalga oshirish sharoitida musiqa ta'limi yo'nalishi talabalarning pedagogik amaliyotini tashkil etish va amalga oshirish xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Uning mazmunini yangilashning asosiy tamoyillari ko'rsatilgan. Universitetda bo'lajak musiqa o'qituvchisining kompetensiyaga asoslangan sifatlarini faollashtiradigan kasbiy ta'lim muhitini yaratishga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Professional musiqa ta'limi, pedagogik amaliyot, motivatsiya, ish tajribasi, mutaxassis kompetensiyasi.

### ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРАКТИКА КАК ОСНОВНОЙ ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ МУЗЫКИ

Аннотация

В статье рассматриваются особенности организации и реализации педагогической практики студентов музыкального образования в контексте реализации компетентностной модели профессиональной подготовки. Показаны основные принципы обновления его содержания. Университет делает акцент на создании профессиональной образовательной среды, активизирующей компетентностные качества будущего учителя музыки.

**Ключевые слова:** Профессиональное музыкальное образование, педагогическая практика, мотивация, стаж работы, компетентность специалиста.

### PEDAGOGICAL PRACTICE AS THE MAIN FACTOR FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCES OF A FUTURE MUSIC TEACHER

Annotation

The article discusses the features of the organization and implementation of the pedagogical practice of students of music education in the context of the implementation of the competency-based model of professional training. The basic principles of updating its content are shown. The university focuses on creating a professional educational environment that activates the competency-based qualities of a future music teacher.

**Key words:** Professional music education, pedagogical practice, motivation, work experience, specialist competence.

**Kirish.** So'nggi yillar O'zbekistonda sodir bo'layotgan o'zgarishlar zamonaviy ta'limning tabiati, uning yo'nalishi, maqsadlari va mazmunida o'z aksini topmoqda. O'zbekiston Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi 2-fevral 2022- yil PQ 112-son qarori qabul qilinishi bilan musiqiy ta'limning amaliy faoliyatida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish qobiliyati, bilim va malakalariga ega bo'lgan kasbiy-malakali o'qituvchi shaxsini shakllantirish muammosi dolzarb bo'lib qoldi. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim ayniqsa birlamchi darajadagi talabga aylanib bormoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Amaliyotga yo'naltirilgan kasbiy ta'limni shakllantirishning samarali metodologiyasi sifatida, bizningcha, F. G. Yalalov tomonidan asoslab berilgan faoliyatda kompetentlik yondashuvidir. U bilim paradigmasi va amaliyotga yo'naltirilgan yondashuv tamoyillarini o'zida mujassam etgan bo'lib, amaliy tajriba to'plash asosida oliy fundamental ta'limning mohiyatini saqlab qolishga qaratilganki, uning darajasi kompetensiyaga asoslangan usullar bilan aniqroq belgilanadi.

Muallif didaktikada ma'lum bo'lgan faoliyat yondashuvining vektori o'quv jarayonini tashkil etishga, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalariga yo'naltirilganligini ta'kidlaydi va bu erda butun o'quv jarayoni

faollik xarakteriga ega bo'ladi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv birinchi navbatda ma'lum natijalarga erishishga, muhim vakolatlariga ega bo'lishga qaratilgan. Faoliyat tajribasiga ega bo'lmasdan turib, kompetensiyalarni egallash mumkin emas. Qobiliyatlar faoliyatda va kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun shakllanadi [1].

Olimning fikricha, bunday sharoitda o'quv jarayoni yangicha mazmun kasb etadi. Bu kasbiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kompetensiyalarga erishish uchun o'rganish, bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lish jarayoniga aylanadi. Faoliyat tajribasining o'zi nafaqat mavjud bilim va ko'nikmalar asosida shaxsning muayyan harakatlar va operatsiyalarga tayyorligi sifatida ishlaydi. Faoliyat tajribasi o'quv va kognitiv faoliyatdan tashqari, kasbiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan baholash tajribasini o'z ichiga oladi.

"Ta'lim va kasbiy faoliyatning o'zagi va bo'lajak o'qituvchining kasbiy-pedagogik kompetensiyasini shakllantirishning asosiy sharti, - deb yozadi S. A. Shmeleva, - uning bevosita pedagogik amaliyotga kiritilishi, bu esa bizga mehnat bozorining o'zgaruvchan talablariga muvofiq yangi bilimlar hamda professional zonalarini kashf qilish va o'zlashtirish imkonini beradi" [2]. Kasbiy-pedagogik kompetensiya deganda bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy va shaxsiy fazilatlarini o'zida mujassam etgan, umumiy musiqa ta'limi sohasidagi bilim, ko'nikma va tajriba darajasini

aks ettiruvchi yaxlit xususiyat tushuniladi. Universitetda bakalavr musiqa ta'limi yo'nalishi talabasining kasbiy amaliyotga yo'naltirilgan tayyorgarligini faoliyat - kompetentlik yondashuvi asosida takomillashtirish yo'llari: bo'lajak musiqa o'qituvchisining asosiy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali maxsus kasbiy kompetentsiyani shakllantirish; musiqiy va o'quv pedagogik amaliyotining real vaziyatida kasbiy muammolarni hal qilishda o'z tajribasini egallash jarayonida bilim va ko'nikmalarini qo'llay olish kabi maqsadlar bilan belgilanadi

**Tadqiqot metodologiyasi.** Pedagogik amaliyot – bo'lajak musiqa o'qituvchisini zamonaviy pedagogik texnologiyalarga ega, mustaqil ijodiy faoliyatga qodir malakali mutaxassis sifatida shakllantirish jarayonining uzviy tarkibiy qismidir. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash lozimki, musiqa ta'limi yo'nalishi talabasi uchun pedagogik amaliyot o'zlashtirishi kerak bo'lgan keng ko'lamlil kasbiy kompetensiyalar va fazilatlar tufayli kasb yo'lidagi juda qiyin bosqich bo'lib qolmoqda [6].

Talaba umumiy madaniy-psixologik-pedagogik tayyorgarlik bilan bir qatorda yakkaxon sifatida vokal asarlarni kuylashi, musiqiy cholg'u asbobida mohirona ijro eta olishi, dirijorlik, vokal-xor ishlarini amalga oshirish qobiliyati va xakazolarga ega bo'lishi kerak: "... "musiqa o'qituvchisi" kasbi – keng toifadagi musiqa o'qituvchisi kasbi bo'lib, u xuddi beshta sport turini o'zida jamlagan atlet sportchi kabi ushbu ko'p tarmoqli komponentlarning har bir turiga professional tarzda tayyorlanishi kerak"; "Musiqqa o'qituvchisining bunday kompetensiyalar jamlanmasini dunyoning hech bir davlatida shakllantirilmaydi" [3].

Bu murakkablik, shuningdek, keyingi yillarda turli xil o'quv yurtlari: umumta'lim maktabi, musiqa maktablari va maktab-internatlari, pedagogika kollejlari, musiqa kollej va litseylari bitiruvchilari ushbu yo'nalishga kelayotganligi bilan bog'liq. Ular nafaqat musiqiy-nazariy va musiqiy-ijrochilik fanlari bo'yicha turli darajadagi bilim va ko'nikmalarga ega, balki turli yoshda (16-17 yoshdan 20-21 yoshgacha) bo'lib, turli motivatsiya va turli kasbiy yo'nalishlarga ega. Bularning barchasi nafaqat tegishli kompetensiyalarni egallash, balki ularning uzluksiz rivojlanishini ta'minlash uchun har bir talabani individual imkoniyatlarini hisobga olish zarurligini taqozo etadi

Rossiyaning N. F. Katanov nomidagi Xakass davlat universiteti mutaxassislik(spetsialitet)ni amalga oshirish sharoitida, faoliyat-kompetentlik yondashuvi talabalarini inobatga olgan holda, bakalavriat amaliyot dasturlari uchun asos bo'lgan mazmun jihatidan kasbiy-pedagogik amaliyotning ancha hajmli modeli ishlab chiqilgan. Unda musiqa bilan muloqot maktabda musiqa darsini qurish uchun asos sifatida bo'lajak musiqa o'qituvchisining barcha musiqiy va pedagogik faoliyatining o'zagini tashkil etadi. Faoliyat-komponent yondashuvni amalga oshirish asosida pedagogik amaliyot mazmunini yangilash B. S. Rachina [4] tomonidan ishlab chiqilgan va mintaqaning umumiy ta'lim muassasalarida amaliyotni tashkil etish va o'tkazish imkoniyatlari va shartlariga moslashtirilgan qoidalarga asoslanadi. Bu:

- Umumiy, qo'shimcha va kasbiy musiqa ta'limida musiqa san'ati va musiqiy-pedagogik faoliyat faoliyatining umumiy muhim qonuniyatlariga tayanish;

- Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining tizimlilik va amaliyotga yo'naltirilganlik tamoyillarini amalga oshirish asosidagi turli ko'rinishdagi pedagogik amaliyotining aloqadorligi va uzluksizligi;

- O'zgaruvchanlik pedagogik amaliyotni o'tkazish mazmuni va shakllarini tashkil etishning eng muhim tamoyili sifatida, individual xususiyatlarni va o'quvchilarning musiqiy ijro etish, musiqiy nazariy va uslubiy tayyorgarligining boshlang'ich darajasini hisobga olgan holda;

- Yaratilgan kasbiy ta'lim muhitida tug'iladigan va bo'lajak mutaxassisning kompetentsiya fazilatlarini faollashtiradigan faol ijodiy faoliyatni rag'batlantiradigan motivatsiyaga asoslangan musiqa o'qituvchining kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish jarayoniga yo'naltirish.

Pedagogik amaliyotning murakkab tabiati shuni ko'rsatadiki, talaba pedagogika universitetining san'at yo'nalishlarida o'qish yillari davomida musiqa o'qituvchisining barcha funktsiyalari va faoliyatini amalga oshiradi: hujjatlar bilan ishlaydi, tajribaviy darslarni olib boradi, darsdan tashqari barcha turdagi musiqiy va o'quv mashg'ulotlarini o'tkazadi, madaniy-ma'rifiy ishlar, boshqa talabalar va musiqa o'qituvchilarining darslarini tahlil qiladi, o'quv va tadqiqot diagnostika faoliyatini amalga oshiradi [5].

O'qishning butun davri davomida turli xil amaliyotlar (o'quv, pedagogik, diplom oldi va ilmiy-tadqiqot, yozgi lager amaliyotlar) o'tkazish nazarda tutilgan. Bir-birini o'rni almashiruvchi va to'ldirib boradigan amaliyotlar malakali professional o'qituvchini shakllantirishga qaratilgan yaxlit ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Maktabdagi amaliyotning tobora murakkablashib borishi bo'lajak musiqa o'qituvchisining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini rivojlantirish dinamikasini ta'minlaydi.

Amaliyotga chiqishdan oldin talabalarga ish dasturi va uning uchun uslubiy materiallar to'plami taqdim etiladi. Dasturda kasbiy vazifalar, ish mazmuni va shakllarining batafsil bayoni, amaliyot natijalari bo'yicha hisobot mazmuni va rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar, hisobot hujjatlari namunalari, barcha turdagi faoliyat baholash mezonlari taqdim etiladi. Bir so'z bilan aytganda - oxir-oqibat talabani portfoliosini tashkil etadigan hamma hujjatlar to'plami [5].

Amaliyotchilarga musiqa tinglashni tashkil etish, vokal-xor ishlarini va sinfda o'quvchilarning boshqa faoliyatlarini olib borish algoritmlari, musiqa darslarini to'liq tahlil qilish sxemalari, amaliyotchi-talabani pedagogik faoliyatini aks ettiruvchi tahlil, shaxs va umuman sinf xodimlari, o'quvchilarning maxsus musiqiy qobiliyatlarini o'rganish uchun turli diagnostika dastur va usullari taklif etiladi. Ish dasturlarida amaliyotni yakunlaydigan tanlovlar shartlari ko'rsatilgan. Tanlovlarda ishtirok etish professional hakamlar hay'ati tomonidan baholanadi va amaliyot uchun kompleks baho berishda hisobga olinadi.

Pedagogik amaliyot jarayonida talabani mustaqil pedagogik faoliyatga nazariy va amaliy tayyorgarligi darajasi, motivatsiyasi tekshiriladi, bo'lajak mutaxassisning ijodiy salohiyatini ochish, rivojlantirish va boyitish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Amaliyot jarayonida talaba kasbni qanchalik to'g'ri tanlaganligini aniqlaydi, bu kasbning shaxsiy fazilatlariga moslik darajasini o'zi aniqlaydi, uning mohiyatini tushunadi, ijtimoiy ahamiyatini tushunib yetadi. Fikrimizcha, bo'lajak musiqa o'qituvchisining pedagogik amaliyotning turli bosqichlarida mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasining muhim ko'rsatkichi amaliyotlar doirasida o'tkaziladigan kasb mahorati tanlovlari hisoblanadi.

Shunday qilib, birinchi pedagogik amaliyot maktabda amaliy anjuman bilan yakunlanadi. Talabalar musiqa darsining bir qismini ko'rsatadilar, unda ular sinf xori bilan ishlashga tayyorligini, mos yoshga qarab mustaqil ravishda tanlangan asarni o'rganish texnikasini namoyish etadilar. Tanlov ikki bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqich - bu turli maktablarning mikroguruhlari ichidan kuchliroq ishtirokchilarni tanlash bo'lib, u erda talabalar amaliyot o'taydi. Ikkinchi bosqich - eng kuchlilar o'rtasidagi tanlov. U maktablardan birida o'tkaziladi va professional hakamlar hay'ati tomonidan baholanadi.

Navbatdagi pedagogik amaliyot ham ikki bosqichda "O'quvchi orziqib kutadigan dars" kasb mahorati tanlovi bilan yakunlanadi. Musobaqa ishtirokchilari to'liq musiqa darslarini berishadi. Shu bilan birga, darsga tinglash uchun o'quvchi

tomonidan mustaqil tanlab olingan va cholg'u asbobida ijro etadigan bitta asar va shu sinf o'quvchilari bilan o'rganish uchun mo'ljallangan bitta xor asarini kiritish majburiydir. Bu bellashuv o'quvchilarning musiqa va ijrochilik faoliyatining barcha turlarini amalga oshirish, ularni muayyan sinf musiqa dasturida belgilangan dars mavzusiga bog'lash va bo'ysundirish qobiliyati va tayyorgarligini ochib beradi.

Diplomoldi amaliyoti talabalarining ilmiy ishlari tanlovi bilan yakunlanadi. Tanlov universitetda amaliyot oxirida o'tkaziladi, uning davomida talabalar yakuniy malaka ishi uchun zarur diagnostika materialini to'plashadi. Ushbu tanlov talabalarining diagnostika materiallarini dissertatsiya mavzusi bilan bog'lash, ularni qayta ishlash, xulosalar chiqarish va tadbirlarni rejalashtirishga tayyorlik darajasini ochib beradi.

Tanlovlar ommaviy ravishda, kichik kurs talabalarini ishtirokida o'tkaziladi, bu ular uchun muhim rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi. Ular hakamlar tomonidan baholangan eng yaxshi talabalar yutuqlarini ko'rishadi. Tanlov g'oliblari kasbiy mahorat diplomlari bilan taqdirlanadilar.

Pedagogik amaliyot bo'yicha yakuniy konferentsiyada talabalar yozma hisobot taqdim etadilar va og'zaki himoya qiladilar. So'ngra rejalashtirilgan faoliyatining barcha turlarining bajarilishini amaliyotchi bitiruvchi kafedrasidan amaliyot mudiri sharhlaydi va barcha faoliyat turlari bo'yicha ballni hisobga olgan holda har bir talabaga umumiy baho beradi. Talabalarining so'rovi yakuniy konferentsiyalarda amalga oshiriladi. Talabalar so'rovnomalari batafsil tahlil

qilish musiqa o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolarni aniqlashga yordam beradi.

**Tahlil va natijalar.** Pedagogik amaliyot natijalari bitiruvchi kafedra yig'ilishlarida maxsus fanlar o'qituvchilari tomonidan kasbiy muhokama qilinadi, talabalar uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etish va oldini olish bo'yicha vazifalar qo'yiladi va chora-tadbirlar rejalashtiriladi. Musiqiy-pedagogik mashg'ulotlarda o'quv mashg'ulotlarida talabalar o'zlarining qiyinchiliklarini tahlil qilish asosida talabalar auditoriyasiga musiqa darslarini ishlab chiqadilar. Shu tarzda tashkil etilgan kasbiy-ta'lim muhiti universitet musiqiy-ta'limiy tayyorgarligi va maktabdagi pedagogik amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni rag'batlantiradi va bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Shunday qilib, musiqa ta'limi sohasi o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi murakkab va ko'p qirrali tizim bo'lib, XXI - asr pedagogidan musiqa san'atining mohiyati, uning barcha xususiyatlarini tushunishni, zamonaviy texnologiyalar va usullarga ega bo'lishni taqazo etadi. Pedagogikaning asosiy vazifasi musiqa san'atining ulkan ta'sir kuchi imkoniyatidan bola shaxsini shakllantirishda foydalanish. Musiqa san'ati kontekstidagi zamonaviy g'oyalar professional musiqiy - pedagogik tayyorgarlikning kompetensiyaga asoslangan yondashuvini amalga oshiruvchi asosiy yo'nalishlarni belgilaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ялалов Ф. Г. Деятельностно-компетентный подход к практико-ориентированному образованию // Интернет-журнал «Эйдес». 2007, <http://www.eidos.ru/journal/2007/0115-2.htm>.
2. Шмелёва С. А. Модель профессиональной подготовки выпускника педагогического вуза // Вестник Томского гос. пед. ун-та (2012). Вып. 5 (120). 16-22-б.
3. Абдуллин Э.Б. О проблемах современного музыкально-педагогического образования // Актуальные проблемы музыкально-педагогического образования: материалы Международной научно-практической конференции. М.: РИТМ, 2012. 7-14-б.
4. Рачина Б. С. Стратегия обновления педагогической практики на факультете музыки // Вестн. Герценовского ун-та. 2009. Вып. 10. URL: <http://cyberleninka.ru/article/n/>
6. Muxitdinova M.S. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda klasterli yondashuv masalalari. Ta'lim fidoiyilari.9-son 2021-yil. Guvoynoma №1170 ISSN 2180-2160, 177-181-б.
7. Мухамедов Г.И., Эшчанов Б.Х., Махмудова Д.М., Алимкулов Ж.Б. Педагогик таълим узвийлигини таъминлашнинг илмий-педагогик муаммолари// Academic researchin educdional sciences, Volume2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385, 1622-1638-б.
8. Muxitdinova M.S. "Pedagogika oliy ta'limida bakalavrlarni tayyorlashda uchrab turadigan muammolar va ularning yechish yo'llari"-Science and www.scientificprogress.uz «Scientific Progress» Scientific Journal ISSN: 2181-1601Volume: 1, ISSUE: 5 470 Education 2020, 241-243-б.
9. Ботирова Ш.И. Педагогик таълим инновацион кластери янги устивор йўналиш сифатида/// Academic researchin educdional sciences, Volume1 | ISSUE 3 | 2020 ISSN: 2181-1385, 257-266-б.
10. Тоштемирова С. Таълим кластерининг педагогик стратегиялари: талаб ва таклиф.// // Academic researchin educdional sciences, Volume3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1385, 487-494-б.



Zarifa MUHAMMADIYEVA,  
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi  
E-mail [zarifamuhammadieva1212@gmail.com](mailto:zarifamuhammadieva1212@gmail.com)

Qarshi davlat universiteti professori I.B.Kamolov taqrizi ostida

## DEVELOPMENT OF E-LEARNING RESOURCES IN COMPUTER GRAPHICS

Annotation

E-learning is of great importance in the field of computer graphics. In the science of computer graphics, going down to the stages of the development of e-learning, we see that the techniques and technologies in it change from year to year, with one exchanging with the other. Currently, the development of e-learning resources for the science of computer graphics is important.

**Key words:** Sorel Draw, Phoioshop, 3d Max, Adobe Flash, AstiveX, AutoPlay Media Studio 8.0.

## РАЗРАБОТКА ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ ПО КОМПЬЮТЕРНОЙ ГРАФИКЕ

Аннотация

В области компьютерной графики большое значение имеет электронное обучение. Касаясь этапов развития электронного обучения в науке компьютерной графики, мы видим, что методы и технологии в нем меняются из года в год, чередуясь одно с другим. В настоящее время разработка электронных образовательных ресурсов для науки о компьютерной графике приобретает все большее значение.

**Ключевые слова:** Sorel Draw, phoioshop, 3d max, Adobe Flash, astivex, autoplay Media Studio 8.0.

## KOMPYUTER GRAFIKASIDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINI RIVOJLANISHI

Annotatsiya

Kompyuter grafikasi sohasida elektron ta'limning ahamiyati katta. Kompyuter grafikasi fanida elektron ta'limning rivojlanish bosqichlariga to'xtaladigan bo'lsak, undagi texnika va texnologiyalar yildan-yilga o'zgarib, biri ikkinchisi bilan almashib borayotganini ko'ramiz. Hozirgi kunda kompyuter grafikasi fani uchun elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** Sorel Draw, Phoioshop, 3D Max, Adobe Flash, AstiveX, AutoPlay Media Studio 8.0.

**Kirish.** Hozirgi vaqtda ta'lim va tarbiya jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Ma'lumki, kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonning intellektual va ma'naviy axloqiy tarbiyasiga bog'liqdir. Insoniyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichi axborotning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatining ulkan ortishi bilan tavsiflanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mehnat resurslarini moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidan axborot sohasiga qayta taqsimlash jarayoni rivojlangan mamlakatlarda axborot sohasida band bo'lgan aholining 50% dan ortig'i allaqachon ishlayotganiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy va o'rta ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha muhim vazifa belgilangan. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy va o'rta ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha muhim vazifa belgilangan. Shu munosabat bilan mamlakatimizda axborot texnologiyalarini rivojlantirishga oid bir qancha davlat qonunlari, farmon va Prezident farmonlari qabul qilingan. Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (2012-yil 21-mart); "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" qarori (2012-yil 28-may); "Axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (2013-yil 26-mart); "O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi qarori (2015-yil 4-fevral). O'tgan davr mobaynida oliy ta'lim tizimida informatika fanining me'yoriy hujjatlarini, o'qitish metodikasi majmuasini takomillashtirish va bilim darajasini oshirishga qaratilgan ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Fanlarni o'qitishda uzluksizlik va izchillikni ta'minlash, o'quv resurslari va o'quv qo'llanmalarini takomillashtirish, fandagi yangiliklarni aks ettirish, joriy va istiqboldagi vazifalarni yoritish, mustaqil ta'lim berish, o'qitishda ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash. Kompyuter grafikasini o'qitishning zamonaviy axborot vositalari, elektron o'quv resurslarini yaratish, mualliflik dasturiy ta'minotini o'rganish va tahlil qilish, ma'ruza o'quv dasturlarini takomillashtirish va standartlashtirish, yangi avlod darsliklari, elektron kitoblarini yaratish va ularni o'quv jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

O'quv fanlari bo'yicha elektron o'quv qo'llanmalarining yaratilishi fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Bu, o'z navbatida, talabalarning mazkur fanlar bo'yicha bilimlarni chuqur egallashida asosiy omil bo'lib, mustaqil bilim olish jarayonini takomillashtirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ta'lim sohasini kompyuterlashtirish bilan bog'liq muammolarni

o'rganishda ko'plab yutuqlarga erishilganligini va bu borada hal etilishi lozim bo'lgan masalalar ko'pligini ta'kidlash lozim. Xususan, ta'limni kompyuterlashtirish bir necha yil avval boshlangan va qator ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ko'pchilikda bu ta'limni tashkil etishning yangi, noan'anaviy shakli degan taassurot hamon saqlanib qolgan. Darhaqiqat, kompyuterlar ta'lim sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkoniyatiga ega, bu esa sifatli pedagogik dasturlar va mukammal metodikalardan foydalanishni talab qiladi.

O'quv jarayonida foydalanish uchun ko'plab elektron materiallar, jumladan, elektron o'quv resurslari, elektron o'quv qo'llanmalari, o'quv dasturlari yaratilgan. Zamonaviy dasturiy vositalarni o'rganishda o'quv dasturlarini qo'llash talabalarining o'zlashtirish darajasini oshirishga olib keladi. Olimlar tomonidan olib borilgan tajribalar tahlili natijalariga ko'ra, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, ya'ni o'quvchining eshitish va ishlash qobiliyati natijasida o'zlashtirish darajasi 90 foizga oshgan. Dasturiy ta'minot doimiy ravishda rivojlanib bormoqda va yangi, ilg'or dasturiy ta'minot ishlab chiqilmoqda, ulardan biri AutoPlay Media Studio 8.0 bo'lib, tezkor va sifatli elektron o'quv vositalari, elektron o'quv resurslarini yaratish imkonini beradi.

**Material va usullar.** Pedagogik eksperimentlarni tashkil etish va o'tkazish bosqichlari Nazariy tadqiqotlar tugallanganidan so'ng elektron ta'lim resursi orqali yangi o'qitish usullaridan foydalanishni tasdiqlash maqsadida pedagogik tajriba tashkil etildi. Eksperimental tadqiqot jarayonida kompyuter grafikasini o'qitishda multimediali elektron darsliklarni o'rganish o'rganildi va ma'lumotlar, faktlar, vositalar va multimediali elektron darsliklarni o'quv jarayoniga qo'llash bo'yicha ishchi faraz aniqlandi.

Eksperimental testning dastlabki bosqichida multimediali elektron o'quv qo'llanmalarini qo'llashning uslubiy jihatlari o'rganildi. Bundan maqsad nazariy va amaliy mashg'ulotlarda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish va bu metodikaning talabalar bilimi sifatini oshirishga ta'sirini aniqlashdan iborat edi. Bu guruhlarda darslar ikki xil metodika asosida olib borildi. 30 va 31 nafar talabadan iborat tajriba va nazorat guruhlari tanlab olindi. Tajriba guruhida darslar yaratilgan multimediali elektron o'quv resurslari, nazorat guruhida esa an'anaviy metodika asosida o'tkazildi. Eksperimental guruhlarda nazariy va amaliy mashg'ulotlar kompyuter texnikasi, videoproyektorlar yordamida multimedia elektron ta'lim resurslaridan foydalangan holda olib boriladi. Nazorat guruhlarida ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar an'anaviy uslublar asosida olib borildi. Eksperimental test guruhlarida multimediali elektron o'quv qo'llanmalarini qo'llash uchun kompleks metodikadan foydalanildi. Eksperimental test guruhlarida nazariy darslar multimediali elektron o'quv resurslari asosida o'tkazildi.

Kompyuter grafikasi bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar "Kompyuter grafikasi, rastr, vektor va fraktal grafika bo'yicha ma'lumotlar, AutoPlay Media Studio 8.0 darslarida yaratilgan Sorel Draw, Phoioshop, 3D Max, Adobe Flash dasturlari multimedia e dan foydalangan holda tushuntirish yo'li bilan eksperimental test guruhlarida o'tkazildi. - o'quv manbasi. O'quv jarayonini multimediali elektron o'quv resurslari asosida tashkil etish an'anaviy o'qitish usullari kabi o'qitishning o'ziga xos shakl va usullariga ega.

Talabalarga multimedia elektron o'quv resurslari bilan ishlash jarayonida har bir mavzu bo'yicha tanlagan misolimizni amalga oshirish jarayoni ko'rsatildi va tushuntirildi. Talabalarining nazariy materiallarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash multimediali elektron o'quv resursi ishlab chiqilgan "Mundarija" bo'limining test nazorati yordamida amalga oshirildi. Nazariy va amaliy ishlar

birgalikda olib borildi. Elektron o'quv uslubiy majmualarini yaratish bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Manbalarni tanlash.
2. Mualliflar bilan manbalarni qayta ishlash bo'yicha shartnoma imzolash
3. Tarkib va tushunchalar (indekslar) ro'yxatini ishlab chiqish.
4. Moduldagi matnni bo'limlar va yordamlar bo'yicha qayta ishlash tizimini ishlab chiqish. (Yordam bering)
5. Elektron shaklda gipermatnni amalga oshirish.
6. Texnik talablarni ishlab chiqish
7. Multimedia uchun ma'lumotlarni tanlash .
8. Ovozli sinxronizatsiyani rivojlantirish.
9. Ovozli sinxronizatsiyani amalga oshirish.
10. Vizualizatsiya uchun ma'lumotlarni tayyorlash.
11. Ma'lumotlarni vizuallashtirishning birinchi bosqichida tanlangan manbalar quyidagi talablarga javob berishi kerak: - o'quv rejasiga to'liq mos kelishi; - qisqa va gipermatn yaratish oson bo'lishi kerak; - namunalar va masalalarning ko'pligi; - qulay formatda bo'lishi kerak; Ikkinchi bosqichda olingan manbalar to'plamidan sifat va narx bo'yicha optimal nisbatga ega bo'lganlar tanlanadi. mashg'ulotlarda bevosita foydalanish imkonini beradi. Elektron o'quv resurslari asosida o'quv jarayoniga o'quv materiallarini qo'llash kompyuter grafikasining ishchi dasturiga muvofiq amalga oshirildi. Talabalarga har bir bo'lim bo'yicha nazorat savollari berildi. Bu savollarga talabalarining javoblari kompyuterga yozib olindi.

**Xulosa.** Har qanday elektron ta'lim resursi nisbatan sodda dasturiy ta'minotni ishlab chiqishi kerak, bu esa amaliy dasturlarni ishlab chiqish uchun qulaydir. O'zgartirish zarur bo'lganda, bu osonlik bilan hal qilinadi. Biz AutoPlay Media Studio 8.0 dasturiy muhitidan elektron ta'lim resursi ilovasini ishlab chiqish uchun foydalandik. Lekin u boshqa har qanday media dasturi yordamida ham amalga oshirilishi mumkin. Bugungi kunda ko'pgina vizual dasturlash tizimlari veb-ilovalar, AstiveX komponentlari va boshqa ilg'or dasturiy texnologiyalar bilan ishlashga qodir. Shu kabi vizual dasturlash tizimlari yordamida bunday ilovalarni yaratish ham mumkin. Ilova muhitini dizaynga boy qilish uchun AutoPlay dasturiy vositasi tayyor obyektlarni o'z ichiga oladi, ular buyruq tugmasi, kuchaytirgichni o'z ichiga oladi, bu printerdan fayllarni chop etish, veb-saytlar sonini ko'paytirish va ular sonini o'z ichiga olishi mumkin. havola qiladigan funktsional obyektlar. AutoPlay-da har qanday obyekt uchun bir yoki bir nechta funktsiyalarni bajaradigan skript yozishingiz mumkin. Agar biz ish maydonidagi obyektini xususiyatlar paneli yordamida bajarishi kerak bo'lgan funksiyani aniqlamoqchi bo'lsak, u holda bitta obyektga faqat bitta funktsiya biriktiriladi. Lekin real hayotda bitta obyekt bir nechta funktsiyalarni bajarishi kerak. va ular havola qiladigan bir qator funktsional obyektlarni o'z ichiga olishi mumkin. AutoPlay-da har qanday obyekt uchun bir yoki bir nechta funktsiyalarni bajaradigan skript yozishingiz mumkin. Agar biz ish maydonidagi obyektini xususiyatlar paneli yordamida bajarishi kerak bo'lgan funksiyani aniqlamoqchi bo'lsak, u holda bitta obyektga faqat bitta funktsiya biriktiriladi. Ammo real hayotda bitta obyekt bir nechta funktsiyalarni bajarishi kerak. Bunday vaziyatda xususiyatlar panelidan tanlangan funksiyani bekor qilish orqali talab qilinadigan har bir funktsiya uchun alohida skript yozish vaziyatdan chiqishga yordam beradi.

AutoPlay-ning asosiy kamchiliklaridan biri shundaki, u ish joyidagi obyektlarni qo'lda boshqarish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun dastur uchun maxsus menyu yaratish yoki klaviatura boshqaruvlari asosida skript kodlarini yozish muhimdir. AutoPlay Media Studio dasturida "Kompyuter grafikasi" fanidan elektron o'quv resursi yaratildi va quyidagi natijalarga erishildi: - Elektron o'quv resurslarini yaratish

uchun dasturiy ta'minot tahlil qilindi va eng qulay "AutoPlay Media Studio" dasturi tanlab olindi. – Ta'lim jarayonida "Kompyuter grafikasi" fanidan elektron o'quv resursi yaratildi. – Ta'lim jarayonida elektron ta'lim resurslaridan foydalanishning uslubiy asoslari takomillashtirildi.

#### ADABIYOTLAR

1. Abdullayev U. Chizma geometriya va chizmachilik asoslari. T.: "O'zbekiston", 1999 318-b.
2. Abduraxmonov A. Chizmachilikdan grafik ishlash tizimi. T.: "Cho'lpon", 2005.
3. Qirg'izboyev Y. Va boshqalar. Mashinasozlik chizmachiligi kursi. T.: "O'qituvchi", 1981. -352-b.
4. Боголюбов С.К. Черчения. М.: Машиностроение, 1898,-336 с.
5. Боголюбов С.К., Воинов А.В. Черчения. М.: Машиностроение, 1981,-303 с.



UDK:623.64

**Raxmat NAVRUZOV,**

*O‘zMU harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi katta o‘qituvchisi.*

*E-mail: rahmatnavruzov99@gmail.com*

**Mansurjon IMINJANOV,**

*O‘zMU harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi o‘qituvchisi*

*E-mail: mansurjoniminjonov@gmail.com*

**Zarifboy JABBAROV,**

*O‘zMU harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi dotsenti*

*E-mail: jabborovzarifboy70@mail.com*

*Professor P.Z. Xashimov taqrizi asosida*

### “OPERATOR-12” GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMI (GAT) DASTURIDA YANGI TOPOGRAFIK VA TAKTIK SHARTLI BELGILAR KLASSIFIKATORINI YARATISHNI ISTIQBOLLARI

Аннотация

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, hozirgi vaqtda fan va texnikaning rivojlanib borayotganligi hamda zamonaviy janglar o‘z taktikasini takomillashtirib bormoqda shu sababli kartografik ma’lumotlarga xususan elektron-raqamli topografik xaritalar (ERTX)ga bo‘lgan ehtiyoj va talablar ham oshib bormoqda. GAT va ERTXlar yordamida joyni batafsil o‘rganish, baholash va jangovar texnikani qo‘llash hamda topografik xaritalarni yaratishda va yangilashda qo‘llanilishi, jangovar qarorlarni qabul qilishda yangi topografik va taktik shartli belgilari yaratish maqolada keng yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Geografik axborot tizimi, «Operator-12» dasturi, raqamli, elektron xarita, Klasifikator, F20S formatlar va “Elektron jang maydoni”.

### ПЕРСПЕКТИВЫ СОЗДАНИЯ НОВОГО КЛАССИФИКАТОРА ТОПОГРАФИЧЕСКИХ И ТАКТИЧЕСКИХ УСЛОВНЫХ ЗНАКОВ В ПРОГРАММЕ ГЕОГРАФИЧЕСКОЙ ИНФОРМАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ (ГИС) ОПЕРАТОР-12

Аннотация

Актуальность данной статьи заключается в том, что в настоящее время наука и техника, а также современные бои совершенствуют свою тактику по этой причине возрастают потребности и требования к картографической информации, особенно к электронно-цифровым топографическим картам (ЭЦТК). В статье подробно описано детальное изучение и оценка местности с помощью GAT и ЭЦТК, оценка и применение боевых задач, а также их применение при создании и обновлении топографических карт, создании новых топографических и тактических условных знаков.

**Ключевые слова:** Географическая информационная система, программа «Оператор-12», цифровая, электронная карта, классификатор, форматы F20S и “Электронное поле боя”.

### PROSPECTS FOR THE CREATION OF A NEW CLASSIFIER OF TOPOGRAPHIC AND TACTICAL CONVENTIONAL SIGNS IN THE PROGRAM OF THE GEOGRAPHIC INFORMATION SYSTEM (GIS) «OPERATOR-12»

Annotation

The relevance of this article lies in the fact that at present science and technology, as well as modern battles, are improving their tactics for this reason, the needs and requirements for cartographic information are increasing, especially for electronic digital topographic maps (EDTM). The article describes in detail the detailed study and assessment of the terrain using GIS and EDTM, the assessment and application of combat missions, as well as their use in creating and updating topographic maps, creating new topographic and tactical conventional signs.

**Key words:** Geographic information system, Operator-12 program, digital, electronic map, classifier, F20S formats and “Electronic battlefield”.

**Kirish.** Jahondagi yetakchi davlatlarda fan va texnikaning rivojlanib borayotganligi sababli hamda jang turi keskin o‘zgarayotganligi sababli kartografik ma’lumotlar xususan ERTXga bo‘lgan ehtiyoj va talablar ham oshib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasida bu yo‘nalishda tizimli ishlar olib borilmoqda, Qurolli Kuchlarda GATlari aynan ERTXni qo‘llash uchun me‘yoriy hujjatlar qabul qilingan va ular imkoniyatlaridan foydalanib kelinmoqda.

GATlari va ERTXlar Qurolli Kuchlarda joyni batafsil o‘rganish, baholash va qo‘shinlarni jangovar harakatlarini rejalashtirish, texnikalarini va qurol yaroqlarni qo‘llash, to‘g‘ri qaror qabul qilish hamda topografik xaritalarni yaratish va yangilashda va harbiy bilim yurtlarida kadrlarni tayyorlashda

keng foydalanilmoqda. Kuchayib borayotgan ma’lumotlar oqimi hamda ularni qo‘llash va qayta ishlash imkoniyatlari o‘rtasidagi nomutanosiblik shubhasiz yangi GATlarini ishlab chiqish zaruratini tug‘diradi.

«Operator-12» GAT dasturida yangi topografik va taktik shartli belgilarini yaratish istiqboli. Ushbu shartli belgilar «Operator-12» GAT dasturining mohiyati va uning bajaradigan vazifalari tarkibida nafaqat ERTXlar yaratish yana undan foydalanish hamda yangi topografik va taktik shartli belgilar orqali taktik vaziyatni elektron xaritaga tasvirlash imkoniyati bor.

«Operator-12» GAT dasturida yangi topografik va taktik shartli belgilarini yaratishdan maqsad, Qurolli

kuchlarimizda mavjud ERTXlarda komandir (boshliq)larning qaror va takliflari (taktik vaziyat)ni elektron xaritada tasvirlash uchun mo'ljallangan.

«Operator-12» GAT dasturida yangi topografik va taktik shartli belgilar Qurolli Kuchlarimizda jangovar va o'quvlar mashg'ulotlarda foydalanish uchun asqotadi.

Hozirgi kunda mavjud bo'lgan topografik va taktik shartli belgilarga yangi shartli belgilar ehtiyoj tug'ulmoqda. «Operator-12» GAT dasturida mavjut shartli belgilar rus tilida bu esa ma'lum bir qiyinchiliklarni vujudga keltirmoqda. Shu sababli dasturda to'la to'kis foydalanish uchun hamma shartli belgilarni o'zbek tili lotin alifbosiga o'girib yangi topografik va taktik shartli belgilarni ham yaratish lozimligi zaruriyati tug'ildi.

Vektorli xarita klassifikatori yordamida obyektlar yaratish:

Elektron xarita klassifikatori – bu raqamli ko'rinishga (holatga keltirilgan) vektorli xarita qatlamlari, obyektlar turlari va ularning shartli belgilari, semantik tavsiflar turlari va ularning qiymatlarini tasvirolovchi majmuadir.

Elektron xarita klassifikatorining asosiy tarkibiga joy obyektlarini tasvirolovchi geografik shartli belgilar kiradi.

Taktik vaziyatni tushirish uchun esa “VS RUz.rsc” klassifikatoridagi shartli belgilardan foydalanish zarur. “VS RUz.rsc” klassifikatori faqat harbiy maqsadlar uchun mo'ljallangan. U tezkor-taktik vaziyatni kartaga tushirish uchun yaratilgan. “VS RUz.rsc” yordamida vaziyatni kartaga tez va sifatli tushirish, elektron kartani rasmiylashtirish, qo'shinlarning jangovar tartibidagi keraksiz (eski) holatni o'chirish va yangisini tushirish mumkin, shuning uchun bu ishlarga sarf qilinadigan vaqt, keskin qisqaradi [1].

Xarita qatlamlari, obyektlar va ularning shartli belgilari, semantik tavsiflar va ularning qiymatlari albatta raqamli kodga ega bo'lishi shart.

Obyektlarning shartli belgilari ikki xil ko'rinishda bo'lishi mumkin:

xaritani displeyda ko'rsatish uchun;

xarita tasvirini chop etish uskunasiga uzatish uchun.

Agar belgilarning chop etish uchun mo'ljallangan raqamli ma'lumotlari klassifikatorga kiritilmagan bo'lsa, xaritani chop etish vaqtida uning displeyda ko'rinadigan tasviridan foydalaniladi.

Xaritani printeriga uzatish uchun mo'ljallangan belgilarini ko'rish va nazorat qilish uchun bosh menyu orqali xaritani tegishli ko'rinishga o'tkaziladi.

Xarita klassifikatori RSC fayli ko'rinishida raqamli holatda saqlanadi. Mazkur fayl vektorli xarita bilan bir direktoriyada (diskda, papkada) joylashishi yoki klassifikatorlar uchun mo'ljallangan direktoriyada joylashishi mumkin.

Bunday holatlarda turli direktoriyadagi bir necha xaritalar bitta klassifikatorni ishlatishi mumkin. Klassifikatoridagi har qanday o'zgarish undan foydalanayotgan barcha xaritalarda aks etadi.

Klassifikatorni tahrir qiluvchi oyna (Редактор)ga amaliy vazifalar ro'yxati orqali, shu bilan birgalikda sichqonchanning o'ng knopkasi orqali “Легенда карты” vazifasi yoki “Выбор объекта” dialogi orqali kirish mumkin.

“Panorama” GATda o'zida turli ko'rinishdagi va shakldagi shartli belgilarni birlashtira oladigan bir necha klassifikatorlarni bir vaqtda ishlatish imkoniyati mavjud. Masalan, PLAN501.RSC klassifikatori o'z ichiga 1:500 masshtabdagi joy planini tuzish uchun qo'llaniladigan shartli belgilarni olsa, 200T59V.RSC klassifikatori esa 1:200 000 masshtabdagi topografik xaritalarni tuzish uchun ishlatiladigan shartli belgilarni o'z ichiga oladi.


VS RUz.rsc taktik shartli belgilar klassifikatori faqatgina harbiy obyektlarni yoki harakatlarni tasvirlash maqsadida ishlab chiqilgan. U tezkor-taktik vaziyat elementlarini xaritaga tushirish uchun mo'ljallangan. VS RUz.rsc klassifikatori taktik vaziyatni raqamli xaritaga tez va sifatli tushirish, elektron xaritani rasmiylashtirish va boshqa imkoniyatlarga ega. Uning yordamida keraksiz bo'lgan yoki eski jangovar tartib elementlarini yo'q qilish va yangi taktik vaziyatni tushirish mumkin. Shuning uchun klassifikator yordamida taktik vaziyatni tushirish uchun juda ham kam vaqt sarflanadi [2].

VS RUz.rsc taktik shartli belgilar klassifikatori O'zbekiston Respublikasidagi barcha turdagi qo'shin turlari va ularning taktik harakatlari shartli belgilari mujassamlashtirilgan. Shuning uchun ham raqamli xaritaga taktik vaziyatni tushirish uchun “VS RUz.rsc” klassifikatoridagi shartli belgilardan foydalanish zarur. “VS RUz.rsc” klassifikatori faqat harbiy maqsadlar uchun mo'ljallangan. U tezkor-taktik vaziyatni xaritaga tushirish uchun yaratilgan. “VS RUz.rsc” yordamida vaziyatni xaritaga tez va sifatli tushirish, elektron xaritani rasmiylashtirish, qo'shinlarning jangovar tartibidagi keraksiz (eski) holatni o'chirish va yangisini tushirish mumkin, shuning uchun bu ishlarga sarf qilinadigan vaqt, keskin qisqaradi [3].

“Редактор классификатора” yordamida shartli belgilar tuzish.

“Редактор классификатора” ishorasi bilan ishlashdan maqsad yangi obyektlar yoki shartli belgilar yaratish, klassifikatorida mavjud shartli belgilarning qatlami, rangi, o'lchami, shakli va boshqa xususiyatlariga o'zgartirishlar kiritishdir.

Klassifikatorida yangi qatlam hosil qilib bunda yangi obyektini yaratish uchun:



1- rasm. “Редактор классификатора” oynasi.


1. “Задачи” “Редактор классификатора” ketma-ket belgilanadi;


2. «Выбор классификатора» qatoridan  ishorasini belgilab bizga kerakli klassifikatorni tanlab olamiz (1-rasm);

3. “Слои” ilovasida “Добавит” belgilanib yangi qatlam hosil qilamiz va u qatorni belgilab unga nom beramiz (m-n:

“Новые → условные → знаки”) ENTER “Сохранит”;

4. “Объекты” ilovasida ko'rsatilgan tartibda (2-rasm) ish olib boriladi:

- a.  → bosib yangi obyekt hosil qilinadi;  
 b. Takrorlanmaydigan kod raqami kiritiladi;  
 v. Yaratiladigan obyekt turi belgilanadi;  
 g. Yangi obyekt yaratish uchun qatlam tanlanadi;  
 d. Yangi obyekt nomi beriladi va "ENTER" bosiladi;  
 e. Shartli belgi qanaqa tipda bo'lsa, o'sha tip tanlanadi (m-n: "Векторный знак");  
 j. «Параметры» belgilanadi.



2- rasm. "Объекты" ilovasi [4].

5. «Редактирование знака» oynasi ochiladi, bu yerda quyidagi tartibda ishlar bajariladi (3- rasm):

- a. Chiziq, punktir, maydonlar yoki yozuvlarni yaratishda ishlatiladi;  
 b. Qanaqa ko'rinishda chizilishi belgilanadi;  
 v. Rangi belgilanadi;  
 g. Qalinligi belgilanadi (m-n: 1,2,3) "ENTER" bosiladi;  
 d. Shartli belgi chiziladi;  
 e. Shartli belgi asosi belgilanadi (Отчет);  
 yo. shartli belgi to'g'ri turishi uchun "Без наклона", o'ngga yoki chapga burila olishi uchun "Зеркало"ga belgi qo'yiladi;  
 j. "Записать в буфер" ishorasi yordamida yangi belgi xotirasida saqlanadi;  
 z. "Сохранить" belgilanadi.


Obyektlarning shartli belgilari ikki ko'rinishda bo'ladi:

- xaritani displeyda tasvirlash uchun ("Вид");
- xaritani nashr qiluvchi moslamada ("На печать") bosib chiqarish uchun.

Yuqorida bajarilgan ishlar displeyda tasvirlash ("Вид") uchun qilindi, endi uni bosib chiqarish ("На печать") uchun bajarish kerak. Buning uchun yuqoridagi jarayonni davom ettiramiz:

6. "Объекты" ilovasidan (3-rasm) «На печать» holatiga o'tamiz, 4- bosqichda bajarilgan (e) va (yo) punktlari bajariladi. ya'ni:

- e. Shartli belgi qanaqa turda bo'lsa, o'sha tip tanlanadi (m-n: "Векторный знак");
- yo. «Параметры» ishorasi belgilanib kiriladi;



3- rasm. "Редактирование знака" ilovasi.

7. Buferda saqlangan shartli belgini "Взять из буфера" ishorasini belgilab yaratamiz;

8. "Сохранить" "Объекты" ilovasidan yana "Сохранить"ni belgilasangiz shartli belgilar qatorida siz hosil qilgan yangi shartli belgi paydo bo'ladi.

9. Oynani yopib, shartli belgilardan foydalanish usuli bo'yicha ishlashni boshlaymiz [5].

Agar tayyor shartli belgini tahrirlash ("Редактировать" ishorasi), ya'ni qatlami, rangi, o'lchami, shakli va boshqa xususiyatlariga o'zgartirishlar kiritish kerak bo'lsa, "Объекты" ilovasidan bizga kerak bo'lgan obyektни

bosish yo'li bilan tanlanadi, "Копия объекта" yordamida shu obyektдан nusxa olinadi. 2 rasmda ko'rsatilganidek (a) va (d) lardan tashqari barcha jarayon bajariladi. 3-rasmdagi jarayonlar tahrirlashda ("Редактировать" ishorasi) qilishda bajariladi. Bu usul osonroq.

**Xulosa va takliflar.** Shuni ta'kidlash lozimki, GAT texnologiyalarini harbiy sohada qo'llashning istiqbollari juda kengdir. GATlarini qo'llagan holda kelajakda jangovar harakatlarni tashkillashtirish tezkorligini oshirish, unga sarflanadigan vaqtni esa kamaytirish, talofatlarni oldini olish mumkin bo'ladi. Bundan tashqari jangni tashkillashtirish va olib borish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning taminlash hamda an'anaviy qarorlarni qabul qilishda samarali texnologiyalardan hisoblanadi. Albatta yangi GAT va qo'shinlarni avtomatik boshqarish tizimining zamonaviy shakllarini ishlab chiqish va GAT mahsulotlarini ishga tushirish uchun katta mablag' talab etiladi. Ma'lum vaqtdan so'ng mazkur muammo ham hal etilishi maqsadga muvofiq deb o'ylamaymiz.

#### АДАБИЙОТЛАР

1. Беленков В.В., Корж М.М., "Основные направления применения геоинформационных технологий в военном деле", ЗАО "КБ Панорама", город Винница.

2. Харисов В.Н., Перов А.И., Болдин В.А. и др. Глобальная спутниковая радионавигационная система ГЛОНАСС. - М.:ИПРЖР, 1999 г.
3. Малышев В.В., Куршин В.В. «Навигация авиационного потребителя с использованием цифровых карт «ПАНОРАМА».
4. Navro'zov R.M., "Panorama GAT dasturida ishlash", 2023-y.
5. Интернет - страница «ПАНОРАМА интернешнл» -
6. <http://www.панорама.com>.



УДК:336 (075) 15.151.8

**Фируза НАРЗИКУЛОВА,**  
Доктор психологических наук (DSc),  
Национальный центр обучения педагогов новым методикам Самаркандской области  
E-mail: firuza-narzikulova@mail.ru

По отзыву профессора НУУз Д.Мухамедовой

### СОЦИАЛЬНО – ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ В РАЗВИТИИ МОТИВАЦИОННО - ЦЕННОСТНОГО КОМПОНЕНТА

Аннотация

В статье представлен анализ развития мотивационно-ценностного компонента, как социально-психологическая особенность в профессиональной деятельности учителя. Выделены специфика педагогической деятельности, средства педагогической деятельности. Развитие мотивационно-ценностного компонента представлено, как основа эффективного развития педагогической деятельности учителя.

**Ключевые слова:** Социально-психологические особенности, профессиональная деятельность, личность учителя, мотивационно-ценностный компонент, ценностные ориентации, социальные установки, склонности, интересы, потребности, способности и т.д.

### MOTIVATSION-QADRIYAT KOMPLEMENTINI ISHLAB CHIQUISHDA O‘QITUVCHINING KASBIY FAOLIYATINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Maqolada o‘qituvchining kasbiy faoliyatida ijtimoiy-psixologik xususiyat sifatida motivatsion-qiyamat komponentining rivojlanishi tahlili keltirilgan. Pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari, pedagogik faoliyat vositalari alohida ajratilgan. Motivatsion-qiyamatli komponentni ishlab chiqish o‘qituvchining pedagogik faoliyatini samarali rivojlantirish uchun asos sifatida taqdim etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, kasbiy faoliyat, o‘qituvchining shaxsiyati, motivatsion-qadriyat komponenti, qadriyat yo‘nalishlari, ijtimoiy munosabatlar, moyillik, qiziqish, ehtiyoj, qobiliyat va boshqalar.

### SOCIO - PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF A TEACHER IN THE DEVELOPMENT OF THE MOTIVATIONAL - VALUE COMPONENT

Annotation

The article presents an analysis of the development of the motivational and value component as a socio-psychological feature in the professional activity of a teacher. The specifics of pedagogical activity, means of pedagogical activity are highlighted. The development of the motivational and value component is presented as the basis for the effective development of the teacher's pedagogical activity.

**Key words:** Socio-psychological characteristics, professional activity, teacher's personality, motivational and value component, value orientations, social attitudes, inclinations, interests, needs, abilities, etc.

**Введение.** Современный этап развития Нового Узбекистана, характеризуется быстрой сменой технологий, что обуславливает формирование новой системы образования, предполагающей постоянное обновление. В современных образовательных учреждениях мира в образовательные процессы внедряются креативные модели совершенствования социально-психологических условий развития профессионального уровня, индивидуально-психологических характеристик, профессионального имиджа педагогов и их потенциала. Успешность реализации непрерывного образования зависит от того, насколько будут способны все субъекты системы образования поддерживать конкурентоспособность, важнейшими условиями которой становятся такие качества личности, как активность, инициативность, способность творчески мыслить и находить нестандартные решения. Поэтому одним из перспективных направлений развития образования в Новом Узбекистане становится повышение профессионального мастерства, распространение

передового опыта, создание инновационной образовательной среды.

Современное образование ориентировано на активного и мобильного педагога, проявляющего инициативу, четко осознающего свои профессиональные цели, открытого для всего нового и оптимистично настроенного по отношению к инновациям. Именно такой педагог сможет эффективно реализовать ключевые направления, отраженные в послании Президента Узбекистана Шавката Мирзиёева на 2023 год, поэтому, по инициативе нашего Президента, мы в первую очередь должны уделять внимание поддержке образования, как самой важной инвестиции в Новом Узбекистане [1].

**Обзор литературы.** Проведённый нами анализ научной литературы по исследуемой проблеме, а так же эмпирическое исследование, показывают, что психологическое содержание эффективной профессиональной деятельности педагогических кадров являются относительно переменными, которые, как правило, предопределяются не только развитием общества, но и развитием личности самого учителя в процессе ежедневной практической, творческой

деятельности[2]. В мире проводятся научные исследования по совершенствованию методов формирования и развития профессионального имиджа педагогов по следующим приоритетным направлениям, в том числе получены следующие научные результаты: усовершенствованы габитарные и коммуникативные характеристики личного образа путем воздействия педагога на самого себя с помощью нейролингвистической программы (Бостонский Северо-восточный университет, США); за счет реализации механизмов саморегуляции личности обеспечивается раскрытие содержания перцептивных аспектов профессионального образа педагога (Мюнхенский университет, Германия); совершенствовалась модель-прототип исходя из потребностей, направленных на восприятие социальной среды, описание изучаемого учителем явления, самосовершенствование и достижение больших успехов в профессиональной деятельности (Университет Риджентс, Великобритания); путем определения конкурентной среды, постоянно меняющихся социально-экономических условий рынка образовательных услуг совершенствуется формирование целостного видения характерных черт современного типа личности и соответствующих направлений педагога (МГУ, Россия); при помощи ассоциаций достигнуто формирование специального имиджа путем дальнейшего улучшения восприятия учителем социальной среды, дающей дополнительные ценности (Сеульский национальный университет, Южная Корея).

Вместе с тем, согласно позициям ряда исследователей эффективная педагогическая деятельность имеет свою характерную специфику отличающаяся преимущественно социально-психологическим контекстом:

современная педагогическая деятельность представляется, как процесс взаимодействия между человеком, который овладел культурой, и человеком, который только овладевает ею. Это, в свою очередь, определяет умственный характер педагогического труда;

современная педагогическая деятельность осложняется тем, что ее объектом выступают другие люди, в частности дети. В ходе неё осуществляется психолого-педагогическое воздействие на объект, побуждение к активности, в результате которых порождается сознание, редуцирующаяся сознанием учителя;

специфическим является продукт педагогической деятельности, т.е. обучаемый, который является составляющей социального целого, совокупностью общественных взаимоотношений, имеет неповторимые индивидуальные качества.

Кроме того, специфическими являются также средства педагогической деятельности, с помощью которых педагог воздействует на обучаемого. Прежде всего - это личность самого учителя, его знания, умения, эмоции, чувства, воля, нравственность, профессионализм и пр. Эффективность педагогической деятельности также специфична, поскольку учитель работает с обучаемыми, а потому процесс и результаты этой деятельности материализованы в них, результаты усилий педагога проявляются не сразу, их довольно сложно объективно оценить и сопоставить [4].

Обобщение различных научных исследований посвященных изучению эффективности педагогической деятельности позволяют нам выделить следующие её содержательные компоненты [2]:

- мотивационно-ценностный;
- когнитивный;
- процессуальный;

аналитико-результативный.

При этом, вышеизложенные компоненты имеют условный характер, в реальной педагогической деятельности они существуют в тесной взаимосвязи. Их условное выделение необходимо для облегчения понимания изучаемой проблемы, раскрытия психологических особенностей эффективной современной деятельности учителя. Так, в рамках мотивационно-ценностного компонента, деятельность педагога может, будет успешной лишь в том случае, если учитель постоянно стремится к повышению своей квалификации, совершенствованию педагогического профессионализма. Это возможно только в условиях личностного роста, формирования активной жизненной позиции, выявления инициативы. Для выявления инициативы педагогу необходимы соответствующие мотивы, заинтересованность, ориентация на определенные ценности. Таким образом, педагогическая деятельность учителя может проявляться лишь в неразрывном единстве с ценностями личности, в условиях глубокой заинтересованности и мотивации к данному виду деятельности.

**Методология исследования.** В настоящее время новые образовательные тенденции и требования дают нам возможность в использовании новых подходов. Так, мотивационно-ценностный компонент педагогической деятельности, как составляющая мотивационной сферы учителя является интегральным качеством, которое характеризуется совокупностью ценностных ориентаций, социальных установок, склонностей, интересов, потребностей, что составляют основу мотивов, т.е. все то, что включает в себя понятие направленность личности. Психологическая практика показывает, что эффективная профессиональная деятельность современного учителя отличается своей сложностью, творческим характером, наличием довольно широкого спектра функций и насыщенностью социально-психологического содержания. При этом, арсенал форм и средств, с помощью которых учитель осуществляет профессиональную деятельность достаточно широк и включает учебную, внеклассную работу, работу с коллегами, а также с родителями учеников и пр. Осуществление профессиональной деятельности требует от учителя индивидуально-дифференцированного подхода к обучаемым детям, установления субъект-субъектных взаимоотношений педагог-обучаемый, организации взаимодействия с учениками, учебно-воспитательного процесса в целом, применение передовых образовательных технологий и пр [5].

**Анализ и результаты исследования.** Рассматривая аспект направленности личности учителя, полагаем целесообразным отметить, что в психологической науке данная сфера определяется по-разному, в частности как:

интерес к педагогической профессии, личностные наклонности заниматься ею;

обобщённая характеристика личности учителя, комплекс его личностных качеств, побуждающих педагога к самореализации именно в соответствующей профессиональной деятельности;

взаимодействие интереса, любви к обучаемым детям, ответственности за выбранное дело перед обществом, целеустремленность в овладении профессии с целью достижения соответствующего мастерства, потребность в педагогической деятельности.

Наиболее полно направленность личности современного педагога можно охарактеризовать в виде следующих взаимосвязанных составляющих:

социально-нравственная, сущность, которой заключается в идейной убежденности, она в целом, предопределяет все другие свойства и характеристики личности учителя;

педагогическая, которая вступает неким фундаментом, на нем строятся основные профессионально-важные качества личности учителя;

познавательная, которая отражается в тяги к знаниям, а также охватывает познавательные интересы учителя.

Важнейшим аспектом мотивационно-ценностного компонента деятельности учителя вступает осознание им главных принципов образовательного процесса. Это, прежде всего, требует от педагога осознать и признать:

личность каждого обучаемого, его ценность именно с теми способностями, которые даны ему природой;

право обучаемого на свое личное мнение, которое может отличаться;

что главная задача учителя найти те средства, формы и методы, которые позволят заинтересовать, привлечь обучаемого к получению соответствующих знаний.

Для педагога необходимо также осознание то, что образовательный процесс будет результативным тогда, когда он будет вызывать в обучаемых детей внутреннее желание учиться, постигать соответствующие знания, увлеченность обучением, формировать ответственность за собственное будущее, что предполагает создание благоприятных условий, которые, как правило, раскрываются в свободе выбора, достижении успеха, диалогического взаимодействия, стимулирование учащихся на всех этапах учебно-познавательной деятельности и пр.

В этом аспекте нельзя не обратить внимание на такую значимую особенность деятельности педагога, как его отношение к обучаемым и те способы, через которые он привлекает их к обучению. По мнению исследователей, существует три таких основных способа — это страх, честолюбие и любовь. Учитывая современные подходы к организации начального образования, педагог должен полностью отказать от первых двух, порождающих страх и культ оценок, и по возможности опираться преимущественно на третий способ, т.е. любить обучаемых детей [6].

Именно на этом, здоровом развитии детей через обучение с любовью, акцентируют внимание много исследователей. Так, Н.В. Корепанова, П.И. Пидкасистый, А. Тареева [8] отмечают, что педагог, это, прежде всего, человек любви. Обучаемых детей необходимо любить, и тогда все проблемы с ним будут решены максимально результативно. Более того, существует тесная связь между познанием и любовью. Они направлены на углубленное постижение объекта и предмета внимания человека. Любовь педагога к обучаемым детям не может не породить такого же отношения ребенка к учителю и соответственно к предмету, который он преподает. И если обучаемый будет любить учиться, иметь жажду познания, стремиться к проникновению в сущность явлений и событий, к творческой самостоятельности, то такой процесс будет способствовать здоровому, гармоничному развитию ребенка. Не менее важно для педагога является глубокая заинтересованность в деятельности, направленной на развитие собственного профессионализма, раскрытие своих резервных возможностей, на повышение уровня жизнедеятельности и высокой работоспособности. Особенно это касается

педагога начального образования. Так как данный период в жизни любого обучаемого ребенка является особым, педагог начинает занимать одно из центральных мест в жизни ученика. И именно педагог для ребенка становится безусловным авторитетом, о чем свидетельствуют достаточно распространены ссылки младших школьников на педагога при обсуждении практически любых вопросов [7].

**Выводы и предложения.** Таким образом, направленность педагога на осуществление своей профессиональной деятельности предполагает сформированность совокупности свойств и качеств, которые можно выделить следующим образом:

гуманистическое мировоззрение и ценностные ориентации, позволяющие рассматривать человека, как наивысшую социальную ценность;

наставления на познание и понимание обучаемого, проникновение в мотивацию его поведения, распознавание существенных черт личности;

развитый интерес к другому человеку, уважение к его неповторимости, личная заинтересованность в благополучии других людей;

сознательное желание осуществлять духовное наставничество ребенка на пути его гармоничного развития, поддерживать процессы самопознания, самоопределения, самореализации обучаемого;

готовность к ненасильственной личностно-профессиональной деятельности, к сотрудничеству и установление педагогически целесообразных взаимоотношений с участниками педагогического процесса (учениками, их родителями, с другими учителями и др.);

совокупность значимых качеств (целеустремленность, ответственность, работоспособность, справедливость, педагогический такт, эмпатия, уравновешенность и т. п.);

сознательное отношение к своему здоровью, мотивацию на его сохранение и укрепление, осуществление здорового образа жизни;

потребность в самообразовании, саморазвитии, совершенствовании профессионализма [7].

Таким образом, исходя из вышеизложенного можно заключить, что эффективная профессиональная деятельность современного учителя отличается своей сложностью, творческим характером, наличием довольно широкого спектра функций и насыщенностью социально-психологического содержания. При этом, арсенал форм и средств, с помощью которых учитель осуществляет профессиональную деятельность достаточно широк и включает учебную, внеклассную работу, работу с коллегами, а также с родителями учеников и пр. Осуществление профессиональной деятельности требует от учителя индивидуально-дифференцированного подхода к обучаемым детям, установления субъект-субъектных взаимоотношений педагог-обучаемый, организации взаимодействия с учениками, учебно-воспитательного процесса в целом, применение передовых образовательных технологий и пр. Конкретизируя содержательно-психологический аспект, целесообразно выделить следующий структурный компонент эффективной профессиональной деятельности современного учителя: мотивационно-ценностный, который, охватывает преимущественно сформированность соответствующей направленности учителя на осуществление педагогической деятельности, а так же способствует профессиональному самосовершенствованию.

## ЛИТЕРАТУРА

1. Послание Президента Узбекистана Шавката Мирзиёева на 2023 год <https://review.uz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>.
2. Нарзикулова Ф.Б. Теоретико-методологические основы исследования развития профессионального имиджа педагога в психологической науке. // Монография. - Самарканд: РЦШКИППКРНОСО, 2019. - 206 с.
3. Нарзикулова Ф.Б. Социально-психологическая модель и условия развития профессионального имиджа учителя в последипломном образовании. // Вестник интегративной психологии. - 2020. - № 20. - С. 89-93. (19.00.00; №2).
4. Нарзикулова Ф.Б. Педагогическая позиция и педагогическое сознание как условие формирования профессионального имиджа учителя начальных классов. // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – том 7, № 10. - С. 19-22. (19.00.00; №2).
5. Нарзикулова Ф.Б. Профессиональная направленность учителя как условие развития его педагогического имиджа. // Международный научно-методический журнал дискурса по инновациям, интеграции и образованию. - 2020. – т.1, № 1. – С. 46-50.
6. Нарзикулова Ф.Б. Формирование педагогической позиции и педагогического сознания, как условие развития профессионального имиджа учителя. // Инновации в педагогике и психологии. - Тошкент. - 2019. - № 10. - С. 40-46.
7. Нарзикулова Ф.Б. Совершенствование социально-психологических условий развития профессионально-имиджевого потенциала учителя. //Диссертация на соискание ученой степени доктора (DSC) по психологическим наукам. 19.00.05- Социальная психология. Этнопсихология. – Ташкент: ЎзМУ хабарлари. – 2023 г. – 250 стр.
8. Пидкасистый П.И. Искусство преподавания. - М.: Педагогическое общество России, 2006. - 212 с.
9. Пискунов Н.С. Имидж педагогических кадров: структура и механизмы формирования // Мониторинг и стандарты в образовании. – 2009. - №7. - С. 55-62.
10. Тареева А. Формирование индивидуального стиля педагогической деятельности. - М.: LAP LambertAcademicPublishing, 2011. - 156 с.



UDK:1(091)

*Olimjon NURIMOV,*

*O‘zbekiston Milliy Universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi katta o‘qituvchisi*

*E-mail:olimjonnur@gmail.com*

*O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi professori, f.f.n. D.M.Bozarov taqrizi asosida*

## MILITARY DOCTRINE AS A STEPPING STONE OF OUR REPUBLICS DEFENSE SYSTEM

Annotation

The present article seeks to reveal the legal basis of maintaining public and state safety, maintaining human rights and liberties, protecting the public from terroristic, criminal and other offences and seeks to illustrate the ways of implementation of the Military Doctrine of the Republic of Uzbekistan. Also, author attempts to reveal the socio-political aspects of maintaining international security in the context of globalization.

**Key words:** Military doctrine, defense system, maintenance of safety and organizational-staff structure, society, citizen, state, progress, modernization, system.

## ВОЕННАЯ ДОКТРИНА КАК ОСНОВА ОБОРОНО СПОСОБНОСТИ НАШЕЙ РЕСПУБЛИКИ

Аннотация

В настоящей статье ставится задача раскрыть правовые основы обеспечения общественной и государственной безопасности, защиты прав и свобод человека, защиты населения от террористических, уголовных и иных правонарушений, проиллюстрировать пути реализации Военной доктрины Республики Узбекистан. Также автор предпринимает попытку раскрыть социально-политические аспекты обеспечения международной безопасности в условиях глобализации.

**Ключевые слова:** Военная доктрина, система обороны, обеспечение безопасности и организационно-штатная структура, общество, гражданин, государство, прогресс, модернизация, система.

## HARBIY DOKTRINA MAMLAKATIMIZ MUDOFAA TIZIMINING MUSTAHKAM POYDEVORI

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, aholining turli terrorchilik xatarlaridan, jinoiy va boshqa noqonuniy xatti-harakatlardan himoya qilishning huquqiy asoslari atroflicha bayon qilinib, O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risidagi qonunning hayotga tatbiq etish jihatlari yoritilgan. Globallashuv sharoitida davlatlararo harbiy xavfsizlikni ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy jihatlari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Mudofaa doktrinasi, Mudofaa tizimi, Xavfsizlikni ta'minlash va tashkiliy-shtat tuzilmalari, jamiyat, fuqaro, davlat taraqqiyot, modernizatsiya, tizim.

**Kirish.** Mamlakatimizning harbiy qurilishi va Qurolli Kuchlarni rivojlantirishning asosiy yo'nalish va zamonaviy yondashuvlarini o'zida mujassam etgan 2017-2021-yillar uchun belgilangan Harakatlar strategiyasi dasturiga muvofiq qabul qilingan Mudofaa doktrinasi va shu kabi harbiy sohadagi yangilanishlar milliy armiyamizning qiyofasi va jangovar imkoniyatlarini, harbiy jamoalardagi ma'naviy-axloqiy muhitni tubdan o'zgartirish imkonini berdi.

Amalga oshirilgan va oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar samarasi o'laroq Qurolli Kuchlarimiz bugungi kunda, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, «...jamiyatimizning ajralmas bir qismiga, mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining kafolatiga, harbiy xizmatchilar va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning muhim institutiga aylanmoqda»[1].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida Qurolli Kuchlarning tashkiliy tuzilmalar bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar haqida so'z yuritib, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, aholini turli terrorchilik xatarlaridan, jinoiy va boshqa noqonuniy xatti-harakatlardan himoya qilishga qaratilganligini hamda qisqa vaqt ichida mamlakat xavfsizligini ta'minlash tizimidagi muhim bo'g'inga aylanganligini ta'kidlab o'tdi. Shuningdek, ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada takomillashtirish,

professional harbiy kadrlar tayyorlash ma-salasiga alohida e'tibor qaratish, Institutni mamlakatimizning eng yaxshi oliy o'quv yurtlaridan biriga aylantirishi lozimligi, bu borada yoshlarni harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash va o'qitish, yosh avlodlarimizda qat'iy hayotiy pozitsiya va Vatanimiz taqdiri uchun yuksak mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab berdi.

Prezidentimiz ta'biri aytganda, «Buyuk sarkadalarimizning hayoti va jasorati harbiy xizmatchilar tomonidan mukammal o'rganilishini ta'minlash, shuningdek, ularning ongida Vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, Vatanni sevish, unga sodiq bo'lish. Uni asrab-avaylash va sadoqat bilan xizmat qilish, yuksak harbiy intizomga ega bo'lish har bir vatanparvarning burchi va vazifasidir»[2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Metodologik jihatdan harbiy doktrina mamlakatimiz mudofaa tizimining mustahkam poydevori o'zaro aloqadorlik, tarixiylik, tizimlilik tamoyillari, kontent, germenevtik analiz kabi usullardan foydalanilgan holda tahlil qilingan.

O'zbekiston 2018-yilda taraqqiyotining yangi davri, yangi bosqichiga qadam qo'yib, o'zining yuksak maqsad va g'oyalari asosida buyuk kelajagi sari strategik yo'lidan izchil va yanada faol rivojlanishni davom ettirmoqda. Yurtimiz mudofaa sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar milliy armiyamiz qudratini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda uning huquqiy asoslari

takomillashtirilayotgani mamlakatimizda harbiy-siyosiy faoliyatga ustuvor ahamiyat qara-tilayotganining ifodasidir.

Yangilangan Mudofaa doktrinasini Prezidentimizning ko'rsatmalariga tayanib, uzoq muddatli va fundamental xarakterga ega. Mamlakatimizning davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida aniq belgilab qo'yilgan ushbu yangilangan hujjat shakli hamda mazmuni jihatidan ham bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular quyidagi sakkiz yo'nalishda namoyon bo'ladi.

Birinchiidan, siyosiy-huquqiy jihatdan mazkur hujjatni qabul qilish orqali O'zbekiston Doktrinasining mudofaa xususiyatiga egaligini e'tirof etgan holda hech bir davlatni o'zining dushmani deb hisoblamasligini va barcha mamlakatlar bilan o'zaro munosabatlarni mamlakatimiz milliy manfaatlarining ustuvorligi asosida hamda xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalarini inobatga olgan holda, o'zaro naf ko'rish, teng huquqlilik hamda boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, barcha nizoli masalalarni tinch vositalar va muzokaralar yo'li bilan hal qilish, davlatlararo shakllangan chegaralarning buzilmasligi va o'zgarimasligini tan olish asosida qurishini bildiradi. Shuningdek, Doktrinani ro'yobga chiqarish respublikaning milliy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yagona davlat siyosati doirasida amalga oshirilishini belgilab beradi.

Ikkinchiidan, bizda shu davrgacha mudofaa sohasidagi davlat siyosati asoslari, Qurolli Kuchlarning qurilishi, tayyorgarligi va qo'llashga oid asosiy prinsiplar va yo'nalishlarni tartibga soluvchi ikkita yirik hujjat, ya'ni ochiq tUSDagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995-yil 30-avgustda qabul qilingan 105-I-son qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasini» hamda 2000-yilda Prezident farmoni asosida kuchga kirgan maxfiy tUSDagi «O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasini» norma va prinsiplarini hamda huquqiy mexanizmlarini o'zida mazmunan to'liq qamrab olgan. Shu bois yangilangan Mudofaa doktrinasini jahon va mintaqadagi vaziyat, yuzaga kelayotgan xatar va tahdidlarga, mamlakat imkoniyatlariga mos holda ishlab chiqilgan hamda shu vaqtgacha amalda bo'lgan ikkala doktrinalar o'rmini egallaydi va ularni yaxlit hujjatga birlashtirdi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganidek «Vatanimiz xavfsizligini mus-tahkamlash, uning mudofaa qobiliyatini kuchaytirishdek g'oyat muhim sohada ko'plab muammolar mavjudligini anglagan holda, biz yangi Mudofaa doktrinasini qabul qildik. Ushbu hujjatda mamlakatimizning harbiy qurilishi va Qurolli Kuchlarni rivojlantirish masalalari bo'yicha asosiy yo'nalish va zamonaviy yondashuvlar aks ettirildi».

Uchinchiidan, xorijiy davlatlarning huquqiy tizimiga oid amaliyotida «konseptual», «maqsadli dasturlar», «strategik rejalashtirish» hamda «doktrinal» hujjatlar qabul qilish amaliyoti keng qo'llaniladi. O'z navbatida ularning huquqiy maqomi, tasniflanishi va tartibga solish sohasini ko'lamlari ham turlicha. Biroq, doktrinal hujjatlar turkumi shu kabi mafkuraviy xarakterdagi boshqa hujjatlardan, asosan, o'zining chuqur ilmiy tahlillarga tayangan holda ishlab chiqilishi, real voqeelikka yaqinligi bilan ajralib turadi. Shu tariqa, Mudofaa doktrinalari davlatlarning harbiy xavfsizlik sohasidagi siyosatini namoyon qilib, Qurolli Kuchlarning qurilishi, tayyorgarligi va zarur hollarda qo'llashga doir yo'nalishlarni belgilovchi rasmiy qarashlar, prinsip va yondashuvlar tizimlashgan, yaxlit jamlanma xususiyatiga ega bo'lgan muhim dasturiy hujjat sifatida unda milliy armiyamizning qurilishi va rivojlanishini davom ettirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlarni belgilab berildi.

To'rtinchiidan, sifat jihatidan yangilangan doktrinaning ma'no-mazmuni birinchi marta ochiqlik xususiyatiga ega bo'ldi. Bu esa bizning mudofaa siyosatimizning ochiqligini namoyish etadi.

Beshinchiidan, yangi tahrirdagi Mudofaa doktrinasida bugungi kunda vujudga kelgan vaziyatni har tomonlama o'rganish va tahlil qilish negizida sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan. Xususan, mavjud harbiy-siyosiy vaziyatni baholash va chuqur tahlillar asosida tahdidlarni aniqlash, davlatimiz mudofaa sohasidagi siyosatining prinsiplar yondashuv va yo'nalishlari, Qurolli Kuchlarning vazifalari va qo'llash asoslari, shuningdek, mamlakat mudofaasiga rahbarlik qilish tartiblari mantiqiy ketma-ketlikda ochib berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni mamlakatimiz mudofaa tizimining tashkiliy tuzilmasi, uning harbiy-jangovar holati, askar va ofitserlarning ma'naviy va ruhiy tayyorgarlik darajasi bugungi tez o'zgarayotgan davr talablaridan ortda qolayotgani to'g'risida kuyinib gapirgani ham bejiz emas. Shu bois, o'tgan qisqa davrda milliy armiyamizni isloh qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlar qabul qilinib, Qurolli Kuchlarimiz qiyofasini tubdan o'zgartirish jarayoni keng miqyosda boshlab yuborildi.

Xususan, mamlakatimiz geostrategik joylashuvining o'ziga xosligi, shuningdek, mintaqada vujudga kelayotgan harbiy-siyosiy holatni hisobga olgan holda, Qurolli Kuchlar birlashmalarining vazifa va tuzilmalari qayta ko'rib chiqildi. Milliy gvardiya barpo etildi, armiyani yangi qurol-aslaha va zamonaviy harbiy texnika bilan ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Mudofaa sanoati bo'yicha davlat qo'mitاسi tuzildi. Harbiy kadrlar tayyorlash sohasida olib borilayotgan tizimli o'zgarishlar asosida oliy harbiy ta'lim muassasalari faoliyati tubdan qayta tashkil etildi. Binobarin, sohadagi islohotlarimizning samarasini yanada oshirish maqsadida yangilangan Doktrina muhim rol o'ynaydi.

Oltinchiidan, mudofaa tizimini harbiy-iqtisodiy ta'minlash, jumladan, O'zbekistonda harbiy sanoat kompleksini rivojlantirishning istiqbol yo'nalishlari belgilanishiga ham mazkur hujjatning yana bir muhim fundamental ahamiyatga ega qirrasini, deb qarash lozim. Zero, har qanday mustaqil davlat o'z mudofaa xavfsizligini ta'minlashda milliy iqtisodiyotining tayanch sohasiga aylangan milliy mudofaa sanoati qudratiga tayanishi talab etiladi.

Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mudofaa sanoati davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi qarori bilan mamlakatimizda mudofaa maqsadidagi buyurtmalar va ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha yagona siyosatni muvofiqlashtirib boruvchi maxsus organ tuzilishi ayni muddao bo'ldi. Qarorga muvofiq, davlat qo'mitاسi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimiga qurol-yarog', harbiy texnika, moddiy buyumlarni yetkazib berish va ta'minlash bilan shug'ullanadi. Bir qator davlatlar, shu jumladan, harbiy texnika ishlab chiqarish sohasidagi yetakchi kompaniya bilan harbiy texnika sohasida hamkorlik kengaytiriladi.

Yettinchiidan, Prezidentimiz tomonidan bir necha bor ta'kidlaganidek, shiddat bilan o'zgarayotgan zamonda keskin iqtisodiy raqobat, axborot xurujlari, terroristik tahdidlar tobora kuchayib bormogda. Dunyoning turli joylarida, ayniqsa, Yaqin Sharq mintaqasida qonli to'qnashuv va nizo-lar davom etmogda. Ming afsuski, bunday notinch keskinlik o'choqlari kamayish o'rniga ko'payib bormogda. Ana shunday tahlilali vaziyatni hisobga olgan holda, biz yurtimizda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, turli xavf-xatarlarga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatimizni har tomonlama kuchaytirishimiz shart.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, doktrinal hujjatning ayrim qoidalari vaqti-vaqti bilan qayta ko'rilishi yoki yangilari bilan to'ldirilishi tabiiydir. Shundagina o'z bolamizni, o'z uyimiz, o'z mahallamizni o'zimiz asray olamiz, bunday balo-qazolar hayotimizdan, albatta, yiroq bo'ladi.

Shu bois, ustuvor vazifa va yo'nalishlar, tahdidlar o'zgarishi, harbiy-siyosiy vaziyat, zamonaviy harbiy mojarolar xususiyatiga bog'liq holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti–Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan doktrinaning qoidalari aniqlashtirilishi hamda to'ldirilishi mumkinligi ham belgilab qo'yilmoqda.

Sakkizinchidan, Doktrina ko'p yillar davomida yig'ilib qolgan jiddiy, aniqlangan tizimli muammolar, ya'ni kadrlar masalasi, qo'shinlarni zamonaviy qurol-yarog'lar bilan ta'minlash, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish, yoshlar va harbiy xizmatchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga taalluqli bir qator muammolarni hal etish masalalarini konseptual yechimi bo'yicha aniq vazifalarni belgilaydi[3].

O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi xavfsizlik va mudofaa sohasida boshqa chet davlatlar bilan samarali harbiy-siyosiy munosabatlar va o'zaro hamkorlik qilish uchun qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratish barobarida sohaviy islohotlarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Endilikda Doktrinaning ijrosini ta'minlash uchun hukumatning amaldagi qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish, davlat boshqaruvi organlarining unga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqish va bekor qilishni, eng muhimi birgalikda chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda uning mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlash talab etiladi.

Muhtaram Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, «..har bir askar va serjantda, ofitser va generalda, butun shaxsiy takribda milliy ruh va g'urur kuchli bo'lishi kerak. Milliy ruhbu yengilmas kuch. Milliy ruh kuchli bo'lsa, iroda va jangovar salohiyat ham yuqori bo'ladi. Kelajakda harbiy bo'lishni orzu qiladigan botir farzandlarimiz, milliy ruhni, muqaddas Vatan taqdiri uchun mas'uliyatni tuyg'usini qayerdan oladi? Vatanimiz boy tarixidan, Amir Temur kabi buyuk ajdodlarimiz jasoratidan oladi. O'z oilasi, mehribon ota-onasi hamda el-yurtimizning ishonchi, g'amxo'rligi va e'tiboridan oladi»[4].

Doktrina ijrosi doirasida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqida belgilab berilgan:

1) mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlashda fuqarolik jamiyati va joylardagi davlat hokimiyati organlarining rolini oshirish va faollashtirish;

2) harbiy okruglar qo'shinlarining jangovar tarkibini yanada takomillashtirish, jangovar shayligi va harbiy qobiliyatini kuchaytirish, shuningdek, qo'shinlarni boshqarish tizimini avtomatlashtirish va optimallashtirish orqali armiyamizning o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni samarali bajarish salohiyatini oshirish;

3) mamlakatimiz xavfsizligini ta'minlash va tashkiliy-shtat tuzilmalarini takomillashtirish bo'yicha konseptual hujjatlar yangilangani munosabati bilan Qurolli Kuchlarni rejalashtirish va ularni qo'llashning meyoriy-huquqiy asoslarini qayta ko'rib chiqish;

4) qo'shinlarning jangovar va tezkor tayyorgarlik tizimini yanada takomillashtirish, o'quv mashqlari faolligini, ularning samaradorligini oshirish, qo'shinlarning real ehtiyojlarini tizimli ravishda tahlil qilib borish, ularning zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlanish darajasini oshirish;

5) harbiy xizmatchilarning ijtimoiy ta'minot tizimini yanada takomillashtirish borasida mo'ljallangan Qurolli Kuchlarni ijtimoiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni qabul qilish kabi ustuvor vazifalarni o'z vaqtida va samarali bajarishga barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimizni talab etadi.

Muhtaram Prezidentimiz o'zining Yangi O'zbekiston Strategiyasi nomli asarida, «Yangi O'zbekiston tushinchasida mujassam bo'lgan xalq orzusi tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida millatning yetuk vakillarini uni ro'yobga chiqarish yo'lida amaliy harakatlarga undab keldi» [5],- deb ta'kidlab o'tgan.

Muxtasar qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan mudofaa sohasida belgilab berilgan yangi va muhim vazifalarni ro'yobga chiqarish uchun barchamiz birgalikda ularni so'zsiz bajarish, Vatan taqdiri va kelajagi, xalqimiz baxti va kamoli yo'lida belimizni mahkam bog'lab ishlash, bor aql-zakovat, bilim va tajribamizni, sadoqatimizni safarbar etishimiz kerak.

#### ADABIYOTLAR

1. Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafoletidir. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Хавфсизлик кенгашининг кенгайтирилган таркибдаги мажлисидаги нутқи. <https://uz.uz/posts/urolli-kuchlarimiz-mamlakatimiz-bar-arorligi-va-tara-iyetini-11-01-2018>.
2. Мирзиёев Ш.М. Хавфсизлик кенгашининг 2018-йил 28-ноябрдаги йиғилиши баёнидан. [www.gazeta.uz/xavfsizkik-kengashi](http://www.gazeta.uz/xavfsizkik-kengashi).
3. «Ўзбекистон Республикасининг мудофаа доктринаси тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 09.01.2018-йилдаги ЎРҚ-458-сон. <https://lex.uz/docs/3495885>.
4. Мирзиёев Ш. Миллий армия ва халқимиз қанча яқин, бир тану бир жон бўлса, шунча кадрли бўлади /Қуролли Кучлар ташкил топганлигининг 27 йиллиги муносабати билан бир гуруҳ ҳарбий хизматчилар, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимларини ҳарбий унвон, орден ва медаллар билан тақдирлаш маросимида Президент Шавкат Мирзиёевнинг сўзлаган нутқи // [www.gazeta.uz/xavfsizkik-kengashi](http://www.gazeta.uz/xavfsizkik-kengashi). 2019.
5. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон Стратегияси. – Т. Ўзбекистон, 2021. 15-б.



UDK: 384.821

*Faxriddin OBLANAZAROV,*  
*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi*  
*E-mail: foblanazarov@mail.ru*

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD F.Axmedov taqrizi ostida*

## YOSH FUTBOLCHILARDA IRODAVIY SIFATLARNI TARBIYALASH MASALALARI

Annotatsiya

Yosh futbolchilar bilan ishlashdagi dastlabki tayyorgarlik bosqichida ularning har tomonlama jismoniy va ruhiy tayyorgarlikni egallashiga, sog'lig'ini mustahkamlash hamda irodasini tarbiyalash, xilma-xil ko'nikma va malakalarni oshirish, futbol o'yini texnikasi va taktikasining boshlang'ich asoslarini o'rganishdan iboratdir.

**Kalit so'zlar:** Iroda, dadillik, maksimal tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, og'ir yuklamalar, qiyinchilik.

## ВОПРОСЫ ВОСПИТАНИЯ ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ У ЮНЫХ ФУТБОЛИСТОВ

Аннотация

На предварительном этапе работы с юными футболистами они должны приобрести всестороннюю физическую и психологическую подготовку, укрепить здоровье и воспитать волю, совершенствовать различные навыки и умения, освоить основы техники и тактики футбольной игры.

**Ключевые слова:** Воля, смелость, максимальная скорость, ловкость, выносливость, большие нагрузки, трудность.

## QUESTIONS OF EDUCATION OF STRONG-WILLED QUALITIES IN YOUNG FOOTBALL PLAYERS

Annotation

At the preliminary stage of work with young football players, they must acquire comprehensive physical and psychological training, improve their health and educate their will, improve various skills and abilities, master the basics of football game technique and tactics.

**Key words:** Will, courage, maximum speed, dexterity, endurance, heavy loads, difficulty.

**Kirish.** Futbol - O'zbekiston xalqi madaniy hayotining ajralmas qismlaridan biridir. U atletik o'yini bo'lib, u tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, kuchlilik va sakrovchanlikni rivojlantirishga yordam beradi. Futbolchi o'yin vaqtida keng ko'lamli vazifalarni amalga oshiradi. Bu esa yosh futbolchining funksional imkoniyatlari darajasini oshirishga ma'naviy-irodaviy xislatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Yosh futbolchini irodaviy tayyorlashning muhim vazifalaridan biri - qo'yilgan maqsadga erishish uchun irodani maksimal darajada namoyon etish, emotsional holatni boshqara olishdir. Yosh futbolchining irodaviy harakatlari ma'lum bir maqsadga ong'li ravishda intilishida ko'rinadi. Bunda u o'z maqsadi yo'lida turgan qiyinchiliklarni engish uchun bor imkoniyatlariga zo'r berishni bilishi kerak.

**Tadqiqotning maqsadi.** Yosh futbolchini irodaviy tayyorlash uning irodaviy sifatlarini rivojlantirishga tenglashtiriladi. Bularga: maqsadga intilish (maqsadning aniqligi); dadillik va mardlik (xavfli va tavakkal bilan bog'liq bo'lgan asoslangan qarorlarni qabul qilish); qat'iyat va matonat (qiyin-chiliklarga qaramasdan oldiga qo'yilgan maqsadga to'xtamasdan harakat qilish); mustaqillik va tashabbuskorlik (tashqi axborotlarga suyanmasdan o'z harakatlarini mustaqil belgilash); chidamlilik va o'zini tuta bilish (maqsadga erishishda halal qiladigan o'zidagi jismoniy, psixik xususiyatlardan o'zini tuta bilish qobiliyati) kiradi. Bular irodani tormozlash funksiyasidir. Irodaviy sifatlar qiyinchiliklarning asta-sekin ko'payishi jarayonida rivojlanadi.

Qiyinchilikning ikki xili mavjud: obyektiv - bu sport turining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi, subyektiv - bu sportchi shaxsining xususiyatlari bilan bog'liq qiyinchiliklardir [1].

Mavjud qiyinchiliklar quyidagilardan iborat:

Futbolchining jismoniy tayyorgarligi va uning jismoniy holati bilan bog'liq qiyinchiliklar:

- katta jismoniy yuklama;  
- maksimal tezlikda ko'p marotaba tezlashish va oldinga irg'ishning zarurligi;  
- og'riq sezgilari vujudga kelganida, ularga bardosh berish.

Turli xil texnik usullarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar:

- harakatlarning o'zaro muvofiq va aniqligi;  
- bir harakat aktlaridan boshqalariga, bir harakat shaklidan boshqalariga tezkor ko'chishning zarurligi.

Futbolchilarning taktik harakatlari bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar:

- murakkab va tez-tez o'zgaruvchan sharoitda mo'ljal olishni tez va aniq bajarish zarurligi;

- o'zgaruvchan sharoitda tez va maqsadga muvofiq reaksiya qilish;

- tuzilgan reja va qarorlarini tez o'zgartira bilish.

Futbolchi musobaqa faoliyatining umumiy sharoiti va o'yin bo'layotgan sharoit bilan bog'liq qiyinchiliklar:

- kuchli tashqi qo'zg'atuvchilar, xususan, tomoshabinlarning haddan ortiq emotsionalligi;

- o'yinga noqulay sharoitlarning vujudga kelishi (futbol o'yin maydonining yomon holati, kuchli yomg'ir, qor, juda baland yoki juda past xavo harorati);

- jamoalar g'alaba va mag'lubiyatining o'zgaruvchanligi, o'yinda ustunlikning raqib tomonga o'tib ketish ehtimoli;

- o'yinlar orasidagi vaqtning juda kamligi va o'yin mavsumida juda ko'p o'yinlarning o'ynalishi;

- ikki bo'lim mobaynida yuqori sur'at va yuqori shiddatli yuklamalar.

O'quv-mashg'ulot ishlari bilan bog'liq qiyinchiliklar:

- bir necha yil davomida o'quv mashg'ulotlarini uzluksiz bajarish zarurati;

– kun tartibiga doimo rioya qilish zarurati.

Shaxsga xos qiyinchiliklar mavjud qiyinchiliklardan farqli o'laroq sport turining mavjud xususiyatlariga sportchining, mashg'ulot, sport musobaqa sharoitlari va hokazolarga shaxsiy munosabatida ko'rinadi. Bularga: salbiy start oldi holatlari va o'yin vaqtidagi salbiy hayajonli holatlar, shikastlanish qo'rquvi, raqibdan qo'rqish, raqibning noqulay o'yin uslubi, o'yin maydonidagi qattiq shovqin, irim qilish, noto'g'ri hakamlikdan o'yinchining asabi buziladi [2].

Shaxsga xos qiyinchiliklarni engish uchun, eng avvalo, ularning vujudga kelish sababini aniqlash va shunga ko'ra ularni yo'qotish uchun vosita, chora, yo'l tanlash lozim.

Qiyinchiliklarni engish doimo irodaviy zo'riqishning namoyon bo'lishi bilan bog'liq, agar irodaviy zo'r berish bo'lmasa, sportchining irodasi namoyon bo'lmaydi.

Futbolchilarda boshqa sportchilarga o'xshab quyidagilar bilan bog'liq irodaviy zo'riqishlar namoyon bo'ladi:

– O'yin vaqtida va mashg'ulot yakunida toliqish va charchashni engish;

– Shikastlanish natijasida og'riqni engish;

– O'yin vaqtida diqqatning zo'riqishi;

– Futbolga xos kun tartibini saqlash, ayniqsa, katta miqyosli musobaqalarga tayyorgarlikda.

Sportchining irodasini rivojlantirish ikki yo'nalishda amalga oshiriladi: umumiy va ixtisoslashtirilgan. Irodani umumiy rivojlantirishda irodaviy sifatlarni har tomonlama tarbiyalash nazarda tutiladi. Ular xarakter xislatlariga aylanib, faoliyatning turli sohalarida (o'qish, mehnat va hokazo) namoyon bo'ladi.

Ixtisoslashtirilgan irodaviy sifatlarning rivojlanishi futbolning o'ziga xos xususiyatlariga qarab paydo bo'ladi, chunki har bir sport turida irodaviy sifatlari o'zgacha tusga ega. Shuning uchun futbolchining mardligi bilan parashyutchining mardligini tenglashtirish mumkin emas. Irodani rivojlantirish uchun tanlangan usul va vositalar har bir sport turining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirishi zarur.

Futbolchining irodasini rivojlantirishda murabbiyning roli juda katta. O'ziga va sportchilarga bo'lgan talabchanlik, intizom, qat'iyat, odoblilik, shug'ullanuvchilar shaxsining individual xususiyatlarini bilish – mana shular murabbiy shaxsining sifat ro'yxatlari – murabbiyning o'z shogirdlari irodasini tarbiyalash uchun kerak.

O'yinchini irodaviy tayyorlash – bu murabbiyning musobaqa oldidan onda sonda qiladigan ishi emas, balki uzoq vaqt davomida doimiy, qunt bilan qilinadigan mehnatidir.

Maqsadga intilishni tarbiyalash jarayonida, futbolchida o'z mahoratini takomillashtirish, sport faoliyatini rejalashtirish va maqsadga erishish uchun o'zini bo'ysundirish vazifalarini oldiga qo'yish malakasini shakllantirish zarur [3].

Mustaqillik va tashabbuskorlik o'yinning individual uslubini izlashda, o'z sport mahoratini mustaqil oshirish yo'li bilan va psixologik tayyorgarlikda yangi taktik kombinatsiyalarni yaratish uchun vositalarni qidirishda rivojlanadi.

Dadillik va mardlikni shakllantirish uchun shunday vaziyatlarni yaratish kerakki, ularni hal etish uchun sportchi sustlikka yo'l qo'yishi mumkin emas.

Qat'iyatlik va matonat har xil ob-havo sharoiti, kayfiyat, mashq qilish istagining yo'qligiga qaramay, oldinga qo'yilgan maqsadni egallash, hayot va sport mashg'ulotlari rejimiga rioya qilish, rejalashtirilgan katta jismoniy yuklamalarni bajarish malakalarining egallanishini talab qiladi.

Chidamlilik va o'zini tuta bilishni tarbiyalash uchun futbolchiga vaziyatni to'g'ri baholash, o'z hissiyotlarini idora qilish, ekstremal vaziyatlarda o'z harakatlarini boshqarish va shu kabilarni o'rgatish lozim.

O'z-o'zini tarbiyalash irodani tarbiyalashning muhim tomonidir. U samarali bo'lishi uchun irodani o'z kuchi bilan tarbiyalashning asosiy tamoyillari futbolchi ongiga etkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu tamoyillar quyidagilardan iborat:

– O'z-o'zini boshqara olishni o'rganish, ya'ni o'z xohlagan ishini emas, balki ayni vaqtda kerakli ishini qilish;

– O'z harakatlarining oqibatlarini oldindan bilib, har doim hamma narsani sifatli bajarish, hamma vaqt va har tomonlama o'z-o'zini takomillashtirish;

– Har doim o'z faoliyatidagi nuqsonlarning (xato, mag'lubiyat, muvaffaqiyatsizlik va boshqalar) sababini vujudga kelgan sharoitlardan emas, balki o'z-o'zidan qidirish kerak va o'z-o'ziga qattiq hakamlik qilish lozim.

Yosh futbolchidagi ruhiy sifatlarni rivojlanishining asosiy tomonlari uni ilmiy asoslangan rejalashtirish hisoblanadi. Futbol bo'yicha chop etilgan adabiyotlarda ushbu bo'limga etarli e'tibor berilmaydi. Shundan ruhiy tayyorgarlik oldidagi vazifalarning amalga oshirilishi maqsadga yo'naltirilib olib borilmaydi.

Bo'lajak futbolchini psixologik tayyorlash yoshlikdan boshlanishi kerakligini murabbiy yaxshi bilishi shart. Chunki bu tayyorgarlik mashg'ulotning mustaqil qismi emas, jismoniy, texnik, taktik va maxsus nazariy mashqlarda, kundalik mashg'ulotlarda va musobaqa faoliyatida amalga oshiriladi. Futbolchini tayyorlashda ushbu tomon uslubiy jihatdan to'g'ri uyushtirilsa, unda yuqorida aytilgan psixik sifatlarni rivojlantirish va takomillashtirishga yaxshi asos yaratiladi.

Futbol – bu jamoa o'yini, shuning uchun ruhiy tayyorgarlik mazmunini rejalashtirib, nafaqat sportchini shaxsiy sifatlarini, shu bilan birga, o'yin jarayonida guruh ichidagi o'zaro munosabatlarni, ya'ni hamjihatlik, jamoada ijobiy psixologik iqlimni yaratish va shu kabi kichik guruh sifatlarini, xususiyatlarini shakllantirish dardkor. Yuqorida aytilgan kichik guruhning sifatlari o'yinchilarning qanchalik bir-biri bilan mos kelishiga bog'liq (sotsial, psixologik, psixofiziologik moslik).

O'yin jarayonida ushbu moslikni ikki yo'l bilan amalga oshirish mumkin. Birinchi yo'l - o'yinchilarni temperamenti, sensor-perseptiv jarayonlari, motivatsiyasi, o'yin uslubi, futbolchilar shaxsining emotsional tomondan bir-biriga to'g'ri kelishiga qarab saralab to'plash. Ikkinchi yo'l – futbolchilarda bir xil konseptual modellar, taktik harakat kombinatsiyalarini o'ynash yo'li bilan shakllantirish, bunday yo'l bilan jamoada guruh tafakkuri birligi hosil qilinadi.

Agar 7-8 soatli kundalik mashg'ulotlar e'tiborga olinsa, unda "bugungi" futbolchi yillik mavsum davomida o'ta yuksak hajmli hamda katta shiddatli joriy va yalpi yuklamalarni o'zlashtirishi isbot talab qilmaydi. O'z o'zidan ma'lumki bunday yuklamalar futbolchilar organizimida (birinchi navbatda oyoq mushaklarida) lokal va global toliqish alomatlarini yuzaga keltiradi. Mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra, har bir futbolchi 90 daqiqa 9-12 km. masofani bosib o'tar, shu masofa tarkibida 70-80 dan ortiq barcha harakatlar, aksariyat o'rtacha va maksimal tezlikda bajariladigan yugurish, sakrash, xatlash, burilish, egilish, yiqilish hamda aylanishlar kabi elementlarni ijro etishar ekan. Demak, futbolchining bugungi dolzarb muommolaridan biri real jismoniy va funktsional zahiraga asoslangan ish qobiliyatini muntazam tiklab borish choralarini izlab topishdan iboratdir. «Ish qobiliyati» ko'p qirrali va keng qamrovli integral tushuncha bo'lib, uning mohiyati jismoniy, funktsional, texnik-taktik va psixologik tayyorgarlik ko'rsatkichlari yig'indisi bilan belgilanadi. Yuqori malakali futbolchilarga xos ish qobiliyatini aks ettiruvchi real ko'rsatkichlar darajasi va ularni tayyorgarlik davomida o'zgarish dinamikasini aniqlash, shu qobiliyatni shakllantirish tiklash va kuchaytirishga qaratilgan texnologik vositalarni

ishlab chiqish hamda sinovdan o'tkazish uchun avvalom bor ish qobiliyatini rivojlantirish tajribasini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

O'sib borayotgan bolalar turli bosqichlardan o'tadilar. har bir yosh futbolchining xulq-atvor har xil bo'lib rivojlanadi. Shunig uchun rivojlanishning har bir bosqichining o'ziga xos xususiyatlarini bilish juda muhim bo'lib, jismoniy va psixologik jihatlarni hisobga olish lozim.

Murabbiy- o'qituvchi bolaning ruhiy holatini tushunish kerak. U har bir bola uchun javobgar bo'lishi va har

bir bola uchun turli qarorlar qabul qilishi lozim. Har bir o'yinchining jismoniy rivojlanishini hisobga olib, ularning haqiqiy yoshi va jismoniy rivojlanishini farqlash muhimdir.

**Xulosa.** Yosh futbolchilar mashg'ulotlari davomida o'tkazilgan pedagogik tajriba natijalari va ularning qiyosiy tahlili shundan dalolat beradiki, mashg'ulot va rasmiy o'yinlardan so'ng muntazam qo'llanilgan, noan'anaviy holatlarda ijro etiladigan qayishqoqlik-relaksatsion mazmundagi mashqlar ish qobiliyatini tiklash va kuchaytirish qudratiga ega samarali vosita ekanligi tasdiqladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Oblonazarov F. Jismoniy tarbiya va sport futbol. Samarqand. 2021. 231-bet.
2. Oblonazarov F. Jismoniy tarbiya va sport futbol. Samarqand. 2021. 196-bet.
3. Арисланов И.Т. Тактическая подготовка квалифицированных спортсменов по мини-футболу на основе специальных упражнений: состояние проблемы и перспективы ее решения //Fan-Sportga. – 2020. – №. 2. – С. 17-20.



UDK: 381.739

*Sobit PARDAYEV,*  
*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi*  
*E-mail: sherzod0102@mail.ru*

*P.f.b.f.d. PhD., dotsent Sh.Mustafojev taqrizi ostida*

**“YANGI O'ZBEKISTON” HAYOTIDA MA'NAVYI-MA'RIFIY TEXNOLOGIYALARNI MODERNIZATSIYALASH YO'LLARI**  
Annotatsiya

Ushbu maqolada bugun kunda o'ta dolzarb masalalardan biri bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning jarayonlari va albatta “Yangi O'zbekiston” hayotida ma'naviy-ma'rifiy texnologiyalarni modernizatsiyalash yo'llari qisqacha bo'lsada ochib berilgan.  
**Kalit so'zlar:** Modernizatsiya, insonparvarlik, vatansevarlik, kognitiv, ijtimoiy, madaniy, diversifikatsiya, “Yangi O'zbekiston”, ma'naviyat, ma'rifat, texnologiya.

**ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ДУХОВНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЖИЗНИ «НОВОГО УЗБЕКИСТАНА»**  
Аннотация

В данной статье будут кратко раскрыты процессы духовно-просветительской деятельности, которая является одним из наиболее актуальных вопросов на сегодняшний день, и конечно пути модернизации духовно-просветительских технологий в жизни «Нового Узбекистана».

**Ключевые слова:** Модернизация, гуманизм, патриотизм, познавательный, социальный, культурный, диверсификация, «Новый Узбекистан», духовность, просвещение, технология.

**WAYS OF MODERNIZATION OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE LIFE OF "NEW UZBEKISTAN"**  
Annotation

In this article, the processes of spiritual-educational activity, which is one of the most urgent issues today, and of course the ways of modernization of spiritual-educational technologies in the life of "New Uzbekistan" will be briefly revealed. given

**Key words:** Modernization, humanitarianism, patriotism, cognitive, social, cultural, diversification, "New Uzbekistan", spirituality, enlightenment, technology.

**Kirish.** Ma'naviy-ma'rifiy ishlar maqsad-manzilli jarayon bo'lib, aholi, yoshlar ongining sifat o'zgarishlariga qaratilgan. Bunda ijtimoiy madaniyat faoliyatining o'yin texnologiyalari katta imkoniyatlarga ega, chunki ular yosh yigit-qizlarga zarur ma'naviy bilim va ko'nikmalarni o'ziga xos va qiziqarli usulda-amaliy usulda o'zlashtirishini nazarda tutadi. Bu esa ma'rifiy ishlarni yuqorida qayd etilgan infoteyment tamoyili asosida tashkil qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda o'yin texnologiyalarining joriy qilinishi uni detalli modellashtirishga bog'liq. Modellashtirish-bu ilmiy tadqiqot metodi bo'lib, tadqiq etilayotgan obyektning modelini yaratish va o'rganishni nazarda tutadi. Model tadqiqot predmetining aniq parametrlarini, aloqalarini, vazifalarini, ya'ni originalini qayta yaratishga qaratilgan elementlar tizimi sifatida xizmat qiladi. Modellashtirish-aktual, real hamda potentsial va imkoniyatdagi voqea-hodisalarni kompleks holda tahlil etish mumkin bo'lgan konseptual-metodik obyektlarni loyihalashtirish imkonini beradi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda o'yin texnologiyalaridan foydalanish masalasiga turli yondashuvlar bor bo'lib, ularni o'rganish asosida biz tomonimizdan yaratilgan pedagogik model bir-biriga uzviy bog'langan yaxlit komponentlar sifatida namoyon bo'lib ular orqali ma'rifiy jarayonni samarali tashkil etish mumkin. Mazkur masala tajriba sinov tarzida olib boriladigan ishlar uchun asos qilib olinganini alohida qayd etish kerak.

**Tadqiqotning maqsadi.** Targ'ibot-tashviqot, PRning ijtimoiy-madaniy faoliyat o'yin texnologiyalari bilan

uyg'unlashuvi jahon tajribasida keng foydalanilmoqda. Biz ushbu yo'nalishning milliy (Sharq) va Yevropa davlatlarida foydalanilayotgan (G'arb) modellarini uyg'unlashtirish imkoniyatlarini o'rgandik. Bunda kompetentli yondashuv asosida, qonuniyatlarga asoslangan, bir-biriga funksional bog'langan, aniq yaxlit tizim sifatida qaralib, quyidagi yo'nalishlardan iborat bo'lishi nazarda tutiladi:

-konseptual yo'nalishda-ma'naviy-ma'rifiy ishlar aholi, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda ijtimoiy taklif, maqsad, o'yin texnologiyalarining qo'llanilish tamoyillarini o'z ichiga oladi.

-funktional yo'nalish-tadqiq etilayotgan jarayonda o'yin texnologiyalarining asosiy vazifalari ochib beriladi;

-tashkiliy faoliyat yo'nalishi-bunda ma'naviy-ma'rifiy ishlar o'z ichiga ijtimoiy-madaniy faoliyatdagi o'yin texnologiyalarining shakllari, usullari, tur va metodlarini oladi;

-mezonli-natijaviy yo'nalish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning mezon va darajalarini tavsiflaydi.

Yuqoridagi bo'limlarni ajratish ma'naviy-ma'rifiy ishlarni maqsadli jarayon sifatida hamda uning asosiy qismlarining o'zaro bog'liq holda aniq tasavvur etish imkonini beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ma'naviy-ma'rifiy ishlar mohiyatana ijtimoiy madaniy faoliyatdagi o'yin texnologiyalarining metod, vosita va shakllari mazmunini belgilovchi, me'yor sifatida qabul qilingan tamoyillarga asoslanadi. Ushbu tamoyillarga quyidagilar kiradi:

1. Insonparvarlikka daxldorlik tamoyili. O'yin jarayonining muhim xususiyati-inson, uning qobiliyatlarini

aniqlash va rivojlantirish sanaladi. Bundan kelib chiqib ushbu tamoyil ma'naviy-ma'rifiy tadbirlari ma'naviy-ma'rifiy ishlar ishtirokchilariga nisbatan hurmatda bo'lishni, ularning huquq va erkinliklarini shuningdek, vijdon erkinligi, e'tiqod erkinligini ta'minlashga asoslanadi.

2. Yosh va individual xususiyatlarni hisobga olish tamoyili. Fan tomonidan insonlarning har turli yoshidagi psixik jarayonlari, faoliyati, hatti-harakatlarining o'ziga xosligi o'rganilgan. Ma'rifiy, madaniy ta'sirlar uyg'unligi individning shaxs sifatida psixologik va biologik yetilishiga ijobiy ta'sir qiladi. Buning natijasida ishtirokchilarda o'z hatti-harakatlarini anglashga va hayotiy maqsadlarini belgilab olishga intilish oshadi.

3. Pedagogik maqsadga muvofiqlik tamoyili. Ushbu tamoyil tashkilotchi shaxsning ijobiy rivojlanishiga yordam beradigan o'yinning maqbul shaklini tanlashni nazarda tutadi.

4. Variantlilik tamoyili. Tashkilotchilar tomonidan tashkil etiladigan tadbir-o'yin-har bir ishtirokchining birday ishtirok etishini, o'yinda o'z o'rnini va uni shaxsiy mazmun bilan boyitish imkonini yaratadi.

5. O'zini namoyon etish tamoyili. O'yin jarayonida ishtirokchilar o'zlarining ichki dunyosini namoyon etish bilan birga g'oyalar, ijtimoiy kayfiyat, muammolar, ehtiyojlar va ideallarni o'zida his etib ko'radi, ular esa o'z navbatida shaxsning o'zini ifoda etishi orqali namoyon bo'ladi.

6. Tizimlilik tamoyili. Ishtirokchilarda shakllantiriladigan bilim va ko'nikmalarning maqsadli va tartibli bo'lishini ta'minlaydi.

7. Qiziqishlarning aloqadorligi tamoyili. O'yin loyihasi doim o'ziga xos tarzda reallik va optimallik, hohish va imkoniyat, asosiy loyiha ishtirokchilarining qiziqishlari o'rtasidagi roli kelishuvni o'z ichiga oladi.

8. Jamoaviylik tamoyili. Bu tamoyilga ko'ra, har qanday ishning natijasi bu jamoaviy faoliyat natijasidir. Bu esa tadbir ishtirokchilarining bir maqsad yo'lida birlashuviga, safarbar bo'lishiga olib keladi.

9. Hayot bilan bog'liqlik tamoyili. Bu tamoyil jahon pedagogikasining fundamental asoslaridan biridir. O'yin faoliyatining hayot faoliyatiga kirib borishidan maqsad quyidagilarda ko'rinadi, masalan, o'yinlarning maqsadi vakolatlar sifatida shakllantiriladi, ya'ni ishtirokchilar jamiyat hayotini yanada yaxshilashga qaratilgan har bir huquqiy masala bo'yicha o'z o'rnini anglash, boshqalar bilan hamkorlik qilishga o'rgana boradilar.

10. Xayrixohlik tamoyili shaxsning ijobiy fazilatlariga tayanadi va o'yin jarayonida o'ziga xos ijobiy ma'naviy muhit yaratadi, chunki shaxsning ijobiy zahiralari ochish ijobiy muhitda, juda yaqin hissiy munosabatlar o'rnatilishiga xizmat qiladi.

11. Ilmiylik tamoyili. Jamiyatning ma'naviy hayoti haqida to'laqonli va haqqoniy axborotni berishni, o'yin davomida obyektiv qonuniyatlarni hamda jamiyat ma'naviy muhitining rivojlanish qonunlarini ochishni nazarda tutadi.

12. Sog'lom raqobat muhiti. Har bir guruh vaziyat va muammoga oldin o'zining qarashini ishlab chiqadi, bu nuqtai nazarga boshqa guruhlar tomonidan tanqidiy yondashiladi hamda o'z navbatida ularning o'zi ham muammoga o'z qarashlarini, o'z manbalarini yoqlab ko'rsatadilar. Shundan so'ng, guruh o'z loyihasini ishlab chiqib, uni boshqa loyihalardan afzalligini himoya qiladi va u yoki bu loyiha yutib chiqadi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, ma'naviy-ma'rifiy ishlarda o'yin texnologiyalarining qo'llanilishi ijtimoiy-madaniy sharoitni hisobga olgandagina yuz beradi, bular:

-shaxsning bo'sh paytini faol tashkil etish orqali maqsadli va muntazam ta'sir etish;

- ijtimoiy madaniy faoliyatda o'yin texnologiyalarining qo'llanilishi;

-pedagogik faoliyatni ishtirokchilarda ma'naviy kamolotni shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan model asosida tashkil etish;

-ishtirokchilarning ma'naviy rivojiga ta'sir etuvchi ijobiy ijtimoiy psixologik muhitni yaratish;

-o'yin texnologiyalari asosida ijtimoiy-madaniy faoliyatdagi pedagogik faoliyatning samaradorligini baholashdan iborat.

O'yin texnologiyalarining funksional yo'nalishi tarbiyalash, ta'lim berish, kommunikatsiya, ijtimoiylashtirish, qiziqtirish, rivojlantirish, o'z-o'zini namoyon qilish kabi vazifalarni qamrab oladi:

O'yinning tarbiyaviy funksiyasi tadbir ishtirokchilari o'ziga xos xususiyatlarining yuzaga chiqishiga hamda ayrim xatti harakatlar va holatlarda oldindan belgilangan ma'naviy ehtiyojlar, qarashlar va qadriyatlarining shakllanishiga yordam beradi. Zero "ma'naviy ehtiyoj subyektni faollashtiradi, uni o'z faoliyatini baholashga, uni qondiradigan manbalarga tizimli e'tibor qaratishga chaqiradi. Zero ma'naviy ehtiyojlar-axloqning ijtimoiy psixologik regulatsiyasida asosiy komponentni tashkil qiladi".

Targ'ibotda qo'llaniladigan o'yin texnologiyasining ta'limiy funksiyasi ma'rifiy vazifalarni hal etish imkonini beradi, ya'ni mavzu haqida bilim berish, ishtirokchilarga olingan bilimlarni o'zlashtirish uchun sharoit yaratish, shuningdek, ma'naviy-axloqiy faoliyatning malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

O'yinning kommunikativ funksiyasi tadbir ishtirokchilarida shaxslararo munosabatlar yuzaga kelishi uchun javob beradi, shuningdek, har bir ishtirokchida shaxsiy munosabatlarning yuzaga kelishida, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasi ham shakllantirilib borilishi bilan izohlanadi. Tadbirlarda to'g'ridan-to'g'ri muloqot ma'naviy qarashlar va tasavvurlar bilan almashish, axborotlar hajmini ko'paytirish, to'g'ri qarash va xulq namunalari ishlab chiqish imkonini beruvchi ijobiy sharoitni yaratadi.

O'yinning ijtimoiy funksiyasi-o'yin davomida ishtirokchilarning turli rollarni bajarish orqali shaxsiy tajribaga ega bo'lishida namoyon bo'ladi. Inson o'zlashtirilgan me'yor va qadriyatlarini amaliyotda sinab ko'radi. O'sha me'yor va hosil bo'lgan shaxsiy ko'nikmalar o'rtasidagi farqlar natijasida ilk qarashlar qaytadan ko'rib chiqilishi mumkin. Bu funktsiya ishtirokchi ma'lum ma'naviy me'yorlarni o'zlashtirib olib, u yoki bu qarash, me'yorlarga o'zining subyektiv bahosini berganda amalga oshgan hisoblanadi.

O'z-o'zini namoyon qilish funksiyasi-rolli o'yin ishtirokchilarga o'zini barkamol shaxs sifatida ko'rsatish imkonini beradi va aynan shu jihatdan uning uchun o'yin jarayoni uning natijasidan ko'ra qiziqroq hisoblandi.

Qiziqtirish funksiyasi ishtirokchilarning ongini butunlay ishg'ol qilib, doimiy ravishda tuyg'ular va yangi hissiyotlar almashinuvini ta'minlaydi va ular orqali guruhda o'zaro shaxslararo munosabatning yuzaga kelishi uchun zarur zamin yaratiladi.

Rivojlantirish funksiyasi ishtirokchilarda o'zini va o'zgalarni hurmat qilish, o'z-o'zini boshqarishni nazorat qilish, o'z munosabatini bildirish va muvofiqlashtirish, qonunlarni hurmat qilish, davlat organlari faoliyatiga hurmat munosabatida bo'lish, o'z xatti-harakatlarini amaldagi talablar, me'yorlar, qonunlar bilan taqqoslashni, o'z ehtiyojlarini imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirishini nazarda tutadi.

Tashkiliy yo'nalishi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni shakllantirish jarayonida faol qo'llanuvchi ijtimoiy-madaniy faoliyatning o'yin texnologiyalari metodlari, shakllari, vositalari va turlarini o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning nazariyasiga asosan, har qanday ijtimoiy-madaniy faoliyat texnologiyalari ma'lum metodlar orqali yuzaga chiqadi. Shundan kelib chiqib,

ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda qo'llash mumkin bo'lgan ijtimoiy-madaniy faoliyatning o'yin texnologiyalari metodlarini alohida ko'rib chiqamiz.

O'yin faolligini oshirish metodi. Ushbu metod asosida rag'batlantirishning turli variantlari va yangi bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan musobaqalashish usuli yotadi.

Rag'batlantirish-ishtirokchi harakatlariga berilgan ijobiy baho bo'lib jamiyatda ijobiy qarashlar, fikrlar, g'oyalar, malakalar va ko'nikmalarni mustahkamlashdan iborat. Rag'batlantirish ijobiy hissiyotlarni uyg'otish orqali tadbir jarayonida yaxshi kayfiyat tug'diradi, mas'uliyatni kuchaytiradi, ishonchni oshiradi.

Ma'qullash-bu rag'batlantirishning eng oddiy usuli bo'lib, u tashkilotchi tomonidan mimika, xatti-harakat, xulqqa yoki o'yin ishtirokchisi ishiga ijobiy baho orqali bildiriladi;

Tashakkur bildirish va mukofotlash-tadbir ishtirokchilarida o'yindan tashqarida ham uzoq davom ettirishga ruhlantiradigan kuchli va qat'iy ijobiy hislarni uyg'otadi, qo'llab-quvvatlaydi, mustahkamlaydi.

Dalda va maqtov-yaxshi kayfiyat uyg'otadi, umid beradi va g'alabaga ishonch uyg'otadi. Shuni

ta'kidlash kerakki, rag'batlantirish nafaqat uyinga nisbatan ijobiy tuyg'ularni yuzaga kelishiga yordam berishi, balki tashkilotchiga xalaqit berishi ham mumkin, shuning uchun quyidagilarni hisobga olish kerak:

Tashkilotchi rag'batlantirayotganda o'z e'tiborini ishtirokchilarning mukofot yoki sovrinni olishga qaratilgan tashqi intilishlariga emas, balki ichki xulosa va ma'naviy-axloqiy sabablarga qaratishi va ruhlantirishiga qaratishi kerak. Rag'batlantirish, guruhlar yoki raqib guruhlarini bir-biriga qarshi qilib qo'yimasligi uchun omadi kulmagan ammo bunga astoyidil harakat qilganlarga ham bildirilishi mumkin.

Rag'batlantirish individual yondashuvni talab etadi. Kerakli paytda orqada qolayotgan yoki o'z qaroriga ishonchi so'ngan ishtirokchini ruhlantira olishi kerak. Rag'batlantirish tez-tez takrorlanmasligi kerak, bu usulni qo'llaganda adolat mezonidan kelib chiqish zarur.

Musobaqalashish-ishtirokchilarning tabiiy ehtiyoji sanaladi. Musobaqalashish jarayonida ular taklif etilayotgan g'oya, fikrlarni juda tez o'zlashtiradilar va bu bilan o'z fazilatlarini rivojlantiradilar. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda musobaqani tashkillashtirish-bu uyin harakatlarining samarali asosi sanaladi. Musobaqalashish qiyin va zavqli bo'lishi kerak. Shuning uchun ishtirokchilar o'yinning maqsad va vazifalarini to'g'ri aniqlash, baholash mezonlarini ishlab chiqish, musobaqa o'tkazish uchun sharoit yaratish, xulosa yasash juda muhimdir.

O'yin jarayonida bilish faoliyatini faollashtirish metodi munozaradan foydalanishni, didaktik material bilan mustaqil ishlashni, unga bog'liq vaziyatni hal etish orqali muammoli masalani yechishni nazarda tutadi. Ta'kidlash kerakki, ushbu metodni qo'llash orqali biz o'yin ishtirokchilarining aqliy faoliyat ko'nikmasini shakllantirishga, analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash, sabab, oqibat bog'liqligini o'rnatishga, ya'ni inson ongining mantiqiy tafakkur masalalari uchun javob beradigan sohalarni harakatga keltirish orqali ishtirokchilarning mafkuraviy immuniteti, qarashlari va e'tiqodining to'g'ri shakllanishiga yordam beramiz.

O'yin vaziyatlarining modellashtirish metodi o'yin jarayonida real obyektiv sharoitni yaratish, tadqiq etilayotgan asosiy muhim xususiyatlarni ochishga qaratilgan. O'yin modelining shakli birinchi o'rinda modellashtirish yordamida javob olish mumkin bo'lgan malakalarni belgilash orqali aniqlanadi.

Modellashtirish-bilish metodi sifatida barcha metodlarning u yoki bu jihatdan reallikka asoslanishini ko'rsatadi. Biz ishtirokchilar uchun roli, ishbilarmonlikka, imitatsiyaga asoslangan o'yin turlariga alohida e'tibor

qaratdik. Rolli o'yinlarning o'ziga xosligi rolning aniq tavsiflanishi bilan izohlanadi. Zero o'yindagi xulq ishonchli va haqiqiy bo'lishi kerak. Ishbilarmonlik o'yinining o'ziga xosligi shundaki, u huquqiy o'zlashtirishning faol shakli bo'lib, o'yin davomida ijodiy tafakkur rivojlanadi, huquqiy vaziyatni tahlil qilish va yangi huquqiy masalalarni hal etish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Imitatsion o'yin asosida, ma'lumki, real hayotiy voqeelik - imitatsiya yotadi, imitatsion o'yinlar yangi g'oya, qarash, fikrlarni o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytiradi. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda qo'llaniladigan o'yin texnologiyalari g'oyaviy emotsional ta'sir vositasi majmui bo'lib, tarbiyaviy maqsadga yetishni tezlashtiradi, samarasini oshiradi.

Bizning modelda biz shunday vositalarga: og'zaki (tirik so'z), texnik (Multimedia, videoapparatura), bosma (kitoblar, ilmiy adabiyot, gazeta va jurnallar), ko'rgazmali(plakat va maketlar) murojaat qilamiz. Tanlangan vositalarning muvaffaqiyatli qo'llanilishi uchun bir qancha qoida va majburiyatlarga amal qilish zarur:

-vositalar tanlovi hamisha ma'lum bir tadbirning maqsadiga, jumladan tarbiyaviy maqsadiga ham bog'liq, chunki aynan maqsad vositalarni oqlaydi;

-tanlangan ta'sirchan vositalarning soni va xarakteri tashkil etilayotgan tadbirning vazifalariga muvofiq kelishi kerak;

-tashkilotchi u yoki bu vositalarni tanlar ekan, ularni yaxshi bilishi va a'lo darajada qo'llash metodikasiga ega bo'lishi, uning kuchli va kuchsiz jihatlarini bilishi kerak;

-ixtiyorligida bo'lgan vositalar doim qo'l ostida bo'lishi va to'liq ishlaydigan holda bo'lishi kerak.

Tayyorlash metodikasining o'zlashtirilishi texnologik jarayon adaptatsiyasining to'g'riligini tekshirish imkonini yaratadi, chunki o'yinning ommaviy shakllarini tashkillashtirish eng sarmehnat va og'ir hisoblanadi.

Ishning guruh shakli-ma'naviy bilimlarni o'zlashtirish va zarur huquqiy tajribani egallash uchun eng qulay sharoitlarni yaratadi, chunki, guruh bo'lib muloqot qilish natijasida insonda turli muammolarga nisbatan shaxsiy fikr va munosabat shakllanadi va tasdig'ini topadi. Bundan tashqari o'yin doirasida bir necha ishtirokchilar qatnashsa, u yanada qiziqarli tus oladi. O'yin ishtirokchilari shaxslararo munosabatlardan hissiy qoniqish hosil qiladi, ularda o'zini o'zi baholash shakllanadi.

Yakka tartibda ishlash shakli tadbirda har bir ishtirokchini faollashtirish, rivojlantirishga qaratilgan.

Mezon-ma'naviy-ma'rifiy ishlarni baholash ko'rsatkichlarini va tadbir-o'yin ishtirokchilari kelishlari lozim bo'lgan natijani o'z ichiga oladi. Shu ma'noda mezon-etalon, andaza, ideal namuna bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni tadqiq etilayotgan holatning darajasini ko'rsatadi va real voqeahodisalar ushbu etalonga muvofiq yoki muvofiq emasligini aniqlashga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tarbiyaviy ko'rsatkichlari sifatida kognitiv (milliy ma'naviyat, dunyoning mafkuraviy manzarasi, qonunlar, urf-odatlar, qadriyatlar, axloq me'yorlari bilimlar), emotsional(insonning jamiyatga, o'z-o'ziga qaratilgan munosabati), hissiy-kommunikativ (tadbir ishtirokchilarining ichki holati, ya'ni o'z-o'zini baholashi, identifikatsiya qilishi, o'z xalqining milliy ma'naviyatiga nisbatan munosabati), hulq (shaxsning real ijobiy(yoki salbiy) g'oya, qarash, holatlarga moyillik darajasi, o'z majburiyatlariga nisbatan faol-nofaol munosabati) kabi mezonlar belgilab olindi.

Shunday qilib, bizning tadqiqotda ma'naviy-ma'rifiy tadbir ishtirokchilarining ma'naviy madaniyati shakllanishi borasida uch bosqichi-past, o'rta, baland darajalari ajratib ko'rsatildi. Har bir bosqich-daraja ma'naviy-ma'rifiy tadbir ishtirokchilari ma'naviy madaniyatining muayyan darajasini

tavsiflaydi. Shu sababli keyingi bosqichga o'tish pastdan yuqori ko'rsatkichga qarab ko'tarilishni ko'rsatib beradi.

Ma'naviy madaniyatning past darajasi jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayot haqidagi bilimlarni bilmaslik, asosiy ma'naviy tushunchalarni tushunmaslik, shuningdek, aniq vaziyat tahlilida ma'naviy muammoni aniqlay olmaslik, shaxsning o'zi hamda boshqa shaxslarning ma'naviyatini baholay olmasligi bilan izohlanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbir ishtirokchilarining ma'naviy madaniyatining o'rta darajasi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotdagi bilimlarni tushunish, asosiy ma'naviy manbalarni bilish, jamiyat rivojida ma'naviyatning qadr-qiyamatini yetarli tushunish, aniq ma'naviy vaziyat tahlilida muammoni aniqlay olishi, shaxsning o'zi ma'naviy-axloqiy me'yorlarga amal qilishi tushuniladi.

**Xulosa.** Ma'naviy-ma'rifiy tadbir ishtirokchilari ma'naviy madaniyatining baland darajasi ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotdagi bilimlarni to'la bilish va tushunishni, ma'naviy manbaalarni mukammal darajada bilishni, o'zining ma'naviy-axloqiy xulqidan qoniqish his qilishini, jamiyat rivojida ma'naviy qadriyatlarining qadr-qiyamatini anglashni, aniq vaziyat tahlilida ma'naviy muammoni aniqlay olishni, ma'naviy muammoni hal etishning

turli yechimlarini topish va asoslashni, eng samarali usullarni tanlay olishni nazarda tutadi.

Qayd etish kerakki, ma'naviy-ma'rifiy tadbir ishtirokchilarining ma'naviy madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik faoliyatning natijasi: ma'naviy qadriyatlarni bilishi va amal qilishi, o'zini va o'zgalarni hurmat qilishi, Vatanga sadoqati, shaxsning jamiyat uchun foyda va zarar nuqtai nazaridan baholay oladigan va shunga intilishi orqali tavsiflanadigan daxldorligi, ijtimoiy kompetensiyalarga egaligi hisoblanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbir ishtirokchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik modeli bir-biriga uzviy bog'liq elementlarga: jamiyatning ijtimoiy taklifi, konseptual bo'lim (maqsad, vazifa, tamoyil va shart-sharoit), tashkiliy-faoliyat bo'limi (turlar, vositalar, shakllar va o'yin faoliyatining texnologiyalari), funksional bo'lim (o'yin funksiyasi), mezonli-natijaviy bo'lim (mezonlar, ko'rsatkichlar, ma'naviy madaniyatning shakllanganlik darajalari)ga asoslanadi. Ularning integratsiyalashuvi natijasida esa ma'naviy-ma'rifiy tadbir ishtirokchilarining ma'naviy madaniyatini o'yin texnologiyalari vositalari yordamida shakllantirishning pedagogik faoliyatdagi samaradorligi oshadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.–T.: O'zbekiston, 2017.–488-b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Asarlar 1-jild.–Toshkent: O'zbekiston NMU, 2017.–45-b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik–har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.–T.: O'zbekiston, 2017.–102-b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Jismoniy va ma'naviy yetuk yoshlar– ezgu maqsadimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir// Xalq so'zi.–Toshkent, gazetasi, 2017-y. 1-iyul.
5. Quronov M. Ogohlik: tarix va zamon ko'zgasida. "Ma'naviyat", 2015, 101-b.
6. Quronov M. Ma'naviyat – AQSh va O'zbekiston do'stligi omili.// O'zA sayti. 2018-yil 14-may.
7. Quronov M. Milliy tarbiya.–T.: "Ma'naviyat", 2007.–240-b.



UDK: 37.022

*Mukaddas PAYANOVA,*  
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti  
E-mail: mukaddaspayanova@gmail.com  
*Nilufar NASRIDDINOVA,*  
Termiz Davlat Pedagogika instituti magistranti

*TerDUning pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD M.Djumayeva taqrizi asosida*

### FORMATION OF STUDENTS' SCIENCE-RELATED COMPETENCES IN PRIMARY CLASS MOTHER LANGUAGE AND READING LITERACY LESSONS

Annotation

This article talks about the reforms in the education system, competence and the formation of science-related competences in students in primary-grade mother tongue classes, their use and advantages.

**Key words:** Competence, mother tongue, competence approach, education, pedagogue, basic competence, creative thinking, elementary school.

### ФОРМИРОВАНИЕ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация

В данной статье говорится о реформах в системе образования, компетентности и формировании наукоёмких компетенций у учащихся начальных классов родного языка, их использовании и преимуществах.

**Ключевые слова:** Компетентность, родной язык, компетентностный подход, образование, педагог, базовая компетентность, творческое мышление, начальная школа.

### BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI VA O'QUVCHILARINING FANGA OID KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Аннотация

Ushbu maqolada ta'lim tizimidagi islohotlar, kompetensiya va boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish, ularni o'z o'rnida qo'llanilishi va afzalliklari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Kompetensiya, ona tili, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim-tarbiya, pedagog, tayanch kompetensiya, ijodiy fikrlash, boshlang'ich sinf.

**Kirish.** "Mamlakatimizda istiqolning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi, jismonan va ma'nan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, ularning qobiliyat va iste'dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda"[1].

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

YUNESKO tomonidan 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida —sifatli ta'lim ijodiy tafakkurni va bilimni rag'batlantiradi, savodxonlik va hisob malakalari asoslarini, shuningdek, tahlil qilish, muammolarni hal qilish, fikrlash hamda boshqa shaxslararo va ijtimoiy munosabat ko'nikmalarini yuqori darajada egallashga alohida e'tibor berilmoqda. Xalqaro miqyosda ona tili ta'limining sifatini oshirish, ijodiy fikrlash, tanqidiy tafakkur, o'zini-o'zi

baholash, o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirishga alohida e'tibor berilmoqda[2].

Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim tizimining odil va demokratiyalashtirilishi o'quv jarayoniga o'zgacha talab va o'zgacha pedagogik munosabatlarni kashf etadi. Bu jarayon mazmun - mohiyatidan avvalgidan tubdan farqlanadi. Hozirgi kunda o'quvchilarda o'quv predmetlari bo'yicha faqatgina bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishning o'zi yetarli emasligi ma'lum bo'lmoqda.

**Tahlil va natijalar.** Zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy bilimlarni shakllantirish orqali erkin shaxsni tarbiyalash, bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, bilimlarni egallash va amalda qo'llash, qabul qilinadigan qarorlarni tezkor va puxta o'ylab chiqish va harakatlarni aniq rejalashtirish, turli xil guruhlarda samarali hamkorlik qilish, yangi aloqalarga ochiq bo'lishga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Bu ta'lim jarayoniga bilim olish faoliyati bilan birga kompetensiyaviy ko'nikmalarni egallashning muqobil shakllari va usullarini keng joriy etishni talab etadi. Bunda, bolalar iqtidorlarini rivojlantirish usullaridan keng foydalanish, interaktiv metodlar, multimedia kabi yangi pedagogik vositalarni dars jarayonida qo'llash samarali natija beradi. Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv deiyilganda, o'quvchilarning shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotlarida uchraydigan vaziyatlarda egallagan turli xildagi malakalarini samarali ravishda qo'llashga o'rgatish tushuniladi. Shuningdek, bunday yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqil, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega

bo'lish, tashabbuskorlik, media resurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umum-madaniy ko'nikmalarni shakllantiradi.

Bolalarning aqliy ijodiy faoliyatlariga asosiy e'tibor qaratilishi ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish hamda shaxs iqtidorini rivojlantirishda rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Iqtidorli bolalar fan bo'yicha ko'rik tanlov va olimpiadalarda ishtirok etish va ijobiy natijalarga erishish orqali intellektual yetakchilik tajribasiga ega bo'ladi. Bolalar iqtidorlarini rivojlantirishda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish ham katta ahamiyatga egadir. Sinfdan tashqari ishlarda masofaviy ta'lim, virtual laboratoriya, videokonferensiyalar, vebinarlar kabi metodlardan foydalanilgan holda fanga doir kompetensiya elementlari rivojlantiriladi.

O'quvchining kerakli bilimlarni puxta o'zlashtirishida va unda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda eng avvalo, uning diqqatini fan yoki mavzuga to'liq jalb qila bilish muhimdir. Maktabga endigina qadam qo'yan bolada diqqatning birinchi turi-ixtiyorsiz diqqat ustun bo'ladi. Uning diqqati tez bo'linishini, chalg'ishini, o'zini bir joyga ushlab turolmasligini kuzatish mumkin. Shunday paytda bola uchun muhim va qiziqarli bo'lgan narsalarni unga ko'rsatish, bu narsalarning shakli, ko'rinishi, joylashgan o'rni, kattakichikligi, bir-biridan farqi va rangiga nisbatan bolaning diqqat-e'tiborini kuchaytiradi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida kompetentlikni shakllantirish ishlarini savod o'rgatish davridayoq interfaol metodlar yordamida shakllantirib borish lozim. O'quvchi va o'qituvchi, ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga olib boruvchi mustahkam ko'prik vazifasini o'tovchi metodlardan asosiy sifati interfaol metodlar tavsiya qilingan. Boshlang'ich sinflarda bunday metodlarni qo'llash bugungi davr talabidir. Shunday ekan ta'lim jarayonining poydevori bo'lgan Savod o'rgatish davrlaridanoq ya'ni 1-sinf Alifbo darslarida ham interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Endigina maktab ostonasiga murg'ak o'quvchilar nigohida saboq olish zerikarli va mashaqqatli tuyulmasligi uchun o'yin faoliyat bilan bog'liq bo'lgan interfaol metodlaridan foydalanish o'rindir. Ularga metodlar va didaktik o'yinlarni qo'llashimiz muvofiqdir. Biz didaktik o'yinlarni mazmuniga ko'ra tinch o'yinlar, harakatli o'yinlar, aralash tipdagi o'yinlar; shakliga ko'ra musobaqa o'yinlari, sahna o'yinlariga ajratdik. Harakatli o'yinlar. Harakatli o'yinlarga ona tili ta'limi jarayonida qo'llaniladigan musiqali o'yinlar va sahna o'yinlarini misol qilib keltirish mumkin. 2. Aralash o'yinlar. Aralash o'yinlar o'zida ham harakatli o'yinlar, ham tinch o'yinlar elementlarini aks ettiradi. "Mening o'mim qayerda" o'yini. O'yin maqsadi: Ushbu o'yin orqali o'quvchilar yangi "Oo" tovushi va "Oo" harfi bo'yicha o'rganish amalda sinaydilar. Yangi tovush va harfni mustahkamlab undan foydalanishni o'rganadilar. So'z boyligi oshadi. O'yin qoidasi: unga ko'ra o'qituvchi o'quvchilarga Oo tovushi va Oo harfi bilan boshlanadigan so'z aytadi va aytgan so'zining rasmini ko'rsatadi. O'quvchilar esa tayyorlab qo'yilgan mos katakchalarni sanab topib birlashtiradilar. O'qituvchi Oo tovushi va Oo harfi nechanchi o'rinda kelganini so'raydi shu orqali o'quvchi bilimi mustahkamlanadi.

Ta'lim muassasalarida har yili an'anaviy ravishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari haftaligini o'tkazish, "Bilimdonlar", "Zakovat" klublarining dastlabki bosqichlarini aynan boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida olib borish bolalarning bilishga oid qiziqishlarini shakllantirish, tabiatga va borliqqa oid bilimlarini oshirish va ularning ijodiy faolliklarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Bu metodlar orqali bolaning nutqi, tezkor tafakkur qilishi, tinglash va

so'zlab berishi, muloqotga kirishish kabi fanga oid kompetensiya elementlari shakllantiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning kompetensiyaviy bilimlarini shakllantirish uchun so'z boyligi ustida alohida ishlash, lug'at boyligini oshirishimiz kerak. So'z va iboralar tilning ma'no ifodalaydigan asosiy birligidir. Bu til birliklari aniq predmetlarni, mavhum tushunchalarni, individning emotsiya-his-hayajonini bildiradi. Tilda mavjud bo'lgan barcha so'z va iboralarning yig'indisi tilning lug'at tarkibini tashkil etadi. Shu ma'noda lekiskologiya o'quvchilar lug'at boyligini oshirishning metodik asosi hisoblanadi.

O'quvchilarning yangi so'zlarni egallashi, so'z boyligini oshirib borishi uchun ona tilidan lug'at daftar yuritish, mashg'ulotlarda lug'atlar bilan ishlashga yo'naltirilgan mashq va topshiriqlar bilan ishlash mumkin. "Ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi o'qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, barkamol shaxsni shakllantirish nazariyasini turli yangi g'oyalar bilan boyitishni puxta bilishi lozim[3].

Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, mazmunga mos so'z va iboralarning ma'lum izchillikda joylashtirilishdan tuziladi. Kishining lug'at boyligi qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning nutqi ham shunchalik boy bo'ladi. U o'z fikrini aniq, ravshan, ifodali bayon etishga keng imkoniyat yaratadi. Shuning uchun so'z boyligi, uning xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning muhim shartidir. O'quvchi lug'atining boyishiga, birinchi navbatda, uni o'rab olgan muhit, tabiat, kishilarning hayoti, o'qish faoliyati, kattalar va tengdoshlari bilan bo'lgan muloqatlari asosiy manba vazifasini bajaradi. Bola tabiat va insonlar bilan munosabatda bo'lishi natijasida so'z, ibora tasviriy ifoda, maqol, hikmatli so'zlarni o'rganadi, ularni o'z so'zlariga aylantiradi. Badiiy asarlar o'quvchilar lug'atini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba hisoblanadi. O'qish darslarida badiiy asarlar bilan tanishish, tahlil qilish jarayonida o'quvchilar lug'ati ma'lum mavzular bo'yicha ham boyib boradi. Lug'at ustida ishlash uchun maxsus dars ajratilmaydi. U barcha predmetlarni o'rganishda, asosan, ona tili va o'qish darslarida darslik materiallarini o'rgatish bilan bog'liq holda olib boriladi. O'quvchilar matndan ma'no hosil qilish ekan, bunda o'qish savodxonligining ikki muhim jihati yuzaga chiqadi – interaktiv hamda konstruktiv. Interaktivlik xususiyati matn bilan ishlash asnosida o'quvchi hamda asar o'rtasidagi muloqotni aks ettirsa, konstruktivlik esa o'z nomi bilan (construction - ing. qurish, tuzish) matndan yangi ma'noni, xulosalarni yaratishni taqozo etadi. O'qish savodxonligi – shaxs o'zining bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topish maqsadiga erishishi yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida muloqot yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati ham hisoblanadi[4].

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, umuman olganda hamma fanlarda barcha kompetensiyalarni o'quvchilarda shakllantirish, ularni kelajakda o'z faoliyatlarini jarayonida, oilada, jamiyatda va barcha jabhalarda o'z o'rnini topishga xizmat qiladi. Darslar davomida kompetensiyalarni o'z o'rnida va to'g'ri qo'llanilishi ko'zlangan natijaga erishishda yuqori samara beradi. Misollarni kuzatish, tahlil qilish, tadqiq va tatbiq etish jarayonlarida har bir bolaning shu darsgacha nimani bilishi va nimani bilmasligi, nazariy ma'lumotning qaysi tomonlarini bilib olayotgani va nimalarda qiyalayotgani ma'lum bo'lib boradi. Aniqlangan kamchiliklar qo'shimcha chora-tadbirlar qo'llash uchun yo'l ochadi.

**ADABIYOTLAR**

1. Shavkat Mirziyoyev ta'lim sohasini isloh qilish, kasb-hunar ta'limi tizimini yanada rivojlantirish va oliy ta'limning bakalavr yo'nalishiga qabul bo'yicha test sinovlarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqi. 08.10.2017.
2. Hamroyev A. R. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish: Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati.– Toshkent, 2020.
3. Xoliqov A. Pedagogik mahorat.Darslik.-T. Iqtisod-moliya.2011.-6-b.
4. Qosimova Karima, Matjonov Safo “Ona tili o'qitish metodoikasi” Toshkent “NOSIR” nashr 2009.



UDK:37.378.09

*Odinaxon PULATOVA,*  
*Andijon mashinasozlik instituti "Gumanitar fanlar" kafedrasida dotsenti*  
*E-mail: opolatova46@gmail.com*

*NamDU professori, p.f.d O'.M.Asqarova taqrizi asosida*

## WAYS OF THE EDUCATOR TO COMMUNICATE WITH STUDENTS

Аннотация

This article reflects on the requirements that regulate the dialogue between the educator and the student, the behavior, treatment of the student, the fair, correct assessment of the work performed by the student, the criteria of the universal and national tradition in the process of teaching and educating pedagogical students, the etiquette of student treatment, methods of implementing ways of conducting communication.

**Key words:** Educator, student, cooperation, etiquette, communication, ideal, lesson

## СПОСОБЫ ОБЩЕНИЯ ПЕДАГОГА С СТУДЕНТАМИ

Аннотация

В данной статье размышляются о требованиях, которые регулируют диалог между педагогом и студентом, поведение, обращение с студентом, справедливую, правильную оценку выполняемой студентом работы, критерии общечеловеческой и национальной традиции в процессе преподавания и воспитания студентов-педагогов, этикет студенческого общения, лечение, методы реализации, способы ведения коммуникации.

**Ключевые слова:** Преподаватель, ученик, сотрудничество, этикет, общение, идеал, урок

## PEDAGOGNING TALABALAR BILAN MULOQOT OLIB BORISH YO'LLARI

Аннотация

Ushbu maqolada pedagog bilan talaba o'rtasidagi muloqotni tartibga soluvchi talabalar, talabaning xulqini, muomalasini, talaba bajargan ishni odilona, to'g'ri baholashni, pedagog talabalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida umuminsoniy va milliy urf odat mezonlarini, talabalar muomala odobini, muloqot olib borish yo'llarini amalga oshirish uslublari bo'yicha fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Pedagog, talaba, hamkorlik, odob, muloqot, ideal, ibrat.

**Kirish.** Pedagogning ish faoliyati davomida talabalar bilan muomala munosabatlari katta o'rin egallaydi. Bu jarayonda talaba insoniyat to'plagan bilimlarni, muomala qilish tajribalarini o'zlashtiradi. Pedagog esa pedagogik jarayonda asosiy shaxs bo'lib xizmat qiladi, chunki unga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Pedagog talabalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida umuminsoniy va milliy urf odat mezonlaridan saboq beradi. Talabalar muomala odobini, muloqot olib borish yo'llarini asosan pedagog timsolida anglab oladilar. Muallim talaba uchun bir umr ideal, ibrat, namuna bo'lib qoladi. Pedagog bilan talaba o'rtasidagi muloqotni tartibga soluvchi talablardan biri talabaning xulqini, muomalasini, talaba bajargan ishni odilona, to'g'ri baholashdir. Muloqotlar jarayonida pedagog ayrim talablarga rioya qilishiga to'g'ri keladi: o'z ishi jarayonida pedagog har bir talabaning qadr-qimmatini inson sifatida hurmat qilishi, talabaga nisbatan ishonchi; talabaga mehribon, g'amxo'r bo'lishi, shodligiga ham, tashvishlariga ham sherik bo'lish; talabalar bilan har qanday muloqot jarayonida alohida yondoshish, pedagogik takti saqlash. Pedagog faoliyatida sharqona umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish. Milliy dastur, ta'lim to'g'risidagi Qonundan kelib chiqadigan vazifalarni maktab talabalari, o'quv yurtlarining pedagog xodimlari, professor pedagoglari amalga oshiradilar. Shu bois pedagog xodimlar o'zlarining kasbkor sha'ni va qadr-qimmatlarini himoya qilishlari: odob-axloq qoidalariga rioya etishlari, talaba, talaba va talaba, pedagog talaba shaxsining qadr-qimmatini asrashlari; talabalarni mehnatga, qonunlarga, ota-onalarga, ma'naviy tarixiy, madaniy milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, atrof-muhitga

ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashlari, ibratli faoliyatlari va shaxsiy namunalari bilan umuminsoniy axloq qoidalariga, haqiqat, adolat, vatanparvarlik, yaxshilik va boshqa xayrli xislatlarga nisbatan e'tiborni qaror toptirishlari lozim.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston Respublikasining Prezidentining deyarli barcha asarlarida, so'zlagan nutqlarida o'zbek xalqining ko'p asrlik ma'naviy-milliy, qadriyatlarini, ma'naviyatini belgilab beruvchi Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, Imom al Buxoriy, Imom al - Termiziy, Bahouddin Naqshband, az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Sufi Olloyor, Sulaymon Boqirg'oniy kabi mutafakkirlarning bebaho merosini, Al Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Al - Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Mirzo Ulugbek, Amir Temur, Bobur, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod kabi allomalarning jahon fani va madaniyatiga qo'shgan bebaho hissalarini o'rganish, shu asosda yosh avlodni tarbiyalash zarurligi ta'kidlanadi.

Prezidentimizning ta'kidlashicha, yoshlarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda islom ta'limotining ahamiyati katta. Islom dini - bu otabotalabarimiz dini, u biz uchun ham imyon, ham diyonat, ham ma'rifatdir. Insonga xos olijanob sifatlardan yana biri kechirimli bo'lishdir. Bu sifat keng qabli, birovlarning adovatini vaziyatiga chiday oladigan kishilarda bo'ladi. Barkamol inson haqidagi yuksak, umuminsoniy g'oyalar Abu Nasr Forobiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarimizning asarlarida, ayniqsa teran ifoda etilgan. Hazrat Navoiyning «Kamol et kasbim, olam uyidin senga farz o'lmagay g'ammoq

chiqmoq. Jahondin notamom o'tmak biaynix, erur ham momdin nopok chiqmoq», degan fikrlari har bir inson komillikni o'ziga shior qilib olishi zarurligini anglatadi. Pedagogning talabalar bilan muloqot olib borish yo'llari. Biz V.A.Kan - Kalikning pedagogik muloqot haqidagi pedagog va talabalar uchun zarur bo'lgan maslahatlarini to'liq keltiramiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Insonning mehnat faoliyati, mehnat, bilish, muloqot. Biz ular haqida ko'p gapiramiz, tahlil qilamiz. Biroq aql-hushni bir erga to'plab, astoydil o'ylab ko'radigan bo'lsak, g'aroyib bir manzaraga duch kelamiz. Inson mehnat faoliyatining shakl va usullarini o'rganish uchun ko'p vaqt ajratadi, dunyoni bilish usullarini o'rganish uchun ham ko'p vaqt sarflaydi. Biroq insonlararo muloqotga hech kim hech qarda maxsus o'rgatilmaydi. Bizda muloqot qilishning murakkab san'atiga o'qitadigan maktab hozircha yo'q. U bevosita ish jarayonida shakllanib boradi. Tasavvur qiling, siz guruhga kirib keldingiz. Pedagogik muloqotning yozilmagan ushbu qonunlarini yana bir bor eslashga harakat qilamiz.

Pedagogik muloqotni tashkil qilar ekanmiz, o'z nutqimizni bir talaba yoki talabalar guruhiga yo'naltirishga harakat qilishimiz kerak. Bunday yo'l tutish ta'lim va tarbiyaning to'g'ri usullarini tanlash kabi muhimdir. Nutqni aniq yo'naltirish zarur deganda nimani nazarda tutmoq kerak? Avvalo, talabaning shaxsiy xususiyatlarini, uning guruhda, guruhdoshlari bilan munosabatda egallaydigan o'rnini hisobga olish dardkor. Shunga muvofiq nutqni tez ifoda etish, fikrlarning ketma-ketligiga erishish, uning mantiqqa to'g'ri kelishini e'tiborga olish talabaning asosiy vazifasidir.

Shuni ham ta'kidlash joizni, pedagogik jarayondagi muloqotni faqat bir vazifa bilan, ya'ni axborot bilan cheklash mumkin emas. Bu yo'lda muloqotning bir turidan - axborot ayirboshlash, o'zaro munosabatlarni tashkil qilib, talaba shaxsini o'rganish, kattalar va talabalarining birbiriga ta'sirini hisobga olish va boshqa vositalardan foydalanish lozim. Biz pedagogik muloqotdagi mavjud yo'nalishlardan biriga bilib bilmay amal qilmasligimiz mumkin. Biroq buning oqibati ertasigayoq ko'zga tashlanadi, tarbiya natijalarida uzilish yuz beradi. Shunday holning yuz bermasligi uchun pedagog talaba shaxsini o'rganib borishi zarur. Talabalar bilan munosabatga kirishar ekanmiz, muloqotni, ya'ni yuqoridan pastga qarab tashkil qilishdan saqlanishimiz kerak. Hatto yosh talabalar ham mustaqil ekanliklarini isbotlashga harakat qilishadi. Pedagoglik diplomi talabalar bilan munosabatda etakchi bo'lish hukuqini bermaydi. Bunday hukuqni qo'lga kiritish uchun talabalar jamoasida tutadigan o'rni, bu pedagogning rasmiy obro'si emas, balki uning insoniyligi bilan belgilanadi. Talabalar bilan o'zaro munosabatni shunday yo'lga qo'yish kerakki, etakchilik mavqei tabiiy ravishda pedagogik jarayon mantiqidan kelib chiqsin. Aytaylik, talabalar bilan suhbatda kechagi kun mavzusi takrorlanishi mumkin, bunda mavzudagi arzimasi bo'lib tuyulgan o'zgarish suhbatni butunlay boshqa ma'lumotlar bilan boyitib yuboradi. Shuning uchun guruxdagi ruhiy vaziyatni nazorat qila bilish juda ahamiyatlidir. Buning uchun:

- talabalarni kuzata bilish;
- talabalar ko'zidagi ifodani, ularning mimikasi va ko'rinishidagi o'zgarishlarni tushuna bilish zarur;
- talabalar xulqidagi o'zgarishning, kayfiyatidagi barcha o'zgarishlarga e'tibor berish;
- guruhning o'zini tutishiga nisbatan munosabatni bildirishga yumshoqlik va hozirjavoblik ko'rsatish;
- guruhdagi bugungi ruhiy muhitni kechagisi bilan qiyoslab, garchi doimo o'zgarib turgan bo'lsada, umumiy ruhiy holatini topish. har bir pedagog o'ziga talabalar ko'zi bilan qarashni o'rganishi lozim.

Buning uchun:

- o'z faoliyatini tez-tez tahlil qilishi; talabalar o'rniga o'zini qo'yishga harakat qilishi;

- hamkasblarining darslarini kuzatishi va o'zini ularga qiyoslashi; o'zida qaysi nuqsonlar talabalar bilan ishlashga salbiy ta'sir etayotganligini aniqlash;

- xatolarni ochiq tan olish, biron bir narsani bilmaganda uni ochiq aytishdan uyalmasligi; mashg'ulotlardan bo'sh vaqtlarda talabalar bilan suhbatlashishni o'ziga har bir pedagog odat qila olishi.

Talabalarni har qanday savoliga javob berish va so'zlarini tinglashga harakat qilish. Agarda talaba noto'g'ri gapirayotgan va o'zining fikrini bayon qilishga qiynalayotgan, pedagogning vaqti nihoyatda ziq bo'lgan taqdirda ham unga etarlicha javob berib, qolganlarini kelgusi safar birgalikda muhokama etamiz, deb ogohlantirishi zarur. Bunday ta'sir talaba shaxsiga e'tiborning eng muhim ko'rsatkichidir.

Tahlil va natijalar. Muloqotdagi ruhiy vaziyat, talaba kayfiyatining o'zgarishi, bir tomondan guruhdagi ahvol, vaziyat haqida zarur axborot bersa, ikkinchi tomondan ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashga ta'sir etadi. Guruhda doimiy va muntazam «ruhiy kuzatish», talabalar ruhiy holatini aniqlash o'zaro ta'sirning eng aniq vositalarini tanlash imkonini beradi.

Pedagogik muloqotning o'ziga xosligi ham mana shunda. Talabalarda pedagoglar bilan muloqot jarayonida munozara qilish ehtiyoji tug'ilsa, bunga imkoniyat yaratishga intilish joiz. Talaba fikrining noto'g'riligini isbotlash uchun uning xarakteridagi nuqsonlarni yuziga solish shart emas. Ko'p hollarda yosh pedagoglar sho'x talabalar bilan muloqotda qiyinchilikka duch keladilar. Agar siz bunday talabalar qalbiga yo'l topmoqchi bo'lsangiz, talabaga murojaatingizni «nima uchun», «qanday qilib» kabi savollar bilan boshlashga harakat qiling. Bu muloqotning rivojlanishini ta'minlaydi. Lekin esda tutish kerakki, bunday talabalar bilan suhbatda, jonli o'zaro munosabat ipining uzilishi xavflidir. Muloqot doimiy va uzluksiz bo'lishi lozim.

Muloqotda tashabbuskor bo'lish, bu: kishilar bilan ruhiy aloqani tez yo'lga qo'ya bilish; shaxslararo o'zaro ta'sirni maqsadga yo'naltirilgan holda boshqarish, shaxslararo munosabatning zarur darajasiga erishish;

- tug'ilayotgan pedagogik vazifalarga muvofiq ravishda talabalar bilan o'zaro harakat - muloqot shakllari, uslubi, usullarini qayta ko'rish;

- talabalarining pedagogik jarayondagi sustkashliklariga barham berish, ularni faol muloqotga jalb etish.

Talabalar bilan muloqotni tashkil qilar ekanmiz, qizlarga oid ayrim o'ziga xos ruhiy xususiyatlarni bilish lozim: ular hishayajonga tez beriluvchan va juda tez ranjiyidigan bo'lishadi. Ular pedagog xarakteridagi xususiyatni tez anglaydilar, dag'al munosabatda munosabat bo'ladilar.

Ayni vaqtda talabalardan farqli o'laroq pedagogga nisbatan munosabatlarni idora qila biladilar, ya'ni yashira oladilar.

Talabalar bilan muloqotda bir xillikdan voz kechish kerak. Bir xillik quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- O'zini tutishda;
- Talabalar xulqiga e'tibor bermaslikka;
- Darsni rejalashtirilgan chizma asosida olib borishga ko'r-ko'rona intilishda;

Talabaning dars jarayonida o'zini inson sifatida namoyon qilishga intilmasligida;

Jamoadagi tarbiyaviy ishni rivojlantirayotganda umumiy pedagogik vazifalar bilan cheklanib qolmay, ijtimoiy-ruhiy tavsiyanomalar asosida ish olib borish.

**Xulosa.** Har bir pedagog bilishi kerak bo'lgan pedagogik muloqotni tashkil qilishning asosiy ruhiy pedagogik talablari shulardan iborat. Shubhasiz, uni yodlab olish va ko'rko'rona tatbiq qilish etarlimas. U pedagogga o'quv-tarbiya jarayoniga eng asosiy omil - inson omiliga samarali ta'sir etishga yordam beradi.

## ADABIYOTLAR

1. Ashraf Rizvi M., Effective Technical Communication. 2007.
2. Goziev E. Communication psychology. T. : Universitet, 2000-y.
3. Xusanov B., Gulyamov V. Culture of communication Textbook - T. : "Economy - Finance" 2009.
4. Xamidovna P.O. Means and types of pedagogical communication //electronic journal of actual problems of modern science, education and training. – 2021.
5. Khamidovna P.O. Issues of development of the communication culture of technical students //world of science: journal on modern research methodologies. – 2023. – т. 2. – №. 3. – с. 32-35.
6. Khamidovna P.O. Pedagogical mechanisms for the development of a culture of communication between students of technical universities //eurasian journal of learning and academic teaching. – 2022. – т. 15. – с. 29-33.
7. Xamidovna P.O. Methods of teaching young people to communication in pedagogical activity //eurasian journal of academic research. – 2021
8. Khamidovna P.O. On the Issues of Studying the Problems of Unorganized Youth //Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 316-318.
9. Xamidovna P.O. Communication of the manager and its stages //Андижон машинасозлик институти илмий-техник журнал. – 2022.
10. Xamidovna P.O. Педагог ва талабалар ҳамкорлигида мулоқот ва унинг аҳамияти //“ Ишлаб чиқаришнинг техник, муҳандислик ва технологик муаммоларининг инновацион ечимлари” мавзусидаги халқаро илмий-техник анжуман материаллари. – 2022.
11. Xamidovna P.O. Талабалар мулоқотини ривожлантиришнинг педагогик асослари //“Фан-техника тараққиётида хотин-қизларнинг ўрни” мавзусидаги хотин-қизлар форуми материаллари. – 2022.
12. Xamidovna P.O. Талабаларни мулоқот техникасини ривожлантиришнинг психологик омиллари //Рақамли ҳаёт ва ижтимоий фанларнинг баркамол авлодни вояга етказишдаги ўрни ва аҳамияти: долзарб муаммолар ва истиқбол. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – web. andmiedu. uz, 2022.



*Mastura RASULOVA,*  
*QarDU Pedagogika-psixologiya yo'nalishi talabasi*  
*E-mail: mastura\_rasulova1995@gmail.ru*

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori Z.Murodova taqrizi asosida*

### MODULLI TA'LIM ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA METODOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Аннотация

Ushbu maqolada muallif o'quv-tarbiya jarayonida talabalarda metodologik madaniyatning namoyon bo'lishi, pedagogik faoliyatdagi uning ahamiyatini anglash va talabalarning o'zlari tomonidan uning yetarlicha shakllanmaganligining his qilinishini talab etuvchi obyektiv vaziyatlarni modellashtirish vositalarini yoritib bergan.

**Kalit so'zlar:** Modulli ta'lim, modul, o'quv moduli, metodologik madaniyat, ijodiy faoliyat, texnologiyam o'quv-tarbiya jarayoni, konsepsiya.

### ТЕХНОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ МОДУЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье автор разъяснил средства моделирования объективных ситуаций, требующих проявления у учащихся методической культуры в ходе образовательного процесса, понимания ее значения в педагогической деятельности, ощущения ее недостаточной сформированности самими учащимися.

**Ключевые слова:** Модульное обучение, модуль, образовательный модуль, методическая культура, творческая деятельность, технологический образовательный процесс, концепция.

### TECHNOLOGY OF FORMING METHODOLOGICAL CULTURE IN FUTURE TEACHERS ON THE BASIS OF MODULAR EDUCATION

Annotation

In this article, the author explained the means of modeling objective situations that require the manifestation of methodological culture in students during the educational process, the understanding of its importance in pedagogical activity, and the feeling of its insufficient formation by students themselves.

**Key words:** Modular education, module, educational module, methodological culture, creative activity, technological educational process, concept.

**Kirish.** Ta'limning globallashuvi va xalqarolashuvi oliy ta'limda o'qitish jarayonini tashkil etish tizimiga ham o'zgartirishlar kiritishni talab etmoqda. Ayniqsa, oliy ta'limda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash talabalarning maksimal mustaqilligini qo'llab-quvvatlash, egallangan bilimlarni amaliyotda samarali qo'llay olish layoqatini rivojlantirishni taqozo etadi. Bu esa oliy ta'lim jarayonini xalqaro standartlarga javob beradigan pedagogik tizim asosida tashkil etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ana shu maqsadda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"da oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish ustuvor vazifa etib belgilandi [1].

Kredit-modul tizimining asosini modulli o'qitish jarayoni tashkil qiladi. Tadqiqot muammosi bo'yicha o'quv rejalari tahlili bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida metodologik madaniyatni shakllantirishga doir maxsus fan amalda mavjud bo'lmaganligi sababli, uni modulli ta'lim asosida samarali hal etish mumkin, degan xulosaga kelindi. Avvalo, modulli ta'limning o'zi haqida qisqacha to'xtalib o'tsak.

#### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni mavzuning metodologik asosini tashkil qiladi.

Modulli ta'lim bo'yicha ko'plab xorijlik va o'zbek olimlari ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Olimlarimiz B.X.Xodjayev, A.A.Xo'jayevlarning "Kredit-modul tizimi: imkoniyatlari va afzalliklari" nomli maqolasida kredit-modul tizimining mazmun-mohiyati, tizimning yutuq va kamchiliklari yoritilgan. F.R.Rabbimovanning "Bo'lajak o'qituvchilarda badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirish" mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, N.M.Egamberdiyevaning "Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (Pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida)" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida mavzuning muhim tushunchalari tahlil qilingan.

**Tahlil va natijalar.** Modulli o'qitish nazariyasida modul tushunchasi qandaydir bir tizimning aniq funksional vazifasini bajaradigan (yukini ko'taradigan) mustaqil biror bir qismini bildiradi [2].

Pedagogik tadqiqotlarda modul tushunchasi ikki nuqtayi nazardan talqin qilinganligiga guvoh bo'lish mumkin: ta'lim mazmunini tanlash hamda o'quv mashg'ulotini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilish.

Ta'lim mazmunini tanlash nuqtayi nazaridan "modul" tushunchasi ostida "ma'lum o'quv predmeti bo'yicha aniq maqsadni ko'zda tutib, obyektlarning muhim jihatlari mantiqan tugal va mukammal holda yorituvchi o'quv materialining didaktik birligi" tushuniladi.

O'quv mashg'ulotini tashkil etish va amalga oshirish nuqtayi nazaridan mazkur tushunchaga quyidagicha izoh berish mumkin: "Darsda foydalaniladigan mavzu mantiqiy tugallangan fikrli qismlar, ya'ni modularga ajratiladi va har bir qismni o'quvchilar mustaqil o'zlashtirishlari uchun o'quv topshiriqlari tuziladi" [2].

Bilimlarni nazorat qilish nuqtayi nazaridan modul tushunchasini quyidagicha talqin qilish mumkin: Modul – bu o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini majburiy tarzda nazorat qiluvchi o'quv materialining mantiqiy tugallangan qismi [2].

Modulli ta'lim – bu bilimlarni nazorat qilish bilan hamohanglashgan, qandaydir mantiqiy yaxlitlik va tugallanganlikka ega o'quv axborotidagi mantiqiy belgilangan qism [2].

Modulli ta'lim pedagogik texnologiyani tashkil etuvchi tarkibiy bo'laklarni ifodalaydi. Bu modulli ta'lim dars jarayonini tashkil etishdagi eng kichik ish turlaridan hamda ularning turli miqdordagi to'plamlaridan iborat bo'ladi. Bunda eng kichik faoliyat turi eng kichik modul sanalib, boshqalari qancha modulni qamrab olishiga qarab o'ziga mos darajadagi modullar sanaladi.

Ta'limiy modul – unga tegishli metodik materiallar bilan birgalikdagi o'quv kursining mazmunli qismi.

O'quv moduli – har bir o'quv topshiriqlarini bajarish vaqti, nazorat va hisobga olish usullari, o'quv materiallari (paragraf, mavzu, bo'lim, fan, integrallashgan kurs)ni o'rganish bo'yicha ko'rsatmalar. Ko'proq oddiy va o'ziga xos tarzda o'quv moduli uni o'rganishning ko'proq oqilona shakl hamda metodlari bilan birgalikda odatiy o'quv dasturlari mavzu (bo'lim)larini aks ettiradi.

Modulli ta'lim texnologiyasi ta'limning zamonaviy masalalarini har tomonlama yechishga harakat qiladi. Bunda modulli ta'lim texnologiyasini qisqa va ixcham ko'rinishda ishlab chiqish zaruriyati paydo bo'ladi.

Modulli o'qitish texnologiyasi funksional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi, pedagogik-psixologiyalarning umumiy nazariyasidan kelib chiqadi.

Modulli o'qitishning mohiyati shundani iboratki, talaba o'ziga taqdim etilgan individual o'quv dasturi asosida mustaqil ish olib boradi. Bu o'quv dasturida harakatlarning rejasi, axborotlar blogi, o'qitish natijalariga erishish bo'yicha metodik tavsiyanomalar bo'lishi kerak. O'qituvchi bu sharoitda nazorat qilishi, maslahat berish, axborotlarni o'zlashtirish bo'yicha harakatlarni muvofiqlashtirish vazifalarini bajaradi.

Modulli o'qitishning umumiy yo'nalishi, uning maqsadi, mazmuni va tashkil etish metodikasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Modullilik – o'qitish mazmunidan alohida elementlarini ajratib olish; dinamik (o'zgaruvchanlik) – bilimning harakatchanligi (amaliyligiga) va tezkorligiga erishish; moslashuvchanlik – ta'lim mazmunini va unga erishish yo'llarini ta'lim oluvchining individual ehtiyojiga qarab moslashtirish; metodik maslahatning har tomonlamaligi – ta'lim oluvchining bilish faoliyatida va pedagogik faoliyatda professionallikni ta'minlash; tenglik – ta'lim oluvchi va pedagog o'rtasida ishchan hamkorlikni ta'minlash.

Modul mazmuni invariantlilik vositasida faoliyatli tashkil etish axborot almashinuvini amalga oshirishga imkon beradi. U insonda o'sha vaqtning o'zida yuzaga kelgan ehtiyojlarni qondirishni kafolatlaydi, yangi yo'nalishda yuzaga keluvchi qiziqishlarni aniqlaydi. Modulning asosiy ahamiyatli tomoni – inson ongi, fikrlashini rivojlantirishidir.

**Xulosa va takliflar.** Talabalarda metodologik madaniyatni shakllantirishning muhim belgisi sifatida quyidagi qoidalar hisobiga erishish mumkin bo'lgan variativlik va improvizatsiya aks etadi:

a) amaliy mashg'ulotlarda pedagogik vaziyatlarni modellashtirish va muammoli ta'lim metodlaridan foydalanish;

b) shaxsiy yo'nalishlarini izlashga talabalarda intilishni tarkib toptirish uchun o'quv topshiriqlarini shakllantirishda noma'lumlikning aniq darajasining mavjudligi;

v) ishtirokchilarning xulq-atvorini tartibga solib turishning past darajasi, ya'ni professor-o'qituvchining topshiriqdagi noma'lumlikka munosabat sifatida paydo bo'ladigan talabalardagi dastlabki hafsalasizlikka bosiqlik bilan munosabatda bo'lishi, aniq ko'rsatmalar berish, qanday harakatlanish kerakligini aytib qo'yishdan o'zini tiyib turishi;

g) mashg'ulotning har bir bosqichida ko'p variantlikka e'tibor qaratilishi, ya'ni o'z-o'zini namoyon etish imkoniyatining boyligi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan shart-sharoitlar o'quv-tarbiya jarayonida talabalarda metodologik madaniyatning namoyon bo'lishi, pedagogik faoliyatdagi uning ahamiyatini anglash va talabalarining o'zlari tomonidan uning yetarlicha shakllanmaganligini his qilinishini talab etuvchi obyektiv vaziyatlarni modellashtirish vositasida yaratiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son.
2. Xodjayev B.X., Xo'jayev A.A. Kredit-modul tizimi: imkoniyatlari va afzalliklari // NamDU ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2020. – № 5. – B. 511-521. – B. 512.
3. Rabbimova F.R. Bo'lajak o'qituvchilarda badiiy-estetik kompetentlikni rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ...diss. – T., 2018. – 155 b. – B. 64.
4. Egamberdiyeva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (Pedagogika oliy ta'lim muassasalari misolida). Ped. fan. dok. ... diss. – T., 2010. – 332-b.
5. Муродова З.К. Развитие научного и профессионального творчества у будущих учителей // Бюллетень науки и практики, 2021. – № 7 (4). – С. 416-421.



*Atanazar RAXIMOV,*  
*O‘zbekiston Milliy universiteti professori, p.f.d*  
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti, tabiiy fanlar fakulteti dekani*  
*E-mail:atanazarkarimov@gmail.com*  
*Nodira MIRZAEVA,*  
*Guliston davlat universiteti doktoranti, p.f.f.d., v.b.dotsent.*  
*E-mail:nodirabegim.2018@mail.ru,*

*TDPU professori, b.f.n. S.S.Fayzullayev taqrizi asosida*

#### METHODS OF TEACHING BIOLOGICAL SCIENCES ON THE BASIS OF "I HEARD, I SAW, I DID"

Annotation

In this article the opportunity of applying the "I heard - I saw - I did" principle of the innovative cluster of pedagogical education in the process of teaching all natural sciences is highlighted and the principle of "I heard - I saw - I did" and its practical methodology are experimentally tested and analytically described according to the microbiology subject in teaching biology.

**Key words:** Natural sciences, biology, innovative cluster of pedagogical education, the principle of "I heard - I saw - I did", microbiological science, azotobacteria, soybean plant.

#### МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ БИОЛОГИЧЕСКИХ НАУК ПО ПРИНЦИПУ "УСЛЫШАЛ - УВИДЕЛ - СДЕЛАЛ"

Аннотация

В данной статье освещается возможность применения принципа «услышал – увидел – сделал» инновационного кластера педагогического образования в учебном процессе ко всем естественным наукам, а также принцип «услышал – увидел – сделал» и его практическая методология в обучении биологии была экспериментально проверена и аналитически описана в области микробиологии.

**Ключевые слова:** Естественные науки, биология, инновационный кластер педагогического образования, принцип «услышал-увидел-сделал», предмет микробиологии, азотобактерии, соевое растение.

#### “ESHITDIM-KO‘RDIM-BAJARDIM” TAMOYILI ASOSIDA BIOLOGIK FANLARNI O‘QITISH USLUBIYOTI

Аннотация

Mazkur maqolada pedagogik ta'lim innovatsion klasterining "Eshitdim-ko'rdim -bajardim" tamoyilini o'qitish jarayonida barcha tabiiy fanlarga tatbiq etish imkoniyati yoritilgan bo'lib, biologiyani o'qitishda "Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyili va uning amaliy uslubiyoti mikrobiologiya fani bo'yicha tajriba-sinovdan o'tkazilgan va tahliliy bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Tabiiy fanlar, biologiya, pedagogik ta'lim innovatsion klasteri, "Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyili, mikrobiologiya fani, azotobakteriyalar, soya o'simligi.

**Kirish.** Yuksak taraqqiy etgan davlatlarning asosiy ustunligi-ta'lim tizimining holati, shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi bilan belgilanadi. Zero, rivojlangan davlatning istiqboldagi barqaror o'sishini ta'minlovchi omillar, aynan, ta'lim sohasining qanday tarzda tashkil etilganligiga bog'liqdir [3]. Shu sababli, mustaqillikning ilk kunlaridanoq ta'lim sohasida jahonda munosib o'rinni egallashga qaratilgan yangi uzluksiz ta'lim tizimini yaratish va rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Islohotlar davrida respublikamizda yosh avlodni barkamol inson qilib voyaga etkazishning barcha bosqichlarini qamrab oluvchi uzviylik va uzluksizlikka asoslangan yaxlit ta'lim tizimi tarkib topdi.


Pedagogik ta'lim sohasi uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta'lim sifatini oshirish, sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarini joriy qilish, zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning samarali tizimini yo'lga qo'yish maqsadida, Chirchiq tajribasi yo'lga qo'yilgan edi[1]. Ta'limni rivojlantirishda klaster yondashuv ta'limni rivojlantirishning asosiy echimlari sifatida qaralib, bu borada tabiiy fanlarni o'qitishda pedagogik ta'lim klasterining xususiy tamoyili samarali sanaladi.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri asosida tabiiy fanlar (biologiya va geografiya) ta'limini rivojlantirish modelini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish asosida ta'lim sifatini oshirish asosiy ustuvor vazifalardan sanaladi. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri "Eshitdim - ko'rdim - bajardim" tamoyiliga asoslangan bo'lib, mikrobiologiya fani "tabiatda azotning aylanishida azotobakteriyalarning o'rni va ahamiyati" mavzusidagi dars ishlanmasi orqali asoslab beriladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ta'limga klaster yondashuvini tatbiq etishga Garvard biznes maktabi professori M.Porter sabab bo'lib, klasterning shakllanish mexanizmini o'zaro raqobatbardoshlikning o'sishiga sabab bo'ladigan bir-biriga bevosita bog'liq sohalarning jamlanishi, deb tushuntiradi[11]. O'zbekiston ta'lim tizimida esa pedagogik ta'lim innovatsion klasterining shakllanish asoschilaridan G.I.Muxamedov[3], U.N.Xodjamkulov[4], Sh.I.Botirova, S.Toshtemirovalar o'z ilmiy ishlarida ta'lim va tarbiya jarayoniga tatbiq qilishning nazariy jihatlarini keng o'rganib kelganlar. Tabiiy fanlarda pedagogik ta'lim klasterining amaliy ijrosi bo'yicha Raximov A.K, Boltaeva.M, M. Xoliqova ishlarida soya va makkajo'xori o'simliklarining birgalikda[8] ekilgandagi o'ziga hos xususiyatlari keng yoritilgan.

Tabiiy fanlarni o'qitishda pedagogik ta'lim tamoyili asosida darslarni loyihalash ancha samarali bo'lib, asosiy e'tibor va natija bajardim bosqichi asosida namoyon bo'ladi. Bunda talabalarning fan mavzusiga oid dastlabki bilimlari test savollari orqali aniqlanadi. "Azotning tabiatda aylanishida azotobakteriyalar" mavzusi reproduktiv darajadagi test savollari bilan tekshiriladi. Test savollari testologiya qoidalari asosida talabalarning minimal bilimni aniqlash imkonini beradi.

Talabalardan olingan test nazorat savollari reproduktiv darajada tuzilgan bo'lib, talabalarning azot elementi va uning tabiatda aylanishiga doir dastlabki tushunchalarni bilish darajasida aniqlashga yordam beradi. Dastlabki talabalarning bilish darajasi aniqlangandan so'ng, fan o'qituvchisi tomonidan mavzu ma'ruza ko'rinishida, taqdimotlar yordamida yoritib beriladi. Bu bosqich pedagogik-innovatsion loyihaning "eshitdim" rukniga mos bo'lib, fan yuzasidan talabalar tomonidan nazariy bilimlar egallanadi.



1-rasm. PTK tamoyilining birinchi "Eshitdim" bosqichi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Dunyoning rivojlangan davlat ta'lim tizimidagi eng ilg'or xususiyatlarni "eshitdim ko'rdim bajardim" tamoyiliga singdira olishi va milliy qiyofada aks etishidir. Bunda "ta'limning Chirchiq modeli" dunyoda o'z ustuvor ta'lim tamoyillariga va yo'nalishlariga ega bo'lgan davlatlarning ta'lim taraqqiyot strategiyasini benchmarking asosida Klaster yondashuvga tatbiq etadi.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri "eshitdim – ko'rdim – bajardim" tamoyiliga asoslangan bo'lib:

1. Oliy ta'lim muassasasining umumta'lim maktablari (tabiiy fanlarni o'qitish)ga metodik yordam ko'rsatish, ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish;
2. "Uzluksiz kasbiy ta'lim elektron platformasi"ni tashkil etish hamda bitiruvchilarni kasbga yo'naltirish orqali oliy ta'limga qamrovini oshirish, dars mashg'ulotlari va o'quv jarayonini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida samarali tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish;
3. Pedagogik ta'lim sohasidagi integratsiya, innovatsiya, uzviylik, uzluksizlik, izchillik, samarali vorisiylikni ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish;
4. Ilmiy asoslangan innovatsion loyihalarning tajribasinoz jarayonlarini tashkil qilish, pedagog kadrlarni tayyorlashda maktabgacha, o'rta ta'lim va OTM hamda boshqa talabgorlar bilan o'zaro tezkor qayta bog'lanish imkoniyatini yaratish;
5. Pedagogik ta'limni rivojlantirishning dolzarb masalalari atrofida intellektual resurslarni integratsiyalash;

"Eshitdim-ko'rdim-bajardim" innovatsion pedagogik loyihasi yo'l xaritasining tuzilishi (modeli) - ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va amalga oshirishning asosi sanaladi. Loyihani amalga oshirish psixologik-pedagogik, ijtimoiy-pedagogik va metodik ishlarni o'z ichiga oladi.

"Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyilining maqsadi: ma'lum vaqt oralig'ida belgilangan vazifani, aniq va o'lchamli bajarish imkoniyatiga ega bo'lgan natijalar yaratishdir. Aniq belgilangan maqsad - vazifaning mukammal va samarali bajarilishi garovidir. Bunda tamoyilning uch asosi yetakchi sanaladi.

Ta'limdagi nazariy bilimlarni amaliy, kundalik hayotiy jarayonlarga singdirilishi va amaliy ko'nikmalarini shakllanishiga olib keladi.

"Eshitdim" bosqichida - nazariy dars shaklida ma'ruza, suhbat, hikoya tarzida olib boriladi va kerakli bilimga ega bo'ladi.

"Ko'rdim" bosqichida - amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya hamda seminar mashg'ulotlari shaklida tashkil etiladi va malaka hamda ko'nikmalar shakllanadi.

"Bajardim" bosqichida - mustaqil ta'lim shaklida tahsil oluvchilar ikki bosqichda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kompetentsiyalarga aylantiradi.

Talabalar bilan olib borilgan ma'ruza mashg'uloti natijasi samarasi produktiv darajada tuzilgan test savollari orqali nazorat qilindi. Nazorat uchun o'tkazilgan test savollari, talabalarning nazariy egallangan bilimlarini tekshirishga yordam beradi. Loyihaning amaliy natijasini tasdiqlash uchun, kuzatilayotgan talabalar ikki guruhda: tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi.

**Tahlil va natijalar.** Keyingi bosqich talabalarga berilgan nazariy bilimlarni "ko'rdim" bosqichida, virtual laboratoriya mashg'ulotlari tariqasida taqdim etishdan iborat bo'ladi. Laboratoriya mashg'ulotlari issiqxonada ekilgan dukkakli o'simliklar yordamida olib borildi. Bunda talabalar tomonidan tarkibda azot tutuvchi bakterisi mavjud o'simliklarni tanish, ularni biologik tajriba uchun yig'ish hamda biologik preparat tayyorlash ko'nikmasi rivojlantiriladi. Virtual tajribalar pedagogik - innovatsion tajribada ishtirok etayotgan talabalar bilan o'qituvchi rahbarligida vidiolaboratoriya mashg'uloti tariqasida tasmasga yozib olinadi[7]. Laboratoriya mashg'ulotining uch asosiy maqsadi bo'lib:

1. Ta'limiy maqsadi – talabalar tomonidan egallangan nazariy bilimlar amaliyotda bajarib ko'rish hamda olingan nazariy bilimlarni tajribada asoslash imkoniyatini beradi.
2. Tarbiyaviy maqsadi – talabalar tomonidan mavzu yuzasidan yoritilgan masalalarning xayotiy tajribada qo'llanish imkoniyati mavjud ekanligi va talabalarda vitagen texnologiyalari orqali xayot tajribasi shakllanadi.
3. Rivojlantiruvchi maqsadi – "Ko'rdim" bosqichi orqali talabalar onlayn ta'lim platformasidagi nazariy bilimlarni o'z shaxsiy hayotida ham qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Fan yuzasidan egallanilgan bilimlar, kundalik hayotiy faoliyatda o'z ahamiyatini topadi.



2-rasm. "Ko'rdim" bosqichining amaliy mashg'uloti va shtrix kodli vidiotasviri.

Bu bosqichda laboratoriya mashg'ulotlari videodars hamda vidio taqdimot ko'rinishida yoki qisqametrarli o'quv filmi ko'rinishida masofaviy ta'lim platformasiga yuklandi. Talabalar laboratoriya mashg'ulotini virtual holatda ta'lim platformasi orqali ko'rib o'rganadilar[6].


Keyingi yillarda, nishonlangan azot bilan olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, tugunak bakteriyalar o'zi azotni o'zlashtira olmasdan, faqat dukkakdosh o'simlik bilan birga bo'lgandagina o'zlashtiradi. Mana shu asosda olib boriladigan tajribalar bizga azotning tabiatda aylanishi va azotobakteriyalarning amaliy ahamiyati mavzusini keng tajribalar orqali o'rganilishiga sabab bo'ldi.

Ko'rdim bosqichida ikkita tajriba berilgan bo'lib, bu tajribalar issiqxonada bilan bog'liq holatda olib boriladi. 1-tajriba maqsad va vazifalari: chidamli, yashovchan soya azotobakter shtammlarini aniqlash hamda makkajo'xori o'simligining o'sish tezligi va unumdorligini, tuproq

unumdorligini oshirishda, tugunak bakteriyalar saqlovchi dukkardoshlardan searga, soya o'simligining ahamiyatini o'rganish muhim laboratoriya ishi sanaladi[8].

“Ko'rdim” bosqichining talabalar tomonidan mukammal darajada o'zlashtirilganligi, “qisman izlanishli” ko'rinishdagi test nazorat savollari orqali amalga oshadi. Tajriba guruhidagi talabalar fan o'qituvchisi yordamida laboratoriya-tajriba ishlarini olib borishadi. Nazorat guruhidagi talabalar esa ta'lim platformasiga yuklangan videolaboratoriya mashg'ulotlarini ko'rib, kerakli bilimlarni egallashga harakat qiladilar. O'tkazilgan amaliy tajribaviy bosqich natijalari talabalardan test nazorati orqali aniqlanadi. Olingan ma'lumotlar statistik tahlil qilinadi[10].

Pedagogik-innovatsion loyihaning yakuniy asosiy bosqichi “bajardim” deb nomlanadi. Bu bosqichda talabalar asosiy o'rgatuvchi bosqichlardan o'tib bo'lishgan bo'ladi. “Bajardim” rukni ostida talabalar nazariy va amaliy bilimlarni mustaqil ish vazifalari orqali mustaxkamlaydilar. Mustaqil ta'lim vazifalari masofaviy ta'lim platformasiga joylangan[9].



3-rasm. CHDPU Tabiiy fanlar fakulteti issiqxonasi va ochiq tajriba maydonida olib borilgan mustaqil-tajriba ishining “bajardim” bosqichi.

Bu bosqichning o'ziga xos tomoni shundan iboratki, talabalar berilgan ko'rsatma asosida, mustaqil ravishda ta'lim vazifalarini bajaradilar. Aynan mana shu bosqichda, talabalar tomonidan “eshitilgan”, “ko'rilgan” bilimlar talabalar tomonidan “bajariladi”.

Bu bosqich topshiriqlari qisqa muddatli va uzoq muddatli topshiriqlar bo'lishi mumkin. Pedagogik – innovatsion loyiha azot hosil qiluvchi bakteriyalarni o'rganishga mansub bo'lgani uchun, talabalar, o'qituvchi nazoratsiz amaliy tajribalarni mustaqil ravishda bajaradilar. Olingan natijalar tajribaning qayd etish nazorati daftariga belgilab boriladi. Tajribani bajarilish jarayoni esa talabalar tomonidan vidiolavha ko'rinishida tasvirga olinadi va masofaviy ta'lim platformasiga joylanadi. Ta'lim jarayonida olib borilgan laboratoriya mashg'uloti talabalarining ham ta'lim - tarbiyaviy, ham axborot – kommunikativ kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Bajardim rukni ikki hil ko'rinishdagi mustaqil ta'lim topshiriqlaridan iborat bo'ladi. Talabalar tomonidan topshiriqlar quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Dukkardoshlarga mansub, soya o'simligi ehtiyotkorlik bilan kavlab oladilar. Kavlab olingan o'simlik ildizlari olib o'lchanadi. Har bir sm da mavjud tugunak bakteriyalari xisoblab chiqiladi. Olingan natijalar amaliyot daftariga qayd etib boriladi va statistik xisob-kitoblar olib

boriladi. So'ngra azotobakteriyalardan mikroskop uchun ezma preparat tayyorlanadi. Talaba mustaqil ravishda mikroskop bilan ishlaydi va amaliy mashg'ulotlarda berilgan topshiriq asosida tayyor preparat ko'zdan kechiriladi va o'rganiladi. Kuzatishlar va tajriba natijalari kuzatuv qayd daftariga belgilanadi. Talabalar tomonidan olib borilgan tajriba ishlari kine master dasturida tasvirga olinadi hamda universitet ta'lim platformasiga joylanadi.

2.O'simliklar ekiladigan tuproq namunasi ustida tajriba olib boradilar. Tajribada azot to'plovchi dukkardoshlardan loviya, mosh tajribada foydalanish uchun olinadi. Sinamalar ekiladigan tuproq ikkiga ajratiladi. 1-tuproqqa odatiy holda, an'anaga ko'ra o'simlik dukkagi yoki urug'i ekiladi. 2 – tuproq esa urug' ekishdan oldin, harorat ostida qizdirilib, sterillab olinadi. Sterillangan tuproqqa sinamalar ekiladi. Natijalar kuzatiladi va qayd etib boriladi.

3.Tajriba yakunida talabalar, mustaqil ish natijalari asosida loyihani elektron tarzda (WORD, PPT formatda), ta'lim platformasiga joylashtirildi. Olib borilgan tajriba ishlari esa tasvirga olinadi va maxsus dasturlar asosida videolaboratoriya ko'rinishiga (MR4 formatda) keltiriladi. Vidiolaboratoriya ishi kichik hajmga keltirilib, ta'lim platformasiga joylashtiriladi.

“Bajardim” rukni talabalar tomonidan yakunlanganidan keyin, talabalarining o'zlashtirgan bilimlari yakunlovchi kreativ darajadagi nostandart test savollari nazorati asosida tahlil qilinadi.

**Xulosa va takliflar.** Pedagogik – innovatsion loyiha uch bosqichda tashkil etilgan bo'lib, nazariyani amaliyot bilan bog'lash va mustahkamlash imkoniyatini berdi.

Birinci bosqichda talabalar o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimning 40-50% ni o'zlashtirilgani, 2 - bosqichda esa talabalar tomonidan 60-70% bilimlarning o'zlashtirilgani aniqlansa, oxirgi bosqichda ta'lim samarasi ko'rsatkichi 80-100 % ga yetishi bashoratlanadi. Loyihada qatnashgan talabalarining egallagan bilim koefitsenti statistik ma'lumotlar asosida isbotlanadi.

Biologik fanlarni klaster yondashuv asosida takomillashtirib o'qitish bir qancha afzalliklarga ega ekanligi namoyon bo'ldi:

1.Pedagogik ta'limni klasterlashtirishning ilmiy-nazariy asoslari va uning amaliy jihatlarini tadqiq etilishi natijasida, tamoyilni amaliyotga joriylashtirish usuli sifatida Chirchiq shahridagi maktablarda 22 ta “Maktab-laboratoriya” innovatsion tajriba maydonchalari etilib, ulardan 4 tasida tabiiy fanlarga ixtisoslashgan, “Eshitdim-ko'rdim-bajardim” tamoyili 4+2 dasturiga binoan pedagogik faoliyat olib borilmoqda.

2.“Eshitdim – ko'rdim - bajardim” tamoyilining ilmiy pedagogik metodologiyasi mikrobiologiya fani, zoologiya va anatomiya fanlari doirasida tashkil etilgan bo'lib, tajriba – sinov ishlari orqali amaliy natijalarga erishildi.

3.“Eshitdim – ko'rdim - bajardim” tamoyili natijalarini baholash mezonlari berilgan bo'lib, bu mezonlarni tabiiy fanlar ruknidagi boshqa fanlarda qo'llash orqali ham samaradorlikka erishish mumkinligi aniqlandi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.04.2021-yildagi 213-son “Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yildagi O'R-637-son “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni.
3. Muhamedov G., Xodjamkulov U., Toshtemirova S. "Innovative cluster of pedagogical education." Monograph, - T.: University (2020).
4. Muhamedov G'.I., Xodjamkulov U.N. "Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ta'rif, tavsif va tasnif. Ilmiy risola." T., Universitet (2019).
5. Raximov A.K., Saidova D.B. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri doirasida o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish va baholash., “International scientific research conference” Belarus, international scientific-online conference, 2022. pp. 148-150.

6. Raximov A.K va boshqalar. Ta'lim muammolari yechimida pedagogik ta'lim innovatsion klasterning yangiliklari, istiqbollari va ahamiyati. "Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar: filologiya va pedagogika sohasida zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish omillar" xalqaro ilmiy – amaliy masofaviy konferensiya materiallar to'plami. Toshkent: Tadqiqot. 2020 1-iyul. B. 156-158.
7. Raximov A.K., Boltaeva M.M., Xoliqova. "Soya va makkajo'xorini birgalikda yetishtirishning qimmatli xo'jalik ahamiyatini o'rganish metodikasi (eshitdim, ko'rdim, bajardim tamoyili asosida)". Academic Research in Educational Sciences (ARES) // Chirchiq- 2022, pp. 10-13.
8. Klaudiya K., & Mirzaeva N.A. (2022). O'zbekistonda tabiiy fanlarni o'qitishning steam metodikasiga asoslangan o'quv darslarni tashkil etishda "eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyili. Innovative Development in Educational Activities, 1(5), 51–69.
9. Mirzaeva N.A. Tabiiy fanlarni o'qitishda pedagogik ta'lim innovatsion klasteri (Chirchiq modeli) "eshitdim – ko'rdim bajardim" tamoyili metodologiyasi // ReFocus. 2022. №1.
10. Porter M. Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors, Cambridge, 1980. - P. 79.



UDK:7.021:796.1(575.1)

*Umorbek RAXIMOV,*  
*O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi*  
*E-mail:Raximovumarbek1994@gmail.com*

*Urganch davlat universiteti jismoniy madaniyat dotsenti J.Jammatov taqrizi asosida*

## UNIQUE METHODOLOGY OF TRAINING 10-12-YEAR-OLD FOOTBALL PLAYERS

Annotation

Annatsion To improve the training of 10-12-year-old players and to clearly demonstrate their unique characteristics, to conduct training using various action games, effective harmony is manifested in young players. Methodology for technical and tactical training of 10-12-year-old football players was proposed. Technical-tactical training was carried out in two ways: separated from the game and during the two-way game. To determine the effectiveness of the proposed methodology, the level of technical and tactical training was determined before the start of the experiment and after its completion using special tests.

**Key words:** Theoretical training, Physical training, technical training, tactical training, psychological training, competitive and play training, individual, group and team training.

## УНИКАЛЬНАЯ МЕТОДИКА ПОДГОТОВКИ ФУТБОЛИСТОВ 10-12 ЛЕТ

Аннотация

С целью улучшения подготовки игроков 10-12 лет и яркого проявления их особенностей проводить тренировочные занятия с использованием различных подвижных игр, у юных игроков показана эффективная гармония. Предложена методика технико-тактической подготовки игроков 10-12 лет. Технико-тактическая подготовка проводилась двумя способами: отдельно от игры и в ходе парной игры. Для определения эффективности предложенной методики уровень технико-тактической подготовки определяли с помощью специальных тестов до начала эксперимента и после его завершения.

**Ключевые слова:** Теоретическая подготовка, Физическая подготовка, техническая подготовка, тактическая подготовка, психологическая подготовка, соревновательная и игровая подготовка, индивидуальная, групповая и командная подготовка.

## 10-12 YOSHLI FUTBOLCHILARNI TAYYORLASHNING O‘ZIGA XOS METODIKASI

Annotatsiya

Annatsiya 10-12 yoshdagi futbolchilarning tayyorgarligini oshirish va o‘ziga xos xususiyatlarini yaqqol namoyon qilish, har xil harakatli o‘yinlardan foydalanib tayyorgarlik olib borish, yosh futbolchilarda samarali uyg‘unlik namoyon bo‘ladi. Futbol bo‘limida shug‘ullanadigan 10-12 yoshdagi yosh futbolchilarni texnik va taktik tayyorgarligi uchun metodika taklif qilindi. Texnik-taktik tayyorgarlik ikki yo‘l bilan amalga oshirildi: o‘yindan ajratilgan holda va ikki tomonlama o‘yin jarayonida. Taklif etilayotgan metodikaning samaradorligini aniqlash uchun tajriba boshlanishidan oldin va maxsus testlar yordamida yakunlangandan so‘ng texnik va taktik tayyorgarlik darajasi aniqlandi.

**Kalit so‘zlar:** Jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, musabaqa va o‘yin tayyorgarlik, Individual, guruhli va jamoa tayyorgarlik, harakatli o‘yinlar.

**Kirish.** Sport mashg‘ulotlarini davriyligini hisobga olgan holda shuni ta’kidlashimiz joizki, futbol sport turi bo‘yicha sport mashg‘ulotlarining davlat standartiga muvofiq, 10 yosh - bu mashg‘ulot bosqichiga (sport ixtisoslashuvi bosqichiga) qabul qilish uchun yetarli yosh hisoblanmaydi. Ushbu bosqich dastlabki tayyorgarlik bosqichidan keyin amalga oshiriladi. Davlat standartida ta’kidlanganidek, mashg‘ulot bosqichida sport mashg‘ulotlari dasturi quyidagilarni ta’minlashi kerak. Umumiy va maxsus jismoniy, texnik, taktik va psixologik tayyorgarlik darajasini oshirish, futbol sporti bo‘yicha rasmiy sport musobaqalarida tajriba orttirish va barqarorlikka erishish, sport motivatsiyasini shakllantirish, sportchilarning sog‘lig‘ini mustahkamlash.

Sport faoliyatida sportchi eng yuqori natijalarga erishganda, u o‘zining imkoniyatlarini maksimal darajada jismoniy, psixologik, ma’naviy va axloqiy fazilatlarini namoyish etadi. Buning uchun sportchi bor kuchini sarf qilishi kerak. Sport mashg‘ulotlari jarayoni yoshni, jismoniy sifatlarining rivojlanish darajasini, sport talablarini hisobga olgan holda quriladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** 10-12 yoshli futbolchilarni harakatli o‘yinlar yordamida sport mahoratini oshirishiga oid tadqiqotlar vatanimiz olimlari R.I.Nurimov, R.A.Akramov, S.H.T.Iseev, A.T.Tolibjanov, I.A.Koshbaxtievlar tomonidan olib borilgan. Zamonaviy futbolda ish qobiliyati samaradorligini nazorat qilish, baholash va rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borish futbol mutaxassislarida oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Futbol bo‘yicha xorijiy yetakchi olimlardan N.D.Graevskaya, Z.G.Ordjonikidze, V.I.Pavlovlar tadqiqot olib borishgan. Biroq, 10-12 yoshli futbolchilarni ish qobiliyatini tiklash orqali uning samaradorligini harakatli o‘yinlar yordamida sport mahoratini oshirish nazardan chetda qolgan. 10-12 yoshli futbolchilarni harakatli o‘yinlar yordamida sport mahoratini oshirish yo‘llarini o‘rganishni taqozo etuvchi muammolarni aniqlash va uni hal etishga oid ma’lumotlardan ish qobiliyati samaradorligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarning kamligi va ularni bizning iqlim sharoitimizga to‘g‘ri kelmasligi ma’lum bo‘ldi. Futbol sohasida olib borilgan so‘nggi tadqiqotlarda R.A.Akramov,

1994; A.Talibjanov, 1994; SH.T.Iseev,1986; I.A.Koshbaxtiev, 2001; Z.A.Kurbanov.

Uni shunday tashkil qilish kerakki, yuqori sport natijalarini ko'rsatib, yosh sportchilar jismoniy sog'lig'ini saqlab qolsin va tanlagan sport turi bo'yicha mashg'ulotlarga

qiziqishi yuqori bo'lsin. Yosh futbolchilarni tarbiyalashda yosh xususiyatlarini hisobga olish va zamonaviy fanning turli bo'limlarida ishlab chiqilgan yosh davriyligiga tayanish muhimdir. Tayyorgarlik bosqichlarining davomiyligi 1-jadvalda keltirilgan.

#### Sport tayyorgarligi bosqichlari bo'yicha sport tayyorgarligi turlarining mashg'ulotlar jarayoni hajmining nisbati

Tayyorgarlik bosqichlari	Bir yilgacha	Ikki yildan ortiq
Umumiy jismoniy tayyorgarlik (%)	15	15
Maxsus jismoniy tayyorgarlik (%)	5	5
Texnik tayyorgarlik (%)	40	40
Taktik, nazariy, psixologik tayyorgarlik (%)	10	10
Texnik-taktik (integral) tayyorgarlik (%)	25	25
Musobaqalarda qatnashish, murabbiylik va hakamlik amaliyoti (%)	5	5
Jami	100	100

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mikrosikl - bu tiklanish kunlari bilan birgalikda trenirovka mashg'ulotlari jarayonining umumiy tuzilishining nisbatan to'liq takrorlanadigan qismini tashkil etadigan ba'zi mashg'ulotlarning kombinatsiyasidir. Mikrosikl, qoida tariqasida, bir hafta (7 kun) davom etadi.

Sport amaliyotida 4 dan 9 gacha turli xil mikrosikllar mavjud: tortuvchi, bazoviy (umumiy tayyorgarlik), nazorat va tayyorgarlik (namunaviy va maxsus tayyorgarlik), yakunlovchi, tiklanish va musobaqa.

Mikrosiklning asosiy tashqi belgilari bu ikki fazaning mavjudligi - stimulyatsiya (kamulativ) va tiklanuvchi (tiklanish va dam olish). Bir yillik o'quv siklini rejalashtirishning muvaffaqiyati har xil yo'nalishdagi, har xil hajmdagi va intensivlikdagi mikrosikllarning oqilona ketma-ketligiga bog'liq.

Mezosikl - bu mikrosikllarning nisbatan to'liq seriyasini o'z ichiga olgan o'rtacha mashg'ulot davrlarining tuzilishi. Amalda o'rtacha o'quv sikli 2 dan 6 tagacha mikrosikl o'z ichiga oladi. Mashg'ulotning mezo tuzilishi - bu mashg'ulot jarayonining nisbatan to'liq bosqichi bo'lib, uning vazifalari ma'lum oraliq mashg'ulot vazifalarini hal qilishdan iborat.

Mezosiklning tashqi belgilari qator mikrosikllarni (bir hil) bir ketma-ketlikda takroriy ko'paytirish (odatda tayyorgarlik davrida) yoki har xil mikrosikllarning ma'lum ketma-ketlikda almashinishidir (odatda musobaqa davrida).

#### 16=Nazorat guruhi

№	Testlar ko'rsatkichi	Mart	Aprel	May	Sentabr
1	Qisqa masofaga yugurish 10 m (s)	2".50	2".48	2".30	2".27
2	To'p bilan qisqa masofaga yugurish 10x3 m (s)	12".46	12".03	11".43	11".02
3	To'pni nazorat qilib olib yurush 20 m	7	9	10	11
4	Darvozaga to'p tepish 10 marta, 7 metrdan	110 6.9	111 6.9	113 7	116 7.2
5	Maydonda to'g'ri harakatlanish (10')	6".38	6".53	6".98	7".03
6	Sherigiga to'g'ri uzatma berish 10 metrdan 10 marta	9	10	12	13

Tadqiqot boshida: Nazorat guruhdagi yosh futbolchilar quyidagi ko'rsatkichni ko'rsatishdi. 1) Qisqa masofa 10 metr ga yugurishda 2".50 ko'rsatkich qilishdi. 2) To'p bilan qisqa masofa 10x3 metr ga yugurishda 12".46 ko'rsatkich qilishdi. 3) To'pni nazorat qilib olib yurush 20 metr ga 7 ta futbolchi yaxshi natija qildi. 4) Darvozaga to'p tepish 10 marta, 7 metrdan 110 ta gol kiritildi, gollar 6,9 futbolchilarga to'g'ri keldi. 5) Maydonda to'g'ri harakatlanish (10 daqiqa mobaynida) 6 daqiqa 38 soniya to'g'ri harakat qilishdi. 6) Sherigiga to'g'ri uzatma berish 10 metrdan 10 marta 9 futbolchi bu uzatmani to'g'ri bajardi.

Murabbiy mashg'ulot jarayonini davlat standarti dasturi orqali olib bordi.

#### 16=Tadqiqot guruhi

№	Testlar ko'rsatkichi	Mart	Aprel	May	Sentabr
1	Qisqa masofaga yugurish 10 m (s)	2".51	2".45	2".22	2".10
2	To'p bilan qisqa masofaga yugurish 10x3 m (s)	12".78	12".15	11".43	9".54

- individual va jamoaviy tayyorgarlikning yuqori darajasiga erishish va ularni musobaqada amalga oshirish uchun ko'nikmalarni egallash.

- yuqori umumiy va maxsus ish qobiliyatlarga erishish va ularni uzoq muddatli saqlash.

- o'qitishning uslublari, rejalashtirish, nazorat qilish, tiklash, hakamlik qilish, musobaqalarni tashkil qilish va h.k.larda chuqur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni egallash. Ta'lim va tarbiyaning maqsadi va asosiy vazifalarini hisobga olgan holda, yosh futbolchilarni uzoq muddatli tayyorlashning alohida bosqichlari vazifalari belgilanadi. Ta'lim va tarbiya maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayon sifatida jismoniy tarbiyaning umumiy tamoyillariga, o'qitishning didaktik (pedagogik) tamoyillariga va ta'lim va tarbiya jarayonining uslubiy qonuniyatlariga muvofiq ravishda quyiladi.

Mashg'ulot jarayonlarini quyidagi didaktik tamoillar asnosida olib borildi

**Tahlil va natijalar.** Yosh futbolchilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus jismoniy tayyorgarligini, texnik tayyorgarligini, taktik tayyorgarligini, psixologik tayyorgarligini oshirish maqsadida harakatli o'yinlardan 10 ta va maxsus mashqlardan 10 tasi tanlab olindi va shu bo'yicha mashg'ulot jarayoni tashkil qilib tadqiqot olib borildi. Nazorat guruhi va Tadqiqot guruhidagi yosh futbolchilar quyidagi test ko'rsatkichlarini ko'rsatishdi.

Tadqiqotdan keyin: Nazorat guruhdagi yosh futbolchilar quyidagi ko'rsatkichni ko'rsatishdi. 1) Qisqa masofa 10 metr ga yugurishda 2".27 ko'rsatkich qilishdi. 2) To'p bilan qisqa masofa 10x3 metr ga yugurishda 11".02 ko'rsatkich qilishdi. 3) To'pni nazorat qilib olib yurush 20 metr ga 11 ta futbolchi yaxshi natija qildi. 4) Darvozaga to'p tepish 10 marta, 7 metrdan 116 ta gol kiritildi, gollar 7,2 futbolchilarga to'g'ri keldi. 5) Maydonda to'g'ri harakatlanish (10 daqiqa mobaynida) 7 daqiqa 03 soniya to'g'ri harakat qilishdi. 6) Sherigiga to'g'ri uzatma berish 10 metrdan 10 marta 13 futbolchi bu uzatmani to'g'ri bajardi.

3	To'pni nazorat qilib olib yurush 20 m	5	8	12	16
4	Darvozaga to'p tepish 10 marta, 7 metr dan	110 6.9	139 8.6	143 8.9	157 9.8
5	Maydonda to'g'ri harakatlanish (10')	6'.23	6'.53	7'.98	10'
6	Sherigiga to'g'ri uzatma berish 10 metr dan 10 marta	8	12	13	16

Tadqiqot boshida: Tadqiqot guruhdagi yosh futbolchilar quyidagi ko'rsatkichni ko'rsatishdi. 1) Qisqa masofa 10 metrga yugurishda 2".51 ko'rsatkich qilishdi. 2) To'p bilan qisqa masofa 10x3 metrga yugurishda 12".78 ko'rsatkich qilishdi. 3) To'pni nazorat qilib olib yurush 20 metrga 5 ta futbolchi yaxshi natija qildi. 4) Darvozaga to'p tepish 10 marta, 7 metr dan 110 ta gol kiritildi, gollar 6,9 futbolchilarga to'g'ri keldi. 5) Maydonda to'g'ri harakatlanish (10 daqiqa mobaynida) 6 daqiqa 23 soniya to'g'ri harakat qilishdi. 6) Sherigiga to'g'ri uzatma berish 10 metr dan 10 marta 8 futbolchi bu uzatmani to'g'ri bajardi.

Tadqiqot guruhidagi yosh futbolchilarni to'p bilan harakatlanish samaradorligini oshirish uchun uskuna yaratildi va shu uskuna orqali mashg'ulot jarayoni olib borildi. Futbolchilar maydonda to'p bilan va to'psiz harakat qilish samaradorligini oshirish maqsadida 8 ta harakatli o'yinlar tanlab olindi bular "ovchi o'yini", "to'p uchun kurash", "komandali yugurish", "Bo'sh o'rin", "To'p uzatish" o'yinlaridan foydalanildi va qo'shimcha 2 ta yangi o'yin "To'p o'g'irlash", va "To'p yig'ish" o'yinlarida foydalanib mashg'ulot jarayoni olib borildi.

Tadqiqotdan keyin: Tadqiqot guruhdagi yosh futbolchilar quyidagi ko'rsatkichni ko'rsatishdi. 1) Qisqa masofa 10 metrga yugurishda 2".10 ko'rsatkich qilishdi. 2) To'p bilan qisqa masofa 10x3 metrga yugurishda 9".54 ko'rsatkich qilishdi. 3) To'pni nazorat qilib olib yurush 20 metrga 16 ta futbolchi yaxshi natija qildi. 4) Darvozaga to'p tepish 10 marta, 7 metr dan 157 ta gol kiritildi, gollar 9,8 futbolchilarga to'g'ri keldi. 5) Maydonda to'g'ri harakatlanish (10 daqiqa mobaynida) 10 daqiqa soniya to'g'ri harakat qilishdi. 6) Sherigiga to'g'ri uzatma berish 10 metr dan 10 marta 16 ta futbolchi bu uzatmani to'g'ri bajardi.

#### Xulosa va takliflar.

1. 10-12 yoshdagi yosh futbolchilarni texnik va taktik tayyorgarligi masalalarini ko'rib chiqib, biz zamonaviy sport me'yoriy hujjatlariga binoan, futbol sport turi bo'yicha namunaviy o'quv dasturlarini o'z ichiga olgan sport mashg'ulotlarining davlat standartini o'rganish natijasida, 10 yosh boshlang'ich tayyorgarlik guruhiga yozilish uchun eng minimal ko'rsatkichdir. Ya'ni, 10-12 yoshdagi yosh

futbolchilar allaqachon ma'lum darajada bilimga, texnik mahoratga ega va taktika asoslarini yaxshi bilishadi. Ushbu bosqichning asosiy vazifalaridan biri texnik va taktik tayyorgarlik darajasini oshirish ekanligini hisobga olib, biz shuni ham ta'kidlab o'tamiz, sport mashg'ulotlari jarayoni, ayniqsa yosh sportchilar bilan, yoshi, jismoniy sifatlar, rivojlanish darajasi hisobga olingan holda tuzilishi kerak.

2. 10-12 yoshdagi yosh davriyligi ikkinchi bolalikni anglatadi. Bu davrda, rivojlanishda keskin sakrashlar bo'lmaydi. Jismoniy sifatlarning rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda, ularning rivojlanishi notekis va geterokron tarzda sodir bo'lishini ta'kidlash lozim. Turli xil sifatlar turli davrlarda rivojlanadi. 10-12 yoshlarda aniqlik, tezkorlik va sezgirlik, shuningdek o'qitish texnikasidagi maxsus epcillik, operativ fikrlash tezligi, e'tiborni almashtirish va taqsimlash tez rivojlanadi. Sekin o'sish sur'atlari kuch, chidamlilik va kinezetik sezgirlikda namoyon bo'ladi. Yosh futbolchilarni tayyorgarlik jarayonini tahlil qilsak, rejalashtirish ushbu yaxlit jarayonni nazariy, umumiy jismoniy, maxsus jismoniy, texnik, taktik va integral tayyorgarlikka taqsimlanishini ko'rishimiz mumkin.

3. Futbolchilarning sport tayyorgarligi - bu barcha zarur vositalar, usullar, shart-sharoitlar to'plamidan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan va yuqori sport mahoratiga erishishga qaratilgan uzoq muddatli maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayondir. Yosh futbolchilarning texnik va taktik tayyorgarligini hisobga olgan holda, biz shuni ta'kidlaymizki, texnika va taktikaning xususiyatlari uchun alohida mezonlar ajratiladi, shu bilan birga taktik va texnik mashg'ulotlar turli xil sharoitlarda o'yin texnikasini o'zlashtirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

4. Texnik-taktik mahoratni oshirish jarayoni uchta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi: jamoaviy texnik va taktik harakatlarini takomillashtirish; guruh texnik va taktik harakatlarini takomillashtirish; individual texnik va taktik mahoratlarini takomillashtirish. Texnik-taktik mahoratning tuzilishi va uni takomillashtirish usullari zamonaviy futbolning rivojlanish tendentsiyalari asosida doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 4-dekabrda PF-5887-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 6-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3031-son qarori. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 23-son, 455-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-dekabrda PQ-4063-son qarori. "2019-2022-yillarda yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi, aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligi darajasini oshirish Konsepsiyasi" // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.12.2018-y., 07/18/4063/2347-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-yanvardagi "O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to'g'risida" gi 65-sonli Qarori. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.01.2019-y., 09/19/65/2549-son.
5. Абдулкадыров А.И. Соотношение физической и технической подготовки юных футболистов 10-12 лет на этапе начальной спортивной специализации., 1985. – 18 с.



UDK: 37.015.4. (575.1)

**Umida SABIROVA,**  
*O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, sots.f.d.(DSc)*  
*E-mail:umida-sabirova@yandex.ru*  
**Mavluda KABIROVA,**  
*O'zbekiston Milliy universitetiSosiologiya kafedrasida magistranti*

*TDSMI professori, sots.f. d. Umarov A.A. taqrizi asosida*

## SOCIAL FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF THE QUALITY OF EDUCATION INNOVATION SYSTEM

Annotation

This article explores the essence and content, structure and functions, various systems and forms of the innovative education quality system, its significance in the development of higher education. A comparative analysis of the definitions and descriptions given to this concept by various specialists was carried out, and definitions and characteristics were developed that meet the latest requirements and needs of the present.

**Key words:** Quality of education, processes, innovation management, innovations, innovative technologies, higher education, faculty, development.

## СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье исследуются сущность и содержание, структура и функции, различные системы и формы инновационной системы качества образования, ее значение в развитии высшей школы. Были проведены сравнительный анализ определений и описаний, данных данному понятию различными специалистами, и выработаны определения и характеристики, отвечающие новейшим требованиям и потребностям настоящего времени.

**Ключевые слова:** Качество образования, процессы, инновационный менеджмент, инновации, инновационные технологии, высшее образование, профессорско-преподавательский состав, развитие.

## TA'LIM SIFATI INNOVATSION TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY OMILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta'lim sifati innovatsion tizimining mohiyati va mazmuni, strukturasi va funktsiyalari, turli tizim va shakllari, oliy ta'limni rivojlantirishdagi ahamiyati tadqiq etilgan. Mazkur tushunchaga turli mutaxassislar tomonidan berilgan ta'rif va tavsiflar qiyosiy tahlil etilgan, hozirgi davrning eng so'nggi talab va ehtiyojlariga javob beradigan definitsiya va xarakteristikalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim sifati, jarayonlar, innovatsion boshqaruv, yangilik, innovatsion texnologiya, oliy ta'lim, professor-o'qituvchilar, rivojlantirish.

**Kirish.** Har qanday jamiyatda barqarorlik va ommaviy taraqqiyot avvalo, ushbu jamiyatdagi ta'lim tizimi va uning rivojlanish darajasiga qarab belgilanadi. Har qanday soha, tarmoq, yo'nalish va kasbiy bilimlar ta'limdan oziqlanib rivoj topadi. Shunday ekan, ta'lim tizimini zamonaviylashtirish bugungi kunda jamiyat va davlat ahamiyatiga molik bo'lgan dolzarb sosial masaladir. Bunday islohotlar nafaqat ta'lim jarayonida, balki uning boshqaruvida ham tashkil etilmog'i, innovatsion yondashuv va innovatsion texnologiyalardan keng foydalanilmog'i dardkor.

Hozirgi kunda dunyoda sodir bo'layotgan jarayonlarni, ta'lim siyosatini shakllantirishni va umuman ta'lim tizimini isloh qilish yo'llarini bilish uchun ta'limni rivojlantirish tendentsiyalari va yo'nalishlarini nazariy tahlil qilish har qachongidan ham muhimroqdir. Bugungi tez o'zgarib borayotgan dunyoda professor-o'qituvchilar oldiga dunyodagi turli xil o'zgarishlarga tayyor va atrof-muhitga moslasha oladigan insonni tayyorlash vazifasi yuklangan. jamiyat rivojlanishining zamonaviy dinamikasi shundan iboratki, bilim yangi mutaxassisni tayyorlashdan ko'ra tezroq yangilanadi. Ushbu hodisani sabablaridan biri bu o'zgaruvchan jamiyat sharoitlari va ta'lim tizimining ushbu o'zgarishlarga tezda moslasha olmasligi o'rtasidagi o'zaro tafovutdir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ta'lim sifatini aniqlash uchun, avvalo, «ta'lim» va «o'qitish» tushunchalarini ajratib ko'rsatish lozim. G.Bordovskiy va A.Nesterovlarning fikriga ko'ra [1], ta'lim va o'qitish bilan bir xil emas. Maxsus bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari, uning natijasi faoliyatning ijtimoiy motivlari, fuqarolik vakolati, yaxshi nasl-nasab, madaniy dunyoqarash va boshqalar bo'lishi lozim. Ta'lim ta'lim va tarbiya jarayoni ekanligini ta'kidlab, ular ta'limni talabning o'quv-bilish faoliyatini tashqi nazorat qilish orqali amalga oshiriladigan va bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga, uning o'qishi va rivojlanishiga olib boradigan, o'qituvchilarning faoliyati sifatida olib boriladigan maqsadli jarayon sifatida belgilaydilar, talaba shaxsining ma'naviy va jismoniy holatiga va uni ijtimoiy va kasbiy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan. A.Egorshinning so'zlariga ko'ra, «ta'lim» va «o'qitish» tushunchalarini aniqlashdagi farqlarga bo'lgan ehtiyoj «ta'lim sifati» va «o'qitish sifati» tushunchalarining farqlanishiga olib keladi [2]. M.Potashnik ham xuddi shu fikrni bildirgan holda, ta'lim va o'qitish bilan bir xil emasligini ta'kidlab, u hech qanday sharoitda ta'lim sifatini o'qitish sifatiga moslab bo'lmaydi, deb hisoblaydi [3].

Ushbu ma'nolarning birinchisida sifat falsafa kategoriyasi hisoblanib, O'zbek tilning izohli lug'atida «sifat»- Arab tilida hossa, hususiyat, hislat, xarakter; 1) narsa,

voqea, hodisa va shu kabilarning o'ziga hos belgi va ichki xususiyatlariga ko'ra ifodalovchi falsafiy tushuncha; 2) narsaning, kimsaning ijobiy yoki salbiy xususiyati, fazilati, xislati; 3) molning, mahsulotning yoki ishning yaroqlilik darajasi, qo'yilgan talablarga qanchalik javob berishini belgilovchi xususiyati deb keltirilgan [4].

Hozirgi kunda talabalarga berilayotgan ijtimoiy-gumanitar bilimlar ulug' Vatanimiz tarixini yaxshi bilishga, uni obod va farovon qilishga, siyosat, moddiy borliq va ijtimoiy hayotni ilmiy tushunishga va oxir oqibatda yoshlarga milliy g'ururni shakllanishiga, iymon-e'tiqodini kuchayishiga, vatanparvarlik hissiyatini doimo oshirib borishga olib keladi. Shu bois, ta'lim sifatini doimo oshirib borish unga innovasion jarayon sifatida qarashni na uni yangi zamon talablari asosida boshqarishni talab etadi. Ta'limdagi innovasiya quyidagilarni nazarda tutadi:

Zamonga yangicha yondashuv asosida yangi texnologiyalar va loyihalar yaratish va ular yordamida o'quv reja-dasturlarni yangi-mos turlarini yaratish;

Nazariyani amaliyot bilan amaliyni esa ishlab chiqarish bilan bog'lash;

O'quv-uslubiy materiallar bazasini mustahkamlash;

Ta'lim sharoitlarining sosial va iqtisodiy asoslarini kuchaytirish;

Professor-o'qituvchilarga ma'naviy va moddiy rag'batlantirishni doimo oshirib borish;

Ta'lim obyektlarini texnik bazasini, o'quv bazasini zamonga mos ravishda kuchaytirish va h.k.

Hozirgi zamon ta'lim texnologiyasini ta'lim jarayoniga qo'llash o'qitilayotgan kursning muammolari bo'yicha darslardagi holatni modellashtirish, masalan, keys-stadi interaktiv usullarini qo'llash professor-o'qituvchilar ijodiy salohiyatini va yaratuvchilikni shakllantiradi. Shuningdek, ta'lim tizimi gender tenglikka erishish va ayniqsa, oliy ta'limda gender balansini yaxshilash ham ta'lim sifatini ko'tarishga olib keladi.

Ta'lim sifatini ko'tarishda, uni rivojlantirishda global sherikchilikni rivojlantirish ham katta ahamiyat kasb etadi. Bunda o'zaro birdamlik va hamkorlikni uyushtirish va Mingyillik maqsadlarini amalga oshirishda talaba va o'qituvchilarni jalb qilish ular faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim sifatini oshirishning yana bir yo'li – dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyaga oid bo'lgan faol muloqot shakllarning eng unumli turlari, ya'ni ma'ruzalarni faol usulda o'tkazish, davra suhbatlari o'tkazish, turli xil bahsmunozaralarni tashkil qilish va o'tkazishdan iborat ishlarni bajarishdir.

Ta'lim haqida turli nazariyalar mavjud. Ba'zi nazariyalar ta'limni jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy tuzilishiga bog'liq bo'lmagan hodisa sifatida baholasalar, ba'zi ta'limning sinfiy xarakterga ega ekanligini, u jamiyatning har bir a'zosida muayyan siyosiy, falsafiy, axloqiy, huquqiy qarashlarni shakllantirish maqsadi sari karatilganligini ta'kidlaydi [5].

Ta'limning maqsadi obyektiv hayot talablariga muvofiq holda o'zgarib borgan kabi, ta'limning xarakteri, yo'nalishi ham uning maqsadiga muvofiq o'zgarib boradi. Ta'lim dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatlar jarayonidir. Ta'lim bilish qobiliyatlari, his-tuyg'ular, idrok, shaxsni tarkib toptiruvchi kuchli omildir [6].

Ta'lim tizimidagi innovasiyalar esa ushbu tizimdagi o'zgarishlarni, uning boshqaruvida eski usullardan voz kechilmagan holda, aksincha eski boshqaruv usullarining eng samarali jihatlarni tajriba sifatida saqlab qolish bilan bir qatorda unga yangicha boshqaruv metodlarini olib kirishni nazarda tutadi. «Innovasiya» tushunchasi doimo bir xil ma'noda ta'riflanmaydi, ko'p hollarda u «yangilik kiritish» tushunchasi sifatida qayd etiladi. Shu o'rinda «innovasiya»

tushunchasiga olimlarimizning bergan ta'riflari va qarashlari xususida to'xtalib o'tamiz.

Masalan, S.Turg'unovning fikricha, «innovasiya maqsadga yo'naltirilgan o'zgarishlar bo'lib, ma'lum bir ijtimoiy birlikka – muassasa, birikma, uyushma, jamoa va gurahlarga yangi, nisbatan barqaror bo'lgan elementlarni, umuman olganda xalqning ma'naviy – madaniy munosabatlari va mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan yangiliklarni kiritishdir» [7]. Bu o'rinda innovasiyalarning umumiy ijtimoiy hayotga, ya'ni jamiyatga nisbatan yangilik kiritishi e'tirof etilgan.

«Innovasiya» tushunchasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Birinchi ma'noda innovasiya – biror bir yangi ijtimoiy ehtiyojni yaxshiroq qondirish uchun yangi ilmiy, amaliy vosita, ya'ni yangilik yaratish, tarqatish va qo'llashni o'z tarkibiga oladigan kompleks jarayon sifatida qaraladi. «Innovasiya», ikkinchi ma'noda, biror bir jamoa faoliyatini takomillashtirish uchun kiritilayotgan va bu innovasiya sub'ekti tomonidan yangilik deb qabul qilingan yangi vosita, uslub, yondashuvlar tizimiga nisbatan ishlatiladi.

M.Jumaniyozovning ta'kidlashicha, «innovasiya – rivojlangan texnologik jarayonning takomillashgan mahsuloti ko'rinishida namoyon bo'ladigan ijodiy mehnatning natijasi. U amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy – madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimi, ayni vaqtda, u boshqariluvchi va nazorat qiluvchi o'zgarishlar mexanizmi bo'lib hisoblanadi» [8]. Mazkur yondashuvdan ma'lumki, sosial muhitga o'z ta'sirini ko'rsatuvchi innovasiyalar ta'lim va boshqaruvda ham qo'llanilsa ijobiy natija berishi innovasiyalarning nazariya bilan amaliyotning uyg'unligini ta'minlash vositasi ekanligida ham o'z isbotini topadi.

Aynan, ta'lim tizimini innovasion boshqarish muammolarini ilmiy tadqiq etgan olim – N.Mamadov o'zining «umumiy ta'lim maktablarini innovasion boshqarish» deb nomlangan tadqiqotida innovasiya – bu boshqaruv obyektini o'zgartirish hamda yuqori darajadagi ijtimoiy – iqtisodiy, ilmiy – texnik samaralarni qo'lga kiritish maqsadida muayyan sohalarga yangilikni tatbiq qilishning yakuniy natijasi ekanligini qayd etib o'tadi [9].

**Tahlil va natijalar.** «Innovasiya» tushunchasini sosiologik nuqtai nazardan tahlil etar ekanmiz, Respublikamiz olimlarining «innovasiya» tushunchasiga bergan ta'riflaridagi xilma – xillik chet el olimlarining tadqiqotlarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Mazkur ta'riflarning qiyosiy tahlili asosida tushunchaning quyidagi mohiyatli jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:


1. Innovasiya – bu yangilik (A.M.Saranov, E.M.Rodjers);
2. Innovasiya bu tshzgarish, yaxshilash, takomillashtirish, demakdir (K.Angelovski);
3. Innovasiya – bu o'zida taraqqiyparvar asosni aks ettiruvchi tarkibiy qismlar majmui (V.I.Zagvyazinskiy);
4. Innovasiya – bu yangi vosita, yangi metod, yangi texnologiya (V.A.Slastenin, V.I.Podimova);
5. Innovasiya bu yangi metodlarni va ta'limning yangi mazmundagi metodlarini ishlab chiqishdir (P.G.Tshedrovskiy) [10].

Biroq shuni alohida ta'kidlash joizki, ta'lim tizimi va uning boshqaruvi, shuningde o'quv jarayonlariga oid bo'lgan pedagogik innovatikaga oid adabiyotlarda «innovasiya» tushunchasi bilan birgalikda «yangilik» tushunchasi ham qo'llaniladi.

Jamiyatdagi har qanday sosial innovatikaning asosiy ko'rsatkichi uning boshlang'ich rivojiga bog'liq bo'lib, pedagogikadagi yangilik – bu faqatgina g'oya, yondashuv, metod, texnologiya, shunchaki taqdim etilgan va xali foydalanilmagan holatgina emas, balki bu innovasion jarayonning majmuaviy va alohida tarkibiy qismidir, u esa

o'zida o'zgaruvchan sharoitlarda va holatlarda ta'lim – tarbiya masalalarini etarlicha samarali hal etishni ifoda etadi.

Jamiyatdagi har qanday sosial innovatikaning asosiy ko'rsatkichi uning boshlang'ich rivojiga bog'liq bo'lib, pedagogikadagi yangilik – bu faqatgina g'oya, yondashuv, metod, texnologiya, shunchaki taqdim etilgan va xali (1-rasm):



1-rasm. Innovatsion jarayonni bosqichlarga ajratish

Ta'lim jarayonidagi innovatsiya esa bu ma'lum bir bosqich asosida rivojlanadigan jarayondir. U bir nechta ma'nodagi tushunchalarni beradi:

Innovatsiya bu – ta'limning yangi mazmuni, shakl va metodlarini ishlab chiqish.

Yaratilgan pedagogik tizimni joriy etish va ommalashtirish.

Ta'lim muassasasini boshqarish va rivojlantirishning yangi texnologiyasini ishlab chiqish.

Tajriba – sinov obyekti sifatida.

Yaxlit pedagogik jarayonni innovatsiyalash.

Yangiliklarning qo'llanilishi darajasini yangi mahsuldorliklar bilan o'zgartirish bosqichi.

Ta'lim texnologiyalarining vazifalari – professor-o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyatidan xabardor qilish hamda ularni maxsus fanlar asoslarini o'qitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini no'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal modul asosida loyihalashga erishish, ta'lim jarayonini loyiha ta'lim texnologiyasidan oqilona foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lish, ta'lim oluvchilarning nazariy bilimlarining puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy malaka va ko'nikmalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la olishga o'rgatishdan iboratdir.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida, xususan oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning erishilgan darajasi xalqaro maydonda e'tirof etildi degan, fikr-mulohazalar bilan chegaralanib qolmasdan, uning sifat jihatlarini yanada oshirish yo'lida to'xtab qolmasligimiz, bu boradagi ishlarimizni yanada yangi bosqichga ko'tarishimiz lozimdir [12].

Natijalarining yo'nalganligi bo'yicha ta'lim tizimi sifatini oshirish ilmiy instrumentariy sifatidagi innovatsiyalarga, innovatsion faoliyat va ta'lim tizimiga bo'linadi. Ta'lim sifatini oshirishda innovatsiyalar to'plamining muhimligi darajasiga baho berish maqsadida shu tartibda ajratiladi.

foydalanilmagan holatgina emas, balki bu innovatsion jarayonning majmuaviy va alohida tarkibiy qismidir, u esa o'zida o'zgaruvchan sharoitlarda va holatlarda ta'lim-tarbiya masalalarini etarlicha samarali hal etishni ifoda etadi. Ilmiy adabiyotlarda quyidagi innovatsion jarayonni bosqichlarga ajratish sxemasi mavjud [11].

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi sifatini oshirishda innovatsion faoliyat rivojlanishi va innovatsiyalarni boshqarish muammolarining metodologik asoslarini zamonaviy talablarga asoslangan holda ishlab chiqish zarur.

Ta'lim tizimi sifatini oshirishda innovatsion faoliyat samarasi oliy ta'lim tizimining innovatsion maqsadlari va imkoniyatlariga, xodimlarning innovatsion fikrlash qobiliyatlariga bog'liq.

**Xulosa va takliflar.** Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtiradigan va o'zlashtirgan bilimlarini o'zleri tomonidan baholashga qodir bo'lgan zarur qarorlar qabul qiladigan, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari, ya'ni interfaol usulblar innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Bugungi kunda innovatsion jarayonlarni boshqarishga doir qator yondashuvlar mavjud bo'lib, mazkur yondashuvlarning o'ziga xosliklari va ahamiyatini hisobga olish innovatsiyalarni yaratish, joriy etish, o'zlashtirish va amaliyotda qo'llash ta'lim tizimida sifat darajasining ko'tarilishi va samaradorligining ortishiga olib keladi.

Shunday ekan, ta'lim tizimini innovatsion boshqarishga oid yuqorida keltirilgan zamonaviy yondashuvlarning har biridan boshqaruv jarayonida ijobiy foydalana bilish "ta'lim tizimi taraqqiyotining kaliti" desak ayni to'g'ri ta'kidlab o'tgan bo'lamiz. Chunki, bunday innovatsion yondashuvlarning har birida ma'lum darajada asos bor, xato bir nazariy qarash boshqalaridan ustun qo'yilib, mutlaqlashtirilganda boshlanadi.

Shuning uchun ham, ta'lim tizimini boshqarishda keng jamoatchilik fikrini o'rganish, boshqaruv jarayonida sotsiologik tadqiqot natijalariga tayanib ish ko'rish va bunday sotsiologik tadqiqotlarni tez-tez o'tkazib turish innovatsion taraqqiyotda ijobiy samara beruvchi sotsial omillardan biridir.

#### ADABIYOTLAR

1. Бордовский Г.А., Нестеров А.А., Трапицын С.Ю. Управление качеством образовательного процесса: Монография. – СПб., 2018. – 359 с.
2. Егоршин А.П., Кручинин В. А. Пути развития дистанционного высшего образования // ДО. -2019. № 3. – С. 10-12.
3. Поташник М.М. Управление качеством образования/Учебник. – М., 2017.

4. Ўзбек тилнинг изоҳли луғати: -Т.:Ўзбекистон миллий энциклопедияси, Давлат илмий нашриёти, 2006. – 680 б. – Б. 527-528.
5. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-yo/yozuv-uz/>.
6. Попов Е.А. Современная социология и проблемы образования // Социология в современном мире: наука, образование, творчество. 2012. № 4. – С. 33-40.
7. Turg'unov S.T. Ta'lim muassasalarini boshqarishda innovatsion faoliyat // Uzluksiz ta'lim. – Т., 2016.-№4. – Б.4.
8. Жуманиёзова М. Инновацион фаолият таълим сифатининг кафолатидир // Uzluksiz ta'lim. – Т., 2014.-№6. – Б.89.
9. Мамадов Н.С. Умумий таълим мактабларини инновацион бошқариш: пед. Фан. Ном. ... дисс. – Т., 2009.
10. Эллис Артур. Фуотс Джеффри. Педагогические инновации / Пер. с англ. Другова А.И. – М.: ИТПиМИО. 2018. – Б. 17.
11. Аликариева А.Н. Социальные факторы повышения качества подготовки кадров высшей квалификации // Социология фанлари (www.tadqiqot.uz\soci) электрон журнали. 4 жилд, 1 сон. – Тошкент, 2021. – Б. 35-47. №1 (2021) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2021-1>.
12. Сабирова У.Ф. Таълим жараёнини такомиллаштириш муаммосининг илмий манбаларда тадқиқ этилганлик ҳолати // Журнал социальных исследований. – 2021. – Т. 4. – №. 4.



UDK:53.35.014.54

*Ra'no SALOMOVA,*  
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti erkin tadqiqotchisi*  
*E-mail: sirojiddin@umail.uz*

*QarMII dotsenti PhD. Ismoilov D.M. taqrizi asosida*

## IMPROVING THE TEACHING OF COMPUTER SCIENCE BASED ON THE ORGANIZATION OF A CLUSTER ENVIRONMENT

Annotation

In this article, organizational forms of learning in modern education make significant changes in the implementation of general didactic goals and teaching methods. Not enough attention is paid to substantive and active content as a necessary component of information technology training of a future computer science teacher, but they highlight the content and structure of the teacher's activities.

**Key words:** Software tools, electronic resource, animation, software package, software product, professional activity, technology, project, construction.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНФОРМАТИКИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИИ КЛАСТЕРНОЙ СРЕДЫ

Аннотация

В данной статье организационные формы обучения в современном образовании вносят существенные изменения в реализацию общих дидактических целей и методов обучения. Содержательному и активному содержанию как необходимому компоненту информационно-технологического обучения будущего учителя информатики уделяется недостаточно внимания, но они освещают содержание и структуру деятельности учителя.

**Ключевые слова:** Программных средств, электронный ресурс, анимация, программный пакет, программный продукт, профессиональная деятельность, технология, проектирования, конструкторский.

## KLASTERLI MUHITINI TASHKILLASHTIRISH ASOSIDA INFORMATIKA FANINI O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Аннотация

Ushbu maqolada zamonaviy ta'limda ta'limning tashkiliy shakllari umumiy didaktik maqsadlar va o'qitish usullarini amalga oshirishda sezilarli o'zgarishlarni amalga oshiradi. Bo'lajak informatika o'qituvchisining axborot-texnologik tayyorgarligining zaruriy komponenti sifatida mazmunli va faoliyatli tarkibga yetarlicha e'tibor qaratmaydi, lekin aynan ular o'qituvchi faoliyatining mazmuni va tuzilishini yoritib beradi.

**Kalit so'zlar:** Dasturiy vosita, elektron resurs, animatsiya, dasturiy paket, dasturiy mahsulot, kasbiy faoliyat, texnologiyalar, loyihalash, konstruktorlik.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-sonli "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi[1].

L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, S.L.Rubinshteynlarining ta'limning shaxsiy-faoliyatli nazariyasi haqidagi g'oyalarini tahlil qilgan holda, V.V.Kravets bo'lajak o'qituvchining kasbiy faoliyatga (ochiq ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga) tayyorligi tuzilmasini kasbiy faoliyatning to'rtta o'zaro bog'liq komponentlari majmuasi sifatida ko'rib chiqadi:

- O'qituvchining ochiq ta'lim texnologiyasiga ongli munosabatini va uning zamonaviy ta'limning dolzarb muammolarini hal qilishdagi rolini ifodalovchi motivatsion komponent;

- Ochiq ta'lim texnologiyalarining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari, ularning turlari va xususiyatlari to'g'risida o'qituvchining bilimlari majmuini birlashtiruvchi tarkibiy komponent;

-Kasbiy faoliyat tarkibida pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar majmuasiga asoslangan operatsion komponent;

- O'qituvchining ongi va faoliyati hodisalarini bilish va tahlil qilishni tavsiflovchi refleksiv komponent [2].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** P.S. Glebova o'qituvchining axborot-texnologik kasbiy faoliyatga tayyorgarligining asosiy ta'riflarini tahlil qilgan tadqiqotchilar M.I.Dyachenko, L.A.Kandibovich, L.V.Kondrashova, K.K.Platonov va boshqalarning fikrlariga qo'shilgan holda, shaxsning ma'lum bir faoliyatga munosabati sifatida belgilaydi, bunda o'qituvchi o'ziga xos ruhiy holatda bo'lib, tashabbuskorlik ko'rsatishga samarali munosabat tufayli yuqori ishchanlikni ta'minlovchi, shaxsning tegishli kasbiy faoliyatda to'plangan bilim, ko'nikma va belgilovchi o'qituvchining loyihaviy-konstruktorlik faoliyatiga tayyorligini ifodalaydi. P.S.Glebova o'qituvchining kasbiy tayyorgarligining quyidagi tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatadi:

- O'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun xohish va tayyorlik, motivatsion;

- Loyihaviy-konstruktorlik faoliyati haqida maxsus va umumiy nazariy bilimlar, kognitiv;

-Gnostik, loyihalash, konstruktorlik, tashkiliy, kommunikativ, operatsion;

- Masalalani yechishga munosabat, o'ziga ishonch, hissiy;

- O'z faoliyati natijalari uchun muhimligi va shaxsiy javobgarligini, shu jumladan uni doimiy ravishda takomillashtirish zarurligini anglash, shaxsiy [3].

Bundan tashqari, P.S.Glebova o'qituvchi faoliyatining operatsion komponentini batafsilroq yoritib bergan. Gnostik komponentning shakllanish darajasi o'z bilimlarini kengaytirish, to'ldirish va qo'shimcha qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi; o'z ta'lim faoliyatiga baho berish, shuningdek shaxsiy ta'lim faoliyati natijalarini baholash qobiliyati; o'quv materiali bilan mustaqil ishlash, shuningdek mustaqil ravishda tajribalar, tadqiqot va loyihalarni amalga oshirish qobiliyati[4].

Loyihalash komponentining shakllanganlik darajasi bo'lajak o'qituvchining turli ta'lim muammolarini loyihalash maqsadlarini belgilash qobiliyati; loyihalash qarorlarining sifat xususiyatlarini aniqlash qobiliyati; obyektning aniq modellarini optimallashtirish va tahlil qilish, shuningdek loyihaviy-konstruktorlik faoliyati natijalarini oldindan aniqlash qobiliyati; eng yaxshi yechimlarni izlash, shuningdek, qaror qabul qilishda tashabbus ko'rsatish qobiliyatida namoyon bo'ladi[5].

Konstruktiv komponentning shakllanganlik darajasi bo'lajak o'qituvchining grafik va abstrakt modellarni tanlash qobiliyati; eng yaxshi konstruksiyalash modelini belgilash, shuningdek, ushbu modellar va uning funksional maqsadi o'rtasidagi munosabatni aniqlash qobiliyati; axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining optimal majmuasini aniqlash, shuningdek, ta'lim jarayonini sifatli amalga oshirish va loyihalash uchun ulardan foydalanish yo'llarini tanlash qobiliyatida namoyon bo'ladi[6].

Tashkiliy komponentning shakllanganlik darajasi bo'lajak o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatini tashkil etish qobiliyatida namoyon bo'ladi[7].

Kommunikativ komponentning shakllanganlik darajasi bo'lajak o'qituvchining ta'lim faoliyatining turli ishtirokchilari o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish uchun turli mexanizmlardan foydalanish qobiliyatida namoyon bo'ladi [8].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ko'pgina tadqiqotlarda (B.G.Ananyev, M.I.Dyachenko, V.A.Slastenin va boshqalar) ko'rib chiqilgan bo'lajak informatika o'qituvchisining axborot-texnologik tayyorgarligiga oid nazariy va amaliy qoidalarning tahlili informatika o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi shaxsning integral holati bilan ifodalanishi, u o'z ichiga to'rtta asosiy komponentni olishini ko'rsatadi, ularga: refleksiv, operatsional, mazmunli va motivatsion. Shunga mos ravishda ushbu tadqiqot doirasida bo'lajak informatika o'qituvchisining axborot-texnologik tayyorgarligi komponentlarini axborot texnologiyalari vositalariga asoslangan zamonaviy metodlar, tashkiliy shakllar va ta'lim vositalarini qo'llash doirasida o'rganishimiz kerak.

Motivatsion komponent. Ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichida bo'lajak o'qituvchida ta'limning yangi innovatsion shakllarini o'rganishga motivatsiyasini shakllantirish zarur. Zamonaviy o'qituvchiga uning kasbiy o'sishi, uning daromadi ko'p jihatdan amaldagi meyoriy hujjatlardan belgilangan ta'lim natijalariga erishishgacha bo'lgan darajalarga bog'liq ekanligini tushuntirish zarur. Bo'lajak o'qituvchiga shuni tushuntirish kerakki, ta'lim jarayonida zamonaviy tashkiliy shakllardan foydalanilgandagina belgilangan ta'lim natijalariga erishish

mumkin. Shunga ko'ra, zamonaviy o'qituvchini zamonaviy innovatsion shakllarni o'zlashtirishga motivatsiya berish kerak, aks holda u belgilangan ta'lim natijalariga erisha olmaydi[9].

Agar operatsion komponentni yuqorida ko'rsatilgan bo'lajak informatika o'qituvchisining kasbiy faoliyati komponentlariga ko'ra batafsilroq tahlil qilsak, gnostik komponentning shakllanganligi ta'lim jarayonida yangi metodlar, ta'limning innovatsion shakllari va ta'lim vositalarining psixologik-pedagogik xususiyatlaridan maqsadli foydalanish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Konstruktiv komponentning shakllanganligi ta'lim muassasasida o'quv jarayonini konstruksiyalash uchun ta'limning yangi metodlari, innovatsion shakllari va vositalarini maqsadli qo'llash qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Loyihalash komponentining shakllanganligi ta'lim muassasasida o'quv jarayonini loyihalash uchun ta'limning yangi metodlari, innovatsion shakllari (telekommunikatsiya loyihasi, modulli o'qitish, tarmoqli aloqa, keys texnologiyasi) va vositalarini maqsadli qo'llash qobiliyatida namoyon bo'ladi[10].

Kommunikativ komponentning shakllanganligi ta'lim jarayonining turli subyektlari (o'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar) o'zaro hamkorligi uchun ta'limning yangi metodlari, innovatsion shakllari (ta'lim portali, chat, tarmoqli aloqa, blog, forum va boshqalar)ni maqsadli qo'llash qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Tashkiliy komponentning shakllanganligi ta'lim muassasasida o'quv jarayonini tashkil etish uchun yangi metodlar, innovatsion shakllar (telekommunikatsiya loyihasi, modulli o'qitish, tarmoqli aloqa, keys texnologiyasi) va axborot texnologiyalariga asoslangan ta'lim vositalarini maqsadli qo'llash qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Ekspert komponentining shakllanganligi ta'lim jarayoni sifatini ekspert baholash uchun o'quv jarayonida yangi metodlar, innovatsion shakllar va zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish sohasidagi bilimlarni maqsadli ravishda egallash qobiliyatida namoyon bo'ladi[11].

Tarkibiy komponent. Bo'lajak informatika fani o'qituvchisi ta'lim jarayonida an'anaviy va innovatsion tashkiliy shakllarni qo'llash bo'yicha bilimlarni shakllantirishi, ular qanday tuzilganligi, qanday tasniflanganligi, qanday qurilganligi haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Aks holda o'qituvchi ta'lim jarayonida bu shakllardan sifat jihatidan foydalana olmaydi.

Operatsion komponent. Bo'lajak informatika fani o'qituvchisi ta'lim jarayonida innovatsion shakllarni qo'llash bo'yicha bilimga ega bo'lishi kerak. Zamonaviy informatika o'qituvchisi ta'limning zamonaviy shakllaridan foydalanish holda umumta'lim maktabida yangi ta'lim jarayonini rejalashtirish haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Ta'lim jarayonini rejalashtirishda an'anaviy shakllardan foydalanish yoki innovatsion shakllardan foydalanish o'rtasida katta farq bor. Shunga ko'ra, zamonaviy o'qituvchi ta'limning zamonaviy shakllarini qo'llash sharoitida ta'lim jarayonini rejalashtira olishi kerak, degan xulosaga kelish mumkin.

Refleksiv komponent. Bo'lajak informatika fani o'qituvchisida ma'lum bir darsni yoki butun ta'lim jarayonini qurish sifatini baholash ko'nikmalari shakllangan bo'lishi kerak. Ushbu komponentni egallagan o'qituvchi doimo ta'lim jarayoni sifatini oshirish yo'llarini izlashi kerak. Bunday o'qituvchi axborot texnologiyalari asosida ta'limning zamonaviy metodlari, tashkiliy shakllari va yangi ta'lim vositalarini qo'llash sohasida bilim, ko'nikma va malakalarni individual ravishda oshirib borishi kerak. Bundan tashqari, refleksiv komponentga ega o'qituvchi uzluksiz ravishda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradigan zamonaviy metodlar, tashkiliy shakllar va axborot

texnologiyalariga asosidagi yangi ta'lim vositalarini izlashda davom etishi kerak.

**Tahlil va natijalar.** Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining hozirgi vaqtda ishlashga axborot-texnologik tayyorgarligini shakllantirish uchun shart-sharoitlarni ishlab chiqish eng muhim mezonlardan biridir. Axborot-texnologik tayyorgarlik sohasida ta'lim jarayoniga yuqorida tavsiflangan operatsion, refleksiv, mazmunli va motivatsion komponentlarni qo'llash mumkin. Ushbu komponentlarning shakllanganlik darajasi bo'yicha va bo'lajak informatika o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligining shakllanganlik darajasi haqida gapirib o'tamiz.

“Daraja” tushunchasi tayyorgarlikni shakllantirish jarayonining sifatli diskretliligi, tuzilishini aks ettiradi va ushbu sifatning izchilligi va yaxlitligi, uning shakllanish darajasining ko'rsatkichi hisoblanadi.

V.A.Yadovning fikriga ko'ra, “darajani aniqlash mezonlariga quyidagilar kiradi:

- a) murakkablikning turli sinflari tizimiga mansubligi;
- b) har bir darajadagi qonunlar va qonuniyatlarining o'ziga xosligi;
- v) quyi darajadagi qonunlar va tizimlarning yuqoridagilarga bo'ysunishi;
- g) ta'limning har bir keyingi darajasi kelajakdagi asosiy tarkibdan o'tishi;
- d) ta'limning har bir keyingi darajasi kelajakdagi ta'limga o'z elementlari tizimi sifatida kiritiladi” [12].

Zamonaviy informatika o'qituvchisining ta'lim jarayonida innovatsion shakllardan foydalanishga tayyorligining uchta darajasi: past, o'rta va yuqori mavjud.

Informatika o'qituvchisining ta'lim jarayonida innovatsion shakllardan foydalanishga yuqori darajada tayyorligi quyidagi ko'nikmalarga bog'liq:

- zamonaviy metodlar, innovatsion shakllar va yangi ta'lim vositalaridan foydalanishni hisobga olgan holda ta'lim muassasasining zamonaviy axborot-ta'lim muhitini shakllantirish;
- ta'lim muassasasida o'quv jarayonini konstruksiyalash, tashkil etish va loyihalashda an'anaviy va innovatsion shakllar (telekommunikatsiya loyihasi, modulli

ta'lim, tarmoqli aloqa, keys texnologiyasi va boshqalar) dan foydalanish;

- ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish uchun, masalan, tarmoq texnologiyalaridan foydalanish yordamida zamonaviy metodlar, innovatsion shakllar va zamonaviy ta'lim vositalarini qo'llash;

- ta'lim jarayonida yangi metodlar, innovatsion shakllar va zamonaviy ta'lim vositalaridan maqsadli foydalanish.

Bo'lajak informatika o'qituvchisining ta'lim jarayonida innovatsion shakllardan foydalanishga tayyorligining o'rtacha darajasi quyidagi malakalar bilan belgilanadi:

- Ta'lim muassasasining axborot-ta'lim muhitini saqlash, masalan, maktabning axborot-ta'lim muhitidan foydalanishda boshqa o'qituvchilarga yordam berish;

- Ta'lim jarayoni sifatini oshirish va rejalashtirilgan ta'lim natijalariga erishish maqsadida AKT vositalari asosida yangilanayotgan axborot-ta'lim muhiti komponentlaridan foydalanish;

- Ta'lim muassasasining yangilanayotgan axborot-ta'lim muhitidan foydalangan holda ta'lim jarayonini konstruksiyalash, tashkil etish va loyihalash;

- Ta'lim jarayonida o'qitishning an'anaviy metodlari, shakllari va vositalaridan maqsadli foydalanish.

Zamonaviy informatika o'qituvchisining ta'lim jarayonida innovatsion shakllardan foydalanishga tayyorligining past darajasi quyidagi bilimlarga bog'liq:

- Ta'lim jarayonida yangi AKT vositalarini qo'llash asosida tayyor dars konspektlaridan foydalanish;

- Ta'lim jarayonida ta'lim muassasasining axborot-ta'lim muhiti vositalaridan foydalanish;

- Ta'lim muassasasining o'quv jarayonida o'qitishning an'anaviy metod, shakllari va vositalarini qo'llash.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa shundan iboratki umuman olganda bo'lajak informatika fani o'qituvchisining axborot-texnologik tayyorgarligi ularni zamonaviy tashkiliy shakllardan foydalanishga tayyorlash bo'yicha metodik dasturni ishlab chiqish bilan chambarchas bog'liq.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. – T., 2017. B.39.
2. Покасов В.Ф. Управление качеством образования современной школы (методические материалы) // автор-состав. – Ставрополь. 2012. – 145 с.
3. Гомулина Н.Н. Применение новых информационных и телекоммуникационных технологий в школьном физическом и астрономическом образовании: Дисс. канд. пед. наук: 13.00.02. – М.: МГПУ, 2003.-332 с. РГБ ОД, 61:03-13/1698-6.
4. Xamidov V.S. Ta'lim tizimida keskin burilishga sabab bo'lgan 4 dastur haqida. «Infocom.uz», - Toshkent. 2010, №1, -54-57-b.
5. Шоштаева Е.Б. Интегральная технология обучения как основа повышения качества образовательного процесса: автореф. дис. канд. пед. наук. //Е.Б. Шоштаева. – Карачаевск: 2003. – С. 23.
6. Xamidov V.S. Ta'lim tizimida keskin burilishga sabab bo'lgan 4 dastur haqida. «Infocom.uz», - Toshkent. 2010.
7. Turaev S.J. Methods of the using of software program Microsoft Excel in practical and laboratory occupation on physics, Scientific Bulletin of Namangan State University: 2019.
8. Смолкин А.М. Методы активного обучения: [Метод. пособие для преподавателей и организаторов проф. и экон. обучения кадров] / А.М. Смолкин. – М.: Высш. шк.,1991. – с. 175.
9. Психология и педагогика /Под ред. Абульхамовой К.А., Васиной Н.В., Лаптева Л.Г., Слостенина В.А. – М.: «Совершенство», 1998.
10. Махмადиев В.С. MathCAD tizimida ishlash asoslari. O'quv qo'llanma. – Qarshi. 2012. – 144-b.
11. Turayev S.J., Xo'jayev L.X., Pardayev B.A. Matlab/Simulink muhitida dinamik sistemalarni modellashtirish va Borland Delphi7 dasturlash tilida grafingni o'rganish.
12. Аладьев В.З., Харитонов В.Н. Программирование: Maple или Mathematica. – Таллинн , 2011. -415-с.



UDK: 37.026

**Nazira SATTOROVA,**  
Termiz davlat pedagogika instituti magistranti  
E-mail: nazirasattorova@gmail.com

*TerDPLning pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD D.Shabbozova taqrizi asosida*

### THE ROLE OF FOLK'S ORAL CREATION IN PATRIOTIC EDUCATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS

Annotation

The article discusses the role of folk art in educating elementary school students in the spirit of patriotism, as well as the educational importance of epics, fairy tales, and narratives.

**Key words:** Folklore, education, patriotism, saga of wisdom, fairy tale, narrative.

### РОЛЬ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА В ПАТРИОТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ ШКОЛЬНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В статье рассматривается роль народного творчества в воспитании учащихся начальных классов в духе патриотизма, а также воспитательное значение былин, сказок, повестей.

**Ключевые слова:** Фольклор, воспитание, патриотизм, saga о мудрости, сказка, повествование.

### BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBİYALASHDA XALQ OG'ZAKI IJODINING O'RNI

Аннотация

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining o'rni va shuningdek doston,ertak va rivoyatlarning tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Xalq og'zaki ijodi, tarbiya, Vatanparvarlik, donishmadlik doston, ertak, rivoyat.

**Kirish.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Xalqimiz o'z tarixiy ijtimoiy va siyosiy taraqqiyoti mobaynida dolzarb ahamiyatga ega boy og'zaki ijod merosini yaratgan. Xalq og'zaki ijodi qadim zamonlardan buyon shakllanib, sayqallanib xalq pedagogikasining tarbiya vositalaridan biri bo'lib kelgan va hozirgacha ahamiyati jihatdan beqiyosdir.

O'zbek xalq og'zaki ijodining barcha janrlari, jumladan, afsonalar, asotirlar, rivoyatlar, ertaklar, naqlar, latifalar, loflar, xilma-xil qo'shiqlar, allalar, termalar, maqollar, matallar, topishmoqlar, dostonlar, askiyalar, aytishuvlar, tez aytishlaming tarbiyaviy imkoniyatlari cheksizdir. Barkamol shaxsni shakllantirishning hamma tarkibiy qismlari, ya'ni aqliy, axloqiy, jismoniy mehnat, nafas tarbiyasiga oid ajoyib ma'lumotlar o'zbek xalq og'zaki ijodining barcha janrlarida o'z ifodasini topgan. O'zbek xalq og'zaki ijodida dostonlar yoshlarda vatanparvarlikni va komil insonni tarbiyalashda o'ziga xos bebaho qadriyatlardan biri hisoblanadi. Zero, xalq dostonlari qahramonlarining sarguzashtlari, ularning qiyinchiliklarni engib, har jihatdan chiniqib borishi va juda zehni, xalqparvar, insonparvarligi va yurtini doimo himoya qilishi har bir yosh uchun ibratdir[1].

Dostonlar xalqning o'zligini, tilini, urf-odatlarini, qadriyat va an'analarni ifodalab beruvchi ko'zguvchi. Xalq donishmandligi ruhi bilan sug'orilgan dostonlar chuqur va atroflicha o'rganish esa yosh avlodning ma'naviy kamolotini yuksaltirishga va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Insoniyat qadim-qadimdan turmush tarsi va hayotdagi sinalgan pedagogik qarashlarni avloddan-avlodga o'tkazib kelgan. Ular turmush, ijtimoiy va mehnat faoliyati hamda boshqalar bilan bog'liq bo'lib, asta-

sekin an'anaviy tus olgan, keyingi avlodlar uchun hayot sabog'i vazifasini o'tay boshlagan[2]. Chunki xalq og'zaki ijodiyoti turkumiga kiruvchi barcha janrlar, miflar, afsonalar, rivoyatlar, ertaklar, latifalar, loflar, xalq qo'shiqlari, termalar, dostonlar, maqollar, topishmoqlar va boshqalar donishmandlik manbalari hisoblanadi. Zero, xalqning tarixiy tajribasi, turmush saboqlari natijasida ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlar, qarashlar tarkib topadi. Ularda xalqning zukko va donoligi namoyon bo'lgan. Bular o'zbek xalq pedagogikasida o'z aksini topgan.

O'zbek xalq pedagogikasiga tarkibiga kiruvchi xalq og'zaki ijodiga xos xususiyatlar - insonparvarlik, ochiq ko'ngillilik, saxovatlilik, poklik, tog'ri so'zlik, haqiqatgo'ylik, rostgo'ylik, yaxshi qo'shnichilik, tinchliksevarlik, vatanparvarlik, baynalmilallik kabi fazilatlardan iborat bo'lib, bu fazilatlar tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi va umumbashariy xususiyat kasb etadi[4]. Shu ma'noda xalq og'zaki ijodi ma'lum davrda yashagan xalq, elat, guruh madaniyati, ma'naviyati, taiim-tarbiya va pedagogik fikrlarining tarkibiy qismidir. Uning umumbashariylik xususiyati shundan iboratki, u demokratik yo'nalishda rivojlanadi, xalqning ezguliklari, orzu niyatlari va g'oyalarini ifodalaydi.

**Doston**, poema-liro-epik janr; shu janrdagi badiiy asar. O'zbek xalq og'zaki ijodi va o'zbek muntoz adabiyotida keng tarqalgan. Dostonda muayyan voqea liro-epik tasvir vositalari yordamida hikoya qilinadi. Unda hayot, voqelik keng ko'lamda qamrab olinadi, bir yoki ikkita bosh qahramon ishtirok etadi, personajlar esa ko'p bo'ladi. Syujeti sertarmoq, rang-barang[1]. O'zbek xalq dostonlariga "Alpomish", "Ravshan", "Rustamxon", "Kuntug'mish" kabilar kiradi. Bu dostonlarda vatanni sevish,

insonparvarlik, dovyuraklik, aql-idrok, vatanparlik, qahramonlik kabi xislatlar o'z ifodasini topgan.

Dostonlarda ezgulik, ozodlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, qahramonlik kabi insoniy g'oyalar mislsiz mahorat bilan tarannum etilgan va insonni hamisha ma'naviy kamolot sari etaklagan. Ana shunday umrboqiy asarlardan biri "Alpomish" dostonidir. O'n asrki bu doston nafaqat xalq tilida balki xalq dilida yashab keladi. Filolog M.Qo'shmoqovning yozishicha: Alpomish alp bo'lgani uchun ming yillar davomida xalq yuragida o'lmay yashab keladimi? Aslo! Alplik Alpomish obrazining bir qirras, xolos. Alpomish aslida ma'naviyat qahramonidir. U vatan mustaqilligi, xalqning ma'naviy birligi uchun ozodlik, ezgulik, tinchlik uchun kurashgan qahramon. Ma'naviyat qahramoni bo'lgani tufayli ham u xalqning ideal qahramoniga aylandi[2].

"Alpomish"-xalq qahramonlik dostonidir. Turkiy xalqlar orasida uning bir necha versiyalari tarqalgan bo'lib, noyob badiiy asar hisoblanadi. "Alpomish" asari qadimda yaratilgan bo'lib, asrlar davomida kuylanib, xalq og'zaki ijodi sifatida bizlargacha yetib kelgan. "Alpomish"- qadimiy turkiy tilda yozilgan dostonidir. 1999-yilda O'zbekistonda "Alpomish" dostonining 1000 yilligini keng nishonlandi. Bu dostonida Alpomish laqabli Hakimbek degan qo'rqmas bahodir pahlavonning begona Qalmoqlar yurtida aziyat chekayotgan amakisi (qaynotasi) bilan sevgilisi Barchinoyni qutqarib kelishi va murod-maqsadiga yetishi juda jonli tasvirlangan. Alpomish Qalmoqlar yurtida ko'p qiyinchiliklarga, hiylanayranglarga duch kelib, ularni mardona yengib o'tadi. O'zining mardligi, haqqoniyligi, tantiligi tufayli Qalmoqlar yurtida ham, o'z vatanida ham adolatni qaror toptiradi. Ushbu dostonida o'zbeklarning fe'l-atvori juda mahorat bilan tasvirlangan.

"Alpomish" dostoni qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, sevgi va sadoqat, oila mustahkamligi va urug'lar birligini kuylovchi ulkan eposdir. Respublikamizning birinchi prezidenti Islom Karimov aytganidek, "Alpomish" dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqqoniy bo'lishni, vatanimizni, oila qo'rg'onimizni qo'riqlashni, do'stu yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishni o'rgatadi.

Doston qo'ng'iroq urug'i boshliqlari – aka-uka Boybo'ri va Boysarining farzandsizligi tasviri bilan boshlanadi. Unda Hakimbek (Alpomish), Barchin, Qaldirg'ochlarning bir kunda dunyoga kelishlari, go'daklik chog'idanoq Barchinning Hakimbekka beshikker qilinishi tasvirlanadi. O'rtadagi fitna sababli aka-ukalarning o'rtasiga sovuqchilik tushib, Boysari o'n ming uyli elat bilan qalmoq eliga ko'chib ketadi va katta xatoga yo'l qo'yadi. Alpomish yorini olib kelish uchun o'zga mamlakatga safar qilar ekan, safar chog'ida Qorajon bilan do'st tutinib, Barchinning sovchilarga qo'ygan shartlarini bajaradi va yorini olib o'z yurtiga qaytadi.

Bo'linganni bo'ri yer, degan gap bejiz aytilmagan. Boysari yovuz qalmoqlar qo'lida qullikka tushib qoladi. Bundan xabar topgan Alpomish amakisini qutqarish uchun qalmoq eliga borib, u yerda yetti yil tutqunlikda qolib ketadi. Bu orada esa Boybo'ri ham fitna sababli qabila boshlig'idan qullikka tushib qoladi. Alpomish zindondan oti Boychibor yordamida qutulib, Qalmoq elida adolatni qaror toptiradi hamda raqibini yengib, murod-maqsadiga erishadi. Bu voqealarning barchasi dostonida juda qiziqarli, eposga xos rang-barang badiiy bo'yoqlarda tasvirlangan. Alpomish va Qorajon, Qultoy va Yodgorlarning o'zaro munosabatlari, hatto qahramonning oti Boychibor bilan munosabati tasviri olijanob soddalik, ulug'vor vazminlik, insoniylik, bolalarcha beg'ubor samimiylik g'oyatda go'zal mujassamlashgan. "Alpomish" dostoni badiiy barkamol asardir. U o'zbek xalqining boy madaniy merosi hisoblangan durdona asaridir.

Rivoyat (arab. hikoya qilmoq)-voqea va hodisalarni, inson faoliyatini ba'zan uydirmalar vositasida, ba'zan real tasvirlovchi og'zaki hikoya; folklor janri. Hajmi qisqa, 2 yoki 3 epizoddan tashkil topadi, an'anaviy uslubiy shaklga ega bo'lmaydi. Odatda, oddiy bir hikoyachi bayonidan boshlanib, og'izdan og'izga o'tish jarayonida erkin talkin qilinadi. Rivoyat asosida voqelik va tarixiy shaxs bilan bog'liq hodisalar yotadi. G'oyaviy mazmuniga ko'ra, tarixiy Tarixiy hamda toponim rivoyatlarga bo'linadi. Tarixiy rivoyatlarda biror shaxs faoliyati va xalq qahramonlari bilan bog'liq hodisalar hikoya qilinadi, axloq va odobning ideal me'yorlari tashviq etilib, muayyan faktlar haqida axborot beriladi. Bunday rivoyatlar Navoiy, Ulug'bek, Ibn Sino, Beruniy, Mashrab, Amir Temur, Sulton Mahmud va boshqa hayoti bilan bog'liq voqea va hodisalar asosida ham yaratilgan. Toponim rivoyatlarda shahar, qishloq, qo'rg'on, saroy, maqbaralar nomi hamda ularning yuzaga kelish sabablari bilan bog'liq voqealar hikoya qilinadi. Xotimasida odatda, hikoyadan maqsad ta'kidlanadi va muayyan fakt izoxlanadi (Mas, "To'rabek xonim maqbarasi", "Anda jon qildi", "O'dinajonim", "Qo'ng'iroq" va boshqalar). rivoyatlar bizgacha ko'proq og'zaki, qisman yozma shaklda yetib kelgan. O'zbekistonda juda ko'p rivoyatlar yozib olingan va ular xalq tarixi hamda madaniy estetik qarashlarini o'rganishda muhim manbadir[1].

4-sinf o'qish kitobida "To'maris", "Najmiddin Kubro" kabi rivoyatlarda vatanparvarlik tuyg'ulari o'z aksini topgan.

Qadimgi Xiva-qadim o'tmishdan aks-sado beruvchi shahar-muzej. Xorazm madaniyatining bu qadimiy markazi devorlarida qanchadan qancha rivoyat va afsonalar saqlanib qolgan. Xiva umrining so'nggi kunlarigacha Chingizxon qo'shinlariga qarshi kurashgan buyuk dinshunos va din peshvosining vatani bo'ldi.

Shayx Najmiddin Kubro 1145-yilda Xivada tug'ilgan. Yoshligidan hadis va kalom ilmlarini o'rgangan, Misr, Tabriz, Hamdonda tahsil olgan. Vataniga qaytgach, diniy faoliyat bilan faol shug'ullanadi, Urganchda "Kubraviya" birodarligiga asos soladi, arab va fors tillarida tasavvufga oid she'r va risolalar yozadi.

Uning iste'dodli shoir, buyuk vatanparvar ekanligiga shubha yo'q. Uning asarlarini mutaola qila turib borliqni anglaysiz. Uning tug'ilib o'sgan Xorazm o'lkasi uchun qilgan ishlari, ko'ngilga ta'sir qilmay qolmaydi. 4-sinf o'qish darsligidagi "Najmiddin Kubro" rivoyatida quyidagi voqealar o'z aksini topadi. Chingizxon Xorazmga bostirib kirgan vaqt, shayx Urganchda edi. Najmiddin Kubro nomi qadimgi Xorazm chegaralaridan tashqarida ham ma'lum bo'lgan davr edi. Chingizxon uning juda yaxshi inson ekanligini allaqachon eshitgan edi. Bosqinchi, shayx va uning oilasiga shaharni tark etishni taklif qiladi. Biroq Kubro qat'iy rad javobini berdi: "Men bu shaharda ko'p yillar mobaynida yashayman va har bir jon men uchun aziz. Ushbu og'ir kunlarda men ularni tark eta olmayman». Shundan keyin shafqatsiz zolim shaharga hujum qilishga qaror qiladi. Najmiddin Kubro dushman bilan jangga kirishdan oldin do'stlari va ustozlarini shaharni tark etishni so'raydi. Kubro o'zining fidoyi shogirdlari-qoroldoshlari bilan mo'g'ul qo'shinini oxirigacha qaytarishga harakat qiladi.

Jaroxatlanganda ham bayroqni qo'yib yubormaydi. Najmiddin Kubro so'nggi nafasigacha Urganchda oddiy xalq bilan yonma-yon kurashdi. Hamma narsa oldindan belgilab qo'yilgandek tuyuldi, chunki "Kubroviya" tariqatining asosi mo'g'ullarning dushmanlariga nisbatan o'ta nafratdir. Najmiddin Kubro chinakam vatanparvarlik, oliyanoblik va halollikning yorqin namunasi bo'ldi. Kubro bugungi kungacha buyuk avliyo va ayniqsa hurmatli shayx bo'lib qolmoqda.

Yoshlarning g'oyaviy-siyosiy ongini shakllantirish, ularda atrof-muhitga, jamiyatga ongli munosabatda bo'lish, jonajon Vatanini cheksiz sadoqat bilan sevh, xalqimizning

milliy qadriyatlarini e'zozlash hissini tarkib toptirish-vatanparvarlik tarbiyasining mag'zi bo'lmog'i lozim.

Yosh avlodga tarbiya berishdek murakkab vazifani hal etishda inaktab juda katta ahamiyat kasb etadi. Ayni shu joyda yoshlarimiz ijtimoiy jamiyat va ilmiy texnika taraqqiyoti talablariga javob bera oladigan mukammal ma'lumotlarni oladilar. Maktab yoshlarning dunyoqarashlariga poydevor hamda g'oyaviy e'tiqodlari uchun negiz yaratadi, ularning irodalarini shakllantiradi, xalqimiz baxt- saodati yo'lida sidqidildan mehnat qilishga tayyorlaydi.

O'quvchilarga tarbiya berish ularga ta'lim berish bilan mustahkam va yaxlit birlikda amalga oshiriladi[6].

**Ertak**-xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratilgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida etuk shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi.

**Xulosa.** Oilada bolalarni insonparvarlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda qo'llaniladigan eng xarakterli usullardan biri, xalq donishmandlarining axloq va odob yuzasidan aytiladigan hikmatli so'zlari, maqollari, u yoki bu ertak orqali hal qilinishi kerak bo'lgan muammo sifatida ishlatilishidir. Aniqrog'i axloq-odob masalalariga bag'ishlangan xalq maqollarining naqadar hayotiy ekanligini ma'lum ertak orqali aytib berilishidir.

Ko'pchilik ertak, dostonlarda rivoyatlarda ota-ona va keksalarning ajdodlarimizning turmush tajribalarini ifodalash bilan birga yoshlarni unga bevosita amal qilishlariga undaydigan maslahat va pand- nasihatlar ham asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Masalan:4-sinf o'qish darsligida berilgan "Paxlavon va Shoir" rivoyatida vatanparvarlik,o'tgan ajdodlarga hurmat,tantilik,onalarga nisbatan ulkan hurmat kabi fazilatlar tarannum etilgan.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent, 2000-yil.
2. Mutalipova M.J. Xalq Pedagogikasi Toshkent – 2015.
3. Mardonov Sh., Xodjayev B., Taylanova Sh., Xojimuhamedova D. "Pedagogik aksiologiya" o'quv qo'llanma.Toshkent. 2013-yil.
4. Atayeva N., Rasulova F., Salayeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika.
5. 4-sinf O'qish kitobi Matjonov S., Shojalilov A., G'ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z.Toshkent-2017.
6. Mavlonova R., Normurodova B., Rahmonqulova N. Tarbiyaviy Ishlar Metodikasi.Toshkent – 2010.



UDK: 323;37.0 C-34.

**Muxlis SAFAROV,**

*O'zMU "Fuqarolik jamiyati va huquq ta'limi" kafedrasida tayanch doktoranti*

*E-mail: muxlis.safarov@mail.ru*

*O'zMU professori, siyos.f.d. Ibodulla Ergashev taqrizi asosida*

### FUTUROLOGICAL ANALYSIS OF THE INFLUENCE OF PUBLIC ORGANIZATIONS ON THE TRANSFORMATION OF THE POLITICAL CONSCIOUSNESS AND CULTURE OF YOUTH

Annotation

The article examines the influence of public organizations as an important factor in the transformation of the political consciousness and culture of the youth of Uzbekistan. Also, based on the empirical data obtained from research on the futurological analysis of the influence of public organizations on the transformation of the political consciousness and culture of young people in the society, methodological approaches and main trends of public organizations in changing the political consciousness and culture of modern Uzbek youth are discussed.

**Key words:** Political consciousness, political culture, political consciousness and cultural transformation, public organizations, political organizations, political parties, political institutions, socio-political life, political structures.

### ФУТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ ОБЩЕСТВЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ НА ТРАНСФОРМАЦИЮ ПОЛИТИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ И КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В статье рассматривается влияние общественных организаций как важный фактор трансформации политического сознания и культуры молодежи Узбекистана. Также на основе эмпирических данных, полученных в результате исследований по futuroлогическому анализу влияния общественных организаций на трансформацию политического сознания и культуры молодежи в обществе, методологических подходов и основных тенденций общественных организаций в изменении политического сознания и культуры современной узбекской молодежи.

**Ключевые слова:** Политическое сознание, политическая культура, политическое сознание и культурные преобразования, общественные организации, политические организации, политические партии, политические институты, общественно-политическая жизнь, политические структуры.

### YOSHLAR SIYOSIY ONGI VA MADANIYATINI TRANSFORMATSIYALASHISHIDA JAMOAT TASHKILOTLARI TA'SIRINING FUTUROLOGIK TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston yoshlarining siyosiy ongi va madaniyatini transformatsiyalashishi jarayonida jamoat tashkilotlarining ta'siri muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, jamiyatda yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini transformatsiyalashishida jamoat tashkilotlari ta'sirini futurologik tahlil qilishga doir tadqiqotlardan olingan empirik ma'lumotlarga asoslanib, zamonaviy o'zbek yoshlarining siyosiy ongi va madaniyatini o'zgartirishda jamoat tashkilotlarining uslubiy yondashuvlari hamda asosiy tendensiyalari muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Siyosiy ong, siyosiy madaniyat, siyosiy ong va madaniyat transformatsiyasi, jamoat tashkilotlar, siyosiy tashkilotlar, siyosiy partiyalar, siyosiy institutlar, ijtimoiy-siyosiy hayot, siyosiy tuzilmalar.

**Kirish.** Jamiyatda yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashish jarayoni asosan turli darajada sodir bo'ladigan o'zgarishlar bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini transformatsiyalashish xususiyatlarini jamiyatda sodir bo'ladigan o'zgarishlarda jamoat tashkilotlar ta'sirini chuqur o'rganish orqali tadqiq etish mumkin. Negaki, jamiyatdagi mavjud o'zgarishlarda jamoat tashkilotlarining ta'siri yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi hamda ayni vaqtda bu uning asosiy ko'rsatkichlari bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, yangi O'zbekiston jamiyatini isloh qilishda yoshlar muhim ijtimoiy qatlam ekanligini hisobga olsak, ular ongida qanday siyosiy qadriyatlar shakllanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ham o'z ma'ruzalarida "Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha biz boshlagan ulkan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda hal qiluvchi rol o'ynaydigan asosiy kuch aynan yoshlarimizdir" [1] deb alohida ta'kidlaydi.

Mamlakatimizda so'ngi yillardagi siyosiy tizimning yangilanishi sharoitida turli xil ijtimoiy guruhlarini, shu jumladan, yoshlarni siyosiy munosabatlar sohasiga olib kirish imkoniyatlari ancha kengaydi. Shu bilan birga, liberal o'zgarishlarning vektori o'zining ustun yo'nalishini saqlab, asta-sekin o'z ko'rinishini yo'qotib, mavjud tartibning ijtimoiy-siyosiy barqarorligining yangi shakllarini barpo etishga intilmoqda. Bu esa o'z navbatida yangicha islohotlar sharoitida ijtimoiy-siyosiy sohada yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini transformatsiyalashishidagi mavjud muammolarni aniqlash dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Zero, jamiyatda yoshlar siyosiy ongi va madaniyatini transformatsiyalashishida jamoat tashkilotlar ta'sirini o'rganayotganda, mazkur o'zgarishlarning xususiyatlarini va ularni yoshlarning turli toifalari tomonidan idrok etilishini kognitiv darajada aks ettiruvchi omil sifatida ko'rib chiqish kerak. Siyosiy ong va madaniyatni transformatsiyalashishi nafaqat jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy muhitga, balki

turli xil guruh sifatida yoshlarning mentalitetiga ta'sirini belgilaydi, qolaversa, bu shubhasiz yangi O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning eng muhim shartlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi bunday o'zgarishlar davlat siyosiy tizimining maqsadlari va tamoyillarida aks etishi bilan birga asosan uning yo'nalishlarini ham oldindan belgilab beradi. Bu kabi jiddiy o'zgarishlar yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining ichki tuzilishiga, uning elementlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga ham ta'sir ko'rsatadi. Xususan, buni bugungi kunga kelib yoshlarni ijtimoiy faoliyatga va siyosiy hayotga jalb qilish hamda ularning ijtimoiy-siyosiy ongini shakllantirish mexanizmlari o'zgarib borayotganligida ko'rishimiz mumkin [2].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Yangi O'zbekiston jamiyatining barcha sohalarida davom etayotgan islohotlar yoshlar siyosiy ongi va madaniyatini futurologik nuqtai nazardan tahlil qilishga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Tadqiqotchilarning fikricha, yoshlarni siyosiy hayotga qo'shilishi va ularni siyosiy ongini shakllantirishning ijtimoiy-madaniy mexanizmlari o'zgarib bormoqda [3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatining muhim xususiyatlarini o'rganish yangi O'zbekiston jamiyatining mislsiz o'zgarishi paytida ijtimoiy hodisalarning shakllanishiga ijtimoiy-madaniy omillarning ta'siri hamda noaniqlik ta'siri ostida shakllangan yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatidagi ziddiyatlarni aniqlashga olib keladi. O'zbekiston jamiyatining to'liq noaniqlikdan ijtimoiy qarama-qarshiliklarni bosqichma-bosqich hal etishga o'tishi barqarorlikka moyillikni shakllanishi bilan tavsiflanadi. Shu bois maqolamizda mavjud muammolarni hamda tadqiqot ishlarni qiyosiy tahlil qilib, dalillariga asoslangan holda analiz va sintez metodi orqali ijtimoiy-siyosiy jihatdan tahlil qilishga harakat qilamiz.

**Tahlil va natijalar.** O'zbekiston jamiyati rivojlanishidagi barqarorlik tendensiyasining paydo bo'lishi siyosiy tizimning turli ijtimoiy guruhlar bilan o'zaro ta'sirining tabiatida aks etadi. Bunda esa yoshlar bilan munosabatlar o'zgacha shaklda rivojlanadi. Bu bir tomondan, yoshlarning o'zlarining guruh sifatidagi xususiyatlariga, ikkinchi tomondan, siyosiy maqsad va vazifalarga, shuningdek, siyosiy jarayonlar rivojlanishining haqiqiy tendensiyalariga bog'liq. Bu xususiyatlar ham jamoat institutlari tomonidan yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'sirida, ham o'zini o'zi tashkil etishning yangi shakllari paydo bo'lishida aks etadi. Biroq, jamoat va yoshlar tuzilmalarining o'zaro ta'sirida ko'plab qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi. Ularning aksariyati turli xil yoshlar guruhlarining turli ehtiyojlari, qiziqishlari, qadriyatlari, siyosiy qarashlari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-madaniy omillarga asoslangan bo'lib, bu ularning o'zini o'zi boshqarish usullarida namoyon bo'ladi. Ba'zi soha olimlarining fikricha, jamoat institutlari tomonidan yoshlarning ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga yetarlicha e'tibor berilmasligi, ularning siyosiy ongini shakllantirish mexanizmlari va tendensiyalarida aks etmasligi mumkin emas [4]. Bizning fikrimizcha, bu shuni anglatadiki, ba'zi bir siyosiy g'oyalar bilan identifikatsiya qilish, boshqalarni rad etish, uchinchisiga befarq munosabatda bo'lish, yoshlarni tegishli siyosiy g'oyalar va qadriyatlarini takrorlashga, muayyan siyosiy manfaatlarini amalga oshirishga, jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy institutlarga o'z munosabatlarini shakllantirishga hissa qo'shadi. Bu jarayonda yoshlar ongida mavjud ijtimoiy mexanizmlar ta'siri ostida nafaqat siyosatning mohiyati, balki ularning siyosiy ongi va madaniyatining asosini tashkil etuvchi maxsus qarashlar, taxminlar, g'oyalar va e'tiqodlar tizimi shakllanadi.

O'zbekiston yoshlarining zamonaviy avlodining o'ziga xos xususiyati – bu uning siyosiy ongi va

madaniyatining differentsiatsiyasida aks etgan ko'plab asoslarga ko'ra farqlanishidir. Bugungi kunda yoshlarning siyosiy manfaatlarini ilmiy klassifikatsiyasi deyarli tuzilmagan, avlodlar mafkurasi yo'q, yoshlarning aksariyati o'zlarini siyosiy manipulyatsiya obyektlari orasidan topib, siyosiy hayotning har qanday shaklidan uzoqlashadi, bu siyosiy tuzilmalarga qarama-qarshi munosabatni, siyosiy munosabatlarning nigilistik-instrumental vektorini va o'rnatilgan moslashuvning intuitiv izlanishini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, bu holat jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayoti asoslarini transformatsiyalashishi davrida yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirishning maqsadga yo'naltirilgan va o'zini o'zi boshqarish usullari o'rtasidagi tuzilmalarga kelib chiqadi. Bizningcha, uni jamoat institutlarining yoshlar muhitida o'zini o'zi boshqarishning ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga yetarlicha e'tibor bermasligidan izlash kerak bo'ladi. Shu nuqtai-nazardan olib qaraganda, yoshlarning siyosiy munosabatlar sohasiga, avvalo ong darajasida integratsiyalashuvining usullari, shakllari va o'ziga xos xususiyatlari noaniqlikicha qolmoqda. Shu ma'noda, yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirish muammosi Yangi O'zbekiston jamiyatini barpo etishning hozirgi bosqichida alohida ahamiyatga ega masalalardan biridir.

Bugungi kunda mamlakatimiz jamiyati hayotida amalga oshirilayotgan tub o'zgarish va islohotlar, shuningdek yangi rivojlanish strategiyasi hamda milliy taraqqiyotimiz istiqbollari bo'yicha zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda, shuningdek keyingi yillarda mamlakatimizda yangicha tartib-taomillar o'rnatildi, ammo makro va mikro darajadagi noaniqlik potentsiali saqlanib qolmoqda. Bu o'zini o'zi tashkillashtirishdagi tartibsizlikda va ijtimoiy jarayonlarning to'liqsizligida namoyon qiladi. Ushbu omillar zamonaviy o'zbek jamiyatini o'zgartirishning hozirgi bosqichida yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatida ziddiyatlarni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatdagi beqarorlik va ijtimoiy-madaniy inqiroz hali yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatida bartaraf etilmagan sharoitda uni tartibga solishning deformatsiyalangan qiymat-normativ institutsional mexanizmlari hamda o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarini faollashtirish o'rtasida ziddiyat paydo bo'ladi. Bizning nazarimizda, yoshlarning yangi xavfli sharoitlarga moslashishini shakllantirish va aksariyat yoshlarning an'anaviy konformistik modelni qabul qilish, e'lon qilingan siyosiy yo'nalishga yo'naltirish orqali sodir bo'ladi. Ba'zi olimlarning fikricha, ijtimoiy-siyosiy sohadagi yoshlar guruhlari tomonidan tavakkalchilikning ratsionalizatsiya qilishni turli usullari ijtimoiy-siyosiy ongning ichki qarama-qarshiligini belgilaydi [5]. Haqiqatdan ham ijtimoiy-siyosiy hayot o'zini o'zi boshqarishning an'anaviy usullari zamonaviy modellar bilan o'zaro aloqada bo'lganda hamda yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini qarama-qarshi tomonini shakllantirishda ularning bilimlari muhim rol o'ynaydi.

Yangi O'zbekiston jamiyatining hozirgi rivojlanish bosqichida barqarorlik tendensiyasining shakllanishi zamonaviy o'zbek yoshlari uchun yangi maqsadlar va ko'rsatmalarga ega bo'lgan qadriyat-me'yoriy mexanizmlarning faollashuviga yordam beradi. Ushbu jarayonlar natijasida yoshlar siyosiy ongi va madaniyatida ijtimoiy konservativ qadriyatlar, siyosiy hokimiyat mohiyati to'g'risida barqaror g'oyalar shakllanadi. Shu bilan birga, bugungi kunda hali ham yoshlar siyosiy ongi va madaniyatida salbiy tendensiyalar saqlanib qolmoqda, ular orasida davlat va jamoat tuzilmalariga ishonchsizlik, ekstremistik yo'nalishlar va mozaikali siyosiy madaniyatni shakllanishi kabilarni ko'rsatish mumkin.

Yoshlar siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirishning siyosiy qadriyat mexanizmlaridan farqli o'laroq, o'zini o'zi boshqarish mexanizmlari ham zarur.

Parsons nazarida ular muhim, kerakli va maqsadga muvofiqi to'g'risida individual-guruh g'oyalariga asoslanadi [6]. Ushbu qarashlar ma'lum bir ijtimoiy guruhning siyosiy ongi va madaniyatini o'zini o'zi boshqarish shakllari hamda usullarining asosiy manbai hisoblanadi. O'zini o'zi boshqarish mexanizmlari foydasiga tanlov yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatining motivatsion sohasida yuzaga keladi hamda siyosiy sohada ehtiyojlar, manfaatlar, qadriyatlar, munosabat, motivlar va ideallarning yo'nalishi bilan belgilanadi.

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayoti asoslarini transformatsiyalashish jarayoni yoshlar siyosiy ongi va madaniyatida o'zgaruvchanlik, individualizatsiya bilan bog'liq bo'lgan o'zini o'zi boshqarishning maxsus turini keltirib chiqaradi. O'zini o'zi boshqarish jarayoni ehtiyojlar, manfaatlar va qadriyatlarining ma'nosini qayta taqsimlaydi, shu bilan siyosiy munosabatlar sub'ekti uning o'zgaruvchan haqiqatga moslashishiga yordam beradigan yangi modellarni izlaydi. Siyosiy ong va madaniyat modellarning beqarorligi va dolzarbligi transformatsiya mexanizmini amalga oshirishga hissa qo'shib, o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarining intuitivligini belgilaydi.

O'tkazilgan tadqiqotlarning tahlillari ko'rsatganidek, transformativ g'oyalar o'zini o'zi boshqarishning ikkita asosiy usulini amalga oshiradi: bular, an'anaviy (paternalizm va avtoritarizm) hamda zamonaviy (individual-liberal qadriyatlar). Barqarorlik tendensiyasining paydo bo'lishining hozirgi bosqichida kollektivistik o'zini o'zi boshqarish usullari buziladi va yoshlarning ijtimoiy-siyosiy ongida individualizm va tavakkalchilik mexanizmlari faollashadi [7]. Bugungi zamonaviy o'zbek yoshlarining siyosiy ongi va madaniyatidagi avtoritar hamda demokratik munosabatlarning tahlili uning nomuvofiqigidan dalolat beradi. Ushbu qarama-qarshilikning oqibatlaridan biri zamonaviy o'zbek yoshlarining siyosiy ongi va madaniyatida o'zini o'zi boshqarish turiga taqlidning paydo bo'lishidir. Yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-madaniy mexanizmlarini o'rganish siyosiy partiyalarni yoshlarni siyosiy institutlar hamda yoshlar tashkilotlarini o'zini o'zi tashkil etish shakllari sifatida ko'rib chiqishga yordam beradi.

Jamiyatdagi siyosiy partiyalar guruh manfaatlarini to'playdilar, bu ijtimoiy-madaniy darajada hukmron siyosiy partiya tomonidan jamiyat hayoti ustidan monopoliyaga erishishda ifodalanadi. Ushbu siyosiy institutlar yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirish jarayonida muhim rol o'ynaydi, chunki ular bu jarayonni qadriyatga yo'naltirilgan va qadriyat mexanizmlar orqali tartibga soladilar. Partiya hayotiga qo'shilish orqali yoshlar siyosiy sotsializatsiya ob'ekti va sub'ektlariga aylanishadi, natijada siyosiy ong va madaniyatni shakllantirishga imkon yaratishadi.

O'zbekiston jamiyatning tubdan o'zgarishi sharoitida institutsional mexanizmlarning noto'g'ri ishlashi tufayli siyosiy partiyalarning yoshlarga bo'lgan qiziqishi, asosan, saylov kompaniyalari davrida vaziyatli xususiyat kasb etadi. O'zbekiston jamiyatini o'zgartirishning hozirgi bosqichida siyosiy institutlar faoliyatida yoshlarga nisbatan aniqlik tendensiyasi kuzatiladi. Siyosiy institutlar faoliyatini

jonlantirish sharoitida yoshlar siyosiy partiyalar faoliyatiga ishonchsiz qaraydilar hamda siyosiy partiyalar tomonidan yoshlarning o'ziga nisbatan instrumental yondashuvni qo'llaydilar. Shu sababli, ushbu sharoitda siyosiy partiyalarning yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirishga real ta'sirini samarali deb hisoblash mumkin emas. G'arb olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, aksariyat yoshlar tashkilotlarining davlat idoralari va siyosiy partiyalardan mustaqilligi tendensiyasining paydo bo'lganligini ko'rsatadi [8].

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarning tub siyosiy manfaatlarini aks ettiruvchi yagona avlod mafkurasini shakllantirishning institutsional shartlari hali shakllanmagan. Mutloq shakllangan milliy mafkuraning yo'qligi sababli, yoshlar tomonidan birdamlikka taqlid mavjud, e'lon qilingan siyosiy loyihalar yoshlar tomonidan o'zlarining guruh manfaatlarini prizmasi orqali amalga oshirilmaydi. Shunday qilib, yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini shakllantirishni institutsionalizatsiya qilish jarayoni o'zini o'zi boshqarish mexanizmlari bilan to'qnash keladi. Siyosiy yo'nalishdagi yoshlar tashkilotlari o'zlarining guruh siyosiy manfaatlarini, siyosiy dasturlarini amalga oshirishga va jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni qayta tiklashga qaratilgan yoshlarni birlashtirishning o'ziga xos usullarini aks ettiradi. Yoshlar tashkilotlari faoliyatida qatnashish siyosiy ongda mafkuraviy g'oyalar, yo'nalishlar va manfaatlar shaklida o'rnatiladigan identifikatsiyaning g'oyaviy tomonini shakllantirishni nazarda tutadi. Siyosiy tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini o'zini o'zi boshqarish shakllaridan biridir.

Jamiyatni transformatsiyalashishining hozirgi bosqichida yoshlarning siyosiy tashkilotlarda ishtirok etishga qiziqishi mavjud. Ushbu tashkilotlar faoliyatiga davlatning qiziqishi sezilarli darajada oshdi. So'ngi yillarda olib borilgan tadqiqot ma'lumotlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, amaldar hukumatni va u olib borayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlovchi, milliy-vatanparvarlik harakatlari yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatini o'zini o'zi boshqarish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Yoshlar harakati ishtirokchilarining motivatsion tarkibida biz uchta asosiy motivlarni ajratamiz: o'z-o'zidan paydo bo'ladigan (ekspressiv), instrumental va g'oyaviy motivlar. Milliy-vatanparvarlik, millatchi va liberal harakatlar ishtirokchilari asosan mafkuraviy motivlarga asoslangan. Vaziyatli, o'z-o'zidan paydo bo'lgan turtki turi ko'proq hozirgi islohotlar tarafdorlari faoliyatini tavsiflaydi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, yangi O'zbekiston jamiyatining barqaror rivojlanishiga o'tish sharoitida yoshlarning siyosiy ongi va madaniyatining mafkuraviy yo'nalishidagi aniqlik darajasini oshirish tendensiyasi kuzatildi. Shu bilan birga, o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarining o'z-o'zidan paydo bo'lishi yoshlar siyosiy ongi va madaniyatining transformatsiyalashishida yetakchi rol o'ynamoqda. Tahlillar natijasida shuni aytish mumkinki, ratsionalizatsiya mexanizmlari, ratsionallik turlarini aniqlash, jamiyat taraqqiyotida noaniqlikdan barqarorlikka o'tishda yoshlarning siyosiy haqiqati haqidagi bilimlarni sotsial-madaniy sharoitlarga moslashtirish masalalari yanada chuqur rivojlanishga muhtoj.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: «O'zbekiston» HMIU. 2020. – 456-6.
2. Зубок Ю.А. Социальная интеграция молодежи в условиях нестабильного общества. М. : Социум, 1998. -142 с.
3. Ковалева А.И., Луков В.А. Социология молодежи: теоретические вопросы. М. : Социум, 1999. - 351 с.
4. Erikson R.S., Wright G.C., McIver J.P. Statehouse democracy: Public opinion and policy in the American States. New York: Cabridge University Press, 1993. - 106 p.
5. Павлова Е.Д. Проблема информационного воздействия на сознание в постиндустриальном обществе // Личность, культура, общество. М., 2007. -Т. IX, вып. 1 (34). - С. 226 - 241.
6. Парсонс Т.О структуре социального действия. — М. : Академический. Проект, 2000. 880 с.

7. Щербо И.А. Процесс социализации: опыт теоретико-методологического исследования : автореф. . канд. соц. наук : 22.00.04 / И.А. Щербо. СПб, 2006.- 17 с.
8. Игнатов В.Г., Нифанов А.Н., Беспаленко П.Н. Региональная молодежная политика: проблемы и опыт становления. Ростов-н/Д, 1999. - С. 94.



UDK: 371.031:681.142.37

*Ro‘ziboy TO‘RAYEV,*  
*Termiz davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi*  
*E-mail: turayev.ruziboy@bk.ru*

*F.m.f.n., dots E.Xoliyarov taqrizi asosida*

## FACTORS OF FORMATION OF WEB PROGRAMMING COMPETENCIES

Annotation

The article discusses the concept of competence, competent approach, didactic factors, the main purpose of teaching web programming in school, students' understanding of web technologies, information processing using web technology, the relevance of the problem of teaching secondary school students based on Web programming.

**Key words:** Competence, competent approach, Web programming, teaching problems.

## ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ ВЕБ-ПРОГРАММИРОВАНИЯ

Аннотация

В статье рассматриваются понятие компетентности, компетентностный подход, дидактические факторы, основная цель обучения веб-программированию в школе, понимание учащимися веб-технологий, обработка информации с помощью веб-технологий, актуальность проблемы обучения учащихся общеобразовательных школ на основе веб-программированию.

**Ключевые слова:** Компетентность, компетентностный подход, веб-программирование, задачи обучения.

## WEB DASTURLASHGA OID KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada kompetentlik tushunchasi, kompetentli yondashuv, didaktik omillar, maktabda web dasturlashni o‘qitishdan asosiy maqsad, o‘quvchilarga web texnologiyalari haqida tushunchalari, web texnologiyasi yordamida axborotlarni qayta ishlash, Web – dasturlash asosida umumta’lim maktab o‘quvchilarini o‘qitish muammosining dolzarbligi xususida fikr bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Kompetensiya, kompetentli yondashuv, Web – dasturlash, o‘qitish mummolari.

**Kirish.** Mamlakatimizda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida uzluksiz ta’lim tizimida ham bir qator ijobiy o‘zgarishlar, xususan ushbu tizimda raqamli texnologiyalar hamda kommunikatsion vositalardan keng va samarali foydalanish bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “informatika, matematika, fizika, ximiya, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan predmetlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish” ustuvor vazifa etib belgilangan.


Prezident Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan “Bir million o‘zbek dasturchilari” loyihasi hamda Respublikamizda web dasturchilarni tayyorlash davr talablari darajasida tashkil etilib, bu borada salmoqli ishlar olib borilayotganli, chuqur bilimli hamda malakali web dasturchilarga bo‘lgan ehtiyoj va soha bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashga imkon beruvchi jaxon andozalariga mos keluvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan; mazkur jarayonni metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish; web dasturlash tillarini o‘rgatuvchi o‘quv

fanlaridan kasbiy bilim va malakalarni shakllantiruvchi, o‘quvchining qobiliyati, intellektual xususiyati, bilim darajasini hisobga olib ta’lim beradigan elektron muhit yaratish kabi masalalarni shular qatoriga qo‘shish mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Umumta’lim maktablarida informatika ta’limi buyicha metodik tizimni rivojlantirishning pedagogik jihatlari, zamonaviy shakl va vositalari, o‘qitish sifatini takomillashtirishda didaktik vositalarni ishlab chiqish va ulardan foydalanishning tashkiliy-uslubiy jihatlari A.A.Abdukodirov, F.M.Zakirova, U.Yu.Yuldashev, M.E.Mamarajabov, U.Sh.Begimqulov, A.V.Mogilyov, N.I.Ryjkova, G.I.Gaysina, M.A.Sokolskaya ilmiy ishlarida alohida e’tibor qaratilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi, tahlil va natijalar.** N.A.Muslimovning ilmiy qarashlarida, «Kompetentlik»– faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishdir deb ta’kidlagan.

Kompetentli yondashuv pedagogik nazariya va ta’lim amaliyoti uchun prinsipial jihatidan qanday yangilik beradi?



1-rasm. Kompetentli yondashuv pedagogik nazariya va ta'lim amaliyoti uchun prinsipial yangiligi.

Pedagogik nazariya va ta'lim amaliyoti uchun prinsipial yangiligi yuqoridagi chizmada batafsil ma'lumot berilgan [1].

Tayanch kompetensiya ostida ta'limning yangi qiyofasi – ta'lim oluvchining har tomonlanma bilimi, malakalari, ko'nikmasi, shuningdek shaxsiy javobgarligi va mustaqil faoliyat tajribasining yaxlit tizimi tushuniladi. Umuman, kompetensiyalik bilim, malaka, ko'nikmalarni o'zlashtirganlik yig'indisini taqdim etishdir. Shu boisdan, ular belgilangan muammolar doirasini hal qilish uchun samarali foydalanishga mo'ljallanadi [5].

Maktabda web dasturlashni o'qitishdan asosiy maqsad, o'quvchilarga web texnologiya tushunchasi, web texnologiya yordamida axborotlarni qayta ishlash, web dasturlashga oil nazariy, amaliy bilimlarni egallash. Amaliy bilim, ko'nikmalar asosida shakllangan malaka va kompetensiyalarni hayotning turli jabhalarida qo'llashga o'rgatishdir.

Web dasturlashni o'zlashtirish natijasida o'quvchilar quyidagi malakaga ega bo'ladi: kompyuterlarning arifmetik va mantiqiy asoslariga oid masalalar yechish bosqichlari orqali amaliy masalalarni hal etadi; kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan algoritmik fikrlashi rivojlanadi; muayyan ijrochi uchun algoritm tuzish va yozib olish ko'nikmalariga ega bo'ladi; dasturlash tillaridan birini o'zlashtiradi va amaliyotda qo'llaydi; sodda veb-sahifalar yaratadi; ma'lumotni shakllantirish va tizimlashtirish, jadvallar, grafiklar, diagrammalar, ma'lumotlarni qayta ishlashning tegishli dasturlaridan foydalanadi; ma'lumotlarni taqdim etish usulini tanlash va qayta ishlash qobiliyati shakllanadi; turli mavzularda multimedia imkoniyatlari qo'llab, taqdimotlarni mustaqil ravishda tayyorlaydi.

Agar Web-texnologiyani ta'limiy texnologiya deb qarasa, uning quyidagi asosiy didaktik omillarini keltirish mumkin: interfaollik va kreativlik; ijtimoiylik va ochiqlik; ko'p funksiyalilik va sinxronlilik [2].

Web – texnologiyalar asosida umumta'lim maktab o'quvchilarini o'qitish muammosining dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilash mumkin [4,6]:

1. O'quvchilarning individual ta'limiy imkoniyatlari va ehtiyojlarini maksimal darajada inobatga olish;
2. O'quv mashg'ulotlarining mazmun, shakl, sur'at va darajalarini tanlash imkoniyatlari mavjudligi;
3. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish;
4. Web texnologiyalar imkoniyatlaridan o'quv predmeti bo'limlari va alohida mavzulariga oid interfaol jadval, plakat kabi raqamli elektron ta'lim resurslarini yaratishda;
5. Kompyuter testlarini yaratishda;

6. Interfaol uy vazifalari hamda mustaqil ishlash trenajyorlarni yaratishda foydalanish mumkin;

7. Har bir o'quvchini individual dastur asosida tuzilgan individual reja bo'yicha o'qitishda;

8. Frontal va kichik guruhlar bilan ishlashda Web texnologiyalardan foydalanish. Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda web dasturchilar quyidagi bilim, ko'nikma vam web kompetensiyalarga ega bo'lmog'i lozim:

HTML hujjat tuzilishi; HTML gipermatnli belgilash tilining asosiy teglarining maqsadi; CSS uslublar kaskadli jadvallaridan foydalanish usullari va xususiyatlari; XML hujjatlarini yaratish va formatlash tamoyillari; mijoz va server tomonida veb-dasturlashdagi farqlar; JavaScript xususiyatlari, maqsadi va foydalanish qoidalari standart obyektlar; jQuery kutubxonasidan foydalanish xususiyatlari; PHP tilining asosiy tuzilmalari; PHP orqali ma'lumotlar bazalari bilan ishlash tamoyillari; Veb-saytlarni bog'laydigan maxsus dasturlar va dasturlash tillari va belgilari turli xil veb-sahifalarga, boshqa veb-saytlarga, grafik elementlarga, matn va fotosuratlariga bitta faylda funksional va qulay axborot mahsuloti. Kompyuter dasturlari, blankalar va ochiq raqamli kutubxonalar texnik baza sifatida ishlatiladi. Uning ishida veb-saytni ishlab chiquvchilardan mualliflik huquqi va axloqiy muammolarga e'tibor qaratishlari talab etiladi [3].

Milliy dastur talablaridan kelib chiqsak Web dasturlashni o'zlashtirish natijasida o'quvchilar quyidagi malaka va kompetensiyaga ega bo'ladi: kompyuterlarning arifmetik va mantiqiy asoslariga oid masalalar yechish bosqichlari orqali amaliy masalalarni hal etadi; kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan algoritmik fikrlashi rivojlanadi; muayyan ijrochi uchun algoritm tuzish va yozib olish ko'nikmalariga ega bo'ladi; dasturlash tillaridan birini o'zlashtiradi va amaliyotda qo'llaydi; sodda veb-sahifalar yaratadi; ma'lumotni shakllantirish va tizimlashtirish, jadvallar, grafiklar, diagrammalar, ma'lumotlarni qayta ishlashning tegishli dasturlaridan foydalanadi; ma'lumotlarni taqdim etish usulini tanlash va qayta ishlash qobiliyati shakllanadi; turli mavzularda multimedia imkoniyatlari qo'llab, taqdimotlarni mustaqil ravishda tayyorlaydi;

Umumiy o'rta ta'lim maktab bitiruvchi o'quvchilarini o'qitishda Web dasturlash rolini hisobga olgan holda Web dasturlash sohasidagi o'qitishning maqsadli va mazmunli xususiyatlarini tahlil qilish asosida o'qitish metodikasi tarkibiy qismlarini ko'rib chiqamiz.

Shunga ko'ra, Web dasturlash asoslarini o'qitish jarayonida barcha vazifalar o'rganilayotgan mavzuning mazmunini to'liq ochib beradigan va o'quvchilarning individual qobiliyatlariga mos keladigan turli xil vazifalarni o'z ichiga olishi kerak.

O'quv materialini o'zlashtirish uchun topshiriqlar umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining bilim, ko'nikma va qobiliyatlari tizimini shakllantirishga imkon beradigan Web dasturlash asoslarini o'qitish jarayonida eng muhim vazifalardan biridir. Ushbu topshiriqlarni bajarayotganda o'quvchilar:

- Ma'lumotlarni tuzish va oddiy Web dasturlarni amalga oshirish ko'nikmalarini, masalani bir qator tipik muammolarga yechish algoritmini qo'llash ko'nikmalarini egallash;

- Muammoni hal qilish uchun eng samarali usulni tanlash usullarini o'zlashtira oladi;

- Dasturni amalga oshirishning turli usullari bilan tanishish [7].

Ushbu vazifalar Web ilovalar yozish, uni sozlash, ilova matnini hujjatlashtirish va uning bajarilish natijalarini

tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Topshiriqlar o'quvchidan mashqdan ko'ra ko'proq intellektual kuch va vaqtni talab qiladi. Amaliy ishlarida, mustaqil ishni tashkil qilishda va nazorat ishlarini bajarishda vazifalarni qo'llash tavsiya etiladi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, XXI asr fan texnika asrida o'qib kelayotgan yosh avlodni voyaga yetkazishda oilada, maktabda chuqur bilim berish va odob-axloq qoidalari ham birga olib borish bugungi kunda zamon talabi hisoblanadi. Buning uchun mamlakatimizda shart-sharoitlar yaratilgan bo'lib, faqatgina buni amalga oshirish yoshlarimizning dunyoqarashini qanchalik shakllanganligi bilan bog'liq. O'rgatuvchi elektron muhitni ta'limda qo'llash yoshlar dunyoqarashini o'zgartirish va web dasturlashni o'rganishda katta ahamiyatga ega.

#### ADABIYOTLAR

1. Горылев А.И., Попомарева Е.А., Русаков А.В. Методология ТУНИНГ: компетентный подход при определении содержания образовательных программ. Электронное методическое пособие. Нижний Новгород 2011.
2. Xayrullaeva N. Web texnologiyalar asosida zamonaviy informatika o'qituvchisini tayyorlash tizimini takomillashtirish. Toshkent 2018.
3. Mamarajabov M., To'raev R. O'rgatuvchi elektron muhitni yaratishga qo'yiladigan metodik talablar. in volume 1, issue 10 of Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2021.
4. Turaev R.N. The importance of the formation of web programming competencies in schoolchildren.// European Journal of Research and Reflection in Education Sciences – Great Britain, 2022. – vol. 10 № 1. – P.11-19.
5. Abduqodirov A.A., To'raev B.Z., «Informatika va axborot texnologiyalari» sohasidagi bo'lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy kompetentligini shakllantirish nazariyasi va metodikasi// Monografiya. «Navro'z». – Toshkent, 2015. – B.176
6. Mamarajabov M.E., To'raev R.N. O'quvchilarning web dasturlash bo'yicha kompetentligini oshirish va mavjud muammolar. Nukus.2020 93-97-b.
7. Mamarajabov M.E., Turayev R.N. Methodological requirements for the creation of an electronic teaching environment (e-teaching). In volume 2, issue 10 of Oriental Renaissance: Innovative, educational natural and social sciences in November 2021
8. Turaev R.N. The importance of the formation of web programming competencies in schoolchildren.// European Journal of Research and Reflection in Education Sciences – Great Britain, 2022. – vol. 10 № 1. – P.11-19.



UDK: 37.026

*Gulnoz TURAYEVA,*  
*Termiz davlat universiteti o'qituvchisi*  
*E-mail: rustamkhurramov@mail.ru*

*PhD D. Shabbozova taqrizi asosida*

## FACTORS OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF HEALTHY SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION IN PERSON

Annotation

Effective organization of healthy spiritual and moral education, raising the level of spiritual and psychological knowledge ensures the formation of a healthy worldview in the individual, the emergence of healthy thinking. This article details the information about the meaning, purpose, objectives and main directions of healthy spiritual and moral education.

**Key words:** Upbringing, spirituality, virtue, evil, sophistication, truth, honesty, truthfulness.

## ФАКТОРЫ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ЗДОРОВОГО ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ ЛИЧНОСТИ

Аннотация

Эффективная организация здорового духовно-нравственного воспитания, повышение уровня духовно-психологических знаний обеспечивает формирование у личности здорового мировоззрения, появление здорового мышления. В данной статье подробно изложены сведения о значении, цели, задачах и основных направлениях здорового духовно-нравственного воспитания.

**Ключевые слова:** Воспитание, духовность, добродетель, зло, изощренность, правда, честность, правдивость

## SHAXSDA SOG'LOM MA'NAVY-AXLOQIY TARBİYANI SAMARALI TASHKIL ETISH OMILLARI

Аннотация

Sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyani samarali tashkil etish, ma'naviy-psixologik bilim saviyasini oshirish, shaxsda sog'lom dunyoqarashni shakllashtirishni, sog'lom tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Ushbu maqolada sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mohiyati, maqsadi va vazifalari hamda asosiy yo'nalishlari haqida ma'lumotlar batafsil bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Tarbiya, ma'naviyat, yaxshilik, ezgulik, yomonlik, nafasat, haqiqat, halollik.

**Kirish.** Ma'naviyat – insonning insoniylik mohiyati, shaxsdagi ijobiy fazilatlar majmui, insonning zohiriy va botiniy qiyofasi. U inson hayotining tub mohiyatini belgilaydigan aqliy, ruhiy, axloqiy va jismoniy qarashlar, ko'nikma va malakalar, odatlar tizimi. Ma'naviyat – har bir insonning milliy va umuminsoniy komillik darajasi, unga yetaklovchi, undovchi imkoniyat. U inson shaxsini insoniylik bilan boyituvchi, kamol toptiruvchi, ko'rkamlashtiruvchi beqiyos hayotiy omil. Ma'naviyat – yaxshilik va ezgulikka moyillik, yomonlik va yovuzlikdan tiyilish, nafasat va haqiqatga, halollik va rostgo'ylikka intilish, o'zi mansub jamiyatning axloqiy, huquqiy, ma'rifiy-madaniy mezonlariga amal qilish hissidir. U insonning umrguzaronlik mohiyati, faoliyatining tabiatini belgilab bergan va faoliyatida gavdalangan ijobiy, go'zal fazilatlar majmui. Ma'naviyatda inson qalbi, shuuri, aql-zakovati, tabiati, bilimli, madaniyati aks etadi[1].

Sog'lom ma'naviy –axloqiy tarbiya va inson tushunchalari bir butun holdagina muayyan mazmunga ega bo'ladi. Ma'naviyat, axloq yo'q joyda ma'lum maqsadga qaratilgan insoniy faoliyat ham bo'lmaydi, insonlar jamoasining birligi – jamiyat ham bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "Ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur", deb ta'kidlagan fikri zamirida ana shunday falsafiy mazmun yashiringan. Ma'naviyatning ahamiyatini ana shu nuqtai nazardan baholamoq kerak[2].

Ma'naviyat – xalqning, millatning, davlatning kuch-qudrati, buyuk kelajak sari yuksaltiruvchi mustahkam poydevori. Har qanday ishning, ijtimoiy taraqqiyotning me'mori ham, bunyodkori ham, bosh harakatlantiruvchi kuchi

ham inson. Uning aql-zakovati va samarador mehnatsiz hech nima yaratilmaydi, vujudga kelmaydi. Sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy ishlarning asosiy vazifasi yuksak axloqiy fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan komil insonni tarbiyalashdan iborat. Bugungi kunda bilimdon, etuk malakali, yuksak aql-zakovat va istiqbol dunyoqarashga ega tadbirkor kishilargina jamiyatimizning jahon sivilizatsiyasi sari taraqqiyotini tezlashtira oladi, O'zbekistonning dunyodagi rivojlangan mamlakatlar safidan munosib o'rin egallashini ta'minlay oladi.

**Tahlil va natijalar.** O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning va yangi jamiyatni qurishimizning eng asosi bo'lgan sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyani yuksaltirish hamda uni izchilik bilan hozirgi zamon talablari, milliy ruhiyatimizning ildizlariga suyangan holda yanada rivojlantirish bugungi kunning dolzarb va g'oyat muhim vazifasi. Sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiya davlat ichki hayotidagi bir butunlikni, talaba-yoshlar ruhiyatidagi ko'tarinkilik va kelajakka ishonchni, aql-zakovat yuksakligini, o'z faoliyatida tinchlikni, millatlararo hamjihatlikni barqaror rivojlantirish yo'lini aniq belgilashdagi o'z fuqarolarining orzu-umidlarini, manfaatlarini ifoda eta bilish, uni buyuk kelajak sari harakatga yo'naltirish va unga rahbarlik qilish salohiyati hisoblanadi[2].

Sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyani samarali tashkil etish, ma'naviy-psixologik bilim saviyasini oshirish, shaxsda sog'lom dunyoqarashni shakllashtirishni, sog'lom tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yangi jamiyatni qurishdagi qudratli kuch va bebaho manba ekanligi quyidagi masalalarda o'z ifodasini topadi:

1. Sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiya jamiyat oldida turgan muammolar mohiyatini o'zida ifoda ettiradi hamda uni hal qilish uchun fuqarolarning davlat manfaatlarini birlashtiradi. Sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiya, zamonaviy rivojlangan mamlakatlarda xalqning vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg'ulari kuchli bo'ladi[3]. Bunday holat o'z navbatida davlat va xalqning birligini mustahkamlashda turli xil millatlar va ijtimoiy qatlamlarning bir-birlari bilan umummanfaatlar yo'lida jiplashishlarida qudratli omil sifatida xizmat qiladi.

2. Sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiya milliy ong va milliy tuyg'u, milliy g'oyalarni shakllantiruvchi omil. Bular o'z navbatida har bir millatning o'z-o'zini anglashiga, manfaatlar yagonaligini tushunishga, talaba-yoshlarda milliy g'urur, qadr-qimmatning mustahkam dunyoqarashga aylanishiga yordam beradi.

3. Sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiya bor joyda ehtiyojlar va zaruriyatlar ham yuzaga keladi. O'z navbatida ehtiyojlar va zaruriyatlar shaxs, millat va davlatni kechagidan bugun, bugundan ertaga yana ham yaxshiroq hayot kechirishga, barkamol bo'lishga yetaklaydi, shaxs, millat va davlatning taraqqiyot sari harakat qilishiga da'vat etadi. Bu jarayonda sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiya shaxs, millat va davlat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi bosh omil hisoblanadi[3].

4. Sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiya – aql-zakovat, solohiyat yuksakligining muhim mezonini va manbai hisoblanadi. Bu orqali inson millat mahsulini millat va mamlakatning yuksak moddiy va ma'naviy boyliklari darajasiga ko'taradi.

5. Sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiya davlat ichki hayotida tinchlik, barqarorlikni vujudga keltiradi, har qanday munozarali masalalarni aql va vazminlik bilan hal qilishda xalq ruhiyatini shakllantiradi.

6. Sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiya kishilarni subyektiv, qarindosh-urug'chilik, mahalliylik manfaatlarini ehtiyojlariga berilishdan saqlaydi, shaxsiy va mahalliy manfaatlarini millat hamda[4] Vatan manfaatlariga uyg'unlashtirish muhitini vujudga keltiradi, millatning umumbashariy qadriyatlar sari intilishini kuchaytiradi.

7. Sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiya mamlakatda adolatni qaror toptirish, insonlarni qonunlarning ijodkori va itoatkori darajasiga ko'taradi. Qonunlar davlat, millat va shaxsning har qanday harakatining aniq me'yori darajasiga aylangan mamlakatda demokratik ruhdagi qadriyatlar shakllanishi mumkin bo'ladi [99].

8. Sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiya davlatning ichki hayotidagi muammolarni hal qilishning muhim omili bo'lishi bilan birga, u davlatning xalqaro hayotidagi obro'-e'tiborini oshiradi, uning katta imkoniyatlarga ega ekanligini va barqaror taraqqiy etayotganligini tasdiqlaydi. Bu o'z navbatida davlatning xalqaro hayotda harakat qilish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

9. Sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiya – shaxsning ruhiy hayot tajribasi, ruhiy olamini, dunyoqarashi, aqliy salohiyatini o'zida mujassamlashtiradi. U shaxs va millatning o'zligini anglashi, milliy g'urur, milliy iftixor, vatanparvarlik, davlatga hurmat, jamoa a'zolariga xayrixohlik, diyonat, mehr-shafqat, poklik, halollik, vijdoniylik, rostgo'ylik, adolatparvarlik, kamtarinlik kabilarni o'z ichiga oladi. Sog'lom ma'naviyat yo'li – bosqichma-bosqich o'tiladigan yo'l bo'lib, u inson aqlini taniganidan boshlab, tafakkur, axloq va ma'rifatda kamolotga intiladi. Jamiyat ma'naviyati, uning rivoji uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyotning natijasi hisoblanadi. Jamiyat asta-sekin rivojlanib borgan sayin inson ma'naviyati ham tarkibiy jihatdan mukammallashib borgan[5].

Ma'naviyatning tarkibiy tizimlari quyidagilar:

Axloqiy qarashlar va axloqiy ta'lim; diniy qarashlar va diniy ta'lim; badiiy qarashlar va badiiy ta'lim; falsafiy

qarashlar va falsafiy ta'lim; siyosiy qarashlar va siyosiy ta'lim; huquqiy qarashlar va huquqiy ta'lim; ilmiy qarashlar va fan; tabiiy, ijtimoiy-gumanitar fanlar.

Yuqoridagilarning har biri tadqiq predmetiga ega. Ular ma'lum ijtimoiy vazifani bajarishga da'vat etilgan bo'lib, jamiyat taraqqiyoti va komil ma'naviyatli talaba-yoshlarni tarbiyalashda muhim mavqega ega.

Oila – ma'naviyatning ilk va daxlsiz beshigi. Insonning ma'naviy komillik maqomlariga ko'tarilishida oilaviy muhit bilan birga jamoatchilik, ta'lim tizimi, milliy mafkura va davlat faoliyati muhim o'rin egallaydi. Ularning real harakatlari quyidagi yo'nalish va shakllarda namoyon bo'ladi:

1.Oila – jamiyatning negizi va davlat taraqqiyotining ilk manbai.

Oila – shaxs, jamoa, ijtimoiy guruh dunyoqarashlari shakllanish va ijtimoiy munosabatlar vujudga kelishning bosh asosi hisoblanadi.

Oilaning yuksak madaniyatli shaxsni shakllantirish va davlat tizimidagi tutgan muhim o'rnidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni hal etishi lozim:

a) Oilani shakllantirishda jamoatchilik boshqaruv institutlari rahbarlik faoliyatini kuchaytirish;

b) O'zbek xalqining ko'p bolalikka moyilligi va axolining asosiy qismi qishloq joylarda istiqomat qilayotganligi, o'ziga kerak urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarining milliy taraqqiyotda muhim o'rin va mavqega egaligidan oilani ijtimoiy himoya qilishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida davom ettirishni ta'minlash;

v) Axolining o'zi yetishtiradigan mahsulotni qayta ishlab chiqarishni keng joriy qilish, yoshlarning ish bilan ta'minlangan qismidan mamlakatimizning yirik qurilishlarida, qishloq xo'jaligida foydalanish va ularning xorijiy mamlakatlarga shartnoma asosida yuborishni ta'minlashni jamoat tashkilotlari davlat institutlari faoliyatining yetakchi vazifasi qilib belgilandi;

g) Xotin-qizlarning farzand tarbiyasi va oilani mustahkamlashdagi alohida o'rnini hisobga olib, ularning homiladorlik va bolani tarbiyalash davridagi belgilanadigan ta'tillar muhlatini kengaytirish, ko'p farzandli ayollarga tegishli imkoniyatlar beruvchi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish, soliqlarni imkoniyat darajasida qisqartirib borish;

d) Davlat tomonidan qabul qilingan sog'lom avlod dasturini hayotga tatbiq etishda oilaning mas'uliyatini oshirish. O'z sohasi bo'yicha ishlash qobiliyatini saqlab qolgan mutaxassislardan foydalanishning me'yoriy hujjatlarini shakllantirish;

2. Oila, maktabgacha bo'lgan tarbiya, umumiy ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim, malaka oshirish tarmoqlari ta'lim tizimining asosi bo'lib, davlat taraqqiyotining har bir bosqichidagi taqdirini belgilab beradi. Bu borada quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

a) Ta'limning barcha sohalarini birlashtiruvchi, milliy xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi, jahon mamlakatlarining ilg'or tajribalarini umumlashtiruvchi davlat milliy konsepsiyasini ishlab chiqish va amlaga oshirish;

b) Shu maqsadga tegishli me'yoriy hujjatlarni yaratish, unda belgilangan vazifalarni tashkil qilish, boshqarish va rahbarlik qilishni takomillashtirish;

v) Ta'lim tizimida ishlayotgan o'qituvchilarning malakalarini zamon talabi darajasiga ko'tarish, ularni o'z kasbining nufuzini ko'tarish "Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning moddiy va ma'naviy manfaatdorligini bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib oshira borish;

g) Oliy ta'lim tizimining mamlakat aql-zakovatini shakllantiruvchi asosiy tayanch ekanligidan, yuqori malakali kadrlar tayyorlashni mamlakat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tashkil qilish[7];

d) Viloyatlardagi oliy ta'lim muassasalarining o'z hududida mutaxassis kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini umumdavlat manfaatlarini miqyosida qayta ko'rib chiqish, ularni yuqori malakali professor-o'qituvchi mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash, moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlash;

j) Umumiy ta'lim va oliy ta'lim tizimida xorijiy mamlakatlar tajribalaridan foydalanish, O'zbekistonning mustaqil tizimini yaratish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rib chiqish;

z) Sog'lom kadrlar tayyorlash sifatini yuksak darajaga ko'tarishning muhim omili sifatida davlatga qarashli oliy ta'lim faoliyatini takomillashtirish, bozor munosabatlari va soha raqobatini vujudga keltirish maqsadida ayrim oliy ta'lim muassasalarini boshqarish masalalarini ko'rib chiqish;

i) Ijtimoiy-gumanitar fanlarning sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirishning asosi ekanligini e'tiborga olib, o'qitishning sifati va samaradorligini oshirish maqsadida ularni quyidagicha izchillik bilan tashkil qilish va o'qitishni nazoratda tutish.

Ommaviy axborot vositalarining sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiyani talaba-yoshlarga targ'ib-tashviq qilish, jamiyat va hayot muammolarini o'rtaga tashlashdagi tezkorlik va omaviylik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda: talaba-

yoshlarning saviyasini ko'tarish, chinakam ma'noda to'rtinchi hokimiyat darajasiga yetkazish; [6] Markaziy Osiyo mamlakatlarining o'zaro yaqinlashuvi bilan bog'liq bo'lgan haqiqatlarni chuqur bilish va targ'ib qilish maqsadida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining mas'ulligida "Sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiya" nomli oylik jurnal chiqarishni yo'lga qo'yish.

Ta'lim, fan, sog'liqni saqlash, texnika-texnologiya, davlatni idora qilish, unga rahbarlik qilish va boshqa tizimlarda chuqur bilim va boy tajribalarga ega bo'lgan kishilardan iborat ziyolilar guruhini tashkil qilish, ularning faoliyatini, yangi g'oyalarni ravnagiga safarbar etish, millat va davlat taqdiri uchun aholining umumiy mas'uliyatini oshirishga qaratish.

**Xulosa.** Talaba-yoshlarning moddiy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, ularning davlat va jamoat tashkilotlari faoliyatida ishtirok etishini ta'minlash, mamlakatda mavjud muammolarni dadil ko'tarib chiqishda siyosiy partiyalar bilan yaqindan hamkorlik qilish, birgalikda foydali tadbirlar o'tkazish; - oila, oliy ta'lim, sog'liqni saqlash, sog'lom ma'naviy-axloqiy tarbiya to'garaklarini moddiy jihatdan ta'minlashda turli jamg'armalarning sog'lom ma'naviy - axloqiy tarbiya ishidagi faoliyatini kuchaytirish.

#### ADABIYOTLAR

1. Olimov Sh.Sh. . Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. Monografiya. – T., "Fan va texnologiya", 2015. -126-bet.
2. Umarov E., Abdullaev M. Ma'naviyat asoslari. –T.: "Cho'lpon", 2006.
3. Erkaev A. Ma'naviyat – millat nishoni. – T.: "Ma'naviyat", 1997.
4. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. –T.: "Universitet", 1998.
5. Turaeva G.E. (2022, February). Some aspects of educating students to become highly qualified and competitive personnel. In Conference Zone (pp. 163-165).
6. Turaeva G.E. (2021). Improving the efficiency of the educational process using computer technology. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 407-410.
7. Turaeva G.E. (2021). The effectiveness of the use of computer technology in the educational process. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(8), 90-93.



Uyg‘UN TURDIYEV,  
O‘zbekiston milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi

## GLOBALASHUV DAVRIDA KIBERXAVFSIZLIK MUAMMOSINING AYRIM MASALALARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada kiberxavfsizlik muammosini tadqiq etishning konseptual jihatlarini tahlil etilgan. Xususan, kiberxavfsizlik tushunchasining mazmuni, bu boradagi muammolar, ularning yuzaga kelish sabablari ochib berilgan. Shuningdek, maqolada O‘zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlikni ta‘minlash borasidagi islohotlar, ularning normativ-huquqiy asoslari hamda xalqaro reytinglardagi ishtiroki yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Kiberxavfsizlik, kibermakon, kibermadaniyat, g‘ibrid urushlar, tahdid, xavf, fishing, dasturiy ta‘minot, xalqaro reyting.

## НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРОБЛЕМЫ КИБЕРБЕЗОПАСНОСТИ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация

В настоящей статье анализированы концептуальные аспекты исследования проблем кибербезопасности. В частности, раскрыты содержание понятия кибербезопасности, проблемы на этой сфере и причины их возникновения. А также, в данной статье освещены реформы в Республике Узбекистан по обеспечению кибербезопасности, нормативно-правовые основы и участие в международных рейтингах.

**Ключевые слова:** Кибербезопасность, киберпространство, киберкультура, гибридные войны, угроза, опасность, фишинг, программное обеспечение, международный рейтинг.

## SOME ISSUES OF THE CYBER SECURITY PROBLEM IN THE GLOBALIZATION ERA

Annotation

This article analyzes the conceptual aspects of the study of cybersecurity problems. In particular, the content of the concept of cybersecurity, problems in this area and the reasons for their occurrence are disclosed. And also, this article highlights the reforms in the Republic of Uzbekistan to ensure cybersecurity, regulatory frameworks and participation in international rankings.

**Key words:** Cybersecurity, cyberspace, cyberculture, hybrid wars, threat, danger, phishing, software, international rating.

**Kirish.** Bugungi kunda dunyoda axborot xavfsizligi hamda kiberxavfsizlikni ta‘minlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, axborot xavfsizligi sohasida ishlab chiqilayotgan va takomillashtirilayotgan qonunlar va qonunosti hujjatlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda ushbu jarayonda shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligi hamda kiberxavfsizlikni ta‘minlash masalalari mamlakatning ustuvor strategik va umummilliy vazifasi hisoblanib, davlat va jamiyat tomonidan o‘zaro mushtarak, birgalikda sa‘y-harakatlarni amalga oshirilishini talab etadi.

Kiberxujumlar nafaqat axborotlarga nisbatan, balki rivojlangan davlatlarni geosiyosiy va geoiqtisodiy jihatdan birlashtirdi desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Biz bunga 2008-yilda RFning kiberxujumlari, o‘sha yilning iyul oyida Gruzianing internet-infratuzilmasini buzishi, 2012-yilda Isroil va AQSH Eronning yadroviy dasturining buzishga urinishi yoki Eronning Pentagonga hujumlarini aytishimiz mumkin[1].

Bizga ma‘lumki, 2020-yilda ichki axborot xavfsizligi bozori 25 foizga o‘sd[2]. Boshqacha aytganda, bu o‘shning uchta sababi bor. Birinchidan, axborot xavfsizligina o‘rganishga bo‘lgan ilmiy ehtiyoj, ikkinchisi, axborot xavfsizligini tobora dolzarblashib borishi asosida yangi tahdidlar va ularning sonini o‘shisi natijasida kiberjinoyatchilik faoliyatining yildan-yilga rivojlanishi. Shunga ko‘ra, bugun xalqaro munosabatlarda COVID – 19 pandemiyasining kuchayishi oqibatida kiberxavfsizlik bozorida davlatlar, kompaniyalar hamda xalqaro darajadagi TMK alohida o‘z hamkorliklari va bizneslarini alohida tavakkalchilikka asoslanib olib borishdan xavotir xissini kuchaytirdi. YA‘ni pandemiya sharoitida biznes vakillari,

davlat xizmatchilarining masofaviy ish tizimiga o‘tishi, banklardagi pullarni muzlatilishi oqibatida kiberjinoyatlarning rivojlanishi avj oldi. Dunyo bo‘ylab internetdan foydalanish mumkin bo‘lgan korporativ xizmatlarning zif tomonlariga nisbatan hujumlar soni oshish ko‘paydi. Natijada davlat va xususiy sektorlarning dasturiy ta‘minotidagi zaifliklar va kamchiliklarga nisbatan hujumlar uyushtirish 2020-yilga kelib 30 foizgacha (birinchi chorakda 9%ni tashkil qilgan) o‘shishga olib keldi. Bu kiberjinoyatchilarning davlat tashkilotchilardan tortib – kompaniyalarning tarmoqlaridagi kiber josuslikka bo‘lgan masofani egalladi. Bu esa, bugunga kelib kiber xavfsizlik bozorida xavfsiz muhitni yaratishning trend darajasiga olib kelishi bilan birga ilm-fan oldida ham yangi muammolar, konsepsiyalarni yaratish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Kiberxavfsizlik tushunchasining konseptual mazmuni:

Zamonaviy siyosiy-harbiy fanlarda “kiberxavfsizlik”, “kibermakon”, “kibermadaniyat”[3], “Proxy war”, “g‘ibrid urushlar” kabi kategoriyalar kirib keldi. Bu kategoriyalarni tushunishga bo‘lgan talabning ortishi davlat va jamiyatning nazariy va amaliy ehtiyojlari bilan bog‘liq. Chunki yangi bir sharoitda kiberxavfsizlik muammosi bo‘yicha qaror qabul qiliga bo‘lgan zaruriy ehtiyoj mazkur masalalarni chuqurroq o‘rganishni taqozo etadi.

«Kiberjinoyatchilik» tushunchasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda, virtual tarmoqda dahshat solish, virus va boshqa zararli dasturlar, qonunga zid axborotlar tayyorlash va tarqatish, elektron xatlarni ommaviy tarqatish (spam), xakerlik hujumi, veb-saytlarga noqonuniy kirish, firibgarlik, ma‘lumotlar butunligi va mualliflik huquqini buzish, kredit kartochkalari raqami hamda bank rekvizitlarini o‘g‘irlash (fishing va farming) va boshqa turli huquqbuzarliklar bilan izohlanadi[4].

“Kiberxavfsizlik” kategoriya sifatida – manbalarda turlicha talqin etiladi. Jumladan, kiberxavfsizlik - bu axborot tizimlari, tarmoqlari, va dasturlarini raqamli hujumlardan himoyalashga qaratilgan faoliyatdir. Odatda bunday hujumlardan maqsad maxfiy ma'lumotlarni qo'lga kiritish, ularni o'zgartirish yoki yo'qotish, foydalanuvchilardan pul talab qilish yoki biznes jarayonlarini izdan chiqarishdan iborat[5]. Boshqacha aytganda kiberxavfsizlik bu – tasodifiy va atayin qilingan axboriy hujumlardan himoyalash demakdir. U ko'p qirrali faoliyat sohasi bo'lib, unga faqat tizimli va kompleks yondashuv muvaffaqiyat keltirishi mumkin.

Shu o'rinda kiberterrorizm va uning jamiyat hayotiga solayotgan xavfining ko'lami ham oshib borayotganini ta'kidlash joiz. Kiberterroristik harakat (kiberhujum) - kompyuterlar va axborot kommunikatsiya vositalari yordamida amalga oshirilgan, odamlarning hayoti va sog'lig'iga bevosita xavf tug'diradigan yoki potensial xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan, moddiy obyektlarga katta zarar yetkazishi yoki shunga olib kelishi mumkin bo'lgan, ijtimoiy xavfli oqibatlarini boshlanishi yoki maqsadi bo'lgan siyosiy sababdir. Zamonaviy terrorchilar uchun kibermakondan foydalanishning jozibadorligi kiberhujumni amalga oshirish katta moliyaviy xarajatlarni talab qilmasligi bilan bog'liq.[6]

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, bugun kiberxavfsizlikning tahdid turlari sifatida quyidagilarni kiritish mumkin:

Fishing-bu axborot qabul qiluvchilarning xabarlariga o'xshagan yolg'on elektron pochta xabarlarini yuborish tushiniladi. Ushbu jinoyatning maqsadi kredit karta raqamlari va hisobga olish ma'lumotlarining maxfiyligini o'rganish hisoblanadi.

Virus tovlamachilari yoki tarqatuvchilari – foydalanuvchining to'lov to'lash jarayonida kompyuter tizimlariga kirishni blokirovka qilish orqali mablag'larni o'g'irlash tushiniladi.

Zararli dasturiy ta'minot-bu kompyuterga ruxsatsiz kirish yoki zarar yetkazish uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minot hisoblanadi.

Ijtimoiy muxandislar – hujumchilar maxfiy ma'lumotlarini oshkor qilish uchun sizni aldash orqali ijtimoiy muxandislardan foydalanadi. Ular sizni pul o'tkazmangiz yoki maxfiy ma'lumotlarga kirishni ta'minlashingizni so'rashlari orqali jinoyatlarni sodir etishlari mumkin.

Veb serverlar - veb dasturlarda ma'lumotlarni ajratib olish va noto'g'ri kodlarni kiritish orqali qilinayotgan hujumlarni ko'rishimiz mumkin. Kiber jinoyatchilar o'zlari rivojlantirayotgan veb serverlar orqali noto'g'ri kodni tarqatadilar. Shuningdek, kodni shifrlash, IPv6: yangi internet protokoli orqali uyjurtiriladigan tahdidlarni aytishimiz mumkin.

Kibermakon atamasi - bu tushuncha yozuvchi Uilyam Gibson tomonidan 1984-yili “Cyberspace” (“Kibermakon”) deb nomlangan trilogiyaning birinchi romani “Neuromancer” (“Neyromant”) chop etilishi bilan bog'liq. U dunyoning barcha kompyuterlaridagi elektron ma'lumotlar aylanib yuradigan virtual makonni ta'riflaydi[7]. Kibermakon kompyuter tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini hisoblanib, bu 1990-yildan boshlab keng miqyosida rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Ijtimoiy nuqtai-nazardan kibermakon deganimizda - kompyuter tarmog'i orqali bir-biri bilan bog'langan va bir vaqtning o'zida turli geografik nuqtada kesishuvchi har qanday mavjud kompyuterning grafik sifatidagi ma'lumotlariga o'rallashib qolgan kishilar yoki guruhlar jamoasi tushuniladi.

Bugun siyosiy jarayonlarda diniy siyosiylashuvi natijasida kibermakonda din niqobidagi tahdidlar kuchayib bormoqda. Ular din niqobi ostidagi ekstremistik tashkilotlarning saytlarida asosan davlat to'ntarilishi va

xunrezlik urushlari haqida diniy raxnomalarning da'vatlariga oid ma'lumotlarni joylaydi. Bu ma'lumotlarni hamda da'vatlar yoshlar ongida kuchli psixologik jihatdan ta'sir ko'rsatish orqali o'zlarining qarmoqlariga ildirib olishga yo'naltirilgan. Masalan, ekstremistik guruhlar tomonidan “Odnoklassniki”, “Facebook”, “Instagram”, “Twitter”, “Vkontakte” ijtimoiy tarmoqlarida “Mustafo mujoxid” “Abul moviya”, “Anson-ansor”, “Abu ali” kabi o'zlarining soxta profillarini yaratish orqali buzg'unchilik va yot g'oyalarni targ'ib qiluvchi g'oya va da'vatlarini yoshlar ongiga ruhiy ta'sir o'tkazib, ularni “jihod” qilish uchun Yaqin Sharq davlatlariga chiqib ketishga chorlamogda.

Kibermadaniyat - madaniyatni rivojlantirishdagi texnokrat yangi yo'nalish. U kompyuter o'yinlarining imkoniyatlari va virtual voqelik texnologiyalarini ishlatishga asoslangan tushuncha hisoblanadi[8]. Bu atama bugungi global axborot makonida virtual tarmoqdagi ijtimoiy ongga salbiy ta'sir etuvchi, ya'ni vayronkor-buzg'unchi, axloq meyorlariga to'g'ri kelmaydigan va noxolis mazmundagi axborotlardan foydalanishning ongli ravishda cheklanilishi tushuniladi.

Proxy war - (ing. vakil yoki vositachilik urushi) hisoblanib - uchinchi tomon donorlarining aralashuvi natijasida resurslardan foydalangan holda jangavor harakatlar orqali o'z maqsadlariga erishish maqsadida, ikki davlat o'rtasidagi majoralarni saqlab qolish va uni uzaytirish hisoblanadi[9].

Gibrid urushlar - “Yumshoq kuch” siyosati asosida harbiy va vositalaridan foydalangan holda ta'sir o'tkazish vositasidir. “Gibrid urush” – siyosiy, mafkuraviy va boshqa sohalarida doimiy manipulyatsiya bilan uyg'unlashgan ko'rinishda an'anaviy, tartibsiz va assimetrik vositalardan foydalanish hisoblanadi[10].

Global makonda O'zbekistonning kiberxavfsizlikni ta'minlashdagi ishtiroki O'zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlik sohasiga tegishli bo'lgan 17 ta qonun hujjati, 9 ta Prezident Farmon va Qarorlari, 14 ta Vazirlar Mahkamasining Qarori, shuningdek tegishli normalar va ko'plab idoralararo meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish” deb nomlangan beshinchi yo'nalish doirasida mamlakatning konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish, kiberxavfsizlik sohasining normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish belgilangan edi.

Xususan, 2020-2023-yillarga mo'ljallangan kiberxavfsizlikka doir milliy strategiyani, “Kiberxavfsizlik to'g'risida” gi qonun loyihasini hamda O'zbekiston Respublikasi yagona axborot siyosati konsepsiyasi ishlab chiqish belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2018-yil 21-noyabrda “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori hisoblanadi. Mazkur Qarorga asosan, “Texnik ko'maklashish markazi” davlat unitar korxonasi “Kiberxavfsizlik markazi”ga aylantirildi. Aynan mazkur markazni qayta tashkil etishdan ham maqsad mamlakatimizda “xavfsiz axborotlashgan jamiyat” muhitini yaratishga qaratilgan ustuvor islohotlar vazifalar belgilab berilgan.

Qolaversa, O'zbekiston so'nggi yillarda xalqaro reytinglarda ishtirok etishining normati-huquqiy asoslari ham belgilab berildi. Bundan maqsad, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va siyosiy-huquqiy xalqaro reyting va indekslarda o'rnini yaxshilash, bu borada mutasaddi vazirlik va idoralarning faoliyatini samarali muvofiqlashtirish,

xalqaro maydonda mamlakatimiz mavqeini yanada yuksaltirish, xorijiy reyting agentliklari bilan hamkorlikni tizimli ravishda islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi "Xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasining o'rini yaxshilashga oid chora-tadbirlarni tizimlashtirish to'g'risida"gi [11] PF-5687-sonli hamda 2020-yil 2-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi PF-6003-son farmonlari qabul qilindi [12]. Mazkur famon bilan O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslar bo'yicha samaradorlikning eng muhim ko'rsatkichlari (keyingi o'rinlarda — KPI) tasdiqlandi. Bu ko'rsatkichlarni tizimli tahlil qilib borish maqsadida Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi tashkil etildi. Mazkur kengashning asosiy vazifasi etib:

- Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy taraqqiyot darajasini tizimli tahlil qilib borish, turli sohalarda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslarda mamlakatning o'rini yaxshilash maqsadlariga xizmat qilishini ta'minlash, mazkur yo'nalishdagi ishlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan muammolarni bartaraf etish;

- O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslarda mamlakatning o'rini yaxshilash maqsadida davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini takomillashtirish, jamiyatni demokratlashtirish, ilg'or xalqaro tajribaga asoslangan davlat va jamiyat qurilishi sohasidagi islohotlarni amalga oshirish bo'yicha tashabbuslarni ilgari surish;

- Davlat va jamiyat hayotining turli jabhalarini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslardagi mamlakatning o'rniga ta'siri nuqtai nazaridan kompleks baholab borish belgilab qo'yilgan. Mazkur Kengash o'z faoliyatini Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy reyting va indekslar sohada ishchi guruhlariga bo'lingan holda xalqar reyting va indekslar bo'yicha olib boradi. Aynan O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslarda o'rini yaxshilash borasida olib borilayotgan islohotlarida Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi (E-Government Development Index)da:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi Farmoni bilan "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi [13] tasdiqlandi. Mazkur strategiyada ham mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish belgilab qo'yilgan. Xususan, strategiyada "Raqamli

O'zbekiston — 2030" strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlari, transformatsiya qilish dasturi, amalga oshirish bo'yicha muvofiqashtirish komissiyasi, tarmoqlar va hududlarni axborot texnologiyalari sohasida O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi diplomatik vakolatxonalariga birlashtirish amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan. Umuman olganda mazkur normativ-huquqiy hujjatlar O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish asosida xalqaro imidjini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, bu tahlillar kibernetika masalasining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi, boisi dasturiy zaifliklar buz'unchiga axborot tizimi yoki veb-sayt, shuningdek, fayl va ma'lumotlarga masofadan kirish, fuqarolarining shaxsiy ma'lumotlari chiqib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Kibernetika choralari bu kabi holatlarning oldini oladi.

Fuqarolarni kibernetikajumladan himoyalash uchun ommaviy axborot vositalarida, axborot tarqatuvchi qurilmalarda va elektron pul o'tkazmalari jarayonlarida himoyalovchi kod (parol)lar vositasida foydalanish zarur. Ushbu kod sir saqlanishi, qurilmalardagi antivirus dasturlari doimiy ravishda faollashtirib borilishi kerak.

O'zbekiston raqamli iqtisodiyotga asta-sekin o'tmoqda. Bunday sharoitda ma'lumotlarni saqlash, yetkazish va qayta ishlashda xavfsizlik va barqarorlik muhim omil hisoblanadi. Bu borada, ayniqsa, davlat organlari xodimlarida ma'suliyat va e'tibor talab etiladi. Aholi, yoshlar o'rtasida, jamoalarda kibernetika mavzusidagi seminarlar tashkil etish lozim. Bu kabi tadbirlar dastur buzuvchi(xaker)larning muntazam ravishda bo'lib turadigan kichik xujmalarini bartaraf etishga yordam beradi.

Umuman olganda O'zbekistonda kibernetika xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan tizimli va fundamental yondashuv, yagona normativ-huquqiy hujjatlar bazasini yaratish, ilg'or xorijiy tajribani joriy etish, innovatsion usullardan keng foydalanish davlat axborot siyosatini samarali olib borishga hamda axborot xavfsizligi sohasidagi muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

Bu esa axborot kommunikatsiya va texnologiyalari tizimini zamonaviy kibernetikadildan himoya qilish, turli darajadagi tizimlar uchun kibernetika xavfsizlik bo'yicha zamonaviy mexanizmlarni joriy etish, mazkur sohada davlat organlari, korxonalar va tashkilotlarning huquqlari va majburiyatlarini belgilash, ularning faoliyatini muvofiqashtirish kabilarni amalga oshirish orqali belgilanadi. Bu sohada normativ-huquqiy hujjatlarni unifikatsiyalash orqali kibernetika xavfsizlikni ta'minlashni takomillashtirish mumkin.

Yurtimizda olib borilayotgan barcha islohotlar zamirida xalqimizga qulayliklar yaratish maqsadi yotibdi. Kibernetika xavfsizlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilishi raqamli imkoniyatlardan ishonchli va xavfsiz tarzda foydalanishga asos bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Блэквилл Р., Харрис Дж. "Война иными средствами" Геоэкономика и искусство управления государством. Издание на русском языке AST Publishers, 2017. – С. 105.
2. Кибербезопасность 2020–2021. <https://www.ptsecurity.com/>.
3. Маданиятни ривожлантиришдаги технократ янги йўналиш. У компьютер ўйинларининг имкониятлари ва виртуал воқелик технологияларини ишлатишга асосланган. Ўша манба.
4. Васенин В.А. Информационная безопасность и компьютерный терроризм. <https://www.crime-research.ru>
5. [https://www.cisco.com/c/ru\\_ru/products/security/what-is-cybersecurity.html](https://www.cisco.com/c/ru_ru/products/security/what-is-cybersecurity.html).
6. Ибрагимов В. Кибертерроризм в Интернете до и после 11 сентября 2001: угрозы и нейтрализация. <http://www.crimeresearch.ru/articles/vagif>.
7. Қаранг: Ахборот коммуникация технологиялари изоҳли луғати. БМТТДнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси. – 2010. – 573-б.
8. Қаранг: Ахборот коммуникация технологиялари изоҳли луғати. БМТТДнинг Ўзбекистондаги ваколатхонаси. – 2010. – 573-б.

9. Қаранг: Andrew Mumford. Proxy Warfare War and Conflict in the Modern World. Wiley, 2013. – p. 13.
10. Қаранг: <https://regnum.ru/news/polit/2421809.html>.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019-йил 7-мартдаги “Халқаро рейтинг ва индексларда Ўзбекистон Республикасининг ўрнини яхшилашга оид чора-тадбирларни тизимлаштириш тўғрисида”ги ПФ-5687-сонли Фармони/ <https://lex.uz/docs/4230916>.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 2-июндаги “Ўзбекистон Республикасининг халқаро рейтинг ва индекслардаги ўрнини яхшилаш ҳамда давлат органлари ва ташкилотларида улар билан тизимли ишлашнинг янги механизмини жорий қилиш тўғрисида”ги ПФ-6003-сон Фармони/ <https://lex.uz/docs/4838762>.
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 5-октябрдаги “Рақамли Ўзбекистон — 2030” стратегияси” ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони/ <https://lex.uz/docs/5030957>.



UDK: 37.026

*Muxabbat URALOVA,*  
Termiz Davlat universiteti o'qituvchisi  
E-mail: uralovamuxabbat96@gmail.com

*TerDUning pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD M.Djumayeva taqrizi asosida*

### CREATIVE-METHODICAL ACTIVITY AS AN IMPORTANT ELEMENT OF THE PROFESSIONAL TRAINING AND COMPETENCE OF THE FUTURE PRIMARY CLASS TEACHER

Annotation

This article provides information about the professional training competence of the future elementary school teacher, the role of creative-methodical activity. At the same time, it was also mentioned about the wide use of methodical activity in the educational system of our country, the methodical activity of the elementary school teacher, the formation of methodical skills in practice and improvement in the educational process.

**Key words:** Methodological activity, competence, skill, qualification, skill, educational system, motivation, professional training.

### ТВОРЧЕСКО-МЕТОДИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КАК ВАЖНЫЙ ЭЛЕМЕНТ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ И КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В данной статье представлены сведения о профессиональной компетентности подготовки будущего учителя начальных классов, роли творческо-методической деятельности. При этом также упоминалось о широком использовании методической деятельности в системе образования нашей страны, методической деятельности учителя начальных классов, формировании методических навыков на практике и совершенствовании учебного процесса.

**Ключевые слова:** Методическая деятельность, компетентность, умение, квалификация, мастерство, система образования, мотивация, профессиональная подготовка.

### IJODIY-METODIK FAOLIYAT BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING KASBIY TAYYORGARLIGI VA KOMPETENTLIGINING MUHIM ELEMENTI SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi kompetentligi, ijodiy-metodik faoliyatning o'rni haqida ma'lumotlar berilgan. Shu bilan birga mamlakatimiz ta'lim tizimida metodik faoliyatning keng qo'llanilishi, boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik faoliyati unda metodik mahoratlar shakllanishining amaliyotda namoyon bo'lishi va o'quv-tarbiya jarayonlarida takomillashib borishi haqida ham aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Metodik faoliyat, kompetentlik, mahorat, malaka, ko'nikma, ta'lim tizimi, motivatsiya, kasbiy tayyorgarlik.

**Kirish.** XXI asr jamiyatning intellektuallashuvi va axborotlashtirilishi kabi olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan global voqelikni boshdan kechirmoqda va bu jarayonlar ilmfan va texnika-texnologiyalarning bugungi ravnaqida o'z aksini topmoqda. Jamiyaning intellektuallashtirilishi va axborotlashtirilishi negizida ta'lim-tarbiya tizimiga tizimli yondashuv, ijodiy yondashuv, innovatsion yondashuv, kompleks yondashuv, integrativ yondashuv kabi ko'plab yangi yondashuvlar joriy etilmoqdaki, bu jarayonlarni ham ta'lim sifati bilan jamoatchilik talablari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashga qaratilgan samarali harakatlar deb qaralmoqda. Professor X.A.To'raqulovning qayd etishicha, mazkur yondashuvlarga asoslangan tadqiqot yo'nalishlarining ahamiyati shundaki, bunda "o'qitish tizimlari jahon miqosida texnologiyalar taraqqiyotiga negiz vazifasini o'taydigan g'oyalar bilan integratsiyalashtiriladi, bu esa o'z navbatida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini hamda kompetentliklarini yanada rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi"[1].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri har bir o'quvchining salohiyatini, ichki imkoniyatlarini, ijodiy qobiliyatini yuzaga chiqarish orqali ularning mustaqil bilim topish va o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'la borishlari uchun ijodiy muhit yaratishdan iboratdir. O'quvchi shaxs sifatida shakllana borib,

o'z oldiga maqsad qo'yish, qo'yilgan maqsadga erishish uchun vazifalarni rejalashtirish, bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar bilan bog'liq o'quv-ta'limiy muammolarni mustaqil tarzda hal eta olishdek fazilatlarini o'zlashtirishiga erishishi yuqorida keltirilgan asosiy maqsadlarga uyg'un vazifalardir. Umumiy holda aytganda, umumta'lim maktabi universal bilim, ko'nikma, mahorat va malakalarni egallashning usullarini o'quvchining o'zi izlashi va topishi uchun zarur bo'lgan muhit va shart-sharoitlar rejali, maqsadli mujassamlashtirilgan muassasadir. Aytib o'tilgan muhit va shart-sharoitlardan samarali natija olish uchun amalga oshiriladigan o'quv-ta'limiy va tarbiyaviy ishlarning asl mohiyatini yaxlit ko'rinishda quyidagicha ifodalash mumkin: "Maktab o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini mustaqil tashkil eta olishlari va bu borada tajriba orttira borishlari, shaxsiy mas'uliyatni his etishlari, ya'ni eng muhim kompetensiyalarga ega bo'lishlari uchun dastlabki poydevor bo'lib xizmat qilmog'i kerak"[2].

Ta'kidlash kerakki, mutaxassis ushbu o'rinda maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonining eng dastlabki davrini, ya'ni boshlang'ich ta'limni nazarda tutgan. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni ijobiy hal etishda maktab eng birlamchi va asosiy vosita bo'lgani holda, pirovard natijaga ta'sir etuvchi qator faktorlar ham mavjud. Mazkur faktorlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

-Umumta'lim maktabida ilmiy-ijodiy muhitning mavjudligi;

-Ta'limiy-kommunikativ sharoitlarning rivojlanganligi;

-Umumtata'lim maktabidagi moddiy-texnik bazaning zamonaviy ta'lim tizimi talablariga muvofiqlik darajasi;

-Boshlang'ich sinf o'quvchisining kasbiy tayyorlanganligi va shu kabilardir [3]. Sanab o'tilgan faktorlarning dastlabki uchtasi bizning tadqiqotlarimiz doirasida o'rganiladigan masala mavzusiga bilvosita aloqador bo'lgani holda, mazkur faktorlarning boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorlanganlik darajasiga ta'siri yetarlicha o'rganilganini hisobga olib, qayd etamizki, biz uchun umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida bajarilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalarga ta'sir etuvchi faktorlardan eng asosiysi va qolaversa, muayyan ma'noda individual hal etilishi mumkin bo'lgan faktor hisoblangan "boshlang'ich sinf o'quvchisining kasbiy tayyorlanganlik" faktori muhim sanaladi. Shu jihatdan, zamonaviy sharoitlarda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdek muhim masalani hal etishning poydevori sifatida qaraladi. Negaki, "boshlang'ich ta'lim uzluksiz ta'lim tizimidagi dastlabki, binobarin, hal qiluvchi bosqich hisoblanib, aynan mazkur bosqichga xos davrda asosiy ilmiy bilimlarning egallanishi, individual ijodiy qobiliyatning rivojlanishi, jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan shakllana borish kabi muhim jarayonlarga ta'mal toshi qo'yiladi"[4].

**Tahlil va natijalar.** Ta'lim sifatini yanada yaxshilash ko'p jihatdan boshlang'ich sinf o'qituvchisining bilish va ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish, intellektual darajasini ko'tarish, umumiy tarzda esa uning kompetentligini yuksaltirish kabi masalalarning yechimiga bog'liq. Aytish kerakki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan masalalarning yechimini izlash dunyoning deyarli barcha mamlakatlarda pedagogika va metodika sohasidagi tadqiqotlarning bosh maqsadlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy oliy ta'lim muassasalari bu borada o'z oldiga talabalarni ijtimoiylashtirish vazifasini qo'yadi va ayni vaqtda, jamiyatning o'zgarib borayotgan sharoitlarini hisobga oladi. Shundan kelib chiqib, biz ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, kompetentligini yuksaltirish masalasi bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash masalasida jiddiy e'tibor qaratish bilan mazmunan bir xil ahamiyatga ega deb ayta olamiz. OTM bitiruvchisida shakllangan kompetensiyaviylik va kompetensiyalar esa pedagogik amaliyot davrida ilmiy-ijodiy qobiliyat va kasbiy kompetensiyalarning muhim komponentlari sifatida davomli rivojlana boradi.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida metodik faoliyat tushunchasining pedagogik amaliyotda keng qo'llanila boshlanishi mustaqillik bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar natijasida ta'lim tizimida boshlangan tub islohotlar davriga to'g'ri keladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik faoliyati unda metodik mahoratlar shakllanishining amaliyotda namoyan bo'lishi va o'quv-tarbiya jarayonlarida takomillashib borishi, demakdir. Ta'lim sohasida kechayotgan har qanday o'zgarish va yangilanish metodik mahoratlar doirasining kengayib borishiga turtki bo'ladi, shu barobarida, boshlang'ich sinf o'qituvchining metodik mahoratlar doirasining kengayib borishi, o'z navbatida, uning yangilik va o'zgarishlarni qabul qiluvchanligini va yangilangan ta'lim muhitiga moslashib boruvchanligini ta'minlaydi[5].

Zamonaviy metodika, pedagogika fanlari nuqtai nazaridan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z metodik mahoratlarini kengaytirib, takomillashtirib borishi uchun metodik faoliyatning quyidagi umumlashtirilgan mexanizmlarini o'zlashtirishi lozim bo'ladi:

-O'quv ishlarini tashkillashtirish va o'quvchilarda motivatsiya uyg'otishning dastlabki tajribalarini o'zlashtirish;

-Mavjud usullardan foydalanib, birlamchi kommunikativ aloqalarni yo'lga qo'yish asosida navbatdagi harakatlarning individual algoritmini ishlab chiqish;

-O'z faoliyatini muntazam nazorat qilish, tuzatish, o'zgartirish va yangiliklar kiritib borish;

-O'z-o'zini rivojlantirishning mavjud usullarini takomillashtirish va yangi usullar izlash [6].

V.V.Anisimov fikricha, metodik mahorat asosiga qurilgan metodik faoliyatni olib borayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi shunchaki kasbiy vazifalarning oddiy ijrochisi bo'lib qolmasdan, ma'lum darajada "uslubchi", dars mashg'ulotlarini tashkil etishda tashabbuskor, o'z atrofida o'quv-tadqiqotchilik muhiti yaratilishi mutaxassis bo'lishi lozim. Shuningdek, u o'qitishning yangi variantlarini axtarishi, yangicha yondashuvlarni o'zi mansub mintaqa sharoitlariga moslashtira olishi, tez-tez o'zgarib turuvchi nostandart vaziyatlarda maqbul yechimlar topa olishi kerak bo'ladi [7].

Shunday qilib, metodik faoliyat deganda biz o'qituvchining muayyan fan bo'yicha o'quv va ta'lim-tarbiya jarayonlarini samarali tarzda amalga oshirishga qaratilgan loyihalash, o'quv-ta'limiy vositalarni konstruksiyalash va ishlab chiqishdan iborat kasbiy faoliyatini tushunamiz. Zamonaviy ta'lim tizimida metodik faoliyatni olib borish fikrlash, variativ tavsiyalar orasidan maqbulini tanlash, "o'qituvchi-o'quvchilar" tartibidagi kommunikativ aloqalarni muvofiqlashtirib borish, o'quvchilarning ichki salohiyatini yuzaga chiqarishga qaratilgan izlanishlar va tadqiqotlar singari qobiliyat talab qiluvchi aqliy-fikriy harakatlarni talab qiluvchi murakkab jarayondir [8].

N.YE.Erganova, V.I.Kuznetsov, N.O.Nikandrov kabi tadqiqotchilar boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik faoliyati ta'lim tizimiga qo'yiladigan zamonaviy talablarning mazmunidan kelib chiqqan holda, quyidagi muhim jihatlarida namoyan bo'lishi lozim deb hisoblaydilar:

-O'quv-dasturiy hujjatlar va metodik majmualarning tahlilini amalga oshirish;

-O'qitishning variativ tizim va majmualarini tahlil etish asosida maqbul tizimni tanlash;

-Fanga oid o'quv materiallarining metodik tahlil etish;

-Daralar tizimini maqsad va natijalarni taqalashirgan holda rejalashtirish;

-Dars davomida o'quv axborotlari va mavzuga oid ma'lumotlarni taqdim etishning tartibini qurish va modellashtirish;

-O'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini modellashtira olish;

-O'quv faoliyatini boshqarish va nazorat qilishning shakl va ko'rinishlarini ishlab chiqish;

-Dars mashg'uloti davomidagi motivatsiyaviy jarayonlarni qurish va boshqarish;

-Dars mashg'ulotiga tayyorlanish va uni o'tkazish davomida refleksiv muhit yaratish va shu kabilardir [9].

**Xulosa.** Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyatga ijodiy-metodik jihatdan tayyorligi unda zarur bo'lgan shaxsiy va kasbiy sifatlarning shakllanib borish algoritmi ko'rinishida sodir bo'ladi. Biz manbalar va mavzuga oid adabiyotlarga tayangan holda ayta olamizki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisida eng avvalo ijodiylik ko'nikmalari shakllanadi va bu ko'nikmalar uning kommunikativ munosabatlari hamda ta'lim olish faoliyati natijasida ijodiy qobiliyat sifatida takomillashadi. Demak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorlanganligi va kompetentligi shakllanishida ijod fenomenini birlamchidir. Ijodiylikning ijodiy qobiliyat sifatida takomillashib borish kontekstida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kompetensiyalari shakllanadi va ular miqdor hamda sifat jihatdan o'zgarib boradi, pirovardida, shaxsning

avvaldan mavjud kompetensiyalari bilan uyg'unlashib o'qituvchisining kompetentligini ta'minlaydi. (integratsiyalashib), bo'lajak boshlang'ich sinf

#### ADABIYOTLAR

1. To'raqulov Xolbo'ta Abilovich "Bo'lajak o'qituvchilarini tayyorlashda integrativ yondashuv qilishning didaktik imkoniyatlari" M.-2000-y.
2. Vigotskiy L.S. "Voobrajeniyе i tvorchestvo v detskom vozraste". M.-1991-y.
3. Elkonin D.B. "Psixologiya obucheniya mladshеgo shkolnika". – M. 2002-y.
4. Vidineyev N.V. "Priroda intellektualnix sposobnostey cheloveka". -M.: Nauka, 1991-y.
5. Gmurman V.Y. "Tendensii razvitiya pedagogiki": Metodologicheskiye problemi razvitiya pedagogicheskoy nauki / Pod red. Atutova P.R., Skatkina M.N. i dr. M.: Pedagogika, 1985. S. 10 - 56.
6. Anisimov V.V. "Obshiyе osnovi pedagogiki" : ucheb. dlya vuzov / Anisimov V.V., Groxolskaya O.G., Nikandrov N.D. – M. : Prosvesheniye, 2006. – 574 s.
7. Anisimov V.V. "Obshiyе osnovi pedagogiki" : ucheb. dlya vuzov / Anisimov V.V., Groxolskaya O.G., Nikandrov N.D. – M. : Prosvesheniye, 2006. – 528 s.
8. Kuznetsov V.I. "Prinsipi aktivnoy pedagogiki: Chto i kak prepodavat v sovremennoy shkole". Uchebnoye posobiye - M.; Akademiya, 2001- s. 120.
9. Erganova N.Y. "Metodika professionalnogo obrazovaniya" : ucheb. pos. dlya stud. vissh. ucheb. zavedeniy / Erganova N.Y. – M. : Izd. sentr «Akademiya», 2007. – 160 s.



UDK:159.9(575.1)

*Baxtiyor USMONOV,*  
*Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti*

*Professor, tarix fanlari doktori E.Z. Nuriddinov taqrizi asosida*

## POLITICAL AND DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THE REPUBLIC OF TAJIKISTAN

Annotation

Two countries of Central Asia - Uzbekistan and Tajikistan, these two countries are countries that meet the requirements of neighborly relations in all respects. It is known that neighborly relations and diplomatic relations have been in different forms in different periods. This article is dedicated to the discussion of mutual diplomatic and partnership relations of these two countries during the years of independence.

**Key words:** Uzbekistan, Tajikistan, diplomacy, politics, neighbor, road, construction, culture, education.

## ПОЛИТИЧЕСКИЕ И ДИПЛОМАТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ РЕСПУБЛИКОЙ УЗБЕКИСТАН И РЕСПУБЛИКОЙ ТАДЖИКИСТАН

Аннотация

Две страны Центральной Азии – Узбекистан и Таджикистан, эти две страны являются странами, отвечающими требованиям добрососедских отношений во всех отношениях. Известно, что добрососедские и дипломатические отношения в разные периоды находились в разных формах. Данная статья посвящена обсуждению взаимных дипломатических и партнерских отношений этих двух стран в годы независимости.

**Ключевые слова:** Узбекистан, Таджикистан, дипломатия, политика, сосед, дорога, строительство, культура, образование.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA TOJIKISTON RESPUBLIKASI O‘RTASIDAGI SIYOSIY VA DIPLOMATIK ALOQALAR

Annotatsiya

O‘rta Osiyoning ikki mamlakati – O‘zbekiston hamda Tojikiston, ushbu ikki davlat har tomonlama qo‘shnichilik aloqalari talablariga javob beradigan mamlakatlar hisoblanadi. Qo‘shnichilik aloqalari, diplomatik munosabatlar turli davrlarda turli ko‘rinishda bo‘lib kelgani ma‘lum. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida ushbu ikki mamlakatning o‘zaro diplomatik, sherikchilik aloqalari muhokamasiga bag‘ishlanadi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston, Tojikiston, diplomatiya, siyosat, qo‘shni, yo‘l, qurilish, madaniyat, ta‘lim.

“O‘zbekiston xalqi birodar tojik xalqi bilan tarix, madaniy-ma‘naviy meros va ajdodlarimizning ezgu an‘analari mushtarakligiga asoslangan do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini qadrlaydi. Yorug‘ kunlarda ham, sinovli damlarda ham biz doimo yelkama-yelka turganmiz, bir-birimizni qo‘llab-quvvatlaganmiz”

**Shavkat Mirziyoyev**

**Kirish.** O‘zbekiston hamda Tojikistonning mustaqillik davridagi munosabatlarini 2 davrga ajratish mumkin. Birinchisi Shavkat Mirziyoyev prezident bo‘lgunga qadar bo‘lgan davr, ikkinchisi undan keying davr. Ikki mamlakat yil sayin diplomatik aloqalarning yangidan yangi bosqichiga chiqib bormoqda. Shavkat Mirziyoyevning davlat rahbari sifatida faoliyat yurita boshlaganidan keyin ichki siyosatda o‘zgacha yondashuvlar, yangi strategiya asosida amalga oshirilayotgan islohotlarning dastlabki o‘zgarishlari, tendensiyalari rivojlanib bormoqda. Ular ijtimoiy davlatning shakllanishi, davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarda kuzatilayotgan ochiqlik, ijtimoiy-gumanitar sohalaridagi yangilanishlar va o‘zgarishlar, shuningdek, iqtisodiy munosabatlarni liberallashtirish, bozor iqtisodiyoti munosabatlarini takomillashtirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, davlat va jamiyat faoliyatining barcha yo‘nalishlarida ilg‘or axborot texnologiyalarni joriy qilishda namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekistonning tashqi siyosatida ikkita muhim tendensiya ustunligi kuzatilmoqda. Bunda, birinchi tendensiya - davlat va jamiyatning ichki barqaror rivojlanishi, samarali islohotlarni amalga oshirish, aholining barcha qatlamlari turmush farovonligining oshishini muntazam ta‘minlash va hayot sifatini bir necha baravarga oshirish

uchun jahonning qaysi burchagida bo‘lmasin tashqi imkoniyatlar, mexanizmlar, shart- sharoitlarni qidirib topish va yaratish. Ikkinchisi - hozirgi zamon jahon siyosatining ziddiyatlari, xavf-xatarlarini xalqaro munosabatlarning, ayniqsa, mintaqaviy rivojlanishning traektoriyalari va omillarini chuqur o‘rganish, tahlil etish asosida davlatimiz atrofida tinchlik, barqarorlik va xavfsizlik muhitini shakllantirish. O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi hamkorlik ikki tomonlama xususiyatga yega bo‘lishiga qaramay, Markaziy Osiyo doirasidagi munosabatlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Mavzuga oid adabiyotlar asosan ikki mamlakatning o‘zaro uchrashuviga oid yakuniy xulosalar, xalqaro maydondagi kelishuvlarning mohiyati, bitim va boshqa hujjatlar deyish mumkin. Undan tashqari maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Shuningdek, ma‘lumotlarni tahlil qilishda va kerakli takliflar berishda iqtisodiy analiz metodlariga alohida urg‘u berildi. O‘zbekiston, O‘zbekistonning xalqaro maydonlaridagi o‘rni, O‘zbekiston- Markaziy Osiyo mavzularida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev asarlaridan, shuningdek prezidentimiz keltirgan iqtiboslar to‘plamidan

foydalanildi. Maqolada prezidentimizning 2020-yil so'ngida keltirilgan iqtiboslari o'rin olgan. Ko'rishimiz mumkinki, shu 5 yil ichida O'zbekiston xalqining farovonligi uchun muhim bo'lgan ishlarga poydevor qo'yildi. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asarida ko'rish mumkinki, kitobda yozilgan ko'plab jumlar reallikka aylanib bo'ldi va aylanmoqda [2].

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'zbekiston munosabatlarida taqdirlandilar [6].

**Tahlil va natijalar.** Keyingi olti yilda hamkorlikning barcha yo'nalishlarida yutuqlarga erishildi. Oliy darajadagi muzokaralarda erishilgan kelishuvlar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Ikki mamlakat hukumatlari, vazirlik va idoralari, hududlari o'rtasida muntazam almashinuvlar yo'lga qo'yilgan.

Shavkat Mirziyoyev va Imomali Rahmon ko'p qirrali O'zbekiston – Tojikiston strategik sherikligini yanada rivojlantirish yo'lidan qat'iy borishlarini tasdiqladilar.

Davlat rahbarlari savdoni faol kengaytirish va sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish, ikki mamlakatning logistika va tranzit imkoniyatlarini rivojlantirish hamda suv energetikasi loyihalarini amalga oshirish orqali munosabatlarni yangi amaliy mazmun bilan boyitishga tayyor ekanliklarini doimiy bildirib kelishmoqda.

Keyingi yillarda ikki tomonlama hamkorlik sezilarli darajada faollashdi. Tovar ayirboshlash 600 million dollarga yetdi. Qo'shma korxonalar soni 10 karra oshdi.

Transport, hududlararo hamkorlik, parlamentlararo va madaniy-gumanitar aloqalar borasida ham muhim natijalarga erishildi.

Ikki davlat poytaxtlari Toshkent va Dushanbe shaharlari, Surxondaryo va Xatlon viloyatlari hamda Toshkent, Farg'ona, Samarqand va So'g'd viloyatlari o'rtasida samarali aloqalar yo'lga qo'yilgan. Mazkur tashrif doirasida hamkorlik bo'yicha "yo'l xaritasi"ni Jizzax va So'g'd viloyatlari ham qabul qiladilar.

Prezidentlar birodar mamlakatlarimiz o'rtasidagi iqtisodiy sheriklik ustuvor ahamiyatga ega ekanini, savdo hajmi va nomenklaturasini karrasiga oshirish uchun katta salohiyat mavjudligini ta'kidladilar.

Mashinasozlik, elektrotexnika, to'qimachilik, charm, farmasevtika, oziq-ovqat, agrosanoat, tog'-kon, metallurgiya va boshqa tarmoqlarda loyihalarni amalga oshirish uchun katta istiqbollar borligi qayd etildi.

Madaniy-gumanitar hamkorlikni mustahkamlash to'g'risida qator kelishuvlarga erishildi. Prezidentlar fan, ta'lim, san'at, kino va turizm sohalaridagi hamkorlikka e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlab kelishmoqda. Yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va ma'naviyatini yuksaltirish ustuvor yo'nalish sifatida qayd etiladi.

2022-yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmon tarixiy ahamiyatga ega Abadiy do'stlikni mustahkamlash va ittifoqchilik to'g'risidagi deklaratsiyani imzoladilar.

Bundan tashqari, hukumatlar, vazirlik va idoralar darajasida ko'p qirrali O'zbekiston – Tojikiston hamkorligini yanada kengaytirishga qaratilgan 11 ta hujjat imzolandi.

Jumladan:

– Sanoat kooperatsiyasi sohasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash va kengaytirish bo'yicha "yo'l xaritasi";

– Madaniyat vazirliklari o'rtasida 2022-2023-yillarga mo'ljallangan madaniyat va san'at sohalaridagi hamkorlik to'g'risida bitim;

– O'zbekistonning Jizzax viloyati va Tojikistonning So'g'd viloyati o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi";

– Atrof-muhitni muhofaza qilish va suvdan oqilona foydalanish sohalarida hamkorlik to'g'risida memorandum;

– Ipakchilik tarmog'ida hamkorlik to'g'risida memorandum.

Mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillari uchun o'tkazilgan brifingda Prezidentlar muzokaralar ochiqlik, o'zaro ishonch, anglashuv va do'stona ruhda o'tgani, imzolangan hujjatlar O'zbekiston va Tojikiston xalqlari manfaatlariga xizmat qilishini ta'kidladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Imomali Rahmonni va ushbu mamlakat delegatsiyasi a'zolarini mehmondo'st O'zbekistonga tashrifi bilan qutlab, Tojikiston bizning asrlar sinovidan o'tgan yaqin qo'shnimiz, sodiq do'stimiz va ishonchli strategik sherigimiz ekanini yana bir bor ta'kidladi.

Keyingi yillarda ikki tomonlama tovar ayirboshlash hajmi qariyb 40 barobarga oshishi kutilayotganini mamnuniyat bilan qayd etish lozim.

Energetika va suvdan oqilona foydalanish borasida samarali hamkorlik uchun noyob imkoniyatlar mavjudligi qayd etildi. Shu munosabat bilan Tojikiston Prezidentining Muzliklarni asrash xalqaro fondini tashkil etish va 2025-yilni Muzliklarni himoya qilish xalqaro yili deb e'lon qilish tashabbusi qo'llab-quvvatlandi.

Bundan tashqari, O'zbekiston har yili Tojikiston fuqarolari uchun ajratiladigan ta'lim grantlari sonini ko'paytirmoqchi.

Mamlakatlarimizda kino, madaniyat kunlari va turli festivallarni muntazam o'tkazib borish davom ettiriladi.

Shuni aytish mumkinki, Toshkent va Dushanbe faol siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni saqlab qolish va yanada rivojlantirishda kelajakda mintaqaviy hamkorlikning harakatlantiruvchi rolini talab qilish uchun yetarlicha aloqa nuqtalariga yega. O'zbekiston va Tojikiston amalda avtoritar respublikalar bo'lishiga qaramay, iqtisodiy jihatdan faol hamkorlik qilsalar, chegaraning ikki tomonidagi millionlab fuqarolarning hayoti yaxshi bo'lmasa, ancha osonlashadi. Mintaqa davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik mintaqa davlatlari fuqarolarining ko'plab muammolarini hal yetish imkonini beradi. Shuni tushunish kerakki, har qanday o'zgarishlar, xoh iqtisodiy, xoh siyosiy, boshqa mamlakatlarga bevosita ta'sir qiladi.

O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, aslida, Markaziy Osiyodagi mintaqaviy hamkorlik uchun hal qiluvchi va asosiy rol o'ynashi mumkin. O'zbekiston mintaqaviy siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning markaziy bo'g'iniga da'vo qilish uchun birinchi qadamni (mintaqadagi barcha davlatlar bilan munosabatlarni yaxshilagan, o'zaro manfaatli va strategik sheriklik to'g'risidagi ko'plab shartnomalarni imzolagan) allaqachon amalga oshirdi. Bularning barchasi Shavkat Mirziyoyevning yangi ichki va tashqi siyosati tufayli amalga oshdi. Markaziy Osiyodagi siyosiy iqlimning o'zgarishi mintaqadagi voqealar rivojini butunlay o'zgartirib yubordi va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi ham, xalqaro va mintaqaviy ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlarning butun spektriga bevosita ta'sir ko'rsatdi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa shuki, hozirda O'zbekiston yangi tarmoqlarda iqtisodiy rivojlanishlarga erishish va yangi qo'shnihilik aloqalarini o'rnatish yo'lida shaxdam qadamlar tashlamoqda. Deyarli barcha ko'rsatkichlar bo'yicha 5 yil ichida ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Oxirgi yillarda sodir bo'layotgan iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar O'zbekistonning xalqaro maydonlaridagi o'rnini yuksaltirmoqda. Har birimiz o'z sohamiz yetakchisi sifatida bilimimizni yanada yuksaltirishimiz orqali Yangi O'zbekistonning yanada rivojlanishiga o'z hissamizni qo'shishimiz kerak.

**ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent : «O'zbekiston» NMIU, 2017. – 488-bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent — «O'zbekiston» 2016. — 59-bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik! T: Tasvirnashriyot uyi, 2021. – 53-bet.
4. Ismailova N.S., Shagazatov U.U. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. –T.: Iqtisodiyot, 2019. -244-b.
5. International Economics: Theory and Policy by Paul R. Krugman and MauriceObstfeld. 2003 y. – 783 p.
6. O'zbekiston Respublikasi va Tojikiston Respublikasi o'rtasida strategik sheriklik to'g'risidagi Bitim / [Elektronnyy resurs]. URL: <https://lex.uz/docs/4108695> (data obrasheniya: 25.06.2020)
7. O'zbekiston va Tojikiston iqtisodiyoti. Onlayn statistika. URL: <https://take-profit.org/statistics/gdp/tajikistan/>
8. O'zbek-tojik munosabatlari Markaziy Osiyoga ta'sir qilishi mumkin URL: <https://rus.azattyk.org/a/28028017.html>.
9. Sayfullaev D.B. (2020). Zamonaviy g'arb va sarq diplomatiyasini o'qishning konseptual asoslari. Huquqiy, axloqiy va tartibga solish masalalari jurnali, 23(2), 1-10.
10. Madaminova D.I., & Fayzullaev S.A. (2021). O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi tashabbuslarining muhim jihatlari. Osiyo ko'p o'lchovli tadqiqotlar jurnali (AJMR), 10 (3), 324-328-bet.



UDK:37; 371; 57;

**Muhayyoxon USMONOVA,**  
*Qo'qon Davlat pedagogika instituti dotsenti, (PhD)*  
*E-mail: usmonovamuhayyoxon@gmail.com.*  
**Nilufarxon ABDUBANNONOVA,**  
*Qo'qon Davlat pedagogika instituti magistranti*  
*E-mail: usmonovamuhayyoxon@gmail.com*

*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti dotsenti, p.f.f.d., (PhD) M.M.Isabayeva taqrizi asosida*

## DIDACTIC PRINCIPLES FOR DEVELOPING CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS

Annotation

The article describes the important components of the teacher's creative and professional competence, which determine the essence of the development of creative ability and implement it through their tasks (functions), ways to effectively use the possibilities of his professional pedagogical activity.

**Key words:** Creative, intellectual and creative abilities, creative personality, creative personality, intellectual and creative abilities, motive, creativity, creation, creative imagination, creative thinking, intellect.

## ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ

Аннотация

В статье описаны важные составляющие творческой и профессиональной компетентности педагога, определяющие сущность развития творческой способности и реализующие ее через свои задачи (функции), способы эффективного использования возможностей его профессиональной педагогической деятельности.

**Ключевые слова:** Творческий, интеллектуально-творческие способности, творческая личность, творческая личность, интеллектуально-творческие способности, мотив, творчество, созидание, творческое воображение, творческое мышление, интеллект.

## O‘QUVCHILARIDA KREATIV QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada o'qituvchining kreativ, kasbiy kompetentligini muhim tarkibiy qismlari, kreativ qobiliyatni rivojlantirishning mohiyatini aniqlash va uning vazifalari (funktsiyalari) orqali amalga oshirish, uning kasbiy pedagogik faoliyati imkoniyatidan samarali foydalanish yo'llari yoritib berilgan.

**Kalit so'z:** Kreativ, intellektual-ijodiy qobiliyatlar, kreativ shaxs, ijodiy shaxs, intellektual-ijodiy qobiliyatlar, motiv, yaratish, ijod, ijodiy tasavvur, ijodiy tafakkur, intellect.

**Kirish.** Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, "kadrlar tayyorlashning ma'no-mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratish"ni talab etadi.

Zamonaviy o'quvchi shaxsini ma'naviy, intellektual va ijodiy jihatdan rivojlantirish muammosi dolzarb ahamiyatga ega ijtimoiy-pedagogik va ustuvor masala sifatida kreativlik, kreativ qobiliyatlar, intellekt, intellektual faoliyat, ijod, ijodkorlik, intellektual ijodkorlik, qobiliyatlar, intellektual-ijodiy qobiliyatlar, ijodiy tasavvur, intellektual-ijodiy jarayon, faoliyat kabi tushunchalarni o'rganadi.

Intellektual-ijodiy qobiliyatlar - bu shaxsning ta'sirchanligi, predmetni idrok qilishining kuchligi va yaxlitligi, u to'g'risida keng ma'lumotlarga ega bo'lish, tafakkur o'zgaruvchanligi va tezkorligi (tez, xilma-xil, o'ziga xos), mantiqiy va savodli mulohaza yuritish, tizimli harakatlar, sintez-tahlil-sintez, ijodiy ifodalay bilish, umumlashtirish va xulosalash, o'z fikriga ega bo'lish, ishni oxirigacha yetkazish, ishchanlik, o'z bilimlarini boshqalarga yetkaza olish kabi asosiy kreativ fazilatlar majmui bo'lib, nafaqat yuksak ijodiy rivojlanishni, balki umuman shaxs rivojlanishining muhim omili, har qanday faoliyatdagi muvaffaqiyatning garovi, kishilar bilan muloqot, kundalik faoliyatdagi yutuqlar omilidir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Mustaqil hamdo'stlik davlatlari olimlaridan L.Vygotskiy, A.Leontyev,

D.El'skonin, O.Vasilychenko, E.Mel'kumova, V.Miretskaya, M.Suxomlinova, E.Emmanuel kabilarning ilmiy ishlarida shaxs ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari o'rganilgan. E.P.Torrance, N. Rogers, J.Purnell, P.Roberts, A.M.Galligan, Sh.Tatsuno kabi xorijiy olimlarning ishlarida shaxsning individual qobiliyatlarini, ijodiy salohiyatini namoyon etish masalalari ochib berilgan. Ijodkor shaxsni tarbiyalashning umumpedagogik jihatlarini respublikamiz olimlari O.Musurmonova, Sh.Sharipov, Sh.Mardonov, S.Nishonova, D.Ro'ziyeva, B.Xodjayev, D.Sharipova, M.Quronov, A.Nurmanov, S.Annamuratova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan. O'quvchi shaxsining kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning psixologik va akmeologik xususiyatlari E.G'oziyev, M.Davletshin, D.Muxamedova, S.Safayev kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlaridagi ta'lim samaradorligini oshirishga doir g'oyalar, o'quvchi shaxsini shakllantirishga doir qadriyatli yondashuvlar, shaxsning biologik va ijtimoiy mavjudot sifatidagi faoliyati mazmunini ifoda etuvchi qarashlar, bilish nazariyasi, shuningdek, shaxs ijtimoiy ongining dinamik rivoji borasidagi falsafiy yondashuv hamda psixologik, pedagogik qonuniyatlardan iborat.

umumta'lim maktablari o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik (qobiliyat, qiziqish, ehtiyoj), intellektual-ijodiy faoliyati (muammoni yechishga motivatsion yondashuv, sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayoni tuzilmaviy mazmuni, tarixiy-madaniyatshunoslik materialini intellektual-ijodiy idrok qilish) va pedagogik(intellektni rivojlantirishga intilish, o'z-o'zini anglash, irodaviylik, ishchanlik, axloq-odob va boshqa fazilatlar) omillari (motivatsion omil, qobiliyat, qiziqish, ehtiyoj, idrok qilish, o'quvchilarning intellektual-ijodiy faoliyati, uni rivojlantirish sxemasi, modeli) aniqlashtirilgan;

yuqori sinf o'quvchilarining kreativ (muammoning nostandart yechimini topish, insonning tafakkur, muloqot faoliyatdagi ijodiy imkoniyati, qobiliyati) qobiliyatlarini (tizimli harakatlar, tahlil sintez- tahlil, ijodiy ifodalash, umumlashtirish, xulosalash) interfaol (guruhda ishlash, rolli o'yinlar, klaster va boshqalar) usullar vositasida rivojlantirishning ichki (avtogen, refleksiya) va tashqi (innovatsion ta'lim muhiti) sinf va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida takomillashtirilgan;

o'quvchilarda kreativlik qobiliyatini rivojlantirish modeli (nuxsa ko'chirish orqali atrof-muhitni anglash, his qilish) tarixiy-madaniy yodgorliklarni sinfdan tashqari mashg'ulotlarda (sayohat darsi, ma'ruzalar konferentsiyalar, suhbat, mini-bahs munozaralarda) reflektiv (his etish va undan foydalanish, tafakkur tezligi, aniqligi, o'zgaruvchanligi) o'rganish asosida takomillashtirilgan;

o'quvchilarning kreativlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan didaktik topshiriqlarni bajarish metodlari (variantlarni tanlash, tizimli operator, ixtirochilik masalalarini yechish algoritmini qo'llash) interfaol ta'lim texnologiyalari (tarixiy atamalar zanjiri, klaster, BBB) asosida takomillashtirilgan.

**Tahlil va natijalar.** Kadrlar tayyorlash milliy dasturi markazida shaxsning intellektual- ijodiy potentsiali (shiddatli qiziquvchanlik, idrok qilishga oid faollik; idrok qilishning kuchliligi, dadil, o'ziga xos tafakkur, tahliliy, ijodiy, umumlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatga ko'chirish qobiliyati kabilar), intellektual-ijodiy, ayniqsa, ma'rifiy-funksional qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi turadi, o'z navbatida, idrok qilishga oid faoliyatga qiziqish; fikrlarni mantiqiy, aniq, yorqin va tushunarli tarzda ifodalash zarur lug'aviy tushunchalar zahirasiga ega bo'lish, undan foydalana bilish, ijtimoiy-kommunikativ qobiliyatlarni safarbar qilish, o'z-o'zini tanqid qilish va uzluksiz takomillashtirish kabi o'ta muhim layoqatlarni rag'batlantiradi. Shu sababli Milliy dasturda "...inson qobiliyatlarini ochib berish va uning xilma-xil ta'limiy ehtiyojlarini qanoatlantirish" vazifasi ilgari surilgan.

O'tgan vaqt mobaynida ta'lim amaliyotida ushbu vazifalarni hal etishda birmuncha yutuqlarga ham erishildi. Xususan, dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda

o'quvchilarni ijodiy faoliyatga yo'naltirish ahamiyat kasb etmoqda.

O'quvchilarning ma'naviy intellektual-ijodiy rivojlanishida xalq pedagogikasidan foydalanish faollashdi.

So'nggi yillarda o'zbekistonlik olimlar hozirgi zamon sharoitida o'quvchilarda ijodkorlik fazilatlarini oshirish, xususan, kognitiv-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish muammosi bo'yicha ilmiy tadqiqot olib bormoqdalar. Xususan, akademik R.X.Djurayev rahbarligidagi ijodiy-pedagogik jamoa tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy loyihada "ta'lim mazmunini modernizatsiyalash, o'quv jarayonida zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish, o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini samarali namoyon qilishi uchun shart-sharoitlarni yaratish" masalalari ishlab chiqildi.

Unda quyidagilar nazarda tutildi:

o'quvchilarning kognitiv-ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun qat'iy motivatsiyaga ega bo'lgan shart-sharoitlarni ta'minlash (intellektual-ijodiy yo'l bilan egallangan bilimlar qaysi maqsadlar uchun qo'llanilishi);

o'quvchilarning hamkorlikdagi kognitiv-ijodiy faoliyatini tashkil qilish, ularga kommunikativ mahoratlarini oshirish imkonini berish;

o'quvchilarning zarur axborot manbalaridan foydalanish huquqlarini amalga oshirish;

o'quvchiga samarali rivojlanish imkoniyatini beruvchi shaxsga yo'naltirilgan ijodiy o'sish, o'z imkoniyatini namoyon etish jarayonlarini tashkil qilish;

o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirishi; mustaqil o'qib, bilim orttirishi, o'z-o'zini tarbiyalashi, o'z shaxsini namoyon etishini rag'batlantirish.

O'quvchilarning eng yuqori darajada va aniq bir maqsadga yo'naltirilgan kognitiv-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda topshiriq turi, uni bajarish shakli (jamoaviy va individual)ni tanlashni kuchaytirish; o'quvchini tanqidiy fikrlash, o'z-o'zini tanqid qilishga o'rgatish; ularda faollik va tashabbuskorlikni tarbiyalash; dialog va munozara olib borishga o'rgatishga alohida e'tibor berilgan.

Ijodiy faoliyat murakkab jarayon sanalib, o'quvchi shaxsiga turli - tuman talablar qo'yadi. Agar o'quvchi shaxsi xususiyatlari tizimi shu talablarga javob bera olsa, u ijodiy faoliyatini muvaffaqiyat bilan amalga oshira oladi, agar talab qilingan xususiyatlardan birortasi rivojlanmagan bo'lsa, o'quvchi faoliyatning muayyan turiga nisbatan kam qobiliyatli deb xarakterlanadi.

**Xulosa va takliflar.** Kreativ qobiliyatning asosiy mezonlarini elastiklik (aqliy tafakkur), tezkorlik(vaqt birligidagi g'oyalar soni), o'ziga xoslik (tafakkur, yangi g'oyalar), metafora (g'ayrioddiylik, g'aroyiblik), g'oya va tafsilotlarni idrok qilish, sezuvchanlik, qiziquvchanlik (hayratlanish qobiliyati, sinchkovlik, ochiqlik), aniqlik (aniq fikrlash qobiliyati), takomillashtirish, ijod mahsuliga tugallanganlikni baxsh etish, dadillik kabilar tashkil qilib, ular zarur motivatsiya asosidagina rivojlanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Tolipov O'.Q., O'smonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.: Fan, 2006. - 111 b.
2. Tolipova J.O. Biologiya o'qituvchisining ilmiy-metodik tayyorgarligi darajasini orttirish nazariyasi va amaliyoti. Avtoref. disped. fan. doktori. - T.: TDP, 2006. - 45 b.
3. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. ... dis. avtoref. Toshkent: TDP, 2007. 47 b.
4. Yuzlikayeva E.R. Teoriya i praktika podgotovki uchitelya k diagnosticheskoy deyatelnosti: Avtoref. dis. ... doktora ped. nauk. - Tashkent: TGPU, 2012. - 42 s.
5. Qurbonov Sh.Ye., Seytxalilov Ye.A., Inoyatov U.I., Yuzlikayeva Ye.R., Sharipov Sh.S
6. Usmonova. M.S. O'quvchilarning biologiy a f anidan kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda xalqaro pisa dasturining Ahamiyati //«Science and innovation» xalqaro ilmiy jurnali/ UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 Volume 1 Issue 7 1254-1257



UDK: 37.02

**Gulchexra FAYZULLAYEVA,**

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi dotsenti (PhD)*

*E-mail: gulchexrasharipboyevna81@gmail.com*

*Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi, pedagogika fanlari bo‘yicha Falsafa doktori Karshiyeva Dilnoza Utkirjonovna taqrizi asosida*

### O‘QITUVCHILARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHDA JARAYONGA ASOSLANGAN O‘QITISHNING (PROCESS-BASED LEARNING) AFZALLIKLARI

Аннотация

Zamonaviy ta'limda o'rganish majburiyati ta'lim beruvchidan uning oluvchisiga o'tib bormoqda, ya'ni hozirgi o'qitish samaradorligida ta'lim oluvchining ma'lumotni qanday o'zlashtirayotgani va ularni hayotida qanday qo'llay olishlari muhim. Ushbu maqolada o'qitishning yangicha yondashuvlaridan biri "jarayonga asoslangan o'qitish" (Process-based learning) ning mohiyati, unga doir olib borilgan tadqiqotlar tavsifi tahlil qilingan. Shuningdek, uning o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishdagi modeli ishlab chiqilgan, samaradorligi, ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Jarayonda o'rganish, faoliyatli yondashuv, kognitiv strategiya, umumiylik, xususiylik, metakognitivlik.

### ADVANTAGES OF PROCESS-BASED LEARNING IN CONTINUOUS PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF TEACHERS

Annotation

In modern education, the responsibility for learning is shifting from the teacher to the learner, which means that in today's teaching effectiveness, how the learner absorbs the information and how they can apply it in their life is important. This article analyzes the nature of one of the new approaches to teaching and also the description of the research conducted on "Process-based learning". In addition to this, its model of continuous professional development of teachers was developed, its effectiveness and importance were highlighted.

**Key words:** Learning in the process, active approach, cognitive strategy, generality, specificity, metacognition.

### ПРЕИМУЩЕСТВА ПРОЦЕССНОГО ОБУЧЕНИЯ (PROCESS-BASED LEARNING) В НЕПРЕРЫВНОМ ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация

В современном образовании ответственность за обучение переходит от учителя к учащемуся, а это означает, что в сегодняшней эффективности обучения важно то, как учащийся усваивает информацию и как он может применять ее в своей жизни. В данной статье анализируется сущность одного из новых подходов к обучению «Процессное обучение», а также описание проведенных по нему исследований. Также была разработана ее модель непрерывного профессионального развития педагогов, отмечена ее эффективность и значимость.

**Ключевые слова:** Обучение в процессе, активный подход, когнитивная стратегия, общность, специфика, метакогнитивность.

**Kirish.** Bugungi kun o'quvchisidan nafaqat raqamli jarayonlarni mohirlik bilan boshqarish, balki u bilan ishlash, uni yanada takomillashtirish darajasidagi yangi g'oyalar egasi bo'lib yetishish talab etiladi, chunki zamonaviy dunyoda ayrim bilimlar emas, nazariyalarni amaliyotga tatbiq qiladigan yangi hayotiy bilimlar va ularning sifatigina o'z o'rnini topa oladi. O'quvchilarning bunday talab darajasida shakllanishida maktab ta'limi muhim poydevor vazifasini o'taydi. Bunday vaziyatda o'qituvchi ijodkor va mustaqil shaxsni tarbiyalash metodikasini chuqur o'zlashtirgan hamda o'z konsepsiyasini loyihalashda bilimlarni uzatish emas, uni yaratish modelidan ilhom olgan, faoliyatida doim amalga oshirgan bo'lishi zarur. Bilimlarni uzatish jarayoni kishida faol o'qishga asoslangandek tasavvur uyg'otadi, sababi u fundamental bilimlar, jumladan, ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi, asosiy tushuncha va g'oyalarni egallash ustun bo'ladi, lekin internet resurslar, kontekstlar bilan to'lgan, axborotlashgan bir davrda faqat mazmun uzatish – bu o'qitish hamda o'rgatishga bir tomonlama yondashish bo'lib ta'lim samaradorligini pasaytiradi.

Hozirda o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish uchun ko'plab usullardan foydalanish mumkin, biroq global o'zgarishlar sharoitida ayrim o'qitish yondashuvlari kasbiy rivojlantirish muammosini hal qilishda boshqalariga nisbatan samaraliroq bo'la oladi. Bunda muammoni hal qilish rejalari o'quv jarayoniga asoslangan bo'lib, u kontent yoki o'quv dasturlari sohalorida qo'llaniladigan metakognitiv strategiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv shaxsning shug'ullanayotgan har qanday faoliyatida o'zi uchun mustaqil ta'limni tashkil eta olishi, o'quv jarayonida esa o'z-o'zini nazorat qila olishi bilan ahamiyatlidir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish (O'UKR) dagi eng muhim jihat o'z ta'limini rejalashtira olish, o'quv maqsadlariga erishish, malaka oshirish ta'limini individuallashtirish uchun ularda kognitiv jarayonlarni faollashtirish orqali pedagogik faoliyatini samarali olib borish, subyektivligini anglash, o'z vazifasini tushunishga urg'u berishdir. Shuningdek, rejalashtirish jarayonida yuz beradigan muammoli vaziyatlarga yechim topish natijasida yangidan yangi xulosalar chiqarish muhim. Demak, aytmoqchi bo'layotganimiz, ta'lim

jarayoni to'la maqsadga aylanadigan yaxlit yondashuv – bu jarayonga asoslangan o'qitish(Process-based learning)dir.

Avvalo, jarayon nima hamda jarayongan asoslangan o'qitish (JAO) tadqiqi mohiyatiga to'xtalsak, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "jarayon – ish-harakat, voqyea-hodisaning birin-ketin borishi, rivoji, oqimi" [1] kabi ma'nolarni ifodalashi izohlangan. Uning ilmiy-metodik nuqtayi nazaridan milliy pedagogikadagi o'rganilishi tahlil qilinganda, bunday o'qitish yondashuvi yoki texnologiyaga duch kelinmadi.

#### 1-jadval.

#### Jarayonga asoslangan o'qitish tushunchasining mazmun-tahlili


Manba	Mualliflar talqini
Simon, H. (1997). Administrative Behavior: A Study of Decision-Making Processes in Administrative Organizations, 4th Ed [6].	Jarayon konsepsiyasidagi o'qituvchining asosiy vazifalari o'quvchilarning o'qish va o'rganish davomida foydalanadigan fikrlash faoliyatini boshlash va qo'llab-quvvatlashdir.
New Learning. Chapter: 11. Jan Vermunt, LievenVerschaffel. DOI:10.1007/0-306-47614-2_11. Publisher: Kluwer Academic Publishers, 2000. – P. 209-225 [5].	Talabalarining ta'lim jarayonlari va o'z-o'zini tartibga solish hamda o'rganishning tashqi holati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik bo'yicha tadqiqot va nazariyalarga asoslangan bo'lib, bir tomondan o'rganish va fikrlash strategiyalarini, ikkinchi tomondan sohaga oid bilimlarni integratsiyalashgan holda o'qitishni ifodalaydi.
Kelly Rose Hostetler. Process Based Learning in Planning Studio Pedagogy: A Theoretical Model for Planning Education. University of Washington, 2014 [4].	Jarayonga asoslangan o'rganish o'ziga xos bo'lgan o'quv sayohati jarayonini o'z ichiga oladi. Bu PBLning o'rganishni rejalashtirish jarayoni sifatida namoyon bo'lib, talabalar kashfiyot jarayonida tabiiy ravishda xatoliklarga yo'l qo'yishadi, metakognitivlik esa navbatdagi qadamdan oldin xatoliklarni o'ylashga yordam beradi, noto'g'ri qadamni to'g'rilash yoki keyingisini rejalashtirish uchun fanlararo hamkorlik yuzaga chiqadi va eng muhimi bu elementlarning barchasi bir yaxlitlikda tushuniladi va muhimlik darajasi ham tengdir.
Beau Kenyon. The value of process-based learning. Mar 17, 2020/ Resources, Tips  , <a href="https://solbelearning.com/the-value-of-process-based-learning/">https://solbelearning.com/the-value-of-process-based-learning/</a> .	Bolaning kognitiv rivojlanishiga tubdan ta'sir qiladigan o'rganish amaliyoti bo'lib, o'qituvchilardan o'quvchilar uchun ko'nikmalar, texnikalar va eng muhimi o'rganayotganlarini anglashlari bilan bog'liq chuqur hamda mazmunli munosabatni tasavvur qilish, kashf etish uchun vaqt va makon yaratishni talab qiladi.
The Hairy Bokie and Other Metacognitive Strategies. Chapter: Process-Based Learning / Jeffrey Baron Levi. First Online: 08 August 2020. <a href="https://link.springer.com/chapter/10">https://link.springer.com/chapter/10</a> [7].	Jarayonga asoslangan ta'lim yoki o'z-o'zini tartibga soluvchi ta'lim har qanday muayyan kontent sohasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan sof metakognitiv strategiyadir, ya'ni u qaysidir jarayonda beriladigan ko'rsatmalardan farqli o'laroq, istalgan sohadagi muammoni hal qilish rejasini o'z ichiga oladi.
<a href="https://www.themanthanschool.co.in/blog/concept-based-vs-process-based-learning/">https://www.themanthanschool.co.in/blog/concept-based-vs-process-based-learning/</a> . January 2023. The Manthan School [8]	Bolalarga maktab muhitida haqiqiy, amaliy tajribalarni taqdim qilishga yo'naltirilgan erta bolalik ta'limi uchun samarali yondashuv. Ushbu yondashuv bolalarni atrof-olamni o'rganish uchun kashf qilish va tajriba o'tkazishga undaydi.

Xo'sh, JAO'ni o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish davomida qo'llashning mohiyati, afzalliklari nimadan iborat? Bu yondashuv o'qituvchida qanday tajribani shakllantiradi? Ayni vaqtdagi texnologiya taraqqiyoti davrida ta'limning mazmunga asoslangan o'qitishdan jarayonga asoslangan o'qitishga o'tib borayotgani pedagogik nuqtayi nazardan qabul qilingan yondashuvlarning o'zgarayotganini, kognitiv ta'lim strategiyalarining ommalashayotganini bildiradi. Jarayonga asoslangan o'qitishning tabiati o'quvchilar o'rganishi davomida yuzaga chiqadigan fikrlash faoliyatiga markaziy o'rinning berilganligi bilan qiymatlidir. Fikrlash faoliyatining o'rganish jarayonida kognitivlik (bilish, anglash, tushunish), affektivlik (hissiy ta'sir) va tartibga soluvchi faoliyat (o'z-o'zini tartibga soluvchi, nazorat qiluvchi) kabi turlari ajratiladi. Shuningdek, taklif

qilinayotgan yondashuvdan kelib chiqsak, o'qituvchi mazmun yaratuvchi, uzatuvchi emas, balki "maslahat beruvchi murabbiy, fasilitator", deb atalishi maqsadga muvofiq.

**Tahlil va natijalar.** JAO' pedagog xodimlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishida, bir tomondan, o'rganish va fikrlash strategiyalarini, ikkinchi tomondan, sohaga oid bilimlarni integratsiyalashgan holda o'qitishi bilan ahamiyatlidir. Bu o'qituvchida ma'lum bir kompetentlik, mavzu bo'yicha bilimlarni yaratish, o'zgartirishlar kiritish, o'quv jarayonining ichki va tashqi nazorati uchun farqlovchi o'lchov hamda ulardan foydalanish uchun mos ta'lim va fikrlash faoliyatini qo'llashga qaratilgan o'quv modelidir.

UKRda jarayonga asoslangan o'qitishni quyidagicha modellashtirish mumkin:



## 2-rasm. O'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda jarayonga asoslangan o'qitish modeli.

Yuqorida keltirilgan model tarkibiy jihatdan rejalashtirish, asosiy elementlar, bosqichlar va natijani o'z ichiga oladi.

Ta'lim natijalariga nisbatan tegishli baholashlarni amalga oshirishdan oldin tizimda sodir bo'ladigan eng muhim o'quv jarayonlarini tavsiflash va omillarni belgilash zarur. Jarayonga asoslangan o'qitishda rejalashtirish tabiatan dinamik, innovatsion, xilma-xil amaliy ishlarning yaxlit ifodasidir. Bunday rejalashtirish to'rt bosqichli bo'lib, aniq tajriba, reflektiv kuzatish, mavhum konsepsiya va faol tajribani o'z ichiga oladi. Shuningdek, JAO'da g'oyaviylik, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, onglilik, integrativlik, hamkorlik, kommunikativlik, ijtimoiylashuv muhim ahamiyatga ega

bo'ladi. Misol uchun, o'qituvchini uzluksiz kasbiy rivojlantirishda uning bitta o'z-o'zini rivojlantirish yoki kasbiy o'sish sohasiga tegishli muammo tanlanganda, uning yechimiga borish davomida tayyorlangan reja yoki loyihaviy ish yangi g'oyalarni qabul qilish uchun ochiq va jarayondagi o'zgarishlarga ko'proq moslashuvchan bo'ladi hamda bunday rejalashtirish asosida o'quv dasturlari yaratiladi. Rejalashtirishda JAO'ning asosiy elementlari bo'lgan 1) kashfiyot jarayoni; 2) fanlararo hamkorlik; 3) metakognitivlik asos sifatida xizmat qiladi.

Kashfiyot jarayoni – bu o'z-o'zini rivojlantirayotgan o'qituvchi uchun faoliyatidagi asosiy prinsiplarini tushunish va ularni yangi yechimlar yaratish uchun qo'llash usuli bo'lib,

o'qituvchi faoliyat egasi sifatida mavjud g'oyalar bilan (masalan, texnologiyalar, dars, o'qitish metodlari, o'z ustida ishlash) ramziy ma'noda kurashish yangi haqiqatlarni kashf qilish imkonini beradi. Kashfiyot jarayoni individual yoki jamoaviy ish muhitida ham sodir bo'lishi mumkin hamda mustaqillik, yo'naltirilgan so'rov, murakkablashgan (chuqur) so'rov, sinovlar, xatoliklar, hamkorlik hamda ba'zan umidsizlik natijasi hamdir. Kashfiyot jarayonida o'qituvchining bir muammo ustida olib borayotgan xatti-harakatlari fasilitator tomonidan doimiy boshqarilganda, yo'l-yo'riqlar ko'p bo'lganda ham yoki haddan ortiq erkinlik ham o'ziga xos maqsadlardan og'ish, yakuniy natijaga putur yetkazishga olib keladi. Eng muhim jihat, o'qituvchining qayerda, qanday maqsadni ifodalash uchun qilinayotgan xatti-harakatlarni tushunishdadir.

Fanlararo hamkorlik – kishining fundamental bilimlari o'zaro tashqi ta'sirlar natijasida ijtimoiy-madaniy hayotda o'z o'rniga ega bo'ladi, ya'ni aqliy-axloqiy hayot kechirish, boshqalar bilan samimiy munosabatda bo'lish bir qancha tadqiqotlarda ta'kidlangan [9]. O'qituvchining kasbiy o'sishdagi faoliyatini "ustoz-shogird" an'anasiz, hamkasblar tajribasisiz tasavvur qilish qiyin. Fanlararo hamkorlik maktab muhitidan ancha keng, chunki bugungi global jamiyatda qanday hamkorlik qilishimiz, bizning o'qitishimiz, innovatsiyalar qilishimiz va ularga bog'liqligimiz haqida ma'lumot beradi.

Metakognitiv o'rganish – ichki jarayonning tashqi ko'rinishi, ya'ni o'qituvchilar o'z o'rganishlarini qanday?, nima uchun?, qachon? sodir bo'layotgani haqida fikr yuritganda, ular o'z xulosalaridan keyin ham ko'proq tanqidiy

fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini saqlab qolishlari mumkin. Metakognitivlikda o'qituvchi ko'proq erishgan yutuqlari va kundan kunga amalga oshirayotgan harakatlarini kuzatishda, o'quv jarayonida faol bo'ladi, paydo bo'layotgan vaziyatlarda yechim topuvchi kuch o'zida ekaniga ishonadi. O'quvchilardagi bunday anglanish jarayoni Bruner tomonidan faol o'rganish, deb nomlangan. An'anaviy qarashlarga ko'ra, metakognitivlik individual tarzda namoyon bo'lishi tadqiq qilingan bo'lsa, keyingi yillarda jamoaviy ishda guruhda o'zaro muhokamalarga samimiy kirishish, tanqidiy fikrlash jarayonining muvaffaqiyatli kechishi jamoada metabilish (tanish, anglash) sodir bo'lishining natijasi ekanligi [3] ta'kidlanmoqda. Umuman olganda, jarayonga asoslangan o'qitishda metakognitivlik suhbatlar, jamoaviy o'rganish orqali tashqi ko'rinishda namoyon bo'ladi va bu tanqidiy fikrlash strategiyalarini mustahkamlaydi.

**Xulosa va takliflar.** Demak, O'UKRda jarayonga asoslangan o'qitishni qo'llash shaxsiy, kasbiy o'sishga oid bilimlarni uyg'unlikda o'qitishga qaratilganligi, shuningdek, yangi mazmuni o'rganish bo'yicha tegishli o'z-o'zini boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish, modellashtirish, kognitiv murabbiylik, yo'naltirilgan ta'lim, o'quv jarayonlari ustidan nazoratni tinglovchiga bosqichma-bosqich o'tkazishi bilan muhimdir. O'rganishlar xulosasiga ko'ra, aynan JAO yondashuvi o'qituvchilarning malaka oshirish jarayonlarini tashkil etishda, uzluksiz kasbiy rivojlantirishda muammoga, loyihaga va shaxsga asoslangan o'qitish yondashuvlari bilan strukturada tizimlash mumkin bo'lgan, biri ikkinchisini taqozo etuvchi uzviylik zanjiri hosilasidir.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild / Tahrir hay'ati: Mirzayev T.va b.; O'zR FA Til va adabiyot instituti. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 672-b.
2. Beau Kenyon. The value of process-based learning. Mar 17, 2020/ Resources, Tips |, <https://solbelearning.com/the-value-of-process-based-learning>.
3. Christopher Monson. Practical discourse: Learning and the ethical construction of environmental design practice // Ethics, Place & Environment, Volume 8, 2005 - Issue 2. Article | Published Online: 07 Oct 2010.
4. Kelly Rose Hostetler. Process Based Learning in Planning Studio Pedagogy: A Theoretical Model for Planning Education. University of Washington, 2014.
5. New Learning. Chapter: 11. Jan Vermunt, LievenVerschaffel. DOI:10.1007/0-306-47614-2\_11. Publisher: Kluwer Academic Publishers, 2000. – P. 209-225.
6. Simon H. (1997). Administrative Behavior: A Study of Decision-Making Processes in Administrative Organizations, 4th Ed. The Free Press.
7. The Hairy Bokie and Other Metacognitive Strategies. Chapter: Process-Based Learning / Jeffrey Baron Levi. FirstOnline: 08 August 2020. [https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-030-46618-3\\_2](https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-030-46618-3_2).
8. <https://www.themanthanschool.co.in/blog/concept-based-vs-process-based-learning/>. January 2023. The Manthan School.
9. [https://www.researchgate.net/publication/229572943\\_A\\_Narrative\\_Model\\_of\\_Self-Construction](https://www.researchgate.net/publication/229572943_A_Narrative_Model_of_Self-Construction).



УДК:796.08:316.3(575.1)

**Лилия ХАЛИКОВА,**

*Старший преподаватель Национальный университет Узбекистана*

*E-mail: Khalikoval201@mail.ru*

**Бурнес Любовь АНАТОЛЬЕВНА,**

*Старший преподаватель Национальный университет Узбекистана*

*E-mail: spro88206@gmail.com*

*Написано по изданию профессора К.Б.Мухаммадиева Факультет социальных наук ТДТУ д.п.н*

## **РОЛЬ ФИЗИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ В ВОССТАНОВЛЕНИИ ЗДОРОВЬЯ ЛЮДЕЙ РАЗНОГО ВОЗРАСТА**

Аннотация

В научной статье рассматривается роль физического воспитания для формирования здорового образа жизни людей разного возраста в правильной организации деятельности человека, а также активного движения и другой двигательной деятельности. Человек должен быть физически активным независимо от того, сколько ему лет. Людям не хватает медицинских знаний и навыков по этому поводу. В данной статье на примере студентов определяется уровень двигательной активности организма и даются им рекомендации.

**Ключевые слова:** Физической духовность, закаливания, гиподинамия, активная двигательность

## **TURLI YOSHDAGI INSONLARNING SALOMATLIGINI TIKLASHDA JISMONIY HARAKATLARNING O‘RNI**

Annotatsiya

Pmiy maqolada inson faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishda turli yoshdagi insonlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun jismoniy tarbiyaning roli, shu bilan birga faol harakat va boshqa harakat faoliyatlari ko‘rib chiqilgan. Inson necha yoshda bo‘lishidan qat‘iy nazar jismoniy faollikda bo‘lishi kerak. Bu haqida insonlarda tibbiy bilim va ko‘nikmalar yetishmaydi. Ushbu maqolada talabalar misolida organizmni jismoniy faollik darajasi aniqlanib, ularga tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Jismoniy madaniyat, chiniqish, gipodinamiya, faol harakatchanlik

## **THE ROLE OF PHYSICAL ACTIVITY IN RESTORING THE HEALTH OF PEOPLE OF DIFFERENT AGES**

Annotation

The scientific article discusses the role of physical education for the formation of a healthy lifestyle for people of different ages in the proper organization of human activity, as well as active movement and other motor activities. A person should be physically active no matter how old he is. People lack medical knowledge and skills about this. In this article, on the example of students, the level of motor activity of the body is determined and recommendations are given to them.

**Key words:** Phusikal culture, stagnation, hypodynamics, active mobility

**Введение.** Согласно материалам Всемирной организации здравоохранения по изучению обычной двигательной активности человека, высокий уровень функциональной работоспособности является положительным критерием здоровья, а низкий уровень - фактором риска, особенно сердечно-сосудистых заболеваний. Негативное влияние гипокинезии и гиподинамии на здоровье человека доказано многими исследованиями, нарушающими баланс физического развития за счет сужения возможностей.

Неспецифическая резистентность приводит к снижению уровня функционального состояния организма. Наконец, важным вопросом является вопрос исследования отдельных (индивидуальных) физических нагрузок. Научные эксперименты на животных показывают, что гипокинезия и чрезмерные физические нагрузки приводят к серьезному сокращению жизни. Только их оптимальный уровень остается одним из самых эффективных, естественных, физиологических стимуляторов восстановительных процессов.

Имеются многочисленные прямые доказательства важности физической активности для поддержания здоровья и продления жизни в пожилом возрасте. Например, известно, что ожирение укорачивает жизнь. Физические животные имеют гораздо меньшую массу тела и меньшие запасы жира, поэтому естественно

связывать продолжительный эффект физической активности со снижением ожирения.

Высокая физическая активность человека способна замедлить развитие ряда патологических процессов, в первую очередь заболеваний сердечно-сосудистой системы, и продлить жизнь. Известно, что двигательная активность организма является одним из универсальных механизмов развития многих патологических процессов, приводящих к дефициту кислорода.

Определено, что АТФ, который важен для правильного функционирования организма, приводит к увеличению количества белка и других показателей.

При изучении причин долголетия обращает на себя внимание сочетание двигательной активности с личностными особенностями. При комплексном подходе к изучению феномена долголетия обнаружено значительное влияние психических факторов. Для долгожителей характерны личностно-психологические особенности, собственная оптимистическая окраска в отношении к жизни, гибкость, они легко приспосабливаются к разным жизненным ситуациям, выдерживают стрессы.

Может иметь наследственную природу - многие психически-динамические характеристики передаются по наследству, возможно, таким же образом могут передаваться и психические характеристики. Особое

значение имеет и прочная связь между окружающими людьми[1].

**Актуальность темы.** Физические нагрузки людей в течение дня способствуют повышению настроения, подвижности и работоспособности. В любом возрасте человек всегда должен быть активным. Некоторые люди испытывают пассивность или отсутствие желания двигаться в результате постоянной умственной работы. Поэтому людей всех возрастов следует направлять на выполнение физических упражнений в определенное время суток.

Сегодня, чтобы быть здоровым, необходимо выполнять требования и рекомендации по выполнению оздоровительных упражнений на рабочих местах или в учебных заведениях на основе пропаганды. Например, необходимо донести информацию и понятия о периодическом выполнении оздоровительных упражнений до школьников и студентов, длительное время выполняющих умственную работу. Для сохранения

здоровья рабочих необходимо организовать спортивные площадки на заводах, фабриках и на всех рабочих местах.

В условиях современного образа жизни многие думают, что с помощью сидения можно сохранить силы и здоровье тела, но на самом деле это не так. Потому что естественно чувствовать усталость, нервозность и стресс, когда работаешь сидя. Работа без вставания в течение дня подготавливает почву для нарушения кровообращения и уменьшения кровотока в венах, кроме того, снижается тонус мышц, они становятся слабыми и тонкими.

**Ход исследования.** Укрепляющие упражнения в значительной степени способствуют развитию и здоровью нервной системы, физиологии дыхания, физиологии сердечно-сосудистой системы и опорно-двигательного аппарата. При определении уровня двигательной активности у студентов наблюдались общеразвивающие упражнения. В пятницу недели мы наблюдали студентов I очереди биологического факультета в I паре. Их обследовали до и после тренировки. Мы получили следующие результаты:

1-таблица

№	Ф.И.О.	пульс	перед	пульс	после	пульс через 10 минут
		тренировкой		тренировки		
1	Бахтиёрова Э.	78		87		80
2	Ёкубова Д.	86		97		89
3	Кудратова Н.	79		88		80
4	Тошмухамедова М.	76		85		78
5	Тулабоева Ш.	87		95		89
6	Тошкенбоева Ш.	90		98		92
7	Турсунжанова З.	84		90		84
8	Пулатхўжаева Г.	88		96		89
9	Хайдарова С.	85		98		86
0.	Файзуллаева Н.	88		94		89

Понедельник недели, географический факультет, кафедра кадастра

При наблюдении за студентами 1-й ступени мы увидели следующие результаты:

2-таблица

№	Ф.И.О.	пульс	перед	пульс	после	пульс через 10 минут
		тренировкой		тренировки		
1	Акбарова О.	90		102		97
2	Аблакулова М.	88		98		96
3	Анаркулова Р.	86		97		93
4	Каримова Ш.	78		107		100
5	Нуриддинова С.	79		110		102
6	Мирзакулова Д.	78		109		98
7	Мирзатиллаева Н.	80		87		88
8	Тохинова А.	81		98		98
9	Орифжанова С.	98		121		110
0.	Эгембергенова Н.	71		97		96

По приведенным выше показателям мы пришли к следующему выводу.

**Результаты исследования.** В учебных процессах, предоставляемых студентам биологического факультета, медицинские знания осуществляются в большей степени на основе наук. Они приобретают и реализуют информацию для поддержания и укрепления здоровья организма.

На факультетах, не основанных на естественных науках, медицинские знания студентов ограничиваются знаниями, полученными по предметам (анатомия, физиология, гигиена) школьных программ. Поэтому при ведении науки о физическом воспитании необходимо

разъяснять полезные стороны активного движения для организма человека в школах, лицеях, колледжах и высших учебных заведениях. То, что студенты кадастрового курса не возвращали тело в исходное состояние даже после физического движения, является следствием их медлительности активного движения.(1-2 таблица)

Проблемы физической культуры и спорта сегодня заключаются в том, что некоторые люди не могут понять, как развивать активность организма и сохранять здоровье. Если люди знают о влиянии физических упражнений на организм, у них будут медицинские знания и навыки. Проснувшись утром, обязательно стоит

занияться легкой гимнастикой. Утренняя физкультура проводится в течение 7 минут и выполняется с контролем движения каждого органа. Необходимо взять за привычку бегать каждый день во второй половине дня[5].

Ниже я хотел бы упомянуть некоторые упражнения для активизации тела, достижения здоровья и всегда быть физически здоровым:

- руки кладут на талию, ноги разводят на ширине плеч, а голову медленно поворачивают во все четыре стороны, затем поворачивают попеременно в обе стороны. Это упражнение в основном обеспечивает направление крови в сосудах к голове и препятствует возникновению гипоксии.

- движение рук вперед-назад, приведение их назад и касание друг друга, поднятие вверх и вращение вокруг головы, упражнения двигают плечевой сустав и предотвращают слипание лопаток, оказывают положительное влияние на легкие и сердце.

- при выполнении упражнений, связанных с поясничной областью, на основе таких упражнений, как наклоны на четвереньках, вращение ягодицами, перемещение органов в брюшной полости, положительно влияет на работу кишечника и здоровье гениталии.

- выполнение физических упражнений, специфичных для ног, повышает подвижность суставов, препятствует накоплению солей в суставах, обеспечивает легкое движение костей.

- необходимо каждый день тренировать глаза, то есть рекомендуется выполнять такие упражнения, как вращение глазами, взгляд в четыре стороны, плотное закрытие и открытие, взгляд вдаль в течение определенного времени.

За последние 100 лет активная деятельность человека сократилась на 90 процентов. Этому можно привести несколько причин, т. е. развитие техники, приспособление заводов и фабрик к технике, много умственного труда, меньшая потребность в физическом труде и т. д. Малоактивность снижает функциональные резервы организма, замедляет деятельность двигательной системы, нарушает обмен веществ, ослабляет деятельность нервной системы, вызывает у людей депрессию.

Нам давно известно, что в некоторых странах для оздоровления населения необходимо не только наличие физического труда, но и организация спортивных площадок, привлечение людей к спортивным играм. В результате отсутствия активного движения у людей увеличиваются различные заболевания. Оздоровительные упражнения приводят к растворению солей, которые могут накапливаться в организме, препятствуют накоплению холестерина в сосудах, повышают подвижность опорно-двигательного аппарата, предотвращают различные заболевания дыхательных путей, нормализуют работу сердца.

В различных сообщениях в газетах и журналах некоторые люди писали свое мнение о том, как они смогли улучшить свое здоровье, занимаясь физическими упражнениями на протяжении всей своей жизни.

В номере газеты «Шифо инфо» от 26 июня 2014 года в теме «Хочешь ли ты жить долго» Михаил Котляров написал о том, как человек по имени Михаил Котляров изменил свой образ жизни после излечения от туберкулеза в возрасте 63 и услышав слова врачей о том, что «в лечении больше нет необходимости».

С этого дня этот человек взял за привычку бегать, и в возрасте 69 лет врачи, которые относились к нему так, как если бы они смотрели на труп 6 лет назад, были удивлены, увидев Михаила Котлярова. В 77 лет по результатам обследования врачи констатировали, что

состояние его здоровья сравнимо со здоровьем сорокалетних мужчин. Из этого можно сделать вывод, что тело можно тренировать в разном возрасте, если есть желание[3].

Сегодня теоретические основы гипокинезии и гиподинамии, активной моторики и рефлексов глубоко освещены в мировой литературе. Известно, что двигательная активность считается основным источником всей проприоцептивной афферентности, имеющей широкую зону влияния в вегетативном поле по типу висцерально-двигательных рефлексов. Дефицит импульсов от какой-либо афферентной системы (экстроцептивной и проприоцептивной) приводит к резкому снижению всей жизнедеятельности организма человека или животного, что может характеризоваться состоянием патологического ослабления и оцениваться как фактор стресса.

При этом «вегетативный стиль» и отсутствие эмоций не считаются постоянным состоянием организма. Нервная трофика имеет место там, где сохранен тонус вегетативной нервной системы. Именно активный способ действия и положительные эмоции являются источником энергии для самозащиты на всех этапах жизни организма - от поведения до клеточного уровня, как в норме, так и при патологии.

В современной целостной оценке здоровья человека большое значение имеют уровень физического развития и гармонии. Следует отметить, что понятие «физическое развитие» в современной литературе не определено. В современной антропологии и теории физического воспитания деятельность «физического развития» человека считается центральной, и она имеет различный организм, поскольку эти органы изучают комплексы различных физических характеристик и качеств человеческого организма. До сих пор занимается исследованием физических свойств и наборов качеств. В то же время единого мнения о взаимосвязи физического развития и здоровья нет. Например, предпринимаются попытки отождествить понятия «физическое развитие» и «здоровье», поскольку часто встречается сочетание низкого уровня физического развития и хронических заболеваний, особенно у детей. Давно известно, что слабые и немощные дети подвержены инфекционным заболеваниям, в том числе туберкулезу. Данные о сочетании избыточной массы тела и ожирения с заболеваниями сердечно-сосудистой системы, в том числе с ишемией, являются еще одним подтверждением этой закономерности. В то же время объективных данных, определяющих взаимосвязь уровня физического развития и здоровья у взрослых, по мнению ученых, нагрузки, физического развития на здоровье и наоборот, влияние здоровья на физическое развитие, по мнению ученых, не установлено. Авторам, они развиваются параллельно. Мы поддерживаем это мнение, и в связи с тем, как поставлена проблема, до сегодняшнего дня при теоретическом решении проблем здоровья населения, в том числе физическому развитию человека при диспансеризации, уделяется недостаточное внимание[2].

**Краткое содержание.** Применение понятия «физическое состояние» для получения единой комплексной оценки состояния здоровья и серьезности развития человека, а также стимуляция взаимосвязи между физическим развитием и здоровьем является важной практической задачей, требующей комплексного обследования не только больных, но и здоровые люди. Наша точка зрения по данному вопросу заключается в том, что показанное выше физическое развитие является одним из его показателей при оценке общего состояния здоровья человека.

Отношение к физическому развитию, являющемуся одним из показателей здоровья человека, повышает его научное и практическое значение и ставит задачу изучения его зависимости от уровня и гармоничности развития в число вопросов первого уровня.

**Вопросы для подкрепления:**

1. Положительное влияние активного движения на здоровье человека?
2. К каким заболеваниям приводит малоподвижность?
3. Какова роль активного движения в физическом развитии качеств человека?

**ЛИТЕРАТУРА**

1. Шарипова Д.Д., Содиков К.С., Шахмурова Г.А., Арбузова Т.Л., Маннопова Н.Ш. Основы валеологии. - Т.: 2009. - 124 с.
2. Мирзакулов И.М., Шкондина И.Е. и другие. Валеология. - Т.: 2008.
3. Газета "Шифо Инфо". Ташкент - 26 июня 2014 года.
4. Туркменова М.Ш. Валеология. Ташкент, 2018. 160 р.
5. **Интернет-источники:**
6. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)



UDK:378.12

*Moxigul XALIMOVA,*  
*Qo'qon Davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi*  
*E-mail: metida@list.ru*

*Toshkent IPni pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti, p.f.f.d., M.M.Isabayeva taqrizi asosida*

## THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE PREPARATION OF FUTURE TEACHERS OF BIOLOGY

Annotation

Information and educational resources are of great importance in preparing students for professional activities. Today, an urgent task is to determine and put into practice ways to use information technology in the process of education and upbringing in the field of teaching biological sciences. Since biology is one of the natural sciences, great progress can be made in this science using information and educational resources. Therefore, the main task of all teachers is to provide all areas and stages of the educational sphere with information media and educational resources.

**Key words:** Modern didactics, method, creativity, information resources, ability, creativity, educational concept, integrative knowledge, innovative educational technologies.

## РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ БИОЛОГИИ

Аннотация

Информационно-образовательные ресурсы имеют важное значение в подготовке студентов к профессиональной деятельности. На сегодняшний день актуальной задачей является определение и реализация на практике способов использования информационных технологий в процессе обучения и воспитания в области преподавания биологических наук. Поскольку биология является одной из естественных наук, в этой науке можно добиться больших успехов, используя информационные и образовательные ресурсы. Поэтому главной задачей всех педагогов является обеспечение всех направлений и этапов образовательной сферы средствами информации и образовательными ресурсами.

**Ключевые слова:** Современная дидактика, метод, креативность, информационные ресурсы, способность, креативность, образовательная концепция, интегративное знание, инновационные образовательные технологии.

## BO'LAJAK BIOLOGIYA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Annotatsiya

Axborot-ta'limiy resurs vositalari talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Biologiya fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan ta'lim va tarbiya jarayonida foydalanish yo'llarini belgilash va amaliyotga joriy etish bugungi kunda dolzarb vazifadir. Biologiya fani tabiiy fanlar qatoriga kirganligi sababli, ushbu fanda ham axborot-ta'limiy resurs vositalaridan foydalanish orqali katta yutuqlarga erishish mumkin. Shu bois ta'lim sohasining barcha yo'nalish va bosqichlarini axborot-ta'limiy resurslari vositasi bilan ta'minlanish barcha pedagoglarning ustuvor vazifadir.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy didaktika, uslub, kreativlik, axborot-resurslar, layoqat, ijodkorlik, ta'lim konsepsiyasi, integrativ bilimlar, innovasion ta'lim texnologiyalari.

**Kirish.** Hozirgi vaqtda ta'limning barcha sohalariga axborot texnologiyalarini kirib kelishi ta'limni, shu jumladan, biologiya ta'limini axborotlashtirish o'quv jarayoni va ta'lim tizimini modernizatsiyalash sharoitida ta'limning maqsad va vazifalarini amalga oshirishning yangi yo'llari va shakllarida doimiy izlanishni taqozo etamoqda. Zamonaviy didaktika, metodika va maktab amaliyotida, bir tomondan, ko'p yillik pedagogik tajriba bilan sinovdan o'tgan an'anaviy ta'lim texnologiyasi tursa, ikkinchi tomondan yangi kompyuterlashtirilgan axborot texnologiyasi o'rin olmoqda. Ta'lim sohasining barcha yo'nalish va bosqichlarini axborot-ta'limiy resurslari vositasi bilan ta'minlanish barcha pedagoglarning ustuvor vazifadir. Jahonda ta'lim tizimini texnologiyalashtirish nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish, talabalar faoliyatini takomillashtirishda axborot-ta'limiy resurslari vositasidan foydalanishning mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarini tadqiq ta'lim tizimida dolzarbliki talab etmoqda. Shu bois biologiya yo'nalishi talabalarni axborot-ta'limiy resurslari vositasidan foydalanishning ochiq ta'lim tizimini qurishning axborot-metodik ta'minotni yaratish, malakali, zamonaviy mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib

borilmoqdamiz. Tadqiqotda muammoga doir siyosiy, sohaga doir ilmiy, ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish; DTS, o'quv dasturi, darslik va OTM hujjatlarini o'rganish; sosiologik-pedagogik (kuzatish, suhbat, so'rovnomma, test); loyihalash, modellashtirish, pedagogik tajriba - sinov; monitoring; natijalarni matematik - statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

### Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Respublikamizda "2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi" Davlat dasturining mazmunida ta'lim tizimini jahon andozalari darajasiga ko'tarish bo'yicha, jumladan, bu sohada innovatsiyalarni qo'llab - quvvatlash, informasion texnologiyalar va axborot - ta'limiy resurslari vositasini tezkorlikda joriy etish bo'yicha bir qator qarorlar qabul qilinish, Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: - Bu borada zamonaviy kompyuter texnologiyalari va axborot-ta'limiy resurslari vositasining internet tizimi bizdan ancha ildamlab ketganini ham inobatga olish zarur [1]. Pedagog kadrlar kasbiy faoliyatining o'ziga xosliklari quyidagi motivatsion, muammoli hissiy, informatsion, o'z-o'ziga ishonch, kommunikativ, altruistik, tahliliy, konstruktiv; innovatsion tarkibiy qismlarini A.R.

Aripdjanova [2], pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslarini U.SH.Begimqulov kabi olimlarni ilmiy tadqiqot ishlari mazmunida yoritib o'tilgan [3]. Ta'lim tizimiga axborot - resurs vositalarni qo'llash talabalarini o'quv manbalari bilan ta'minlash, ularda ma'lumotlar bazasini kengaytirishra asoslangan elektron resurslar bilan ishlash orqali ularda ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga oid tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ta'limga axborot-resurs vositasini qo'llash, ta'lim muassalarini o'qitishning zamonaviy texnik vositalari – mediateka, yuqori texnologik o'quv jihozlari, savodli darsliklar va interfaol o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash uni modernizatsiyalash shartlaridan biri hisoblanadi [4]. Axborot texnologiyalari (AT) inson va jamiyatning intellektual, boshqaruvchilik va ishlab chiqarish faoliyatining ko'pchilik turlarining ajralmas qismidir. Zamonaviy sharoitda axborot texnologiyalarining rivojlanishi hisoblash texnikasi va u bilan bog'liq axborot jarayonlarini avtomatlashtirishning metodlari va vositalaridan foydalanishga asoslangan[5]. Ta'lim-tarbiya jarayoni maqsadi muammolarni uddaburonlik bilan echish, o'qitish va tarbiyaviy ishga noodatiy yondashuvlarni talab qiladi. O'qituvchining pedagogik salohiyatning tashkiliy aspektida pedagog kadrlar kasbiy faoliyatining o'ziga xosliklari quyidagi motivasion, muammoli hissiy, informasion, o'z-o'ziga ishonch, kommunikativ, al'truistik, tahliliy, konstruktiv; innovasion tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatishga imkon berdi[6].

Tahlillar ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassalarida axborot-ta'limiy resurslar vositasida o'qitish tizimini takomillashtirish muammosi bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib mazkur tadqiqot ishlari biologiya o'qituvchilarining kreativ faoliyatini axborot-ta'limiy resurslar vositasidan foydalanish asosida rivojlantirishning ilmiy metodik imkoniyatlarini kengaytirish muammolari tadqiq etishga metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Hozirgi zamon mutaxassislar faoliyat doirasi qanday bo'lishidan qat'i nazar, axborot texnologiyalari to'g'risidagi keng ko'lamdagi bilim va ko'nikmalar hamda ulardan foydalanish borasidagi malakalarga ega bo'lishi davr talabidir. Jamiyatning tobora informatizatsiyalashib borishi uzluksiz ta'lim tizimida ham axborot kommunikatsiya texnologiyalardan unumli foydalanish zaruratini keltirib chiqarmoqda. O'quv jarayoniga AKT joriy etilishi bilan o'qituvchiga ham, talabalariga ham yangi talab va kompetensiyalar paydo bo'ldi. Agar ilgari an'anaviy ta'lim tizimida o'qituvchining vazifasi boshqaruvchi va tuzatuvchiga aylangan bo'lsa, endi shaxsiy kompyuterda ishlash bo'yicha maxsus bilim va ko'nikmalar zarur bo'lib qoldi, buning asosiy ehtiyoji o'z navbatida, o'qituvchining o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini yo'naltirish zaruratida namoyon bo'ldi[7].

Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning tarkibiy va funksional mazmuni ham ularning kreativ faoliyatini takomillashtirishga bog'liq bo'lib, bu jarayonda inovasion yondashuvni talab etiladi. Jumladan, bo'lajak biologiya o'qituvchisini kasbiy faoliyatni takomillashtirishga asos bo'luvchi axborot-resurs vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini takomillashtirish kabi vazifalarni yechimini topish muhim ahamiyat kasb etadi.

Biologiya tirik organizmlarning atrof-muhit bilan o'zaro aloqalarini o'rganuvchi ilmiy-tadqiqot fani hisoblanadi.

Bir qancha tasvirlariga ega darslik yordamida o'rganishda barcha tirik (viruslar, mikroorganizmlar, zamburug'lar, o'simlik, hayvon, odam) kabi organizmlarni va ularning funksiyalarini tushunish qiyin. Biologiya darsliklarida tasvir va diagrammalar ko'p. Lekin o'tiladigan dars shu tasvir va diagrammalar, har bir organizm faoliyati aks ettirilgan virtual taqdimotlar bilan olib borilsa o'quvchilarni tushinishi yanada osonlashadi. Bunday taqdimotlarni o'quvchilar uzoq vaqt esda saqlaydi.

Biologiya darslarini o'qitishda elektron darsliklar va multimediyalardan foydalanishning ilmiy ahamiyatidan tashqari, yana bir qancha foydali tomonlari ham bor bo'lib, katta ekranda namoyish qilish orqali ham darsning ko'zda tutilgan maqsadlariga erishish mumkin. Dars mavzusi qanday bo'lishiga qaramasdan, bo'lajak biologiya o'qituvchisi dars uchun kerakli lavhalarini o'z o'rnida qo'llay olish uchun o'qituvchidan texnik vositalarni boshqarishga zamonaviy bilim va mahorat talab qilinadi. Darsning asosiy qismida esa oldindan filmlardan lavhalar, multimediyalar, hayotiy rasmlar slaydlar tayyorlab qo'yilgan bo'lishi kerak. Mustahkamlash bosqichida esa mavzuda qo'llanilgan tayanch so'zlar, atamalar, savollar ekranda namoyish etilib, takrorlanadi. Mustahkamlashda yana yangi mavzuga oid ilmiy filmlar, videoroliklar namoyish qililish ham o'quvchilar bilimini mustahkamlaydi. Darsning uyga vazifa qismida keyingi mavzu e'lon qilinib, imkoniyat darajasida mavzuni ochishga yordam beradigan filmlar, videoroliklar, yurtimiz va chet ellarda olib borilayotgan biologiyaga xos ilmiy yankiliklar topib kelish topshiriladi.

**Xulosa va takliflar.** Biologiya darslarida ilmiy, o'quv filmlari, videoroliklar, mul'timedialardan foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Bu ta'limiy filmlar yordamida ta'lim jarayonini rejalashtirishda berilayotgan ma'lumotlarning aniqligi, ilmiyligi va mavzuga mosligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Ular asosida darslarni disklar, televideniya, internetdan olingan video matetiallardan foydalangan holda tashkil etish mumkin. Film va videolavhalarini internetdan qidirib topish va ko'chirib olish, masalan kompyuterda Internet Explorer web brauzerini ishga tushirib, adreslar qatoriga videomateriallar sayti hisoblangan [www.youtube.com](http://www.youtube.com) manzili kiritiladi. Youtube. com sayti ochilgandan so'ng qidiruv oynasiga kerakli so'z yoki videololik mavzusi kiritiladi, so'ngra qidiruv tugmasi bosiladi. Video materiallar ro'yxatidan kerakli video materialni tanlab olib ko'chirib olishi mumkin. Bu ta'limiy video materiallar butun dars davomida o'quvchilarni ham nazariy, ham amaliy olgan bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini rivojlantirishda bo'lajak biologiya o'qituvchilarining faoliyati ularning pedagogik jarayonlar va ularni tashkil etish, boshqarish yo'nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko'nikma va malakalari darajasiga, hamda ularning shaxsiy xususiyatlari, qobiliyati, mahorati va kasbiy kreativ faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, bo'lajak biologiya o'qituvchisining kreativ faoliyati axborot-ta'limiy resurslari vositalarida takomillashtirishning metodik tizimi, hamda metodik tavsiyalardan amaliyotda joriy etilganligi jamiyatimiz uchun biologiyani o'qitish sohasida malakali pedagog kadrlarni tayyorlashga o'z hissasini qo'shishdan iborat.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik–har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: «O'zbekiston», 2017. – 104-b.

2. Aripdjanova A.R. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish. 13.00.01 – pedagogika nazariyasi va tarixi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. T.-28-6.
3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. / Monografiya. –T.: Fan, 2007. – 144.
4. Ergasheva G.S. Konseptualnye osnovy ispol'zovaniya interaktivnykh programmnykh sredstv pri obuchenii biologii// Nauka 21 veka: voprosy, gipotezy, otvety. Nauchnyy jurnal. – № 2 (17), 2016. – S. 68–71.
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovasion texnologiyalar (amaliy tavsiyalar). –T.: Iste'dod, 2008. – 180-b.
6. Aripdjanova Alfiya Ravilevna. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish. 13.00.01 – pedagogika nazariyasi va tarixi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. T.-28-b.
7. Pryaxina E.N. Axborot texnologiyalarining imkoniyatlari asosida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va takomillashtirish : autoref . diss ... cand. ped . Fanlar: 13.00.01 / Pryaxina elena Nikolaevna. - Tyumen, 2006. - 28 p.
8. Robbimatova Farida – p.f.f.d. (phD)/Djamolova Visola -2 kurs magistr. Jo'raeva Lola – 2k magistr “ Journal of Natural Science” №42021 y. <http://natscience.jspi.uz> Biologiya o'qituvchilarida botanikaning o'qitilishida estetik kompetentlikning rivojlantirishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish.



UDK:796.02.37.

*Shaxboz XOLMIRZAYEV,*  
*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: shahbazsuzish@gmail.com*

*P.f.b.f.d(PhD), dotsent X.Matnazarov taqrizi asosida*

## YUQORI MALAKALI AKADEMIK ESHKAK ESHUVCHILARNING MASHG'ULOT VOSITA VA YUKLAMALARI HAJMINI TAKOMILLASHTIRISH

Аннотация

Maqolada yuqori malakali akademik eshkak eshuvchilar trenirovka yuklamalarini musobaqa oldi mikrotsikllarida rejalashtirish va ularni sportchilar individual xususiyatlariga asosanoptimallashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Yuqori malakali sportchilar tayyorgarligidagi o'zgarishlar qiyosiy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Yuqori malakali akademik eshkak eshuvchilar, yuklama, vosita, uslub, yuklamalarni rejalashtirish, yuklama hajmi, yuklama shiddati.

## УВЕЛИЧЕНИЕ ОБЪЕМА ТРЕНИРОВОЧНЫХ СРЕДСТВ И НАГРУЗОК ДЛЯ ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННЫХ АКАДЕМИЧЕСКИХ ГРЕБЦОВ

Аннотация

В статье представлены результаты исследований по планированию тренировочных нагрузок в предсоревновательных микроциклах и их оптимизация с учётом индивидуальных особенностей гребцов академистов высокой квалификации. Проанализированы сравнительные изменения в подготовке высококвалифицированных спортсменов.

**Ключевые слова:** Гребцы-академисты высокой квалификации, нагрузка, средства, методы, планирование нагрузок, объём нагрузки, интенсивность нагрузки.

## INCREASING THE VOLUME OF TRAINING FACILITIES AND LOADS FOR HIGHLY QUALIFIED ACADEMIC ROWERS

Annatation

The article presents the results of studies on the planning of training loads for highly qualified academic rowers in pre-competitive microcycles and their optimization, taking into account the individual characteristics of athletes. The changes in the training of highly qualified athletes are comparatively analyzed.

**Key words:** Academic rowers of high qualification, load, means, methods, load planning, load volume, load intensity.

**Kirish.** Yuqori malakali akademik eshkak eshuvchilarning muvaffaqiyatli chiqishlari ko'p yillik tayyorgarlikning maqsadli strategiyasi, trenirovkaning samarali vosita va uslublarini qo'llash, har xil yo'nalishdagi trenirovka yuklamalarini ratsional tuzilishi va shu kabi omillarga bog'liq.

Akademik eshkak eshuvchilarni tayyorlashning hozirgi kundagi darajasi juda yuqori. Shu sababli yuqori malakali akademik eshkak eshuvchilar tayyorgarligi o'quv-trenirovka jarayonini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liq[1].

Trenirovka yuklamalari va har xil shiddatdagi mashqlarning makrotsikl, mezotsikl, mikrotsikl hamda alohida mashg'ulotlardagi ratsional nisbatlari muammolaridoinimiy ravishda mutaxassislar diqqat markazida bo'lib kelmoqda va yuqori malakali akademik eshkak eshuvchilar tayyorgarlik jarayonini tashkil qilish hozirgi kungacha yetarlicha ilmiy asoslanmagan.

**Tadqiqotning maqsadi** – yuqori malakali akademik eshkak eshuvchilar trenirovka jarayonini boshqarish tizimini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqot uslublari** – ilmiy-uslubiy adabiyotlar materiallarni umumlashtirish va tahlil qilish; shug'ullanuvchilar jismoniy holati va tayyorgarlik darajasini tashhis qilish uslubi; pedagogik kuzatuv; pedagogik tadqiqot; matematik-statistik uslub.

**Tadqiqotlarni tashkil qilish.** Tadqiqotlar Suv sporti turlari bo'yicha oliy sport mahorati maktabiga qarashli

Tuyabo'g'iz posyolkasida joylashgan eshkak eshish bazasida olib borildi. Dastlab yuqori malakali akademik eshkak eshuvchilar tayyorgarligida trenirovka yuklamalari tuzilishi xususiyatlari o'rganildi (16 sportchi). Keyinchalik akademik eshkak eshish bo'yicha O'zbekiston Milliy terma jamoasi a'zolari 2022-yil oktabr-noyabr oylaridabiz tomonimizdan ishlab chiqilgan dastur asosida trenirovka mashg'ulotlarini olib bordi.

**Tadqiqot natijalari.** Hozirgi kunda sport trenirovkasi nazariyasida sport trenirovkasi tuzilishi va sportchilarni musobaqa oldi tayyorgarligini jarayonini boshqarishda bir-biriga qarama-qarshi ikkita yondashuv mavjud.

Birinchi yondashuv yuqori malakali sportchilar tayyorgarlik jarayonini muskul, yurak qon-tomir, endokrin, immun va markaziy nerv tizimlarida amalga oshadigan uzoq muddatli moslashuv jarayonlarni hisobga olgan holda immitatsion modellar asosida rejalashtirishni nazarda tutadi.

Ikkinchisi sportchilar trenirovka faoliyati sharoitida musobaqa davomida uchraydigan murakkab shart-sharoitlarni modellashtiruvchi, trenirovkaning o'ziga xos vosita va uslublarini to'liq qo'llagan holda rejalashtirishni nazarda tutadi.

Bunda sportchilar musobaqa oldi tayyorgarligi makrotsiklini sifatli rejalashtirishda sportchilar maxsus chidamkorlik darajasi dinamikasi muhim mezon hisoblanadi.

Akademik eshkak eshishda dam olish va ish vaqti almashinuvchi interval tipdagi yuklamalarni bajarishga katta ahamiyat beriladi.

Bu tipda uch xil variantdagi dam olish intervali mavjud: bir martalik (odatdagi dam olish, to'liq tiklanish), qattiq (chegaralangan vaqtda, charchash fonida tiklanib ulgurmagani fazada), ekstrimal (yuqori ish qobiliyat fazasi orasida).

Tabiiyki, seriyalar orasidagi aktiv va passiv dam olish davomiyliigi eshkak eshuvchilar individual imkoniyatlari va trenirovka oldida turgan vazifalarning murakkabligiga bog'liq.

Tayyorgarlikning har xil bosqichlarida yuklamalarni hisobga olish va rejalashtirish sportchilar tayyorgarligi vazifalariga mos ravishda yuklamaning har xil usullari qo'llanilishi mumkin[1].

1-jadval. Musobaqa oldi mikrotsiklda mashg'ulot yuklamalarining taqsimlanishi

Mashg'ulot	dushanba	seshanba	chorshanba	payshanba	juma	shanba	yakshanba
1 mashg'ulot	BMTE (12 km)	UJT, yugurish	BMTE (12 km)	UJT, yugurish	Piramida-simon	Nazorat**	Dam olish kuni
2 mashg'ulot	Interval	Zina-simon	Kuch mashg'ulotlari*	Uzoq vaqtli eshkak eshish	400ta eshish to'plami		
3 mashg'ulot	Fartlek	Nazariy mashg'ulot	Qayta tiklashcholarari	Texnik xatolar ustida ishlab eshkak eshish	Fartlek		

Izoh: BMTE- bir myorda texnik eshkak eshish, UJT- umum jismoniy tayyorgarlik, Fartlek- sportchilarning suvni xis qilishiga karab 30tagacha tezlashilgan eshishlar, \*- maksimal quchni rivojlantirish, \*\*- odatda ikki marta maksimal 2000m masofani bosib o'tish ertalabki mashg'ulotlarda kichik toifadagi qayiqlarda va kechqurun – katta toifadagi qayiqlarda.

Ushbu mikrotsiklda sportchilarning musobaqa oldi toliqishini oldini olish va shu bilan birga ularning musobaqa uchun yaqori formasini saqlab qolishga qaratilgan mashg'ulotlar ishlab chiqildi. Xaftasiga texnik elementlar ustida ishlashga qaratilgan mashqlar 3 tadan ko'p bo'lmagan, umum jismoniy tayyorgarlikka qaratilgan mashqlar 3 tadanko'p bo'lmagan, va sportchilarning qayiqdagi bajaradigan shiddatkorligi yuqori lekin davomiligi qisqa bo'lgan mashg'ulotlariga 5 tadan ko'p bo'lmagan, bajarilish davomiligi uzoqroq bulgan mashg'ulotlar mikrotsiklda 2tadan berilgan[4].

2-jadval. Tadqiqot boshida va tadqiqotdan keyin sportchilar ko'rsatkichlari

	Bo'yi	Vazni	MKI	Aerob chidamkorlik				AACH chegarasi		YUQS (maks)
				Ekstensiv		Intensiv		YUQS	Watt	
				YUQS	Watt	YUQS	Watt			
T.O	187,8	87,26	5700	126-138	138-170	138-147	165-210	148-165	215-258	184,8
T.K	187,8	85,84	5840	127-141	141-173	141-153	173-219	153-173	219-264	188,4

Izoh:MKI – maksimal kislorod istemoli, AACH- anaerob almashinuv chegarasi, YUQS- yurak qisqarishlar soni.

Tadqiqotimiz davomida tajribadan oldin sinaluvchilarning MKI testida sportchilarning o'rtacha ko'rsatkichi 5700ml/daqiqasiga teng bo'lgan bo'lsa, tajribadan keyn 5840ml/daqiqasiga tashkil qilgan,aerob chidamkorlik testidagi ekstensiv va intensiv sinovlarda YUQS tajribadan oldin126-138/138-147 ga teng bo'lgan bo'lsa tajribadan keyn mos ravishda127-141/141-153 ga teng bo'ldi, Watt ko'rsatkichlari buyicha tajribadan oldin138-170/165-210, tajribadan keyin141-173/173-219 teng bo'ldi. AACH sinovida tajribadan oldin sportchilarning YUQS ko'rsatkichi 148-165 bo'lgan bo'lsa,tajribadan keyin 153-173 ga teng bo'ldi,Watt ko'rsatkichlari buyicha tajribadan oldin 215-258 ga teng bulgan bo'lsa, tajribadan keyin 219-264 teng bo'ldi. Maksimal YUQS testi buyicha tajribadan oldin sinaluvchilarning YUQS daqiqasiga 184,8 teng bo'lgan bo'lsa, tajribadan keyin daqiqasiga 188,4 teng bo'ldi.

#### Xulosa.

#### ADABIYOTLAR

- Matnazarov X. Y., Ibodullayeva D. X. Akademik eshkak eshish sportida sakkiz kishilik qizlar ekipajida jamoaviy harakat texnikasini muvofiqlashtirish //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 958-963.
- Иссурин В.Б. Блокная периодизация спортивной тренировки : монография : / Иссурин В.Б. – М. : Советский спорт. 2010. – 288 с.
- Платонов В.Н. Периодизация спортивной тренировки / Платонов В.Н. Общая теория и её практическое применение / Платонов В. — К.: Олимп, лит.: в 2 ч. , 2013. Ч 1. —624 с.

- 
4. Мамбетназаров И.М.– Эшкак эшиш эргометрида спорт натижаларини олдиндан белгиловчи омиллар //Фан-спортга, 2021/2. ISSN: 2181-7804 30-34-б.
  5. Гребля академическая: программа для детско-юношеских спорт. шк. и специализир. детско-юношеских шк. олимп. резерва / разраб. : Жуков С.Е., Жукова Т.А., Гайдук О.В. – Минск: БГАФК, 2003. – С.102-106.



*Yashnar XUDAYBERGANOV,*  
*O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi*  
*E-mail: yashnar5@mail.ru*

*O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi dotsenti, ps.f.n. X. Alimov taqrizi asosida*

## RELIGIOUS AND PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF RESEARCH OF PHYSICAL AGGRESSION

Annotation

Today, aggressive behavior has become a global problem. This requires the widespread use of methods for early detection of the roots of aggression and the determinants that eliminate it.

This article describes the psychological and religious value determinants of identifying signs of aggression. The religious criteria for aggressiveness presented in works on the topic of spiritual education and the unique method of approaching them are studied. The difference and connection between the criterion of religious phenomena and scientific psychological criteria is comparatively analyzed.

**Key words:** Physical aggressiveness, determinant, religious value, psychological, spiritual education, active, passive, direct, indirect, anger, envy, arrogance, malice, pride.

## РЕЛИГИОЗНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ АГРЕССИВНОСТИ

Аннотация

Сегодня агрессивное поведение стало глобальной проблемой. Это требует широкого применения методов раннего выявления корней агрессии и устраняющих ее детерминант.

В данной статье описаны психологический метод определения физической агрессии и религиозно-ценностные детерминанты ее устранения. Изучаются религиозные критерии физической агрессивности, представленные в работах на тему духовного воспитания, и уникальный метод подхода к ним. Сравнительно анализируется различие и связь между религиозными и научно-психологическими критериями.

**Ключевые слова:** Физическая агрессивность, детерминанта, религиозное значение, психологическое, духовное воспитание, активное, пассивное, прямое, косвенное, гнев, зависть, высокомерие, злоба, гордыня.

## JISMONIY AGRESSIVLIKNI TADQIQ QILISHNING DINIY-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Annotatsiya

Agressiv xulq-atvorning yosharib borishi bugungi kunda dunyo miqyosidagi dolzarb muammoga aylangan. Bu esa aggressivlikning ildizlarini erta aniqlash uslublari va uni bartaraf etuvchi determinantlarni keng tatbiq etishni talab etadi.

Mazkur maqolada jismoniy aggressivlikni aniqlashning psixologik uslubi va uni bartaraf etishning diniy-qadriyatli determinantlari izohlanadi. Ruhiiy tarbiya mavzusidagi asarlarda keltirilgan jismoniy aggressivlikka oid diniy mezonlar va ularga yondashuvdagi o'ziga hos uslub o'rganiladi. Diniy fenomenlar mezonini bilan ilmiy psixologik mezonlar orasidagi farq va bog'liqlik qiyosiy tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Jismoniy aggressivlik, determinant, diniy qadriyat, psixologik, ruhiy tarbiya, aktiv, passiv, bevosita, bilvosita, g'azab, hasad, kibr, kin, g'urur.

**Kirish.** "Agressiya (lotincha *agredi* – "tashlanmoq" so'zidan) jismoniy yoki psixologik zarar, shikast yetkazish yoki birovni yo'qotishga yo'naltirilgan individual yoki jamoaviy xulq-atvor, harakat"[1] ma'nosini anglatadi. A. Bass aggressivlik ko'rsatkichlarini[2] amalga oshirish shakli, holati va ko'rinishidan kelib chiqib uch mezon asosida toifalaydi:

1. Jismoniy – og'zaki shaklda;
2. Aktiv – passiv holatda;
3. Bevosita – bilvosita ko'rinishda.

Natijada bu uch mezonning o'zaro kombinatsiyasidan A. Bass ta'rifidagi agressiyaning sakkizta alohida toifasi kelib chiqadi. A. Bass va E. Darkining agressiyaning o'lchash testi respondentning aggressivlik darajasini aniqlash imkonini beradi[3]. Aggressivlik ko'rsatkichlari pasayishiga esa diniy-qadriyatli determinantlar ta'sirida ham erishish mumkin. Buning uchun odob-axloq mavzusidagi adabiyotlarga murojaat qilinadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Odob-axloq mavzusi sharq mutafakkirlari tomonidan chuqur va keng

qamrovda o'rganilgan. Odob-axloq mavzusi yoritilgan asarlarni:

- Imom Buxoriyning "Al-adab ul-mufrad", Imom Nasoiyning "Amali yavmi val-layla" asarlari kabi faqat odob-axloq mavzusidagi hadislar to'plangan asarlarga;

- Imom Abu Zayd Dabbusiyning "Al-amad al-aqso" asari kabi odob-axloqqa tegishli amaliy hikmlarga e'tibor qaratilgan asarlarga;

- Abu Nasr Forobiyning "Orou ahli Madinatil fozila", "Al-Odob al-mulukiyya", Ibn Sinoning "Risolutun fil hikmati", "Kitobut-toyr", "Asrorus-solati", "Al-Insof" asarlari kabi odob-axloq tarbiyasiga oid asariga;

- Hakim Termiziyning "Kitobuz-zavqi", "Ar-Riyoza va adabun-nafs", Muborak Marvaziyning "Kitobuz-zuhd", Abu Homid G'azzoliyning "Ihyou ulumiddin", Zahiriddin Muhammad Boburning "Risolai volidiya" asarlari kabi oyat va hadislariga tayanib tasavvuf nuqtai nazaridan, ruhiy tarbiya falsafasi yoritilgan asarlarga;

- hamda Abul Hasanot Haydarobodiyning "Zujajat al-masobih", Zafar Ahmad Usmoniy Tahonaviyning "E'lous-

sunan" asarlari kabi boshqa mavzular qatori odob-axloq mavzusidagi hadislarni ham qamrab olgan asarlarga toifalash mumkin.

Movarounnahrardan Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Abdulxoliq G'ijduvoni, Xoja Ahror Valiy, Xoja Ahmad Yassaviy kabi ko'plab mutasavvufilar nafs tarbiyasi va tahziybul axloqqa oid asarlari bilan dunyo miqyosida shuhrat qozonishgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** A. Bass va E. Darkining agressiyani o'lchash testi respondentning sakkizta alohida toifa bo'yicha jismoniy va og'zaki agressivlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Ushbu test ko'rsatkichlaridan jismoniy agressiyaga oidlarini mazmunan o'rganib chiqamiz.

**Jismoniy agressivlik:** jismoniy, aktiv va bevosita tarzda amalga oshiriladi – sovuq qurol bilan birovga zarba berish, o'q otuvchi quroll bilan urish yoki jarohatlash kabi – bu ko'rsatkich respondentning boshqa shaxsga qarshi jismoniy kuch ishlatishga tayyorligini ko'rsatadi;

**Bilvosita agressivlik:** jismoniy, aktiv va bilvosita tarzda amalga oshiriladi – minalarni joylashtirish, dushmani yo'qotish uchun qotil yollash, o'zi yo'g'ida narsalarini buzish, stulga knopka qo'yish kabi – bu ko'rsatkich respondentning haqiqiy tahdid obyektiga emas, balki unga aloqador vositalarga jismoniy zarar etkazilishini ko'rsatadi;

**G'ijinish** (раздражение): jismoniy, passiv va bevosita tarzda amalga oshiriladi – jismoniy harakat ta'sirida birovni o'z faoliyati bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yimaslik (masalan, o'tirgan holatidagi namoyish) kabi – eng kichik ko'rinishi jahldor, qo'pdol harakatlardir. Ushbu ko'rsatkich respondentning agressivlikka o'tishga tayyor ekanini ko'rsatadi;

**Sarkashlik** (negativizm): jismoniy, passiv va bilvosita tarzda amalga oshiriladi – kerakli vazifalarni bajarishdan bosh tortish (masalan, o'tirgan holatidagi namoyish joyini bo'shatishni rad etish) – "Respondent unga aytilgan yoki so'ralgan narsalarga teskari harakat qilish istagini namoyon etadi. Jumladan, jamiyatga qarshi borishning qonun va urf-odatlariga ochiq itoatsizlik qilish darajasigacha borib yetishi mumkin. Negativizm ekstsentrizmdan farqi: Ekstsentrik faqat ommadan ajralib turishnigina istaydi, negativlar esa me'yor va qoidalarga bo'ysunmay teskari harakat qiladilar"[4].

Mazkur test yordamida agressivlik darajasi aniqlangan[5] respondentning javoblar varag'i keyingi qiyosiy tahlil uchun saqlab qo'yiladi. Diniy-qadriyatli determinantlar vositasida ta'sir o'tkazishdan avval A. Bass va E. Darki testi ko'rsatkichlarining odob-axloq me'zonidagi qaysi atamalarga mosligi o'rganiladi.

**Tahlil va natijalar.** Agressiv atamasi o'zbek tilida "Agressiya siyosatini qo'llovchi, tajovuzkor, bosqinchi."[6] ma'nolarini anglatadi. Ammo, bu so'zlar agressivlik psixologik atamasiga aynan mos kelmaydi. Tarbiyaviy mavzu manbalaridagi "tajovuz qilish" so'z birikmasi esa "yetimning moliga tajovuz qilish" jumlasidagi kabi "tortib olishni qasd qilish", "o'zlashtirib olish" ma'nolarida qo'llanilib, agressivlikning bir ko'rinishi hisoblanadi, ammo uning ma'nosini to'liq ifodalamaydi. "G'azab" so'zi lug'atda norozilik, nafrat, qattiq qahr, adovat, shiddat va quvvat ma'nolarini anglatadi. "Jurjoniy "Ta'rifot" kitobida g'azabni: "U qalbning qoni qaynaganda ko'ksida hosil bo'ladigan baxtsizlikdan shifo topadigan o'zgarishdir", deb ta'riflagan"[7]. Ammo g'azab tushunchasi agressivlikning ma'nosiga aynan to'g'ri kelmaydi. Chunki "Imom Shofe'iy (r.h.): "Jahl qilish joiz bo'lgan joyda g'azablanmaslik hayvonning ishidir", deb marhamat qilganlar"[8]. Demak, ba'zi hollarda g'azabning ham o'rni bo'ladi. Keltirilgan ta'riflardan kelib chiqib agressivlik psixologik termini "g'azabdor – g'azabli, g'azabi bor" atamasiga yaqin keladi deyish mumkin. "Hasad, kibr, kin, g'urur, masxara har doim g'azabning bolalari bo'lgan, ya'ni bular g'azabdan oldin

kelishgan. G'azabning eng katta zararlardan biri iymonni fasod qilishidir"[9].

Agressivlik ko'rsatkichi yuqori bo'lgan respondent axloqida g'azab va uning ildizlarini bartaraf etish uchun uning tushunchalarini psixokorreksiya qilinadi. Bunda g'azabni bartaraf etishga qaratilgan diniy-qadriyatli determinantlar asl manbasiga murojaat qilinadi. "Badanning xastaligiga sabab bo'lgan illatni uning ziddi ila davolanadi. Issiqlik sababidan xasta bo'lgan bo'lsa, unga sovuqlik beriladi. Teskarisi bo'lsa, aksincha davolanadi. Shuningdek, axloqning buzuv bo'lishiga sabab bo'lgan qalb xastalıkları ham o'zining ziddi ila davolanadi. Misol uchun, johillik dardi ilm bilan, baxillik dardi saxiylik bilan, kibr tavoze bilan davolanadi." [10] Shunga asosan, respondentni g'azab, uning ildizi va ularning ziddiga oid oyat va hadislar bilan tanishtiriladi. Oyat va hadislar tanlashda respondentga mo'tadillik psixologik ustanovkasini chuqurroq singdiradiganlariga murojaat qilinadi. Psixokorreksiya jarayoni o'ta ishonchli manba bo'lgan Qur'oni Karim oyati bilan boshlanadi:

“الَّذِينَ يُنْفِقُونَ فِي السَّرَّاءِ وَالسَّرَّاءِ وَالْكُفْرَيْنِ وَالْعَافِينَ عَنِ النَّاسِ وَاللَّهُ يُحِبُّ  
الْمُحْسِنِينَ”

"(U taqvodor zotlar) yaxshi-yomon kunlarda infoq-ehson qiladigan, g'azablarini ichlariga yutadigan, odamlarning (xato-kamchiliklarini) afv etadigan kishilardir. Alloh bunday yaxshilik qiluvchilarni sevadi. (Oli Imron, 134-oyat)" [11].

Alloh taolo O'zi yoqtiradigan bandalarning uch fazilatini sanagan mazkur oyatni respondentga izohlab, oyatni his qilishiga yordam beriladi. Respondentga ushbu fazilatlaridan faqat biriginasi g'azabga taalluqlidek tuyulishi mumkin. U bilan hamkorlikda mulohaza yuritilgach esa, "odamlarni avf qiladiganlar" ham g'azabni tiya bilishi shartligi, chunki avf qilinadigan odam g'azabni keltiradigan ish qilgan bo'lishi haqidagi fikrga kelinadi. Ya'ni oyatdagi ketma-ketlikda izohlansa, nojo'ya ish qilgan odamdan avvaliga g'azabni tiyib unga nisbatan yomon gap yoki harakat qilmaydi, keyin esa uni avf etib, nojo'ya ish ishini unutib yuboradi. Endi g'azabni tiyib, avf etayotgan kishi (masalan respondent) shu oyatda va'da qilinganidek darajada Alloh sevishini xohlayotgan bo'lsa, bu yaxshilikni doim qilishi kerakligi aytiladi. Shu bilan jamiyat isloh bo'lishi haqida suhbat qilinadi.

Bu oyatni mulohaza qilar ekan, avvallari g'azabni kuch-qudrat timsoli deya hisoblagan respondent endi uning illat ekani haqida – uni Allohning muhabbatidan mahrum qiluvchi omil sifatida o'ylay boshlaydi. G'azabni yenga olganlarga beriladigan mukofotdan xabar topgach, nojo'ya ish qilgan odamga nisbatan emas, g'azabga bo'lgan nafrati ortadi. Allohdan bo'lgan mag'firatga va kengligi osmonlari yerchalik bo'lgan jannatga sazovor bo'lgan taqvodorlarning boshqa sifatlarini ham Qur'oni Karim tafsirlaridan o'rganib, o'zining hislatlariga qiyoslaydi. Mazkur oyatning "g'azabni yutganlar..." jumlasini tafakkur qiladi. Ya'ni yuqorida aytganimizdek g'azab o'zining ziddi bilan davolanayapti.

"G'azabni yutish eng qiyin ishlardan hisoblanadi. G'azab insonda turli munosabatlar ila qo'zg'alib turadi, uni jilovlab olish har kishining ham qo'lidan kelavermaydi. Lekin bu og'ir ishni taqvodor kishi eplashi mumkin. Ya'ni, qalbidagi taqvodorlik mavjud bo'lgan insonning g'azabdan g'olib chiqi oladi" [12].

Qur'oni Karimdan oyat keltirish bilan, respondentga mazkur mavzuning muhimligini alohida ta'kidlanadi. Shu bilan birga respondentning mazkur mavzuga qarashini to'g'irlab, sozlab olinadi. Keltirilayotgan har bir hadis esa oyatni izohlab, yoritib berishiga e'tibor qaratilib, respondentning mavzuni chuqurroq his qilishiga yordam beriladi.

«وَعَنْ بَهْرِ بْنِ حَكِيمٍ عَنْ أَبِيهِ عَنْ جَدِّهِ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ : قَالَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ : «إِنَّ الْعُصْبَ لَيُفْسِدُ الْإِيمَانَ كَمَا يُفْسِدُ رَوَاهُ الْبَيْهَقِيُّ فِي «شُعَبِ الْإِيمَانِ» [13] الصَّبْرُ الْعَسَلُ» .

Bahzi ibn Hakimdan, u otasidan u bobosi (r.a.)dan aytib berdi. Rosululloh sollallohu alayhi va sallam – “Aloe asalni buzgani kabi g‘azab imonni buzadi” imom Bayhaqiy (r.h.) “Shu‘ab al-imon” kitobida rivoyat qilganlar. G‘azab insonning ichki hotirjamligini muvozanatdan chiqarib, uning aqliy boshqaruvini to‘sadi. Musulmonni yomonlikdan qaytaruvchi, yaxshilikka undovchi kuch – uning qalbidagi iymoni bo‘ladi. G‘azab aynan eng muhim, boshqaruv markazini - iymonni buzishi bilan xavfli. Iymonning buzilishi masalasi musulmon uchun Jannatdan ayrilish, do‘zaxga yo‘liqish degan ma‘noni anglatadi. Shu sababli bu hadis o‘ta jiddiy ta‘sir kuchiga ega deyishimiz mumkin.

«وَعَنْ ابْنِ عُمَرَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ : قَالَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ : «مَا تَجَرَّعَ عَبْدٌ جَزَعَةً أَفْضَلَ عِنْدَ اللَّهِ عَزَّ وَجَلَّ مِنْ جُرْعَةٍ غَيْظٍ وَجَهَ اللَّهُ تَعَالَى» . رَوَاهُ أَحْمَدُ [14] يَكْظُمُهَا ابْتِغَاءً .

Ibn Umar (r.a.)dan rivoyat qilindi: Rosululloh (s.a.v.) dedilar: “Banda Alloh azza va jalla nazdida Uning roziligini istab g‘azabini yutish jur‘atidan afzal jur‘atga erisholmaydi” – dedilar. Ahmad (r.h.) rivoyat qilganlar.

Endi g‘azabini yutganlarni Alloh yoqtirishi haqidagi o‘yat, g‘azabni yutish – jur‘atlarning afzali ekani haqidagi hadis bilan to‘ldirilib, izohlanadi.

«عَنْهُ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ : قَالَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ : «لَيْسَ الشَّدِيدُ بِالصُّرْعَةِ، إِنَّمَا الشَّدِيدُ الَّذِي يَمْلِكُ نَفْسَهُ عِنْدَ الْعُصْبِ». مُنْفَقٌ [15] عَلَيْهِ» .

Undan (Abu Hurayra (r.a.)) rivoyat qilindi: “Rosululloh (s.a.v.): “Kurashib yenggan emas, balki g‘azabi kelganda o‘zini qo‘lga olgan kuchli”, – dedilar. Hammalari (r.h.)lar ittifoq qilishgan.

«وَعَنْ أَنَسِ بْنِ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ لَهُ أَنَّ رَسُولَ اللَّهِ ﷺ قَالَ : «مَنْ خَرَنَ لِسَانَهُ سَتَرَ اللَّهُ عَوْرَتَهُ، وَمَنْ كَفَّ عُصْبَهُ كَفَّ اللَّهُ عَنْهُ وَمَنْ اعْتَدَرَ إِلَى اللَّهِ قَبْلَ اللَّهِ عُدْرَهُ» . [16] عَدَابَةُ يَوْمِ الْقِيَامَةِ، رَوَاهُ الْبَيْهَقِيُّ فِي «شُعَبِ الْإِيمَانِ» .

Anas (r.a.)dan rivoyat qilindi: Rosululloh (s.a.v.): “Kim tilini tiysa, Alloh uning ayblarini berkitadi, kim g‘azabini tiysa, Alloh qiyomat kunida undan azobini to‘sadi, kim Allohdan kechirim so‘rasa Alloh uning uzrini qabul qiladi”. Bayhaqiy (r.h.) “Shu‘ab ul-imon” kitobida rivoyat qilganlar.

«عَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ أَنَّ رَجُلًا قَالَ لِلنَّبِيِّ ﷺ [17] «أَوْصِنِي قَالَ : «لَا تَعْصَبْ» «فَرَدَّدَ مِرَارًا قَالَ : «لَا تَعْصَبْ» . رَوَاهُ الْبُخَارِيُّ»

Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilindi: Bir kimsa Rosululloh (s.a.v.)ga: “Vasiyat qiling” – dedi, “G‘azab qilma” – dedilar. “G‘azablanma” – deb qayta-qayta takrorladilar. Buxoriy (r.h.) rivoyat qilganlar. Ushbu hadislar ta‘sirida g‘azab haqidagi tushuncha yanada kengayib oydinlashada. Respondentning “G‘azabni namoyon qilish kuch-quvvatdan”, - degan noto‘g‘ri tushunchasi g‘azabni yengish – kurashib yengishdan ham afzal bo‘lgan kuch-quvvat jihati ekani haqidagi tushunchaga to‘g‘rilanadi. Respondent g‘azabini tiysa, Alloh Qiyomat kunida undan azobini to‘shishini mulohaza qiladi, g‘azab zararli ekanini, imonni buzishini anglaydi. Ushbu hadislar respondentning shaxsiyatiga ta‘sir

qilib, uni g‘azabini yengishga yanada ruhlantiradi. Navbatdagi hadislar esa halimlikni targ‘ib qilib, avvagi o‘yat kabi g‘azabning ziddi bilan muolaja qiladi:

«وَعَنْ أَبِي هُرَيْرَةَ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ : قَالَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ : « قَالَ مُوسَى بْنُ عِمْرَانَ عَلَيْهِ السَّلَامُ : يَا رَبِّ ! مَنْ أَعَزَّ عِبَادَكَ إِذَا قَدَّرَ عَفْرٌ » . رَوَاهُ الْبَيْهَقِيُّ فِي [18] عِنْدَكَ؟ قَالَ : مَنْ الشُّعْبِ الْإِيمَانِ»

Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilindi: “Rosululloh (s.a.v.) aytdilar: “Muso ibn Imron alayhissalom: “Ey Robbim! Nazdingdagi eng aziz bandalaring kimlar?” – deb so‘raganlarida U Zot: “(Qasd olishga) qodir bo‘lgan paytida kechirgan kishi”, dedilar. Bayhaqiy (r.h.) “Shuab ul-imon”da rivoyat qilganlar.

Jarir ibn Abdullohdan rivoyat qilindi: “Rosululloh (s.a.v.): “Odamlarga rahm qilmaydigan kishiga Alloh rahm qilmaydi”, dedilar” [19].

Mu‘ozdan rivoyat qilindi: “Anas ibn Molikning amakivachchasi Hishom ibn Omir Ansoriydan eshitdim. U Rosululloh (s.a.v.)ning: “Musulmon kishining boshqa bir musulmon bilan uch kundan ortiq arazlashib yurishi halol emas. Agar ikkovlari arazlashishda davom etishsa, ikkovi ham haqdan chetlangan bo‘ladi. Ulardan qaysi biri avval (arazidan) qaytsa, bu amali uning gunohlariga kafforat bo‘ladi. Agar ikkovlari arazlashgan holda vafot etsalar, ikkovlari ham hech qachon jannatga kirishmaydi. Agar biri salom bersa, ikkinchisi uning salomiga alik olishdan bosh tortsa, salom berganga farishta alik oladi. Alik olishdan bosh tortgan odamga esa shayton gapiradi”, – deganlarini eshitgan ekan [20].

Ushbu hadislar haqida fikrlagan respondentda g‘azabini ziddi bo‘lgan kechirimlilik, halimlikka munosabati o‘zgarib, ijobiy tushuncha shakllanadi. Ya‘ni hadislarining tanlangan ketma-ketligi respondentning g‘azab haqidagi qarashlarini kengaytirish orqali tushunchasini to‘g‘rilaydi, uning fe‘lly jihatlariga ta‘sir qiladi.

Agressivlikning yana bir ildizi kibr bo‘lib, uni tavozulik diniy qadriyat bilan muolaja qilindi. Kibr so‘zi lug‘atda kattalik ma‘nosini bildiradi va o‘zini boshqalardan katta, ustun va afzal hisoblagan insonga aytiladi.

«كَذَلِكَ يَطْبَعُ اللَّهُ عَلَى كُلِّ قَلْبٍ مُتَكَبِّرٍ جَبَّارٍ»

Alloh har bir mutakabbir va zo‘ravonning qalbini mana shunday muhrlab qo‘yar (G‘ofir, 35-oyat)” [21].

“Kibr ko‘p xatarli va halokatga olib boruvchi hastalikdir. Boshqa fe‘l-atvoriga o‘xshamaydi. Ular ibodatning ba‘zi qismlariga, kibr esa ibodatning asliga zarar yetkazadi. Ibadatni ildiz-ildizidan yo‘qqa chiqaradi” [22].

«وَعَنْ ابْنِ مَسْعُودٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ : قَالَ رَسُولُ اللَّهِ ﷺ : «

لَا يَدْخُلُ الْجَنَّةَ مَنْ كَانَ فِي قَلْبِهِ مِثْقَالُ ذَرَّةٍ مِنْ كِبَرٍ» فَقَالَ رَجُلٌ : إِنَّ الرَّجُلَ يَجِبُ أَنْ يَكُونَ تَوْبُهُ حَسَنًا وَنَعْلُهُ حَسَنًا ؟ قَالَ : «إِنَّ اللَّهَ تَعَالَى تَجْمِيلٌ يُحِبُّ الْجَمَالَ، الْكِبْرُ بِطَرِّ الْحَقِّ وَعَمَطٍ

[22]النَّاسِ» . رَوَاهُ مُسْلِمٌ

Ibn Mas‘ud (r.a.)dan rivoyat qilindi: Rosululloh (s.a.v.): “Qalbidagi zarracha kibri bor kimsa Jannatga kirmaydi – deganlarida bir odam: “Ey Allohning rasuli! Kishi kiyimi go‘zal bo‘lishini, poyafzali go‘zal bo‘lishini yoqtiradi-ku?”, – dedi. Shunda U zot “Albatta, Alloh go‘zaldir va go‘zallikni sevadi. Kibr haqni inkor qilish va odamlarni haqir sanashdir”, – dedilar. Muslim (r.h.) rivoyat qilganlar.

Ushbu hadis bilan kibrning achiq urug‘i vaznidagisi ham ortiqcha ekanligi, bandani do‘zaxga yetaklashi aytilib,

kibrga izoh berilmoqda. Mazkur hadis respondentni imon kushandasi – kibrdan nafratlantirsa, navbatdagisi zaifhollik ahli Jannatning sifati ekanini ma'lum qiladi. Ya'ni kibrdan ziddini ulug'laydi.

"وَعَنْ حَارِثَةَ ابْنِ وَهَبٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ : قَالَ رَسُولُ اللَّهِ

ﷺ : « أَلَا أُخْبِرُكُمْ بِأَهْلِ الْجَنَّةِ ؟ كُلُّ ضَعِيفٍ مُتَضَعِّفٍ ، لَوْ

أَلَا أُخْبِرُكُمْ بِأَهْلِ النَّارِ كُلُّ عَتَلٍ [24] أَقْسَمَ عَلَى اللَّهِ لِأَبْرَهُ .

جَوَاطٍ مُسْتَكْبِرٍ » . مُنَقَّقٌ عَلَيْهِ "

Horisa ibn Vahb (r.a.)dan rivoyat qilinadi: Rasululloh (s.a.v.) – "Sizlarga ahli jannatning xabarini beraymi? Har bir zaifhol va zaifhol sanalgandir. Ammo, Allohga qasam ichsa, U zot uning qasamini yuzaga chiqaradi. Sizlarga ahli do'zaxning xabarini beraymi? Har bir qo'pol, sarkash va mutakabbirdir", – dedilar". Ikki shayx (r.h.) ittifoq qilishgan.

"وَعَنْ عَمْرٍو بْنِ شُعَيْبٍ عَنْ أَبِيهِ عَنْ جَدِّهِ رَضِيَ

اللَّهُ عَنْهُ عَنْ رَسُولِ اللَّهِ ﷺ قَالَ : « يُحْسِرُ الْمُتَكَبِّرُونَ أَمْثَالَ

الدَّرِّ يَوْمَ الْقِيَامَةِ فِي صُورِ الرَّجَالِ يَعْشَاهُمْ الدُّلُّ مِنْ كُلِّ مَكَانٍ ،

فَيَسْأَفُونَ إِلَى سِجْنٍ فِي جَهَنَّمَ يُسَمَّى بُولَسَ تَعْلُوهُمْ نَارٌ " الْأَنْبِيَاءُ

طَبِئَةُ الْحَبَالِ » . رَوَاهُ " [25] يُسْفُونَ مِنْ عِصَارَةِ أَهْلِ النَّارِ

الزَّرْمُذِيِّ

Amr ibn Shuaybdan, ular otalaridan, otalari bobolari (r.a.)lardan rivoyat qilingan hadisi sharifda Rasululloh (s.a.v.) marhamat qildilar: – "Mutakabbirlar qiyomat kuni kichik qizil chumolichalarga o'xshagan hollarida, kishilar suvratida hashr qilinadilar. Ularni har makondan xorlik qoplab olgan bo'ladi. Bas, ularni jahannamdagi Bulisa nomli qamoqqa haydab boriladi. Ularning ustida olovlarning olovi bo'ladi. Ularni ahli do'zaxning yiringi – tiynatul xabol ila sug'oriladi". Termiziy (r.h.) rivoyati.

"وَعَنْ عَمْرٍو بْنِ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ قَالَ وَهُوَ عَلَى الْمِنْبَرِ : يَا أَيُّهَا

النَّاسُ ! تَوَاضَعُوا ؛ فَإِنِّي سَمِعْتُ رَسُولَ اللَّهِ ﷺ يَقُولُ : « مَنْ

تَوَاضَعَ لِلَّهِ رَفَعَهُ اللَّهُ فَهُوَ فِي نَفْسِهِ صَغِيرٌ وَفِي أَعْيُنِ النَّاسِ

عَظِيمٌ ، وَمَنْ تَكَبَّرَ وَضَعَهُ اللَّهُ فَهُوَ فِي أَعْيُنِ النَّاسِ صَغِيرٌ وَفِي

نَفْسِهِ كَبِيرٌ حَتَّى لَوْ هُوَ أَهْوَنَ عَلَيْهِمْ مِنْ كَلْبٍ أَوْ خِنْزِيرٍ » . رَوَاهُ

الْبَيْهَقِيُّ فِي الشُّعْبِ الْإِيمَانُ [26].

Hazrati Umar (r.a.)dan rivoyat qilingan xabarda u zot minbardaligida shunday dedilar: – "Ey odamlar! Tavozeli bo'linglar. Chunki men Rasululloh (s.a.v.)ning shunday deganlarini eshitdim: "Kim Alloh uchun tavozeli bo'lsa, Alloh uning martabasini ko'taradi, u o'z nafsida kichkinadir, biroq odamlar ko'zlarida ulug'dir. Kim kibrga ketsa Alloh uning martabasini tushiradi va u odamlar ko'zida kichkina va o'zicha kattadir, hatto u odamlarga it yoki to'ng'izdan ham pastroqdir". Bayhaqiy (r.h.) "Shu'ab al-imon" kitobida rivoyat qilganlar.

Hadislar mazmuni kibr haqida nafratli jirkanish tasavvurini shakllantiradi. Mutakabbirning ahli do'zaxligi, kibrdan tortishganni Alloh do'zaxga kiritishi, qatronga tashlashi, ular qiyomat kuni kichik qizil chumolichalarga o'xshagan kishilar suvratida hashr qilinib, ularni har makondan xorlik qoplashi, ular jahannamdagi Bulisa nomli qamoqqa haydab borilib, ustida olovlarning olovi bo'lgan bir paytda ahli do'zaxning yiringi – tiynatul xabol ila sug'orilishi haqidagi ishonchli manbalardan olingan dahshatli xabarlar imonli respondent tasavvurini junbushga soladi. Shu dunyoning o'zida mutakabbirning martabasini Alloh itdan yoki to'ng'izdan ham pastroqqa tushirishi esa imoni zaifroq bo'lgan respondentda o'z hayotidagi kibrlil insonlar misolida qiyoslab ko'rish va hayotiy isbotini toppish imkonini beradi. Natijada respondentning kibri pasayadi yoki butkul yo'qoladi. Bu esa g'azabning pasayishiga sabab bo'luvchi omil hisoblanadi.

**Xulosa va takliflar.** Psixokorreksiyadan so'ng A. Bass va E. Darkining testi savollaridagi vaziyatlarda respondent o'zini qanday tutmoqchi ekanini belgilashi kerakligi tushuntiriladi va uning javoblaridan agressivlik ko'rsatkichi o'rganiladi.

So'ng respondentning avvalgi va keyingi javoblari qiyoslanadi. Javoblar orasidagi farq diniy-qadriyatli determinantlar ta'sir darajasini ko'rsatadi. U respondentning diniy yo'nalganlik darajasidan kelib chiqib farqli natija beradi.

Jismoniy agressivlikni aniqlashning psixologik uslubi va uni bartaraf etishning diniy-qadriyatli determinantlarining uygunlikda tatbiq qilinishi:

1. Diniy dunyoqarashning kuchli ta'sirida bo'lgan o'smirlarda agressivlik ko'rsatkichini pasaytirish yoki bartaraf etish;

2. Diniy-qadriyatli determinantlar ta'sir darajasini aniqlash;

3. Yuz va undan ortiq respondentlar auditoriyasi psixokorreksiyasini bir vaqtda amalga oshirish imkoniyatlarini beradi.

Ilova. Jadval

A. Bass toifalarini respondent faoliyati nuqtai nazaridan qiyosi: □			
№	Turi □	Amalga oshirish shakli □	Sxemasi □
1.	Jismoniy-agressivlik □	respondent boshqa shaxsga qarshi jismoniy kuch ishlatishga tayyor □	
2.	Bilvosita-agressivlik □	respondent haqiqiy tahdid ob'ektiga emas, balki unga aloqador vositalarga jismoniy zarar etkazishga tayyor □	
3.	G'ijinish (раздражение) □	respondent agressivlikka o'tishga tayyor □	
4.	Sarkashlik (negativizm) □	Respondent unga aytilgan yoki so'ralgan narsalarga teskari harakat qilish istagini namoyon etadi □	

#### ADABIYOTLAR

1. Психология. Словарь / под общ. ред. Петровского А.В. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Политиздат. 1990. – 494 с. – С. 9.
2. Beron R., Richardson D. Tajovuzkorlik (Agressiya.) — SPb: Piter, 2001. — 352 b. – B. 29.

3. Bass-Darki so'rovnomasi <http://www.hozir.org/bass-darki-sorovnomasi.html>.
4. Милославская Е. Интерпретация результатов опросника на агрессивность. <https://experimental-psychic.ru/test-agressivnosti-bassa-darki/>.
5. Bass-Darki so'rovnomasi <http://www.hozir.org/bass-darki-sorovnomasi.html>.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-t. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 680 b. B. – 37.
7. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ruhiiy tarbiya. 1-juz. Poklanish. – T.: Hilol-nashr, 2016. – B. 406 – 465-6.
8. Muhammad Zohid Qutqu. Nafs nimadir? – T.: Sharq, 2021. – B.184.– 336-b.
9. Muhammad Zohid Qutqu. Nafs nimadir? – T.: Sharq, 2021. – B.184 – 336-b.
10. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ruhiiy tarbiya. 1-juz. Poklanish. – T.: Hilol-nashr, 2016. – 465-b. – B. 235
11. Mansur Alovuddin Shayx. Qur'oni Azim. Muxtasar tafsiri. – T.: "Sharq", 2021. – 988 -b. – B. 120.
12. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ruhiiy tarbiya. 1-juz. Poklanish. – T.: Hilol-nashr, 2016. – 465-b. – B. 444
13. Haydarobodiy A.S. Zujajatal-masobih. – Karachi. P.: 2015. – 676-b. – B. 121.
14. Haydarobodiy A.S. Zujajatal-masobih. – Karachi. P.: 2015. – 676-b. – B. 120.
15. Haydarobodiy A.S. Zujajatal-masobih. – Karachi. P.: 2015. – 676-b. – B. 120.
16. Haydarobodiy A.S. Zujajatal-masobih. – Karachi. P.: 2015. – 676-b. – B. 120.
17. Haydarobodiy A.S. Zujajatal-masobih. – Karachi. P.: 2015. – 676-b. – B. 121.
18. Haydarobodiy A.S. Zujajatal-masobih. – Karachi. P.: 2015. – 676-b. – B. 120.
19. Buxoriy. Odoblar hazinasi kitobi. 1-juz. – T.: Sharq, 2011. – 496 b. 233-b.
20. Buxoriy. Odoblar hazinasi kitobi. 2-juz. – T.: Sharq, 2011. – 464 b. 121-b.
21. Mansur Alovuddin Shayx. Qur'oni Azim. Muxtasar tafsiri. – T.: "Sharq", 2019, – 992-b. – B. 692.
22. Abu Homid G'azzoliy. Saodatga eltuvchi ilm. Tarj.: Miraziz A'zam.– T.: G'afur G'ulom, 2018. – 352 b. – B. 123.
23. Haydarobodiy A.S. Zujajatal-masobih. – Karachi. P.: 2015. – 676-b. – B. 121.
24. Haydarobodiy A.S. Zujajatal-masobih. – Karachi. P.: 2015. – 676-b. – B. 122.
25. Haydarobodiy A.S. Zujajatal-masobih. – Karachi. P.: 2015. – 676-b. – B. 123.
26. Haydarobodiy A.S.. Zujajatal-masobih. – Karachi. P.: 2015. – 676-b. – B. 124.



*Azamatiyon XUDAYNAZAROV,*  
*O‘zMU Fuqarolik jamiyati va huquq ta’lim kafedrasida tadqiqotchisi*  
*E-mail: azamatiyon.200992@gmail.com*

*O‘zMU professori, s.f.d. I. Ergashev tarqizi asosida*

## THE YOUTH OF THE NEW UZBEKISTAN AS A SUBJECT OF POLITICAL PROCESSES

Annotation

The article explores that the youth of the New Uzbekistan is the subject of political processes. The article also emphasizes that large-scale work is being carried out to form and strengthen the youth of the New Uzbekistan as a subject of political processes. The youth of Uzbekistan is considered as a subject of political processes, some conclusions about them are given and a socio-political analysis is made.

**Key words:** Youth, youth participation, political processes, subject, strategic subject, changes in political processes, state policy towards youth, youth parliament, youth notebook, youth portal, youth leader in the neighborhood.

## МОЛОДЕЖЬ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА КАК СУБЪЕКТ ПОЛИТИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ

Аннотация

В статье исследуется, что молодежь Нового Узбекистана является субъектом политических процессов. Также в статье подчеркивается, что проводится масштабная работа по формированию и укреплению молодежи Нового Узбекистана как субъекта политических процессов. Молодежь Узбекистана рассматривается как субъект политических процессов, даются некоторые выводы о них и делается социально-политический анализ.

**Ключевые слова:** Молодежь, участие молодежи, политические процессы, субъект, стратегический субъект, изменения в политических процессах, государственная политика в отношении молодежи, молодежный парламент, молодежная тетрадь, молодежный портал, молодежный лидер по соседству.

## YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI SIYOSIY JARAYONLAR SUBYEKTI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada Yangi O‘zbekiston yoshlari siyosiy jarayonlar subyekti ekanligi o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada Yangi O‘zbekiston yoshlari siyosiy jarayonlar subyekti sifatida shakllantirish va mustahkamlash maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganligi yoritilgan. O‘zbekiston yoshlari siyosiy jarayonlar subyekti sifatida qarash va ularga doir ayrim xulosalar berilgan hamda ijtimoiy-siyosiy tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlari:** Yoshlar, yoshlar ishtiroki, siyosiy jarayonlar, subyekt, strategik subyekt, siyosiy jarayonlardagi o‘zgarishlar, yoshlarga oid davlat siyosati, yoshlar parlamenti, yoshlar daftari, yoshlar portali, mahalladagi yoshlar yetakchisi.

**Kirish.** Siyosiy jarayonlarda yoshlarning ishtiroki etish darajasi mamlakat siyosatidagi o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Yoshlar barcha rivojlangan davlat va jamiyatlarda siyosatdagi o‘zgarishlar va taraqqiyotining davomiyligini ta’minlovchi strategik subyekt bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bugun O‘zbekistonda yoshlar soni muhim demografik chegarada turibdi. 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar aholining 60 foizini tashkil qilmoqda. Bu mamlakatimiz uchun o‘ziga xos qimmatbaho “demografik dividend” deb atashimiz mumkin. Keyingi yigirma yil ichida bugungi yoshlar O‘zbekiston tarixidagi eng katta strategik kuchga aylanadi. Demakki, yoshlarni rivojlantirishga sarmoya to‘g‘ri sarflansa, aynan shu yoshlar O‘zbekistonni yangi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga olib chiqadigan strategik subyekt bo‘lib shakllanadi. Xalqaro e’tiroflarga ko‘ra, yangi O‘zbekiston yoshlari jamiyatni o‘zgartirishning faol subyekti va modernizatsiya jarayonlari uchun muhim manba, Shuningdek, iqtisodiy o‘sish, avlodlar farovonligini ta’minlash yo‘lida bebaho inson resursidir. Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarning qonuniy huquqlari va manfaatlarini ta’minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

**Asosiy qism.** Yoshlar siyosiy jarayonlardagi o‘zgarishlar subyekti sifatida shakllantirish va mustahkamlash maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Yoshlar ishlari agentligi va Bosh vazir raisligida yoshlar masalalari bo‘yicha idoralararo kengash ish boshladi. Oliy Majlis

Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya tuzildi, Oliy Majlis palatalari qoshida Yoshlar parlamenti faoliyat yuritmoqda. O‘zbekistonda 30-iyun — Yoshlar kuni, deb e’lon qilindi. «Yoshlar daftari», «Yoshlar portali», Mahallada yoshlar yetakchisi, O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi qabul qilingan va tashkil etilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-269-sonli Farmoniga asosan Yoshlar siyosati sport vazirligi tashkil etildi.

Prezidentimiz ta’biri bilan aytadigan bo‘lsak, yoshlar ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faollini oshirish ishlarini tashkil etish borasida amalga oshirilgan ijobiy ishlarni e’tirof etish bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo‘lgan dolzarb masalalar saqlanib qolayotganidan dalolat bermoqda. Ularni samarali hal etish maqsadida quyidagilarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi:

- O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish, vakolatli organlar faoliyatini yanada samaraliroq, tashkil etish va muvofiqlashtirish vazifalarini paysalga solmay bajarish;

- mamlakatimizda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning qonuniy huquq, va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish

yuzasidan takliflar tayyorlash hamda yoshlar siyosati sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini muttasil amalga oshirish;

- yoshlarni Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ilm-fan va innovatsiyalarga keng jalb etish, ularni "Yangi O'zbekiston - Uchinchi Renessans sari!" shiori atrofida birlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni samarali va tizimli tashkil etish;

- yoshlarga oid dasturlar, loyihalar va ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirish uchun ijtimoiy buyurtma shaklida ajratiladigan davlat grantlari va subsidiyalarni taqsimlash, ulardan maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlashga erishish;

- tarbiya muassasalarini tamomlagan yetim va otanasining qaramog'idan mahrum bo'lgan yoshlarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini tashkil etish va bandligini ta'minlash;

- yoshlar siyosati sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, yoshlar sohasidagi xalqaro reytinglarda mamlakatimiz mavqeiini oshirish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rish, xorijda ta'lim olayotgan yoshlar bilan olib borilayotgan ishlarni samarali yo'lga qo'yishga doir vazifalarni paysalga solmay bajarilishiga erishish.

- yosh avlodda mustahkam vatanparvarlik g'oyasi hamda qat'iy fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, yoshlarda zamonaviy tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish va yangi ish o'rinlarini yaratish orqali ularning bandligini ta'minlash ta'kidlab o'tilgan.

Shuningdek, Prezidentimiz quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan: "BMTning Yoshlar strategiyasida ta'kidlanganidek, "yoshlar siyomosida eng qimmatli va o'ta muhim resurslar mujassam topgan bo'lib, unga har qancha investitsiya kiritilsa arziydi, chunki bu sarmoyalar bir necha barobar ziyoda bo'lib qaytadi" Men g'oyat muhim ushbu fikrga to'liq qo'shilaman. Biz yoshlar siyomosida umrimiz mazmunini, hayotimizning asosiy samarasini quramiz. Yangi O'zbekistonni azmu shijoatli yoshlar bilan birga bunyod etamiz! Bizning taraqqiyot strategiyamizda har jihatdan barkamol rivojlangan, erkin fikrlaydigan, Vatanga sodiq qat'iy hayotiy qarashlarga ega yigit-qizlarni tarbiyalash eng ustuvor vazifalarimizdan biridir. Yoshlarning iste'dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to'liq ro'yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o'rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham bosh maqsadimiz bo'lib qolaveradi. Tomirlarida buyuk bobolarimizning qoni oqayotgan yoshlarimiz ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari bo'lishi, ular kabi ulkan maqsadlar sari intilib yashashi va yuksak marralarga erishishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishimiz zarur[1].

Davlat siyosatidagi o'zgarishlar va o'tkazilayotgan islohotlar yoshlarni siyosiy jarayonlardagi ishtirokini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning 70-maqsadiga nazar soladigan bo'lsak, ushbu maqsad yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish, yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish,

iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish sohasida faoliyat olib boruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirishdan iborat ekanligi belgilab qo'yilgan[2].

Undan tashqari Prezidentimiz tashabbusi bilan O'zbekistonda ilk bor ishsiz yoshlar bandligini ta'minlashga qaratilgan mutlaqo yangi tizim - "Yoshlar daftari"ning joriy etilishi o'z vaqtida ko'rilgan muhim chora bo'ldi. Bu tizim asosida o'tgan qisqa davr ichida respublikamizdagi 8 714 ta mahallada yashayotgan 18-30 yoshdagi 6 484 806 nafar yigit-qizning 5 451 442 nafari, yoki 84 foizi bilan yuzma-yuz muloqotlar o'tkazilib ularning orzu-istaklari va muammolari tinglandi. Suhbatlar asosida 682 787 nafar ijtimoiy himoyaga, iqtisodiy va psixologik qo'llab-quvvatlashga muhtoj, ishsiz shaxslar "Yoshlar daftari"ga kiritildi.

Hududiy va mahalliy hokimliklar qoshida "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yigit-qizlarning muammolarini hal qilishga ko'maklashish uchun "Yoshlar jamg'armalari" tashkil etilib, 113,5 mlrd. so'mdan ortiq mablag' ajratildi. Ayni vaqtda qadar ushbu mablag'ning 4,6 mlrd. so'mi yoshlar manfaatlarini uchun yo'naltirildi[5].

2020-yil 25-noyabr kuni O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Siyosiy Kengashi Ijroiya qo'mitasi «Yoshlar qanoti»ning respublika konferentsiyasi bo'lib o'tdi. Mazkur konferentsiyada «Yoshlar qanoti» tomonidan tadbirkorlikka qiziqqan va o'z biznesini boshlamoqchi bo'lgan yoshlar uchun «Ishbilarmon yoshlar», «Yosh tadbirkorlar», «Yosh fermer» loyihalari doirasida salmoqli ishlar amalga oshirilganligi, pandemiya sharoitiga qaramasdan birgina joriy yilning o'zida mazkur loyihalar doirasida 60 ta yosh tadbirkorga 1 milliard 904 million so'mlik imtiyozli kredit mablag'lari ajratildi, 960 nafar yoshlarning bandligi ta'minlandi, 221 nafari istiqbolli kadrlar zaxirasiga olinganligi bildirib o'tildi.

Istiqbolli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini ro'yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan «Yosh innovatsiyachilar» stipendiyasi, «Startap», «Startap-innovatsiyachilar» loyihalari doirasidagi ishlar ham e'tirofqa loyiq.

Ijtimoiy-siyosiy sohaga qiziqqan yoshlarni qamrab olgan «Yangi avlod kadrlari», «Parlamentda mening o'rnim» va «Kelajak deputatlari» loyihalari alohida ahamiyat kasb etadi. Birgina «Yangi avlod kadrlari» loyihasi doirasida mamlakatimizning 28 ta oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik memorandumini imzolani, O'zLiDeP g'oyalari qiziquvchi va qo'llab-quvvatlovchi 2 ming 321 talaba-yoshlar ma'lumotlari bazasi shakllantirilgan[6].

Ijtimoiy-siyosatdagi o'zgarishlardan yana biri mamlakatimizda yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-92-son Qarori[3]ga muvofiq har bir shaharcha, qishloq, ovulda, Shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi.

2022-yil 16-iyun kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Yoshlar masalalari bo'yicha komissiyasi tomonidan "Konstitutsiyaviy islohotlarda yoshlarning o'rni" mavzusida davra suhbat o'tkazildi. Mazkur davra suhbatda Keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy faolligi hamda tashabbusini qo'llab-quvvatlash

bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Natijada, kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlar mamlakat hayotidagi muhim ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda o'zlarining takliflarini, pozitsiyalarini ilgari surib faol qatnashishmoqdaligi ta'kidlab o'tildi.

Ayni kunlarda mamlakatimizda muhim siyosiy jarayon — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini takomillashtirish, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Xususan, mazkur jarayonda xalqimizdan kelgan har bir taklif saralanib, Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan atroflicha o'rganilib, ular asosida tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilmoqda Eng muhimi, ushbu siyosiy jarayonda yoshlar faol ishtirok etmoqda.

Konstitutsiyaviy komissiyaning ma'lumotiga ko'ra, bugungi kunga qadar komissiyaga 23 mingdan ortiq takliflar kelib tushgan. Ularning 70 foizdan ko'prog'ini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Bu esa, yoshlarning kelajakka befarq emasligidan dalolatdir.

Qayd etilganidek, Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha joriy yilning 24-may kundan boshlab "taklif@meningkonstitutsiyam.uz" yoki "taklif@2022.uz" elektron pochталari orqali takliflarni qabul qilish ishlari boshlandi, 26-may kundan boshlab esa, elektron pochтаdan tashqari, "www.meningkonstitutsiyam.uz" onlayn platformasi, telegram maxsus boti, 1341 qisqa raqamli "call-markaz" singari vositalar ishga tushirildi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda bir nechta kanallar tashkil qilindi. Fuqarolar takliflarini o'z hududlaridagi mahallalar va Xalq deputatlari mahalliy Kengashiga og'zaki yoki yozma shaklda bildirishi uchun sharoitlar yaratilgan[7].

Yuqoridagi berilgan fikrlarga asoslanib, bugungi kunda yoshlarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini oshirishga qaratilgan ishlar samaradorligi oshayotganligini ko'rish mumkin. Keyinchalik bu o'zgarishlar mamlakatimiz taraqqiyotiga hissa qo'shadigan yoshlar ya'ni strategik subyektini shakllantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 23-son Qarori [4] qabul qilindi. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining maqsadi - yoshlarni jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash, ilmiy va

ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarga faol jalb qilishdan iborat.

Yoshlar siyosati bo'yicha xorij tajribasidan samarali foydalanish, o'zaro tizimli hamkorlikni rivojlantirish maqsadida 13 ta xorijiy yoshlar tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi. O'zbekiston 2018-yilda SHanxay Hamkorlik Tashkiloti Yoshlar kengashiga, 2020-yilda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Yoshlar masalalari bo'yicha kengashiga teng huquqli a'zo sifatida qabul qilindi.

Mamlakatimiz siyosiy jarayonlarida yoshlar ishtiroki etish darajasini oshirish uchun "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi"da yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, yoshlar jamoat tashkilotlari va volontyorlik harakatlarini qo'llab-quvvatlash va yoshlar siyosati sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ustuvor yo'nalishlari belgilangan[4].

**Xulosa.** Har bir mamlakatning tarixiy va tadrijiy rivojlanish jarayonidan ma'lumki, davlatning jadal rivojlanishi, xalqning farovon yashashi, oldinga qo'yilgan strategik maqsadlarga erishishida yoshlarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini kafolatganligi, siyosiy jarayonlarda ishtirok etish darajasi, yaratib berilgan shart-sharoitlari, ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tiboriga chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekiston yoshlarini siyosiy jarayonlarda ishtiroki etishi mamlakatning taraqqiyot darajasini belgilab beradi. Yoshlarning ijtimoiy hayotda faollik darajasi oshmas ekan mamlakat hech qachon ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va ma'rifiy sohalarda rivojlanishi amri maholdir. Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayot sohalardagi ayrim muammolarga yechim topmas ekan, O'zbekistonning rivojlangan davlatlar orasida, nufuzli tashkilotlar va xalqaro reytinglardagi o'zni pastlashi mumkin, yuqorilashishi judayam qiyindir.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-siyosatdagi o'zgarishlar va o'tkazilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish mamlakatda yoshlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faolligi, davlat boshqaruvi tizimida ishtirok etish ulushi, yoshlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, loyihalar, normativ-huquqiy hujjatlarni ijrosini to'liq ta'minlanishi talab qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М Янги Ўзбекистон стратегияси. Т.:Ўзбекистон, 2021-й, - Б 259-262.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 28-январдаги "2022-2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сонли Фармони. 70-мақсад <https://lex.uz/docs/5841063>.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 19-январдаги "Маҳаллаларда ёшлар билан ишлаш тизimini тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-92-сон Қарори. <https://lex.uz/docs/5831865>.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021-йил 18-январдаги "Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025-йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги 23-сон Қарори. <https://lex.uz/docs/5234746>.
5. [https://parliament.gov.uz/uz/events/opinion/34996/?sphrase\\_id=8084397](https://parliament.gov.uz/uz/events/opinion/34996/?sphrase_id=8084397).
6. <https://xs.uz/uzkr/post/yoshlar-qanoti-vakillari-izhtimoiy-siyosiy-zharayonning-faol-ishtirokchilari>.
7. <https://parliament.gov.uz/uz/events/committee/38744/>.
8. Эргашев И., Худайназаров А.Ў. Ўзбекистон жамияти бошқарувида ёшлар фаоллигини оширишнинг маънавий омиллари. Ижтимоий тадқиқотлар журнали, 5-сон, 3-жилд. Тошкент - 2020. -б.79-86.
9. Эргашев И., Пўлатова Н., Худайназаров А.Ў. Ўзбекистон ёшларининг фаоллигини ошириш омиллари ва истикболлари. Илм сарчашмалари. Илмий-методик журнал. Урганч, 2020-й, № 4, - б. 15-18.
10. Худайназаров А.Ў. Ўзбекистон ёшларининг фаоллигини юксалтиришда ижтимоий-сиёсий ислохотларнинг ўрни. ЎзМУ хабарлари. 2021-й, № 1/4 - б. 175-177.
11. Худайназаров А.Ў. Ёшлар бандлигини таъминлаш: айрим муаммо ва ечимлар. "Янгилаётган Ўзбекистонда ижтимоий-сиёсий, маънавий ўзгаришлар" мавзусида Республика илмий-амалий анжумани материаллари. Тошкент: 2021-йил 28-сентябр. 180-184-б.
12. Худайназаров А.У. Роль реформ в повышении активности молодежи узбекистана в социально-политических процессах. Экономика и социум, 2021 4-2, 661-665.
13. Khudaynazarov A.U. Factors for Increasing the Activity of Youth of Uzbekistan in the Field of Science and Education. Middle East Journal of Applied Science & Technology, Vol.5, Iss.1, Pages 33-37, January-March 2022.

14. Saparbaev B.A., Khudaynazarov A.U. The Role of Reading in Increasing the Activity of Youth in Socio-Political Processes. Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 23 Apr, 2022. 222-226.
15. Худайназаров А.Ў. Ёшларни ижтимоий-сиёсий жараёнларда фаоллигини юксалтириш: ёшлар бандлиги. ҚарДУ хабарлари. 2022. - № 3/2(52) – б. 66-71.
16. Худайназаров А.Ў. Ёшларни ижтимоий-маънавий ҳаётда фаоллигини оширишнинг устувор вазифалари. Ўзбекистон Миллий университети хабарлари. 2022 й, № 1/4/1. 182-185.
17. Ergashev Ibodulla, Abdullayev Varxayotjon Bo'riyevich, Khudaynazarov Azamatjon O'rinqbayevich & Berdiyeva Muattar Ibodullayevna. Transformation of Youth and the System of Values. Mediterranean Journal of Basic and Applied Sciences (MJBAS) Volume 6, Issue 4, Pages 24-32, October-December 2022.
18. Khudaynazarov A.U. Youth of Uzbekistan as a subject of changes in political processes. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 3, Mar., 2023. P 1455-1464.



UDK:930

*Muminjon XUJAYEV,*  
*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi o'qituvchisi*  
*E-mail: mumin\_81@mail.ru*

*O'zXIA dotsenti, s.f.d. F.Karimov taqrizi asosida*

### ASRLARNI OSHIB O'TGAN TAFAKKUR SOHIBI

Annotatsiya

Sharq mutafakkiri – Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy Sharq tafakkur olamining o'ziga xos yo'nalishini ochib berdi, insoniyat tarixi, taraqqiyoti va tanazzuliga oid mavjud g'oyalarga oydinlik kiritdi. Turli qarama-qarshi qarashlarni o'rganib, o'z qarashlarini o'zgartirib, boyitib bordi. Aniqrog'i, Xorazmiy inson evolyutsiyasini, xalqlarning rivojlanish bosqichlarini, tarixiy voqealarni, tabiat hodisalarini o'rganish maktabini yaratdi.

**Kalit so'zlar:** Falsafa, tafakkur, matematika, davr, tadqiqot, tarix.

### A MASTER OF THOUGHT THAT SUPERVISED THE AGE

Annotation

The Eastern Thinker – Muhammad ibn Muso al-Xorazmi Revealed The Eastern World Of Thought's Specific Direction And Clarified The Existing Ideas Surrounding Humankind's History, Development, And Decline. He Studied Different Contradictory Views And Changed His Views By Enriching Them. More Precisely, Beruni Created A School Of Study Of The Universe, Human Evolution, The Stages Of The Development Of Peoples, Historical Events, Natural Phenomena.

**Key words:** Philosophy, matematiks, Thought, Essence, Period, Research, History.

### МАСТЕР МЫСЛИ ПРЕВОСХОДИВШИЙ ВЕКА

Аннотация

Восточный мыслитель – Мухаммад ибн Мусо ал-Хоразми раскрыл специфическую направленность восточного мира мысли и прояснил существующие представления об истории, развитии и упадке человечества. Он изучил различные противоречивые взгляды и изменил свои взгляды, обогащая их. Точнее, Беруни создал школу изучения Вселенной, эволюции человека, этапов развития народов, исторических событий, явлений природы.

**Ключевые слова:** Философия, мысль, сущность, период, исследование, история.

**Kirish.** Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850) o'z davri, qolaversa, hozirgi davr fani uchun ham ulkan ahamiyatga molik kashfiyotlar qilgan allomadir.

Allomaning yoshlik chog'lari qanday o'tgani haqida ko'p ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Lekin taqdirning baxtli yulduzlaridan biri uning tavalludiga homiylik qilgan, desak, mubolag'a bo'lmas. Chunki, u yashagan davr g'oyat murakkab edi.

O'tkir zehni, chuqur va qamrovli bilimi, teran tafakkuri bilan o'z davrida mashhur bo'lgan yosh olim podshohning o'g'li Ma'mun nazriga to'shadi. Shu hodisa uning taqdir yo'lini keskin o'zgartirib yuboradi. Shahzoda Ma'mun hamisha o'z atrofiga olimu donishmandlarni to'plashga harakat qilardi. Shu boisdan Xorazmiy kabi allomaning saroy qoshida bo'lishi u uchun katta yutuq edi. Buyuk davlat qurish orzusidagi shahzoda va ezgu orzulari shahzodanikidan ham yuksakroq bo'lgan olimning do'stligi tarix uchun ajoyib "meva"lar berdi.

Otasi Xorun ar-Rashid vafotidan so'ng taxtga o'tirgan Ma'mun ozgina muddat Marvni xalifalik poytaxti deb e'lon qiladi. Bunga shahar va uning atrofining obodligi, boy-badavlatligi, mintaqa axolisining madaniy darajasi arablar va otashparastlarga nisbatan ancha baland bo'lgani sabab edi.

Biroq hukmdorning Bag'doddan uzoqdaligi sabab saltanat hududida tez-tez isyonlar yuz bera boshlaydi. Qolaversa, muqaddas islom dinini ich-ichidan buzishni niyat qilgan ba'zi oqim namoyandalari Bag'dodda katta kuchga aylanib borayotgan edi. Shu siyosiy sabablar Ma'munni poytaxtni yana Bag'dodga ko'chirishga majbur qiladi. Tabiiyki, yosh alloma ham uning ortidan Bag'dodga yo'l

oladi. Shu yerda uning beqiyos ilmiy izlanishlari amalga oshadi.

Xorazmiy algebra fanining asoschisi hisoblanadi. «Algebra» so'zi esa uning «Aljabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob» nomli risolasidan olingan. Hind raqamlariga asoslangan «Arifmetika» risolasi hozirgi kunda biz foydalanadigan o'nlik hisoblash tizimi va shu tizimdagi amallarning butun dunyoda tarqalishiga sabab bo'ldi. Al-Xorazmiy nomi esa «algoritm» shaklida fanda abadiy qoldi. Uning jug'rofiyaga doir risolasi esa arab tilida o'nlab geografik asarlarning yaratilishiga zamin yaratgan. Xorazmiyning yulduzlar katalogi - «Zij»i Yevropada ham, Sharq mamlakatlarida ham astronomiya rivojiga muhim ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Boshqird olimi Ahmad Zaki Validiy To'g'on o'zining Xorazmiy ilmiy merosiga oid tadqiqotlarida Qadimgi arab geograflari (Al-Battaniy, Al-Xorazmiy va Zuhrah)ning ayniqsa Qadimgi dunyo chegara hududlari (rayonlar) bo'lgan (Afrika, Janubiy-Sharqiy va Shimoliy Osiyo) haqidagi asarlari ham ularning grekcha namunalariga bog'liq bo'lgan [1], degan xulosaga keladi.

Alloma yoshlik chog'larida o'qigan xuddi shu ilmlarga doir kitoblar Xorazmda bo'lgan. Ayni mana shu sabab tufayli ham hukmdor Ma'mun o'zi asos solgan ilm o'chog'i boshqaruvini aynan Movarounnahrlik olimlar guruhiga ishonib topshirgan. Xususan, «Baytulhikma» qoshida faoliyat ko'rsatgan, 828-yilda Bag'dodning ash-Shammosiya mahallasida va Damashq yaqinidagi Kasiyun tog'ida 831-yilda barpo etilgan ikkita yirik rasadxonaning biriga al-

Xorazmiy, ikkinchisiga Farg'oniy bosh bo'lib, ilmiy tadqiqot olib borishgan. Chunonchi, Xorazmiyning ash-Shammosiya mahallasidagi rasadxonani 831-yildan to vafotiga qadar boshqargani ilm ahliga yaxshi ma'lum. Aytmoqchimizki, vorisilik tamoyiliga ko'ra, al-Xorazmiy o'zidan avval o'tgan turon zamin olimlari tafakkuri xazinasini shuurida jo qilgan, ajoyib ilmiy muhitda toblangan donishmand xalqning farzandi edi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Allomaning arifmetik risolasi qachon yozilgani noma'lum. Ammo u XII asrda Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilingan. Tarjimaning XIV asrda ko'chirilgan yagona qo'lyozmasi Kembrij universitetida kutubxonasida saqlanadi. Risola «Dik- sit Algorizmi», ya'ni «Al-Xorazmiy aytdi» iborasi bilan boshlanadi.

Bu asarda Xorazmiy hind raqamlari asosida o'nlik sanoq tizimida sonlar yozilishini bayon qilib beradi. U bunday yozilishdagi qulayliklar, ayniqsa, nol ishlatilishining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Xorazmiy arifmetik amallarni bayon qilish, sonlarning martaba-darajasini e'tiborga olishni hamda nolni yozishni unutmastlikni uqtiradi. Aks holda, natija xato chiqadi degan xulosani beradi.

**Tahlil va natijalar.** Xorazmiyning «Arifmetika» risolasi hind raqamlariga asoslangan o'nlik sanoq tizimining Yevropada, qolaversa butun dunyoda tarqalishida buyuk ahamiyat kasb etdi. Yevropaga hind raqamlari arablar orqali o'tganligi bois hozir ham «arab raqamlari» deb ataladi. Hozirgi kungacha «algorizm» yoki «algoritm» deganda har qanday muntazam hisoblash jarayoni tushuniladigan bo'ldi.

Xorazmiyning algebraga oid risolasi uch qismdan iborat: 1) algebraik qism, buning oxirida kichik bir bo'lim - savdo muomalasi haqidagi bob keltiriladi; 2) geometrik qism, algebraik usul qo'llanib o'lchash haqida; 3) vasiyatlar haqidagi qism. Olim uni alohida nom bilan «Vasiyatlar kitobi» deb atagan. Muallif o'z risolasida hech qanday belgi keltirmaydi va mazmuni butunlay so'z bilan bayon etadi va shakllar keltiradi.

Ushbu kitob 37 bob, 116 jadvaldan iborat. Asarning avvalgi besh bobi xronologiyaga bag'ishlangan bo'lib, «tufon», «iskandar», «safar» va xristian yillaridagi sanalarni hijriy yillarga ko'chirish qoidalari keltiriladi. 6-bobda aylana - 12 burjga, burj - 30 darajaga, daraja - 60 daqiqaga, daqiqa - 60 soniyaga va hokazo mayda bo'laklarga bo'linishi bayon etiladi. 7-22-boblar Quyosh, Oy va besh sayyoraning harakatlari masalasiga bag'ishlangan. Bu boblarda olim qadimgi va ilk o'rta asr hind astronomik ma'lumotlaridan, eron va yunon ma'lumotlaridan mohirona foydalangan holda Ptolemeyning geomarkaz sistemasiga asoslanib, sayyoralar harakatini bayon etgan. 23-bob trigonometriyaga bag'ishlangan, unda alloma «tekis» va «akslangan sinus» tushunchalarini kiritadi va bu funksiyalar jadvallarini keltiradi. 25-27- boblar matematik geografiyaga bag'ishlangan. Bu yerda geografik joylarning uzunlik va kengliklarini aniqlash qoidalari keltiriladi va bu koordinatlarining o'zgarishi quyoshning yillik, kecha-kunduzlik harakatida ekliptik, ekvatorial koordinatlarining o'zgarishi bilan bog'liqligi tushuntiriladi.

Xorazmiy «Zij»i xalifalikdagi dastlabki astronomik asarlardan edi. Asar yozilishi bilan olimlarning diqqatini o'ziga jalb etdi. Unga olimning zamondoshlaridan Farg'oniy, al-Hoshimiy va boshqalar yuksak baho berishgan. Abu Rayhon Beruniy bu «Zij»ni sharhlashga uchta asarini bag'ishlagan. Fan tarixida ispaniyalik arab astronomi Maslama al-Majritiy tomonidan 1007-yili ko'chirilgan nusxasi diqqatga sazovordir. Bu nusxani 1126-yili Adelyard Bat Ispaniyaga lotinchaga tarjima qildi. Xorazmiy «Zij»i hozir mana shu lotincha tarjimada mavjud. Shu tarjimaning to'rt qo'lyozma nusxasi asosida 1914-yili X.Zuter «Zij»ning lotincha tanqidiy matnini, shu matn asosida O.Neygubauer esa 1962-yili uning

inglizcha tarjimasini nashr etgan. Mana shu ikki nashr asosida «Zij»ning to'la ruscha va qisman o'zbekcha tarjimalari nashrga tayyorlandi [1].

Xorazmiy o'z «Zij»ida boshlang'ich meridian sifatida, hind an'anasiga ko'ra, Arin (hozirgi Hindistondagi Ujayn) shahridan o'tgan meridianni tanlagan [2]. Yevropada XIII asrda Rojer Bekon va Buyuk Albert ham Arin meridiani g'oyasining tarafdorlari bo'lganlar. Arin g'oyasiga ko'ra Ayyalik Pyotr (Fransiyadan) 1410-yili o'zining «Yer tasviri» nomli asarini yozdi. Bu asarning 1487-yili chop etilgan bir nusxasidan Xristofor Kolumb foydalangan. Kolumbning o'ziga tegishli nusxa hoshiyasiga yozgan eslatmalariga ko'ra, Arin g'oyasi unda yerning noksimon ekanligi va yerning Aringa diametral qarama-qarshi tarafida Aringa o'xshash joy bo'lishi kerakligi haqida tasavvur hosil qilgan.

Olim qalamiga mansub 20 dan ortiq asarlarning faqat 10 tasi bizgacha yetib kelgan. Bular «Aljabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob» - algebraik asar, «Hind hisobi haqida kitob» yoki «Qo'shish va ayirish haqida kitob» - arifmetik asar, «Kitob surat ul-arz» - geografiyaga oid asar, «Zij», «Usturlob bilan ishlash haqida kitob», «Usturlob yordamida azimutni aniqlash haqida», «Kitob ar-ruxoma», «Kitob at-ta'rix», «Yahudiylarning taqvim va bayramlarini aniqlash haqida risola» asarlaridir. Bu asarlarning to'rttasi arab tilida, bittasi Farg'oniy asari tarkibida, ikkitasi lotincha tarjimada saqlangan va qolgan uchta hali topilgan emas.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib, Xorazmiyning «Zij»i geografiya sohasidagi buyuk kashfiyotlarga ham aloqador bo'ldi.

Asar 1037-yili ko'chirilgan yagona arab nusxasida bizgacha yetib kelgan bo'lib, bu nusxa Strasburg universiteti kutubxonasida saqlanadi.

Kitobda shaharlar, tog'lar, dengizlar, orollar va daryolardagi 2402 ta geografik joyning koordinatlari keltiriladi. Shaharlar, daryolar, tog'lar, orollar va boshqa obyektlar iqlimlar bo'yicha taqsimlangan.

Xorazmiy geografiyani iqlimlar nazariyasiga to'la rioya etgan holda birinchi marta bayon qildi. U yerning ma'mur, ya'ni insonlar yashaydigan obod qismini yetti iqlimga ajratadi. U yunon olimi Ptolemeydan farqli o'laroq mintaqalar, mamlakatlar va ulardagi geografik joylarni emas, balki birinchi iqlimdan to yettinchi iqlimgacha joylashgan joylarni tavsif etadi.

Risolaning ikkinchi bobida iqlimlardagi tog'lar tavsiflanadi. Tog'larning boshi va oxirining koordinatlari keltiriladi. Alloma Yaqin va O'rta Sharqdagi hamda Kavkaz va Markaziy Osiyodagi tog'larni ham u yerdagi shaharlar kabi batafsil bayon qiladi.

Risolaning uchinchi bobida Xorazmiy dengizlarni, to'rtinchi bobida orollarning qirg'oqlari va ulardagi punktlarni, beshinchi bobda esa mamlakatlarni, oltinchi bobda daryolar va buloqlarni tavsiflaydi.

Ulug' bobomizning «Kitob surat ul-arz» asari ko'p olimlar tomonidan o'rganilgan. Lekin asar shu paytgacha birorta hozirgi zamon tiliga to'la-tukis tarjima qilinmagan edi. Olimning 1200-yillik yubileyi munosabati bilan 1983-yili bu asarning o'zbekcha tarjimasini Xorazmiyning «Tanlangan asarlar»i tarkibida chop etildi.

Alloma asarlari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi. Turli g'arb va sharq tillariga tarjima qilingan. U o'z asarlari, ixtirolari bilan nafaqat o'z vatanini, balki arab xalifaligining ilmiy yutug'i, o'z davri madaniyatining yuksak natijalarini butun dunyo va barcha asrlarga mashhur etdi.

U yunon olimi Ptolemeydan farqli ularoq mintaqalar, mamlakatlar va ulardagi geografik joylarni emas, balki birinchi iqlimdan to yettinchi iqlimgacha joylashgan joylarni tavsif etadi.

## ADABIYOTLAR

1. Zeki Velidi Togan. Der Islam und die geographische Wissenschaft // Hettners Geographische Zeitschrift. Heidelberg. 1934. Heft 10. S.361-372. Islam and the Science of Geography // Islamic Culture. Hyderabad. 1934. October. P.611-627.
2. Prof. Zeki Velidi Togan. Zentralasiatische türkische Literaturen. II: Die islamische Zeit // Handbuch der Orientalistik. Leiden-Koln. 1963. Abteilung 1. bd.5. Abschnitt 1. S.229-249.
3. Hojaev M. The Religious-Philosophical Legacy Of Ahmed Zeki Velidiy. The Light of Islam 2019 (4), 122.
4. Xujaev M.I. Historical Philosophy Of Ahmed Zekivelidi. Scientific Bulletin of Namangan State University 1 (12), 126-132.
5. Hojaev Muminjon. The religious-philosophical legacy of Ahmed ZEKI Velidiy. The Light of Islam. 2019. p. 26.
6. Хужаев Муминжон Исохонович. Bashkir turkish studies. epra International Journal of Research & Development Development Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online Journal Volume: 5, Issue:8, August 2020.
7. Muminjon Xujaev. Mahmudkhuja Behbudiy As A Leader Of Jadid Reforms. The Light of Islam. 2020. 3стр. 39-47.
8. Муминжон Исохонович Хужаев. Некоторые особенности этических взглядов Валидова Ахмет-Заки . 2015. Сredonew. 2-2. стр.3-3.
9. Хўжаев Мўминжон Исохонович. Аҳмад Заки Валидийнинг диний-фалсафий меросининг илдизлари. «Интернаука» 2018. Том.33. № 21(33). – С. 177-182.
10. Xujaev Muminjon Isoxonovich Ahmad Zeki Velidi's Research on the Translations of the Koran. Miasto Przyszłości Kielce 2022. P. 6-8.
11. Xujaev Muminjon Isoxonovich. Middle Ages Movarounnahr Rulers In The Views Of Researchers. European Journal of innovation in nonformal education. 2. №16. P. 134-136.



UDK: 373.22

**Shahnoza XO‘JAMBERDIYEVA,**  
*Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,*  
*Namangan davlat universiteti dotsenti*  
*E-mail:sh.hujamberdiyeva0505@mail.ru*

*Pedagogika fanlari doktori R.Zamilova taqrizi ostida*

### МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI BADIY ASARLAR BILAN TANISHTIRISHNING ZARURIYATI

Annotation

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishga oid masalalar ilmiy yoritilgan. Bu borada bolalarni badiiy asarlarga qanday qiziqtirish va tanishtirish bilan bog‘liq jarayonlarga muallifning qarashlari berilgan va tegishli tavsiyalari keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Kitob, badiiy asarlar, insoniy fazilatlar, badiiy asarlar bilan tanishtirish, badiiy asarlarga qiziqtirish, kitobxon tarbiyachi.

### НЕОБХОДИМОСТЬ ПРИВЕДЕНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ К ПРОИЗВЕДЕНИЯМ ИСКУССТВА

Аннотация

В данной статье научно освещены вопросы, связанные с приобщением дошкольников к художественным произведениям. В связи с этим приводятся взгляды автора на процессы, связанные с тем, как заинтересовать и приобщить детей к художественным произведениям, и приведены соответствующие рекомендации.

**Ключевые слова:** Книга, художественные произведения, человеческие качества, приобщение к художественным произведениям, интерес к художественным произведениям, читатель – воспитатель.

### THE NEED TO INTRODUCE PRESCHOOL CHILDREN TO WORKS OF LITERATURE

Annotation

In this article, the issues related to familiarizing preschool children with works of literature are scientifically covered. In this regard, the author's views on the processes related to how to interest and introduce children to literature works are given and relevant recommendations are provided.

**Key words:** Book, works of art, human qualities, introduction to works of art, interest in works of art, reader as an educator.

**Kirish.** Afsuski, bugungi kunda badiiy adabiyotga kam murojaat qilinayotgandek nazaramizda. Aslidachi? Haqiqatan ham qo‘lida kitob o‘qib ketayotgan insonlarni kamdan-kam kuzataymiz, bu ayni haqiqat. Shunday achchiq haqiqatga qarshi chiqishning birdan bir yo‘li bolalikdan badiiy adabiyotga mehr uyg‘otishning zarurligi, bizningcha. Bolalarimiz bolaligidanoq ularga bugungi kunda rivojlanib borayotgan gatjetlarning hech biri badiiy asarlar kabi ma‘naviy ozuqa bera olmasligiga ishonitirish va buni singdirish bizning bugungi kundagi dolzarb vazifalarimizdan biri bo‘lib qolmoqda. Aytish mumminki, maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirish asnosida bolaning o‘zligini anglashi, o‘z ona tiliga va vataniga muhabbat ruhida ulg‘ayishi, ulardagi insoniy fazilatlarining qaror topishi, ularni estetik jihatdan tarbiya topishlari, o‘z xalqi va boshqa xalqlar madaniyatini o‘rganishi, ularning hayot haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish imkoniga ega bo‘lamiz.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bolalarga badiiy asarlar bilan tanishish nima uchun zarur degan savol tug‘iladi. Hozirgi zamonaviy texnika va texnologiyalar asrida insonlarni ommaviy madaniyat qurshovidan asrab qoluvchi eng ma‘naviy boylik bu badiiy adabiyotlar hisoblanadi[1]. Aynan mana shu jihat bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishda dastlabki omil vazifasini bajaradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zligini, “men”ini anglashida badiiy asarlarning ahamiyati katta. Har bir bolaning o‘ziga xos fazilatlarini namoyon, biroq uni avvalo uning o‘zi anglashi muhimdir. Bola o‘zini ijtimoiy, aqliy, jismoniy, ruhiy, real, ideal holda qanday tasavvur qilishi va baholay olishi muhimdir. Bu uning kelajakda qanday shaxs bo‘lib rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Aynan ana shu

o‘ziga ishonchni orttirishda badiiy asarlarning ahamiyati katta hisoblanadi. O‘ziga o‘zi baho berish shaxsning o‘ziga, o‘z imkoniyatlariga, boshqa odamlar orasidagi fazilatlariga va o‘rniga baho berishidir[2].

Bolalarning o‘z ona tillariga bo‘lgan muhabbati dastlab badiiy asarlar bilan singdiriladi. Haqiqatan ham bolaning onasi tomondan aytilgan allada onaning bor mehri bilan birga tilga bo‘lgan mehri ham singdiriladi. Shu o‘rinda alla bola salomatligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatuvchi ovoz terapiya ekanligiga ham guvoh bo‘lamiz. Onalikka tayyorlash borasida olib borilgan tibbiy tadqiqotlarda alla go‘dak salomatligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi, turli yuqumli kasalliklar (masalan pnevmoniya, diareya)ga chalinish xavfini kamaytirishi aniqlangan[3]. Alla orqali ona va bolaning dastlabki muloqoti amalga oshiriladi. Bu muloqot davomida bola onaning yonida ekanligi, o‘zining bexavotirligi haqida axborotga ega bo‘ladi va onaga javoban oromga ketadi. Mana shu allaning o‘ziyoq badiiy adabiyotning bir qismi sifatida bolalarimizning hayotida badiiy asarlarning o‘rnini belgilashda dastlabki omillardan bo‘lib hisoblanadi.

Ma‘lumki, maktabgacha yoshdagi bolalar kichik hajmli ertaklar, ashula va she‘rlarni tez eslab qolishadi. Badiiy so‘zga ilk muhabbatni ilk yoshdan boshlab tarbiyalab borish zarur, bola bog‘chadan maktabga ana shu muhabbat bilan o‘tadi va keyinchalik vatan adabiyotini sevadigan bo‘lib qoladi[4]. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning samarali omillari qatoridan ularni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash masalasi eng oliy o‘rinda turadi. Sababi, vatanini sevgan odam barcha insoniy fazilatlariga ega bo‘ladi. Insoniy fazilatlarini o‘rni esa bolaning jamiyatdagi o‘rnini belgilashda ahamiyatli sanaladi.

Ba'zi bir kategoriyalar borki, inson ularni egallabgina estetik go'zallikni his qilishi mumkin bo'ladi. Bular qatoriga go'zallik, xunuklik, kulgililik, fojaviylik, ulug'vorlik va tubanlik, did va nafosat, hayolilik, mo'jizaviylik va shuning kabilarni kiritish mumkin. Aynan shu ko'rsatgichlar bilan bog'liq barcha jarayonlar haqida bolalar badiiy aarlar orqali xabardor bo'lishadi. Shuning uchun ham bolalarga maktabgacha bo'lgan yoshdanoq badiiy asarlarni tanishtirish dolzab sanaladi. Mamlakatimizda fuqarolarning estetik tarbiyasiga taalluqti turli tadbirlar, ularning estetik didini yuksaltirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar muntazam olib boriladi[5]. Agar maktabgacha yoshdanoq bolalarga badiiy asarlar bilan tanishtirish tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilsa va amalga oshirilsa bu borada qiyinchiliklarga duch kelinmaydi.

Xo'sh, bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishda dastlab qanday usullarni va yo'llarni qo'llagan ma'qul degan savol tug'iladi? Bizningcha, bunda dastlab bolalarni badiiy asarga qiziqtirish yo'llarini ko'rib chiqqanimiz to'g'ri qaror bo'ladi. Shunday bo'lgan taqdirda bolalarni badiiy asarlarga qanday qiziqiramiz? Bu borada biz bolalarni dastlab to'g'ri tinglash texnikasini qo'llash ko'nikmasiga egaligiga ishonch hosil qilishimiz kerak bo'ladi. Bolalarni diqqat bilan tinglashga o'rgatsak, ularga fikrlash borasidagi dastlabki tarbiyani bergan bo'lamiz[6]. Bolalar tinglash bilan bir qatorda ko'rish orqali ham fikrlaydilar. **Badiiy asarlarning rasmlarga boy bo'lishi** ham bolalarni qiziqtirishda muhim omillardan hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga kitob tavsiya qilayotganda rasm ko'rsatish usuli ayniqsa muhimdir[7]. Bolalar rasmlarni yaxshi va aniq ko'rishlari uchun xonalar yorug'ligi yetarli bo'lishi lozim. Sababi, xonadagi noqulay sharoit ham bolalarni kitob bilan tanishishga, unga nisbatan qiziqish uyg'otishga xalaqit berishi mumkin. **Kitobni so'zlab berish** eng ommabop va sinalgan usullardan sanaladi. Odatda tarbiyachilar bu usulni ko'proq qo'laydilar. Ba'zi bolalarning eslab qolish qobiliyati ko'rganiga qaraganda eshitgani bilan yuqori baholanadi. Shu nuqtayi nazardan ham ushbu usulni samarali deb hisoblashimiz mumkin. Mavzuni mustahkamlash uchun tarbiyachilar turli metodlardan foydalanadilar. **Badiiy asarlar yuzasidan o'tkazilgan savol-javoblar** ham samarali usullardan sanaladi. Tanishtirilgan asarni mustahkamlash uchun bolalar bilan birga o'tkazilgan savol-javob o'tilgan asarning tushunarlik darajasini belgilash bilan bir qatorda bolalarning mulqot va fikrlash kabi ko'nikmalarini ham mustahkamlaydi.

**Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi** ham bolalarni badiiy adabiyotga qiziqtirishda zarur sanaladi. Tarbiyachilar qahramonlar holatini, kechinmalarini o'z mimikalari bilan izohlab, yanada jonlantirib bera olishi zarur. Bu bolalarni yodda saqlashlariga yanada yordam beradi. Tarbiyachi turli samarali usullarni qo'llash davomida **axborot texnologiyalaridan foydalanish** masalasiga ham to'xtalishini to'g'ri deb hisoblaymiz. Bu ham bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishda samarali usullardan sanaladi. Televizor, kompyuter, turli audio qurilmalar, jumladan radiolarni taklif qilgan bo'lardik. Agar televideniya bolalarga qahramonlarni ko'rgazmali tarzda ko'rsatish imkoniga ega bo'lsa, radio esa so'z va musiqa bilan ta'sir etish vositasi bo'lib xizmat qiladi[8]. Bu borada tarbiyachilar ahamiyat qaratishi lozim bo'lgan boshqa tashkiliy ishlar ham bor. Masalan, **kitob javonlarining jihozlanganligi** ham bolalarni badiiy asarlarga qiziqtirishda muhim ahamiyatga ega. Bolalarga qiziqarli kitoblar bilan to'ldirilgan javon ularda kitob o'qishga qiziqish mas'uliyatini orttiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot davomida xorijiy ilmiy ish ma'lumotlaridan, maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishning ilmiy usullari – tizimli tahlil, umumlashtirish, tavsifiylik kabi usullaridan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Bolalar doim qahramonlarga taqlid qiladilar. Sahnalashtirish markazlarida ham bolalarni ko'pincha o'zlari sevgan qahramon obrazida ko'rishimiz mumkin. Chunki ularda taqlid qilishga moyillik kuchli bo'ladi. Biz o'z o'rnida bundan unumli foydalanishimiz bolalarimizga sahnalashtirish markazlarida erkinlik berishimiz va tanishtirgan asarimizga oid sahna ko'rinishi tayyorlashlariga yordamlashimiz kerak bo'ladi. Shuni unutmashimiz kerakki bolalar o'zlari sevgan obrazni o'ynash davomida o'shaning barcha xislatlarini o'zida qo'llab ko'rishga va xatto o'zlashtirib olishga ham harakat qiladilar. Shuni unutmagan holda bolalarga sahna ko'rinishi tugagach har birlarining obrazlaridagi ijobiy va salbiy hislatlarni tahlil qilishga imkon berish kerak. Nimani qilish kerak va nimadan voz kechish kerakligini tushunsagina bolalar yangi asardan to'g'ri ma'naviy ozuqani olgan hisoblanadilar. Qachonki, badiiy asarlarni tanishtirishdan ko'zlangan maqsadga erishsak, o'shanda bolalarda o'z-o'zini tahlil qilish, o'ziga nisbatan to'g'ri xulosa chiqarish ko'nikmasi shakllanadi. Bunda asosan bolalardagi mehr-oqibat, halollik, mardlik kabi eng zarur fazilatlar to'g'ri o'zlashtirilganligi ahamiyatlidir.

Bolalarni badiiy asarlarga qiziqirish va tanishtirish orqali bolalarning diqqat, xotira, tasavvur, aql-zakovat, mulqot, fikrlash, ijodkorlik kabi ko'rsatgich va ko'nikmalari rivojlantiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan vaqtida tanishtirmaslik esa katta yo'qotishlarga sabab bo'ladi. Ya'ni, bolalar o'zlarining o'qimishdagi bobokalonlari, vatandoshlari tajribasi bilan o'rtoqlasha olmaydi, undan foydalanmaydi ham, hayotda esa solishtirish, taqqoslash va tahlil qilish, xulosa yasash kabilarni ham o'rganmaydilar.

**Tadqiqot natijalarining muhokamasi.** Bugungi kun bolalari nega kitoblarga nisbatan sust kayfiyatda qarashmoqda yoki ko'proq ularni nimalar qiziqirmoqda degan savol bugungi kunda juda ommalshmoqda. Javob qidirish uchun ko'p izlanish kerak emas, avvalo atrofimizdan qidirib ko'raylik:

**Birinchiidan,** tarbiya oiladan boshlanishini nazarda tutib aytilishimiz mumkinki, oilada kitobsevarlikning mavjud emasligi bugungi kun bolalarini kitobga qiziqtirishimizga to'sqinlik qilayotgan omillardan biri bo'lib qolmoqda. Darhaqiqat hozirgi kunda yoshi kattalarning ham qo'lidan telefon, kompyuter, turli gatjetlar tushmay qoldi. Ular oila davrasida avvalgidek she'rxonlik uyushtirmay qo'yishdi. Bu o'z o'rnida bolalar tarbiyasiga ham ta'sir qilmay qolmaydi.

**Ikkinchiidan,** maktabgacha yoshdagi bolalarning eng ko'p uyg'oqlik vaqti maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar bilan o'tadi. Shu nuqtayi nazardan tarbiyachilarning ham kirobsevar, kitobxon emasligi bu boradagi kamchiligimiz hisoblanadi. Agar tarbiyachi o'zimiz va jahon adabiyotining noyob durdonalari bilan yaqindan tanish bo'lib, aynan bolalar uchun mo'ljallangan asarlar bilan yaqindan tanish bo'lsa uning qo'l ostidagi bolalarda ham shu ko'nikma shakllana boshlaydi.

**Uchinchiidan,** badiiy asarlarga qiziqishning pastligiga sabab bolalarga nazoratning sustlashishi, aniq bir rejimning yo'qligi natijasida bolalarning ko'proq televizor, telefon, kompyuter o'yinlariga juda ko'p vaqt ajratishlari natijasida kelib chiqmoqda. Bu nazorat ko'roq ota-onalarga bog'liq ekanligini unutmashimiz kerak. O'ylaymizki, agar ota-onalar o'z farzandlari kelajagiga befarq bo'lmay oila davrasida bola uchun kitob o'qib berish, ertak aytib berish, biror bir hikoyani so'zlab berishga vaqt ajratsa, bolalarga o'zlari bu borada o'rnak bo'lsalar, maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirish masalasida birmuncha yengilliklar bo'ladi.

**Xulosa va takliflar.** Maktabgacha yoshdagi bolalarga badiiy asarlarni tanlashda, albatta bolalarning yosh xususiyatlarini birinchi galda inobatga olish kerak. Sababi

bolalarda kuzatilishi mumkin bo'lgan xotira va diqqatning yetishmasligi, charchoq kabilar o'zlarining yosh xususiyatlariga mos tushmaydigan asarlarni tahlil qilishda kamchilik bo'lib ko'rinishi mumkin. Badiiy asar bolalar yoshiga mos tushishi bilan birga ham ko'rinishi, ham ma'no jihatdan qiziqarli bo'lishi ham asosiy talablardan sanaladi. Avvalo asarlar insonparvarlik g'oyalari qurilgan bo'lishi maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyaviy jihatdan yetukligini belgilashda asos bo'lib hisoblanadi. Bolalar uchun

asardagi so'zlarning soddaligi, tushunishga oson bo'lishi ham ulardagi anglab olish qobiliyatini samarali faollashtiradi.

Yuqorida keltirilgan sabablarga ko'ra ham maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish muammo sifatida dolzarb sanaladi. Bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirish kelajakda nafaqat, o'sha bolaning hayotda rivojlanishiga, balki yashab turgan jamiyatining salohiyatiga ham ta'sir qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva O. Badiiy asarlarning inson ruhiyatiga ta'siri. "Scientific progress" Scientific Journal. Volume: 1, ISSUE: 5. 272-bet.
2. Oripova Sh. Psixologiyada men konsepsiyasi talqini. So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. Vol. 5 No. 2 (2022) 227-bet.
3. <https://xs.uz/uzkr/post/alla-ozlikni-anglash-sari-ilk-qadam-uni-onalar-qalbiga-qajtarish-kerak>.
4. Yusupova J. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanshtirish usullari//Science and innovation. 2022.№2 102-bet.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Estetika>.
6. Isabayeva Asida Yusufjonovna. (2022). Participation in teaching preschool children learning speech, thinking and communicating. World Bulletin of Social Sciences, 10, 70-71. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/>.
7. Kuchkarova O. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kitob o'qishga qiziqtirishda psixologiyaning o'rni // Academic research in educational sciences. Volume 2. Issue 4. 2021.
8. Islomova Z. Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishda axborot texnologiyasidan foydalanish yo'llari. Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences Hosted online from Toronto, Canada. Date: 5 th November, 2022 page 93.



UDK: 372.2

*Tarmiza XURVALIYEVA,*  
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti*  
*pedagogika fanlari doktori (DSc),*  
*E-mail: t.l.xurvaliyeva@cspi.uz*

*CHDPU professori J.E. Usarov tavsiyasi bilan*

### THE USE OF FAIRY TALE THERAPY IN THE CORRECTION OF EMOTIONAL STRESS IN PRESCHOOLERS

Annotation

The article highlights the content and essence of fairy tale therapy used to relieve emotional stress in preschoolers. Methodical instructions to the educator and parents on the organization of fairy-tale therapy are given.

**Key words:** Emotional, tension, therapy, correction, manners, potency, diagnostic, didactic, psychocorrective, psychotherapeutic, meditative., prognostic, diagnostic, joint activity, transformational.

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СКАЗКОТЕРАПИИ В КОРРЕКЦИИ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО НАПРЯЖЕНИЯ У ДОШКОЛЬНИКОВ

Аннотация

В статье освещается содержание и сущность сказкотерапии, применяемой для снятия эмоционального напряжения у дошкольников. Приводятся методические указания воспитателю и родителям по организации сказкотерапии.

**Ключевые слова:** Эмоциональное, напряжение, терапия, коррекция, манеры, потенция, диагностическое, дидактическое, психокоррекционное, психотерапевтическое, медитативное., прогностическая, диагностическая, совместная деятельность, трансформационная.

### MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EMOTSIONAL ZO'RIQISHNI KORREKSIYALASHDA ERTAK TERAPIYADAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional zo'riqishni bartaraf etishda qo'llaniladigan ertak terapiya mazmuni va mohiyati yoritilgan. Ertak terapiyani tashkil etish bo'yicha tarbiyachi va ota-onalarga metodik ko'rsatmalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Emotsional, zo'riqish, terapiya, korreksiya, odob-ahloq, potensial, diagnostik, didaktik, psixokorreksiya, psixoterapevtik, meditatsiya.

**Kirish.** Pedagogika va psixologiya sohasida ikkita birini to'ldiruvchi yo'nalish mavjud bo'lib, ular artpedagogika va artterapiya hisoblanadi. Artpedagogika-badiiy pedagogikani tashkil qiladi. Uning maqsadi bola rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Asosiy vazifasi esa madaniy, ta'limiy, tarbiyaviy, korreksiya ishlarni amalga oshirish. Mazkur jarayonda madaniyat, ma'naviyat va ijodkorlik integrasiyalashadi. Bunda bolalarning ichki erkinligini rivojlantirish, o'z-o'zini anglash va shaxsiy yutuqlarini his qilishga o'rgatish ko'zda tutiladi. Ularni o'z xalqining milliy san'atini sevishtirishga va umummadaniy qadriyatlarini anglashga o'rgatiladi. Bolalarning potensial imkoniyatlarini faollashtirish va ijodiy namoyon etishga yo'naltiradi. Badiiy ijodiy faoliyatda bolalar ichki olamini shakllantirish, san'at orqali badiiy madaniyat bilan tanishtirish, ijtimoiy jamiyatdagi o'rni his qilishi, o'z-o'ziga ta'lim berish amalga oshadi. Terapiyaning barcha turlarini qo'llash natijasida bolalarga ma'naviy tarbiya beriladi, ijodkor, kompetentli bola, o'z shaxsiy va kasbiy hayotini rejalashtira oladigan shaxsga aylanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Art-terapiya bolalarning psixik sog'ligini rivojlantirish va korreksiya qilishda eng samara beradigan usullar majmuidir. Art-terapiya termini 1942-yilda Britaniyalik rassom Adrian Xill tomonidan yaratilgan. Unga sil kasali bilan kurashish jarayonida rasm chizish yordam berganini his qilgan. Uning ta'kidlashicha, ijod qilish vaqtida aql faoliyat bilan mashg'ul bo'ladi, boshqa jarayonlardan chetga chiqadi. Keyinchalik olim yonidagi bemorlarga ham rasm chizish orqali shifolanishlari

mumkinligini tavsiya etadi. Mana shunday tarzda psixoterapiya yo'nalishi vujudga kelgan. 1964-yilda uning yordami bilan birinchi Britaniya Art-terapevtlar assosiasiyasiga asos solindi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etishda A. Maslouning "Motivatsiya va shaxs" asarida keltirilgan quyidagi tamoyillar ustuvor hisoblanadi: "bolalarni yosh imkoniyatlarini hisobga olish; bolalar qiziqishiga tayanish; ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni bir butunlikda bajarish; yetakchi faoliyatni inobatga olish, faoliyatlar almashinuvi va turli faoliyat turlarini o'zaro to'ldiruvchi aloqalarini yagona pedagogik jarayonda amalga oshirish; tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida o'zaro ta'sirni kattalar rahbarligida bajarish; mustaqil va ijodkor shaxs rivojlanishi uchun tabiiy psixologik sof muhit yaratish; pedagogik jarayonda tarbiyachi va bolalar o'rtasida o'zaro hurmat va do'stona muhitga amal qilish" [7].

O'tmishdan ma'lumki, ajdodlarimiz tomonidan uzoq davrlardan buyon ertak yordamida bolalarga ta'lim-tarbiya berilgan. Bolalar tarbiyasida ertakterapiyadan anglamagan holda foydalanishgan, ertak so'zlab berish orqali hayotiy tajribalarni ularga o'rgatishgan, atrof muhitga munosabat, odob-axloq me'yorlari, urf-odat va an'analar haqida tushunchalar berilgan. Ertak terapiya psixoterapiyaning yo'nalishi hisoblanadi. Bugungi kunda esa ertak terapiya nafaqat bolani rivojlantirishga yo'naltirilgan, balki turli hayotiy vaziyatlarda yechim topishda yordam berish nuqtai nazaridan qo'llanilgan. Bunda "Nima uchun aynan ertakdan foydalaniladi?-dyegan savol tug'ilishi tabiiy. Chunki, bolalar

hali yetarlicha shaxsiy hayotiy tajribalarga ega emas. Ertak bolalar uchun hayotiy vaziyatlarning o'ziga xos xazinasi bo'lib, uni qo'llash orqali kelgusida turli muammolarga duch kelganda uni yenga olishi kerak. Ertak terapiya bolalarga turli hayotiy muammolarga uchraganda qanday yo'l tutish kerakligini o'rgatadi va yakunida yechim topish yo'llarini ko'rsatadi. Shuningdek, bolalar ertak syujetini to'la anglash orqali undan faqat ezgulik yo'lida foydalanishga yo'naltiriladi.

Ertakterapiya uchta asosiy turga bo'linadi.

- Diagnostik.
- Ta'sir ko'rsatuvchi.
- Rivojlantiruvchi.

Diagnostik turda bolalar ruhiyatidagi buzilishlar va nuqsanlar aniqlanadi. Ta'sir ko'rsatuvchi ertaklar bolalarni odob-axloqqa o'rgatadi va insoniylik kabi fazilatlarini shakllanishiga yordam beradi. Rivojlantiruvchi ertaklar bolalarning psixik taraqqiyotiga ta'sir qiladi.

Ertakterapiyada xalq ertaklari, mualliflik va maxsus yozilgan psixoterapevtik turlaridan foydalaniladi.

Ertaklar mazmuniga ko'ra beshta turga ajratiladi:

- ✓ Badiiy.
- ✓ Didaktik.
- ✓ Psixokorreksion.
- ✓ Psixoterapevtik.
- ✓ Meditatsiya.

Psixoterapevtik ertaklar yuqori natija beradigan tur sifatida amaliyotda keng qo'llaniladi. Agarda bolada jiddiy muammolar bo'lmasa, badiiy ertaklardan foydalanish mumkin. Biroq ularni talab darajasida amalga oshirish kerak. Psixoterapiya ertaklari qo'llanilganda rivoyat, afsona va asotir, xadislarga tayanish mumkin.

**Natijalar.** Ertakterapiyada bolalar ertakning bosh qahramoni rolini bajaradi, uning xatolarini tahlil qiladi. Bu esa turli ijtimoiy rollarni bajarishda eng zarur bo'lgan imkoniyat bo'lib xizmat qiladi. Bolalar yoqtirgan ertaklar ularga hayoti davomida ta'sir qiladi va hayotiy dasturiga aylanadi. Har bir ertakning ssenariyda qanday yozilgan bo'lsa, shundayligicha sahnalashtirish mumkin emas. Bolalar sevimli qahramonlarini ijobiy sifatlarini o'zlashtirishi, ularning hatti-harakatlarini kuzatib borishlari maqsadga muvofiq. Bunda tarbiyachi yoki ota-onalar bolaning ertakning qaysi personajini yoqtirishiga e'tibor qaratishi kerak. Agarda bu ertak qahramoni ijobiy bo'lsa, bola bilan birgalikda uning yaxshi fazilatlarini izlash va muhokama qilish lozim. Ertakterapiya qo'llanilganda darrov natija bermasligi mumkin. Ba'zida uzoq va qunt bilan olib boradigan ish turi sanaladi. Ammo bolalarda mavjud bo'lgan muammolarni hal qilishni ta'minlaydi. Ertakni faqat o'qib berish yetarli emas, bolani shunday yo'naltirish kerakki, u o'z muammolarini ertak syujetida his qilishi va yechimini

topishi mumkin. Lozim bo'lsa, ertakni bola bilan muhokama qilish eng muhim jihatlarni aniqlab tushuntirish kerak. Agarda tarbiyachi emosional zo'riqishi kuchli bolalar uchun individual ravishda ertak to'qib, so'zlab bersa, hayotiy vaziyatlarga moslashtirsa juda samarali bo'ladi. Asosiy qahramon bolaning xarakteriga o'xshasa, o'zining hatti-harakatlarini ertakda ko'ra olsagina yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Lyekin bola hayotiga aynan o'xshash hikoya bo'lmasligi, ertakligicha ifodalanishi maqsadga muvofiq. Bosh qahramon obrazini shunday yaratish kerakki, bola uning holatini kuzatishi va tushunishi kerak. Ertak yakunida esa bosh qahramon qiyin vaziyatdan chiqishi va muammo yechimini topishi zarur. Emosional zo'riqishi mavjud bolalar 6-7 yosh bo'lsa, ular bilan birgalikda ertak to'qish mumkin. Bolaning o'zi ertak qahramoniga qiyin vaziyatdan chiqishiga ko'maklashadi. Bolaga o'z tasavvuri bo'yicha ertak so'zlashga imkon berilsa, kelgusi hayotida muammolarni o'zi hal qilish malakasiga ega bo'ladi. Eng muhimi ertakterapiya usulidan bolalarda negativ ya'ni salbiy sifatlarni bartaraf etishda foydalaniladi. Bunday jarayonda barcha taniqli ertak qahramonlari yordamga keladi. Bolalarda qizg'onchilik yoki ochko'zlik kabi salbiy holat yuz berayotgan bo'lsa, ularga "Oltin baliq" ertagini so'zlab berish maqsadga muvofiq. Ertakni eshitgan bola ochko'zlik yoki xasis bo'lish qanday oqibatlariga olib kelishini anglaydi. Ertak yakunida esa tarbiyachi yoki ota-onalar bolaning o'zi mustaqil xulosa chiqarishiga imkon berishi kerak. Ushbu jarayonga ancha vaqt ketadi, ammo bola mashg'ulotni mustaqil o'zlashtiradi, natija esa samarali bo'ladi. Ertakterapiya artterapiya, o'yin terapiya, musiqa terapiya bilan uyg'un holda tashkil etilsa mazmunli o'tadi. Bolalarga o'zi yoqtirgan ertak syujeti yoki personajlar rasmini chizish taklif qilinadi. So'ngra ertakdan parcha sahnalashtiriladi. Ertakka mos musiqa ostida so'zlab berish yanada qiziqarli kechadi.

**Xulosa va takliflar.** Tarbiyachi avval ertakterapiyani mustaqil o'zi o'tkazishi, ertaklar to'plamini yaratishi bolalarning individual xususiyatiga ko'ra tanlab olishi lozim. Tarbiyachi bunga puxta tayyorlanishi talab etiladi. Ertak terapiya oddiy holatga o'xshashi mumkin, biroq uni o'tkazishga befarq bo'lmaslik kerak. Ertakterapiyani bolalarni uyqusidan avval o'tkazish taqozo etiladi. Agarda bola ruhiyatiga salbiy ta'sir qiluvchi voqea sodir bo'lgan bo'lsa, ertakterapiyani o'tkazmaslik zarur, bola avval tinchlanib olishi muhim. Ertakterapiya uy sharoitida aksariyat holatlarda profilaktika maqsadida tashkil etiladi.

Ertakterapiya bolalar tarbiyasida eng samarali usul va psixoterapiya hisoblanib, undan har qanday ota-onalar o'zlashtirib farzand tarbiyasida qo'llashi mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Алямовская В.Г. Петрова С.Н. Предупреждение психоэмоционального напряжения у детей дошкольного возраста. М.: - Скрипторий. 2002.
2. Валиев С. Сказки для всей семьи. Арт-педагогика на практике. М.:2014-140с.
3. Журавлева Ж.И., Павлова А.С. Медведева Е.А. и др. Артпедагогика и арттерапия в специальном и инклюзивном образовании 2-е изд., испр. и доп. Учебник для СПО.М.:2018-275 с.
4. Колягина В.Г. Арт-терапия и арт-педагогика для дошкольников. Учебно-методическое пособие М.: Издательство: Прометей. 2016-150 с.
5. Колягина В.Г. Музыка-терапия в специальном образовании. Учебно-методическое пособие.М.:2019-140с.
6. Колягина В.Г. Психология страхов дошкольников. М.:2016-50 с.
7. Маслоу А. Мотивация и личность.3-е.изд.перевод с англ.Питер.:2019-400 с.
8. Медведева Е.А и др. Артпедагогика и арттерапия в специальном и инклюзивном образовании: учебник для вузов. 2-е изд., испр. и доп. Москва.: Издательство Юрайт, 2023. 274 с.
9. Шапиро Е.И.. Особенности эмоционального развития дошкольника 3-7 лет.– Санкт-Петербург, 2011.



UDK: 37.026

*Gavhar XURRAMOVA,*  
Termiz davlat pedagogika instituti 2-kurs magistri  
E-mail: xurramovagavhar@gmail.com

*TerDPIning pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD D.Shabbozova taqrizi asosida*

## PEDAGOGICAL SYSTEM OF EDUCATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS BASED ON THE HARMONY OF NATIONAL AND INNOVATIVE VALUES

Annotation

This article contains information about national values, their forms of manifestation, innovation, innovative culture, and the means and methods of forming national values among elementary school students.

**Key words:** National value, innovation, culture, education, nation.

## ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ВОСПИТАНИЯ ШКОЛЬНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ГАРМОНИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ИННОВАЦИОННЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация

В данной статье содержится информация о национальных ценностях, формах их проявления, инновациях, инновационной культуре, средствах и методах формирования национальных ценностей у учащихся начальных классов.

**Ключевые слова:** Национальная ценность, инновации, культура, образование, нация.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNI MILLIY VA INNOVATSION QADRIYATLAR UYG'UNLIGI ASOSIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK TIZIMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada milliy qadriyat, ularning namoyon bo'lish shakllari, innovatsiya, innovatsion madaniyat hamda boshlang'ich sinif o'quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirish vositalari va usullari haqida ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Milliy qadriyat, innovatsiya, madaniyat, tarbiya, millat.

**Kirish.** Milliy qadriyatlar millat uchun muhim va jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan jihat va xususiyatdir. O'z milliy qadriyati bo'lmagan millat yoki elat yo'q. Millat milliy qadriyatlarining sohibi, egasi hisoblanadi. Millatning tanazzuli milliy qadriyatlarining tanazzulidir. Milliy qadriyatlar - millatning tarixi, yashash tarzi birligi, kelajagi, uni tashkil etgan avlodlar, ijtimoiy qatlamlar, millat, ong, til, ma'naviyat hamda madaniyat bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. O'zbekistonning Mustaqillikka erishishi tufayli milliy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Negaki, milliy qadriyatlar mustaqilligimizni mustahkamlaydigan ma'naviy asoslardan biridir[1].

Xalqimizning ajdodlardan-avlodlarga meros bo'lib kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan, sayqal topgan. Ularning o'tmishi 3 ming yildan ortiq davrni o'z ichiga oladi. Milliy qadriyatlarimizda dunyoning boshqa xalqlariga o'xshamaydigan boshqa urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va an'analaridagi o'ziga xoslik ham bor. Ma'lumki, qadriyatlar muayyan sharoitlarda shakllanadi. Shu sababli ular mahalliy, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy mazmunda mavjud bo'ladi. Mahalliy qadriyatlarining eng yetuklari va umummilliy manfaatlariga moslari asta-sekin saralanib umummilliy darajaga ko'tariladi.

**Tahlil va natijalar.** Qadriyatlarni tushunish va ularga munosabat o'z millatiga, yurtiga, eliga, ularning aholisiga tegishli qadriyatlarni jamlash, avaylash, ularning ahamiyatini asoslash o'z yurtining milliy qadriyatlarini o'z ongida, ongning tarkibiy qismiga aylantirish kishilarda o'ziga ishonch va hurmatni mustahkamlaydi. O'z Vatanining istiqboliga katta ishonch bilan qarashni o'rganadi.

Jamiyatimiz taraqqiyoti O'zbekistonning kelajagi, milliylikning rivojlanishi ko'p jihatdan milliy qadriyatlarimizga bog'liq. Biz shu tamoyilga xizmat qilmog'imiz lozim. Qadriyatlar - borliq va jamiyat, narsalar,

voqealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Qadriyatlar bilan bog'liq masalalar hayotning eng asosiy mavzulari bo'lib hisoblanadi[2]. Qadriyatlarni G'arbda aksiologiya fani o'rganadi. U keng tarqalgan falsafiy fanlardan biridir. Hozirgi davrda qadriyatlar to'g'risida mamlakatimizda falsafa, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik, psixologiya hamda pedagogika fanlari turli tadqiqotlar olib bormoqdalar. Chunki, qadriyatlar mustaqillikni mustahkamlaydigan ma'naviy omildir.

Ko'pchilik kishilar qadrlanadigan narsalar, hodisalar, qimmatbaho buyumlarni qadriyat deydishadi. Aslida esa ana shularning ijtimoiy ahamiyati qadriyatlarining haqiqiy bahosini aniqlaydi. Biror narsa, voqea yoki hodisaning qadri uning moddiy- iqtisodiy bahosidan katta farq qilishi mumkin. Masalan, ming yil ilgari buyumni hozir ishlatish mumkin emas edi. Uning iqtisodiy qiymati kam, ammo, meros sifatida qadri ancha salmoqli bo'lishi mumkin.

Qadriyatlar tarixiy va zamonaviy bo'lishi mumkin. Qadriyatlarining xilma-xil shakllari bor: moddiy va ma'naviy, umumbashariy, mintaqaviy, umuminsoniy. Qadriyatlar dunyoni bilishning maqsadi, bilimlarimizning haqiqatga mos kelish darajasini aniqlash mezonidir. Qadriyatlarining asosiy vazifasi ham ana shular bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Mamlakatimizda umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi e'tirof qilindi. Milliy qadriyatlar hamda shaxs manfaatlarini umuminsoniy talabalarga moslashtirish va uyg'unlashtirish asosiy vazifa bo'lib qoldi[3]. Qadriyatlar insoniyat tarixi davomida asta-sekin, "qadriyat" tushunchasi esa muayyan vaziyat va sharoitda shakllanadi. Jamiyat taraqqiy etgani sari jahonning barcha xalqlariga tegishli, ya'ni umuminsoniy qadriyatlar ko'payib boraveradi va bu o'zgarishlar insoniyat o'z rivojida qanday

yangi cho'qqilarni egallayotganining belgisi bo'ladi Qadriyatlar va qadriyat mezonlari kishilarga, ularning xulq-atvorini tartibga solish va to'g'ri yo'naltirishga xizmat qiladi. Bunday o'ziga xos boshqarishning samaradorligi kishilarimizning qadriyatlar olamini bilishiga bog'liq.

“Umuminsoniy qadriyat - jamiyat va odamzot nasli uchun eng qadrl va umumijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan narsalar, hodisalar sifat, faoliyat va boshqalarning ismini yoki nomini emas, balki ularning ijtimoiy qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy-aksiologik tushunchadir”[5]. Umuminsoniy qadriyatlar butun jamiyat ahamiyatiga ega bo'lib, insoniyatning mavjudligi, o'tmishi, buguni va kelajagini, yashashning asosiy yo'nalishlari, qonun qoidalarni, talab va tartiblarini, odamlarning eng azaliy orzu umidlari va ideallarini o'zida aks ettiradigan qadriyatlarining umumiy shakllarini ifodalaydi[5]”. Umuminsoniy qadriyatlar tizimida Sharq sivilizatsiyasi o'ziga xos madaniyat va ma'rifati olib kelganki, u o'ziga xos mafkuraviy immunitet kuchiga ega. Yoshlarimiz mafkuraviy immunitetini mustahkamlash uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'un bo'lmog'i kerak. Qadriyatlar har bir xalqning uzoq o'tmishi davomida turmush tarzi, tafakkur mahsuli sifatida dunyoga kelgan bo'lib, uning azaliy udumlari, urf-odatlari, an'alarini o'zida ifoda etadi. Vatanimiz xalqlarining milliy qadriyatlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Milliy qadriyatlarning mohiyatini bilish, ularga e'tiqod, ixlos qo'yish yoshlarda milliy g'urur, vatanparvarlik, milliy birdamlik va hamjihatlik tuyg'usini shakllantirishda, insonparvarlik, halollik, mehnatsevarlik. axloqiy poklik fazilatlarini kamol toptirish katta ahamiyatga ega. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgan hozirgi sharoitda vatanparvarlik tarbiyasi katta ahamiyat kasb etmoqda. Vatanparvarlik — o'z vatanini vijdonan sevish, uning taraqqiyot yo'li va istiqbolini anglab olish, manfaatlarini hamma sohalarida himoya qilishda fidoiylilik namunalari ko'rsatishdir.

Shu o'rinda milliy qadriyatlarga innovatsion qadriyat, innovatsion madaniyat atamalarini ham qo'shib o'tmoq joizdir. Avvalo innovatsiya nima? “Innovatsiya” atamasi lotincha “innovus” (in – in, novus – yangi, innovare – yangi qilish) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, yangilanish yoki takomillashtirish ma'nosini bildiradi. Innovatsion madaniyat-bu innovatsion tizimda eskilik va zamonaviy yangiliklarning dinamik birligini saqlab, inson hayotining turli sohalarida yangiliklarni maqsadli o'qitish, kompleks joriy etish va har tomonlama rivojlantirish bo'yicha bilim, ko'nikma va tajriba; boshqa so'zlar bilan aytganda, bu uzluksizlik tamoyiliga mos ravishda eskisini saqlab qolgan holda yangisini erkin yaratish demakdir. Inson madaniyat subyekti sifatida o'z atrofidagi tabiiy, moddiy, ma'naviy olamni shunday o'zgartiradi (yangilaydi), bu olam va insonning o'zi insoniy ma'noga tobora ko'proq singib ketadi, ya'ni ular insoniy lashtiriladi. Milliy qadriyatlarga innovatsion yondashib bugungi kun boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiyasini shakllantirish juda muhimdir[4].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda o'zbek oilalarida, jamoatchilik o'rtasida bola tarbiyasini amalga oshirishda katta tajriba bor. Bu tajriba asrlar davomida sinovdan o'tib, milliy qadriyatga aylanib ketdi. Bu qadriyatlar bolalarda mehnatsevarlik, insonparvarlik, halollik, ota-onani, kattalarni hurmat qilish, kichiklarni izzat qilish, kamtarlik kabi xislatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Milliy pedagogikaning bu boradagi merosi ham buyuk qadriyatdir. Shu sababli ham o'zbek yoshlari o'zining tarbiyasi, mehnatsevarligi, kattalarga hurmat e'tibori, kamtarligi, andishaliligi, halolligi bilan ajralib turadi.

O'zbek qizlarini mehnatsevarlik, kamtarlik ruhida tarbiyalash borasida ham katta tarixiy an'alarimiz bor.

Nomus, iymon, qizlik iffatini yuksak tutish odati ham ulkan milliy qadriyatdir. Qadriyatlarga xolisona yondoshish, ulardan ijtimoiy, tarbiyaviy masalalarni hal etishda samarali foydalanish hozirgi kundagi ko'plab dolzarb muammolarni hal etishning muhim shartidir[2].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni faqat dars jarayonlarida amalga oshirib bo'lmaydi. Bu jarayon boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsdan keyingi vaqtlarini taqsimlashlarida ham asosiy o'rinni egallashi zarur hisoblanadi. Sinfdan tashqari ishlarda tarbiyaning bosh maqsadi - yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy an'alariga urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarini ishlab chiqib, amaliyotda joriy etishdir. Sinfdan tashqari ishlarda tarbiyaning asosiy vazifasi – o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib - boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish. Bundan ko'rinib turibdiki boshlang'ich sinf o'quvchilarning milliy qadriyatlar haqidagi tushunchalarini singdirishda boshlang'ich sinf o'qituvchilari quyidagilarga katta ahamiyat berishlarini zarur deb hisoblaymiz:

1) Milliy qadriyatlar to'g'risida o'quvchilarga tushunchalar berishda o'qituvchining etarlicha bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi;

2) O'qituvchining o'zi milliy qadriyatlar haqida tushunchalarga ega bo'lishi;

3) Har bir mavzuni milliy qadriyatlarga bog'lay olishi;

4) O'quvchilariga milliy qadriyatlar haqidagi tushunchalarni singdira olishi;

5) Ta'lim-tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llay olishi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabda olgan nazariy bilimlarini amaliyotiga darsdan tashqari holatlarda: mahallada, oilada, turli xil bayram va tadbirlarda duch keladilar. Boshlang'ich sinf o'quvchisi vatanparvarlik, insonparvarlik haqidagi dastlabki tushunchalarini ham maktabga borgunlariga qadar oilada oladilar. Shu bois ota-ona o'quvchi maktabga borganda bu vazifani o'qituvchi zimmasiga yuklab qo'ymasdan, uning oilada bo'lgan paytida unga befarq bo'lmasligi, unga ma'naviy bilimlarini oshirishga va mustahkamalashga yordam berishlari zarur. Eng avvalo, bolada o'z oilasiga, ota-onasiga, opa-singil, aka-ukalariga mehr-muhabbatli bo'lishini o'rgatish, keyinchalik bu tuyg'uni qo'ni-qo'shni, mahalla, tuman, shahar miqyosiga ko'tarib, ona Vatanga cheksiz muhabbat hissini uyg'otish lozim.

“Bir bolaga etti mahalla ota-ona”, “Bolaning begonasi bo'lmaydi”- deyishadi dono xalqimiz.

Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy kamolotida qo'ni - qo'shni, mahallaning ham ahamiyati katta ekan. Boshlang'ich sinf o'quvchisi mahallasidagi do'stlari bilan bo'sh vaqtini o'tkazadi. Uning do'stlari aqlli, odobli, tarbiyali, ilimli bo'lsa, ularga o'xshashga, hatto ulardan oshib ketishiga intiladi[3].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining umuminsoniy qadriyatlarni shakllanishida sinfdan va maktabdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarning ahamiyati benihoyat kattadir. Shu bois o'qituvchi ota-onalar bilan hamkorlikda turli tadbirlar o'tkazishi va bu tadbirlarga barcha o'quvchilarni jalb qilish kerak. Agar tadbirlar faqat a'lochi va jamoatchi o'quvchilar jalb qilinaversa sinfdagi boshqa o'quvchilarga salbiy ta'sir ko'rsatishi, ularni ruhiyatini tushirishi, hatto o'qituvchilarni xudbinlikda ayblashlari mumkin.

Har bir boshlang'ich sinf o'quvchisini qobiliyatiga yarasha mas'uliyat yuklash, bu mas'uliyat esa uning olg'a intilishi uchun turki bo'lishini esdan chiqarmaslik kerak.

**Xulosa.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining gazeta, jurnal, radio va telvideniyaning ham ahamiyati kattadir. Har bir ota-ona farzandining qanday kitob, gazeta yoki jurnal o'qiyotganini, qanday radio tinglab tamosha qilayotganliklarini nazorat qilib turishlari lozim.

Kerak bo'lsa farzandlari bilan o'qigan kitoblari, ko'rgan teleko'rsatuvlari haqida suhbatlashib, ularni farzandlari ma'naviyatiga qanday ta'sir qilganligini aniqlashlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Tuxtayev O.X. Tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarni o'rni. Uslubiy qo'llanma. Toshkent: <<QAMAR MEDIA>>, 2022. - 78-b.
2. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.X., Normurodova B.A., Matnazarova K.O. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent – 2014.
3. To'ychiyev B.T. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi/ Ergashev I., Muxammadiyeva O.M., Xo'jayev M.I./ o'quv qo'llanma. - Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2020, 180-bet.
4. Николаев А.И. Инновацион ривожланиш ва инновацион маданият. Илм ва фан. 2001. № 2. п. 54-65.
5. Назаров К., Кадриятпар фалсафаси (Аксиология). Т. "Узбекистон Файласуфлари Миллий жамият нашристи" 2004. 78-6.



UDK: 37.026

*Maxfuza XURRAMOVA,*  
Termiz davlat pedagogika instituti magistri  
E-mail: rustamkhurramov@mail.ru

*TerDPIning pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD D.Shabbozova taqrizi asosida*

## FORM AND METHODS OF ORGANIZING HERMENEUTIC RELATIONSHIP IN EDUCATIONAL CONTENT FORMATION

Annotation

This article is written about the form and methods of organizing hermeneutic communication in the formation of educational content. It is appropriate to have information about the form and method of hermeneutic kinship in the formation of the educational content, if we focus separately on what this method and methodology are. In a general sense, methodology is understood as a system of methods used in the field of various activities.

**Key words:** Education, content, form, hermeneutic, method, feature, with, idea.

## ФОРМА И СПОСОБЫ ОРГАНИЗАЦИИ ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ СОДЕРЖАНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье написано о форме и методах организации герменевтической коммуникации при формировании содержания образования. Уместно иметь информацию о форме и методе герменевтического родства при формировании содержания образования, если отдельно остановиться на том, что это за метод и методика. В общем смысле под методологией понимается система методов, применяемых в сфере различных видов деятельности.

**Ключевые слова:** Образование, содержание, форма, герменевтика, метод, черта, с, идея.

## TA'LIM MAZMUNINI SHAKLLANTIRISHDA GERMENEVTIK YONDASHUVNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA METODLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola ta'lim mazmunini shakllantirishda germenevtik yondashuvni tashkil etishning shakli va metodlari haqida yoziladi. Ta'lim mazmunini shakllantirishda germenevtik yondashuvning shakli va metodi haqida ma'lumotga ega bo'lish uchun metod va metodologiya nima ekanligiga alohida to'xtalib o'tsak, maqsadga muvofiqdir. Umumiy ma'noda metodologiya deganda muayyan faoliyat sohasida qo'llaniladigan usullar tizimi tushuniladi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, mazmun, shakl, germenevtik, metod, xususiyat, bilan, g'oya.

**Kirish.** Mamlakatimizda germenevtik metodologiya tizimini tubdan isloh qilish, ayniqsa, pedagoglarning kasbiy faoliyati sifati hamda malakasini uzluksiz oshirish bo'yicha keng islohotlar olib borilishi natijasida pedagogik asoslarning o'ziga xos tizimi yo'lga qo'yildi. Bu borada ijodiy kompetentlikni shakllantirishning elektron monitoring tizimini yaratish, lokal modulli texnologiyalarni tatbiq etish, ijodkorlikni baholash mezonlari va parametrlarini aniqlashtirishning prognostik modellarini tatbiq etishning me'yoriy asoslari ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi davlat dasturida «Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish» kabi ustuvor vazifalar va yo'nalishlar belgilangan. Bunda esa germenevtik yondashuvning nazariy pedagogik asoslarida kasbiy tayyorgarlik darajasini va ijodiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish

bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi[1] Farmonlari, 2016-yil 14-sentabrdagi O'RQ-406 «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Adabiyotlar sharhi.** Oliy ta'lim tizimida ta'lim mazmunini germenevtik yondashuv asosida rivojlantirish masalalari o'zbek olimlari tomonidan kam o'rganilgan. Ular juda sanoqli Allayorova S, Nazarov Q, Bahodir Karim, Shermuhammedova N, Shukur Jabborov, Abdushukurov B, Abdulla Qodiriy kabi o'zbek olimlari tomonidan tadqiq etilgan.

Germenevtika sohasi asosan xorijiy davlatlarda tadqiq qilingan bo'lib, Fridrix Shleyermax, Vilgelm Diltey, Abdullin A.R, Arapov A.V, Borisov Ye, Brudniy A.A, Blass F, Gardner P, Gadamer X.G, Green G, Franka X, Shpet G.G, Shulga E.N, Shedrovitskiy G.P va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

**Tahlil va natijalar.** Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda ta'limga bo'lgan e'tibor nihoyatda oshmoqda. Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish,

ta'lim tizimi sifatini oshirishda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq, yuqori malakali kadrlar tayyorlash;"[2] belgilangan.

Har qanday fan o'zining ilmiy-tadqiqot metodlariga ega. Bu metodlari orqali u o'z mazmunini boyitib, yangilab boradi. Hayotda va obyektiv dunyoni bilish nazariyasida nimani o'rgatish va qanday o'rgatish kerak, kimni qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo'lib, ular o'zaro bog'liqdir. Pedagogika o'z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa hamda jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi.

Lekin falsafiy tadqiqotlar kontekstida metodologiya, eng avvalo, uslublar haqidagi ta'limotdir. ilmiy faoliyat, ilmiy uslubning umumiy nazariyasi. Uning vazifalari ilmiy bilish jarayonida tegishli usullarni ishlab chiqish imkoniyatlari va istiqbollarni o'rganishdan iborat. Fanning metodologiyasi usullarni tartibga solish, tizimlashtirish, ularni turli sohalarida qo'llash maqsadga muvofiqligini aniqlashga intiladi.

Fanning metodologiyasi fanda sodir bo'ladigan bilish jarayonlarini, ilmiy bilishning shakli va usullarini o'rganuvchi ilmiy bilish nazariyasidir. Shu ma'noda u falsafiy xususiyatga ega bo'lgan metafan bilim sifatida ishlaydi.

Metod esa (yun. "metodos" — bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot)-voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.

Metodologiya uslubning umumiy nazariyasi sifatida falsafa va fanda paydo bo'lgan usullarni umumlashtirish va rivojlantirish zarurati bilan bog'liq holda shakllangan. Tarixiy jihatdan dastlab fan metodologiyasi muammolari falsafa doirasida (Sokrat va Platonning dialektik metodi, Bekonning induktiv metodi, Gegelning dialektik metodi, Gusserlning fenomenologik metodi va boshqalar) ishlab chiqilgan. Shuning uchun fan metodologiyasi falsafa, ayniqsa bilish nazariyasi kabi fan bilan juda chambarchas bog'liq[3].

Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari qanchalik mukammal, aqlga muvofiq, to'g'ri tanlansa ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, pedagogika fani ham boyib boradi. Pedagogik va psixologik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, obyekti va subyektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo'llash jarayonida ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holati aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi. Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhimdir[4].

Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajribasinoz ishlari subyektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga

jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bo'lishga erishish muhimdir.

Anketa metodi (fransuzcha - tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko'p hollarda, yozma ravishda olinadi.

Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi. Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni mavola etish asosida o'tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir[5]. Mazkur metod O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarining ta'lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o'rganish, bu boradagi faollik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg'or tajribalarni ommalashtirish va ta'lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo'llaniladi. Ta'lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: o'quv mashg'ulotlarining jadvali, o'quv dasturi, guruh (yoki sinf) jumallari, o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig'ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o'quv-tarbiya ishlari tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol stullar, yumshoq inebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test metodini qo'llashda aniqlanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo'yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejilishi bilan tavsiflanadi. Biroq metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlaridan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o'z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyatiga ega emas.

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi. Bolalar ijodini o'rganish metodi. Mazkur metod o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalarini bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari - kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi. Pedagogik tadqiqot metodlari o'qituvchining pedagogik faoliyatini oshirishga qaratilgan tadqiqot vazifalarining aniqligi, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, bolalar psixologiyasi qonuniyatlarini

hisobga olish kabi xususiyatlarini yaxshilab, uning darajasini oshiradi. Shunday ekan, germenevtika yaxlit fan emas. Biroq u ijtimoiy-gumanitar fanlar metodologiyasi sifatida qamrovi jihatidan ko'plab sohalarda amal qilish xususiyatiga ega[6].

Germenevtik metodologiyaning nazariy asoslarini tahlil qilish, bugungi kunda talqin va tushuntirishga muhtoj bo'lgan ma'naviy merosimizni tushunishga zamin bo'lib xizmat qiladi. Zero, miloddan avvalgi VII-VI asrlarga borib taqaladigan falsafiy bilimlarning germenevtik talqini ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi tadqiqotlar uchun muhim metodologik asosdir. Umuman olganda, barcha fanlar nimanidir tushunib, nimanidir tushuntirishga yo'naltirilgan.

Metodika ilmiy bilish faoliyatining shakllari va metodlari majmui haqidagi fan bo'lib, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi esa shu fanlarni o'rganish metodlari va ularni dars jarayonida qo'llash yo'llarini o'rganadi. Metodika bilan didaktika uzviy bog'liq bo'lib, metodika didaktikaning bo'limi. Didaktika bilim olish, uni o'zlashtirish, ko'nikmalar hosil qilishning prinsiplari, uslublari, o'quv jarayonini tashkil etishga oid barcha masalalarni o'rganadi[7].

Qo'yilgan maqsadga ko'ra o'quv jarayoni tashkil etiladi va o'quvchi-talabalar uchun topshiriqlar ishlab chiqiladi. Metod nihoyatda serqirra, murakkab tuzilishga ega bo'lib, dastlab pedagog olimlar tomonidan turli jihatdan yondashgan holda guruhlariga bo'lish tendensiyasi ustun bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda metodlarni u yoki bu xususiyatlariga ko'ra guruhlariga bo'lishdan voz kechish tendensiyasi vujudga keldi. Haqiqatan ham metodlarni

guruhga bo'lishdan maqsad ularni o'rganilayotgan fanning, mavzuning o'ziga xos tomonlarini, uni o'rganishdan qo'yilgan maqsadni hisobga olgan holda samarali qo'llash. Shuning uchun metodlarni guruhlariga bo'lish bo'lmaslikdan qat'i nazar har birini chuqur o'rganib chiqish zarur. Umuman olganda, guruhga bo'lish shartli bo'lib, metodlar bir-birini to'ldiradi, biri ikkinchisini taqozo qiladi. O'quv jarayonini tashkil etishda o'quvchi-talabalarga ta'lim berish jarayonida real hayotda sinab ko'rilgan hamda o'zini oqlagan o'qitish shakllari va turli metodlaridan foydalaniladi. O'qitish jarayon sifatida obyektiv va subyektiv tomonlarning birligidir. O'quv jarayonini tashkil etish dars berish metodlarini samaraliligini ta'minlashda o'qituvchi asosiy rol o'ynaydi. Shuning uchun ham har bir o'qituvchi unga qo'yilgan talablarga javob berishi, o'z o'stida tinmay izlanishi, metodikani puxta egallagan holda o'rganilayotgan fanning, mavzuning xususiyatlariga ko'ra, turli metodlarni qo'llay bilish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur.

**Xulosa.** Model g'oyalarini tekshirish bo'yicha tajribas-inov tadqiqoti natijalarni belgilash va qo'llanilgan pedagogik vositalarning samaradorligini aniqlashni nazarda tutadi. O'quvchilarda ta'lim mazmunini shakllantirishda germenevtik yondashuvni shakllantirishning natijadorligi asosiy maqsadga erishilganlik darajasi va ta'limiy tayyorgarlik darajasining rejalashtirilayotgan kompetensiya talablariga muvofiqligi bilan belgilanadi. O'quvchilarda ta'lim mazmunini shakllantirishda germenevtik yondashuvni shakllantirishning samaradorligi bilish, amaliy operatsional va ijodiy mezonlar tizimi asosida aniqlanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. –T., 2017. –B.39.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –B.126-127.
4. Olimov Sh.Sh. . Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. Monografiya. – T., “Fan va texnologiya”, 2015. -126-bet.
5. Umarov E., Abdullaev M. Ma'naviyat asoslari. –T.: “Cho'lpon”, 2006.
6. Erkaev A. Ma'naviyat – millat nishoni. – T.: “Ma'naviyat”, 1997.
7. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. –T.: “Universitet”, 1998.



UDK: 373.211.24

*Jumagul XUSANOVA,*  
*Termiz davlat Pedagogika instituti magistranti*

*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Norbosheva M. A. taqrizi asosida*

#### DEVELOPMENT OF MANAGEMENT ACTIVITY IN ORGANIZING THE PROCESS OF EDUCATION AND EDUCATION IN NON-STATE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Annotation

The article reveals the content and opportunities for the development of management activities in the organization of the educational process in non-state preschool educational organizations and proposes its application, taking into account their characteristics.

**Key words:** Efficiency, activity, educator, education, upbringing, management, preschool education, leader, development.

#### РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ОРГАНИЗАЦИИ ПРОЦЕССА ВОСПИТАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

Аннотация

В статье раскрывается содержание и возможности развития управленческой деятельности в организации образовательного процесса в негосударственных дошкольных образовательных организациях и предлагается ее применение с учетом их особенностей.

**Ключевые слова:** Эффективность, деятельность, воспитатель, образование, воспитание, управление, дошкольное образование, руководитель, развитие.

#### NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM -TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHDA BOSHQARUV FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH

Аннотация

Maqolada nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil etishda boshqaruv faolligini rivojlantirish mazmuni va imkoniyatlari ochib berilgan va ularning xususiyatlarini inobatga olgan holda uni qo'llash taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** Samaradorlik, faollik, tarbiyachi, ta'lim, tarbiya, boshqaruv, maktabgacha ta'lim, rahbar, rivojlantirish.

**Kirish.** Bugungi kunda nodavlat ta'lim muassasalari o'z faoliyatiga boshqaruv funktsiyalarini joriy etib, bozor munosabatlarining to'liq ishtirokchilari hisoblanadi. Boshqarish funktsiyalari tarkibida tizimli tahlil va qaror qabul qilish alohida o'rin tutadi. Prezidentimiz yoshlar bilimiga, nodavlat ta'lim xizmatlari sifatiga e'tibor berar ekan: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", deya ta'kidlaydi [2].

Nodavlat maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik jarayon tashkilotchilari hisoblangan rahbarlar va tarbiyachilar belgilangan maqsadlarga erishishda tarbiyalanuvchilarning qiziqishi, ehtiyoji va qobiliyatlarini, shaxsiy xislatlarini, shuningdek pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etishning murakkab tomonlarini faol o'rganishlari va shular asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish, samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli tadbirlarni ishlab chiqishlari zarur.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarda tarbiyalanuvchilarning faolligini ta'minlash va takomillashtirish hamda ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirishning eng asosiy shartlaridan biri pedagog xodimlarning faoliyatini ilmiy asosda tashkil etilishidir. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda tarbiyachilar faoliyatining ilmiyligi yangiliklarini izlash, o'rganish va ularga asoslanish hamda ilmiy asoslangan ma'lumotlardan foydalanish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishning pedagogik, psixologik va

ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini o'zlashtirish, shular qatori mashg'ulotlar jarayonlarida innovatsion yondashuv texnologiyalarini joriy etish kabi vazifalarni belgilaydi. aktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan. Davlat talablari aniq bir yoshdagi bolaning rivojlanish standartlarini va bolaning yutuqlari va rivojlanish darajasini baholash imkoniyatini beruvchi indikatorlarni belgilaydi. Ushbu xujjat, birinchi navbatda, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oilalarga bolaning to'laqonli rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasida, uni maktabda ta'lim olishga samarali tayyorlashda va bolalar qamrovini yanada kengashtirishga yordam berishni nazarda tutadi. Bugungi kunda yosh avlodni barkamol insonlar qilib tarbiyalash xamda uzoq qishloqlarda maktabgacha ta'lim tashkilotiga bolalarni qamrab olishni kengaytirish maqsadida oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tashkil etilishi uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bo'lgan yana bir muhim e'tibor desak mubolag'a bo'lmaydi [1].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Rivojlangan mamlakatlarni nodavlat ta'lim xizmatlari jumladan Yevropa mamlakatlaridan Buyuk Britaniya, Germaniya va Osiyo mamlakatlaridan Singapur, Janubiy Koreya, Xitoy, Yaponiya tizimi turlicha tashkil etilgan bo'lsada, ulardagi o'quv, o'quv uslubiy ishlari tashkil etilishi ham o'zlarini turlicha ijobiy tomonlari bilan ajralib turadi. Ta'limning xizmat xususiyatlari, ta'lim xizmatlariga oid ilmiy tadqiqotlar, nodavlat ta'lim xizmatlarining menejment va marketing masalalari Sh.M.Aliyev, Y.V.Burdenko va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Ta'lim xizmatlariga oid tizimli tadqiqotlar P.G.Altbach, G.P. Kelly kabi xorijiy olimlar va mamlakatimiz olimlaridan M.Q.Pardayevning ilmiy

izlanishlarida o'z aksini topgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi bo'yicha T. S. Usmanxodjaev, R. S. Salomov, N. N. Djalilova, kichik yoshdagi bolalarni sog'lomlashtirish ishlari bo'yicha D. D. SHaripova, N. A. Vinogradova, harakatli o'yinlar va ularni amalga oshirish bo'yicha R. Azizova, G. M. Salimov, F. A. Kerimov, S. S. Tajibaev, maktabgacha yoshdagi bolalarni turli [7].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Boshqarish usulining eng muhim belgilaridan biri uning ilmiy yondashuvga tayanishida namoyon bo'ladi. Zero, bugun boshqaruv jarayonini ilmiy asosda tashkil etmasdan uning izchilligi va samaradorligini tasavvur etib bo'lmaydi.

Albatta, rahbar shaxs muayyan sohani. korxonada yoki tashkilotni samarali boshqarishi uchun. avvalo, etarli malaka va bilim, rahbarlik salohiyati, ko'plab ma'naviy-axloqiy xislat va fazilatlar sohibi bo'lishi darkor. Ta'lim sohasi, jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish ham bundan istisno emas. Ushbu muassasalardagi boshqaruv faoliyatida nazariy bilim va amaliy tajriba va ko'nikmalarni o'zaro uyg'un holda qo'llash ta'lim-ta'lim bilan bog'liq masalalarni talab darajasida hal etish, bu jarayonda foydalaniladigan usul va uslublarni uzluksiz takomillashtirib borish, umuman olganda, maktabgacha ta'lim-ta'lim tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu ma'noda, kadrlarni tanlash, tayyorlash, malakasini oshirish barobarida ularning rahbarlik salohiyati va ma'naviyatini yuksaltirish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sifati va unga ta'sir ko'rsatuvchi shart-sharoitlarning asosiy tavsiflarini tadqiq qilish rivojlanish istiqbollari haqida fikr yuritish imkonini beradi. Bunday yondashuvda uni o'zgartirish jarayonida ta'lim sifati tarkibi va mazmunidagi o'zgarishlarni o'rganish imkonini yaratadi. Ta'lim tizimiga obyektiv ravishda xos bo'lgan integral sifat - inersiyalilik - ta'lim va kasb-hunar dasturlarining tegishli tarkibiy qismlarini takomillashtirishga tegishli darajada prognozlashni zarurligini anglashda, ularning aniq o'zlashtirilishini ta'minlashda, shuningdek, tegishli pedagogik tizimga singdirilgan ilmiy bilimlarning bashoratli yo'nalishi sharoitida hisobga olinishi mumkin. Aynan shu boisdan ham, uzluksiz ta'lim va pedagogika fani sohasida ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-tarixiy, etnopsixologik va boshqa turdagi prognoz qilish natijalarini majburiy tartibda integratsiyalashni ko'zda tutuvchi uzluksiz ta'limning yaxlit tizimini rivojlantirishni prognozlashga tizimli yondashish dolzarb ahamiyat kasb etadi [10].

**Tahlil va natijalar.** Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi qonun hujjatlariga muvofiq muassasa shaklida tashkil etiladi. Davlat maktabgacha ta'lim muassasasining muassislari toifasiga kirmaydigan barcha yuridik va jismoniy shaxslar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasining muassislari bo'lishi mumkin.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan tartibda letsenziya olgan vaqtdan vaqtdan boshlab ta'lim faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega bo'ladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim mazmuni maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablariga asosan ishlab chiqilib, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan yoki tavsiya qilingan dasturlar bilan belgilanadi. Muassasa o'z(mualliflik) dasturlaridan foydalanishga haqlidir. Ushbu dasturlarni tartibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasining ish tartibi va bolalarning muassasada bo'lish vaqti muassasa ustavi hamda muassisning qarori bilan belgilanadi. Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasida 5 kunlik ish haftasi uchun, qoida tariqasida quyidagi ish tartibi joriy etiladi:

12 soatli; 10,5 soatli; 9 soatli; 4 soatli;

Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi joylashgan hududda yashaydigan aholi talablaridan kelib chiqib, nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasida yoki uning alohida guruhlarida 6 kunlik ish haftasi ham joriy etilishi mumkin.

Quyidagilar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasining vazifalari hisoblanadi:

- Ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish;
- Bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog'ligini mustahkamlash;
- Bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish;
- Bolaning intellectual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishini ta'minlash;
- Bolaning rivojlanishidagi(nutqida, ko'rishida, eshitishda) yengil nuqsonlarni korreksiyalashni amalga oshirish;

Bolalarda xalqimizning yuksak ma'naviyati va insonparvarlik an'analariga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish. Nodavlat ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan va boshqariladigan pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlashda ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarni muntazam tadqiq qilish, subyektlar faoliyatini nazorat qilib, nazorat natijalarini tahlil qilish va obyektiv baholash asosida qo'llab-quvvatlangan, ma'qullangan, shuningdek, tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarchilar o'rtasida yangi va ishonchli axborotlar almashinuvini ta'minlovchi tizimni joriy etish eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Nodavlat maktabgacha ta'lim: avvallari xususiy bog'cha degan nomning o'zi odamlarni biroz o'zidan itarardi. Chunki davlat bog'chasi bilan xususiy bog'cha narxi o'rtasidagi tafovut keskin farqlanar, bunday ta'lim tashkilotiga moddiy jihatdan baquvvat oilalar farzandlari borishi kerak degan tushuncha shakllangan edi. Bu qarash bugun biroz bo'lsa-da o'zgardi. Sababi nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar evaziga bugun yurtimizda nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari (NMTT) soni keskin ortdi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi bog'chalar qurish bo'yicha davlat dasturi qabul qilinib, amalga oshirilmoqda. Bu esa tizimda sog'lom raqobatni shakllantirish hamda ta'lim xizmatlari turini ko'paytirishga xizmat qiladi [4].

**Xulosa va takliflar.** Shunday qilib, bizning fikrimizcha, nodavlat ta'lim muassasasi faoliyati va rivojlanish istiqbollari tahlil qilish asosida, imkoniyatlar va tahdidlarni baholash, kuchli va zaif tomonlarni aniqlash usullaridan foydalanib, Porterning 5 ta kuchidan, raqobatchilarning strategik guruhlar xaritasidan, STEP(PEST) tahlilidan foydalanish yuqori samaradorlik keltiradi. Nodavlat ta'lim muassasasi tomonidan muntazam ravishda olib boriladigan ichki tahlil quyidagilarni baholaydi: 1) boshqaruv tizimining elementlari (boshqaruvning umumiy va o'ziga xos funksiyalari, tashkiliy tuzilishi, boshqarish usullari va boshqalar), 2) o'quv tizimi elementlarining sifat jihatlari (ta'lim xizmatlari, o'qituvchilar tarkibi, xodimlarning shaxsiy samaradorligi, ularning motivatsiyasi va 3) o'quv tizimi (kirish, chiqish, o'quv jarayoni elementlari) 4) ta'lim muassasasining moliyaviy va boshqa moddiy resurslardan foydalanish samaradorligi darajasi, yangi loyihalarni amalga oshirish uchun moliyaviy hayotiyli. Muntazam ravishda olib boriladigan tashqi tahlil ta'lim muassasasi faoliyatiga u yoki bu darajada ta'sir qilishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar belgilarini aniqlaydi. Tahlil qilish jarayoni boshqa maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish kabi boshqa funksiyalarni amalga oshirish uchun axborot asosini yaratadi. Xulosa qilib aytganda, bola shaxsini shakllantirishda

nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarimizning ham o'zni beqiyos. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi ham bolalar shaxsini rivojlantirishga qaratilgan ta'im asosida

ularning aqliy, intellektual, emotsional, jismoniy, va ma'naviy aspektlarini inobatga olgan xolda mukammal bilim bilan qurollantiradilar.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenining "Nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3276-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-sentabrdagi "Nodavlat ta'lim xizmatlari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ3776 Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 27-martdagi "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash tartibini takomillashtirish to'g'risida" 241-sonli Qarori.
4. Qayumova N. Maktabgacha pedagogika. Toshkent 2013-yil.
5. Valijonov R., Qobulov O., Ergashev A. Menejment asoslari. -Toshkent: Sharq, 2012 -207-b.
6. Qodirova F, Qayumova N.Maktabgacha pedagogika. Darslik. Toshkent. Tafakkur nashriyoti. 2019.
7. Urazov S. "Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirishda tahlilning innovasion usullaridan amaliy foydalanish" Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2021.06. 543-549-b.
8. Shodmonova. Sh.Maktabgacha ta'lim pedagogikasi.Fan va texnologiya.-T.,2008-y.
9. Xusanova J. S. "Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda boshqaruv faolligini rivojlantirish" International Conference On Educational Innovations And Applied Sciences 2022/9. 43-45-b.
10. Ustupova P.Y. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. - T., «O'qituvchi». 1993.



UDK:373.211.24

*Sarvinoz ESHQOBILOVA,*  
*Termiz davlat Pedagogika instituti magistranti*

*Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) M. A. Norbosheva taqrizi asosida*

## DEVELOPMENT OF THINKING OF PRESCHOOL CHILDREN IN THE PROCESS OF SPEECH DEVELOPMENT ACTIVITIES

Annotation

In the article, the organization of pre-school education is the formation of basic skills in the preparation of children for school education. Innovative educational technologies are introduced into the process of children's speech development, and effective methods of forming independent thinking skills through speech development exercises are presented.

**Key words:** Speech, technology, preschool education, communication, innovation, thinking, activity, children, creative ability, upbringing.

## РАЗВИТИЕ МЫШЛЕНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА В ПРОЦЕССЕ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В статье под организацией дошкольного образования понимается формирование основных навыков подготовки учащихся к школьному обучению. В процесс речевого развития детей внедряются инновационные образовательные технологии, а также представлены эффективные методы формирования навыков самостоятельного мышления с помощью речевых упражнений.

**Ключевые слова:** Речь, технология, дошкольное образование, общение, новаторство, мышление, деятельность, дети, творчество, образование.

## MAKTABGACHA YOSHDA BOLALARNING NUTQ O'STIRISH FAOLIYATLARI JARAYONIDA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarni maktab ta'limiga tayyorlanishida asosiy ko'nikmalarni shakllantirishdir. Bolalarning nutqini o'stirish jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy, nutq o'stirish mashg'ulotlari orqali mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning samarali usullari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Nutq, texnologiya, maktabgacha ta'lim, muloqot, innovatsiya, tafakkur, faoliyat, bolalar, ijodiy qobiliyat, tarbiya.

**Kirish.** Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz tizimning birinchi bo'g'ini hisoblanib u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ushbu sohani rivojlantirish uchun qator qaror va farmonlar imzolandi.

Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-sonli Qarori "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 9-sentyabrda "Maktabgacha ta'limni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida: kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning amaldagi tizimi maktabgacha ta'lim sohasini bolalarni tarbiyalash va hartomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlay olmasligi" kabi mavjud tizimli kamchiliklar maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosatini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilishi ta'kidlab o'tilgan [3].

Maktabgacha ta'lim tizimini qayta qurishning asosiy yo'nalishlaridan biri bolaning xususiyatlari, imkoniyatlari, layoqati va qobiliyatlarini e'tiborga olgan holda uni shaxs sifatida mukammal rivojlantirishga qaratilgan ta'limdir. Muloqot bolaning ilk yoshidan boshlab psixik taraqqiyotining asosiy faktorlaridan biridir. Maktabgacha yoshda bolaning kattalar bilan muloqoti 4 xil ko'rinishda bir-birini to'ldiradi, ular: vaziyatli-shaxsiy, vaziyatli-ishchanlik, vaziyatdan

tashqari- bilish va vaziyatdan tashqari-shaxsiy muloqot. Tengdoshlari bilan 3 xil munosabat shakllari:hissiy-amaliy, vaziyatli-ishchanlik va vaziyatdan tashqari-ishchanlik ko'rinishlari mavjud.

Muloqot qilish motivlari va mazmuni o'zgaradi, muloqotga kirishish malakasi hamda ko'nikmasi shakllanib maktabga psixologik tayyorlikning komponentlaridan biri bo'lmish muloqotga kirishish sifatida shakllanadi. Bola sekin-asta kattalar bilan o'z munosabatlarini aniqlay boshlaydi (kattalar bolalarga qanday munosabatdalar va boladan nimani kutadilar). Tengdoshlariga nisbatan qiziqish kattalarga qiziqishga nisbatan kech ro'yobga chiqadi. Tangdoshlari bilan muloqot turli jamoalarda to'planadi. Boshqa bolalar bilan munosabat shakllanishiga faoliyatlarining qanday olib borilishi va bolaning bu topshiriqlarni bajarish malakalari ta'sir ko'rsatadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Hozirgi zamon nutq tadqiqotchilariga tizimli yondashuv xos bo'lib, bu hodisalarni u yaxlit tizim sifatida mavjud bo'ladigan tashqi va ichki munosabatlarning ko'pligi hodisalarini o'rganishda namoyon bo'ladi. Nutq-til tizimi munosabatlarning ko'pligida ishtirok etadi, bunda uning so'z ma'nosini tarjima qiluvchi hamda psixofiziologik hodisa, muloqot va ijtimoiy aloqa vositasi sifatida inson ongi va hissiyotlari bilan uzviy bog'liqlikda bo'lgan semantik axborot apparati sifatida faoliyat yuritishi ushbu munosabatlarning asosylaridan biri hisoblanadi. Nutq yaxlit faoliyat va nonutqiy harakatga qo'shilgan nutqiy harakat kabi til orqali bog'langan tarixan shakllangan muloqot shakli sifatida ko'rib chiqiladi (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, A.A.Leontev, I.A.Zimnyaya)

[6].

Psixologik hodisa sifatida insonning nutqiy qobiliyatining to'liq konseptual modelini qurishga nutqni psixologik tadqiq etishning istiqbolli vazifalaridan biri sifatida qaraladi (T.N.Ushakova). Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: «Nutqni o'stirish va rivojlantirish jarayoni bola lug'atining va so'zlarning assotsiatsiya asosida bog'lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o'zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatdan o'zgarish jarayonidir, zero u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog'langan holda so'zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir». F.R.Qodirova, R.M.Qodirova, G.X.Jumashova, S.G'oziyeva, V.S. Muxina, D.R. Babayeva, N.N. Djamilova, V.N. Drujinin, Q. Shodiyeva, G.E.Djanpeisova, M.Sh.Rasulova, N.U.Bikboyeva, A.G.Grigoryans, kabi bir guruh olimlar tomonidan bolalarni nutqini o'stirishda tevarakatrofdan samarali foydalanish yuzasidan metodik tavsiyalar ham ishlab chiqilgan. E.V.Tixeyeva, O.I.Solovyova tomonidan, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini o'stirish muammosi o'rganilgan [5].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish ko'p jihatdan quyidagilarning to'g'ri hal etish bilan bog'liq: - nutqni rivojlantirishga doir didaktik materiallar tarkibiga ota-onalar, tarbiyachining ma'lum maqsadga qaratilgan nutqi, bolalarga o'qib yoki aytib beriladigan ertak, she'r, qo'shiqlar, hikoyalar muntazam kiritilishi;

- Ta'limning didaktik materiallarni foydalanadigan tarzda zamonaviy tashkil etilishi;

- Ta'limiy o'yinlarda bolalarning faol nutqiy muloqotda bo'lishini ta'minlash. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi bolalarning nutq qobiliyatini shakllantirishda quyidagi qiyinchiliklarga duch kelmoqda:

- Har bir bolaning individual qobiliyatlarini aniqlash va mos ravishda rivojlantirish;

- Hamkorlikka asoslangan ta'lim munosabatlarida bolani faollashtirish;

- Nutqiy qobiliyati yashirin bolalar bilan olib boriladigan alohida o'yinli vaziyatlar yaratish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning izchil nutqini shakllantirish va faollashtirish uchun an'anaviy usul va metodlar bilan bir qatorda quyidagi innovatsion texnologiyalar qo'llaniladi: 1. Vizual modellashtirish texnologiyasi. 2. AKT texnologiyalari. 1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishda vizual modellashtirish samaralidir. Ushbu usul yordamida tarbiyachi va bola soddalashtirilgan sxematik tasvirlar - belgilar, belgilar yordamida obyektlar, hodisalar, harakatlar, tushunchalar, epizodlarni tasvirlaydilar. Vizual modellashtirish bolalarga turli xil bilimlarni yetkazish usuli sifatida ajralib turadi. Shuningdek ularning aqliy va nutq qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi sifatida muvaffaqiyatli ishlatiladi. Yuqorida keltirganimiz "Rasmlarning o'rmini top" o'yini vizual modellashtirishga misol bo'la oladi. 2. Psixologlarning ta'kidlashicha, bolalarga kompyuterda, katta ekranda namoyish etiladigan har qanday yangi ma'lumot jozibali hisoblanadi. Zamonaviy bolalar ba'zida ma'lumotlarni oddiy eshitganidan ko'ra kompyuter texnologiyalari vositasida tezroq o'rganadilar. Birgina misol, eshitgan hikoyasi personajlarini yodidan ko'tarilishi mumkin, lekin multfilm qahramonlarini uzoq muddat eslab qoladi. Shuning uchun bugungi kunda maktabgacha ta'limda AKTdan foydalanish zarurati aniq. Nutqni rivojlantirish uchun ta'limiy jarayonda AKTdan foydalanish juda keng imkoniyatlarni taqdim qiladi [8].

**Tahlil va natijalar.** Ilk bolalik chog'iga taalluqli bo'lgan nutq o'sishi va rivojlanishi bosqichlari turli sohalar olimlarini, jumladan pedagog-psixologlar, lingvistlarni, eng avvalo, bu nutq rivojlanishidagi o'ziga xos davr bo'lganligi

uchun ham qiziqtiradi. Ilk yoshda nutqni o'stirish va rivojlantirish ikki yo'nalish bo'yicha ro'y beradi: 1 - nutqni tushunishni takomillashtirish; 2 - bola nutqining faolligini shakllantirish. Bolalar nutqini psixologiya-pedagogika nuqtai nazaridan tadqiq etishni F.A.Soxin va O.S.Ushakovlar tasnifiga ko'ra, uchta yo'nalishga ajratish mumkin: tarkibiy, funksional, kommunikativ funksiyada tilni egallash ko'nikmalarini shakllantirish. Ilmiy tadqiqotlar va yo'nalishlar tahlili maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining turli tomonlarini rivojlantirish xususiyatlari hamda ularning ilmiy adabiyotda o'rganilganlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida nutqni rivojlantirish faoliyatida tafakkurni shakllantirishda o'yin faoliyatidan to'g'ri va unumli foydalanish, har bir o'tkaziladigan mashg'ulotlar va sayr faoliyatining samaradorligini oshirib boradi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida o'yin faoliyati turli xil shaklda voqeaband - ijroli, harakatli, ta'limiy, musiqiy-ta'limiy kabi yo'nalishda olib boriladi. O'yin bolalar uchun qiziqarli, mazmunli bo'lishi uchun tarbiyachi o'yin qoidasi bilan yaqindan tanish bo'lishi kerak. O'yin mashg'ulotlaridan voqeaband - ijroli o'yinlar orqali bolalar tafakkuri kengayadi va qiziqishlari rivojlanadi. Rolli o'yinlar orqali bolalarga ularni qurshab turgan kishilarning kundalik hayoti, o'zaro munosabatlari, turmush kechirish yo'sinlari bilan tanishib boradi. Bolalar hamisha kattalarga taqlid kilishadi, qo'g'irchog'ini erkalayotgan qizcha onasining so'zini takrorlaydi, qo'g'irchog'ini beshikka belab alla kuylaydi, mana shu birgina o'yin orqali unda oila sharoitidagi ko'nikmalar hosil bo'layotganligini kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari "Shifokor", "Sartaroshxona", "Do'konda", "quruvchilar", "Tikuvchilar", "Bog'cha", "Maktab - maktab" kabi o'yinlar orqali maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar qalbida kasbga qiziqish, faollik, o'zgalarga mehnatiga hurmat, ahil va inoqlilik, shirinsuhanlik kabi hislatlar o'stirib boriladi. Bolalar yoshiga mos ertaklardan, rus xalq ertagi "Shol'om", "Bo'g'irsok", o'zbek xalq ertagi "Zumrad va qimmat", "Ikki echki" kabilarni sahnalashtirish, qo'shiqlarni, she'rlarni, hazillarni yod oldirish bola xotirasini mashq qildiradi, fikrni to'plash qobiliyatini, so'z boyligini, nutq faoliyatini, estetik madaniyatini, bolalarda ijrochilik mahoratini, o'ziga bo'lgan ishonch kabi qobiliyatlarni tarkib topishiga yordam beradi [4].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rinda shuni aytilish mumkinki maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy faollikni shakllantirish masalalarini nutqiy faoliyat nazariyasi asosida tadqiq etish maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi uchun ham, amaliyoti uchun ham dolzarb va ahamiyatga molik masala hisoblanadi. Ma'lumki, bolalar o'z iqtidoriga qarab turlicha darajada rivojlanadi va o'z navbatida pedagogning rahbarligi ham bosqichli xususiyatga ega bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolada nutqni rivojlantirish muammosi bugungi kunda juda dolzarbdur, chunki so'nggi paytlarda turli xil nutq buzilishlariga ega bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarning ulushi oshdi, va bu bolalar bilan uzoq muddatli ishlashni talab qiladi. Rivojlangan nutq kognitiv jarayonlarni shakllantirish ko'rsatkichlaridan biridir: diqqat, xotira, mantiqiy fikrlash, tasavvur kabi. Agar ular buzilgan bo'lsa, unda bolaga maktab o'quv dasturini o'zlashtirish qiyin bo'ladi. Zamonaviy maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining rivojlanish darajasi qoniqarsiz deb ta'riflanishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini mamlakatning turli mintaqalaridagi mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan so'rovnomalarni shuni ko'rsatdiki, bolalarning katta qismi turli xil nutq nuqsonlariga ega. Bolalar bog'chasiga kelgan nutqsiz ikki yoshli bola endi tarbiyachilarni hayratda qoldirmaydi. Nutqni e'tiborsiz qoldirish bolalar maktabga kirganda aniq namoyon bo'ladi. Bu yerda o'quv jarayoniga to'sqinlik qiladigan jiddiy nutq muammolari paydo bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini sifatli va o'z vaqtida rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatish, malakali

yordam ko'rsatish, ularning nutqini rivojlantirishda mumkin darajasini keskin pasaytiradigan sabablarni tushunish kerak. bo'lgan og'ishlarning oldini olish uchun iloji boricha, nutq

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-sonli "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 9-sentyabrda "Maktabgacha ta'limni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
4. Babayeva D.R. Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va metodikasi.O'quv qo'llanma. - Toshkent, 2017
5. Qodirova F.R., Qodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi. -T. 4.2004.
6. Qodirova M.R., Qodirova F.R. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. -Toshkent, 2006.
7. Jo'raqulov R., To'xtayeva Sh. Bog'chalarning kichik guruhlarida bolalar nutqini o'stirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar.- Samarqand, 1991.
8. Raupovna D.J. "Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishdagi innovatsion texnologiyalarning tasnifi" "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 May 2022 / Volume 3 Issue 5. 883-889-b
9. Shodiyeva Q. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. -Toshkent, 1995.
10. Mavlonova R.A., To'raeva O.T., Xoliqberdiev U.M. Pedagogika. — T., O'qituvchi». 2001.



*Mansur YUNUSOV,*  
Davlat boshqaruvi akademiyasi dotsenti, f.f.d (PhD)  
E-mail: mansur-yunus@mail.ru

*TDSHU professori, s.f.d S.Saidolimov taqrizi asosida*

### INCREASING THE ROLE OF PUBLIC RELATIONS IN THE STATE CIVIL SERVICE

Annotation

This article analyzes the development of public relations services in the public service, the effective use of mass media by civil servants to further increase communication with the people.

**Key words:** Public service, public relations, media, image, public administration, leadership, public civil service, public institution, power, press service, media literacy.

### ПОВЫШЕНИЕ РОЛИ СВЯЗЕЙ С ОБЩЕСТВЕННОСТЬЮ В ГОСУДАРСТВЕННОЙ ГРАЖДАНСКОЙ СЛУЖБЕ

Аннотация

В данной статье анализируется развитие службы по связям с общественностью на государственной службе, эффективное использование государственных служащих средств массовой информации для дальнейшего повышения коммуникации с народом.

**Ключевые слова:** Государственная служба, связи с общественностью, СМИ, образ, государственное управление, лидерство, государственная гражданская служба, государственное учреждение, власть, пресс-служба, медиаграмотность.

### DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALAR ROLINI OSHIRISH

Аннотация

Mazkur maqolada davlat xizmatida jamoatchilik bilan aloqalar xizmatini rivojlantirish, xalq bilan muloqotni yanada oshirishda davlat xizmatchilarining ommaviy axborot vositalaridan samarali foydalanish xususida tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlari:** Davlat xizmati, jamoatchilik bilan aloqalar, media, imij, ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi, rahbar kadrlar, davlat fuqarolik xizmati, davlat organi, hokimiyat, matbuot xizmati, mediasavodxonlik.

**Kirish.** Davlat fuqarolik xizmatida jamoatchilik bilan aloqalar xizmati rolini tahlil qilishda jamoatchilik bilan aloqalar "jamoatchilik bilan aloqalarni boshqarish" va "jamoatchilik bilan aloqalar" (PR) tushunchalari bilan bir xil. Bu ijtimoiy nazoratning bir turi. Insoniyat jamiyatida boshqaruv boshqa odamlarning manfaatlari, motivlari, ehtiyojlari va hayotiy maqsadlarini hisobga olmasdan mumkin emas. Bu tijorat va notijorat sektorlari, jumladan, davlat boshqaruvi uchun ham amal qiladi.

Ma'lumki, har qanday tashkilotda jamoatchilik bilan aloqalarni o'rnatish – ijtimoiy muhit bilan o'zaro samarador muloqotni yo'lga qo'yish va buning uchun qulay sharoit yaratishni nazarda tutadi. Bu, ayniqsa, davlat boshqaruvi organlari uchun juda muhim hisoblanadi. Chunki davlat xizmatining samaradorligi, birinchi navbatda, aholining hukumatga bo'lgan ishonchi va hurmati, qolaversa, davlat xizmatchilari va fuqarolarning o'zaro ishonchga asoslangan birgalikdagi harakati, ya'ni hokimiyat va jamiyatning har tomonlama yaqindan hamkorlik qila olishiga bog'liq. Davlatning fuqarolarga ta'sir o'tkazish qobiliyati ma'lum mexanizmlar bilan belgilanadi. Jamoatchilik bilan aloqalar esa, ushbu mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Jamoatchilik bilan aloqalar davlat hokimiyati va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi aloqalar tizimini, ya'ni ikki tomonlama vakolatli muloqotni ta'minlab berish uchun tashkil etiladi. Davlat xizmati ijtimoiy institut sifatida axborot berish, odamlarni qabul qilingan qarorlarning maqsadga muvofiq ekaniga ishonirish, ular bilan dialog o'rnatish va qaytma aloqani yo'lga qo'yish orqali hokimiyat va fuqarolik jamiyati o'rtasida vositachilik vazifasini o'taydi. Biroq muloqotning

maqsadi nafaqat xabar berish, ishonirish va mulohazalarni kuzatib borish, balki muammolarni hal qilishning eng samarali usullarini topishni ham nazarda tutadi.

Fuqarolar ko'pincha nazardan chetda qolgan yoki atayin e'tibor berilmayotgan muammolarni rasmiylarga ko'rsatib beradilar. Shuning uchun jamoatchilik bilan aloqalar doimo manfaatlar to'qnashuvini o'zida ifoda etib keladi. Bundan tashqari, jamoatchilik bilan aloqalarning yana bir muhim vazifalaridan biri fuqarolar hamda hokimiyat tizimlari o'rtasida o'zaro mos kelmaydigan manfaatlarni aniqlash va ularni bartaraf etish hisoblanadi.

Jamoatchilik bilan aloqalarni boshqarish metodologiyasi va metodikasini qo'llashi uchun rahbar kadrlar zamonaviy boshqaruv texnologiyalari va muammolari, boshqaruvning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish, asoslash va qaror qabul qilish, konsalting va audit, davlat idoralarida tahliliy boshqaruvni yo'lga qo'yish, tashkillashtirish va loyihalash nazariyasi, personalni boshqarish va axborot tahlilini yo'lga qo'yish kabi bilimlarga ega bo'lishlari lozim. Shuningdek, "Mamlakatning ichki axborot makonini isloh qilish, uni global makonining ajralmas qismiga aylantirish va shu bilan davlatning tashqi imidjini shakllantirishda milliy jurnalistika tizimi va milliy ommaviy axborot vositalari ishtirokini yangi, yanada yuqori bosqichga ko'tarish davr talabi".

Bundan tashqari, axborot makonidagi zamonaviy tendensiyalar boshqaruv kadrlarda axborot madaniyatini oshirish muammolarini ham kun tartibiga qo'ymoqda. Ayniqsa, jamoatchilik bilan aloqalar (PR) sohasining ayrim yo'nalishlarini boshqaruv kadrlarning axborot madaniyatini

yuksaltirish kontekstida qo'llash va buning uchun rahbarlarning OAV bilan ishlash borasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirishni davrning o'zi talab etmoqda. Chunki davlat boshqaruvi organlarida faoliyat yurituvchi rahbarlar o'z faoliyatida OAV bilan hamkorlikni keng yo'lga qo'ya olmagina jamiyatda barqarorlik hukm suradi. Bu esa, davlat boshqaruvining barcha darajadagi tizimlaridan OAV va blogerlarni o'z faoliyatlari bilan bog'liq axborotlardan tezkor va muntazam ravishda xabardor qilib borishni talab etadi. OAV xodimlari yoki blogerlar tashkilotga tashrif buyurishidan oldin ularga rahbariyat tomonidan matbuot kotiblari bilan hamkorlikdagi rasmiy shakldagi taklifnomalar (press-relizlar) yuborilishiga erishish samarali natijalarni beradi. Bunday yondashuv axborot makonida tashkilot faoliyati haqidagi salbiy axborotlarning tarqalishini oldini olish yoki bartaraf etishda muhim vosita rolini o'ynaydi.

“Ommaviy aloqalar” atamasining 500 dan ortiq ta'riflari mavjud. Qo'llaniladigan vositalarga ko'ra, ular siyosiy, iqtisodiy, sotsiologik, psixologik yondashuvlarga bo'linadi. Muloqot maqsadlariga ko'ra - altruistik, murosa va pragmatik yondashuvlar bo'yicha.

Davlat organlarida jamoatchilik bilan aloqalar biznes sohasidagi PR va PR bilan solishtirganda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu farqlar maqsadlar, manfaatlar, resurslar, mas'uliyat, usullar va muhitda. Davlat boshqaruvidagi SONing maqsadlari quyidagilardan iborat: jamiyatdagi jarayonlar haqida ma'lumot olish, fuqarolarni umumiy maqsadlar haqida xabardor qilish va fuqarolarni umumiy maqsadlarga erishishga hissa qo'shishga undash. Hokimiyat jamiyatning real ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda boshqaruv qarorlarini qabul qila olishi, jamiyat ularni faol qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga ega.

Davlat organlarida jamoatchilik bilan aloqalar bir martalik hodisa emas, balki davlat boshqaruvining mustaqil sohasi, jumladan, ilmiy-tadqiqot faoliyati, qonun ijodkorligi, tahliliy va kommunikatsiya makonini qurishdir. Bu faoliyat davlatdan professional yondashuv va katta e'tiborni talab qiladi, chunki umuman davlat boshqaruvi samaradorligi ko'p jihatdan uning muvaffaqiyatiga bog'liq.

Ijtimoiy hayotda davlat xizmatchilari va mansabdor shaxslari haqida keng jamoatchilik tomonidan “qobiliyatsiz”, “qonunlarni bilmaydi”, “korrupsiyaga botgan”, “ijro intizomiga rioya etmaydi” va “xalq bilan ayro holda ishlaydi” mazmunidagi fikrlar ko'p marotaba tilga olinadi. Bunday sharoitda odamlar oldida ishonch, obro'ga ega bo'lish, davlat xizmati va uning rahbarlarining ijobiy qiyofasini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Rahbar o'z faoliyatini samarali tashkil etishi uchun o'z xodimlari va aholi bilan ishlash borasida zarur kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim. Tashkilot yetakchisi qiyofasini shakllantirish usullari va texnologiyalari borasidagi bilimlarini mustahkamlashi lozim.

Mansabdor shaxslar imijini shakllantirishning asosiy manbai sifatida OAV va ommaviy kommunikatsiya vositalarini ajratib ko'rsatish muhim ahamiyatga ega. Chunki aholi aynan ular orqali mansabdor shaxslar faoliyati haqidagi axborotlarni bilib oladilar. Kommunikativ munosabatlar rivojlangan zamonaviy jamiyatda shaxsiy omil hukmronlik qiladi va siyosiy rahbarni tanlash muammosi OAVda e'lon qilingan ma'lumotlar ta'sirida hal etiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** «Imij» atamasi XX asr boshida AQSHda paydo bo'lgan. Dastlabki «imijmeyker»larga dunyo madaniyatini zabt etish va jahonda andoza bo'la oladigan mamlakatning ijobiy imijini yaratish vazifasi yuklatiladi. Mamlakat prezidenti va birinchi xonimining imij andozasi ishlab chiqilgan. Ayni shu paytlarda «amerikacha hayot tarzi» tushunchasining paydo bo'lishi, imijmeykerlarda «butun dunyoni egallash» falsafasini yuzaga keltirgan va shaxsning imijini shakllantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan... «Imij» so'zi ilmiy tushuncha sifatida

ishlatilayotganiga hali ko'p bo'lmagan bo'lsada, noaniq talqin qilinadi. Bir guruh tadqiqotchilar imijni auditoriya, zamon va makon istiqbollari hisobga olgan holda shakllantirish kerakligini ta'kidlaydilar. Boshqa bir guruh olimlari esa, odamlarning ongi va xatti-harakatini manipulyatsiya qilish vositasi sifatida imijni shakllantirish etika me'yorlariga to'g'ri kelmasligi haqida bahs qiladilar. Bu tushuncha psixologik bilimlarning ko'p qirralarini o'zida birlashtirib, psixologiya, siyosatshunoslik, pedagogika kabi fanlarning turli tarmoqlarida ishlab chiqilgan. Imij nafaqat ko'riladigan obraz, balki shakl va mazmun jihatidan ichki va tashqi yaxlitlikning bir in'ikosi sifatida ham tushuniladi. Ijobiy imijni shakllantirish ko'p mamlakatlar hukumatlari intilishlarining muhim bir bo'laki bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda imijga ayniqsa, siyosiy faoliyatda talab kuchaymoqda” [1].

**Tadqiqot metodologiyasi.** OAVdagi mansabdor shaxs imiji deganda, ommaviy ong streotiplari, turli axborotlar, televideniye va radiodagi tahliliy dasturlar, matbuotdagi bosma maqolalar hamda siyosiy reklama asosida shakllangan fazilatlar, xususiyatlarning murakkab birikmasi tushuniladi. Demak, OAV mansabdor shaxsning imiji va obro'sini shakllantirishda faol ishtirok etadi. Ommaviy kommunikatsiyalar rivojlanishi va ularning mansabdor shaxslarning xalq bilan o'zaro aloqa vositasi sifatida maydonga chiqishi natijasida siyosiy kommunikatsiyani teatr sahnasiga aylantirdi, ya'ni manfaatlar to'qnashuvi deganda, tomoshabinlar nazarda tutila boshlandi. Televideniye texnik va badiiy vositalari axborot tarqatishning hujjatli janridan reklama elementlarini o'z ichiga oluvchi uslubni qo'llash imkoniyatini yaratdi. Obro'si baland bo'lgan axborot kanallarida chiqish murakkabligi bois OAV jamiyat ko'proq ishonch bildiradigan, imij yaratish mexanizmi hisoblanadi. Bundan tashqari, ma'lumotlarning takrorlanishi, sifati, ishonchliligi va haqiqatga yaqin ekanligini har kim, har doim ham aniqlay olmaydi [2].

Tashkilotning matbuot xizmati auditoriyaga ta'sir o'tkazish uchun keng maydon bo'lgani bois undan katta natijalar kutiladi. Ushbu xizmatning har qanday faoliyati tashkilotning imijini yaxshilashga olib kelishi lozim. Ammo tajribadan ma'lumki, matbuot xizmati har doim ham kutilgan natijaga erisha olmaydi. Sababi axborot maydonidagi turfa xil fikrlar hamda manfaatlar to'qnashuvi, shuningdek, davlat xizmatlari faoliyati sifatiga bo'lgan talab kundan-kunga ortib borishi tashkilot va rahbar imijini yaratuvchi mutaxassislardan PR – jamoatchilik bilan aloqalar texnologiyalarini qo'llash bo'yicha ko'proq malakaga ega bo'lishni talab etmoqda.

**Tahlil va natijalar.** Matbuot xizmati – davlat muassasasi yoki davlat organining bo'linmasi bo'lib, ushbu tashkilotning OAV bilan o'zaro aloqalarini tashkil etish vazifasini amalga oshiradi. Ushbu faoliyatni amalga oshirish uchun matbuot xizmati press-relizlar tayyorlash, matbuot anjumanlarini tashkil qilish, telefon yoki internet orqali zarur maslahatlashuvlarni yo'lga qo'yish kabilar bilan shug'ullanadi.

Ma'lumki, PR (Public Relation), ya'ni jamoatchilik bilan aloqalar jamoat tashkilotlari bilan notijorat xarakterdagi aloqalar tizimini ifodalaydi. PR – imidji shakllantiriladigan subyektning jamoatchilik oldida obro'sini oshirish va u bilan aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar majmuasi hisoblanadi.

Xorij tajribasidan ma'lumki, jamoatchilik bilan aloqalar yo'lga qo'yish chora-tadbirlari siyosat va biznes yo'nalishlarida samarali amalga oshiriladi. Shu bilan birga, PRdan davlat xizmatining ijobiy imidjini yaratishda ham keng qo'llaniladi.

Ingliz tilidan olingan “Public Relations” (Pablik rileyshnz – PR, piar) atamasi – “Jamoatchilik bilan aloqalar”, “Ommaviy aloqalar”, “Jamoatchilik bilan munosabatlar” degan ma'nolarni anglatadi. Bu ibora ilk bor AQSHning

uchinchi prezidenti Tomas Jefferson tomonidan qo'llanilgan. U 1807-yili o'zining "Kongressga yettinchi murojaati"da ushbu atamani birinchi marta qayd etgan. Bundan maqsad, o'sha davrda hukumatning jamoatchilik bilan aloqalarini davlat darajasiga ko'tarish, ilmiy-tashkiliy jihatdan yo'lga qo'yish edi.

PR asoschilaridan biri Edvard Bernayz ushbu iboraning mohiyatini "jamiyat manfaatlarini yo'lidagi harakatdir", deb ta'riflagan. Demak, "AQSHda piarning paydo bo'lishi bevosita siyosiy jarayonlar mahsuli" bo'lgan. Ikkinchi jahon urushidan so'ng ijtimoiy institut sifatida maydonga chiqqan PR xalqaro miqyosda o'rin tutgan. 1974-yili piar xalqaro ijtimoiy institut sifatida tan olindi, bu paytda YEPR – Yevropa publik rileyshnz assotsiatsiyasi BMT tarkibidagi iqtisodiy va ijtimoiy kengashning maslahatchi organi sifatida qayd qilingan.

Jamoatchilik bilan aloqalar o'z maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda;

- jamoatchilikning fikrini o'rganadi;

- jamoatchilik harakatini kuzatadi;

- tashkilot bilan jamoatchilik o'rtasida ikki tomonlama manfaatni ta'minlashni nazarda tutadi.

PR-xizmatlari faoliyatining asosiy maqsadi – maqsadli auditoriyaning ishonchiga kirish. Buning uchun soha mutaxassislari maqsadli auditoriyada shakllangan salbiy stereotiplar bilan ish olib boradilar. Xususan, salbiy stereotiplar haqidagi ma'lumotlarni to'playdilar, ularning ro'yxatini shakllantiradilar va reja tuzadilar. Muayyan auditoriyaning e'tirozlari bilan qanchalik yaxshi sifat bilan ishlansa, samarali natijaga erishish ehtimoli yuqori bo'ladi.

PR-muloqot doirasida tashkilot va tashkilotning birinchi rahbari haqida ijobiy imij yaratish uchun OAV bilan matbuot xizmatlari, matbuot markazlari, matbuot kotiblari, press-byurolar, PR bo'limlari va boshqalar orqali tashkiliy munosabatlarni yo'lga qo'yish mediarileyshnz (media relations) deb ataladi. Ko'pincha jamoatchilik bilan aloqalar borasidagi atamalarini qo'llashda xatolikka yo'l qo'yilib, OAV bilan aloqalarni PR deb atashadi. Bu unchalik to'g'ri emas. Media relations – PRning bir qismi bo'lib, OAV bilan uzluksiz ikki tomonlama axborot almashinuvini ta'minlaydi. PR esa, barcha mavjud aloqa kanallaridan foydalangan holda axborot mazmunini boshqarish va tovar yoki xizmat turi obro'sini shakllantirish hamda himoya qilishga qaratilgan harakatlar majmuini ifoda etadi.

OAV orqali PRni tashkil qilishni ta'minlan 3 turga bo'lish mumkin:

- samarali PR; korporativ PR; -inqirozga qarshi PR.

Samarali PR tovar yoki xizmat turini iste'molchiga taqdim qilish bilan bog'liq barcha aloqalarni o'z ichiga oladi. Uning asosiy maqsadi tovar yoki xizmat turining sifati, afzalliklari, imkoniyatlari va boshqa xususiyatlari to'g'risida iste'molchiga zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni taqdim etishni nazarda tutadi. Yuqori sifatli mahsulot yoki xizmat turi PR faoliyatini rag'batlantiradi va axborot makonida mahsulot yoki xizmatning ijobiy imijini yaratish uchun yordamchi aloqa vositasini bajaradi. Ta'kidlash lozim, davlat boshqaruvi organlarida faoliyat yuritayotgan rahbarlarning ijobiy imijini yaratish borasida ham aynan ushbu holatni e'tibor olish muhim o'rin tutadi.

Korporativ PR tashkilotning ijobiy imijini saqlash va rivojlantirishga qaratilgan axborotlar oqimini yaratadi.

Inqirozga qarshi PR ikkita kichik turga bo'linadi: proaktiv va reaktiv. Proaktiv yondashuv inqiroz paydo bo'lishini kutish bilan bog'liq harakatlar majmuini ifoda etadi. Reaktiv yondashuv esa, allaqachon paydo bo'lgan inqirozni lokalizatsiya qilish va zararsizlantirishni nazarda tutadi. Buning uchun OAV tashkilot yoki uning rahbari haqidagi salbiy ma'lumotlarning tarqalishiga qarshi turish metodlari qo'llaniladi.

PR yoki axborot xizmatining vazifasi tashkilot va uning rahbarini nafaqat mashhur qilish, balki ularni unitilmasligiga ishonch hosil qilishni nazarda tutadi. Ya'ni davlat boshqaruvi organlari va ularning rahbarlari haqida ijobiy imij shakllantirish uchun tashkilot rahbari va xizmat turlariga bo'lgan odamlarning ishonchini qozonish va mana shu ishonchning yo'qolmasligi kafolatlanishi lozim.

PR-xabarnomasidagi eng muhim faktlar OAVga birinchi yuboriladi. Chunki teletranslyatsiya va bosma materillar tahrir qilinishi va qisqarishi mumkin. Muayyan vaziyat haqida taqdim qilinadigan ma'lumotlar ishonchli va belgilangan talablarga javob berishi lozim bo'ladi. OAVning, ular orqali jamoatchilikning tashkilot, rahbar va xodimlarga bo'lgan ishonchi shunga bog'liq bo'ladi.

Shuningdek, tashkilotni chetlab o'tib, ma'lumot olish mumkin bo'lgan jurnalistik tekshiruvlarni ham unutmash lozim. Buning uchun turli mustaqil (yoki raqobatchi) OAV o'rtasida eksklyuziv axborot tarqatish bo'yicha aloqalarni yo'lga qo'yish muhim o'rin tutadi. Biroq ushbu yo'nalishda ish olib borishda muvozanatni saqlashni bilish kerak bo'ladi. Bundan tashqari, eksklyuzivlik har doim o'z hurmatiga ega bo'lishi lozim, aks holda u o'z ma'nosini yo'qotadi.

Tashkilotning media siyosati oldindan tuzilishi kerak. Lekin OAV bilan ishlash rejasi moslashuvchan, qisqa fursatdagi tezkor tuzatishlarga chidamli bo'lishi lozim. Aks holda tashkilot muayyan OAVga qaram bo'lib qolish ehtimoli mavjud. Media relations tashkilot emas, jamoat manfaatlarini nuqtai nazaridan kelib chiqib yo'lga qo'yilishi kerak. Shuning uchun OAVda keng miqyosli tadbirlar, ijtimoiy ahamiyatga ega maxsus yo'naltirilgan axborot vaqtlarini tanlash talab etiladi. Har doim (favqulotda vaziyatlardan tashqari) cheklangan miqdordagi nashrlar bilan maslahatlashish va mahalliy xususiyatlarni hisobga olish tavsiya etiladi.

Media relationsni amalga oshirishda barcha OAV davriy xarakterga ega bo'lgani bois materiallarning yuborilishi hamda ularning e'firga chiqishi, chop etilishi bilan bog'liq vaqtni eslab qolish va kuzatib borish muhim. Shuningdek, OAV uchun intervyular, suhbatlar, matbuot anjumanlari va boshqalarni tashkillashtirishda tashkilot va uning rahbariyatiga yoqadigan yoki yoqmaydigan, kutilmagan savollarni oldindan aniqlash hamda ularga mos javoblarni berishga tayyorlanish lozim. Bunday vaziyatlarda oldindan tayyorlangan savollarga javob bergan ma'qul, lekin umuman "izoh bermaslik" holatidan qochish kerak. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda OAV bilan ishlarni tashkil qilish vazifasi alohida bitta PR xodimiga yuklatilishi zarur. Media relations bilan shug'ullanadigan PR mutaxassisi OAV bilan ishlash reglamentiga amal qilishni bilishi ushbu yo'nalishdagi ishlarni yengillashtiradi, press-relizlarni OAVga materiallarni qabul qilish muddatidan oldin topshirish imkonini beradi va bu ularning dolzarbligini oshiradi.

OAV bilan yanada samarali faoliyatni yo'lga qo'yish uchun og'zaki muzokaralar olib borishga, o'z g'oyalarini ilgari surishga intilgandan ko'ra, tayyor materiallarni taqdim qilish afzalroqdir. Shuningdek, OAVga taqdim qilinayotgan axborot mazmunidagi materiallarda aniq manzil ko'rsatilishi lozim. Jurnalistlarning xatolariga tanlov nazari bilan qarash kerak. Kichik xatolarni sharhlash, ayniqsa, ularni ommaviy shaklda rad etish shart emas. Chunki axborot iste'molchilari kichik noaniqliklarga unchalik e'tibor berishmaydi, lekin ularga berilgan izoh, qo'shimcha ma'lumot va raddiyalarga diqqatli bo'lishadi.

Axborotni to'g'ri qabul qilishga halaqit beruvchi jiddiy xatolarga yo'l qo'yilsa, unda materialni tayyorlagan muharrir yoki jurnalist bilan suhbatlashish, tahririyatga xat yuborish lozim. Bunday xatda, albatta, e'lon qilingan maqola sanasi va nashr sahifasi, undagi noto'g'ri axborot, to'g'ri ma'lumotlar, xat muallifining ismi va lavozimi yozilgan bo'lishi kerak.

PR ma'lumotlarining OAVga manzilli ravishda to'g'ri tayyorlanishi muhim o'rin tutadi. Chunki OAVning barchasi sipetsifik nuqtai nazardan muammolarni turli rakursdan o'rganadi. Shuning uchun ular o'z tomoshabinlari, tinglovchilari va o'quvchilarini qiziqtiradigan materiallarga muhtoj bo'ladi. Bundan tashqari, ularning har birida qabul qilinadigan materiallarga nisbatan maxsus talablarga ega bo'ladi.

Axborot xizmati bilan OAV xodimlarining umumiy vazifalari bor. Bular: axborot to'plash va tarqatishdir.

Bu jihatdan ularni raqobatdosh, deyish ham mumkin. Faqat, bu vazifalarni ular turli usullar bilan amalga oshiradi. OAV xodimlari har doim hayot bilan hamqadam bo'lib, eng zarur axborotlarni to'plashga va ularni tezkorlik bilan tarqatishga harakat qiladilar.

Axborot xizmati esa o'rni kelganda shunday tezkorlik bilan tarqatishi mumkin (masalan, saylovlar davrida Markaziy saylov komissiyasi Axborot xizmati o'ta tezkorlik, hozirjavoblik bilan muhim axborotlarni tarqatadi). Boshqa paytlarda ko'proq vazminlik, sermulohazalik bilan ish yuritishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, Axborot xizmati tashkilotning ma'lumotlarini aniq, asosli, muhim jihatlarini tahlil etgan holda taqdim etishi talab etiladi.

Axborot xizmatining o'ziga yarasha boshqa vazifalari (funktsiyalari) ham bor, albatta. Bular tashkilotning jamoatchilik bilan aloqalarini yo'lga qo'yish bilan bog'liq vazifalardan.

Jamoatchilik bilan aloqalar (ya'ni, PR) Axborot xizmatining nazariy asoslaridan biri hisoblanishi haqida yuqoridagi mavzularda batafsil to'xtalgan edik. Yana shuni eslash o'rinliki, nazariyotchilar fikricha, PRning 500 dan ortiq talqini bor. Soha mutaxassisi Georgiy Pochepsov bu masalaga shunday oydinlik kiritgan: "Bizda PR xizmati emas, aynan axborot xizmati, deb atash maqsadga muvofiqdir".

Demak, amaliyotda "PR xizmati" va "Axborot xizmati" atamalarini sinonim sifatida ham qo'llashimiz mumkin.

Modomiki, PR xizmati va Axborot xizmatini uyg'un holda tushunish mumkin ekan, ularning prinsiplari ham bir-

biri bilan chambarchasdir. Bu prinsiplarni amerikalik olimlar Dag Nyusom, Alan Skott, Jady Vanslayk Turk "PR: jamoatchilik bilan aloqalarning samaradorligi" kitobida keng sharhlaganlar. Nazariy va amaliy jihatdan qaralganda ushbu prinsiplar Axborot xizmati faoliyatida muhim o'rin tutadi.

Ya'ni: – Axborot xizmati xodimi jamoatchilik bilan aloqalar jarayonida har bir faktning aniq va to'g'riligini bilishga erishishi lozim.

– Jamoatchilik bilan aloqalardan asosiy maqsad – idoraviy manfaatlar emas, jamoatchilik manfaati. Axborot xizmati xodimlari faqat idora manfaatlarini ko'zlab ish qilsalar, jamoatchilik e'tiboridan tushib qolishadi. So'ng, jamoatchilik ularni hech qachon qo'llab-quvvatlamaydi, faoliyati bilan qiziqmaydilar va ular bilan aloqada bo'lmaydilar.

Birinchi o'rinda jamoatchilik manfaatlarini o'ylash kerak. O'shanda ham bu idora o'z maqsadiga to'liq erishmaydi. Chunki, jamoatchilik shu idoraning axborotini eshitadi, qabul qiladi va shu informatsiya doirasida ish qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda Jamoatchilik bilan aloqalar o'rnatayotgan tashkilot o'z faoliyati davomida shunday ish qilishi kerakki, uning dasturlari jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otsin. Axborot xizmati jamoatchilikka shuni ko'rsata olishi kerak. Ya'ni, jamoatchilik shu tashkilot faoliyatiga qiziqsagina unga e'tibor beradi. Aks holda, u haqda yetarlicha axborot yoki ma'lumotga ega bo'lmasa, jamoatchilik unga e'tibor qilmay qo'yadi.– Axborot xizmati xodimlari butun faoliyatlarini OAV bilan hamkorlik asosida yo'lga qo'yishi zarur. Ular OAV xodimlariga hech qachon noto'g'ri, ishonchsiz ma'lumot bermasligi lozim. Agar radio, televideniye yoki gazetaga xato ma'lumot bersa, bundan juda katta zarar ko'radi.

Axborot xizmati jamoatchilik bilan aloqalarni yo'lga qo'yar ekan, shu aloqa samarali bo'lishi uchun jamoatchilikning ijtimoiy fikrini muttasil o'rganib borishi kerak. Axborot xizmati xodimi ijtimoiy fikrning ichiga kirib borishi zarur. Odamlar nima haqida o'ylayapti, ularning faoliyati haqida qanday fikrlarga ega va hokozolar haqida aniq bilishi dardkor.

#### ADABIYOTLAR

1. Michael Johann, Cornelia Wolf, Alexander Godulla, Managing relationships on Facebook: A long-term analysis of leading companies in Germany. *Public Relations Review*, Volume 47, Issue 3, 2021.
2. Magnus Fredriksson, Josef Pallas, Much ado about media: Public relations in public agencies in the wake of managerialism. *Public Relations Review*, Volume 42, Issue 4, 2016, Pages 600-606.
3. Zerfass A., Verčič D., Wiesenberg M., The dawn of a new golden age for media relations?: How PR professionals interact with the mass media and use new collaboration practices, *Public Relations Review*, Volume 42, Issue 4, 2016, Pages 499-508.
4. Charis Rice, Ian Somerville, Power-sharing and political public relations: Government-press relationships in Northern Ireland's developing democratic institutions, *Public Relations Review*, Volume 39, Issue 4, 2013, Pages 293-302.
5. Wolf D. (2015). *Public Relations in China*. doi:10.1057/9781137483812.
6. Watson T. (Ed.). (2014). *Eastern European Perspectives on the Development of Public Relations*. doi:10.1057/9781137404268.